


10

*Jorj Simenon*

KOMISSAR  
MEGRE





**JAHO**

**SARGUZASHT**

**ADABIYOTI**



e la reconnaissance de leur  
-prendre l'intérêt de les  
-moire de la création.  
-tété est ce qu'elle  
ne retient et ce

salre e  
san


**JORJ SIMENON**  
**KOMISSAR  
MEGRE**

*Romanlar*

*Ruschadan  
Nizom Komil  
tarjimasi*



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK kompaniyasi  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2019



UO'K 821.512.133-3  
KBK 83.34(Fr)  
S-37

T a h r i r h a y' a t i:

Otabek G'ULOMOV (*rahbar*), Ahror AHMEDOV (*rahbar o'rinbosari*), Ravshan JUMABOYEV, Nosirjon JO'RAYEV, Alisher IBODINOV, Nizom KOMILOV, Tohir MALIK, Erkin MALIKOV, Anvar OBIDJON, Xudoyberdi TO'XTABOYEV, Erkin USMONOV, Barnobek ESHPO'LATOV (*hay'at kotibi*).

R a s s o m l a r:

*Mixail Samoylov*

*Aleksandr Petrov*

S-37 **Simenon, Jorj**

Komissar Megre: Romanlar. /Jahon sarguzasht adabiyoti — T.: «Sharq», 2019. — 400 b.

ISBN 978-9943-26-472-4

UO'K 821.512.133-3  
KBK 83.34(Fr)

ISBN 978-9943-26-472-4

## IZQUVARNING IZIDAN

Ishonchimiz komilki, ko'pchilik detektiv ishqibozlari muayyan asarga yozilgan «so'zboshi»ni ham, «so'nggi so'z»ni ham o'qishmaydi. Chunki ular shu tobda o'zlarini qiziqtirayotgan savolga baribir javob topa olmasliklarini biladilar. Xo'sh, Jorj Simenonning ushbu kitobini, aytaylik, «Megre va vinofurush» romanini mutolaa qilgan o'quvchini birinchi navbatda nima qiziqtiradi? Sezib turibmiz, hozir siz: «Jilber Piguning keyingi taqdiri nima bo'ldiykin?» deb o'zingizcha bosh qotirmoqdasiz. Mabodo: «Bu savolga javob berishdan o'jizmiz» desak, «Ana, aytmaganmidim!» deya chuqur uf tortasiz. Lekin ming afsuski, hafsalangizni pir qilishga majburmiz — rostdan ham, shu tobda sizni qiynayotgan savolga baribir qoniqarli javob qaytarolmaymiz. Negaki:

1. Detektiv mavzusidagi har qanday badiiy asar sud yoki prokuratura mahkamalaridagi, jinoiy qidiruv bo'limlaridagi «shaxsiy delo»lardan butunlay farq qiladi — haqiqatni iskovich itlar yoki moddalarni to'tiqushdek yodlab olgan «ola tayoqlar» emas, balki aql-idrokli qahramonlar aniqlaydilar.

2. «Megre va vinofurush» romani J. Piguning qo'liga kishan solinishi bilan yakunlanadi. «Jilber Piguning keyingi taqdiri nima bo'ldiykin?» degan savolga Jorj Simenonning navbatdagi romanidan javob topish mumkin edi. Jillaqursa, yozuvchi yangi asarida yo'l-yo'lakay komissar Megrening o'tmishdagi xizmatlari qatorida «bir qotil»ni o'lim jazosidan qutqarib qolganini eslatishi ehtimoldan xoli emas edi. Ammo J. Simenon yangi romanini nihoyasiga yetkazmadi: 1972-yilning oxirlarida u ijodiy ishlardan sovidi, bezib qoldi. Keyinchalik u roman yozishni butunlay yig'ishtirib qo'yganini rasmiy ravishda e'lon qildi. Shunday qilib,

«Oskar» deb atalgan yangi romani chala-yarim holida yozuv stolida qoldi.

Jorj Simenon badiiy asar yozishni bas qilgan bo'lsa-da, umrining qirq yildan oshiqroq davrini o'zi o'ylab topgan personajlar «ichida» yashashdan, dunyoga ularning nigohi bilan qarashga sarflashdan zerikkaniga qaramay, «og'zaki kitoblar» yaratishdan — diktofonga qarab so'ylashdan charchagani yo'q: u o'n yil mobaynida o'zi bilan o'zi gaplashib, «keksa kishining oxirgi ermagi bilan o'zini ovutib» (Jorj Simenonning iborasi) o'tirib, so'ng magnitofon lentasiga yozilgan xotiralarini shaxsiy kotibalari yordamida qog'ozga ko'chirib, ustidan baholi qudrat tahrir qilib yigirma bitta xotiralar kitobini chop etdi.

Jorj Simenonning xotiralari o'z shakl-shamoyili, mazmuni jihatidan odatdagi «tarjimayi hol»larga mutlaqo o'xshamaydi. Yozuvchi ba'zan o'zining hayoti, boshidan kechirgan og'ir kunlar haqida batafsil so'zlaydi. Baxtsizligidan noliydi. Ayniqsa, vasvos kasaliga muhtalo bo'lgan suyumli qizi Mari-Jo 1978-yili o'zini o'zi o'ldirgandan keyin otaning qaddi qattiq bukildi.

U Marini nihoyatda qobiliyatli bo'lganini, nozik ko'ngil ekanini, kelajakda balki shoirmi, san'atkormi bo'lajagini bot-bot takrorlaydi. Nadomatlar bo'lgaykim, o'n gulidan bir guli ochilmagan qizginasidan faqat so'nggi vasiyati yozilgan bir parcha qog'oz qoladi, xolos: «O'lganimdan keyin mening jasadimni kuydirib, xokimni bog'imizdagi maysalar ustiga sepinglar!»

Bundan tashqari, Simenon uzoq yillik hayotiy tajribalari asosida poyoniga yetgan haqiqatlarni, yuragining tubiga cho'kib qolgan dardlarni temirtan suhbatdoshiga aytishga harakat qilyapti. Ayni paytda dunyodagi barcha xalqlarni birdek tashvishlantirayotgan urush va tinchlik masalasiga aktiv aralashmoqda, qurollanish poygasini keskin qoralamoqda.

Demak, yuqoridagi gaplardan ma'lum bo'ldiki, sizning xayolingizni chulg'ab olgan savolga («Jilber Piguning keyingi taqdiri nima bo'ldiykin?») baribir qoniqarli javob qaytarolmaymiz. Chunki sud qanaqa hukm chiqarajagini komissar Megre biladi, xolos. Ammo taqdir hazilini ko'ringki, xuddi siz-u bizga o'chakishgandek komissar Megre ham iste'foga chiqib o'tiribdi. Nahotki Megre pensiya yoshiga yetgan bo'lsa? U Jinoyat qidiruv politsiyasida qachon ish boshlagan edi o'zi?

1930-yili havaskor qalamkash (u turli-tuman gazetalarga ilova tarzida yoki alohida kitob holida chop etiladigan to'plamlarga oldi-qochdi mavzularda ikki yuzdan ortiq «ishqiy dostonlar» yozib bergan edi) Jorj Simenon Parijdagi «beli baquvvat» noshirlardan sanalmish Fayyarga Jinoyat qidiruv politsiyasining oddiy inspektori Jyul Megre haqidagi dastlabki romanini o'qitib ko'radi. Qo'lyozma bilan tanishgan noshirning ensasi qotadi: chunki Simenonning asari ko'p yillardan buyon o'zi o'qiyverib o'rganib va o'quvchilar kitob do'konlaridan talashib-tortishib xarid qilib oladigan detektiv romanlarga unchalik o'xshamasdi. Lekin noshir Simenonning romani an'anaviylikdan yiroq bo'lgani uchun muallifning yuziga eshik yopmaydi. Hatto muallifga: «Asaringizni yaxshi tushunmadim, balki o'zingiz tushuntirib berarsiz, a?» deb, kesatiq ham qilmaydi. «Bo'pti, tavakkal qilamiz, og'ayni! Mana shu yo'sinda yana uch-to'rtta roman yozing-chi, biz hammasini kelasi yili nashr qilib, baxtimizni sinab ko'ramiz. Lekin kitobingiz inqirozga uchrasa, nashriyotga xarajat haqini to'laysiz!» deydi. 1931-yilda shartnoma bo'yicha «Fayar» nashriyoti Jorj Simenonning beshta romanini kitob holida chop etadi. O'z-o'zidan ravshanki, Simenonning kitobi tez kunlarda sotilib ketadi. Bundan ilhomlangan yosh yozuvchi zo'r berib Parijdagi politsiya boshqarmasida... hayotni o'rganadi va uch yarim yil



mobaynida Megre haqida o'n to'qqizta roman yozadi. Kezi kelganda bir narsani aytib o'tish kerak shekilli: politsiyachilar orasida Megrening prototipi yo'q edi. Megre — Simenonning xomxayoli, orzusi, armonidir. Ma'lum bo'lyaptiki, Megre Jinoyat qidiruv politsiyasida 1931-yildan to 1972-yilgacha halol xizmat qilgan — qirq yildan ortiq mehnat stajiga ega. Boshqacha qilib aytganda, bu davr ichida Jorj Simenon Megre haqida saksonta roman yozdi. Megre esa oddiygina politsiya inspektori darajasidan to eng og'ir jinoyatlarni fosh qiladigan qidiruv brigadasining komissari lavozimigacha ko'tarildi.

Fransuz yozuvchilari azal-azaldan mahsuldorliklari bilan mashhur. Lekin Onore de Balzak, Viktor Gyugo, ota-bola Dyumalar, Emil Zolya, aka-uka Gonkurlar ham mahsuldorlik «musobaqa»sida Jorj Simenonning changida qolib ketishdi: u hammasi bo'lib 214 ta roman yozdi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, shulardan saksontasi komissar Megrega bag'ishlangan. Umuman olganda, Megre haqidagi romanlar Jorj Simenon nomini jahonga tanitdi. Simenon yaratgan komissar Megrening bu qadar tillarda doston bo'lib ketishiga sabab nima?

J. Simenon suhbatlarining birida: «Samaradorlikka intiladigan har qanday yozuvchi duch kelgan joydan rang-baranglik qidiradi. Meni esa o'xshashlik ko'proq o'ziga tortadi. Men omonat o'lchovlarga emas, sobitlikka, abadiyatga — turli-tuman mamlakatlarda yashaydigan odamlar uchun bir xil bo'lgan mezonlarga qiziqaman», degan edi. Ehtimol, Simenon nazarda tutayotgan «mezonlar»dan bittasi EZGULIK deb atalar? Balki, uning yana bitta nomi ADOLATdir? Darhaqiqat, komissar Megre doimo ezgulikni — «ko'zlari nam yaralgan» ezgulikni himoya qiladi, adolat uchun tinmay kurashadi. Va oxir-oqibatda u hisobchiga qarab: «Sizga

ishonishadi, — deydi sekingina, — lekin qoidasi shunaqa. Yetib borganlaringizdan keyin kishanni yechib olishadi». Albatta, qamoqxonada o'tirgan mahbusning qo'lini kishanlab qo'yish shart emas. Lekin qonun oldida komissar Megre ham o'zini nochor sezadi. U o'zi istamagan holda qotillikka qo'l urgan Jilber Piguga tasalli berish bilan cheklanadi, xolos. Ijtimoiy adolatsizlikka barham berishdan Megre ham o'jiz. Qirq yil davomida mazlumlar, o'jiz kimsalar yiqilsa — suyak, qoqilsa — turg'azib kelgan komissar Megre nihoyatda holdan toyadi, arang oyoqda turadi. Chunki YOVUZLIKning ijtimoiy ildizini topadi — bu TENGSIKLIK edi. Shubhasizki, «turli-tuman mamlakatlarda yashaydigan odamlar» tengsizlikdan bir xil azoblanadilar. Shuning uchun ham dunyodagi barcha mazlum xalqlar komissar Megreni sevadilar.

Ba'zi bir atoqli so'z san'atkorlari ko'z ko'rib, quloq eshitmagan dahshatli voqealarni hikoya qiladigan detektiv yozuvchilarga mensimay qaraydilar. Jumladan, ulug' rus yozuvchisi L.N. Tolstoy fojiviy voqealarni detektiv tarzda hikoya qiladigan I. Goffmanning asarlarini o'qigach: «Doim qo'rqitmoqchi bo'ladi-ya, yaramas. Lekin men sira ham qo'rqmayman», degan edi darg'azab bo'lib. Jorj Simenon ijodiga esa Andre Morua, Fransua Moriak singari atoqli yozuvchilar yuksak baho berishgan. Amerikalik mashhur san'atkor, xalqaro Nobel mukofotining laureati Uilyam Folkner esa: «Simenon asarlari nimasi bilandir menga Chexov hikoyalari eslatadi», degan edi.

Albatta, Jorj Simenon asarlarida komissar Megre obrazi paydo bo'lishi bilan detektiv janrida tubdan qayta qurish boshlandi, deya olmasak-da, lekin bu borada sezilarli o'zgarishlar ro'y berganini qayd etmoq darkor. Chunonchi, komissar Megre mashhur ingliz yozuvchisi Artur Konan-Doyl yaratgan afsonaviy

*Sherlok Xolmsdek faqat jinoyatga, aniqrog'i, qotillikka aloqador ko'z ilg'amas dalil-isbotlarni topish bilan cheklanib qolmaydi. U ko'pincha insoniyatning yuqori tabaqalari va ularning tuban axloqi bilan to'qnashadi. Mana shu to'qnashuv jarayonida sarmoyador kimsalarining asl basharalari namoyon bo'ladi. Mehnatkash xalq vakillari esa doimo ma'naviy jihatdan nihoyatda boy ekanliklarini isbotlaydilar. «Qozonga yaqin yursang qarosi yuqar» deganlaridek, ba'zan «o'z kuchi bilan kun ko'radigan» mehnatkashlarga-da jamiyatning illati tegadi. Jorj Simenon o'z romanlarida hayotni butun murakkabliklari bilan tasvirlashga intiladi. Shu jihatdan olib qaralsa, ushbu kitobdan o'rin olgan «Majestik» mehmonxonasidagi qotillik» romani, ayniqsa, diqqatga sazovordir.*

*Simenon o'n yil mobaynida Shimoliy Amerikada — dastlab AQSHda, so'ng Kanadada istiqomat qilgan. 1955-yildagina Shveysariyaga butunlay ko'chib keladi. Ikkinchi jahon urushi arafasida Simenon Amerika Qo'shma Shtatlarida sevib o'qiladigan yozuvchilardan biri edi. Hatto AQSHning o'sha paytlardagi prezidenti Franklin Ruzvelt ham... komissar Megrening muxlisi bo'lgan ekan. Kunlarning birida prezident o'zini qo'riqlaydigan polismenlarga komissar Megre haqidagi romanlarni taqdim etadi va: «Bu kitoblarni o'qinglarda, unda yozilgan metodlarni o'rganinglar!» deydi. Shundan keyin noshirlar kimo'zarga Simenon romanlarini chop eta boshlashganini tasavvur qilish unchalik qiyin emas, albatta. Lekin insof yuzasidan tan olish kerakki, F. Ruzvelt komissar Megrening muxlisi bo'lmagan taqdirda ham Simenon baribir Amerikani ertami-kechmi zabt etishi aniq edi. Chunki u urushdan keyin Amerikaning turmush tarzi bilan yaqindan tanishdi, o'zining bir qancha romanlarini sivilizatsiya «gullab-yashnayotgan» mamlakatga bag'ishladi.*

*Aslida, adabiyotda tesha tegmagan mavzuning o'zi yo'q. Agar astoydil qidirilsa Shekspir tragediyalaridan Alisher Navoiy «birinchi bo'lib» ishlatgan tashbehlarni, obrazli iboralarni, hatto butun boshli sujetlarni topish mumkin.*

\* \* \*

*Biz, o'zbek kitobxonlari, ko'p yillar jahon adabiyotida graf Monte-Kristo, Sherlok Xolms singari ajoyib izquvar komissar Megre obrazi yaratilganini bilmay yuraveribmiz. 1985-yili «Sharq yulduzi» jurnali Jorj Simenonning «Majestik» mehmonxonasidagi qotillik» romanini e'lon qilib, ko'p savob ishni boshlab berdi, detektiv shinavandalaridan rosa olqish oldi. Bir hisobda, hech bo'lmaganidan ko'ra, kech bo'lgani durust. Sirasini aytganda, Jorj Simenonning romanlari, ya'ni «sof» detektiv asarlar tarjimonlarimizning nazaridan chetda qolganining obyektiv sabablari ham yo'q emas. Birinchidan, detektiv janr paydo bo'lgan, xususan, Artur Konan-Doyl yashagan davr bilan XX asrning so'nggi choragi o'rtasida fan-texnika misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etdi: hozirgi zamon «izquvarlari» kompyuterlar bilan qurollangan. Ular tog'-tog' statistik ma'lumotlarga tayangan holda nafaqat muayyan jinoyatchini aniqlaydilar, hatto kerak bo'lsa, futbol bo'yicha Jahon chempionati paytida qancha miqdorda «qoradori» sotilajagini va kimlar tomonidan sotilajagini-da bemalol ayta oladilar. Ikkinchidan, mumtoz shakldagi detektiv asarlar hozirgi zamon o'quvchisiga nihoyatda jo'n — primitiv tuyulishi mumkin. Shuning uchunmikan, keyingi paytlarda detektiv janri «mustaqilligini» yo'qotib, «mustamlaka» — «iqtisodiy jihatdan qaram» janrga aylanib bormoqda. Dunyodagi bir qator yetakchi realist yozuvchilarning ijodida detektiv janrning «duragay» shakllari ko'zga tashlanyapti. Bunga kolumbiyalik*

*mashhur soʻz sanʼatkori Garsia Gabriel Markesning istisnosiz hamma asarlari yorqin misol boʻla oladi. Shunday boʻlsa-da, hali detektiv janriga kafan bichmay turish kerak shekilli. (Aks holda shovvoz izquvarlar detektiv janrining qotilini baribir izlab topadilar!) Jorj Simenon romanlari ham detektiv janrining umri boqiyligidan dalolat berib turibdi.*

*Nabijon Boqiy*

# «MAJESTIK» MEHMONXONASIDAGI QOTILLIK



## *I b o b*

### **PUCHMAYGAN G'ILDIRAK**

Mashina eshigi qarsillab yopildi. Har kungi tong shunday boshlanadi. Motor guvullab turibdi. Sharlotta shofer bilan qo'l berib xayrlashyapti chamasi. Taksi jo'nab ketdi. Zinapoya tomonda oyoq sharpasi eshitildi. Eshik qulfiga kalit solindi. Chiroq tugmachasi shirq etdi.

Oshxonada gugurt chaqilgani, gazplitaning vishillab yongani quloqqa chalindi.

Butun tunni oyoqda o'tkazgan Sharlotta yaltillagan zinalarni bitta-bitta bosib, yuqoriga ko'tarildi. Asta yotoqxonaga kirdi. Chiroq tugmachasini bosdi. Tepasiga qizg'ish ro'molcha tashlab qo'yilgan chiroq yondi. Ro'molning to'rt uchiga yog'och soqqachalar osib qo'yilgan edi.

Prosper Donj hamon ko'zlarini yumgancha yotardi. Sharlotta oynavand shkaf qarshisida turib, o'z aksidan ko'z uzmay yechindi. Belidagi bog'ichi bilan siynabandini yechib tashlagach, yengil tin oldi. Pushtirang, tiqmachoqday badani Rubens rasmlarini eslatib tursa ham u hamisha bog'ichi bilan belini tarang sirib yurardi. Qipyalang'och yechinib, biqinlarini obdan ishqaladi, badanida barmoq izlari qoldi.

Sharlottaning bema'ni odati bor edi, karavotga chiqayotib, avval tizzalari bilan to'shakning bir chetini andak bosib turar, shundan butun to'shak o'zi tomon og'ib ketardi.

— Tura qol, Prosper!

Prosper turishi bilan Sharlotta shosha-pisha uning iliqqina o'rniga kirib olardi-da, ko'rpani boshigacha tortib, qimir etmay yotardi.

— Yomg'ir yog'yaptimi? — deb so'radi Prosper, yuvinish uchun jo'mrakni burayotib.

Sharlotta bir nima deb g'uldiradi. Aslida, savolning unchalik ahamiyati ham yo'q edi. Eng yomoni — soqolni sovuq suvda olishga to'g'ri keldi — jo'mrakdan muzdek suv oqmoqda edi. Shu yaqin atrofdan poyezdlar taraqlab o'tib turardi.

Prosper Donj apil-tapil kiyindi. Sharlotta o'qtin-o'qtin xo'rsinib qo'yardi. Chunki u yorug' tushib tursa, uxlay olmasdi. Prosper bir qo'li bilan eshik tutqichini ushlab, ikkinchi qo'lini chiroq tugmachasiga cho'zgan paytda, Sharlottaning mudroq aralash ovozi eshitildi:

— Priyomnik haqini to'lab qo'yish esingdan chiqmasin.

Gazplitaga qo'yilgan qahva issiq, juda ham issiq edi. Prosper uni stol yoniga o'tirmasdan, tik turib ichdi. Keyin, har kuni ayni bir vaqtda odat bo'lib qolgan bir ishni bajaradigan hamma kishilarday, bo'yniga to'qima sharfini o'radi, paltosi bilan furajkasini kiydi.

Nihoyat, yo'lakda turgan velosipedini ko'chaga olib chiqdi.

Har kungiday dimog'iga muzdek nam havo urildi; yomg'ir yog'magan, ammo asfalt yo'laklar ho'l edi, uxlashdan oldin darpardalarini berkitib yotgan odamlar uchun kun go'yo charog'on va iliq bo'ladiganday tuyulardi.

Ikkala chetida kichkina chorbog'li, mo'jaz uylar saf tortgan ko'cha pastga qarab qiyalab ketgan. Daraxtlar orasidan, qayerdandir juda pastlikdan, bamisoli jahannam qa'ridan Parij chiroqlari miltirab ko'rinadi.

Tun oxirlab qolgan, lekin hali tong otmagan. Tevarak-atrof nimqorong'i. Ba'zi bir derazalarda chiroq yonib turibdi. Tushirib qo'yilgan temiryo'l to'sqichiga yaqinlashganda, Prosper Donj velosipedini sekinlab, yon tomondagi yo'lakdan o'tib ketdi.

Sen-Klu ko'prigidan o'tgach, chapga burildi. Uzun barjani tortib kelayotgan kichkinagina shatakchi kema shluzni ochishlarini so'rab, bor kuchi bilan gudok berardi.

Bulon o'rmoni... Yorishib qolgan osmon aks etib turgan ko'llar, uyg'ongan oqqushlar...

Dofina dahanasiga yetay deganda, Donj birdan



velosipedining g'ildiragi do'qirayotganini sezdi. Biroz yurgach, velosipeddan sakrab tushdi-yu, orqa g'ildirakning puchmayib qolganini ko'rdi.

Qo'l soatiga qaradi. O'n minuti kam olti edi. Velosipedini yetaklab ketdi. Havo sovuq bo'lgani uchun og'zidan oppoq hovur chiqar, tez yurganidan yuragi gursillab urar edi.

Fosh ko'chasi... Hamma uylarning darpardalari berk... Suvoriylar uchun mo'ljallangan maxsus xiyobonda yuqori unvonli ofitser ot o'ynatib yuribdi, orqasidan ordinares shumshayib bormoqda...

Mana, Zafar darvozasining peshtoqi ko'rindi... Prosper yanayam chaqqonroq yurdi. U terlab ketgan edi...

Yelisey maydoni muyulishida gazeta do'koni yonida, yengsiz kamzulini yelkasiga tashlab olgan politsiyachi unga:

— Ha, shinang yorildimi? — deya so'z qotdi.

Prosper tasdiq ma'nosida bosh irg'adi. Yana uch yuz metrcha qolgan edi. Chap tomonda — «Majestik» mehmonxonasi. Hamma darpardalar yopib qo'yilgan. Chiroq nuri deyarli ko'rinmaydi.

Berri ko'chasiga, so'ng Pontye ko'chasiga burilish kerak. U yerdagi kichkina pivoxona hozir ochiq. Ikki uy narida «Majestik» mehmonxonasining xizmatchilari kirib-chiqadigan eshik bor. Uni o'tgan-ketganlar payqashmaydi. O'sha eshikdan kulrang palto kiygan bir odam chiqdi. Paltosi ostidan qora frak kiyib olgan edi. Boshyalang, sip-silliq taralgan sochiga sochmoyi surtilgan. Prosper Donj uni raqqos Zebioga o'xshatdi.

U o'z taxminini tekshirib ko'rishi ham mumkin edi, buning uchun pivoxonaga shundoqqina bosh suqsa kifoya, lekin bunday fikr uning xayoliga ham kelmadi. Velosipedini yetaklagancha, bittagina chiroq yonib turgan uzun, nimqorong'i yo'lakka kirib bordi. Kelgan vaqtini belgilab qo'yish uchun, maxsus o'rnatilgan soat oldida to'xtab, avtomat teshigiga o'z nomeri, ya'ni 67 raqami yozilgan tangasimon jezni tashladi, so'ng soatiga qaradi: oltidan o'n minut o'tgan edi. Apparat shirq etdi.

Shu daqiqadan e'tiboran u «Majestik» mehmon-

xonasiga ertalab oltidan o'n minut o'tganda, ya'ni, odatdagidan o'n minut kechikib kirganligi aniq-ravshan qayd etib qo'yildi.

Yelisey maydonidagi hashamatli mehmonxona qahvaxonasining mutasaddisi Prosper Donj bergan rasmiy ma'lumot harholda mana shunday edi.

Keyinchalik esa u, o'sha kuni ham odatdagiday o'z vaqtida kelganman, deb turib oldi.

Bu paytda son-sanoqsiz yo'laklari, behisob xona va eshiklari bo'lgan hayhotdek yerto'la huvillab yotardi. Devorlar xuddi kemanding yukxonasi kabi kulrang tusga bo'yalgan edi. Har joy-har joydan, shisha devorlar ortidan, tunda yoqib qo'yishga mo'ljallangan kichkina simchiroqlardan xira, sarg'ish nur tushib turardi.

Oshxona binolari ham, qandolatxonalar ham — hammayoq oynavand edi. Ularning ro'parasida, o'ng tomonda, «yugurdaklar oshxonasi» deb nom olgan xona joylashgandi. U yerda baland martabali xodimlar, shuningdek, mehmonxona mijozlarining shofer va xizmatkorlari ovqatlanishardi.


Sal narida oddiy xodimlar tamaddi qiladigan, bo'yalmagan uzun taxta stol va maktab partalariga o'xshash o'rindiqlar qo'yilgan oshxona bor edi.

Kemadagi kapitan xosxonasiday, hamma xonalardan baland qilib qurilgan oynavand bir hujra yarqirab turar, bu joy hisobchining xonasi bo'lib, u oshxonadan chiqadigan barcha taomlarni hisob-kitob qilib borishi lozim edi.

Prosper Donj qahvaxona eshigini ochgan paytda, yuqori qavatlariga olib chiquvchi torgina zinapoyadan kimdir tepaga ko'tarilayotganday tuyuldi, biroq u bunga e'tibor bermadi. Harholda, u keyinchalik bergan ma'lumotlarida shunday deb aytdi.

Prosper ham Sharlottaga o'xshab, ichkariga kirishi bilan gugurt chaqdi, vishillab gazplita yondi. U ishga kelgan zahoti ba'zi bir saharxez mijozlar uchun barvaqtroq qahva tayyorlash maqsadida plitaning bitta o'txonasini yoqib qo'yardi.

Ana shundan keyingina uzun yo'laklardan biri orqali yechinish xonasi tomon yo'l oldi. Bu xona kattagina



bo'lib, bir necha umivalnik, xira ko'zgu hamda eshigiga raqamlar yozilgan temir shkaflar qator qilib terib qo'yilgan edi.

Prosper kaliti bilan 67-shkafni ochdi-da, paltosi, sharfi, furajkasini ilib, oyog'iga shippak kiyib oldi — u ishda yengil poyabzalda yurishni afzal ko'rardi. So'ng oq korjomasini kiydi.

Oradan bir necha daqiqa o'tdi... Olti yarimda yerto'la gavjum bo'la boshladi...

Tepada, bo'm-bo'sh yo'lakda smenani qabul qilib oluvchi sherigini kutib o'tirgan eshikbondan boshqa hamma uxlab yotardi.

Qahva solingan idish shaqirladi. Prosper Donj chinini qahvadonga qahva quydi-da, bamisoli teatr sahnalarining ikki chekkasida bo'ladigan va ajoyib-g'aroyib joylarga olib chiqadigan sirli narvonni eslatuvchi zinalarni bosib, yuqoriga ko'tarildi.

Torgina eshikni ochgan edi, kiyim javoni yonida, yo'lakda paydo bo'ldi; kattakon ko'zgu to'sib turgan bu eshikni uncha-muncha odam payqamas edi.

— Qahva! — dedi u qahvadonni kiyim javoni pesh-taxtasiga qo'yib. — Ishlar qalay?

— Bir navi, — deb g'o'ldiradi eshikbon.

Prosper Donj qaytib yerto'laga tushdi. Shu payt uning uch yordamchisi «uch baqaloq» keldi. Ularni shunday deb atashardi. Uchovi ham go'l, beso'naqay, badbashara; ayniqsa bittasi judayam qari va serjahl kam-pir. Ular idish-tovoqlarni shaqirlatib yuva ketishdi.

Prosper Donj esa har kungiday katta-kichikligiga qarab, avval bir idishli, ikki idishli, uch idishli kumush qahvadonlarni, so'ng sut kuvachalari va choynaklarni pesh-taxta ustiga qator tera boshladi.

Shisha hujrada Jan Ramyuelning hurpaygan boshi ko'rindi.

«Yana shu yerda tunapti», deya ko'nglidan o'tkazdi Prosper.

Keyingi paytlarda hisobchi Ramyuel uyiga bormasdan, uch-to'rt marta mehmonxonada tunab qolgan edi. U Monparnasning naryog'ida yashardi.

Aslida mehmonxonada yotib qolish man etilgan edi.

Yo'lakning oxirida, vino saqlanadigan ikkinchi yerto'laga olib tushadigan eshik yonida uch-to'rtta karavot qo'yilgan xona bor edi-yu, lekin bu karavotlar ish orasida picha hordiq chiqarishga zarurat sezgan xizmatchilar uchun mo'ljallangan edi.

Prosper Donj Ramyuelga qo'l silkib, salomlashgan bo'ldi, u ham shu tarzda javob qaytardi.

Markaziy bozordan devqomat bosh oshpaz qaytib keldi. U bir mashina masalliq olib kelgan edi. Mashina Ponte ko'chasida to'xtadi. Ishchilar yukni tushirishga kirishdilar.

Soat yetti yarimlarda «Majestik» yerto'lalarida kamida o'ttiz chog'li odam uymalanishardi; qo'ng'iroq ovozlari eshitilar, ovqat solingan barkashlar tashiladigan jajji liftlar goh ko'tarilar, goh to'xtar, goh pastga tushar, Ramyuel esa hujrasiga terib qo'yilgan mixlarga oq, yashil va pushtirang pattalarni suqish bilan ovora edi.

Bu paytda havorang xalat kiygan kunduzgi eshikbon o'z o'rnini egallagan, pochta ishlari bilan shug'ullanuvchi yugurdak esa o'z xonasida o'tirib, xatlarni saralamoqda edi. Yelisey maydoniga oftob tushgan bo'lsa kerag-u, lekin nimqorong'i «Majestik» yerto'lalarida faqat og'ir avtobuslar o'tganida oynavand to'siqlarning zirillagani sezilardi, xolos.

Soat to'qqizdan bir necha daqiqa o'tganda (keyinchalik aniqlanishicha, soat to'qqizdan to'rt daqiqa o'tganda), Prosper Donj qahvaxonadan chiqib, sal o'tmay yechinish xonasiga kirib bordi.

— Ro'molcham paltomning cho'ntagida qolib ketgan ekan, — dedi u so'roq paytida.

Har nima bo'lganda ham, shunisi aniqki, temir shkaflar turgan xonada undan bo'lak hech kim yo'q edi. U o'z shkafini ochganmi? Bunisi noma'lum — guvohlar yo'q. Ehtimol, ro'molchasini rostdan ham olgandir. Shkaflar yuzta emas, roppa-rosa to'qson ikkita bo'lib, har birining eshigiga nomer yopishtirib qo'yilgan edi. So'nggi beshta shkaf bo'm-bo'sh edi.

Nima uchun Prosper Donj egasi yo'q, binobarin, qulflanmagan 87-shkafni ochishga jazm qildi?

— Beixtiyor... — dedi u keyin. — Eshigi qiya ochiq turgan ekan, o‘ylab o‘tirmay, ochib ko‘ribman...

Mazkur shkafda esa murda bor edi, uni tikka qilib, turg‘azib qo‘yishgan edi. Bu — qora, yupqa jun ko‘ylak kiygan, malla soch (sochi bo‘yalgan, albatta), o‘ttiz yoshlardagi ayolning jasad edi.

Daf‘atan Prosper Donjning tili tanglayida qotib qol-gandek bo‘ldi. Rangi oqargancha, Ramyuelning oyna-vand hujrasiga kirdi-da, darchaga engashib, shivirladi:

— Yuring, tezroq... Ko‘rib qo‘ying...

Hisobchi unga ergashdi.

— Shu yerda turing, Prosper... Hech kimni kirit-mang.

Ramyuel shunday deb, zinaga qarab yugurdi, hov-liqib maydonchaga chiqdi, shofer bilan gaplashib turgan eshikbonga ko‘zi tushdi.

— Direktor keldimi?

Eshikbon direktor kabinetini tomonga ishora qilib, bosh irg‘adi.

Megre aylanma eshik oldida to‘xtab, trubkasini posh-nasiga urib bo‘shatmoqchi bo‘ldi-yu, ammo fikridan qaytdi, trubkani yana labiga qistirdi. Xiyla yoqimli bo‘lgan ertalabki, birinchi trubkadan voz kechish oson emas.

— Direktor sizni kutyaptilar, janob komissar...

Maydonchada odam siyrak edi. Musofir bir ingliz yugurdak yigit bilan nimalarnidir gaplashar; shlyapa qutisini ko‘tarib olgan, oyoqlari xuddi chigirtkanikiday ingichka va bo‘ychan, yoshgina bir qiz esa u yoqdan bu yoqqa borib kelardi — aftidan, shlyapado‘zdan buyurt-mani keltirgan bo‘lsa kerak.

Megre direktor kabinetiga kirdi, u indamay qo‘l uzat-di-da, kursiga ishora qildi. Oyna eshikni ichkaridan zan-gori parda to‘sib turar, lekin parda sal ochilsa, butun maydoncha kaftdagiday ko‘zga tashlanar edi.

— Sigara chekadilarmi?

— Yo‘q, rahmat.

Suhbatdoshlar bir-birlarini ko‘pdan beri bilishar, binobarin, ortiqcha gap-so‘zga ham hojat yo‘q edi.

Direktorning egnida yo‘l-yo‘l shim, qora kostum, gals-tugi xuddi tunukadan qirqib olinganga o‘xshardi.

— Mana...

Shunday deb, u Megrega qaydnomani uzatdi.

«Osvald Dj. Klark, detroytlik, sanoatchi (AQSH, Michigan shtati).

12-fevralda Detroytdan kelgan.

Hamrohlari: xotini — missis Klark; o‘g‘li — Teddi Klark, yetti yoshda; o‘g‘lining murabbiyasi — Ellen Derromen, yigirma to‘rt yoshda; Gertruda Borms — qirq ikki yoshda, oqsoch.

Nomeri — 203».

Telefon jiringladi. Direktor qisqa javob qildi. Megre qaydnomani to‘rt buklab, hamyoniga solib qo‘ydi.

— Qaysi biri?

— Missis Klark.

— Ha-a!..

— Birinchi navbatda politsiyaga xabar berdim, keyin o‘z vrachimizga qo‘ng‘iroq qildim, u shu atrofda, Berri ko‘chasida yashaydi. Pastda kutib turibdi. Uning fikricha, missis Klarkni bugun ertalab soat olti bilan olti yarimlar orasida bo‘g‘ib o‘ldirishgan.

Direktor xafa edi. Yuz bergan voqea mehmonxona uchun katta ofat ekanligini Megreday odamga tushuntirib o‘tirish shart emas, qaniydi ishni bosdi-bosdi qilishning iloji bo‘lsa...

— Demak, Klarklar oilasi bir hafta oldin kelgan, — dedi komissar. — Ular qanaqa odamlar o‘zi?

— Tuppa-tuzuk odamlar... Judayam yaxshi odamlar... Klarkning o‘zi baland bo‘yli, basavlat, og‘ir-vazmin kishi, qirq, ehtimol, qirq besh yoshlarda. Xotini — sho‘rlik! — asli fransiyalikka o‘xshaydi... Yoshimi?... Yigirma sakkiz-yigirma to‘qqizlarda... Birrov ko‘zim tushuvdi... Murabbiya — bama‘ni juvon... Oqsoch ayol — u kichkina Teddiga enagalik ham qiladi — sodda, lekin o‘lguday ming‘ir-ming‘ir... Ha, bir narsani aytish esimdan chiqibdi... Klark kecha ertalab Rimga jo‘nab ketdi...

— Bir o‘zimi?

— Nazarimda, u Yevropaga ish bilan kelgan...

Sharikli podshipniklar ishlab chiqaradigan zavodi bor ekan... Turli mamlakatlarning poytaxtlariga borsa kerak, bu paytda xotini bilan o'g'lini hamda butun xizmatkorlarini Parijda qoldirishga ahd qilgan.

— Ketdi deng? Qaysi poyezd bilan?

Direktor telefon trubkasini ko'tardi.

— Allo? Eshikbonmi? Kecha mister Klark qaysi poyezd bilan ketdi? Ha, ha, ikki yuz uchinchidagi... Yukini eltib berish uchun hech kimni vokzalga jo'natmaganmidingiz?.. E-e, faqat sakvoyaji bor edi deng?.. Taksida ketdimi?.. Kim opketdi?.. Deziemasmi?.. Xo'p, bo'пти, rahmat... Eshitdingizmi, janob Megre? Kecha ertalab soat o'n birda taksida ketgan... Shofer — Deziere. Deyarli hammavaqt mehmonxonamiz oldida turadi. Klarkning qo'lida faqat sakvoyaji bo'lgan...

— Ruxsat eting, men ham bir qo'ng'iroq qilay... Allo! Yaxshi qiz, Jinoyat qidiruv politsiyasini ulavoring... Politsiyami?.. Lyuka! Hoziroq Lion vokzaliga borib, kecha ertalab soat o'n birdan keyin Rimga qanaqa poyezdlar ketganini aniqla.

U telefonda ko'rsatma berib bo'lgunga qadar trubkasi o'chib qolayozdi.

— Toransga ayt, Deziere degan odam shoferlik qiladigan taksini topsin. Ha, ha. Ko'pincha «Majestik» oldida turadigan taksi. Kecha ertalab mehmonxona eshigi oldidan o'tirgan baland bo'yli, ozg'in amerikalikni qayoqqa olib borib qo'yganini aniqlash kerak. Tushundingmi?

U trubkasini qayoqqa qoqishni bilmay, u yoq-bu yoqqa alangladi. Direktor uning oldiga kuldonni surib qo'ydi.

— Sigara cheka qolsangiz-chi?.. Oqsoch ayol qattiq kuyindi... Unga aytib, to'g'ri ish qildim, deb o'ylayman. Murabbiya bu kecha mehmonxonada tunamagan.

— Ularning xonasi nechanchi qavatda?

— Uchinchida. Derazalaridan Yelisey maydoni ko'rinib turadi... Xonalar shunday joylashgan: mister Klarkning yotoqxonasi bilan xotining yotoqxonasini o'rtadagi xona ajratib turadi, keyin bolaning xonasi, undan keyingisi oqsoch ayolning va nihoyat, murab-

biyaning xonasi. Ular hammalarini bitta nomerga joylashtirishni talab qilishgan edi.

— Tungi eshikbon ketib qoldimi?

— Ha. Lekin telefonda gaplashsa bo'ladi. Bir safar kerak bo'lib qolganda, qo'ng'iroq qilgan edim. Xotini — Neyada, yangi uyda xodima bo'lib ishlaydi... Allo! Telefonga...

Besh daqiqadan so'ng shu narsa ma'lum bo'ldiki, missis Klark bir kun oldin yolg'iz o'zi teatrga borib, tungi soat birlarda mehmonxonaga qaytgan. Oqsoch ayol hech qayoqqa chiqmagan. Murabbiya esa mehmonxonada tushlik ham qilmagan, tunamagan ham.

— Nachora, pastga tushaylik bo'lmasa, ko'raylikchi, — dedi xo'rsinib Megre.

Maydonchada odam ko'payib qolgan, ammo hamma uxlab yotgan paytda mehmonxonada qanday fojia yuz berganini hech kim bilmas edi.

— Anavi yerdan kiramiz. Orqamdan yuravering, janob komissar.

Birdan direktor qoshlarini chimirdi. Aylanma eshik ochilganda oftob nuri yoshgina, zebo bir ayolga tushdi. Yugurdak yonidan o'ta turib, ayol inglizchalab so'radi:

— Menga hech narsa yo'qmi?

— Miss Ellen Derromen shu, janob komissar...

Tarang tortilgan ipak paypoq, chiroyli tikilgan kulrang kostum. Ertalab pardozi-andozni o'rniga qo'yadigan ayollarga xos yoqimli qiyofa. Chehrasida horg'inlikdan asar ham yo'q, — aksincha, ikki yuzi fevralning tonggi ayozidan qip-qizarib turibdi.

— Gaplashib ko'rasizmi?

— Hozir emas. Bir oz kutamiz.

Shunday deb, Megre maydonchani bir burchagida o'tirgan, boya o'zi bilan birga kelgan inspektor tomon yurdi.

— Anovi juvonne ko'zdan qochirma... O'z xonasiga kirsang, eshik oldida poylab tur...

Yechinadigan joy. Oshiq-moshiqli kattakon ko'zgu surilishi bilan ensizgina zina ko'zga tashlandi. O'sha zahoti butun dabdaba, zeb-ziynat, zarhal tuvaklardagi rango-rang gullar, nafosat va qaynoq harakat — ham-



masi tugadi. Pastdan oshxonaning aralash-quralash hidi dimoqqa urila boshladi.

— Bu zina hamma qavatlariga olib chiqadimi?

— Ha. Bunaqa zinadan ikkita: ikkalasi ham yerto‘ladan boshlanib chordoqda tugaydi... Lekin binoni yaxshi bilgan odamgina bulardan foydalana olishi mumkin. Har bir qavatda, masalan, boshqa eshiklardan farq qilmaydigan ensiz bir eshikni ochish mumkin, faqat u eshikka raqam yopishtirilmagan. Uncha-muncha mijozning xayoliga ham kelmaydi...

Soat o‘n birga yaqinlashib qolgan edi. Endi yerto‘lalarda ellikta emas, kamida yuz ellik odam uymalashardi — birov oq qalpoqda, birov dastyorlar kiyadigan frakda, vino saqlanadigan yerto‘lada ishlaydiganlar oldiga peshband tutib olgan; Prosper Donjning «uch baqalog‘i»ga o‘xshagan qora ish bilan mashg‘ul ayollar ham ancha-muncha edi...

— Marhamat, bu yoqqa... Faqat ehtiyot bo‘ling, kiyimingizni kir qilib qo‘yishingiz yoki toyib ketishingiz mumkin... Yo‘laklarimiz juda tor...

Shisha devorlar ortidan hamma direktorni, ayniqsa, politsiya komissarini kuzatib turardi. Jan Ramyuel uzatilgan pattalarni chaqqonlik bilan olar va barkashdagi taomlarga tezgina ko‘z yugurtirib chiqardi.

Politsiyachining paydo bo‘lishi hammani sarosimaga solib qo‘ygan edi. Megrening shu yerdaligidan xabardor qilingan yoshgina doktor yigit yechinish xonasida sigareta tutatgancha, uning kelishini kutayotgan edi.

— Eshikni yoping...

Murda yerda, temir shkaflar orasida yotardi. Doktor og‘zidan tutun burqsitgancha, sekin so‘z qotdi:

— Aftidan, orqa tomondan tashlanishganga o‘xshaydi... Uzoq qarshilik ko‘rsatolmagan...

— Bundan tashqari, murdani sudrab kelishmagan! — dedi Megre, marhumaning qora ko‘ylagiga ishora qilib. — Zarrachayam gard yo‘q. Yo jinoyat shu yerda sodir bo‘lgan, yoki jasadni bu yerga olib kelishgan — kamida ikki kishi: bir odam bu tor, ilonizi yo‘laklardan ko‘tarib kelishga qiynalgan bo‘lard...

Murda chiqqan shkafdan timsoh terisidan yasalgan

kichkina sumka topildi. Komissar sumkani ochib, undan to'pponcha oldi, qulfakka qo'yilgan-qo'yilmaganligini tekshirib ko'rgach, cho'ntagiga solib qo'ydi. Sumkada dastro'mol, upa qutisi, bir necha kredit qog'ozi va ming frankka yaqin puldan boshqa hech narsa yo'q edi.

Eshik ortida g'ala-g'ovur avjiga chiqqan edi, ovqat tashiladigan liftlar to'xtovsiz chiqib-tushar, ustma-ust qo'ng'iroq chalinar, oshxonaning oyna devoridan ulkan kastrullar atrofida uymalanishayotgan, sixga jo'ja sixlayotgan oshpazlar ko'rinib turardi.

— Prokuraturadan odam kelmaguncha hech narsaga tegilmasin! — dedi Megre. — Murdani kim topdi?

Unga qahva qaynatiladigan idishni tozalayotgan Prosper Donjni ko'rsatishdi. Megre qirq besh-qirq sakkiz yoshlardagi baland bo'yli, malla soch kishiga qaradi. Uning ko'zlari ko'm-ko'k, yuzi cho'tir edi.

— Ko'pdan beri ishlaydimi?

— Besh yil bo'ldi... Ilgari «Miramar»da, Kannda ishlagan.

— Tuzuk odammi?

— Juda!..

Donjni komissardan shisha to'siq ajratib turardi. Ana shu to'siq orasidan ularning ko'zlari to'qnashdi. Qahvaxona bufetchisining yuziga gup etib qon urildi — hamma malla odamlarnikiday, uning ham terisi juda yupqa edi.

— Kechirasiz, janob direktor... Janob komissarni telefonga chaqirishyapti, — dedi o'z hujrasidan chopib chiqqan hisobchi Jan Ramyuel. — Agar xohlasangiz, shu yerdagi trubkani olsangiz ham bo'laveradi.

Jinoyat qidiruv politsiyasidan olingan axborot: kecha ertalab soat o'n birdan beri Rimga faqat ikkita tezyurar poyezd jo'nab ketgan... Osvald Dj. Klark har ikkalasiga ham chiqmagan. Qo'ng'iroq qilishganda, o'zining sevimli qahvaxonasidan topilgan shofer Dezirening aytishicha, kecha u o'z mijozini vokzalga emas, Monparnas xiyobonidagi «Burgutcha» mehmonxonasiga olib borib tashlagan.

Zinada shovqin ko'tarildi. Qandaydir bir ayol yo'lini

toʻsgan yugurdakka inglizchalab ovozing boricha chin-qirardi. Bu — yertoʻlaga tushishga talpinayotgan murab-biya miss Ellen Derromen edi.

## *II b o b*

### **MEGRE VELOSIPEDDA SAYR QILADI**

Qoʻllarini duxoba yoqali keng paltosining choʻntak-lariga solib, qalpogʻini gardaniga surib qoʻygan Megre trubkasini tishlagancha, mehmonxona direktorining taʼzirini berayotgan amerikalik ayolni kuzatardi.

Shu daqiqada komissar Megrega razm solgan odam, u bilan miss Ellen Derromen oʻrtasida zarracha ham xayrixohlik tuygʻusi yoʻqligiga ishonch hosil qilgan boʻlard.

— Nima deyapti? — deb soʻradi u, amerikalik ayol-ning javrashini boʻlib. Komissar ayolning birorta ham soʻziga tushunmayotgan edi.

— Missis Klark oʻldirilgani rostmi, Rimga qoʻngʻiroq qilib, mister Osvald Klarkni yuz bergan voqeadan xabar-dor qildinglarmi, deb soʻrayapti. Yana, murda qayerdali-gi bilan qiziqyapti, agar iloji boʻlsa...

Biroq amerikalik ayol, direktor gapini tugatishga imkon bermadi. Qoshlarini chimirgancha picha quloq solib turdi-da, Megrega bir yovqarash qilib, yana inglizchalab sayrab ketdi:

— Nima deyapti?

— Murdani koʻrsatinglar, deb talab qilyapti...

Megre ohista ayolning tirsagidan olib, yechinish xonasi tomon boshladi. Xuddi Amerika filmlaridagi jirt-taki ayollarga oʻxshab, hozir jazava bilan oldinga yulqi-nadi, deb oʻylagan edi, bunday boʻlmadi. Qaytanga ger-dayib, qadamini namoyishkorona bitta-bitta bosgancha, ilgariylay boshladi. Barcha xizmatchilar shisha devor ortidan unga sinchkovlik bilan qarab turishardi.

— Marhamat, kiring, — dedi andak istehzo bilan komissar.

Amerikalik ayol uch qadam bosdi-yu, ustiga

choyshab tashlab qo'yilgan murdani ko'rib, taqqa to'xtadi, yana inglizchalab bir nimalar dedi.

— Nima deyapti?

— Choyshabni olinglar, deyapti...

Megre ayoldan ko'z uzmay, iltimosini bajo keltirdi. Ayol seskanib ketdi, ammo nechog'li dahshatli manzara bo'lishiga qaramay, darrov o'zini bosib oldi.

— So'rasang-chi, missis Klarkni taniyaptimi, yo'qmi? Amerikalik ayol yelkasini qisdi va baland poshnasini yerga bir urib qo'ydi.

— Nima deyapti?

— Buni siz undan ko'ra yaxshiroq bilarmishsiz...

— Unday bo'lsa, kabinetgizga taklif qiling, unga beradigan uch-to'rtta savollarim bor.

Direktor tarjima qila boshladi. Megre fursatdan foydalanib, murdaning yuzini yopib qo'ydi.

— Nima deyapti?

— Bormayman, deyapti.

— Shunaqami! Iltimos, aytib qo'ying, men Jinoyat qidiruv politsiyasi maxsus bo'limining boshlig'i bo'laman!

Miss Ellen unga tikilib qarab turdi-da, bu gapning tarjimasini ham kutib o'tirmay, bir nimalar dedi. Megre yana o'sha savolini takrorladi:

— Nima deyapti?

— Ni-ima deyapti-i? — Mazax qilgan bo'ldi amerikalik ayol negadir asabiylashib. Xuddi o'z-o'ziga gapirganday, tag'in inglizchalab sayrab ketdi.

— Tarjima qiling, iltimos?

— «Politsiyadanligi ko'rinib turipti», deyapti. Yana...

— Aytavering, tortinmang.

— Qalpog'ingiz bilan trubkangizga bir qarashning o'zi kifoya emish... UZR, o'zingiz tarjima qilib berishimni so'radingiz... Savollaringizga javob bermayman, deyapti.

— Nima uchun?

— Hozir so'rab ko'raman...

Ellen Derromen sigareta tutatgancha, direktorning so'zlarini eshitib turdi, so'ng yelkasini qisib, allanimalar dedi.

— Hech kimga hisob bermayman, faqat rasmiy chaqiriqni tan olaman, deyapti.

Shu gapdan keyin amerikalik ayol Megrega so'nggi marta bir qaradi-da, keskin burilib, xuddi haligiday yurish bilan zina tomon ketdi.

Bir oz kalovlanib qolgan direktor komissarga o'girilib qaragan edi, uning jilmayib turganini ko'rib, tamom hayratga tushdi.

Yerto'la shunaqangi isib ketdiki, Megre paltosini yechishga majbur bo'ldi, lekin u boshidagi qalpog'i bilan og'zidagi trubkasini aslo qo'ymas edi. Qo'lini orqasiga qilganча, yo'laklarda bamaylixotir aylanib yurdi, ahyon-ahyon xuddi shisha akvariumni tomosha qilganday, biron-bir bo'limning oyna devori oldida to'xtab o'tardi.

Kunduzi ham elektr nuri yoritib turadigan bu ulkan yerto'la rostdan ham akvariumni eslatardi. Naq okeanografiya muzeyi. Har bir shisha qafas ichida — birida ko'proq, birida ozroq — tirik mavjudot bor; yerto'la ahli har xil narsalarni: barkash-u idish-tovoqlarni ko'tarib, u yoqdan bu yoqqa shoshilishar, yuk tashiydigan va yuqori qavatlarга taom elitadigan liftlarni ishga solishar, uzluksiz jiringlab turadigan telefonlar orqali kimlar bilandir javob-muomala qilishardi.

«Afrika chakalakzorlarida yashaydigan odamni olib kelinsa, bu manzarani ko'rib, nima derdiykin?..»

Prokuratura xodimlari kelishdi-yu, tezgina jo'nab qolishdi — atigi bir necha daqiqa bo'lishdi, xolos. Tergovchi har vaqtdagiday Megrega hamma ishni ishonib topshirib ketdi. Megre ikki-uch marta Ramyuelning katalagidan telefonda gaplashdi.

Jan Ramyuelning burni shu darajada qiyshiq ediki, yuzini xuddi yon tomonga burib turganday ko'rinardi. Bundan tashqari, jigari ham chatoq edi. Har kuni patnisda keladigan nonushtani yeyishga o'tirishdan oldin cho'ntagidan oppoq kukunsimon dori chiqarib, bir stakan suv bilan ichib yuborardi.

Soat bir bilan uchning orasida ish qaynagandan qaynab, shunaqangi chop-chop boshlanardiki, go'yo

birov kinolentani shitob bilan aylantirayotganday tasavvur tug'ildirdi.

— Kechirasiz... Uzr...

Har qadamda kimdir komissar Megre bilan to'qnashib ketar, ammo u sayr-u tamoshosini bamaylixotir davom ettirardi. Ba'zan to'xtab, bir-ikki savol berardi-da, yana oldinga qarab yurardi.

U qancha odamni gapga tutdi? Yigirmadan kam emas. Bosh oshpaz oshxonaning ishlaridan so'zladi, Ramyuel turfa rangdagi pattalarning farqini tushuntirib berdi.

Shisha devor orqasidan turib, «yugurdaklar oshxonasi»da nonushta qilayotgan odamlarni kuzatdi. Nonushtaga jajji Klarkning enagasi Gertruda Borms — badqovoq, semiz ayol ham tushgan edi.

— Fransuzcha gaplashadimi?

— Bir og'iz ham bilmaydi.

Ayol ro'parasidagi livrey<sup>1</sup> kiygan shofer bilan gaplashib o'tirib, ancha-muncha ovqat yedi.

Megre, ayniqsa, o'z qahvaxonasida ivirsiyotgan Prosper Donjni qiziqib kuzatdi. Prosper shisha bankaga solib qo'yilgan oltin baliqqa o'xshardi — jingalak sochlari qizg'ish, yuzi ko'pchilik malla odamlarnikiday g'ishtang, lablari qalin va xuddi baliqnikiday cho'chchayganroq.

U ham xuddi baliqday, ahyon-ahyon shisha devor yoniga kelib, baqraygancha qarab turar, aftidan, politsiya komissari shu paytgacha unga biror og'iz so'z qotmaganidan taajjubleardi.

Megre hamma bilan gaplashardi-yu, ammo Prosper Donjga mutlaqo e'tibor bermasdi. Aslida asosiy guvoh — murdani topgan uning o'zi-ku!

Prosper Donj ham o'z qahvaxonasidagi stolcha yoniga o'tirib, nonushta qila boshladi. Qo'l ostida ishlaydigan uch baqaloq ayol atrofida parvona. Dam-badam qo'ng'iroq jiringlab, tuynukcha ro'parasiga kichkina lift kelib to'xtardi. Donj u yerdan pattani olardi-da, uning o'rniga taomlar solingan barkashni qo'yar, shundan

---

<sup>1</sup> Livrey — chet mamlakatlarda xizmatkorlar kiyadigan uqali maxsus kiyim.

so'ng ixcham lift yuqoriga — mehmonxonaning al-laqaysi bir qavatiga ko'tarilib ketardi.

Bir qarashda juda og'ir tuyuladigan bu yugur-yugur, aslida, jo'ngina bir narsa edi. Mehmonxonaning mana shu tobda taxminan ikki yuz-uch yuz odam ovqatlanayotgan ulkan restorani shundoqqina oshxonaning tepasiga joylashgan bo'lib, aksariyat buyurtmalar o'sha yoqqa chiqarilardi. Har gal lift pastga tushganda tepadan elas-elas musiqa sadosi eshitalardi.

Ammo-lekin ayrim mijozlar o'z bo'lmalarida ovqatlanishar, ularga o'sha qavatda joylashgan restoran xizmat qilar edi. Yerto'lalardagi binolar qatorida gazaxona ham joylashgan edi, kechqurun soat beshdan keyin u dansing vazifasini o'tardi.

Jasadni olib ketish uchun sud-medsina eksperti xodimlari hamda kriminalistika bo'limidan ikkita mutaxassis kelishdi. Ular barmoq izlarini topish maqsadida kuchli yoritgich va fotoapparatlar bilan 89-shkafni yarim soatcha suratga olishdi.

Bu ishlar Megreni qiziqtirmayotganday tuyulardi. Baribir talab qilgan zahoti ekspertiza xulosalarini unga ma'lum qilishadi-ku.

Chetdan qaraganda, u mashhur mehmonxona ishlari bilan shunchaki tanishib yurganday edi. Megre tor zinadan ko'tarilib, birinchi eshikni ochdi-yu, lekin yana darrov yopdi, u restoranning hayhotdek zaliga kirib qolgan, u yerda g'ala-g'ovur, qoshiq, sanchqilarning sharaq-shuruqi va musiqa sadolari avjiga chiqqan edi.

Komissar yana yuqori ko'tarildi. Uzun yo'lak, raqam qoqilgan son-sanoqsiz eshiklar, cho'g'day yonib turgan gilam-poyandozning oxiri ko'rinmaydi.

Ochig'ini aytganda, maxfiy zinadan har bir mijoz yerto'laga tusha olardi. Ponte ko'chasidagi xizmatchilar kirib-chiqadigan eshik xususida ham shunday deyish mumkin. Yelisey maydonidan kiriladigan asosiy yo'lakdagi aylanma eshik oldida ikkita shofer, eshikbon va xat tashuvchi yugurdaklar turishardi, ammo xohlagan yo'lovchi xizmatchilar yuradigan eshikdan «Majestik»ka kira olar va aftidan, unga hech kim e'tibor ham bermagan bo'lardi.

Ko'pchilik teatrlarda ham ahvol shu: ularning bir tomoni qattiq qo'riqlanadi-yu, ammo ikkinchi — artistlar kirib-chiqadigan xos eshik ochiq turaveradi.

Ahyon-ahyonda yechinish xonasiga oppoq, kalta xalat kiygan kishilar kirib ketishar va hayal o'tmay, u yerdan bashang kiyinib, boshlariga shlyapani qo'ndirgan-cha chiqib ketishardi.

Brigadalar almashdi. Bosh oshpaz andak mizg'ib olish uchun orqa tomondagi xonaga o'tib ketdi. Nonushta bilan tushlik paytidagi to's-to'polon orasida u hamisha shunday qilardi.

Kunduzi soat to'rtga yaqin musiqa sadosi yangradi, bu gal yaqinginadan — qo'shni dansing binosidan baralla eshitilardi. Prosper Donj abgor bir qiyofada qator qilib terib qo'yilgan choynaklarga choy damlar, angishvona-day keladigan kichkina-kichkina chinni idishlarga qaymoq quyar, ora-orada shisha devor yoniga borib, Megrega hadik bilan qarab qo'yar edi.

Soat beshda uning uchala yordamchisi ketib, ularning o'rniga boshqa ikkitasi keldi. Soat oltida esa u, hisobchi Ramyuelga bir dasta patta bilan qandaydir ro'yxatni eltib berdi. Aftidan, ular qahvaxonadan chiqqan narsalarning ro'yxati bo'lsa kerak. Keyin o'zi ham yechinish xonasi tomon yo'l oldi va sal o'tmay, har kuni kiyadigan kostumida qaytib chiqib, xat tashuvchi yigit tuzatib qo'yan velosipedini yetakladi.

Tashqarida qosh qoraya boshlagan edi. Ponte ko'chasi tirband. Prosper Donj taksi va avtobuslar oralab Yelisey maydoni tomon yurdi. Etual maydoniga yetay deganda, birdan orqaga burilib, Ponte ko'chasiga qaytib keldi va radiopriyomnik hamda televizorlar sotiladigan magazinga kirib, kassaga uch yuz frankdan mo'lroq pul to'ladi. Bu haqini bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan olingan priyomnikning bir oylik badal puli edi.

Yana Yelisey maydoni. So'ng ulug'vor sukunatga cho'mgan Fosh ko'chasi. Bu yerda avtomobillar, xuddi sirg'alib ketayotganday, shovqinsiz yeladi. Prosper Donj hali uzoq yo'l bosadigan, har kuni ma'lum bir vaqtda aynan shu yo'ldan o'tadigan, izzat-ikromga loyiq kishilar singari tepkini ohista bosar edi.



Orqadan birovning ovozi eshitildi:

— Janob Donj, nariroqqacha kuzatib qo‘ysam maylimi?

Donj tormozni shu darajada qattiq bosdiki, velosipedini bir tomonga surilib, Megreni urib yuborishiga sal qoldi. «Majestik» mehmonxonasining xat tashuvchisidan vaqtinchalikka olingan, gavdasiga nisbatan ancha kichkina bo‘lgan velosipedda Megre u bilan qariyb yonmayon kelayotgan edi.

— Hayronman, — deb davom etdi Megre, — shahar chetida turadiganlarning hammasi nima uchun velosipedda yurmasikin-a? Avtobus yoki tramvayda yurgandan ko‘ra ming marta afzal-ku!..

Ular Bulon o‘rmoniga kirib borishdi. Ko‘p o‘tmay, nurlari ko‘l sathida jilva qilayotgan elektr chiroqlari ko‘zga tashlandi.

— Kunbo‘yi bosh qashishga ham vaqtingiz bo‘lmadi. Shuning uchun bezovta qilmay qo‘ya qoldim...

Megre tajribali velosipedchilarday tepkini bir maromda bosardi. Ahyon-ahyon orqa g‘ildirakning xiyol g‘iychillagani eshilib qolardi.

— Ayting-chi, Jan Ramyuel «Majestik»ka ishga kirmasidan oldin nima ish qilgan?

— Bankda hisobchilik qilgan... Kamarten ko‘chasidagi Atum bankida.

— Hm-m... Atum banki... Havas qiladigan joyi yo‘q... Bu deyman, Ramyuel deganingiz sal g‘alatiroqmi, a?.. Nosamimiyroqmi-yey?..

— Bechora kasalmand, — dedi past ovozda Prosper Donj.

— Ehtiyot bo‘ling... Yo‘lkaga chiqib ketdingiz... Sizdan bir narsani so‘ramoqchi bo‘lib turibman-u, odobsizlikka yo‘yasizmi deb, istihola qilyapman... Mana siz qahvaxonada bufetchisiz... Durust. Lekin bir narsani o‘ylab qoldim: nima sababdan shu kasbni tanlagansiz? Meni to‘g‘ri tushuning... Nazarimda, azbaroyi yaxshi ko‘rganingizdan shug‘ullanayotganga o‘xshamaysiz bu ish bilan; axir, odam bolaligida, o‘n olti-o‘n yetti yosh paytida: «Qahvaxonaga bufetchi bo‘laman», deb orzu

qilmaydi-ku. Ehtiyot bo'ling!.. Bunaqada mashina urib ketishi mumkin. A, nima dedingiz?

Donj tashlandiq bola ekanligi, sag'irxonadan Vitri-le-Fransua atrofidan ijaraga yer olgan bir fermerning oilasiga tushib qolganligi haqida, o'n besh yoshgacha o'sha yerda yashaganligi, keyin shaharga kelib, qahvaxonadan joy topganligi — oldin yugurdak, so'ng dastyor bo'lib ishlaganligi to'g'risida o'ksik bir ohangda so'zlab berdi.

— Harbiy xizmatni o'tab bo'lganimdan keyin, salomatligimning mazasi yo'qligi vajidan, janubda yashashga ahd qildim... Avval Marselda, keyin Kannada ofitsiant bo'lib ishladim. «Miramar»da ishlab yurgan paytimda birdan, bu odam bunaqa hashamatli restoranga munosib emas, degan gap chiqib qoldi. «Turqi sovuq», deganmish direktor. Shundan so'ng meni qahvaxonaga o'tqazib qo'yishdi... U yerda ham bir necha yil ishladim, Parijga ko'chib o'tganimdan so'ng, «Majestik» qahvaxonasiga ishga kirdim.

Ular Sen-Klu ko'prigidan o'tishgach, uch martacha allaqanday tor ko'chalarga burilishdi va nihoyat, baland bir tepalik yonida to'xtashdi.

— Bu yog'iga ham bormoqchimisiz? — deb so'radi Prosper.

— Agar siz yo'q demasangiz. Kunbo'yi mehmonxona yerto'lasida bo'lganim uchun, nima sababdan qishloqqa ko'ngil qo'yanligingizni yaxshiroq tushunib turibman. Ehtimol, o'z chorbog'ingiz ham bordir...

— Arzimas...

— Gul ekasizmi?

— Gul ham, sabzavot ham ekaman.

Ular endi palapartish tosh yotqizilgan va nomigagina chiroq o'rnatib qo'yilgan ko'chadan velosipedlarini yetaklaganча tepalikka ko'tarilishardi. Ikkovlari ham terga botib, hansirab qolishgan, binobarin, iloji boricha gaplashmaslikka harakat qilishardi.

— Yo'laklarda aylanib yurib, goh u-goh bu xizmatchi bilan suhbatlashganimdan keyin nimani aniqlashga muvassar bo'ldim, deng? Kecha yerto'lada kamida uch odam tunab qolibdi. Birinchisi Jan Ramyuel... U haqda qiziq gaplarni gapirib berishdi: o'ynashining tabiati

yomon emish, sal narsaga uni uydan haydab chiqarar-mish. Uch-to'rt kun oldin ham haydab yuborgan ekan, mehmonxonada tunabdi. Direktor ruxsat beraveradimi?

— Qoida bo'yicha mumkin emas, lekin murosayi madora deganday...

— Ramyueldan tashqari raqqos Zebio ham tunab qolgan... Uni, sinchkov bolakay, deb ataysizlar shekilli, to'g'rimi? Qaddi-qomati kelishgan, qoramag'iz, haqiqiy argentinalik. Uning surati tushirilgan dansingdagi afishalarda Erzebio Fualdes deb yozilgan. Hujjatlarida esa uning Lill shahridan ekanligi, bu Janubiy amerikalikning haqiqiy ismi Edgar Fagone ekanligi qayd etilgan. Kecha mashhur bir kinoaktyorning sharafiga dansingda ziyofat uyushtirilgan. Zebio u yerda ertalab soat uch yaringacha bo'lgan... Shunchalik kambag'al bo'lsa kerakki, taksiga yo'lkira to'lashdan ko'ra, mehmonxona yerto'lasida tunab qolishni afzal bilgan.

Prosper Donj gazchiroq yonida to'xtadi. U qizarib ketgan, hamrohiga tashvishlanib qarab turardi.

— Nima gap? — deb so'radi Megre.

— Yetib keldim... Mana uyim...

Tarashlangan toshdan qurilgan kichkina uychaning eshigi tirqishidan yorug' tushib turardi.

— Bir minutga kirsam bezovta qilib qo'ymaymanmi?

Uzun bo'yli, shalvillagan bu odamning tizzalari qaltirab, nafasi ichiga tushib ketganini Megre butun vujudi bilan his qildi.

Nihoyat, u bazo'r g'o'ldiradi:

— Ixtiyoringiz...

So'ng cho'ntagidan kalitni olib, eshikni ochdi-da, velosipedini yo'lakka qo'ygach, nogoh, aftidan har kuni shunday qilsa kerak, qichqirdi:

— Menman!

Yo'lakning oxirida oshxonaga olib kiradigan oynavand eshik bo'lib, ichkarida chiroq yonib turardi. Donj o'sha yoqqa yurdi.

— Tanishinglar...

Shartlotta oyoqlarini plita duxovkasiga tiqqancha butun gavdasini stol suyanchig'iga tashlab, pushtirang shoyidan ichki ko'yлак tikib o'tirardi.

U begona erkakni ko'rib, shoshib qoldi, oyoqlarini shosha-pisha duxovkadan chiqardi-da, stul ostida yotgan shippagini paypaslay boshladi.

— E-e, yolg'izmasmisan!.. Mehmondan uzr so'rayman...

Stolda yarmi ichilgan qahvadon bilan pirojniy ushoqlari qolgan taqsimcha turardi.

— Kiravering, marhamat... O'tiringlar... Prosper kamdan kam mehmon boshlab keladi.

Oshxona issiqqina edi. Yap-yangi, ajoyib priyomnikdan yoqimli kuy taralardi. Sharlottaning egnida xalat, oyog'ida uzun paypoq, tizzalarining ostiga bolish qo'yib olgan edi.

— Yo'g'-e! Komissar deysanmi? Tinchlikmi o'zi? — Prosper Donj Megreni tanishtirganda, u tamomila dovdirab qoldi.

— Tashvishlanmang, xonim. Tinchlik. Bugun bir ish bilan «Majestik»ka borgan edim, eringiz bilan tanishib qoldim.

«Eringiz» degani so'zni eshitib, ayol kulib yubordi.

— O'zi eriman deb aytdimi?

— Shunday bo'lsa kerak deb o'yladim...

— Yo'g'-e.. O'tiring, marhamat. Shunchaki birga turamiz, xolos... Do'stmiz desak to'g'riroq bo'ladi... Shunaqami, Prosper!... Ming yildan beri bir-birimizni bilamiz... Agar xohlaganimda, u menga uylanardi... Lekin men nuqul: nima keragi bor, shu bilan nima o'zgarardi, deb kelaman. Tanish-bilishlarimiz xabardor: ilgari raqqosa bo'lganman. Moviy sohildagi kabareda ishlaganman. Endi semirib, beso'naqay bo'lib ketganimdan keyin Fontan ko'chasidagi tungi restoranning pardoxonasida kun o'tkazib yuribman. Menga qara Prosper, priyomnikning haqini to'ladingmi?

— Albatta.

Diktor qishloq xo'jaligi masalalariga doir suhbat eshittirilishini e'lon qilgach, Shartlotta priyomnikni o'chirdi, xalati ochilib qolganini payqab ingliz to'g'nag'ichi bilan to'g'nab qo'ydi. Plita ustida qovurdoq dimlog'liq turardi. Shartlotta, dasturxon tuzasammikin,

deb o'ylab qoldi. Prosper Donj esa nima qilishni, o'zini qanday tutishni bilmay garang edi.

— Mehmonxonaga o'ta qolaylik, — dedi u.

— U yer sovuq. O'tirganday bo'lmaisizlar. Agar yashirin gaplashadigan gaplaring bo'lsa, men yotoqxonaga chiqa qolaman, birato'la kiyinib ham olaman. Janob komissar, bizning hayotimiz juda qiziq-da: Prosper bilan xuddi bekinmashoq o'ynayotganday yashaymiz. Men ishdan kelganimda — u ketadi, u kelganida — men ketaman. Birga o'tirib ovqatlanishga bazo'r ulguramiz. Hatto dam olish kunlarimiz ham deyarli bir vaqtga to'g'ri kelmaydi, shuning uchun bo'sh paytida qornining g'amini ham o'zi yeydi. Ozgina ichasizmi? O'zing mehmonga qara, Prosper, men chiqaqolay... Megre shoshib e'tiroz bildirdi:

— Yo'q, yo'q, xonim... O'tiravering... Hozir ketaman... Bilasizmi, bugun ertalab «Majestik» mehmonxonasining yerto'lasida jinoyat sodir bo'lgan... Voqea yuz bergan paytda do'stingiz yerto'lada deyarli yolg'iz o'zi bo'lgan, binobarin, bu kishidan ba'zi bir ma'lumotlarni bilib olamanmi, degan niyatda kirgan edim.

Bu shafqatsiz o'yinni davom ettirish oson emas edi — Prosper Donjning basharasi shunaqangi ayanchli ediki, shu paytda u qarmoqqa ilingan baliqni yoki bo'g'ziga pichoq qadalgan qo'yni eslatardi. U o'zini xotirjam ko'rsatishga urinar, lekin buni ming mashaqqat bilan eplayotgan edi!

Sharlotta bamaylixotir zarhalli qadahlarga konyak to'ldirdi.

— Kimni o'ldirishibdi! Xizmatchilardan birortasini-mi? — deb so'radi u hayron bo'lib, lekin hayajonlangani sezilmadi.

— Jinoyat yerto'lada yuz bergan, lekin o'ldirilgan odam xizmatchilardan emas... Juda sirli voqea. «Majestik»da eri, o'g'li, uning murabbiyasi va oqsoch ayol bilan yashayotgan badavlat bir xonimni o'ldirib ketishgan... Ular dabdabali nomerni egallab, sutkasiga ming frankdan ortiq haq to'lab turishgan. Bugun ertalab soat oltida ayolning jasadini topishdi, o'z nomeridan emas, yerto'ladagi yechinish xonasidan topishdi. Jinoyat

o'sha yerda sodir bo'lganga o'xshaydi... Nima uchun ayol yerto'laga tushgan?.. Uni kim va qay yo'sinda olib tushgan?.. Buning ustiga bemahalda, odatda unga o'xshagan oliymaqom xonimlar bunaqa paytda dong qotib uxlab yotishadi.

Sharlottaning qoshlari bir lahzagina chimirildi, go'yo miyasiga allaqanday fikr kelganday bo'ldi-yu, ammo uni darrov quvib yubordi. So'ng yalt etib, plita ustida qo'lini isitayotgan Prosperga qaradi. Uning qo'llari oppoq, miqti barmoqlarini sarg'ish tuk bosgan edi.

Megre ezishda davom etdi:

— Missis Klarkning nima uchun yerto'laga tushgani ni aniqlash qiyin bo'ladi.

Megre nafasini ichiga yutib, stol ustiga to'shalgan kleyonka guliga tikilgancha, jim bo'lib qoldi. Oraga shunaqa sukunat cho'kdiki, nogoh polga igna tushsa ham ovozi eshitilgan bo'lardi.

Aftidan, komissar Sharlottaga o'zini bosib olishi uchun vaqt bergan edi. U haykalday qotib turardi. Ancha paytgacha ovozi chiqmadi, nihoyat bo'g'iq bir ingroq bilan:

— A-ax! — deb yubordi.

Nachora!.. Kasbi shunaqa! Burchi shuni taqozo etadi...

— Uni tanirmidingiz deb so'ramoqchi edim sizdan.

— Menmi?..

— Klark sifatida emas. Bu familiyani u yaqinda, atigi olti yil burun olgan. Emilyana yoki to'g'rirog'i, Mimi sifatida tanirmidingiz?.. U Kanndagi restoranda raqqosa bo'lib ishlagan, o'sha paytda siz ham...

Bechora Charlotta! U shunday noshudlik bilan rol o'ynardiki! Ko'zlarini shiftga qadab, o'zicha nimalarnidir eslamochiday bo'ldi. Qani endi nigohida biror ma'no, biror ifoda bo'lsa!

— Emilyana?.. Mimi?.. Yo'q, eslayolmayapman... Kannda ishlaganini aniq bilasizmi?

— Ha, o'sha paytda «Go'zal yulduz» deb atalgan restoranda, Krauzet sohilida...

— Qiziq... Mimi degan ayolni hech eshitmaganman. Sen-chi, Prosper?

Prosperning dami ichiga tushib ketdi. Halqumiga suyak tiqilganday bo'lib turganda gapga solib nima qilisharkin?

— Y-yo'q...

Tashqaridan qaraganda hech narsa o'zgarmaganday edi. Barcha osoyishta xonadonlardagiday oshxona shi-nam va fayzli, tagida olov miltillab turgan qovurdoqning yoqimli hidi boyagiday dimoqqa urilib turardi. Stolga qizil gulli kleyonka yopilgan. Ustida pirojniy ushoqlari. Semizlikka moyil hamma ayollar singari Shartlotta ham shirinlikka o'ch bo'lsa kerak.

Chala tikilgan pushtirang ichki ko'ylak-chi!

Birdan mana bunday fojia. Hali hech kim aniq-taniq bir narsa degani ham yo'q. Hozir kirib kelgan har qan-day odam, er-xotin Donjlar qo'shnisi bilan chaqchaqlashib o'tiribdi, deb o'ylashi mumkin.

Ammo xonadagilarning birortasi og'iz ochishga jur'at etolmasdi. Yuzi g'alvir bo'lib ketgan sho'rlik Prosper ko'kishtob ko'zlarini yumgancha, xuddi mana hozir gur-sillab yiqiladiganday, plita oldida chayqalib turardi.

Megre xo'rsinib o'rnidan turdi.

— Xo'p, bezovta qilganim uchun uzr... Men endi boray...

— Hozir eshikni ochaman, — dedi shosha-pisha Shartlotta. — Darvoqe, men ham yo'lga o'tlanishim kerak... Soat o'nda ishda bo'lishim shart, bu yerda kechqurunlari bir soatda bitta avtobus yuradi... Shuning uchun oldinroq chiqmasa bo'lmaydi...

— Xayr, Donj...

— Omon bo'...

Ehtimol u so'zni oxirigacha aytgandir, ammo eshitib bo'lmadi. Megre yo'lakda turgan velosipedini yetakladi. Eshik yana yopildi. U qulf teshigidan ichkariga yana bir bor mo'ralamoqchi bo'ldi-yu, biroq ko'chadan birov o'tib ketayotganini ko'rib, bunday qilishga uyaldi.

U qiyalikdan tormozni bosib tushdi-da, qahvaxona oldida to'xtadi.

— Velosipedni shu yerga qo'yib tursam, ertaga erta-lab olib ketishadi.

Megre peshtaxta oldida turib bir stakan musallas ichdi, so'ng Sen-Klu ko'prigiga, avtobus bekatiga qarab yurdi.

Parijda esa brigadir Lyuka bir soatdan buyon ham-mayoqqa qo'ng'iroq qilib, o'z boshlig'ini qidirmoqda edi.

### III b o b

#### **SHARLOTTA «SAQOQUSH»DA**

— Qayoqlarda yuribsan, janob boshliq?!

Megre Rishar-Lenuar xiyobonidagi o'z kvartirasi ostonasida jilmaygancha turardi, — xotini «janob boshliq» degani uchun emas — u ko'pincha hazillashib shunaqa deydi, — gap shundaki, ichkaridan yuziga «gup» etib urilgan issiq havo unga boshqa narsani eslatgan edi...

U Sen-Kludan ancha olisda turar va umuman, Prosper Donj hamda uning o'ynashiga nisbatan tamomila boshqacha muhitda yashardi. Shunga qaramay, uyga qaytganida xotini, garchi oshxonada bo'lmasa ham, mehmonxonada bir narsa tikib o'tirganini, oyog'ini esa gazplita duxovkasida emas, pastakkina ko'chma elektr pechda toblayotganini ko'rdi. Qayerdadir chala yeyilgan pirojniy ham bo'lsa kerak, degan o'y o'tdi uning ko'ng-lidan.

Dumaloq stol tepasida osma chiroq yonib turardi. Dasturxon yopilgan stol ustida taqsimcha, bir grafina vino, yana bitta grafinda suv, ikki dona salfetka. Oshxonadan xuddi o'sha baland tepalik ustidagi uydagiday qovurdoq hidi kelib turibdi...

— Senga uch marta qo'ng'iroq qilishdi.

— Qayerdan? Uydanmi?

Megre va uning xodimlari Jinoyat qidiruv politsiyasini shunday deb atashardi.

U chaqqonlik bilan paltosini yechdi-da, elektr pechkaga qo'llarini tutdi, shunda yana Prosper Donj



ham xuddi mana shu tariqa gazplitada qo'llarini isitgani-  
ni esladi. Keyin telefon trubkasini ko'tarib, raqam terdi.

— Sizmisiz, xo'jayin? — Lyukaning yoqimli ovozi  
eshitildi. — Bormisiz? Nima yangilik? Sizga ba'zi bir  
gaplarni aytib qo'ymoqchi edim, shuning uchun ketmas-  
dan o'tiribman... Birinchidan, murabbiya to'g'risida... U  
mehmonxonadan chiqishi bilan Janvye iziga tushdi...  
Janvyening aytishicha, ayol Amerikada murabbiya emas,  
gangster ekan. Allo! Eshityapsizmi? Hozir hammasini  
gapirib beraman. Siz bilan gaplashganidan keyin ko'p  
o'tmay, u mehmonxonadan chiqqan. Yugurdak to'xtat-  
gan mashinaga o'tirmay, ko'chadan o'tib ketayotgan  
bo'sh taksida jo'nab qolgan. Janvye sal bo'lmasa ko'zdan  
qochirayozgan... Katta xiyobonda metroga tushib ket-  
gan. Keyin ikkala tomonidan kirib-chiqiladigan bir bino-  
da g'oyib bo'lgan. Janvye ham bo'sh kelmagan — izini  
yo'qotmay Lion vokzaligacha ergashib borgan. Hozir  
poyezdga o'tiradi-yu, jo'nab qoladi, deb xavotirga tush-  
gan, chunki Janvyening yonida puli kam ekan...  
To'rtinchi yo'ldan Rimga tezyurar poyezd jo'nashi kerak  
ekan. Ketishiga o'n minut vaqt qolgan ekan... Ellen  
Derromen hamma vagonlarning derzasiga mo'ralab  
chiqibdi... Hafsalasi pir bo'lib, orqasiga qaytgan paytida  
perronda sakvoyaj ko'targan baland bo'yli, kelishgan bir  
odam paydo bo'libdi...

— Osvald Dj. Klark... — dedi xotiniga loqayd tikil-  
gancha Megre. — Uni ogohlantirib qo'ymoqchi  
bo'lgan...

— Janvyening gapiga qaraganda, ular xo'jayin va  
unga tobe xodim sifatida emas, qadrdon do'stlarday  
so'rashishibdi. Klarkni ko'rganmisiz? Baland bo'yli, qot-  
madan kelgan, ochiq chehrali, ikki yuzi qip-qizil odam,  
xullas, beysbol ishqibozining aynan o'zginasi... Ikkovlari  
nima haqdadir qizg'in gaplashishib, perronda ancha vaqt  
aylanib yurishibdi, ko'rinishidan Klark jo'navorishga  
jur'at etolmayotganday tuyulibdi unga... Poyezd o'rnidan  
qo'zg'alibdi, amerikalik hamon ikkilanarmish, keyin  
vagon zinapoyasiga bir talpinibdi-yu, yana shashtidan  
qaytibdi... Nihoyat, ular vokzaldan chiqib, taksiga  
o'tirishibdi. Bir necha minutdan so'ng Gabriel ko'chasi-

da joylashgan Amerika elchixonasi yonida mashinadan tushishibdi. U yerdan elchixonaning Fridland ko'chasi-da istiqomat qiladigan yurist konsulti — «solisitor» huzuriga jo'nashibdi. Amerikaliklar uni shunday deb atasharkan. Solisitor tergovchiga qo'ng'iroq qilibdi, oradan salkam bir soatlar o'tgach, uchovlari Adolat saroyiga borishibdi, ularni darhol tergovchi kabinetiga boshlab kirishibdi. U yerda nima gap bo'lganini bilmayman-u, lekin tergovchi qaytib kelishingiz bilan unga qo'ng'iroq qilishingizni so'radi... Zarur gapi borga o'xshaydi... Janvyening oxirgi xabari shu bo'ldiki, ucha-la amerikalik Adolat saroyidan chiqqach, murdani rasman tan olish uchun sud-medsina ekspertizasiga qarab yo'l olishibdi... Keyin «Majestik»ka qaytib kelishibdi, Klark bilan solisitor ikkovlari birga kirib, ikki qadahdan viski ichishibdi, qiz esa o'z nomeriga kirib ketibdi... Bor gap shu, xo'jayin... Nazarimda, tergovchi siz bilan gaplashishni judayam xohlayapti. Hozir soat nechchi? Soat sakkizgacha uyida bo'ladi. Telefoni — Tyurbigo 25—62... Keyin bir tanishinikiga bormoqchi. U yerniyam telefonini berdi... Hozir... Galvani 47—53... men kerak emasmanmi?.. Xayr. Kechasi ularga Torans ko'z-quloq bo'lib turadi.

— Ovqatni opkelaveraymi? — deb so'radi Megre xonim ko'ylagiga ilashgan ipni qoqib tashlab.

— Oldin smoking<sup>1</sup> tayyorla.

Soat sakkizdan oshib ketgani uchun u Galvani 47—53 ga qo'ng'iroq qildi. Bu prokuror yordamchisining telefoni edi. Trubkani xizmatkor ayol oldi; g'ala-g'ovur, qoshiq, sanchqilarning shiqirlashi eshilib turardi.

— Hozir chaqiraman... Kim so'rayapti? Komissar Megre?

Yotoqxonaning eshigi ochiq bo'lgani uchun Megre oynavand shkafni ko'rib turardi. Xotini u yerdan smoking oldi.

— Sizmisiz, janob komissar?.. Hm... Hm... Inglizchani bilmaysiz-a? Rostdanmi? Allo! Gapimni bo'lmang! Aytmoqchimanki, hm... albatta o'sha ish

---

<sup>1</sup> Anjir ichimligi (*tarj.*)

xususida-da... Nazarimda, shu ishga aralashmaganingiz ma'qulga o'xshaydi... Ya'ni, mister Klark bilan ham, xizmatkorlari bilan ham to'qnashib yurmang, demoqchi-man...

Megrening lablariga nimkulgi indi.

— Bugun kunduzi oldimga mister Klark bilan o'g'lining murabbiyasi keluvdi. U judayam obro'li odam, aloqalari zo'r... U kelmasidan oldin menga Amerika elchixonasidan qo'ng'iroq qilib, uni rosa maqtashdi... Gapimga tushunyapsizmi?.. Shundoq bo'lgandan keyin xato qilib qo'ymaganingiz durustmikin... Mister Klarkka solisitor hamroh bo'lib keldi, u ham men bergan guvohlikni yozib oling, deb turib oldi... Allo! Eshityapsizmi, janob komissar?

— Ha, ha, janob tergovchi. Gapiravering.

Trubkadan qoshiq, sanchqilarning ovozi eshitilib turardi. Keyin birdan stol atrofidagi g'ala-g'ovur tinib qoldi. Aftidan, mehmonlar tergovchining gap-so'zlariga qiziqib qolishgan edi.

— Masalaning mohiyatini ikki og'iz so'z bilan tushuntirishga harakat qilaman. Ertaga ertalab mahkamamizning boshlig'i o'sha guvohlikning mazmunini sizga aytib berishi mumkin... Mister Klark haqiqatan ham ish yuzasidan Rimga, undan keyin boshqa mamlakatlarning poytaxtlariga borishi kerak ekan... Yaqindan beri u miss Ellen Derromenning qallig'i ekan...

— Uzr, uzr, janob tergovchi... Qallig'i dedingizmi? Mister Klark oilali odam bo'lsa kerak, deb o'ylagan edim.

— Albatta! Albatta! Lekin tez kunlarda xotini bilan ajrashmoqchi ekan... Ammo rafiqasi bundan bexabar bo'lgan... Binobarin, qallig'i desak ham bo'laveradi... U Rim safaridan foydalanib qolgan...

— Ya'ni, miss Derromen bilan tunni Parijda o'tkazgan.

— To'ppa-to'g'ri. Lekin, janob komissar, bekorga kinoya qilyapsiz. Klark menda juda yaxshi taassurot qoldirdi. Ularning mamlakatidagi axloq qoidalari biznikiga o'xshagan emas, binobarin, qo'ydi-chiqdi ham haligidaqa... Qisqasi, tunni qayerda va kim bilan o'tkaz-

ganini shartta aytib qo'ya qoldi... Siz bo'lmaganingiz uchun, har ehtimolga qarshi, inspektor Dyukyuenga tekshirib ko'rishni topshirdim, lekin Klark aldamaganiga ishonchim komil... Shuning uchun sal noqulay bo'larmikin deb turibman...

Bu gapning ma'nosi shunday edi: «Biz oliy tabaqaga mansub, Amerika elchixonasi homiylik qilayotgan odam bilan o'ynashyapmiz. Shuning uchun u bilan pachakilashmang, beo'xshov xatti-harakat qilib qo'yib, sirkasi suv ko'tarmaydigan amerikalikni ranjitib qo'yishingiz mumkin. Yaxshisi, yerto'ladagi xizmatchilar va boshqa qalang'i-qasang'ilar bilan shug'ullanavering, mister Klarkni esa, o'zinga qo'yib bering!»

— Tushundim, janob tergovchi. Omon bo'ling, janob tergovchi. — Shunday deb, Megre trubkani qo'ydi-da, xotiniga yuzlandi:

— Ovqatni opkelaversinlar, Megre xonim.

Soat tungi o'n ikkilarga yaqinlashib qolgan edi. Jinoyat qidiruv politsiyasining uzundan uzun, nim-qorong'i va bo'm-bo'sh yo'lagida go'yo oppoq tuman suzib yurganday tuyulardi. Megre kamdan kam kiyadigan loklangan qora botinka xuddi to'ybolaning yangi poyabzaliday g'arch-g'urch qilardi.

U o'z kabinetiga kirgach, apil-tapil pechkadagi olovni titkilab, qo'llarini tutdi, keyin trubkasini tishlagancha, inspektorlar o'tiradigan xona eshigini ochdi.

Navbatchi Dyukyuen Toransga allaqanday kulgili latifani aytib berayotgan ekan shekilli, ikkovlarining ham kayflari chog' edi.

— Xo'sh, ishlar qalay, birodar?

Megre siyoh tomchilari qotib qolgan stol chetiga omonatgina o'tirdi-da, trubkasining kulini polga qoqdi. Bu xonada bemalol, hatto tugmalarni yechib, shlyapani qansharga qo'ndirib o'tirsa ham bo'laverardi. Inspektorlar qo'shni «Dofin» qahvaxonasidan pivo opkelishni buyurib qo'yishgan edi, komissar o'zini ham unutishmaganini ko'rib, ichida mamnun bo'ldi.

— Bilasizmi, xo'jayin, bu Klark deganingiz g'alati odam ekan. Uni kuzatish va tashqi qiyofasini eslab qo-

lish maqsadida «Majestik» qahvaxonasiga borgan edim... Ko'rinishidan ko'pni ko'rgan va o'ziga xiylagina bino qo'ygan janobga o'xshaydi... Lekin kechagi tunni u qanday o'tkazganini men endi bilaman-ku. Xo'sh? U g'irt yosh bolaning o'zi ekan...

Torans Megrening qorday oppoq yengi va marvarid to'g'nag'ichlariga beixtiyor ko'z qirini tashladi — u o'z boshlig'ini bu qadar bashang kiyimda kam ko'rgan edi.

— Endi bu yog'ini eshiting... Avvalo u o'z xonimchasi bilan Lepik ko'chasidagi o'n ikki frankka tushlik beriladigan kichkina restoranda ovqatlangan... Tasavvur qilyapsizmi? Restoran egasi ularni darrov payqagan, chunki uning mijzlari orasida haqiqiy shampan vinosini buyuradiganlar oz uchraydi... Keyin ular qayerda arg'imchoq uchish mumkinligini so'rashgan... Ikkovlari ham fransuz tilida zo'rg'a gaplashishadi. Ularni yarmarkaga, Tron darvozasiga yo'llashgan... Xuddi ana shu yerda izlariga tushdim... Arg'imchoq uchishdimi, yo'qmi — bilmayman, harholda, uchishgan bo'lsa kerak... Keyin rosa miltiq otishdi, bu ko'ngilxushlik uchun Klark yuz frankdan ko'proq pul to'lagan edi, tir egasining ko'zi chiqib ketayozdi... Yo tavba! Xuddi oshiq-ma'shuqlarday olomon orasida qo'ltiqlashib yurishibdi-ya... E-e hali buyam holva!.. Ejenning Temir Bilak degan masxaravozini taniysiz, a? Hozir uning o'rnida amerikacha erkin kurashning piri sifatida nom qozongan boshqa bir zabardast odam tomosha ko'rsatyapti. Tomosha tuga-gach, Ejen olomonga qarab, qani, mana shu polvon bilan kim kurash tushadi, deb qoldi. Nima bo'ldi, deng? Bizning mister Klark tushmagur o'rtaga chiqdi... Yag'iri chiqqan kanop mato bilan to'sib qo'yilgan burchakka borib yechindi-da, keyin haligi polvon bilan olisha ketdi... Birinchi qatorga o'tirib olgan xonimchasining qiyqirib qarsak chalgani haliyam ko'z oldimda turibdi... Tomoshabinlar ham nuqul: «Yasha, ingliz polvoni! Bo'sh kelma!» deb baqirishardi. Keyin oshiq-ma'shuqlar «Mulen de la Galet»ga borishdi, u yerda rosa raqsga tushishdi... Tungi soat uchlarda «Gumbaz» qahvaxonasida qovurilgan sosiska tanovul qilishgach, hovurlari bosildi shekilli, uxlagani jo'nashdi... «Burgutcha» mehmon-

xonasida eshikbon yo'q, faqat tungi qorovul bor, u ham hujrasiga kirib, xurrakni otib yotaveradi, mehmonxonaga kim kirdi, kim chiqdi — unchalik qiziqmaydi. Gapiga qaraganda, sahar payti, soat to'rtlarda zinapoyada kimlardir inglizcha so'zlashganmish... Ertalabgacha mehmonxonadan hech kim chiqmaganmish... Mana shunaqa gaplar! «Majestik»da istiqomat qilayotgan bu mehmonlar tunni juda g'alati o'tkazishgan, shunday emasmi?

Megre hayam demadi, yo'q ham demadi, har zamonda bir taqadigan qo'l soatiga (to'ylarining yigirma yilligi munosabati bilan sovg'a qilingan edi) bir qaradida, stoldan sakrab tushdi.

— Xayr, yigitlar!

Ostonaga yetganda yana orqasiga qaytib, krujkadagi pivoni oxirigacha sipqordi. Ko'chaga chiqib, taksi yo'liqtirguncha ancha-muncha yo'l bosib qo'ydi.

— Fonten ko'chasiga...

Soat bir bo'lgan edi. Manmartning tungi ishratxonalarida o'yin-kulgi avjiga chiqqandi. «Saqoqush» eshigi oldida mijozlarni bir negr qarshi olmoqda edi. Megre paltosi bilan telpagini dastyorga topshirdi. Rango-rang momiq sharchalar va qog'oz kamalaklar g'ujg'on o'ynayotgan zalga kirdi-yu, xuddi kayfi oshgan odamday, biroz chayqalib turdi.

— Raqs maydonchasiga yaqinroq joyga o'tirasizmi? Marhamat, bu yoqqa... Bir o'zingizmisiz?

Megre o'zini tanimagan mutasaddini jerkib berdi:

— Ovsar!

Lekin sotuvchi uni uzoqdanoq ko'rgan va qizil yog'ochdan yasalgan peshtaxtaga suyanib turgan ikki raqqosaga engashib, bir nimalarni pichirlamoqda edi.

Megre xuddi oddiy bir mijozday bo'sh stol yoniga o'tirdi, bu yerda pivo ichish yarashmasdi, shuning uchun konyak bilan mineral suv buyurdi. Oradan o'n minut o'tar-o'tmas, restoran xo'jayini paydo bo'ldi. U nihoyatda bezovta edi.

— Tinchlikmi, janob komissar? Bilasiz-ku, men har doim tartib-qoidaga rioya qilaman...

U komissarning qo'qqisidan kirib kelishiga kim

sababchi bo'ldiykin, deganday zalga tez ko'z yugurtirib chiqdi.

— Tinchlik, tashvishlanmang, — dedi Megre. — Shunchaki, biroz hordiq chiqarish uchun kiruvdim.

U cho'ntagidan trubkasini chiqardi-yu, lekin xo'jayinning nigohidan bu yerda chekish mumkin emasligini payqab, yana joyiga solib qo'ydi.

— Balki sizga biror ma'lumot kerakdir, — dedi ko'zini qisib xo'jayin. — Marhamat, xizimatingizga tayyormiz. Lekin men o'z xizmatchilarimni yaxshi bilaman... Ular sizni qiziqtirmasa kerak... Mijozlar masalasiga kelsak... ko'rib turibsiz, ular ham har doimgiday... Chet elliklar, boshqa shaharlardan kelgan musofirlar... Hov anovi, Leo bilan o'tirgan odam — deputat.

Megre asta o'rnidan turdi-da, pardoixonaga olib tushadigan zinapoya tomonga qarab yurdi. Pardoixonaga yerto'laga — devorlari havorang koshinlar bilan bezatilgan keng va charog'on xonaga joylashgan edi. Uning yonginasida sip-silliq qizil taxtadan yasalgan telefon budkasi turardi. Kattakon ko'zgu. Uzun stolda turli-tuman narsalar — upa-eliklar, taroq, cho'tkacha, tirnoq bo'yaydigan asboblari, lab bo'yoqlari...

— Qachon o'sha bilan tansaga tushsam, albatta bir balo bo'ladi. Boshqa paypoq olib ber, Sharlotta...

Chiroyli ko'ylak kiyib olgan past bo'yli, lo'ppigina ayol stulda o'tirgancha paypog'ini yechmoqda edi, Sharlotta sandiqchani titkilab, paypoq qidirayotgan paytda, bu ayol yubkasini yuqoriga ko'tarib, oyoqlariga bemalol razm solib o'tirdi.

— Qanaqasini beray? Yigirma birinchi razmermi? Yupqasidanmi?

— Bo'laveradi. Bera qol... Yigit o'lgur tansa tushishni bilmaganidan keyin, nima farqi bor...

U ko'zguda Megrening aksini ko'rdi-yu, jim bo'lib qoldi, ammo yangi paypoqni kiyaverdi, ahyon-ahyon komissarga noz bilan ko'z tashlab qo'yardi. Sharlotta orqasiga o'girilib politsiya komissarini ko'rgach, rangi duv oqarib ketdi.

— Voy! Sizmisiz?!

Shunday deb, u zo'rma-zo'raki jilmaydi. Sharlotta

shu tobda Sen-Kludagi kulbasining oshxonasida oyoqlarini gazplitaning duxovkasida isitib, pirojniy yeb o'tirgan ayolga sirayam o'xshamasdi.

Sap-sariq jingalak sochlari boshiga shu qadar hafsala bilan yopishtirilgan ediki, ularning rostakam sochligiga ham odamning ishongisi kelmasdi. Yuzi bir zumda qizg'ish-jigarrang tusga kirdi. Odmi, lekin chiroyli qilib tikilgan qora shoyi ko'ylagi qaddi-qomatiga yopishib turar, ko'ylagining oldiga jajjigina oq to'r peshband tutilgan edi.

— Haqini keyin to'layman, Sharlotta. Hammasini bir qilib...

— Mayli, mayli...

Qiz bu odam o'zining chiqib ketishini kutayotganligini payqab, tuflisini kiydi-da, restoranga olib chiqadigan zinapoyaga qarab yugurdi.

Sharlotta stol ustida yoyilib yotgan qutichalarni go'yo tartibga solayotgan kishiday bo'lib, anchagacha so'z qotmadi, axiyri sabri chidamay, so'radi:

— Mendan nima istaysiz o'zi?

Megre indamadi. Hozirgina yangi paypoq kiyib chiqib ketgan qiz o'tirgan stulga borib o'tirdi. Yerto'laga tushganidan foydalanib, shoshmasdan, hafsala bilan trubkasiga tamaki to'ldira boshladi.

— Siz meni bir nimani biladi deb o'ylayapsiz shekilli, qattiq yanglishasiz.

Qiziq holat: o'tli-shudli ayollardan farqli o'laroq vazmin ayollar hayajonlarini yashirishga ojizlik qiladilar. Sharlotta sir boy bermaslikka urinar, ammo yuzlari qizg'ish dog' bilan qoplangan, stoldagi narsalarga omonatgina qo'l tekkizardi, shu boisdan tirnoq bo'yaydigan cho'tkacha ham polga tushib ketdi.

— Biznikiga borganingizda ko'zlaringizdan sezuvdim, allaqanday gumoningiz borligini...

— Mimi ismli raqqosani mutlaqo tanimayman, demoqchisiz-da! Shundaymi?

— Tanimayman.

— Axir, siz uzoq muddat Kannnda, qahvaxonada xuddi o'sha Mimi bilan bir vaqtda raqsga tushib yurgansiz-ku?



— Kannda qahvaxona ko‘p, undan tashqari, hamma bilan og‘iz-burun o‘pishib yurish shart emas.

— Qayerda ishlagansiz? «Go‘zal yulduz»dami?

— Nima qipti?

— Hech narsa. Men siz bilan shunchaki biroz chaqchaqlashib o‘tirish uchun kirgan edim...

Ammo ikkovlari ham jim bo‘lib qolishdi, bu sukunat xiyla muddat cho‘zildi. Bu orada restoranga kelgan mijozlardan biri yerto‘laga tushib, qo‘lini yuvdi, sochlarini taradi, keyin yarqirab turgan tuflisini artish uchun latta so‘radi. Nihoyat, u likopchaga besh frank tashlab, yuqoriga chiqib ketganidan so‘ng, komissar yana gap boshladi.

— Prosper Donjni juda hurmat qilaman... U ajoyib odam...

— E, nimasini aytasiz! Judayam yaxshi odam! — deya xitob qildi Charlotta entikib.

— Bolaligi og‘ir kechgan ekan, hammavaqt baxtli kunlarni orzu qilib yashagan ko‘rinadi sho‘rlik.

— Ha, rost. Loaqal maktabni ham tugatmagan bechora, hozir nimaniki bilsa, hammasini o‘zi o‘qib-o‘rgangan. Qahvaxonasiga kirsangiz, shunaqa kitoblarni topasizki, bunaqa kitoblar bizga o‘xshagan kambag‘al odamlarning tushiga ham kirmagan. U hamisha ma‘lumotini oshirishga harakat qiladi... Yana bir orzusi...

U, nimadandir xijolat bo‘lganday, indamay qoldi.

— Telefon jiringladimi?

— Yo‘q.

— Darvoqe, nima haqida gapirayotuvdim?

— Prosperning orzusi haqida.

— Ha, yashirib nima ham qildim! O‘g‘il ko‘rishni, uni tarbiyalab odam qatoriga qo‘shishni orzu qilardi. Ammo xotin masalasida omadi yurishmadi — men operatsiya bo‘lganman, tug‘ish mumkin emas.

— Jan Ramyuelni taniysizmi?

— Yo‘q. Hisobchiligini, tag‘in kasalmandligini bila-man, xolos. Prosper «Majestik» haqida kam gapiradi... Men bo‘lsam, «Saqoqush»da nima voqea bo‘lsa, hammasini oqizmay-tomizmay gapirib beraman...

U o'zini ancha bosib olgan edi. Megre buni sezib, yana «hujum»ni davom ettirdi.

— Bilasizmi, meni nima taajjubga soldi?.. Buni aytishga haqqim yo'q... Tergov sirini oshkor qilib bo'lmaydi... Lekin gap ikkalamizning oramizda qolishiga ishonaman... Bilasizmi, missis Klarkning sumkasidan chiqqan to'pponcha qotillik yuz berishidan sal oldinroq Fobur-Sent-Onore ko'chasida yashovchi qurolsozdan sotib olingan ekan... Qizig'-a, shunday emasmi? Oilali, badavlat ayol Nyu-Yorkdan kelib, Yelisey maydonidagi hashamatli mehmonxonaga joylashadi-yu, nimagadir birdan unga to'pponcha kerak bo'lib qoladi... Buning ustiga, mo'jazgina ayollar to'pponchasini emas, kattakon, beso'naqay to'pponchani sotib oladi.

Megre Sharlottaga qaramaslik uchun, nima sababdan bu qadar bashang kiyinib olganiga go'yo o'zi ham ajablanayotganday, yaltiroq tuflilarining uchiga tikilib o'tirardi.

— Ana shu ayol oradan bir necha soat o'tgach, maxfiy zinapoya orqali mehmonxona yerto'lasiga tushadi... U kim bilandir uchrashish uchun tushgan, degan xulosa chiqarmasdan bo'ladimi?.. Tabiiyki, to'pponchani ham ana shu uchrashuvni nazarda tutib sotib olgan... Endi bir tasavvur qilib ko'ring, shu qadar muhtaram zotga aylangan ayolning o'tmishi xiylagina nopokroq bo'lgan-u, bundan boxabar kimsa bu sirni oshkor etib, uni sharmisor qilishga uringan... Aying-chi, Ramyuel Moviy sohilda yashaganmidi? Yo'q, deysizmi? O'zini Zebio deb atovchi raqqos-chi?

— Uni tanimayman.

Megre suhbatdoshiga qaramasdi, chunki qizning ho'ngrab yig'lab yuborishi mumkinligini shundoq ham sezib turardi.

— Uni tungi qorovul o'ldirgan bo'lishi ham mumkin, nimagaki ertalab soat oltalarda u yerto'laga tushgan... Prosper Donj maxfiy zinapoyada uning qadam tovushlarini eshitgan. Bu ishni yo'lak xizmatchilaridan birortasi qilgan bo'lishi ham mumkin. Afsus, ming afsus, Kannda Mimi bilan tanishvolmagan ekansiz-da!.. O'sha paytda u kimlar bilan yaqin aloqada bo'lganligini aytib bergan

bo'lardingiz. Shunda men ham Kannga borib yurishdan qutulardim. Marhum Mimini taniydigan birorta odamni topolmay, so'ppayib qaytib kelsam, juda alam qiladi-da.

Megre o'rnidan turib, trubkasini bo'shatdi, keyin likopchaga chaqa tashlamoqchi bo'lganday, cho'ntagini kavlay boshladi.

— Qo'ying, keragi yo'q! — deya e'tiroz bildirdi Sharlotta.

— Xayr, yaxshi qoling... Poyezd soat nechchida jo'nashini aniqlashim kerak.

Megre zalga ko'tarildi-da, tezda hisob-kitob qilib, «Saqoqush»dan chiqqach, shosha-pisha ko'chaning narigi tomonida joylashgan barga kirdi. Bu barning mijozlari shu atrofdagi tungi restoranlarning xizmatchilari edi.

— Telefonlaringiz qayerda?

U Markaziy stansiyaga qo'ng'iroq qildi.

— Jinoyat qidiruv politsiyasidanman. Hozir «Saqoqush» restoranidan qo'ng'iroq qilib, Kanni ulashlaringizni so'rashadi. Orqaga surib turinglar. Men hozir yetib boraman.

U taksiga o'tirib, Markaziy telefon stansiyasiga jo'nadi, tungi smena boshlig'iga o'z guvochnomasini ko'rsatdi.

— Quloq solib turiladigan eshitgichni bering... Hech kim Kanni ulashni so'ramadimi?

— Hozirgina so'rashdi. Kimning nomeri ekanligini ham aniqlab qo'ydim. Tunbo'yi ishlaydigan «Artistlar qahvaxonasi»ning nomeri ekan. Ulayveraymi?

Megre eshitgichni qulog'iga tutib, kuta boshladi. Eshitgich taqqan telefonchi qizlar ham unga taajjublanib qarab turishardi.

— Kann bilan ulayman, nomer — 18—43. Gapiring.

— Rahmat... Allo! «Artistlar qahvaxonasi»mi? Kim telefonda? Ha, Janmisan?.. Sharlotta gapiryapti... Ha, o'sha, «Go'zal yulduz»da ishlagan. Hozir, eshikni berkitib qo'yay... Birov kirdi chamamda...

Sharlottaning kim bilandir gaplashgani, — aftidan, mijozlardan biri bo'lsa kerak, — keyin eshikni qarsillatib yopgani eshilib turdi.

— Menga qara, azizim Jan... Zarur gap chiqib qoldi... Keyinroq xat orqali hammasini tushuntiraman... Yo‘q, yozish xavfli... Buyog‘i tinchigandan keyin o‘zim oldingga boraman... Jiji haliyam o‘sha yerda ishlayaptimi? A?.. Haliyam o‘sha-o‘shami? O‘zgargani yo‘qmi?.. Menga qara, unga aytib qo‘y, agar birortasi Mimini so‘rab qolguday bo‘lsa... Eslaysanmi uni?.. Yo‘q, deysanmi?.. Ha, u paytda sen Kannada emas eding... Xullas, undan birov Mimini so‘rab-surishtirsa, bilmayman, desin... Ayniqsa, Prosper haqida og‘iz ocha ko‘rmasin... Gapimga tushundingmi?

— Qaysi Prosper? — deb so‘radi narigi tomondagi odam.

— Keyin tushuntiraman... Qisqasi, Prosporni ham, Mimini ham tanimayman, desin... Allo? Gapni bo‘lmang!.. Kim oramizga tushib qoldi?

Megre uning bezovtalanayotganini sezdi; aftidan, gapimizga birov quloq solyapti, degan o‘y kechdi Sharlottaning miyasidan.

— Tushundingmi, Jan? Butun umidim sendan, azizim... Bo‘pti, gapim tamom, chunki...

Megre eshitgichni olib qo‘yib, o‘chib qolgan trubkasini tutatdi.

— Qalay, eshitoldingizmi? — deb so‘radi smena boshlig‘i.

— Eshitdim... Menga Lion vokzalini ulab bering?.. Kannaga poyezd qachon jo‘nashini bilishim kerak. Ulgursam bo‘lgani.

U oldida turgan smokingga achinib qarab qo‘ydi. Kiyimini almashtirishga ulgursa bo‘ldi.

— Allo?.. Qachon dedingiz?.. Soat to‘rt-u o‘n yettida? Kunduzi soat ikkida keladi?.. Rahmat.

Megre Rishar-Lenuar xiyoboniga halloslab kirib bordi. Betoqat bo‘lib o‘tirgan xotinini hazil-huzul bilan yupatgan bo‘ldi.

— Tezroq kostumimni, ko‘ylagimni, paypoqlarimni olib ber.

Soat to‘rt-dan o‘n yetti minut o‘tganda u Moviy sohilga jo‘naydigan poyezd vagonida, tizzasida badbashara bir kuchukchani olib o‘tirgan ayol ro‘parasida o‘tirardi.

Ayol uni itlarni yomon ko‘radi, deb o‘ylamoqda edi shekilli, ahyon-ahyon Megrega olayib qarab qo‘yardi.

Xuddi shu paytda Sharlotta har tungiday, taksiga o‘tirdi; asosan «Saqoqush» mijozlariga xizmat qiladigan shofer uni uyiga tekinga eltib qo‘ydi.

Ertalab soat beshda Prosper Donj mashina eshigi qarsillab yopilganini, motor shovqinini, so‘ng zinapoyadagi qadam tovushlarini, eshik qulfiga kalit solinganini eshitdi. Ammo bu gal gazplitaning vishillab yongani eshitilmadi. Sharlotta oshxonaga kirmay, zinapoyadan to‘ppa-to‘g‘ri yuqoriga ko‘tarildi va eshikni ochiboq, qichqirdi:

— Prosper!.. Menga qara... O‘zingni uyquga solma... Komissar...

Nima gapligini bafurja tushuntirishdan oldin Sharlotta apil-tapil yechina boshladi, shoshganidan siynabandining tugmasini uzib yubordi, ichidan tang‘ib bog‘langan belbog‘ini tushirayotganida paypoqlari sirg‘alib, oyoqlarida buralib qoldi.

— Jiddiy gaplashib olishimiz kerak. Tur, Prosper... Tursang-chil!.. To‘shakda cho‘zilib yotgan odamga gap tushuntirib bo‘ladimi...

## *IV b o b*

### *JJI VA SAYIL*

Uch soat davomida Megre o‘zini noxush sezdi, xuddi arosatda, o‘ngi bilan tushi orasida qolganday edi. Ehtimol, asablari qattiq charchaganidan shunday bo‘lgandir. Poyezd Liongacha, hatto undan ham nari — Montelimargacha tuman oralab bordi. Megrening ro‘parasida seryung kuchukni ko‘tarib o‘tirgan ayol shu o‘tgan vaqt mobaynida biror marta ham o‘rnidan jilmadi, zero, bo‘sh kupening o‘zi ham yo‘q edi.

Megre o‘zini qo‘ygani joy topolmasdi. Vagon ichi dimiqib ketgan edi. Deraza ochilsa, tashqaridan izg‘irin shamol yopirilib kirardi. Nihoyat, Megre vagon-restoranga qarab yo‘l oldi, biroz o‘ziga kelish niyatida

bufetdagi hamma ichimliklardan tatib ko'rdi: avval qahva, keyin konyak, so'ng esa pivo ichdi.

Ertalab soat o'n birlarga yaqin, ozgina tamaddi qilib olsam tuzuk bo'larman, degan xayol bilan quymoq buyurdi, ammo u ham tomog'idan o'tmadi.

Qisqasi, dim vagonda o'tkazilgan uyqusiz tun o'z ishini qilgan edi. Megre tamom holdan toydi. Marseldan o'tganlaridan keyin o'tirgan joyida sal ko'zi ilingan ekan, provodnikning: «Kann!» degan xitobini eshitib, sapchib o'rnidan turdi-yu, garangsib atrofga alangladi.

Yopiray! Xuddi O'n to'rtinchi iyul kunidagiday ham-mayoqni mimoza gullari bosib ketgan edi. Oftob charaqlab turibdi. Parovozlarning ustida ham, vagonlarning ustida ham, peron ayvonini ko'tarib turgan cho'yan ustunlarda ham mimozalar! Odam g'ij-g'ij, hamma oq shim, yaltiroq kostum kiyib olgan...

Bir mashina kelib to'xtagan edi, undan haligiday oq shim va bir xil furajka kiygan, burama mis karnay qo'ltiqlagan o'ndan ortiq odam tushdi.

Megre vokzaldan chiqqach, gumburlatib kuy chalib borayotgan yana bir orkestrga duch keldi.

Ohang va gullar bir-biriga qorishib ketgandek. Hammayoqda bayroqlar, alvonlar, eng muhimi, butun shaharni muattar hidga to'ldirgan tillarang mimozalar.

— Kechirasiz, serjant, — deb so'radi Megre politsiyachidan, u ham binoyidek yasanib olgan edi, — nima gap o'zi, tinchlikmi?

Politsiyachi unga xuddi osmondan tushgan odamga qaraganday, taajjublaniib qaradi.

— U nima deganingiz! Bayram-da, bayram. Karnavalga ketishyapti. Gulga burkangan aravalarni ko'rmayapsizmi?

Ko'chadan yangidan yangi orkestrlar to'xtovsiz o'tib turar, ular olisdan o'qtin-o'qtin ko'zga chalinib, o'z qoshiga imlayotgan moviy dengiz tomon borishardi.

Megre qo'g'irchoqday kiyinib olgan bir qizaloqni keyin ko'p eslab yurdi. Sayil o'yinlarini miriqib ko'rish va, binobarin, sohildan tuzukroq joyni egallash niyatida onasi uni qo'lidan yetaklab emas, balki sudrab borardi. Qizchanning burni uzun, ikki yonog'i qip-qizil, xuddi

xitoylarnikiga o'xshagan ingichka mo'ylovi iyagiga osilib tushgan tasqara niqobni demasa, uning ajablanadigan joyi yo'q edi. U do'mboq oyoqchalarining uchida pildirab borardi.

Megre yo'lni so'rab ham o'tirmadi. Xoli ko'chadan yurib, Kruazet sohiliga chiqishi bilan «Artistlar qahvaxonasi» degan yozuvga ko'zi tushdi, sal naridagi eshik tepasiga «Otel» deb yozib qo'yilgan edi. Megre bu qanaqa mehmonxona ekanligini darrov fahmladi.

U ichkariga kirdi. Qora kostum, oq ko'ylak, tunukaday qattiq galstuk taqib olgan to'rt mijoz ishrat daqiqalarini kutib, qarta o'ynab o'tirishardi.

Deraza yonida yuz-ko'zlari obdan bo'yalgan bir qiz dimlama karam bilan sosiska tamaddi qilar, dastyor stolarni artar, peshtaxta ortida qandaydir bir yigit, aftidan, qahvaxona xo'jayini bo'lsa kerak, gazeta o'qimoqda edi. Tashqaridan mis karnaylarning sadosi, odamlarning baqiriq-chaqiriqlari, mashinalarning dut-dutlagani eshilib turar, ko'chadagi olomon oyog'i ostidan ko'tarilgan chang ham bamisoli mimoza hidiga to'yinganday edi.

— Bir krujka pivo! — dedi og'ir paltosini yechib, yengil tin olgan Megre.

Boshdan oyoq qora kiyim kiyib olganidan u o'zini noqulay sezardi. Ichkariga kirishi bilan Megre qahvaxona xo'jayini bilan ko'z urishtirib olgan edi.

— Ayting-chi, musye Jan...

Musye Janning ko'nglidan: «Ayg'oqchi bo'lsa kerak», degan o'y kechgani shundoq ko'rinib turardi.

— Qahvaxonani olganingizga ancha bo'ldimi?

— Uch yilcha bo'p qoldi. Nima uchun so'rayapsiz?

— Oldin qayerda edingiz?

— Agar bu sizni juda qiziqtirsa, aytishim mumkin: Monte-Karloda, «Tinchlik qahvaxonasi»da sotuvchi bo'lib ishlaganman.

Bu yerdan yuz metrlar chamasi naridan Kruazet boshlanar, u yerda «Karlton», «Miramar», «Martine» kabi hashamatli mehmonxonalar qad kerib turar edi.

Tabiiyki, «Artistlar qahvaxonasi» ana shu muhtasham binolarning soyasida qolib ketgan nochorgina bir maskan

edi. Darvoqe, ko'chani o'zi ham xilvat bo'lib, kiyim bo'yaydigan va tozalaydigan kichkina korxonalar, sarta-roshxona va shoferlar ovqatlanadigan oshxonalar, turli-tuman mayda ustaxonalar ham shu yerga joylashgan edi.

— Qahvaxonangiz tunbo'yi ishlasa kerak, a?

— Ha, tunbo'yi.

Albatta, qahvaxonaning mijozlari ham dam olishga keladigan badavlat kishilar emas, balki mehmonxona va ishratxonalarning xizmatchilari, bozori kasod bo'lgan artistlar, qimorbozlar, yugurdaklar, buzuq xotinlar, kasb-korining tayini yo'q turli-tuman qo'shmachi va dallol-lardan iborat edi.

— Menga boshqa gapingiz yo'qmi? — deb so'radi xo'jayin sal ensasi qotib.

— Aytib berolmaysizmi, Jijini qayerdan topsam bo'ladi?

— Jiji? Bunaqa odamni bilmayman.

Dimlama karam-u sosiska yeb o'tirgan xotin Megre bilan xo'jayinni horg'in nigoh bilan kuzatmoqda edi. Tungi soat uchlarga yaqinlashib qolgan edi, binobarin, qarta o'ynab o'tirgan kishilar ham o'rinlaridan turishdi.

— Ayting-chi, musye Jan... Lotereya avtomatlari yoki shunga o'xshagan narsalar vajidan biron-bir ishkallikka duch kelganmisiz?

— Nima ishingiz bor?

— Shuning uchun so'rayapmanki, agar orqangizda qing'ir ishlaringiz bo'lsa, oxiri voy bo'lishi mumkin... Sharlotta — zo'r ayol... U o'z tanishlariga qo'ng'iroq qilib yordam berishlarini so'raydi-yu, ammo sababini aytishni xohlamaydi... Agar biron-ta odam sizga o'xshab savdo muassasasiga ega bo'lsa-yu, yana buning ustiga, ilgari ham hayotda bir-ikki qoqilgan bo'lsa, bunday odam odatda qaltis ishlardan sal naribroq yuradi... Ha, mayli. Hozir axloq politsiyasiga qo'ng'iroq qilsam, Jijining qayerdaligini shu zahotiyoyq aytib berishadi. Telefon-avtomatga jetoningiz bormi?

U o'rnidan turib, telefon uychasi tomon yurdi.

— Kechirasiz! Nima dedingiz? Qaltis ish? Rostdanmi?



— Albatta. Gap qotillik ustida ketyapti. Modomiki, maxsus bo‘lim komissari ataylab Parijdan kelgan ekan, u yog‘ini o‘zingiz bilvolavering...

— UZR, janob komissar... Jijini ko‘rishingiz shartmi?

— Shu niyatda ming kilometrdan ortiq yo‘l bosib keldim.

— Yuring, bo‘lmasa. Lekin ogohlantirib qo‘yay, undan gap olishingiz qiyin... Odatini bilasizmi? Ikki kunning birida karaxt bo‘lib yotadi. Demoqchimanki, og‘ziga tegdi deguncha... Gapimga tushunyapsizmi? Mana, kecha ham...

— Ana xolos, Sharlottaning qo‘ng‘irog‘idan keyin darrov icha qoptilar-da, shundaymi? Qayerda o‘zi?

— Marhamat, bu yoqqa... Shaharning allaqaysi yerida ijarada turadi, lekin bugun kechasi oyoqda turadigan ahvolda emas edi, shuning uchun...

«Artistlar qahvaxonasi»ning bir yo‘lagi mehmonxona zinasiga olib chiqardi. Xo‘jayin Megreni o‘sha yoqqa boshladi. Bir eshikni taqillatdi.

— Jiji, seni so‘rab kelishdi! — deb qichqirdi u.

U Megre ichkariga kirib ketguncha poylab turdi, so‘ng yelkasini bir qisib qo‘ydi-da, yana peshtaxta yoniga qaytib, parishon bir ahvolda gazetasini varaqlay boshladi.

Deraza pardasi tortib qo‘yilgan, oraliqdan ichkariga g‘ira-shira yorug‘ tushib turardi. Xona ichi tartibsiz. Temir karavotda kiyim-piyimi bilan sochlari to‘zg‘ib ketgan bir ayol yuzini yostiqqa bosganicha yotardi.

— Kim u? — deb so‘radi ayol uyqu aralash. Keyin bir ko‘zini ochib qaradi. — ...Ha, keldingmi?

Qovoqlari salqigan. Yuzi zahil. Qop-qora, cho‘pday oriqli ayol edi u.

— Soat nechchi bo‘ldi? Nega yechinmayapsan?

U tirsagiga suyanib, bir qultum suv ichdi, keyin Megrega qaradi, ammo uning karavot yonida, stulda bamaylixotir o‘tirganini ko‘rib, so‘radi:

— Doktormisan?

— Bugun tunda musye Jan sizga nima dedi?

— Jan deysizmi? Ajoyib yigit... U menga ozgina... Xo‘sh, sizga nima?

— U senga dori bergan, buni bilaman... Yotaver, qimirlama... Keyin Mimi va Prosper haqida gapirgan.

Ko'chadan — goh yaqin, goh olisroqdan hamon mis karnaylarning ovozi eshilib turar, havodan boyagiday mimoszalarning muattar hidi anqir, go'yo dunyoda bundan bo'lak hid yo'qday edi.

— Prosper yaxshi odam.

Ayol xuddi tushida gapirayotganday, xuddi yosh boladay erkalanib so'zlardi. Keyin birdan ko'zlarini qisdi, go'yo allaqayerida bir sanchiq turganday, peshonasini tirishtirdi. Tili aylanmay qoldi.

— Doring bormi? Ozgina ber!..

U qoradori so'rayotgan edi. Kasalmand, alahsirab yotgan ayoldan gap o'g'irayotgani uchun Megrening ko'ngli andak xijil bo'ldi.

— Prosperni qattiq sevarding, to'g'rimi?

— U boshqalarga o'xshamaydi... U judayam yaxshi... Qanaqa xotinga duch keldi, a? Mimi-ya!.. Doim shunaqa bo'ladi... Uni tanirmiding?

Yana bir urinish kifoya. Vazifasi shu bo'lsa — nima qilsin!

— O'shanda «Miramar»da xizmat qilardi, to'g'rimi? Uchovlaring — Mimi, Sharlotta va sen «Go'zal yulduz»da raqsga tushardinglar...

Ayol keskin javob berdi:

— Sharlotta haqida yomon gapirma. U zo'r ayol... Prosperni jonidan ham yaxshi ko'rib qoldi. Prosper gapimga kirganda edi...

— Menimcha, sizlar «Artistlar qahvaxonasi»da bo'sh paytlaringizda uchrashardingizlar... Prosper Mimining o'ynashi edi.

— Ha, yuragidan urgan edi Mimi!.. Aqldan ozayozdi Prosper bechora... Keyin...

Jiji birdan boshini ko'tarib, shubha bilan so'radi:

— Rostdan ham do'stmisiz Prosperga?

— Keyin bola tug'ildi, shundaymi?

— Kim aytdi sizga buni? Mimi faqat menga yozib yuborgan edi. Boshida bunaqa bo'lgan emas...

U yaqinlashib kelayotgan musiqa sadosiga quloq tutdi.

— Nima bo'lyapti?

— Hech narsa...

Kruazetga gullar bilan bezatilgan ikki g'ildirakli aravalar kirib keldi, to'p gumburlab, sayil boshlanganidan darak berdi. Charaqlagan oftob, sokin dengiz, suv sathida turfa doiralar yasab suzayotgan motorli qayiqlar, kapalakday rango-rang yelkanlar...

— Balki ozgina topilib qolar, borib Jandan so'ra-chi?

— Demak, Mimi oldin amerikalik bilan ketdi?

— Prosper aytdimi senga?.. Iltimos, bir stakan suv quyib ber?.. Rahmat... O'sha kelgindi uni «Go'zal yulduz»da uchratib, sevib qoldi... Dovolga, keyin Biarisga olib ketdi... Tan berish kerak, Mimi o'ziga pishiq edi... Bizga o'xshagan lalayganlardan emas edi... Sharlotta qayerda hozir? Haliyam «Saqoqush»dami?.. Men xarob bo'ldim...

U kemshikib ketgan tishlarini ko'rsatib, zaharxanda qildi:

— Bir xatida Mimi homilador ekanligini, amerikalikni bola o'zidan ekanligiga ishontirganini yozgan edi... Oti nimaydi-ya o'sha amerikalikni?.. Osvald. Keyin yozgan bir xatida, sharmanda bo'lishimga sal qoldi, depti. Chunki sap-sariq o'g'il tug'ilibdi. Tushunyapsanmi?.. Prosperga aytib qo'yma tag'in...

Ikki stakan suv ichgani yordam qildi shekilli, Jiji erkaklar nazarini tortmaydigan uzun va ingichka oyoqlarini pastga tushirdi. O'rnidan turgan edi, novcha hamda qoqsuyak ayol ekanligi battar ko'zga tashlandi. Mijoz topish uchun necha soatlab qorong'i yo'lkalarda tentirarkin, necha soatlab pivoxonalarda o'tirarkin?.. Nigohi tiniqlashib qolgan edi. U Megrega tikilib qaradi:

— Politsiyadanmasmisan, a?

G'ijinganidan afti burishib ketdi uning. Ammo hali boshi g'uvullar, u zo'r berib bir narsani eslashga urinardi.

— Shoshma... Jan nima degan edi?.. Bu yerga qanday kelib qolding? Kim boshlab keldi? Jan hech kim bilan gaplashmaslikni buyurgan edi-ku!.. Unga so'z berganman... Rostini ayt... Politsiyadanmisan? Ha-ya... Prosper-u Mimi bilan politsiyaning nima ishi bor...

Keyin birdan jazavasi tutib, baqira boshladi u:

— Ablah!.. Yaramas!.. Hushim joyidamasligidan foydalanibsana-da! — Shunday deb, chopib borib eshikni ochdi, ko'chadagi g'ala-g'ovur baralla eshitila boshladi. — Yo'qol!.. Ko'zimga ko'rinma... Bo'lmasa, hozir!..

Uning vajohati ham kulgili, ham ayanchli edi. Suv solingan ko'zani olib Megrega otdi, ko'za komissarning oyog'iga tegib ketishiga sal qoldi. Megre zinapoyadan pastga tushguncha, orqasidan ayolning haqoratlari eshilib turdi.

Qahvaxonada mijozlar yo'q edi. Hali vaqt bor edi.

— Xo'sh, qalay? — deb so'radi peshtaxta ortidan musye Jan.

Megre paltosi bilan telpagini kiygach, dastyorga choychaqa qoldirdi.

— Biror narsani bilishga muvaffaq bo'lodingizmi?

Boyagi zinapoyadan ayolning ovozi eshitildi:

— Jan!.. Jan!.. Bu yoqqa ke. Bir gap aytaman...

Sal o'tmay, qahvaxona eshigi qiya ochilib, undan sarosima ichida qolgan Jiji mo'raladi. U oyoqyalang, paypoqlari to'pig'iga sirg'alib tushgan edi.

Megre tez chiqib ketdi.

Kruazetda sayr qilib yurgan odamlar Megrening qora paltosi va telpagiga qarab, uni sayilni tomosha qilish uchun Moviy sohilga umrida birinchi bor qadamranjida etgan qishloqi bir kimsaga yo'ygan bo'lishlari ham mumkin. Yuzlariga niqob tutib olgan kishilar har qadamda turtib o'tishar, olomon uni hali u yoqqa-hali bu yoqqa surgab ketardi. Qumloq sohildagi boshqa yurtlardan kelgan dam oluvchilar sayilga e'tibor ham berishmas, qariyb qip-yalang'och bo'lib olib, oftobda toblanishar, yanayam ko'proq qorayish uchun badanlariga zaytun moyidan surtishardi.

Mana, «Miramar» mehmonxonasi. Butunlay sariq rangga bo'yalgan, derazasining o'zi ikki yuz-uch yuzdan ko'proq bo'lgan muhtasham bino eshigining oldida devqomat eshikbon, son-sanoqsiz mashinalar, yugurdaklar... Megre bir kirmoqchi ham bo'ldi-yu, lekin yana fikridan qaytdi. Nima keragi bor? Hamma zarur gapni

bilib oldi-ku. Kunbo‘yi ko‘p ichgan bo‘lsa ham, lekin yana juda ichgisi kelayotgan edi. Barga kirdi.

— Temiryo‘l jadvali bormi?

— Parij kerakmi sizga! Soat yigirmadan qirq minut o‘tganda tezyurar poyezd jo‘naydi, uchala klassdagi vagonlari bor...

Megre yana bir krujka pivo ichdi. Hali allaqancha soat kutish kerak edi. U o‘zini qayoqqa qo‘yishni bilmasdi. Bayram tantanalariga g‘arq bo‘lgan Kannada kechirgan damlari unda benihoya noxush xotiralar qoldirgan edi.

U yaqin o‘tmishda bu yerda yuz bergan voqealarni tasavvurida tiklashga urindi, asta-sekin bu o‘tmish shu qadar aniq-ravshan namoyon bo‘la boshladi-ki, u Prosperning jingalak sochlari, cho‘tir yuzi va muloyim, qavariq ko‘zlarini yaqqol ko‘rganday bo‘ldi. Ana, u «Miramar»ning maxfiy zinapoyasidan tushib, «Artistlar qahvaxonasi» tomon chopib ketyapti.

O‘sha paytda hozirgidan olti yosh kichkina bo‘lgan uch ayol pivoxonada nonushta yoki tushlik qilib o‘tirishgan. Prosper o‘lguday xunuk edi. Buni o‘zi ham bilardi. Shunga qaramay, uchala dugona orasida eng yosh va eng chiroylisi Mimini jonidan ortiq sevardi.

Ehtimol, bu yigitning o‘tli nigohini sezib, avvaliga ular rosa kulishgandir.

— Uni bekorga kalaka qilyapsan, Mimi, — degan bo‘lsa kerak Sharlotta. — U ajoyib odam. Kim biladi, buyog‘i nima bo‘lishini...

Kechqurun uchovlari «Go‘zal yulduz»da raqsga tushishgan. Proser u yoqqa bormaydi, chunki uning joyi emas. Lekin tong otishi bilan yana qahvaxonaga qarab yuguradi, yana to‘rtovlon jam bo‘lishib, birga nonushta qilishadi...

— Qaniydi meniham birov shunchalik sevsa!

Sharlottani, ehtimol, bu otashin va beadam muhabbat o‘ziga rom etgandir. Jiji u paytlarda hali qoradori nimaligini ham bilmas edi.

— Xafa bo‘lmang, Prosper... Sirtida kulgani bilan ichida jon-jon deb turibdi...

Prosper Mimining o‘ynashi bo‘lib qoldi! Ehtimol,

ular birga turishlari ham mumkin edi. Prosper to'plagan bor pulini sovg'aga sarf qilib yubordi. Hammasi ko'ngildagiday ketayotgan edi-yu, ammo oraga amerikalik kelgindi suqulib...

Qiziq, keyinchalik Sharlotta Prosper Donjga bola o'zidan bo'lishi mumkinligini aytganmikin, yo'qmikin?

Sharlotta olijanob ayol. Prosper uni sevmasligini, hanuz fikr-u yodi Mimida ekanligini bilaturib, unga sodiq yo'ldosh bo'lib qoldi, Sen-Klu ko'prigi ortidagi ko'rimsizgina uyda birga istiqomat qilyapti.

Jiji esa tobora tubanlashib ketaverdi.

— Gul oling! Gul oling! Qaylig'ingizga guldasta jo'natmaysizmi?

Gul sotuvchi ayolning ovozidan kinoya ohangi sezilib turardi, chunki Megre qaylig'i bor odamga mutlaqo o'xshamasdi. Shunga qaramay, u bir savat mimoza sotib olib, Parijga — xotiniga jo'natdi.

Poyezdning jo'nashiga hali yarim soat vaqt bor edi, Megre beixtiyor, ichki bir istak bilan Parijga qo'ng'iroq qildi. Bu vokzal yonidagi kichkina bir barda bo'layotgan edi. Orkestr mashshoqlarining kiyim-kechaklari butunlay chang edi. Ular to'p-to'p bo'lishib, uylariga — qo'shni shaharlarga qaytmoqda edilar. Endi havoda ham sayildan keyingi horg'inlik suzib yurganday tuyulardi.

— Allo! Sizmisiz, xo'jayin?.. Haliyam Kanndamisiz?

Lyukaning ovozidan hayajonlanayotgani sezilib turardi.

— Yangilik bor... Tergovchining fig'oni falakka chiqyapti... Hozirgina telefon orqali sizning nima ish bilan shug'ullanayotganligingizni so'rab-surishtirdi. Allo!.. Yaqinda, hali bir soat ham bo'lgani yo'q, ba'zi voqealar sodir bo'ldi bu yerda. Torans telefonda aytdi, o'sha paytda «Majestik»da navbatchilik qilayotgandi.

Megre torgina katalakda tik turgancha, trubkaga quloq solar, ahyon-ahyon qisqagina javob qaytarib qo'yardi. Kabina oynasidan botayotgan quyoshning qizg'ish nurlariga to'lgan bar ko'zga tashlanib turardi; stollar atrofida oq shim, boshlariga kumush uqali furajka kiygan mashshoqlar tamaddi qilib o'tirishardi. Ba'zan ulardan birortasi hazillashib mis karnayini g'at-g'atlatib

qo‘yar, bokallarga quyilgan arpabodiyon arog‘i oq-sarg‘ish tusda xira tovlanardi.

— Yaxshi!.. Ertaga ertalab yetib boraman... Yo‘q! Ehtimol... Mayli, tergovchi talab qilayotgan bo‘lsa, qamoqqa ola qolishsin...

Darhaqiqat, Lyuka aytgan voqea hozirgina yuz bergan edi. Yana qayerda deng? «Majestik» yerto‘lasida. Dansingda choyxo‘rlik boshlangan, shisha to‘siqlar ortidan musiqa sadolari eshitilib turardi... Prosper Donj akvariumga solib qo‘yilgan kattakon tilla baliqqa o‘xshaydi... Jan Ramyuel esa o‘zining oynavand xonasida limonday sarg‘ayib o‘tirardi...

Lyukaning gapiga qaraganda (tergov hali boshlanmagan edi), yerto‘la yo‘lagidan korjomasi o‘rniga o‘z kostumini kiyib olgan tungi eshikbon o‘tgan. Nima uchun bu yoqqa tushgan — hech kim bilmaydi. Hech kim unga e‘tibor ham bermagan. Chunki hamma o‘zi bilan o‘zi ovora, birov bilan birovning ishi yo‘q.

Tungi eshikbonni Jyusten Kolbef deb atashadi. U past bo‘yli, og‘ir-vazmin, ko‘rimsizgina bir odam bo‘lib, kechalari xollda navbatchilik qilardi. Hamisha bir o‘zi o‘tirardi. O‘qimasdi ham, gaplashmasdi ham, chunki gaplashadigan odamning o‘zi yo‘q edi, ammo hech qachon mudramasdi. Bir necha soatlab stulda bir nuqtaga tikilganicha o‘tiraverardi. Xotini Neyidagi yangi uyda oqsochlik qilardi.

Soat to‘rt yarimda Kolbef nima maqsadda bu yerga tushdikin?

Raqqos Zebio qayta kiyinish uchun yechinish xonasiga o‘tib ketdi. Odamlar u yoqdan bu yoqqa yurishibdi. Ramyuel o‘z hujrasidan bir necha marta yo‘lakka chiqdi.

Soat beshda Prosper Donj ham yechinish xonasi tomon yo‘l oldi. Oq nimchasini kamzulga almashtirdi, paltosini kiyib, velosipedini yetakladi.

Oradan bir necha daqiqa o‘tgach, yechinish xonasiga yugurdak kirdi. U 89-shkaf eshigi qiya ochiq turganini ko‘rdi. Dod-faryodni eshitib, hamma shu yerga chopib keldi.

Shkafda tungi eshikbonning murdasi turardi. Egnida kulrang palto, yonginasida movut shlyapa.

Jyusten Kolbef ham, xuddi missis Klark kabi, bo'g'ib o'ldirilgan edi. Jasad hali iliq edi.

Bu vaqt Prosper Donj velosipedini minib, bamaylixotir Bulon o'rmoni oralab borardi, keyin Sen-Klu ko'prigidan o'tdi; tepalikka yetganda velosipeddan tushib, uni yetaklagancha, o'z kulbasi tomon yo'l oldi.

— Bir ryumka araq! — deb buyurdi Megre, peshtaxtada faqat shu ichimlik turganini ko'rib.

Keyin poyezdga o'tirdi. Boshi xuddi, bolaligida saron oftobida ko'p o'ynagan paytlaridagiday, zil-zambil edi.

## V b o b

### OYNADAGI TUPUK

Poyezd temiryo'l ustida bir maromda yelib borardi. Megre kamzulini, galstugi hamda ulama yoqasini yechib tashladi; kupe hammomday qizib ketgan edi, taxta devorlardan ham, poldan ham, divanlardan ham poyezd hidiga to'yingan allaqanday bir harorat ufurib turardi.

Megre poyabzalining ipini yechish uchun engashdi. Boshliqlar ranjisa ranjir, lekin u birinchi klassli vagon-ga yaroqli xizmat bileti bilan qanoatlanmadi, platskartta uchun ham qo'shimcha haq to'lab, yotadigan joy oldi. Nazoratchi kupega hech kimni kiritmaslikka va'da berdi.

Megre poyabzali ustiga engashdi-yu, shu payt tepasida kimdir turganini — o'ziga qattiq tikilib turganini sezdi. Naqadar yoqimsiz holat! U boshini ko'tardi. Oynavand eshik ortida, yo'lakda turgan rangpar bir ayolga nigohi tushdi. Chuqur, qora ko'zlar unga ma'yus qadalgan edi. Lablariga palapartish surtilgan bo'yoq chaplashib ketganidan buningsiz ham o'radek og'zini battar beo'xshov qilib yuborgan edi. Hammadan ham ayolning yuzidagi nafrat ifodasi kishini taajjubga solardi. Jiji bu yerga qayerdan kelib qoldi? Megre poyabzalini



qayta bog'lashga ulgurgancha yo'q ediki, bu jirkanch fohisha oynaga bir tupurdi-yu, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Megre o'zini arang bosib, qayta kiyindi. Kupedan chiqmasdan turib, go'yo hovrini bosmoqchi bo'lganday, trubka tutatdi. Keyin yo'lak bo'ylab yurib, vagondan vagonga o'ta boshladi, yo'l-yo'lakay har bir kupega mo'ralab o'tardi. Poyezd juda uzun edi. Megre o'nga yaqin vagonni bosib o'tdi, har gal vagonlar oralig'idagi temir ko'prikchada qoqilib tushar, yo'lida duch kelgan yo'lovchilarni turtib yuborib, hammasidan uzr so'rardi.

Gilam-poyandoz tugadi. U uchinchi klassli vagonga borib qolgan edi. O'rindiqlarda oltitadan odam o'tirardi. Birov mudragan, birov tamaddi qilish bilan ovora. Bolalar uyqu to'la ko'zlarini bir nuqtaga tikib olishgan.

Parijga «o'ynagani» ketayotgan tulonlik ikki matros o'tirgan kupeda yoshi bir joyga borib qolgan er-xotin og'izlarini ochgancha pinakka ketishgan edi; xotini uyqusida ham tizzasidagi kajavani qo'yib yubormasdi. Xuddi mana shu kupeda Megre burchakka biqinib olgan Jijini ko'rdi.

Boya Jiji vagon yo'lagida paydo bo'lganida, Megre uning kiyimiga e'tibor bermagan edi. U shu qadar dovdirab qolgan ediki, ro'parasidagi ayol ertalab «Artistlar qahvaxonasi»da o'zi ko'rgan, lablari osilib, ko'zlari xira tortgan giyohvand ayol emasligini hatto anglab ham yetmagan edi.

Jiji juni to'kilgan mo'yna paltosiga o'ralgancha to'ziy boshlagan tuflisi bilan paypog'ining chokini ko'z-ko'z qilganday, oyog'ini chalkashtirib o'tirar, nigohi esa qaysidir bir olis bo'shliqqa qadalgan edi. Ertalabki ayanchli ahvolidan qanday qilib qutuldiykin? Ehtimol unga biror dori berishgandir? Yoki yana qoradori ichirishdimikan?

Jiji yo'lakda turgan Megreni payqadi-yu, ammo qimir etmadi. Megre unga anchagacha tikilib turdi, keyin qo'li bilan imlab chaqirdi. Ayol bunga e'tibor bermadi. Shundan so'ng u kupe eshigini ochdi.

— Bir minutga chiqing, iltimos?

Jiji ikkilanib qoldi. Matroslar unga taajjublanib qarab turishardi. Nima qilish kerak? Janjal ko'tarsamikin?

Nihoyat, u yelkasini bir qisib qo‘ydi-yu, o‘rnidan turib yo‘lakka chiqdi. Megre eshikni yopdi.

— Nega menga yopishib oldingiz? Bo‘ldi, yetar! — dedi u tishlarini g‘ichirlatib. — Suyunavering. O‘z ishingizdan faxrlansangiz arziydi. Ahvolim chatoqligidan foydalanib qoldingiz...

Megre ayolning yomon bo‘yalgan lablari titrab ketganini ko‘rdi. Avzoyidan ana hozir ho‘ngrab yuboradiganday edi. Megre yuzini chetga burdi.

— Vaqtni behuda o‘tkazmabsiz, allaqachon uni turmaga tiqishga ham ulguribsiz.

— Menga qarang, Jiji, Prosper qamoqqa olindi deb kim aytdi sizga?

Ayol boshini sarak-sarak qildi.

— Hali xabarim yo‘q deng? Telefonga quloq solib turishgandir deb o‘ylovdim... Ha, mayli, aytsam aya qolay, baribir hademay o‘zingiz bundan xabar topasiz... Sharlotta hozirgina Janga qo‘ng‘iroq qildi... Prosper ishdan endi qaytgan paytda orqasidan politsiyachilar tushgan mashina yetib kelib, uni olib ketishibdi. Sharlotta aqldan ozay deganmish... Janga qo‘ng‘iroq qilib, Jiji og‘zidan gullab qo‘ydimikin, deb so‘rabdi... Gullab qo‘ydim-ku, to‘g‘rimi? Hammasini gapirib berdim, to‘g‘rimi? Mana, niyatingizga yetdingiz...

Vagon qattiq bir qalqigan edi, Jiji munkib ketib, Megrega qapishib qoldi. So‘ng jonholatda o‘zini orqaga tashladi.

— Ammo bu sizga qimmatga tushadi, ont ichaman! Hatto Prosper o‘sha megajin Mimini o‘ldirgan bo‘lsa ham... Bilib qo‘ying, komissar... Ikkala qulog‘ingiz bilan eshitib oling... Men kimman o‘zi? Qo‘ldan qo‘lga o‘tib yuradigan tashlandiq bir ayolman, yo‘qotadigan hech narsam yo‘q mening. Agar Prosper qamalib ketsa, sizni qidirib topib, peshonangizdan otaman, o‘lay agar!

U so‘zini tugatib, komissarga nafrat bilan tikilganicha, javob kutib turdi. Megre indamadi. Bu ayol quruq po‘pisa qilmayotganini, rostdan ham biror muyulishda ro‘parasidan chiqib, biryo‘la to‘pponchani bor o‘qini bo‘shatishdan toymasligini sezib turardi u.

Kupeda o‘tirgan matroslar ulardan ko‘z uzishmasdi.

— Omon bo‘ling, — dedi Megre og‘ir tin olib.

U o‘z kupesiga qaytib keldi, yechinib divanga cho‘zildi.

Shiftda havorang chiroq xira nur sochib turardi. Megre ko‘zlarini yumgancha o‘y sura boshladi.

Unga bir savol sira tinchlik bermasdi. Nima uchun tergovchi Prosper Donjni qamoqqa olish haqida buyruq berdi? Bu sud amaldori Parijdan chiqmay, na Jijini, na «Artistlar qahvaxonasi»ni ko‘rmay turib, nimani bila qoldiykin? Nima uchun Jan Ramyuel yoki Zebioni emas, aynan Donjni hibsga oladi?

Uning ko‘ngli g‘ash bo‘la boshladi. Chunki tergovchi Bonnoni yaxshi bilardi. Bu adolat posboni prokuror bilan birga «Majestik»ka kirib kelganida, Megrening ensasi qotgan edi, sababi ilgari ham u bilan bir necha bor hamkorlik qilgan edi.

To‘g‘ri, u yomon odam emas, sofdil, hatto olijanob inson — oila boshlig‘i, noyob muqovalarni yig‘uvchi ishqiboz. Oq oralagan qalin soqolini hamisha qirtishlab yuradi. Bir gal Megreni u bilan birga maxfiy qimorxonani tintuv qilishga yuborishdi. Ular bu yerga kunduzi, binoda hech kim yo‘q paytda kelishdi. O‘shanda u ustiga mato tashlab qo‘yilgan, qimor o‘ynaladigan kattakon stollarni ko‘rsatib:

— Bilyardmi? — deb so‘ragan edi soddadillik bilan.

Keyin binoning ko‘chaga olib chiqadigan uchta yo‘lagi borligini, yo‘laklardan biri yerto‘la orqali qo‘shni uy bilan tutashganligini ko‘rib, bunaqa ishratxonaga umrida birinchi bor kirib qolgan odamday nihoyatda hayratga tushgan edi. Kassa daftarlaridan ayrim qimorbozlar katta-katta pul qarzlari olganliklarini bilganda esa, battar taajjublangandi; chunki odamlarni yirik qimor o‘yinlariga jalb qilish uchun shunday yo‘l tutilishidan u bexabar edi.

Xo‘sh, bu lavang Bonno nima uchun birdan Prosper Donjni qamoqqa olishga jazm qildiykin?

Megrening uyqusida halovat bo‘lmadi, poyezd har to‘xtaganda uyg‘onib ketardi; tushiga bo‘lmag‘ur narsalar kirar, bunga g‘ildiraklarning taraqturuqi va parovozning chinqirig‘i qo‘shilib ketar edi.

Lion vokzalida vagondan tushganida hali tong yorishmagan, savalab yomg'ir yog'ardi. Perronda uni Lyuka kutib oldi. U paltosining yoqasini ko'tarib olgan, sal bo'lsa ham qizish maqsadida goh u oyog'ida, goh bu oyog'ida sakrardi.

— Qalay, charchamadingizmi, xo'jayin?

— Yoningda yana birorta odam bormi?

— Yo'q... Agar inspektor kerak bo'lsa, shu yerda, maxsus bo'limda o'zimiznikilardan bittasini ko'ruvdim.

— Chaqirib ke.

Jiji vagondan tushdi, ikkala matros bilan qo'l berishib muloyim xayrlashdi-da, Megrening yonidan yelkasini bir uchirib o'tib ketdi. Ammo bir necha qadam yurgach, orqasiga qaytib, komissarning oldiga keldi.

— Agar xohlasangiz, izimdan odam qo'yishingiz mumkin... Oldindan aytib qo'yay, Sharlottanikiga ketyapman...

Lyuka qaytib keldi.

— Inspektorni topolmadim.

— Mayli, hechqisi yo'q... Ketdik...

Ular taksi olishdi.

— Qani, ayt-chi... nima uchun tergovchi...

— Hozir tushuntiraman... U meni ikkinchi qotillik yuz bergandan keyin, Donjni qamoqqa olish uchun odamlarini jo'natib bo'lgach, huzuriga chaqirtirdi. Biror yangilik bormi, deb so'radi, sizning qo'ng'iroq qilgan-qilmaganligingizni surishtirdi. Keyin mug'ambirona jilmayib, bir xatni uzatdi. Imzosiz xat... Xatdagi hamma gaplar aniq yodimda yo'q. Umuman, unda aytilishicha, missis Klark ilgari qahvaxonada raqqosalik qilgan, ismi ham o'shanda Mimi bo'lgan. U Donjning o'ynashi ekan, undan bola ham tuqqan. Donj unga bir necha marotaba po'pisa ham qilgan ekan... Xo'sh, bunga nima deysiz, xo'jayin?

— Gapiraver, gapiraver...

— Bor gap shu. Tergovchining og'zi qulog'ida: «Ko'rdingizmi deydi, hammasi aniq-ravshan. Oddiy po'pisa bu... Missis Klark unga pul berishdan bosh tortgani uchun... Hozir borib, Donjni turma kamerasida so'roq qilaman, deydi».

— Xo'sh? Boribdimi?

Taksi Orfevr sohiliga yetib kelgan edi. Vaqt ertalabki soat besh yarim edi. Sena ustida sarg'ish tuman suzib yurardi. Mashina eshigi qarsillab yopildi.

— Qayerda o'zi? Dastlabki tergov kamerasidami?.. Yur, men bilan...

Adolat saroyini aylanib o'tib, Orloj sohiliga chiqish kerak edi; ular bu yo'lni shoshmasdan yayov bosib o'tishdi.

— Kechqurun soat to'qqizlarda tergovchi meni yana telefonga chaqirtirib, Donj u bilan gaplashishni istamayotganligini aytdi. Nazarimda, faqat sizning savollaringizga javob beraman, degan shekilli...

— Bugun kechasi uxladimgmi?

— Ikki soatgina, divanda...

— Bo'lmasa, borib uxla. Soat o'n ikkida boshqarmada bo'l.

Shunday deb, Megre dastlabki tergov qamoqxonasiga burildi. Darvoza oldidan turma mashinasi qo'zg'aldi — tunda Bastiliya maydonida o'rama o'tkazilgan va u yerdan o'ttiz chog'li ayol bilan hujjati yo'q bir necha chet el fuqarosi olib kelingan edi. Mahbuslar xira yoritilgan kattakon kutish zalida, yog'och o'rindiqlarda o'tirishardi. Havo kazarma hidiga to'yingan, bo'g'iq ovozlari, sharmsiz hazil-mutoyibalar eshilib turardi.

— Donj yotgan kameraga boshlab boring... Uxlayaptimi?

— Mijja qoqqani yo'q... Hozir o'zingiz ko'rasiz.

Eshigi panjarali, bir kishilik tor qamoqxonalari otxonani eslatardi. Ana shu qamoqxonalardan birida boshini changallagancha bir odam o'tirardi. Nimqorong'ilikda faqat uning soyasi ko'zga tashlanardi, xolos.

Qulfdagi kalit sharaqlab buraldi. Eshik g'irchilladi. Haligi odam xuddi uyqudan uyg'onganday sapchib o'rnidan turdi. Baland bo'yli, yelkador, xomsemiz. Galstugi bilan botinkasining iplarini allaqachon olib qo'yishgan ekan. Malla sochlari to'zg'ib ketgan.

— Sizmisiz, janob komissar?... — deb g'udrandi u.

So'ng, go'yo panjarali eshik orqasida turgan odam haqiqatan ham o'zi, ya'ni Prosper Donj ekanligiga

ishonch hosil qilmoqchi bo'lganday, peshonasini ushladi.

— Men bilan gaplashmoqchi ekansiz?

— Ha, shunda durust bo'ladi nazarimda...

Keyin Donj bolalarcha soddalik bilan so'radi:

— Tergovchi xafa bo'lmadimikin? Axir, unga nima ham deyishim mumkin? Baribir u meni qotil deb biladi. Hatto qo'llarimni kotibiga ko'rsatib: «Ko'rib qo'ying, haqiqiy jallodning qo'llari», dedi.

— Men bilan yuring...

Megre ikkilanib qoldi: Donjning qo'liga kishan solsinmi, yo'qmi? Aftidan, uni bu yoqqa kishanda opkelishganga o'xshaydi, bilaklarida izi turibdi.

Ular «Majestik» mehmonxonasining yerto'lalarini eslatuvchi g'alati yo'laklardan yurib borishdi. Adolat saroyi ostidagi ilonizi yo'lkalardan o'tib, Jinoyat qidiruv politsiyasi uchun ajratilgan binoga yetib kelishgach, birdan keng va yop-yorug' dahlizga chiqib qolishdi.

— Kiring. Biror narsa tamaddi qilganmisiz?

Donj «yo'q» deganday bosh chayqadi. Megrening o'zi ham och edi, buning ustiga qattiq chanqagandi, binobarin, qorovulni pivo bilan buterbrodga jo'natdi.

— O'tiring, Donj... Jiji Parijga keldi... Hozir Sharlottaning oldida bo'lsa kerak... Sigareta chekasizmi?

Megrening o'zi sigareta chekmasdi, ammo ham-mavaqt ehtiyot shart stol tortmasiga tashlab qo'yardi. Prosper bir amallab gugurtni chaqdi, o'tgan bir necha soat ichida tamom garangsib qolgani shundoq sezilib turardi. Uni oyog'idagi ipsiz botinka ham, galstugi yo'qligi ham, bir kechada butun kiyimlariga o'tirib qolgan qamoqning badbo'y hidi ham xijolatga solayotgan edi.

Megre kosov bilan pechkadagi olovni titkiladi. Boshqa hamma kabinetlar markaziy isitish quvuriga ulangandi, ammo Megre bundan qat'iy bosh tortgan va eski cho'yan pechkani olib qolishga muvaffaq bo'lgandi. Mana, yigirma yildan buyon kabinetida o'sha cho'yan pechka.

— O'tiring... Hozir yegulik biror narsa opkelishadi...

Donjning hamon gap boshlashga yuragi dov bermay turardi, nihoyat, nafasini ichiga yutib, sekin so‘radi:

— Bolani ko‘rdingizmi?

— Yo‘q.

— Birrov mening ko‘zim tushdi... Xollda... O‘lay agar, janob komissar, u...

— ...O‘g‘lim, demoqchimisiz? Bilaman.

— Hali o‘zingiz ko‘rasiz! Xuddi menikiga o‘xshagan malla soch... Qo‘llari ham xuddi o‘zirniki. Menga o‘xshagan yag‘rindor. Yoshligimda bolalar ustimdan kulishardi suyagi buzuq deb...

Qorovul pivo bilan buterbrod keltirdi. Megre kabinetda u yoqdan bu yoqqa yurganча kavshana boshladi. Parij osmoni yorishib qolgan edi.

— Yo‘q, o‘tmayapti, — deb xo‘rsindi Prosper buterbrodini barkash chetiga avaylab qo‘yib. — Ishtaha yo‘q... Mana endi, ish qanday tugashidan qat‘i nazar, meni «Majestik»ka qaytib olishmaydi, hech qachon olishmaydi...

Uning ovozi titrab ketdi. Boyaqish ko‘mak kutardi. Ammo Megre unga tasalli berishni lozim topmadi.

— Ayting-chi... Siz ham meni qotil deb hisoblaysizmi?

Megre indamadi, Donj nadomat bilan bosh chayqab qo‘ydi. Shu tobda u yuragida borini to‘kib solishni, o‘zining begunohligiga Megreni ishontirishni shu qadar istardiki... Ammo gapni nimadan boshlashni bilmasdi:

— Fahmlab turgandirsiz, men ayollarga xushomad qilishga o‘rganmaganman... Kasb-korimga to‘g‘ri kelmaydi... Hammavaqt yerto‘ladaman... Ba‘zan yuragim to‘lib ketganda ayollar masxara qilib, ustimdan kulgan paytlar ham bo‘lgan... Shu beo‘xshov jussam bilan qo‘limdan nima ham kelardi!.. Ittifoqo, «Artistlar qahvaxonasi»da Mimi bilan tanishib qoldim... Ular uch dugona edilar. Balki, xabaringiz bordir... Taqdirning hazilini qarang!.. Agar Mimini emas, dugonalaridan birortasini tanlaganimda hozir bu ko‘ylarga tushib o‘tirmasmidim... Ko‘rgilik-da!.. Mimini sevib qoldim... Qattiq sevib qoldim, janob komissar!.. Aqldan ozayozdim! U





meni xohlagan maqomiga yo'rg'alatdi. Qachonlardir menga turmushga chiqishga rozi bo'lar degan umid bilan yashadim... Kecha kechqurun tergovchi nima deganini bilasizmi?.. So'zma-so'z yodimda yo'q, lekin... qattiq iztirob chekdim... U menga, sen uning o'zini emas, «ishlab topgan» pulini yaxshi ko'rgansan, degan ma'noda gap qildi. U menga qo'shmachisan demoqchi bo'ldi.

Megre Donj xijolat chekmasligi uchun derazadan kumushday tovlanib oqayotgan Senaga qaradi.

— U o'sha amerikalik bilan ketib qoldi... Men esam, yurtiga borganidan keyin u buni tashlab ketadi va Mimi yana albatta qaytib keladi, deb yuraverdim. Ammo bir kuni bilsak, u Mimiga uylanibdi. O'zimni o'ldirib qo'ymaganimga hayronman... Xayriyat, Sharlotta bor ekan, u jonimga ora kirdi, taskin-tasalli berdi. Kannda ortiq yashayolmayman, dedim unga. Chunki shaharning har bir ko'chasi Mimini eslatardi. Parijdan ish qidira boshladim. Sharlotta ham men bilan ketadigan bo'ldi. Xoh ishonning, xoh ishonmang, ancha paytgacha biz aka-singilday yashadik...

— Mimi farzand ko'rganini bilarmidingiz? — deb so'radi Megre trubkasining kulini ko'mir solingan chelakka qoqib.

— Yo'q... faqat Amerikaning qayeridadir yashayotganligini bilardim. Taqdirga tan berganimga Sharlotta ishonganidan keyin... Bu vaqtda biz endi er-xotin bo'lgan edik... Bir kuni kechqurun qo'shnimiz hovliqib kirib qoldi, es-hushini tamom yo'qotgan. Xotinini mud-datidan oldin to'lg'oq tutib qopti. Nima qilarini bilmaydi bechora. Yordam so'rab kiribdi. Sharlotta birga chiqib ketdi. Ertasi kuni: «Voy, Prosper agar sen tepasida bo'lganingda bormi!» deb qoldi. Gapdan gap chiqib, dil dasturxoni ochilib ketdi. Mimining bolalik bo'lganini ham ana o'shandan keyin aytdi. Buni Mimining o'zi Jijiga yozgan xatida aytibdi. Bola tug'ilgandan foydalanib, amerikalikni o'ziga uylanishga majbur qilganmish. Lekin bola hoynahoy Prosperdan bo'lsa kerak, degan gap ham bor emish xatda. Darrov Kanga jo'nadim. Jiji xatni asrab qo'ygan ekan, menga ko'rsatdi-yu, lekin bermadi, keyin yoqib yuborgan chamamda.

Amerikaga xat yozdim. O'g'limni qaytarib bergin, loqal suratini jo'natgin, deb Mimiga yalinib-yolvordim. Undan javob kelmadi. Adresi to'g'ri-noto'g'riligini ham bilmasdim. Xayolimda esa nuqul o'g'lim: «O'g'lim unday qilyapti, o'g'lim bunday qilyapti...»

U beixtiyor entikkanidan gapirolmay qoldi. Megre o'zini qalam yo'nayotganga soldi. Bu orada Jinoyat qidiruv politsiyasida eshiklar ochilib-yopila boshlagan edi.

— Sharlotta Amerikaga xat jo'natganingizni bilarmidi?

— Yo'q!.. Xatni mehmonxonada yozganman. Oradan uch yil o'tdi. Bir kuni chet el jurnallarini varaqlab o'tirib — ularni mijozlar stollarga tashlab ketishadi — birdan sakrab o'rnimdan turib ketayozdim. Journallardan birida Mimining besh yoshlardagi bola bilan tushgan surati bosilgan edi. Jurnal Michigan shtatining Detroyt shahrida chop etilgandi. Surat ostida taxminan shunday so'zlar yozilgan: «Mister Osvald Dj. Klarkning rafiqasi go'zal Klark xonim o'z o'g'li bilan Tinch okean sayohatidan qaytmoqda...» Men yana xat yozib yubordim.

— Nima deb yozdingiz? — deb so'radi Megre loqayd bir ohangda.

— Hozir esimda yo'q. U paytda jinniga o'xshab qolgan edim. Javob kutaman, dedim. Aks holda o'zim borib, bor haqiqatni ochib tashlayman, dedim. Yana... agar o'g'limni qaytarib berishdan bosh tortsang...

— Xo'sh, nima qilaman dedingiz?

— Ont ichaman, men bu ishni qilolmasdim... Ha!.. Ehtimol, o'ldiraman deb po'pisa qilgandirman. Buni qarang-a! Shundoqqina tepamdagi nomerda bir hafta yashapti-yu, shuniyam bilmabman-a! Mutlaqo tasodifan. «Yugurdaklar oshxonasi»ni ko'rgansiz. Biz uchun, ya'ni yerto'lada ishlayotganlar uchun mehmonxonada istiqomat qilayotganlarning ism-familiyasi yo'q, faqat nomeri bor. Shuni bilamizki, bir yuz o'n yettinchi ertalab shokoladli choy ichadi, to'rt yuz ellik ikkinchi esa quymoq yeydi. Bir yuz yigirma uchinchida xizmatkor ayol, ikki yuz o'n oltinchida shofer yashaydi. Biz faqat shuni bilamiz. Judayam bema'ni ish bo'ldi-da!.. «Yugurdaklar

oshxonasi»ga kirsam, bir ayol shofer bilan inglizcha gaplashyapti. Gap orasida missis Klark degan familiyani tilga olib qoldi. Men inglizcha soʻzlasholmayman, shuning uchun hisobchimizni yordamga chaqirdim... U oʻsha ayoldan, qaysi missis Klark haqida gap ketyapti, Detroytdan emasmi, oʻgʻli bilan kelmaganmi, deb soʻrab-surishtira boshladi... Ularning shu yerda, mehmonxonada ekanliklarini bilib, bir koʻrib qoʻymoqchi boʻldim — maydonchadami, dahlizdami, maylida ishqilib. Kunboʻyi urindim oʻziyam. Lekin biz xohlagan paytda ishni tashlab ketolmaymiz. Men ularni koʻrolmadim. Yana shunisi ham borki... bilmadim, meni toʻgʻri tushunarmikinsiz?.. Agar Mimi qaytadan birga turishni taklif qilganida ham men rozi boʻlmasdim... Endi sevmaymanmi?.. Ehtimol. Aniqrogʻi, Sharlottani tashlab ketishga koʻnglim chidamaydi. U menga shunaqangi mehribon, shunaqangi gʻamxoʻrki, asti qoʻyaverasiz... Mimining shirin turmushini buzish xayolimda ham yoʻq edi. Men faqat bir amallab oʻgʻlimni qaytarib berishini orzu qilardim, xolos. Imonim komilki, Sharlotta uni jon-jon deb tarbiya qilgan boʻlardi...

Uning shu tobdagi holatini koʻrib, Megre taajjubda qoldi. Donj atigi bir krujka pivo ichdi, uniyam hammasini emas, buni bilmagan odam uni gʻirt mast deb oʻylashi turgan gap edi. Prosperning miyasiga qon urilgan, kattakon, qavariq koʻzlari yaltirardi. U yigʻlamasdi, lekin entikib, ogʻir nafas olardi.

— Bolalaringiz bormi, janob komissar?

Megre nigohini olib qochdi. Ularning farzandi yoʻq edi. Xotini bundan qattiq iztirob chekar, Megre esa bu mavzudan nariroq boʻlishga harakat qilardi.

— Tergovchining gaplarini eshitganingizda edi... Har ikkalasining ham qotili men emishman. Biriga u sabab, biriga bu sabab, deydi. Aslida mutlaqo unaqqa emas. Kunboʻyi, birpas vaqt topsam ham mehmonxonada dahliziga yugurdim, oʻgʻlimni bir koʻrib qolamanmi deb. Nima qilayotganimni oʻzim ham bilmasdim... Buning ustiga, tinimsiz telefon jiringlaydi, ovqat tashiladigan lift chiqib-tushib turadi, atrofimda uchta yordamchim uymalashadi, qahva qaynatish, idishlarga paydar-pay sut

quyib turish kerak. Shunga qaramay, ozgina vaqt topib, bir burchakka o'tirdim...

— Qahvaxonadami?

— Ha... Ikki enlik xat yozdim... Mimi bilan ko'rishmoqchi bo'ldim. Ertalab soat oltida yerto'lada ko'pincha yolg'iz o'zim qolaman. O'sha paytda ko'rishaylik, deb rosa yolvordim yozgan xatimda.

— Po'pisa ham qildingizmi?

— Bo'lsa bordir... Ha, xatning oxirida, agar uch kun ichida kelmasang, o'zingdan ko'r, degandim chamamda.

— Nimani nazarda tutgan edingiz?

— O'zim ham bilmayman.

— O'ldirarmidingiz?

— Yo'q, qo'limdan kelmasdi.

— Bolani o'g'irlarmidingiz?

U ayanchli jilmaydi.

— Shunday qilsa ham bo'ladimi?

— Yoki eriga hamma gapni aytib berarmidingiz?

Donj ko'zlarini javdiratdi.

— Yo'q! Ont ichaman!.. Balki... balki, achchiq ustida o'ldirib qo'yishim ham mumkin edi. Lekin, gap shundaki, o'sha kuni ertalab Fosh ko'chasiga yetganimda velosipedimning shinasi teshilib qoldi. Shu boisdan «Majestik»ka chorak soat kechikib keldim. Mimini ham ko'rolmadim. Pastga tushgan bo'lsa, meni topolmay, yana nomeriga qaytib chiqib ketgan, deb o'yladim. Agar eri yo'qligini bilganimda, maxfiy zinapoya orqali u yashayotgan qavatga ko'tarilgan bo'lardim... Lekin yana qaytarib aytaman: biz yerto'ladagilar tepada nimalar bo'layotganini bilmaymiz... Men bezovtalana boshladim. O'sha kuni ertalab, ehtimol, o'zimni boshqacharoq tutgandirman...

Kutilmaganda Megre uning so'zini bo'ldi:

— Sakson to'qqizinchi shkafning oldiga borishga va uni ochishga sizni nima majbur qildi?

— Hozir aytaman... Har qanday tushungan odam uchun bu narsa yolg'on gapirmayotganimga dalil bo'la oladi, agar uning o'lganini bilganimda o'zimni boshqacha tutgan bo'lardim-ku?! Taxminan soat chorak-kam to'qqizlarda uchinchi qavatning navbatchisi ikki yuz

uchinchi nomerga nonushta uchun buyurtma jo'natdi. Pattada bir bo'lak shokolad, cho'chqa go'shti qo'shilgan quymoq hamda choy yozilgan edi. Ishonmasangiz, tekshirib ko'rishingiz mumkin — direksiya pattalarni saqlab qo'yadi.

— Xo'sh, nima bo'пти?

— Shoshmang. Shokolad bolaga, cho'chqa go'shtli quymoq enagaga ekanligini bilardim. Demak, faqat ikki kishiga taom buyurilgan. Ilgari esa bu paytda har doim Mimiga ham qora qahva bilan qotirma non buyurishardi. Odatdagiday men ham patnisga qora qahva bilan qotirma non solingan idishni qo'ydim. Hammasini liftda jo'natib yubordim. Oradan bir necha minut o'tgach, qahva bilan qotirma nonni qaytarib yuborishdi. Bunaqa ikir-chikirlarga e'tibor berayotganim, ehtimol, sizga g'alati tuyular... Ammo shuni unutmangki, tashqi dunyo haqida yerto'lada biz bilgan narsalar aynan mana shunga o'xshagan ikir-chikirlardan iborat bo'lardi. Men telefon trubkasini ko'tardim: «Allo! Missis Klark nonushta qilishni xohlamadilarmi?» «Missis Klark xonasida yo'q...» Ishoning, janob komissar... Tergovchi ishonmagan bo'lardi... Darrov ko'nglimga keldi: biror falokat bo'lgan-u...

— Nimani taxmin qiluvdingiz?

— Ochig'ini aytsam, eri haqida o'yladim... Iziga tushgan, deb shubhalandim...

— Xatni kimdan berib yuborgandingiz?

— Yugurdak boladan... U meni, o'z qo'liga topshirdim, deb ishontirdi... Ammo bu bolalardan har narsani kutsa bo'ladi. Ularning atrofida ham har xil odamlar o'ralashib yuradi. Shunisi ham borki, Klark xatni topib olgan bo'lishi ham mumkin... Bilmadim, birov sezdimi-yo'qmi, ammo o'sha kuni ertalab men yerto'ladagi hamma eshiklarni ochib chiqdim... Ehtimol, hech kim sezmagandir. Hamma o'zi bilan o'zi ovora, birov bilan birovning ishi yo'q. Keyin yechinish xonasiga kirdim.

— Sakson to'qqizinchi shkafning eshigi haqiqatan ham ochiq ekanmi?

— Yo'q. Oldin hamma bo'sh shkaflarning eshigini

ochib ko'rdim... Gapimga ishonarmidingiz? Umuman, kim ishonadi?.. Hech kim. Shundaymi, axir? Shuning uchun ham to'g'risini aytmadim. Kutdim. Mendan hech kim gumon qilmasa kerak, deb o'yladim. Lekin siz hamma bilan gaplashib, faqat menga e'tibor bermayotganingizni ko'rganimdan keyin... Hech qachon o'sha kungiday azob chekmaganman. Siz yerto'lada aylanib yurib, mendan bir og'iz ham gap so'ramadingiz, hatto men tomonga qaramadingiz ham. Qo'lim qimirlardi-yu, lekin nima ish qilayotganimni bilmasdim. Radio-priyomnik badalini to'lashni ham unutibman. Qaytib borib to'ladim. Keyin, Bulon o'rmonida orqamdan siz yetib keldingiz. Ana o'shanda, meni ko'z ostiga olib qo'yganingizni tushundim. Ertasiga ertalab Sharlotta uyqudan uyg'otib: «Nima uchun Mimini o'ldirganingni menga aytmading?» deb so'radi. Sharlottaki shubha qilgandan keyin... bu yog'i o'zingizga ma'lum.

Hovli charog'on bo'lib ketgan edi, biroq Megre buni sezmasdi ham. Ko'prikdan avtobuslar, taksilar, yuk mashinalari, oziq-ovqat do'konlarining yopiq mashinalari o'tib turardi. Parijda yana hayot qaynay boshlagandi.

Prosper Donj esa uzoq sukutdan keyin ichki bir dard bilan so'zida davom etdi:

— Bola hatto fransuzcha gaplasholmaydi ham... Surishtirdim. Siz uni ko'rgani bormaysizmi, janob komissar? — Keyin birdan xitob qildi. — Rostini ayting! Uni olib ketishlariga yo'l qo'y-maysizmi?!

— Allo!.. Komissar Megremi? Boshliq sizni huzuriga chaqiryapti.

Megre og'ir uh tortib, kabinetdan chiqib ketdi. Raport beriladigan payt edi. U Jinoyat qidiruv politsiyasi boshlig'ining kabinetida yigirma minutchka bo'ldi.

Qaytib kelganida Donj boshini qo'llari ustiga qo'yganicha, stol ortida qimir etmay o'tirardi.

Megrening yuragi shig' etib ketdi. Shoshib kelib yelkasiga asta turtgan edi, Donj sekin boshini ko'tardi, ko'zlaridan cho'tir yuzlariga yosh oqmoqda edi.

— Hozir tergovchi o'z kabinetida sizni yana bir marta

so'roq qiladi. Menga nima degan bo'lsangiz, unga ham shu so'zlarni to'la-to'kis aytishingiz kerak...

Eshik oldida inspektor kutib turardi.

— Meni kechiring, boshqa iloji yo'q...

Megre cho'ntagidan qo'l kishanini chiqarib, Donjning bilaklariga soldi.

— Qoida shunaqa! — dedi u xo'rsinib.

Kabinetda bir o'zi qolgach, deraza yoniga borib, uni lang ochib yubordi va nam havodan to'yib-to'yib nafas oldi. O'n minutlardan keyingina inspektorlar o'tiradigan xona eshigini ochdi.

Endi u ancha tetik va bardam ko'rinardi.

— Xo'sh, ishlar qalay, yigitlar? — deya murojaat qildi u odatdagiday o'z xodimlariga.

## *VI b o b*

### ***SHARLOTTANING MAKTUBI***

O'rindiqa qo'llarini ko'ksi ustida chalishtirgancha devorga suyanib o'tirgan ikki jandarmchi oyoqlarini baralla uzatib yuborganidan qo'nji uzun etiklari koridorning qoq yarmini egallab olgan edi.

Kabinet eshigining naryog'idan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozlari eshitalardi. Dahlizning oxirigacha xuddi shunday manzara: har bir eshik oldida o'rindiqa, o'rindiqa jandarmchilar, ba'zilarining o'rtasida — qo'lga kishan solingan mahbus.

Kunduz soat o'n ikkiga yaqinlashib qolgan edi. Megre, trubkasini tishlagancha eshik oldida, tergovchi Bonnoning qabul qilishini kutib turardi.

— Nima gap? — deb so'radi u ro'paradagi eshikka ishora qilib.

Javob ham xuddi shunday qisqa va aniq bo'ldi:

— Sen-Marten ko'chasidagi zargarni o'marishibdi.

Yoshgina bir qiz o'rindiqa o'tirgancha, qo'shni kabinet eshigidan nigohini uzmas, yum-yum yig'lar, asabiylashganidan hadeb barmoqlarini ezg'ilar edi.

Janob Bonnoning tahdidli ovozi tobora balandlasha

boshladi. Birdan eshik ochildi. Megre beixtiyor hali sovub ulgurmagan trubkasini cho'ntagiga soldi. Hozirgina kabinetdan chiqqan va shu zahotiy oq jandarmchilarning iskanjasiga tushgan odamning basharasi chinakam kallakesarlarnikiga o'xshardi. U orqasiga o'girilib, tergovchiga zaharxanda qildi:

— Siz bilan suhbatlashish hamisha menga huzur bag'ishlaydi, janob tergovchi.

Shu chog' u Megrega ro'para bo'ldi-yu, birdan qovog'i uyuldi, keyin go'yo o'zini bosib olgan kishiday, komissarga yalt etib bir qarab oldi. Megre esa bu paytda faromush bir ahvolda turar, bamisoli allanarsani eslamogchi bo'lardi-yu, lekin sira xotiriga keltirolmasdi.

Qiya eshik ortidan tergovchining ovozi eshitildi:

— Komissarni taklif qiling. Siz, janob Benua, ketaverishingiz mumkin... Bugun menga keragingiz yo'q...

Megre boyagiday parishon bir qiyofada kabinetga kirdi. Hozir chiqib ketgan mahbus uni nega bunchalik o'ylantirib qo'ydi?

— Salom, janob komissar... Qalay, charchamadingizmi?.. O'tiring, marhamat... Darvoqe, trubkangiz qani?.. Tortinmang, chekavering. Xo'sh, Kannga yaxshi borib keldingizmi?

Janob Bonno yomon odam emas albatta, lekin Jinoyat qidiruv politsiyasining ko'magisiz muhim ma'lumotlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lganidan o'zida yo'q shod edi. U shu tobda ham bu xursandchiligini yashirolmas, ko'zlari badxohlik bilan chaq nab turardi.

— Qizig'-a, ikkalamiz ham bitta narsani aniqlabmiz: men — Parijda, kabinetimdan chiqmasdan, siz bo'lsangiz — Moviy sohilda!.. Bunga nima deysiz?

— Rostdan ham qiziq...

Megre, go'yo uy bekasi jini yoqtirmaydigan ovqatdan yana bir taqsimchasini oldiga qo'yib ketgan mehmondan, bazo'r jilmaydi.

— Ana shunaqa gaplar... Xo'sh, bu ish haqida siz qanday fikrdasiz, janob komissar? Bu Prosper Donj deganlari... Mana, u bergan guvohlik... Aftidan, ertalab



sizga aytib bergan gaplarini faqat takrorlaganga o'xshaydi... Umuman, u hammasiga iqror bo'ldi.

— Faqat ikkita qotillik qilganiga emas, — dedi sekin Megre.

— To'g'ri, qotilligini bo'yniga olgani yo'q! Unda bizning qiladigan ishimiz ham qolmas edi! Lekin sobiq o'ynashini qo'rqitganiga, ertalab soat oltida «Majestik» mehmonxonasining yerto'lasida uchrashishni taklif etganiga iqror bo'ldi; chamasi, yozgan xati ham shu darajada vahimali bo'lsa kerakki, bechora ayol xatni olishi bilan to'pponcha xarid qilish uchun magazinga yugurgan. U esa, velosipedimning shinasi teshilib qoldi, shuning uchun kechikib keldim, degan kurakda turmaydigan gaplarni gapirib o'tiribdi.

— Kurakda turmaydigan gap emas.

— Siz qayoqdan bilasiz? Ehtimol, mehmonxonaga kirishdan oldin shinani o'zi teshib qo'ygandir.

U bunaqa qilgan emas. O'sha kuni ertalab Fosh ko'chasining muyulishida, velosipedining g'ildiragi puchmaygan, aynan teshilgan paytda uni ko'rgan polit-siyachini qidirib topdim.

— Bular mayda-chuyda narsalar, — dedi shoshapisha tergovchi, go'yo qurib qo'yan imoratining vayron bo'lishidan cho'chib ketgan kishiday. — Yaxshisi, siz menga shuni ayting: mahbus Prosper Donjning o'tmishidan xabardormisiz?

Bu gal tergovchining ko'zlari yana ham g'olibona chaqnadi, u soqolini xotirjam silab qo'ydi.

— Siz hali u haqda ma'lumot to'plashga ulgurganingiz yo'q, nazarimda. Men esa hatto arxivga ham murojaat qildim. Delosini ko'rsatishdi, buni qarangi, musichaday beozor ko'ringan qahramonimiz oldin ham bir necha marotaba sudlangan ekan.

Megre taassuflanganday bosh chayqab qo'ydi.

— O'zimiz ham qiziqmiz-da! — deya so'zida davom etdi tergovchi. — Shundoqqina tepamizda, Adolat saroyining chordog'ida sud arxivi saqlanadi-yu, ba'zan shunga ko'z tashlashga ham erinamiz! Mana, eshitib qo'ying. Prosper Donj o'n olti yoshida, Vitri-le-Fransua qahvaxonasida idish-tovoq yuvuvchi bo'lib ishlab yurgan

paytida kassa g'aladonidan ellik frankni o'g'irlab, juf-takni rostlab qoladi va Lionga ketayotgan poyezddan ushlab olinadi... Kelajagi porloq yigit-a, shunday emas-mi?.. Axloq tuzatish koloniyasiga tushishiga sal qoladi. Lekin baribir ikki yil muddatga nazorat ostiga olinadi...

Qiziq! Tergovchi gapiryapti-yu, lekin Megre butunlay boshqa narsa to'g'risida o'ylayapti: «O'sha nusxani qayerda ko'rgan edim-a?» Bu savol Prosper Donjga emas, balki kabinet ostonasida boya o'zi duch kelgan o'g'riga aloqador edi.

— O'n besh yil o'tgandan so'ng u politsiyachiga bo'ysunmagani va uni haqorat qilgani uchun Kannda uch oy muhlat bilan shartli qamoq jazosiga hukm etiladi... Endi, janob komissar, sizga ba'zi bir narsalarni ko'rsatay...

Janob Bonno Megrega katak daftardan yirtib olingan bir parcha qog'ozni uzatdi. Bunday daftarlar odatda baqqollik do'konlarida sotilib, kichkina qahvaxonalarda mijozlar uchun tutiladi. Qog'ozga binafsharang siyohda bir nimalar yozilgan, pero eski bo'lsa kerak, harflar chaplashib ketgan edi. Dastxatga qaraganda, uni ayol kishi, buning ustiga, chalasavod bir ayol yozganga o'xshar edi.

Bu Prosper Donjning raqqosa Mimi bilan ishqiy sarguzashtlari haqida tergovchiga yozib yuborilgan o'sha — mash'um imzosiz xat edi.

— Konvertga bir razm soling... Xat pochta qutisiga yarim kecha bilan tonggi soat olti orasida tashlangan. Markaga Klishi maydonidagi aloqa bo'limining muhri bosilgan. Klishi maydonidagi, tushudingizmi? Endi mana bu daftarga qarang...

Ancha uringan, u yer-bu yeriga dog' tekkan oddiy katak daftar. Unga turli ovqatlarni tayyorlash qoidalari yozilgan — ba'zilar gazetalaridan qirqib olib yopishtirilgan, ayrimlari qo'lda ko'chirilgan.

Bu gal Megrening qovog'i solindi, tergovchi esa tantanavor jilmaydi.

— Sezdingizmi, ikkalasida ham dastxat bir xil? Shunaqa bo'lishini oldindan bilgan edim... Xullasi kalom, janob komissar, bu daftar o'sha siz Sen-Kludagi

xonadonda ko'rgan bufetdan, ya'ni Prosper Donjning uyidan topildi, ovqat tayyorlash qoidalarini esa Sharlotta o'z qo'li bilan yozgan...

Janob Bonno shu qadar mamnun ediki, hatto komissardan uzr so'rashni lozim ko'rib qoldi.

— Bilaman, tergovchilar bilan Jinoyat qidiruv polit-siyasi o'rtasida ba'zan kelishmovchiliklar bo'lib turadi. Sizlar, ya'ni Orfevr sohilidagilar ba'zi bir narsalarga va ayrim g'ayriqonuniy munosabatlarga rioyagarchilik bilan qaraysizlar, ammo-lekin biz — sud mansabdorlari bunday qilolmaymiz. Tan oling, janob komissar, ba'zan biz haq bo'lib chiqamiz. Mana, masalan, o'sha Prosper Donj shunchalik yaxshi odam ekan, nima uchun o'z o'ynashi Sharlotta, darvoqe u ham o'zini bokira ayol qilib ko'rsatmoqchi bo'ladi, xo'sh, nima uchun u menga Prosporni badnom qiladigan xat yozib yubordi?

— Bilmadim...

Megre, aftidan, chorasiz qolgan edi.

— Mana ko'rasiz, tergov uzoqqa cho'zilmaydi! Donjni Sante turmasiga jo'natdim. Sharlottani yaxshilab bir iskanjaga oling... Ikkinchi qotillik masalasiga kelsak, buni tushunish qiyin emas. Sho'rlik tungi shveysa... familiyasi nima edi? Kolbef edi, shekilli... aftidan, birinchi qotillikka picha aralashganga o'xshaydi. Harholda, missis Klarkni kim o'ldirganidan xabardor bo'lgan. Fojiadan qattiq iztirob chekib, o'sha kuni mijja qoqmagan. Nihoyat, vijdon azobiga chidayolmay, «Majestik»ka qaytib kelgan va qotilga uni fosh etajagini aytmoqchi bo'lgan...

Shu payt telefon jiringlab qoldi.

— Allo! Ha, ha... Hozir boraman.

Tergovchi trubkani qo'yib, Megrega murojaat qildi:

— Xotanim qo'ng'iroq qilyapti, uyga mehmon kelishi kerak edi. Tergovni sizga topshiraman, janob komissar. Qo'lingizda yetarli ma'lumot bor...

Megre eshikka qarab yurdi, ammo ostonaga yetgan-da taqqa to'xtab, boshini changalladi, halidan beri eslolmayotgan nimasidir birdan yodiga tushgan edi.

— Darvoqe, Fred haqida, janob tergovchi! Men kir-

masimdan oldin Fred Marselsni so'roq qilayotgan edi-  
ngiz-ku, to'g'rimi?

— Oltinchi marta so'roq qilishim, sheriklarini sira  
aytmayapti.

— Men uni uch hafta oldin Anjelinoning qahva-  
xonasida, Italiya maydonida uchratgan edim.

Tergovchi buning nima ahamiyati bor, deganday  
hayron bo'lib qarab turardi...

— Anjelinoning qahvaxonasida nuqul shubhali  
odamlar to'planishadi. O'tgan yili u Garri Krivoning  
singlisiga uylangan edi.

Tergovchi hamon hech narsaga tushunolmasdi.  
Megre qimtinibgina so'zida davom etdi:

— Garri Krivo, devorni teshib o'g'irlikka kirgani  
uchun ilgari uch marta sudlangan. U sobiq g'isht teruv-  
chi, o'g'rilikni kasb qilib olganidan keyin esa devor-  
tasharlikka o'tgan...

Nihoyat, chiqib keta turib, Megre gapning indallosi-  
ni aytdi:

— Sen-Marten ko'chasidagi zargarni o'margan  
o'g'rilar do'konga ikkita devorni teshib, yerto'la orqali  
kirishmaganmikin? Xayr, janob Bonno.

Tergovchiga ajoyib zarba bergan bo'lishiga qaramay,  
Megrening tabiati xira edi. Sharlottaning maktubi...  
Lekin baribir uning yuzida g'azab ifodasi emas, balki  
ma'yuslik alomati bor edi.

U inspektorni jo'natishi ham mumkin edi. Ammo  
inspektor uydagi vaziyat qanaqaligini Megrening o'ziday  
ilg'ay olarmidi?

Temir darvozali, yaqindagina qurilgan hashamatli uy  
Bulon o'rmonini halqaday o'rab olgan Madrid xiyoboni-  
da oppoq bo'lib savlat to'kib turardi. Kiraverishdan  
o'ngga yurilsa — oynavand eshik orqali eshikbonlar  
o'tiradigan xonaga kiriladi, bu xona ko'proq mehmon-  
xonani eslatardi. U yerda uch-to'rtta xotin ma'yus bosh  
chayqab o'tirishardi. Pastak stolga tashrifnomalar soli-  
nadigan patnis qo'yib qo'yilgandi. Yig'layverib ko'zlari  
qizarib ketgan bir ayol eshikni qiya ochib:

— Kim u? — deb so'radi.

Ikkinchi xonaning eshigi ochiq bo'lib, qo'llarini

ko'ksida qovushtirgancha karavotda cho'zilib yotgan murda shundoq ko'rinib turardi; nimqorong'ilikda bir juft sham zaif lipillar, kosadagi obi mahramga qoraqayin shoxchasi solib qo'yilgandi.

Xonadagilar shivirlab gaplashishar, dam-badam ko'z yoshlarini artib, oyoq uchida yurishardi. Megre cho'qindi, o'ziga obi mahramdan sepib, shamning titroq shu'lasini ajabtovur yoritib turgan murdaning qaqqaygan burniga tikilgancha, biroz sukut saqladi.

— Bu qanaqa ko'rgilik, janob komissar!.. Ko'p yaxshi odam edi! Dushmani bor deb birov o'ylamasdi...

Karavot tepasida Jyusten Kolbefning unter-ofitserlik formasida tushgan va kattalashtirilgan rasmi tuxum shaklidagi ramkada osig'liq turardi. Surat marhum shopmo'ylov qo'yib yurgan paytlarida olingan edi.

Ramkaga uchta palma shoxchasi bor «Jangovar xizmatlari uchun» kresti bilan harbiy nishon qadab qo'yilgan edi.

— O'ta harbiy odam edi, janob komissar. Yoshi qaytib, iste'foga chiqqanidan keyin o'zini qayoqqa qo'yishni bilmay, biror ish bilan mashg'ul bo'lishni o'ylab qoldi. Avvaliga Osman xiyobonidagi klubda qorovullik qildi. Keyin «Majestik» mehmonxonasiga tungi eshikbonlikka chaqirishdi, u rozi bo'ldi... Bilasizmi, Jyustenning g'alati odati bor edi: u deyarli uxlamasdi, uyqusi ham kelmasdi. Harbiy xizmatda yurgan paytida ham har kecha turib, kazarmani bir marta aylanib chiqardi.

Qo'shnilar, ehtimol qarindoshlaridir, o'kinch bilan bosh chayqashdi.

— Kunbo'yi nima ish qilardi? — deb so'radi Megre.

— Ertalab soat yettidan chorakta o'tganda ishdan qaytardi — harholda uydagi chiqindilarni o'zi olib chiqib tashlashga ulgurardi; u menga og'ir ish qildirmasdi. Keyin, darvoza oldida trubka tutatgancha, pochtagi kelishini kutardi, u bilan biroz u yoq-bu yoqdan gurlashardi. Nimagaki, ular bir polkda xizmat qilishgan. Keyin karavotga cho'zilib, tushgacha uxlardi. Shu o'zina uyqu ham unga yetarli edi. Tamaddi qilgach, Bulon o'rmonida sayr qilar, to Yelisey maydonigacha borib

kelardi... Ba'zan «Majestik»ka kirib, kunduzgi eshikbon bilan omonlashib chiqardi. Keyin Ponte ko'chasidagi kichkina qahvaxonaga kirib, ulfatlari bilan qarta tashlashar, soat oltida uyga qaytib kelardi. Soat yettida esa yana mehmonxonaga navbatchilikka jo'nardi. Har kungi odati shu edi, bu odatiga shu qadar rioya qilardiki, qo'ni-qo'shnilar unga qarab soatlarini to'g'rilab olishardi.

— Mo'ylovini oldirib tashlaganiga ancha bo'lganmi-di?

— Armiyadan qaytganidan keyin qirdirib tashlagan edi. Esimda, dab-durustdan mo'ylovsiz ko'rib, yoqamni ushlab qolganman. Nazarimda, yuzi bir burdagina bo'lib qolgan, bo'yi ham pasayib ketganday tuyulgan edi...

Megre yana bir marta Jyusten Kolbef jasaki ustida bosh egdi-da, oyoq uchida yurib, xonadan chiqib ketdi.

Marhumning uyidan Sen-Klugacha olis emas edi. Komissar Megre o'sha yoqqa borishni istardi-yu, negadir bu xohishini o'zi daf etishga urinardi! Shu payt taksi o'tib qoldi. Megre qo'lini ko'tardi. Nima bo'lsa bo'ldi!

— Sen-Kluga... qanday borishni tushuntiraman...

Osmonni bulut qoplagan, shivalab yomg'ir yog'ardi. Soat endigina uch bo'lishiga qaramay, xuddi kech kirib qolganday tuyulardi. Yalang'och bog'lar bilan qurshalgan, gulsiz-ko'katsiz uylar so'ppayib turardi.

Megre qo'ng'iroqni bosdi. Eshikni Jiji ochdi. Sharlotta esa oshxona eshigidan, kim keldiykin, deya mo'ralab turardi.

Jiji churq etmay, boyagiday ijirg'angancha, o'zini chetga oldi, Megre ichkariga kirdi. U bu yerda ikki kungina oldin bo'lgan edi, lekin shu vaqt ichida hammayoq o'zgarib ketgan edi. Ehtimol, tabiatan pala-partish Jijining ishidir bu? Oshxonadagi stol ustida nonush-tadan qolgan ovqatlar hamon qalashib yotardi.

Jiji tungi ko'ylak ustidan Sharlottaning xalatini kiyib olgan, xalat ichida o'zi bamisoli gugurt cho'piga o'xshardi; xona ichida u yoqdan bu yoqqa yurarkan, Prosperning shippagi oyog'idan hadeb chiqib ketaverar, tutundan ko'zlarini qisgancha, ustma-ust sigareta chekardi.

Endigina o'rnidan turgan Sharlotta nima deyishini bilmasdi. U hali kiyinmagan, pardozi-andozi qilmagan, tiqmachoday ko'ksini tarang qilib turadigan siynabandini ham hali taqmagani edi.

Kim birinchi bo'lib gap boshlaydi? Ayollar Megrega ishonqiramay, hadik bilan qarab qo'yishardi. U odob yuzasidan o'tirib, telpagini tizzasiga qo'ydi.

— Bugun ertalab Prosper bilan uzoq gaplashdim, — dedi u nihoyat past ovozda.

— Nima dedi? — deb so'radi Sharlotta shosha-pisha.

— Mimini ham, tungi eshikbonni ham o'ldirmaganman, deyapti.

— Ana, ko'rdingmi? — deb tantanavor xitob qildi Jiji. — Men senga nima degan edim?!

Sharlotta indamay Megrega qarab turardi. U tamom dovdirab qolgan edi. Bu ayol fojialar uchun yaratilmagan edi, binobarin, endi qay bir xor-u xasga yopisharini bilolmay, garangsib qolgandek ko'rinar edi.

— Tergovchiga ham uchrashdim. U Prosper bilan Mimi haqida imzosiz xat olgan ekan...

Sharlottaning bir tuki ham o'zgarmadi. U hamon Megrega xavotirlanib qarab turardi. Yig'layverganidan uning qovoqlari shishib ketgan edi.

— Imzosiz xat?

Megre unga taomlar tayyorlash tartiboti yozilgan daf-tarni uzatdi.

— Daftar siznikimi? Bunga o'zingiz yozganmisiz?

— Ha... Nimaydi?

— Iltimos, ruchkani oling. Perosi eski, chaplashib yozadigan bo'lsin, siyoh bilan qog'oz ham oling...

Bufetdan pero ham, siyoh ham topila qoldi. Jiji hushyor tortib, nigohini Megredan dugonasiga ko'chirdi. U, aftidan, biror xavf sezishi bilan darhol aralashishga shay bo'lib turardi.

— Qulayroq o'tirib oling... Yozing.

— Nima deb yozay?

— Yozma, Sharlotta! Bu janoblarning qo'lidan har narsa keladi.

— Yozing... Sizga hech narsa xavf solayotgani yo'q, ont ichaman. Yozing: «Janob tergovchi, Prosper Donj

haqida gazetadagi xabarni o'qiganimdan keyin, Sizga u xususda yozib yuborishga jur'at etdim...»

— Nega «gazita» deb yozdingiz — «i» bilan?

— Bilmadim... Qanday yozish kerak?

Megre ushlab turgan imzosiz xatda «gazeta» deb yozilgan edi.

— Amerikalik ayol aslida amerikalik emas, u fransuz, Mimi degan sobiq raqqosa...

Megrening toqati toq bo'lib ketdi.

— Bo'ldi, yetadi, — dedi u. — Endi mana bu xatga qarang.

Dastxat tamomila bir xil edi. Faqat imlo xatolari o'xshamasdi.

— Buni kim yozgan?

— Men ham xuddi shuni bilmoqchi edim.

— Meni yozgan deb o'ylayapsizmi?

Jahli chiqqanidan Sharlottaning rangi oqarib ketdi, Megre uni yupata boshladi.

— Aslo unaqa deb o'ylayotganim yo'q. Prosper bilan Mimining ishqiy sarguzashtlarini, ayniqsa, o'rtada bola borligini siz bilan Jijidan boshqa yana kim bilardi? Shuni so'ramoqchiman xolos.

— Kim bilishi mumkin, Jiji?

Ular shoshmasdan allakimlarning nomlarini eslab chiqishdi. Xonadagi vaziyat birdan o'zgardi, boya tartibsiz, pala-partish yotgan narsalar endi allanechuk shubhali ko'rinardi kishiga. Jiji betoqat bo'la boshladi, hade may uning zig'irdekkina qoradori topish uchun zir yugurib qolishini Megre sezib turardi.

— Yo'q... uchovimizdan boshqa hech kim bilmasdi.

— Mimidan kim xat oldi?

— Men, — deb javob berdi Jiji. — Kanndan jo'nab ketishimdan oldin yodgorlik buyumlarim saqlanadigan qutichadan topib oldim... Xatni opkeganman.

— Bu yoqqa ber.

— Oldin qasam iching?

— Ont ichaman, tentak, hech kimga aytmayman... Nahotki ko'rmayotgan bo'lsang, Prosporni kulfatdan qutqaraman deb yuribman-ku!..

Megre birdan tundlashdi. Jinoyatga qandaydir



murakkab, chalkash munosabatlar sababchi bo'layotganligini Megre ich-ichidan his qilib turar, lekin hozircha aniq bir qarorga kelolmas, kalavaning uchini topolmay qiynalardi.

— Xatni qaytarib berasizmi?

Megre yana bir bor yelkasini qisdi-yu, o'qiy boshladi:

«Kampirsho Jiji!

Uh! Tamom! Qiynalishga rosa qiynalдим, ammo buyog'iga endi oshig'im olchi! Mushkulotdan omoneson qutulib ketaman, haqiqiy xonim bo'laman, deganimda Sharlotta ikkovlaring ustimdan kulgandinglar. Mana, qizaloq bo'ldi! Kecha Osvaldga turmushga chiqdim. To'yimiz antiqa o'tdi — axir u Angliyada nikohdan o'tamiz deb turib oldi-da. U yerda butunlay boshqacha, biznikiga sirayam o'xshamaydi. Erga tekkanim rostmi, deb ba'zan o'zim ham o'ylanib qolaman, o'ngimmi-tushimmi, deyman.

Sharlottaga hammasini gapirib ber. Uch-to'rt kundan keyin Amerikaga jo'naymiz. Ish tashlash bo'layotgani uchun kema qaysi kuni jo'nashi ma'lum emas.

Endi Prosperga kelsak, sho'rlikka indamay qo'ya qolgan ma'qul. U yaxshi bola, lekin sal ovsarroq. Qanaqa qilib qariyb bir yil u bilan yashaganimga hayronman. To'g'ri, hammavaqt ko'nglimga qarab ish tutardi... Lekin nima bo'lganda ham, o'zi bundan bexabar, menga katta yaxshilik qildi. Zinhor birovg'a ayta ko'rma. Sharlotta bilsa, mayli. U tushunadigan alvastilardan.

Keyingi paytlarda homilador bo'lib qolganimni sezib yurardim. Qaddi-qomatim qanchalik o'zgarib ketganini bir ko'rganingda edi!.. Osvaldga aytishdan oldin mutaxassis bilan gaplashdim... Ikkovimiz hisoblab chiqdik... Xullas, bola Osvalddan emas, bu aniq. Bolaning otasi — bechora Prosper... Lekin u buni hech qachon bilmasligi kerak. Xudo ko'rsatmasin, otalik mehri tovlanib ketib, biror ishkal chiqazib yurmasin tag'in!

Gapiraman desam, gap ko'p. Baraka topkur doktor tuzuk odam ekan. Osvaldni, yaqinda ota bo'lasiz, deb ishontirishga muvaffaq bo'ldik. Yana bir nozik tomoni bor — bolam muddatidan oldinroq tug'iladi, deb

Klarkning etini o'ldirib turishim kerak. Bu yangilikdan u judayam xursand bo'ldi. Oswald biz o'ylaganchalik sovuq odam emas ekan. Aksincha, bir ochilib ketsa, yosh bolaning o'zi bo'larkan-qo'yarkan. Yaqinda Parijdagi hamma qahvaxonalarni aylanib chiqdik, buyam yetmagandek, rosa charxpalakda uchdik...

Xullasi kalom, men endi Detroytda (Michigan shtati) istiqomat qiluvchi missis Oswald Dj. Klarkman, bundan buyon faqat ingliz tilida gaplashaman, chunki Oswald, xabaring bor, fransuzcha birorta ham so'zni bilmaydi.

Ikkovlaringni ham tez-tez eslab turaman, aziz dugonajonlarim. Sharlotta haliyam semirib ketishdan qo'rqib yuribdimi? Haliyam bo'sh vaqtida u-bu narsa to'qiydimi? Mana ko'rasan, shu ketishda u tupkaning tagidagi birorta attorlik do'konining kassasi yonidan joy oladi.

Lekin sen, kampirsho Jiji, ikki dunyodayam bama'ni ayollar safiga qo'shilolmaysan, deb o'ylayman. Esingdami, oq paypoq kiygan mijoz — haligi, bir shisha shampanni bir ko'tarishda ichib yuborgan, o'sha mijoz: «Sening qoning buzuq!» degan edi hazillashib.

Kruazet sohiliga mendan alangali salomlar. Ehtiyot bo'l, Prosperni ko'rib qolsang, o'zi bexabar, yaqinda ota bo'lishini eslab, piqillab kulib yuborma.

Tez orada suratli pochta otkritkalarini jo'nataman.

*O'pib qoluvchi Mimi».*

— Xatni olib ketsam maylimi?

Sharlotta o'rta tushdi:

— Mayli, olaversin, Jiji... Endi baribir... — So'ng, Megreni eshikkacha kuzatib chiqib, asta so'radi. — Ayting-chi, Prosper bilan uchrashishimga ruxsat berisharmikin?.. Yegulik u-bu narsa sotib olishga haqqi bor-ku, to'g'rimi? Iltimos, mana shuni...

Sharlotta qizarinib, Megrega bitta ming franklik pulni uzatdi.

— Uch-to'rtta kitob berib yuborishning iloji bo'lganda edi... U bo'sh vaqtini nuqul kitob o'qishga bag'ishlardi...

Yomg'ir tinmagandi. Tezroq taksiga o'tirish kerak.

Ko'cha chiroqlari yona boshlabdi. Mana, Bulon o'rmoni. Yaqindagina u Prosper Donj bilan velosipedda shu o'rmon ichidan o'tgan edi.

— Iltimos, meni «Majestik» mehmonxonasiga olib borib qo'ying.

Megre yonberiga qaramay, zinapoya oldidagi maydonchadan o'ta boshlaganida biroz sarosimaga tushgan eshikbon chopib keldi-da, xushomadgo'ylik bilan paltosini yechib, telpagiga qo'shib garderobga ilib qo'ydi. Politsiya komissarini parda orasidan direktor ham ko'rdi.

Megreni hamma tanib qolgan edi. Hamma uni zimdan kuzatardi.

Barga kirsamikin? Nega kirmasligi kerak ekan? Nimadir ichgisi kelayotgan edi. Ammo shu payt vazmin musiqa sadosi diqqatini tortdi. Qayerdadir — pastda, orkestr tango kuyini chalayotgan edi. Megre yumshoq gilam-poyandoz to'shalgan zinalardan yurib, yerto'laga tushdi-yu, shu zahoti kuy va zangori nur saltanatiga kirib qoldi. Ba'zi ayollar stol atrofida shirinlik yeb o'tirishar, ayrimlari raqs bilan mashg'ul edi. Megrening yoniga zippillab dastyor keldi.

— Bir krujka pivo!

— Bilasizmi, pivo...

Megre unga «gapni aylantirma» deganday bir qaragan edi, ofitsiant pattaga shosha-pisha bir nimalarni yozdi... Oshxonaga xuddi mana shunaqa pattalarni jo'natishardi... Megre o'ziga atalgan patta qanday yo'l bosib o'tishini zimdan kuzatib turdi... Dansingning orqa devorida, orkestrning o'ng tomonida tuynukka o'xshagan narsa bor edi.

Devor orqasida esa oynavand katalaklar — qahva-xona, oshxona, novvoyxona, idish-tovoq yuviladigan hujra, «yugurdaklar oshxonasi», yo'lak oxiridagi soat yonida yechinish xonasi, u yerda esa yuzga yaqin temir shkaflar joylashgan.

Megre o'ziga kimdir tikilib qarayotganini sezdi va ko'zlari yoshi o'tinqiragan, qimmatbaho taqinchoqlar taqib olgan ayol bilan raqsga tushayotgan Zebioning nigohi bilan to'qnashdi.

Nima gap, unga shunday tuyulyaptimi? Megrening nazarida, Zebio kimgadir ishora qilganday bo'ldi. Megre o'sha tomonga qaradi-yu, dong qotib qoldi: Osvald Dj. Klark o'g'lining tarbiyachisi Ellen Derromen bilan raqs tushmoqda edi.

Ular hech narsani — atroflarida odam borligini ham sezishmasdi. Ikkovlari ham muhabbat ummoniga g'arq bo'lishgan, bir-birlariga jilmaygancha, ohista yo'rg'alashardi. Shu tobda o'zlarini butun dansingda, butun dunyoda yakka-yolg'iz deb his qilishayotgan bo'lsa ajabmas. Musiqa to'xtagandan keyin ham o'z joylariga bormasdan, anchagacha tek qotib turishdi.

Xuddi ana shu daqiqada Megre mister Klarkning xushbichim kostumi yoqasidagi ikki enlik qora matoni payqadi — Osvald marhuma xotiniga shu tariqa motam tutmoqda edi.

Megre ijirg'anib, cho'ntagidagi xatni — Mimining xatini g'ijimladi. Qani endi iloji bo'lsa-yu!..

Ammo tergovchi Klarkni so'roq qilishni unga man etgan — qandaydir politsiyachi bilan gaplashish amerikalik bu janobning izzat-nafsiga tegarmish...

Yana musiqa boshlandi. Pivo ko'pirib turgan krujka boya patta ketgan yo'l bilan stolga yetib keldi. Oshiqma'shuqlar yana raqs tusha ketishdi.

Megre o'rnidan turdi-da, pivo haqini to'lashni ham unutib, shaxdam yurib maydonchaga chiqdi.

— Ikki yuz uchinchida odam bormi? — deb so'radi u eshikbondan.

— Bola bilan enaga bo'lsa kerak... Agar ruxsat etsangiz, hozir qo'ng'iroq qilib ko'raman.

— Yo'q, yo'q... Shart emas.

— Lift chap tomonda, janob komissar...

Eshikbon kechikkan edi: Megre allaqachon zinani bitta-bitta bosib, allanimalar deb g'o'ldiragancha yuqoriga ko'tarilardi.

**BEGONA TILDA BERILGAN SAVOL**

Megrening miyasiga bir fikr keldi-yu, ammo u bundan darhol voz kechdi. Uchinchi qavatga chiqib bo'lgach, nafasini rostdash uchun biroz to'xtadi. Zinada unga barkash ko'targan ofitsiant bilan bir dasta chet el gazetalarini qo'ltig'iga qistirib, yelib borayotgan yugurdak bola duch keldi.

Uning ko'z oldida bir to'da bashang kiyingan xonimlar lift ichiga kirib ketishdi — aftidan, ular musiqa sadolari ostida choyxo'rlik qilish yoki raqs tushish uchun dansingni ma'qul ko'rishgan bo'lsa kerak. Havoni qimmatbaho atirlarning hidi tutib ketdi.

«Hamma narsa o'z o'rnida, — deya ko'nglidan kechirdi Megre, — birovlar panada, birovlar mehmon-xona va restoranda, bir tomonda — mijozlar, ikkinchi tomonda — xizmatkorlar...»

U o'z fikrini judayam aniq bayon qilolmadi. Mayli, parvo qilish kerak emas! Atrofdagi odamlar rostdan ham o'z o'rnida, har kim o'z ishi bilan band. Masalan, chet ellik badavlat ayol choy ichadi, sigareta chekadi, keyin buyurgan kiyimini o'lchatib ko'rish uchun tikuvchilikiga boradi. Hammasi tabiiy. Dastyor barkashda idish-tovoq tashiydi, oqsoch ayol o'rinni to'g'rilaydi, liftchi chol lift tugmachasini bosadi. O'zi shunday bo'lishi kerak.

Qisqasi, har kimning o'z o'rne, zimmasiga yuklab qo'yilgan o'z vazifasi bor.

Xo'sh, agar undan — Megredan, siz nima qilib yurib-siz bu yerda, deb so'rashsa, nima deb javob beradi?

«Bir odamni turmaga tiqish yoinki kallasini oldirish uchun yuribman», deydimi?

Qanday bema'nilik! Chamasi, atrofidagi hasham va dabdabadan, dansingdagi muhitdan miyasi g'ovlab ketganga o'xshaydi...

209... 207... 205... 203... Megre biroz ikkilanib turgach, eshikni tiqillatdi. Ichkaridan yosh bolaning inglizchalab bir nimalar degani, so'ng ayol kishining ovozi eshitildi, aftidan, kiravering, deganidir bu.

U kichkina yo'lakdan tezgina o'tib, uchala derazasi Yelisey maydoniga qaragan keng-mo'l xonaga kirdi. Derazalardan birining yonida oppoq xalat kiygan kekxa ayol bir narsa tikib o'tirardi. Bu enaga Gertruda Borms edi. Ko'zoynak taqib olgani uchun odatdagidan bad-jahlroq ko'rinardi.

Ammo Megreni u qiziqtirmasdi. Komissar xona o'rtasida, gilam ustida o'tirgan olti yoshlar chamasidagi bolaga tikilib qaradi. Egnida kalta ishton, chiroyli sviter ozg'in gavdasini quchib turibdi. Atrofida har xil o'yinchoqlar — kattakon o'ziyurar kema, turli markadagi «Limuzin»lardan andoza olib ishlangan avtomobillar. Megre kirgan paytda jajji amerikalik suratli allaqanday bir kitobni tizzasiga qo'yib, varaqlab o'tirardi; u begona odamga angrayib bir qaradi-yu, tag'in kitob varaqlashga tushib ketdi.

— ...

Megre bu voqeani xotiniga taxminan quyidagicha hikoya qilib berdi:

— Enaga: «Yu ui yu ui uel» yoki shunga o'xshash bir narsa dedi. Men vaqtdan yutish maqsadida: «Mister Osvald Djon Klark nomeriga kirdim yanglishmasam!» deb javob berdim shosha-pisha. U yana boyagi so'zlari ni qaytardi: «Yu ui ui yu ui ui uel». Bu orada bolaga yaxshilab razm solib chiqdim. Kallasi yoshiga nisbatan juda katta, sochlari, xuddi menga aytishganiday sapsariq, hatto sariq-qizg'ish desa ham bo'ladi. Ko'zlari Prosper Donjnikiga o'xshaydi: binafsharang yoinki qosh qoraygan paytdagi yoz osmoniga qiyos qilish mumkin. Bo'yni g'oznikiday ingichka. U mendan ko'z uzmay, enagasiga inglizchalab bir narsalar dedi. Qulog'imga yana: «Yu ui yu ui ui uel...» degan so'zlar chalindi. Aftidan, ular nima maqsadda kirganim va nega o'rtada qaqqayib turganimga tushunolmay, hayron bo'lishayotgan edi. Rosti, nima uchun kelganimni o'zim ham yaxshi bilmasdim. Kattakon xitoyi guldonga anvoyi gullar solib qo'yilgandi, narxiyam bir necha yuz frank tursa kerag-ov... Nihoyat, enaga o'rnidan turdi. Tikayotgan narsasini kursiga qo'ydi-da, telefon trubkasini ko'tarib, bir nimalar dedi. «Fransuzchani bilmaysan-

mi?» deb soʻradim boladan. U javob bermadi, hadiksirab, mendan koʻz uzmay turaverdi. Birozdan soʻng torgina kamzul kiygan mehmonxona xizmatchisi kirib keldi. Enaga undan bir nimalarni soʻradi. Shundan keyin u menga murojaat qildi: «Sizga nima kerak, deb soʻrayapti». «Mister Klarkni koʻrmoqchi edim...», «Nomerda yoʻq ekan. Pastda boʻlsa kerak, deyapti». «Rahmat sizga...»

Tamom vassalom. Megre Teddi Klarkni koʻrmoqchi edi, koʻrdi. Zinadan pastga qaytib tusharkan, Sante turmasining bir kishilik qamoqxonasida yotgan Prosper koʻz oldiga keldi. Zinapoya oldidagi maydonchaga tushgach, beixtiyor yana dansingga qarab ravona boʻldi. Krujkasini hali olib ketishmagan ekan, tagʻin bamaylixotir oʻz joyiga oʻtirdi.

Megre charchagan edi, sal oʻtmay, oʻziga yaxshi tanish boʻlgan, xuddi mudroqni eslatuvchi holatga tushdi. Shunga qaramay, atrofida yuz berayotgan voqealarni anglab turar, biroq bu voqealar zamon va makondan ajralib qolgan suratday, muallaq va ayqash-uyqash koʻrinardi.

Ana, xizmatchilardan biri Ellen Derromenning yoniga borib, unga bir nimalar deb shipshidi. Ayol oʻrnidan turib, telefon kabinasi tomon ketdi. Lekin uzoq gaplashmadi.

Kabinadan chiqdi-da, nigohi bilan Megreni izlab topdi, keyin Klarkning oldiga qaytib borib, unga bir narsalar dedi, lekin Megredan hamon koʻzini uzmasdi.

Shu lahzada Megre hozir koʻngilsiz voqea yuz berishini aniq-ravshan his qildi, bu yerdan tez ketish kerak, deb oʻyladi, lekin ketmadi.

Oʻshanda nima uchun ketmadingiz, deb soʻralsa, sababini u tushuntirib berolmagan boʻlardi. Xizmat burchi uni bu yerda qolishga daʼvat etmasdi. Ortiqchaligi koʻrinib turgan dansingda oʻtirishga nima zarurat bor? Uning joyi emas-ku bu yer! Toʻgʻri, buni u oʻzicha ham tushuntirib berolmasdi. Axir tergovchi u bilan, yaʼni Megre bilan maslahatlashmasdan Prosper Donjni qamoqqa olmadimi? Buning ustiga, unga, yaʼni Megrega amerikalik janobni soʻroq qilishni man etmadimi?

Bu degani: «U sizning toifangizdagi odam emas... Siz uni tushunmaysiz... Uni menga qo'yib bering...» degani edi.

Mana shuning uchun ham, quyi tabaqadan chiqqan va sochidan tirnog'igacha shu tabaqaga mansub bo'lib qolgan Megrening qalbida hozir atrofini qurshab turgan hamma narsaga nisbatan tizginsiz bir adovat tuyg'usi isyon ko'targan edi.

E-e, nima bo'lsa bo'lar! U ketmadi. O'z navbatida Klark ham nigohi bilan Megreni qidira boshladi, so'ng birdan qovog'i solindi, ma'shuqasi tomon engashib, allanimalar dedi (ehtimol, bir zungina yolg'iz o'tirib turishni so'ragandir) va nihoyat, o'rnidan turdi. Endigina yangi raqs boshlangan edi. Zaldagi moviy nur pushtiga aylandi. Amerikalik raqs tushayotganlar orasidan ehtiyotlik bilan o'tib, Megrening yoniga keldi va tepasida g'o'dayib turib oldi.

Inglizcha biror og'iz ham so'zni bilmaydigan Megre uchun mister Klarkning so'zlari faqat allaqanday tovushlarday eshitildi:

— Uel yu uel ui ui uel...

Ammo bu gal dag'dag'a ohangi kuchli edi, aftidan, Klark g'azabini arang jilovlab turardi.

— Nima dedingiz?

Amerikalikning battar jahli chiqib ketdi.

Kechqurun xotini Megredan o'pkalaganday bo'ldi:

— Rostini ayt, ataylab shunday qilgansan, a? O'lguday mug'ombirsan, men seni bilaman-ku. O'zingni farishta qilib ko'rsatish ham qo'lingdan keladi.

Megre qasddan shunday qilganini bo'yniga olmadi, ammo ko'zlaridagi ayyorona jilva sirini butkul fosh etib turardi. Xo'sh, nima yomon ish qilibdi? Qo'llarini kamzuling cho'ntagiga solgancha amerikalikning ko'zlariga tik qarab turaverdi. Bor-yo'g'i shu.

Janjal chiqishiga u sababchi bo'lgani yo'q-ku. Osvaldning ro'parasida turib, Donj haqida — sohibjamol miss Ellen bilan raqs tushmay, qamoqda ezilib o'tirgan Donj haqida o'yladi. Ellen hozir xunuk voqea yuz berishini sezdi shekilli, o'rnidan turib, bular tomon yura



boshladi. Ammo yetib kelmasidan g'azabga to'lgan mister Klark, xuddi amerika filmlaridagiday, chapdastlik bilan Megrening iyagiga musht soldi.

Qo'shni stolda pirojniy yeb o'tirgan ikki ayol qiyqirib o'rnidan turib ketdi. Raqs tushayotganlar taqqa to'xtab qolishdi.

Klark g'olibona bir qiyofada kekkayib turardi. Uning nazarida hamma narsa endi o'z o'rniga tushgan, hech qanday izohga hojat yo'q edi.

Megre hatto dahanini ushlab ham qo'ymadi. Go'yo faqat zarba ovozi eshitilgan, uni birov atigi hazillashib chertib qo'yganday, bir tuki ham o'zgarmadi.

Aslida Megrening aniq bir rejasi yo'q edi, biroq hozirgi voqea tufayli qulay imkoniyat tug'ilganidan ichida xursand bo'ldi va tergovchining oyog'i kuygan tovuqday tipirchilab qolishini ko'z oldiga keltirib, beixtiyor jilmaydi.

—Janoblar!.. Janoblar!..

Jabrlanuvchi o'z raqibiga tashlanib qolishi va jiqqa-musht boshlanib ketishidan qo'rqib, zal mutasaddisi chopib keldi. Miss Ellen bir tomondan, qandaydir raqqos ikkinchi tomondan Klarkning qo'llariga mahkam yopishib olishdi, ammo u hamon tinchimay, inglizchalar bir nimalar deb baqirardi.

— Nima deyapti? — deb so'radi Megre pinagini buzmay.

— Ahamiyati yo'q!.. Janoblar, iltimos... O'tinaman...

Klark esa past tushmasdi.

— Nima deyapti?

Shu payt Megre cho'ntagidan qandaydir yaltiroq temirni olib, beparvolik bilan qo'lida aylantirib o'ynay boshladi. Atrofdagilar dong qotib qolishdi. Nomini eshitgan-u, lekin o'zini ko'rmagan xonimlar mash'um kishanga taajjub va qo'rquv bilan qarab turishardi. Megre mutasaddiga murojaat qildi:

— Iltimos, tarjima qiling. Bu janobga aytingki, xizmat burchini bajarib turgan paytda qonun posbonini haqorat qilgani uchun uni qamoqqa olishga majburman... Agar ixtiyoriy ravishda men bilan borishga rozi

bo'lmasa, ming afsuski, qo'liga kishan solishdan boshqa ilojim qolmaydi...

Klark pinagini buzmadi, bir og'iz ham gapirmadi, birga bormoqchi bo'lib bilagiga yopishgan miss Ellenni itarib tashladi. Garderobchidan paltosini ham, shlyapasi-ni ham so'ramay, komissarga ergashdi. Ular bir to'da tomoshatalablar kuzatuvida zinapoya oldidagi maydon-chadan o'tayotganlarida o'z kabinetidan bu manzarani ko'rib qolgan direktor sapchib o'rnidan turib ketdi.

— Taksi!.. Adolat saroyiga.

Qorong'i tushib qolgan edi. Ular zinalardan goh ko'tarilib, goh pastga tushib, uzundan uzoq yo'laklardan o'tib, nihoyat, janob Bonno kabinetini oldida to'xtashdi. Megre yana xotiniga yaxshi tanish bo'lgan va har doim uning g'ashiga tegadigan mo'min-qobil kishi qiyofasiga kirib oldi.

— Ko'p afsus, janob tergovchi... Mister Klarkni hibsga olishga majbur bo'lib qoldim. U kishi shu yerda.

Tergovchi nima deyishini bilmay qoldi. U, Megre amerikalikni o'z xotinini va «Majestik» mehmonxonasi-ning tungi eshikbonini o'ldirishda gumon qilgan, deb o'yladi.

— Shoshmang! Shoshmang! Nimaga asoslanib bunday qildingiz?

Megre bu yoqda qolib, yana Klark sayrab ketdi, ammo komissar hech narsaga tushunmadi.

— Nima deyapti?

Sho'rlik tergovchi ham inglizchani tuzuk bilmasdi, binobarin, amerikalik nima deyayotganligini anglayol-may, peshonasini tirishtirib turaverdi. So'ng bir narsa deb g'udrandi-da, kotibasini ko'pincha tilmochlik vazifa-sini o'tab turadigan boshqa bir kotibni boshlab kelisha-ga yubordi.

— Nima deyapti? — deb so'rab qo'yardi Megre ora-orada.

Bundan Klarkning battar fig'oni chiqar va musht-larini qisib, uni masxara qilmoqchi bo'lardi:

— Ni-i-ma deyapti? Ni-i-ma deyapti?..

Ketidan yana inglizchalab bidirlab ketardi.

Sal o'tmay, kabinetga past bo'yli, tepakal tilmoch

kirib keldi, uning nihoyatda yuvosh va itoatkor odam ekanligi basharasidan shundoq ko‘rinib turardi.

— Qo‘shma Shtatlar grajdaniman, politsiyachilar orqamdan soyadek ergashib yurishlariga toqat qilolmayman, deyapti.

Politsiyani jinidan ham yomon ko‘rishini mister Klarkning so‘zlash ohangidanoq bilsa bo‘lardi.

— ...Inspektorimiz uning izidan bir qadam ham qolmayotgan emish...

— To‘g‘rimi shu, janob komissar?

— To‘g‘ri bo‘lsa kerak, janob tergovchi.

— ...Boshqa bir inspektor miss Ellenni ta‘qib qilib yuribdi, deyapti.

— Ehtimol...

— ...Siz esa mister Klark yo‘qligida nomeriga bostirib kirganmishsiz...

— Men eshikni ohista tiqillatib, ichkarida o‘tirgan muhtarama xonimdan mister Klark bor-yo‘qligini so‘radim, xolos... Keyin pastga tushib, bir krujka pivo ichdim... Ana o‘sha yerda mister Klark hech narsadan hech narsa yo‘q jag‘imga musht tushirdi...

Janob Bonno gangib qoldi. Busiz ham ish chalkashib yotgan edi. Shu paytgacha matbuot nazariga tushmasdan, unga chap berib kelinayotgandi, mana endi, dansingdagi to‘polondan keyin jurnalistlar Adolat saroyi bilan Jinoyat qidiruv politsiyasini tinch qo‘yishmaydi.

— Hayronman, janob komissar, yigirma besh yildan beri shu sohada ishlab kelayotgan sizday tajribali odam...

Megre uning gapiga quloq solish o‘rniga, cho‘ntagidan allaqanday bir qog‘ozni chiqarib, o‘ynab o‘tirganini ko‘rgan tergovchining qoni qaynab ketdi. Bu havorang qog‘ozga yozilgan xat edi.

— Albatta, mister Klark ham haddidan oshgan. Lekin siz ham lozim bo‘lgan darajada vazminlik ko‘rsatmangansiz. Bunday paytda odob saqlash sizning qo‘lingizdan kelardi...

Tamom! Megre quvonchini sezdirib qo‘ymaslik uchun yuzini chetga burdi. Havorang qog‘oz rostdan ham Klarkni sehrlab qo‘ygan edi. Amerikalik unga yaqinlashib, qo‘lini cho‘zdi:

— Please<sup>1</sup>...

Megre o'zini hayron bo'lganday qilib ko'rsatdi, ammo baribir unga xatni berdi. Tergovchi nima bo'layotganini angalayolmas, biroq komissar qandaydir hiyla ishlatayotganini sezib turardi.

Nihoyat, Klark tilmochning yoniga borib, xatni ko'rsatdi va bidirlab allanimalar dedi.

— Nima deyapti?

— Xotining dastxatini tanibdi, bu xat qanday qilib sizning qo'lingizga tushib qoldi, deb so'rayapti.

— Nima gap o'zi, janob Megre? — deb so'radi tergovchi qovog'ini solib.

— Meni kechirasiz, janob tergovchi. Bu hujjatni menga bugun topshirishdi. Uning mazmuni bilan sizni tanishtirmoqchi va xatni tergov materiallariga tirkab qo'ymoqchi edim. Afsuski, mister Klark chaqqonlik qilib qoldi...

Klark yana tilmochga bidirladi.

— Nima deyapti? — deb so'radi tergovchi ham beixtiyor.

— Xatni tarjima qilib bering, deyapti... Modomiki, kimdir xotining narsalarini titkilashga jur'at etgan ekan, o'z elchixonasiga shikoyat qilarmish...

— Tarjima qiling...

Asablari qaqshab ketganini sezgan Megre trubkasiga tamaki to'ldirdi, keyin deraza yoniga bordi, tashqarida, tuman bosgan qorong'ilik bag'rida gaz chiroqlari oq gardish hosil qilib, yulduzlarday miltirardi.

Hatto yaltiroq boshigacha ter chiqib ketgan sho'rlik tilmoch Mimining dugonasi Jijiga yozgan xatini tarjima qila boshladi, o'qigan sari yuragi orqasiga tortib ketar, tezroq tugay qolsaydi, deya ich-ichidan entikardi. Tergovchi unga yaqin borib, yelkasi osha xatga ko'z tashlagan edi, Klark jazava bilan uni chetga itardi.

— Please<sup>2</sup> ...

Go'yo shu tobda u qimmatbaho narsasini qo'riqlayotgan xazinabonga o'xshar, xatni tortib olib, yirtib tash-

---

<sup>1</sup> Iltimos... (inglizcha).

<sup>2</sup> La'nati! (Inglizcha).

lashlaridan yoki birorta soʻz tarjima qilinmay qolib ketishidan qoʻrqardi. Hatto baʼzi soʻzlarni barmogʻi bilan koʻrsatib, aniqroq tarjima qilishni talab etardi.

Pand yeb qolgan tergovchi deraza yonida bamaylixtir turbka tortayotgan Megrening yoniga oʻtdi.

— Ataylab shunday qildingizmi, janob komissar?

— Mister Klark jagʻimga musht tushirib qolishini tush koʻribmanmi?

— Bu xat hamma narsani oydinlashtiradi!

— Tamomila!

Tilmoch bilan Klark yashil chiroq bir tutam nur sochib turgan stol ustiga engashib olishgan edi.

Nihoyat, Klark qaddini rosladi va stolga bir musht urib:

— «Please!» — deb baqirdi.

Keyin u tamom oʻzgardi-qoldi. Endi kekkaymas, oʻdagʻaylamasdi. Yuzi tundlashib, yerga qaragancha ancha vaqt indamay turdi. Bechora tilmoch esa oyogʻiga yiqilib, undan uzr soʻrashga ham tayyorday koʻrinardi. Soʻng amerikalik oʻgʻirilib, burchakda turgan stulga koʻzi tushdi-yu, asta borib oʻtirdi — xullas, u butunlay yuvosh tortib qolgan, ammo bu yuvoshlik zamiriga achchiq bir qismat yashiringan edi.

Uni uzoqdan kuzatib turgan Megre amerikalikning ustki labiga ter tomchilari koʻpchiganini koʻrdi. Shu lahzada Klark qattiq zarbaga uchrab, kalovlanib qolgan va gursillab yiqilmaslik uchun jonholatda qoʻli ilinadigan biror narsa qidirayotgan bokschini eslatardi.

Kabinetga ogʻir sukut choʻkkan, qoʻshni xonadagi mashinkaning chiqillashi shundoq eshutilib turardi.

Klark hamon qimir etmasdi. U tirsaklarini tizzasiga tirab, iyagini kaftlariga bosgancha, poyabzalining uchidan koʻz uzmay bir burchakda oʻtirardi.

Noqulay sukunat anchagacha choʻzildi, nihoyat u chuqur xoʻrsinib:

— Well!.. Well!.. — deb gʻoʻldiradi.

Megre tilmochdan shivirlab soʻradi:

— Nima deyapti?

— «Xoʻsh!.. xoʻsh!..»

Tergovchi nomigagina qogʻozlarni titkilab oʻtirardi.

Megrening trubkasidan taralgan tutun havoda suzib yurar va birdan bir yorug'lik manbaya bo'lgan chiroq tomon talpinayotganday tuyulardi.

— Well!..

Shubhasiz, amerikalikning xayoli uzoqlarda edi. Shu tobda o'zini qayerda deb his qilayotganini ham xudo biladi. Nihoyat, u bir qimirlab qo'ydi. Endi nima qilarkin, deb hamma kutib turardi. Klark cho'ntagidan kattakon tilla portsigar chiqarib, shoshmasdan ochdi, ichidan sigareta olgach, uni yana qirsillatib yopdi. So'ng tilmochga yuzlandi:

— «Please!»...

Unga gugurt kerak edi. Tilmoch chekmasdi. Komissar bir quti gugurt uzatdi. Klark uni olaturib, Megrega uzoq va ma'nodor tikildi.

Nihoyat, amerikalik qaddini rostlab, o'rnidan turdi. Aftidan, u hamon o'zini abgor sezar, sal-pal gandraklardi ham. Lekin ko'rinishi xotirjam edi. Chehrasi yana jiddiy tus oldi. Klark gapni savoldan boshladi. Tergovchi komissar qanday javob berarkin, deb Megrega qaradi.

— Mister Klark, xat menda qolsa maylimi, deb so'rayapti.

— Oldin suratini olvolsak yaxshi bo'lardi. Qiyin ish emas. Tepaga, kriminalistika bo'limiga olib chiqilsa bo'ldi.

Tilmoch tarjima qilib berdi. Klark, aftidan, tushundi chamasi, itoatgo'ylik bilan xatni kotibaga uzatdi. Kotiba chiqib ketdi. Klark yana tilga kirdi. Atrofdagilar hech narsa tushunmayotganliklaridan xunob bo'lishardi. Uch-to'rt og'iz so'z ham nihoyatda uzoq tuyular, Megrening nuqul: «Nima deyapti?» deb so'ragisi kela-verardi.

— Eng avvalo solisitor bilan maslahatlashishim kerak, deyapti. Mister Klark bugun qilgan kashfiyot o'zi uchun tamomila kutilmagan hol emish, bu yangilik ko'p narsani o'zgartirib yuboradi, deyapti...

Nima uchun Megre birdan to'lqinlanib ketdi? Uch kungina burun miss Ellen bilan charxpalakda uchgan va hozirgina zangori nur ostida o'sha xonim bilan sel bo'lib raqsh tushgan bu gavdali va baquvvat kimsa komissarga

tushirgan mushtidan ko'ra kuchliroq zarbaga duch kelgan edi. Ammo u, xuddi Megre kabi sal chayqaldi, xolos... Xo'p so'kindi... Stolni mushtladi... So'ng bir necha daqiqa miq etmay o'tirdi.

— Well!.. Well!..

Afsus, ular bir-birlarining tillariga tushunishmaydida! Megre u bilan bir miriqib gaplashgan bo'lardi.

— Nima deyapti?

— Qotilni topgan politsiyachiga ming dollar mukofot beraman, deyapti.

Tilmoch tarjima qilayotgan paytda Klark Megrega: «Ko'rdingizmi, men qimorni dangal o'ynaydigan odamman...» deganday bir nigoh bilan qarab turdi.

— Tarjima qiling, agar o'sha ming dollarni olishga muvaffaq bo'lsak, uni politsiyachilarning yetim qolgan bolalariga sarf qilamiz.

Ajabo! Endi ular go'yo iltifotda bir-birlari bilan musobaqalashishardi. Klark Megrening so'zlarini eshitib bo'lib, tavoze bilan bosh egib qo'ydi:

— Well!..

Keyin u yana gapga tushib ketdi, ammo endi butunlay osoyishta ohangda so'zlardi.

— Solisitor bilan uchrashmasdan turib hech qanday ishga qo'l urmayman, lekin haligi odam bilan... Prosper Donj bilan ko'rishishim shart... Shunga ruxsat bo'larmikin, deyapti.

Bunga javoban tergovchi takabburona bosh egib qo'ydi. Suhbat shu ketishda davom etsa, saldan keyin, kabinetdan chiqilayotganda: «Iltimos, oldin siz o'ting», «Yo'g'-e, men sizdan keyin chiqaman...», «Unaqa demang, uyat bo'ladi...» kabi mulozamatlarga aylanib ketishi ham hech gap emas edi.

Klark yana bir necha savol berdi, endi u ko'proq Megrega qarab gapirardi.

— Janob komissar, sizdan so'rayapti: dansingdagi voqea, ya'ni sizga musht tushirgani nima oqibatlariga olib kelishi mumkin?.. Bunday harakatlar Fransiyada qanday baholanishi to'g'risida tasavvurga ega emasman, deyapti... Uning mamlakatida...

— Aytib qo‘ying, men u voqeani esimdanda chiqarib yuborganman...

Tergovchi xavotirlanib eshik tomonga qarab-qarab qo‘yardi. Hozircha hammasi silliq ketyapti! Ishqilib, yana bir ishkal chiqib qolmasa bo‘ldi. Xatni tezroq suratga olib qaytarib berishganda...

Yana oraga jimlik cho‘kdi. Gaplashadigan gap ham qolmagan edi. Hamma xatni kutardi. Klark Megredan imo bilan gugurt so‘rab, yana sigareta tutatdi.

Nihoyat, fosh etuvchi havorang qog‘ozni ko‘tarib, kotiba kirib keldi.

— Bo‘ldi, janob tergovchi. Beraveraymi?

— Ha, mister Klarkka xatni topshiring.

Klark xatni olib, shosha-pisha hamyoniga yashirdi, hamyonni esa shimining orqa cho‘ntagiga soldi, keyin shlyapasiz kelganini unutib, uni stullarning ustidan qidira boshladi. Birdan esiga tushib qoldi shekilli, miyig‘ida kulib qo‘ydi, so‘ng hamma bilan xayrlashib, kabinetdan chiqib ketdi.

Ketma-ket tilmoch ham jo‘nadi. Janob Bonno birikki yo‘talgan bo‘lib, yozuv stolini aylanib o‘tdi-da, mutlaqo keraksiz qog‘ozlarni titkilay boshladi.

— Hm... Ko‘nglingiz o‘rniga tushdimi, janob komissar?

— Siz nima deb o‘ylaysiz, janob tergovchi?

— Savolni birinchi bo‘lib men berdim, shekilli?

— Uzi... Ha, sal o‘rniga tushdi... Gap shundaki, mening nazarimda mister Klark yaqin o‘rtada boshqa ayolga uylanadiganga o‘xshaydi... Bola esa, aslida Prosper Donjniki...

— Hozir qamoqda o‘tirgan va og‘ir jinoyat qilishda...

— Ha. Og‘ir jinoyatda ayblanayotgan o‘sha odamniki, — dedi Megre xo‘rsinib. — Nima bo‘lganda ham o‘g‘il uniki. Men nima ham qila olardim?..

Megre ham beixtiyor «Majestik» mehmonxonasida qolib ketgan telpagini qidira boshladi. Adolat saroyidan boshyalang chiqib ketaturib rosa xijolat bo‘ldi. Ko‘chaga chiqdi-yu, apil-tapil taksiga o‘tirib, uyiga — Rishar-Lenuar xiyoboniga jo‘nadi.



Iyagiga tushgan musht o'rni momataloq bo'lib ketgan edi. Megre xonim buni darrov payqadi.

— Yana yoqalashdingmi?! — dedi u stolga ovqat opkelib qo'yarkan, o'pkalagan bir ohangda. — Telpagingni ham o'shanda yo'qotgansan, albatta. Nima qilasan shunaqa ishlarga aralashib?

Megre mamnun jilmaydi.

## VIII b o b

### MEGRE MUDRAGAN PAYTDA

Bu yer ham chakki emas! Yozuv stoli ortiga yaxshilab joylashib olinsa, orqadan pechkadagi olovning gurullab yonishi eshitilib turadi, chap tomonda tonggi ayozdan oynalari bug'langan deraza, ro'parada Lui-Filipp uslubida qurilgan tosho'choq, uning qora marmar tokchasida — soat, yigirma yil burun to'xtab qolgani uchun millari hamon o'n ikkini ko'rsatadi; devorda, tegrasi zarhal qora ramkada — syurtuk va silindr kiygan, paxmoqsoqol, shopmo'ylov janoblarning birga tushgan surati, bular — o'sha paytdagi komissarlik kotiblaridan bir guruhi; Megre yigirma to'rt yoshda edi o'shanda! Yozuv stolida bo'yiga qarab to'rtta trubka terib qo'yilgan.

*«Majestik» mehmonxonasining yerto'lasida amerikalik milliarder ayol bo'g'ib o'ldirildi».*

Kechagi oqshomgi gazetaning birinchi sahifasi ana shunday sarlavha bilan boshlangan edi. Albatta, jurnalistlar uchun hamma amerikaliklar milliarder bo'lishadi. Gazetada o'z suratini ko'rib, Megrening battar kulgisi qistadi. Unda Megre palto va telpakda, og'ziga trubkani qistirganicha bir narsaning ustiga engashib turardi.

*«Komissar Megre jinoyat qurbonini ko'zdan kechirmoqda».*

To'g'ri, surat uniki, lekin hozir emas, bir yil burun Bulon o'rmonida olingan surat bu. O'shanda rostdan ham Megre to'pponchadan otib o'ldirilgan noma'lum bir kimsaning jasadini ko'zdan kechirgan edi.

Yumshoq kartondan ishlangan papkalarda juda muhim ma'lumotlar to'plangan edi.

*«Bir ismi Evzebio Fualdes, yana bir ismi Zebio bo'lgan Edgar Fagone degan kimsaning ishi yuzasidan olib borilgan tergov natijalari to'g'risida inspektor Torans dokladi.*

Yoshi — 24 da; tug'ilgan joyi — Lill shahri. Otasi — Alber — Jan-Mari Fagone, Lekyor zavodida katta sharobdor bo'lib ishlagan, uch yil muqaddam vafot etgan; onasi — Janna-Albertina-Oktaviya Obua ellik to'rt yoshda, yuqorida nomi zikr etilgan shaxsning qonuniy rafiqasi, hech qanday kasb-kori yo'q.

Quyidagi ma'lumotlarni Kolenkur ko'chasidagi 57-uy, ya'ni o'z onasi va singlisi bilan Edgar Fagone istiqomat qiladigan uy eshikboni, shuningdek, qo'ni-qo'shnilari va savdogarlar mahallasidagi tanish-bilishlari berishdi, ayrim ma'lumotlar esa telefon orqali Lill shahri politsiyasidan olindi (gaz zavodi rayonidagi guzar).

Men Mejevedagi Shevale sanatoriysi bilan ham telefon orqali gaplashdim, bundan tashqari, Kaputsinok xiyobonida joylashgan «Imperia» kinematografiyasining direktori bilan shaxsan suhbatda bo'ldim.

Shu tariqa to'plangan ushbu ma'lumotlarni, — garchi, ular keyinchalik tekshiruvga muhtoj bo'lsa ham, — aniq ma'lumotlar deb hisoblayman.

Fagonelar oilasi Lilda kamtarona hayot kechirgan, yangi tushgan gaz zavodi yaqinida boloxonali uyi bo'lgan. Edgar Fagonening ota-onasi o'g'illari o'qimishli odam bo'lishini orzu qilishardi, shu bois uni o'n bir yoshida litseyga berishadi.

Ammo ko'p o'tmay, sog'lig'i yomonligi tufayli uni litseydan olib, Oleran orolidagi profilaktoriyga jo'natishadi. Bola u yerda bir yil davolanadi. Tuzalgach, yana litseyga qaytadi. Ammo jismonan zaif bo'lganligi sababli mashg'ulotlarda tez-tez uzilish bo'lib turadi.

O'n yetti yoshga to'lganda Edgarni toqqa jo'natishga to'g'ri keladi, shu tariqa u Mejeva yaqinidagi Shevale sanatoriysida to'rt yil istiqomat qiladi.

Doktor Shevale Edgar Fagoneni yaxshi eslaydi. Anchagina xushro'y bo'lgan bu yigit sanatoriyda

davolanayotgan ayollarga yoqib qoladi, ishqiy sarguzashtlarni boshdan kechiradi. Xuddi ana shu paytlarda u ajoyib raqqos bo'lib yetishadi — mazkur davolash muassasasidagi tartib-qoidalar unchalik qattiq emas, sil kasaliga chalinganlar esa o'yin-kulgiga o'ch bo'lishadi chamasini.

Chaqiruv komissiyasi Edgar Fagoneni harbiy xizmatga yaroqsiz topadi.

Yigirma ikkiga qadam qo'yganda u Lillga qaytadi va otasining og'ziga suv tomizishga ulgurib qoladi. Marhumning uncha-muncha jamg'armasi bor edi, lekin oilani tebratishga yetmasdi, albatta.

Edgar Fagonening singlisi, o'n to'qqiz yoshli Emiliya suyak sili bilan og'rib, deyarli majruh bo'lib qolgan. Bundan tashqari, aqli ham zaif, kimdir unga doimo ko'z-quloq bo'lib turishi kerak.

Otasining vafotidan keyin Edgar Fagone hayotda o'z yo'lini topib ketish uchun ko'p urindi. Avvaliga Lillga, keyin Rubega ishga joylashmoqchi bo'ldi. Baxtga qarshi, ma'lumoti kamligi xalaqit berdi. Garchi, tuzalib ketgan bo'lsa ham, zuvalasi nozik emasmi, jismoniy mehnat bilan shug'ullana olmasdi.

Shundan keyin Parijga kelib, oradan bir necha hafta o'tgach, «Imperia» kinematografiya bilet tarqatuvchilari kiyadigan havorang uniformaga ega bo'ldi. Bu kinematografiya birinchi bo'lib bilet tarqatuvchi ayollar o'rniga yigitlarni ola boshlagan edi, ularning orasida pulga muhtoj studentlar ham uchrab turardi.

Bu masala yuzasidan aniq ma'lumot olish qiyin, chunki manfaatdor kishilar ochiq gaplashishdan qochishadi, aftidan, lojuvard uniforma juda yarashib ketgan ba'zi bir yosh bilet sotuvchilar «Imperia»da tuzukkinada daromad qilishsa kerak.

Torans «daromad» so'zining ostiga qizil siyohda chizib qo'rganini ko'rib, Megre miyig'ida kulib qo'ydi.

«Nima bo'lganidan qat'i nazar, Edgar Fagone, — Janubiy amerikaliklarga o'xshab ketgani uchun o'rtoqlari endi uni Zebio deb atashardi, — dastavval, onasi bilan singlisini Parijga ko'chirib opkelib, Kolenkur ko'chasidagi uch xonali kvartiraga joylashtirdi.

Eshikbon bilan qo'ni-qo'shnilar uni nihoyatda oqibatli o'g'il deb hisoblashadi, chunki har kuni ertalab mayda-chuyda olib kelish uchun bozorga yoki magazinga onasi emas, balki uning o'zi borarkan.

Bir yil muqaddam u o'z hamkasblaridan «Majestik» mehmonxonasining dansingi uchun raqqos kerakligini eshitib qoladi. Edgar darhol o'z xizmatini taklif etadi va qisqa muddatli sinovdan o'tgandan keyin dansingga ishga qabul qilinadi. Ana o'shanda u o'ziga Evzebio Fualdes degan nomni oladi. Mehmonxona ma'muriyatining unga hech qanday e'tirozi yo'q.

U bilan birga ishlaydigan kishilarning fikriga qaraganda, Evzebio tortinchoq, noziktabi va xilvatparast yigit. Ba'zilar: «qiz boladay uyatchan» ham deyishadi.

U kam gapiradi, kasali qo'zib qolishidan qo'rqib, o'zini juda ehtiyot qiladi. Ko'pincha yerto'ladagi karavotga cho'zilib, hordiq chiqarib oladi. Ayniqsa, dansingda biron-bir sabab bilan ziyofat uyushtirilib, raqslar yarim kechaga qadar davom etadigan paytlarda u shunday qilishga majbur bo'ladi.

Evzebio Fualdes hamma bilan yaxshi munosabatda, lekin tayin bir do'sti yo'q, har kim bilan ham ko'nglini ochib gaplashavermaydi.

Oylik maoshi choychaqani qo'shib hisoblaganda ikki-ikki yarim ming frankka borsa kerak. Kolenkur ko'chasi-da istiqomat qiladigan Fagonelar oilasining turmush tarzi ham taxminan shunga mos keladi.

Edgar Fagone ichmaydi, kam chekadi, qoradori iste'mol qilmaydi. Darvoqe, salomatligi ham bunga yo'l qo'ymaydi.

Onasi, Nor departamentida tug'ilgan, gavdali va baquvvat ayol. Ishlab ro'zg'orning bir tomonini ko'tarsam yaxshi bo'lardi, deb qo'ni-qo'shnilariga, ayniqsa, eshikbon ayolga ko'p gapirgan, ammo nogiron qizi oyoq-qo'lini bog'lab qo'ygani tufayli bu orzusi amalga oshmagan.

Men Edgar Fagonening Moviy sohilda yashagan-yashamaganligini bilishga ham urinib ko'rdim. Lekin aniq ma'lumot ololmadim. Ba'zi odamlarning gapiga qaraganda, Edgar bundan uch-to'rt yil muqaddam

«Imperia» kinematografiyasida ishlab yurgan paytlarida oʻrta yoshlardagi bir ayol bilan birga Moviy sohilda qisqa muddat istiqomat qilgan. Biroq bu maʼlumot juda noaniq. Binobarin, unga suyanib boʻlmaydi».

Megre shoshmasdan uchinchi trubkani toʻldirdi, pechkaga koʻmir tashladi, soʻng deraza yoniga borib, sathida quyoshning zaif nurlari jimirlay boshlagan Senaga qaradi, yana qaytib kelib, joyiga oʻtirdi.

*«Jan-Oskar-Adalber Ramyuel toʻgʻrisida inspektor Lyuka dokladi.*

Ramyuel, Jan-Oskar-Adalber, qirq sakkiz yoshda, Parijning Delambr (XIV okrug) koʻchasidagi 14-uyda, jihozlangan xonalarda istiqomat qiladi.

Nitssada tugʻilgan: otasi (hozir marhum) — fransuz; onasi — italyan. Izi topilmadi, aftidan, allaqachonlar vataniga ketib qolgan boʻlsa kerak. Otasi Parijga etarptishar meva va sabzavotlar yetkazib turgan.

Jan Ramyuel oʻn sakkiz yoshida Parijdagi Markaziy bozor komissioneriga mahkama xodimi boʻlib ishga kiradi, ammo bu davrga oid aniq maʼlumotlar yoʻq, chunki komissioner oʻn yil burun vafot etgan.

Oʻn toʻqqiz yoshida Jan Ramyuel ixtiyoriy ravishda armiyaga yoziladi. Yigirma toʻrt yoshida katta serjant unvoni bilan isteʼfoga chiqadi va barja dalloliligiga ishga kiradi, ammo oʻsha zahotiy oq hisob-kitob qilib, Misrga joʻnaydi. U yerda qand zavodi hisobchisiga yordamchi boʻladi.

Misrda uch yil yashagach, Fransiyaga qaytadi. Parijdagi turli xil muassasalarda ishlab koʻradi, barjada dallollik qiladi.

Oʻttiz ikki yoshida Ekvador respublikasining Guaya-kil shahriga ravona boʻladi. Uni fransuz-ingliz kon sanoati kompaniyasi boshqarmasi mazkur korxonaning tashlab qoʻyilgan hisob-kitob ishlarini tartibga solish uchun joʻnatgan edi.

Shu ketgancha olti yil yoʻq boʻlib ketadi. Oʻsha yerda Mari Delijar bilan tanishadi; u haqda kam maʼlumotga egamiz, ammo Markaziy Amerikada bu ayol biror bamaʼni kasb bilan shugʻullanganga oʻxshamaydi.

Fransiyaga Ramyuel ana shu ayol bilan birga qaytib keladi. Uning Ekvadorda kechirgan hayoti xususida ma'lumotlar yo'q, chunki kompaniya boshqarmasi Londonga ko'chirilgan.

Ramyuel bilan Mari Delijar Tulonda, Kassi va Marselda ma'lum muddat kayf-safo qilib yurishadi. Ramyuel quruq yer va dala hovlilar oldi-sotdisi bilan shug'ullanishga urinib ko'radi, lekin ishi yurishmaydi.

Rasman er-xotin bo'lishmasa ham, Ramyuel Mari Delijarni hamma yerda rafiqam deb tanishtiradi. U ko'zga yaqin, lekin nihoyatda qo'pol va beodob ayol; jamoa to'planadigan joylarda janjal chiqarishi hech gap emas, o'ziga e'tiborni qaratishni juda yaxshi ko'radi.

Ramyuel bilan ham tez-tez jiqillashib turishadi. Ba'zan Ramyuel uydan chiqib ketib, bir necha kun qorasini ko'rsatmay yuradi, ammo pirovardida Mari Delijar g'olib bo'lib qolaveradi.

Parijning Delambr ko'chasidan ular jihozlangan, serhasham kvartirani ijaraga olishgan: bir necha xonali, oshxona, hammomcha — hammasi bor. Oyiga sakkiz yuz frank ijara haqi to'lashadi.

Ramyuel Atumning Komarten ko'chasida joylashgan bankiga hisobchi bo'lib ishga kiradi (Atum inqirozga uchraydi, ammo kasod bo'lgan bank o'rniga Sen-Per ko'chasida o'z xodimlaridan birining nomiga gilam do'koni ochadi).

Atumning ishi orqaga ketmasidan sal oldinroq Ramyuel u yerdan bo'shaydi va o'sha zahotiyoyq e'lon bo'yicha «Majestik» mehmonxonasiga hisobchi bo'lib ishga joylashadi.

Mehmonxonada uch yildan beri xizmat qiladi. Direktorlikning undan shikoyati yo'q. Ammo hamkasblari o'ta injiqligi uchun uni yomon ko'rishadi.

Mari Delijar bilan janjallashib qolgan paytlarida bir necha kunlab mehmonxonadan chiqmaydi, yerto'lada tunab yuraveradi. Bunaqa hollar ko'p bo'lgan. Pirovardida Mari Delijarning o'zi qo'ng'iroq qiladi yoki shaxsan kelib olib ketadi.

Xullas, bu ayol Ramyuelning hamkasblari orasida ham otning qashqasidek ma'lum. Urishqoq hamxonasi-

ning qorasini ko'rgandayoq hisobchining tizzalari qaltirab qolsa kerak-da.

Shuni aytish kerakki, Jan Ramyuel kecha Delambr ko'chasidagi jihozlangan uyiga, mahbubasining oldiga o'z vaqtida kelgan».

Oradan chorak soat o'tgach, kekxa xizmatchi kabinet eshigini asta tiqillatdi. Javob bo'lmagach, eshikni sekin-gina ochdi-da, oyoq uchida yurib, ichkariga kirdi.

Megre boshini kursi suyanchig'iga tashlaganicha, xuddi uyquga ketganday, ko'zlarini yumib olgan edi. Nimchasining tugmalari yechiq, og'zida o'chib qolgan trubka.

Xizmatchi kelganini ma'lum qilish uchun sekin yo'talib qo'ydi, Megre ko'zlarini ochmasdan g'o'ldiradi:

— Kim u?

— Qandaydir janob sizni so'rayapti... Mana tashrifnomasi.

Megre go'yo uyqusini buzishni istamaganday, qo'lini erinibgina cho'zdi. So'ng og'ir tin olib, tashrifnomani stolga tashladi va shu ondayoq telefon trubkasini ko'tardi.

— Kiraversinmi?

— Biroz to'xtang.

U tashrifnomaga sekin ko'z qirini tashladi: «Etyen Jolive, Lion kredit banki direktorining o'rinbosari, O. agentligining boshqaruvchisi».

— Allo!.. Iltimos, janob Bonno — tergovchi, bir iltifot ko'rsatib, menga mister Klark solisitorining familiyasi bilan adresini aytib yuborsin... Ha, ha, xuddi shunday, solisitor deb ataladi... Keyin o'sha solisitorni trubkaga chaqirvoring... Ha, juda zarur...

Bashang kiyingan (egnida rasm bo'lgan yo'l-yo'l shim, qora kamzul, boshida toshday qattiq movut shlyapa) janob Jolive Jinoyat qidiruv politsiyasining nimqorong'i kutish zalida, stulning bir chekkasida chorak soatdan ortiqroq kekkayib o'tiribdi. U bilan birga yana ikki odam — o'g'ri bashara bir yigit bilan fohisha ayol qabulni kutayapti. Ayol esa xirillagan ovozda o'z sarguzashtlarini hikoya qilmoqda:

— ...birinchidan, hamyonini olarmishman-u, u sezmaydimi? Qishloqlarning hammasi bir go‘r. Parijda qancha pulni havoga sovurganlarini xotinlariga aytishdan qo‘rqishadi, o‘g‘irlatib qo‘ydim, deb bahona qilishadi... He, politsiyadagilar meni besh qo‘llariday bilishadi-ku! Isbot qilisholmaydi...

— Allo!.. Mister Gerbert Devidsonmi?.. Xursandman, mister Devidson... Komissar Megre gapiryapti... Ha... Kecha mijozingiz mister Klark bilan uchrashish sharafiga muyassar bo‘ldim. Ajoyib odam ekan... Nima deysiz?.. Yo‘q, yo‘q! Unutib yuborganman. Sizga boshqa masalada qo‘ng‘iroq qilyatuvdim: nazarimda, mister Klark bizga yordam beradiganga o‘xshaydi, imkoniyati darajasida, albatta... Nima?.. Hozir yoningizdami?.. Iltimos, so‘rab ko‘ring-chi... Allo!.. Shuni bilamanki, unaqa nufuzli oilalarda, ayniqsa Qo‘shma Shtatlarda, er bilan xotin bir-biriga unchalik mute bo‘lmaydi... Lekin shunga qaramay, sezmasligi ham mumkin emas... Xonim, gapni bo‘lmang... Shoshmang, mister Devidson, keyin tarjima qilib berasiz. Aniqlanishicha, missis Klark keyingi yillar ichida Parijdan kamida uchta xat olgan. Mister Klark o‘sha xatlarni ko‘rganmi, yo‘qmi — shuni bilmoqchi edim. Eng muhimi, shunaqa xatlardan yana boshqalari ham bormikin?.. Ha... Kutib turaman. Rahmat...

Trubkadan inglizcha gap-so‘zlar eshitildi.

— Allo!.. Nima deysiz?.. Xatlarni ochib ko‘rmagan ekan?.. Mazmunini ham xotinidan so‘ramagan ekanmi? Albatta, albatta... Har kimning odati...

Qani, Megre xonim ham birovdan xat olib, eriga o‘qib bermay ko‘rsin-chi!

— Taxminan uch oyda bitta xat? Dastxat hammasida bir xil deng?.. Parijdagi pochtaning muhri bosilgan?.. Bir minutga, mister Devidson...

Megre g‘ala-g‘ovur avjiga chiqqan inspektorlar xonasiga bosh suqib, o‘shqirdi:

— Birpas jim turinglar!

Keyin yana telefon yoniga qaytib keldi:

— Allo!.. Kattagina pul, deng?.. Iltimos, mister Devidson, shu gaplarni tergovchiga yozib bering. Yo‘q,



hozircha hech qanday yangilik yo'q... UZR... Gazetalar qayoqdan hid olishdi, hayronman, bunda mening mutlaqo aybim yo'q... Bugun ertalab boshqarmamiz yo'lagida meni poylab turgan to'rtta jurnalist bilan ikkita fotografni haydab chiqardim. Mister Klarkka mendan salom ayting...

Megre qovog'ini soldi. Hozirgina inspektorlar xonasini ochganida sezganday bo'luvdi-ya... U yana eshikni ochdi — rostdan ham stol orqasida reportyor bilan fotograf o'tirardi.

— Menga qarang, birodar... Telefonda gapirgan gaplarimni hoynahoy eshitgan bo'lsangiz kerak... Agar biror og'iz so'zim gazetangizda bosilsa, sizni axborot berish huquqidan mahrum qilaman. Tushundingizmi?

Megre baribir mamnun edi, kabinetiga qaytib, xizmatchiga qo'ng'iroq qilganidan keyin chehrasi ancha yorishdi.

— Janob... janob Joliveni taklif qiling...

— Salom, janob komissar... Bezovta qilganim uchun uzr. Oldingizga kelishni burchim deb hisobladim. Kechagi gazetani o'qib...

— Marhamat, o'tiring. Qulog'im sizda.

— Darvoqe, bu yoqqa o'z ixtiyorim bilan kelganim yo'q — bu masalani bosh direktorimiz bilan bamaslahat hal qilganmiz: bugun tunda, soat birda, uyiga qo'ng'iroq qilganman. Prosper Donjning nomini o'qib, hang-mang bo'lib qoldim, chunki yaqindagina bu ismga tez-tez ko'zim tushib turardi... Gap shundaki, agentligimizda hamma cheklarga men qo'l qo'yaman... Albatta, bu ish o'ylamasdan bajariladi, chunki mijozning joriy jamg'armasi oldin tekshirilgan bo'ladi... Men chekka shundoq ko'z tashlayman-u, imzo chekaveraman... Ammo bu gal katta summa bo'lgani uchun...

— Bir minutga... Demak, Prosper Donj sizning mijozingiz ekan-da?

— Besh yildan buyon, janob komissar. Hatto ko'proq ham bo'ldi, chunki uning jamg'armasi bizga Kanndagi agentligimizdan ko'chirilgan.

— Sizdan ba'zi narsalarni so'rashga ruxsat etsangiz... Shunda taxminlarim qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligi-

ni aniqlashim osonroq bo'ladi... Prosper Donjning Kanndagi agentligingizda joriy jamg'armasi bor ekan... Ayting-chi, o'sha paytda jamg'armasidagi puli ko'pmidi?

— Bizga mijoz bo'lgan hamma mehmonxona xizmatchilariniki kabi ko'p emas. Gap shundaki, ularga turarjoy va bepul ovqat beriladi, binobarin, agar o'sha xizmatchi sarishtali odam bo'lsa, deyarli hamma maoshini jamg'armasi hisobiga o'tkazib qo'yish imkoniyatiga ega. Donj ham shunday qilgan; har oyda o'z hisobiga ming frankdan bir yarim ming frankkacha pul o'tkazib turgan... Bundan tashqari, o'z xohishiga binoan biz uning uchun sotib olgan zayomlariga yigirma ming frank yutuq ham chiqqan... Xullas, Parijga ko'chmasidan oldin uning jamg'armasida ellik besh ming frankka yaqin puli bor edi.

— Parijga kelgandan keyin ham ozmi-ko'pmi pul o'tkazib turgan? Shundaymi?

— Hozir! Nima qilgan bo'lsa, hammasini yozib olib kelganman. Bizni tashvishga soladigan jihatlari ham yo'q emas. Birinchi yili... Donj Etual maydoni yaqinidagi Vrey ko'chasida, jihozlangan xonalarda turganida, jamg'armasiga yana o'n ikki ming frank pul o'tkazgan. Ikkinchi yili, aksincha, jamg'armasidan pul olgan. Bu orada adresi o'zgaradi: Donj Sen-Kluga ko'chib o'tadi, birovlariga yozib bergan cheklariga qaraganda, u o'sha yerda o'ziga uy qurib olgan. Cheklarni yer sotgan gumashta, duradgorga, bo'yoqchilarga, g'isht teruvchilarni yollagan pudratchiga yozib bergan... Shunday qilib, yil oxirida bankda atigi sakkiz yuz o'ttiz uch frank va bir necha santim puli qolgan. Mana bunga ko'z yugurtir-sangiz, o'zingiz ham ishonch hosil qilishingiz mumkin. Biroq oradan ma'lum vaqt o'tgach, ya'ni bundan uch yil muqaddam...

— Uzr, uch yilligi aniqmi?

— Aniq... Hozir sizga qaysi yildaligini ham ko'rsataman... Xullas, uch yil burun bizga xat yo'llab, turarjoyi o'zgarganini va yangi adresini yozib qo'yishimizni so'ragan: Parij, Reomyur ko'chasi, bir yuz o'n yettinchi uy.

— Kechirasiz, shaxsan o‘zingiz Donjni hech ko‘rganmisiz?

— Ehtimol ko‘rgandirman, lekin eslay olmayman... Tuynuk oldida o‘tirmayman-da, kabinetim alohida. Hammani tangadek keladigan teshikcha orqali ko‘raman, xolos.

— Xizmatchilaringiz ko‘rgandir hech bo‘lmasa?

— Bugun ertalab ba‘zi birlaridan so‘rab ko‘rdim. Bittasi esladi, chunki u ham Sen-Kluda uy qurgan ekan. Aytishiga qaraganda, Donj sarosar uyini bitkazib, bu yoqdan sarosar ko‘chib ketibdi.

— Iltimos, o‘sha xizmatchini telefonga bu yerga chaqirsangiz?

Agentlik boshqaruvchisi trubkani ko‘tardi. Fursatdan foydalanib, Megre xuddi uyqusi kelganday, huzur qilib kerishdi, ammo ko‘zlari chaqnab turardi.

— Darvoqe, nima haqda gapiryatuvdingiz?.. Ha, Donj boshqa joyga ko‘chipti, hozir Reomyur ko‘chasidagi bir yuz o‘n yettinchi uyda yashayapti, dedingiz, a?.. Uzr, men hozir kelaman.

Shunday deb, u inspektorlar xonasiga kirib ketdi.

— Lyuka! Darrov taksiga o‘tir. Reomyur ko‘chasidagi bir yuz o‘n yettinchi uyga borib, janob Prosper Donj haqida so‘rab-surishtir. Qolganini keyin tushuntiraman...

U yana agentlik boshqaruvchisining oldiga qaytdi.

— Donj hozir ham pul qo‘yib-pul olib turibdimi?

— Shuning uchun keldim-da huzuringizga. Bugun ertalab jamg‘armasiga ko‘zim tushib, hayron bo‘lib qoldim, ayniqsa, keyingi tushgan pul meni battar taajjubga soldi. Birinchi amerika cheki...

— Uzr, nima dedingiz?

— O, bunaqa cheklar ilgari ham kelib turgan. Besh yuz dollardan iborat birinchi amerika cheki Prosper Donj nomiga bundan uch yil burun, mart oyida, Detroyt banki tomonidan berilgan. Bu chek o‘sha paytda bizning pulimizga chaqqanda qancha frank bo‘lishini ham aniq aytib berishim mumkin.

— Ahamiyati yo‘q.

— Chekni qabul qilib, pulni Donjning jamg‘armasiga o‘tkazib qo‘ydik. Oradan yarim yil o‘tgach, undan yana

o'sha bank yozib bergan bitta chek olindi, pulni Donjning joriy jamg'armasiga o'tkazib qo'yish so'ralgan edi.

Agentlik boshqaruvchisi komissarning xayoli boshqa joydaligini, uning gaplarini mutlaqo eshitmayotganligini sezib, kalovlanib qoldi. Rostdan ham Megrening xayoli olislarda edi. Agar bank agentligi boshqaruvchisini qabul qilishdan oldin solisitor bilan telefonda gaplashmaganimda, mister Devidsonga nihoyatda aniq savollar bermaganimda, har vaqtdagiday butun xatti-harakatlarimni tasodifga yo'yib qo'ygan bo'lishardi, degan o'y o'tdi uning ko'nglidan.

— Qulog'im sizda, janob... janob Jolive.

Megre unga murojaat qilishdan oldin har gal tashrifnomaga ko'z tashlab qo'yardi.

— To'g'risi, bilib turibman, Donj taxminan uch oyda bir marta Detroytdan chek olib turgan, demoqchisiz.

— To'ppa-to'g'ri... Lekin...

— Xullas, hamma cheklarni qo'shib hisoblaganda qancha pul bo'ladi?

— Uch yuz ming frank...

— Shuncha pul bankda yotaverganmi? Donj biror marta ham jamg'armasidan pul olmaganmi?

— Ha. Faqat keyingi sakkiz oy ichida birorta ham chek kelgani yo'q.

Albatta-da! Fransiyaga safar oldidan missis Klark jajji o'g'ilchasi bilan kemada Tinch okean sayriga bekorga chiqmagan-ku.

— Donjning o'zi har oyda ozgina bo'lsa ham pul o'tkazib turganmi?

— Jamg'arma qaydnomasini tekshirib chiqib, buni aniqlayolmadim... Amerika cheklari oldida uning qo'ygan puli nima bo'lardi! Lekin meni boshqa narsa tashvishga solyapti: o'tgan kuni bitta xat oldik. Unga men emas, chet el bo'limining boshlig'i e'tibor berib qoldi. Sababini hozir tushuntiraman... Shunday qilib deng, o'tgan kuni Donjdan xat oldik... Ammo har doim xatga ilova qilinadigan chek o'rniga bu gal iltimosnoma bor edi. Unda Donj Bryussel banklarining birortasidan olish uchun o'ziga nomi yozilmagan chek jo'natishimizni so'ragan edi... Odatdagi ish bu... Mijozlarimiz sa-

yohatga jo'nashdan oldin ko'pincha birorta chet el bankiga chek yozib berishimizni so'rashadi — bu narsa ularni akkreditiv bilan bog'liq mashmashalardan, shuningdek, katta pulni cho'ntakda olib yurish tashvishidan xalos qiladi.

— Qancha pulga chek yozib berilgan?

— Ikki yuz sakson ming frankka... Donjning joriy jamg'armasida atigi yigirma ming frankka yaqin pul qoldi, xolos.

— Demak, chekni yozib bergansizlar?

— Adresiga jo'natdik.

— Qaysi adresga?

— Reomyur ko'chasi, bir yuz o'n yettinchi uyga-da.

— Demak, chek solingan konvert pochta orqali kecha ertalab egasiga yetib borgan?

— Ehtimol... Lekin Donj baribir uni ololmagan. — Bank agentligining boshqaruvchisi qo'lidagi gazetani silkitdi. — Ha, ha, ololmagan, chunki o'tgan kuni taxminan biz chek yozayotgan paytda Prosper Donjni qamoqqa olishgan!

Megre shosha-pisha telefonlar kitobini varaqladi. Ma'lum bo'lishicha, Reomyur ko'chasidagi bir yuz o'n yettinchi uyda telefon ko'p ekan; jumladan, uy xodimasining xonasida ham telefon bor ekan. Megre qo'ng'iroq qildi. Inspektor Lyuka allaqachon yetib borgan ekan. Megre unga ko'rsatma berdi:

— Xat!.. Ha, Prosper Donjning nomiga yozilgan xat. Konvertda Lion kredit bankiga qarashli O. agentligining muhri bo'lishi kerak. Imillama, og'ayni... Natijasini telefonda ma'lum qil...

— Nazarimda, janob komissar, — dedi biroz viqor bilan boshqaruvchi, — nazarimda, huzuringizga kelganim chakki bo'lmagan.

— Albatta! Albatta!..

Ammo Megre endi u haqda o'ylamas, oldida odam borligini ham unutilib yuborgan edi. Xayolida hozir boshqa fikrlar charx urmoqda. Negadir betoqat bo'lar, stol ustida turgan narsalarni bemaqsad u yoqdan olib bu yoqqa qo'yar, borib pechkadagi o'tni titkilar, kabinetning u boshidan bu boshiga borib kelar edi.

— Lion bankining xizmatchisi keldi, janob komissar.

— Kirsin.

Shu payt telefon jiringlab qoldi. Bank xizmatchisi ostonada turgancha, mo'ltirab o'z boshlig'iga qarar, Jinoyat qidiruv politsiyasiga nima uchun chaqirishdiykin, deya hayron bo'lardi.

— Lyuka?

— Bilasizmi xo'jayin, bir yuz o'n yettinchi uyda odamlar yashamas ekan, har xil idoralar joylashgan ekan. Aksariyati bittadan xonada. Ba'zi xonalarni boshqa shaharlardan kelgan savdogarlar egallashgan, o'z firmalari-ning adresini «Parijdagi mahkama» deb yozish foydali bo'lgani uchungina shunday qilisharkan. Mazkur mahkama egalarining ko'pchiligi bu yerga deyarli qadam bosmasakan ham, shuning uchun ularning nomiga kelgan xatni kerakli adresga qaytadan jo'natisharkan. Ayrim mahkamalarda telefonga javob-muomala qilish uchun faqat mashinistkalar o'tirarkan... Allo!!

— Eshityapman. Gapiraver.

— Uch yil burun Donj shu uyda ikki oy ijarada turgan, oyiga olti yuz frankdan ijara haqi to'lagan. Lekin o'zi atigi ikki-uch marta kelgan, xolos. Shundan beri eshikbonga har oyda yuz frankdan pul berib turadi, buning evaziga eshikbon unga kelgan xatlarni kerakli adresga jo'natadi.

— Qaysi adresga?

— «Jem» degan xususiy agentlikka, Osman xiyoboni, qirq ikkinchi uy.

— Kimning nomiga?

— Adresni hammavaqt Donjning o'zi yozadi, to'g'rirog'i, mashinkada bostiradi... Ushbu konvertlarni oldinroq jo'natib yuboradi. Shoshmay turing, xona sal qorong'iroq... Ha, iltimos, azizim, chiroqni yoqib qo'ying... Mana, eshiting: «Osman xiyoboni, qirq ikki, «Jem» xususiy pochta agentligi, J.M.D.». Bor-yo'g'i shu. Bilasiz-ku, ism-familiyasining bosh harflari qo'yilgan xatlarni faqat xususiy agentliklar qabul qiladi...

— Taksi kutib turibdimi?.. Yo'q?.. Voy, tentag-ey! Hoziroq chiqib mashina ushla. Soat nechchi bo'ldi?

O'n bir bo'ldi... Osman xiyoboniga g'irilla. Eshikbon xatni kecha jo'natgan ekanmi?.. Shunaqa degin? Yugur, bo'lmasa!..

Kabinetda o'tirgan ikkala mehmon nima qilarini bilmay, Megrega javdirab qarab turishar, Megre esa bularni tamom unutib yuborgan edi, binobarin, trubkani joyiga qo'ygach: «Sizlarga nima kerak, nima qilib o'tiribsizlar», deb so'rashiga bir bahya qoldi. Xayriyat, o'zini tez tutib oldi.

— Bankda nima ish qilasiz? — deb so'radi u xizmatchidan. Kutilmagan savoldan u bir cho'chib tushdi.

— Joriy jamg'armalar bo'limida ishlayman.

— Prosper Donjni taniysizmi?

— Taniyman... Ya'ni, bir necha marta ko'rganman. Gap shundaki, biz aynan bir paytda imorat qurganmiz. Faqat mening uchastkam...

— Xabarim bor. Davom eting.

— U agentligimizga kelib, bankda joriy jamg'armasi yo'q va cheklarni qabul qilmaydigan ta'minotchilarga to'lash uchun o'zining joriy jamg'armasidan unchamuncha pul olib turardi. Ba'zan bu ovoragarchilik joniga tegib ketardi... Esimda, u bilan shu haqda gaplashganmiz. Qaniydi xuddi Amerikadagiday, hammaning bankda joriy varaqasi bo'lsa, deganmiz. Kelib-ketishga u qiynalardi, chunki «Majestik» mehmonxonasida ertalab oltidan kech soat oltigacha ishlardi, soat oltida esa bank berkilardi. Shundan keyin men unga maslahat berdim... Janob boshqaruvchi mendan ranjimasalar kerak, deb o'ylayman, sababki mijozlarga qulay bo'lishi uchun biz ko'pincha shunday qilamiz... Prosper Donjga, agar pul kerak bo'lib qolsa, menga qo'ng'iroq qiling, pulni vasiqa bilan birga birortasidan jo'nataman, siz kvitansiyaga qo'l qo'yib bersangiz bas, dedim. Shunday qilib, ikki-uch marta unga, «Majestik»ka pul berib yuborganman.

— Shundan keyin o'zini ko'rganingiz yo'qmi?

— Ko'rmadim, shekilli... Darvoqe, ikki yildan beri yoz oylarida meni Etretadagi agentligimizda ishlash uchun jo'natishyapti. Ehtimol, o'sha paytlarda kelgandir.

Megre indamay yozuv stoli g'aladonini ochdi-da, undan Donjning suratini olib, stolga qo'ydi.

— O'sha! Xuddi o'zi! — deb xitob qildi bank xizmatchisi. — Basharasi esda qoladigan odam. Yodimda bor, yoshligida suvchechak chiqqanini, o'zi yashab turgan xonadon egalari bo'lmish fermerlar hatto doktor ham chaqirishmaganini gapirib bergan edi.

— O'sha odam ekanligiga ishonchingiz komilmi?

— Shubhasiz.

— Dastxatini ham taniysizmi?

— Dastxatini men ham bilaman, — deb gapga aralashdi chetga chiqib qolayotganidan kamsitilganday bo'lib o'tirgan Jolive.

Megre har xil odamlarning dastxati tushirilgan qog'ozlarni uzatdi.

— Yo'q!.. Yo'q!.. O'xshamaydi... Ha, mana bunisi! Mana, yetti raqami... U yetti bilan «f» harfini boshqacharoq qilib yozardi. Mana bu «f» o'shanikiga o'xshaydi...

Ular ko'rsatgan narsani haqiqatan ham Prosper Donj yozgan edi, — axir, Megre ularga qahvaxona pattasini, Prosper shoshilinchda aji-buji qilib yozgan pattalardan birini ko'rsatgan edi-da — shuncha idishda qora qahva, shunchasida sutli, shokoladli qahva, shunchasida choy yoki boshqa narsalar berilgan.

Telefon miq etmasdi. Kun tushga yaqinlashib qolgan edi.

— Sizlarga katta rahmat, janoblar.

Nima uchun Lyuka «Jem» agentligida uzoq qolib ketdi? Taksiga o'tirmay, olti frankni tejab qolish uchun avtobusda borgan bo'lishi ham mumkin. Ziqlaligi qolmadi-qolmadi-da.

## *IX b o b*

### **SHARLNING GAZETASI**

Ikkovlari alohida-alohida turishganda, balki unchalik bilinmasdi. Ammo ular Jinoyat qidiruv politsiyasining yo'lagida yonma-yon turishar, ko'rinishlari ham kulgili, ham ayanchli edi. Uzun bo'yli, oyoqlari cho'pday



ingichka Jiji quyon terisidan tikilgan, ammo juni allaqachon to'kilib bo'lgan po'stinga o'ralganicha, eshik oldida navbatchilik qilib turgan politsiyachiga hadik bilan ko'z qirini tashlab qo'yar, yo'lkada qadam tovushlarini eshittishi bilan kim kelyaptiykin, deb engashib qarardi; bechora Sharlottaning esa pardozi-andozi qilishga ham hushi kelmagan, yig'layverganidan kulcha yuziga qizil dog'lar toshib ketgandi. Tugmachaday burni ham qip-qizil edi. U egniga qorako'l yoqali, chetlariga ham qorako'ldan uqa solingan qop-qora drap palto kiyib olgandi. Charm sumkachasini chap qo'li bilan ko'ksiga beixtiyor bosib turardi. Agar yonida cho'pday oriq, qarg'aday bukur Jiji bo'lmaganida va burni qizarmaganida, uni tuppata-tuzuk ayol deb o'ylardi kishi.

— Kelyapti!

Sharlotta joyidan jilmadi. Jiji betoqat bo'lib, u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Qandaydir bir hamkasbi bilan kelayotgan Megreni u birinchi bo'lib ko'rdi. Megre bularni kechroq payqadi. Sohilda oftob charaqlar, havodan bahorning hidi anqib turardi.

— Kechirasiz, janob komissar...

Megre hamrohining qo'lini qisdi.

— Xo'p, yaxshi ishtaha, azizim...

— Ikki og'iz gapim bor edi, janob komissar...

Sharlotta shunday dedi-yu, mijg'aloq bo'lib ketgan ro'molchasini og'ziga bosib ho'ngrab yig'lab yubordi. Yo'lovchilar ularga hayron bo'lib qarashardi. Megre indamay kutib turdi. Jiji go'yo dugonasi uchun uzr so'raganday:

— Hozirgina tergovchining oldidan chiqdi. Chaqirtirgan ekan, — dedi.

— E-ha! Janob Bonno chaqirtiribdimi? Haqqi bor. Xo'sh, nima gap?

— Nahotki... nahotki, Prosper... bo'yniga olgan bo'lsa, janob komissar?

Megre jilmaydi. Tergovchi o'ylab-o'ylab shuni topibdi-da! Eski nayrang bu... Sudga yangi ishga kirganlarning odatdagi hiylasi. Tentak Sharlotta shunga ishonibdi-da!

— Noto'g'ri, a? O'zim ham sezuvdim! Gapirgan gaplarini eshitganingizda edi... Sariq chaqaga ham arzi-maydigan odamga chiqarib qo'ydi meni.

Eshik oldida navbatchilik qilayotgan politsiyachi bularga andak kinoya bilan qarab turardi. Darhaqiqat, Megreni kutilmaganda ikki ayol iskanjaga olgan — biri yum-yum yig'lar, ikkinchisi komissarga mutlaqo ishonchsizlik bilan boqardi.

— Prosperni qamatish maqsadida ustidan go'yo yumaloq xat yozgan emishman. Begunohligini bilaturib, shu ishni qilamanmi? To'pponchadan otib o'ldirganda balki ishonardim. Lekin birovni bo'g'ib o'ldirishiga aslo ishonmayman! Tag'in buning ustiga ertasi kuni boshqa bir aybsiz odamni ham bo'g'ib qo'rganmish. Ehtimol, biror yangilikdan xabar topgandirsiz, janob komissar? Nahotki uni turmadan qaytib chiqarishmasa?..

Megre o'tib ketayotgan bo'sh taksini to'xtatdi.

— O'tiringlar! — dedi u Sharlotta bilan Jijiga. — Bir joyga borib kelishim kerak. Menga hamroh bo'lasizlar.

U to'g'ri gapirgan edi. Lyuka qo'ng'iroq qilib «Jem» xususiy agentligida hech narsani aniqlay olmaganini ayt-gandi. Megre unga Osman xiyobonida kutib turishni tayinlagandi. Birdan miyasiga ayollarni ham agentlikka olib borish fikri kelib qoldi.

Sharlotta bilan Jiji yon o'rindiqlarga o'tirishmoqchi edi, Megre ularni orqa o'rindiqqa o'tirishga majbur qildi, o'zi esa shoferga orqa o'girib o'tirib oldi. Havo ochiq edi, yil davomida birinchi marta mana shunaqa bo'lishi, ko'chalar gavjum, odamlarning kayfi chog', ruhi tetik.

— Sharlotta, aytinch-i, Donj haliyam ortiqcha puli-ni bankka qo'yadimi?

Megre Jijini jerkib berishiga sal qoldi, chunki u og'iz ochmasidan Jiji, xuddi qopqonga tushib qolayotganday, qoshlarini chimirardi. Hozir ham u dugonasiga: «Shoshma!.. O'ylab javob ber...» deb yuborishdan o'zini arang tiyib turardi.

Ammo Sharlotta astoydil gapga tushib ketdi:

— Ortiqcha pul? Bizda ortiqcha pul nima qiladi? Ko'pdan beri sariq chaqa ham orttira olayotganimiz yo'q! Uy quramiz deb adoyi tamom bo'ldik. Smeta

bo'yicha imoratning xarajati qirq mingdan oshmasligi kerak edi. Ammo poydevorining o'zi mo'ljaldagidan uch baravar qimmatga tushdi, chunki kavlaganda tagidan suv chiqib ketdi... Devorini ko'tarayotgan paytimizda birdan quruvchilarning ish tashlashi boshlanib, ish taqa-taq to'xtab qoldi. Bu yoqda qish eshik qoqib turardi. Xullas, besh ming frank unga... Yana uch mingi bunga... G'irt tovlamachi ekan bu pudratchilaringiz! O'sha imoratga qancha pul ketganini aytaymi? Anig'ini bilmayman-u, lekin sakson ming frankdan ko'p pul ketdi, hali yana to'lashimiz kerak.

— Demak, bankda Donjning puli qolmagan ekan-da?

— Hatto joriy varaqasi ham yo'q hozir... Qachondan beri deysizmi? Uch yilcha bo'p qoldi. Oxirgi marta pochalyon sakkiz yuz frank olib kelgani esimda. Bu pul qayoqdan kelganini ham bilmasdim... Donjning o'zi aytib qoldi, bankka xat yozib, joriy jamg'arma varaqasini berkitishni so'ragan ekan.

— Qachon bo'lgan edi shu voqea, yodingizdami?

— Buni sizga nima ahamiyati bor? — deb so'radi Jiji o'zini tutolmay.

— Qish payti edi. Pochalyon kelganida men vodoprovod atrofidagi muzni ko'chirayotgan edim... Shoshmang-shoshmang... O'sha kuni Sen-Klu bozoriga borib, g'oz sotib olganman. Demak, rojdestvo arafasida ekan.

— Qayoqqa ketyapmiz? — deb so'radi Jiji oynadan ko'chaga mo'ralab.

Xuddi shu payt taksi Osman xiyobonida, Fobur Sent-Onore ko'chasiga yetmay to'xtadi. Yo'lkada turgan Lyuka mashinadan ikki ayol, ularning ortidan Megre tushganini ko'rib, hayron bo'lib qoldi.

— Bir minutga... — dedi Megre o'z hamrohlariga va Lyukani chetroqqa boshladi.

— Xo'sh, qalay?

— Ho', anovi... chamadon magazini bilan ayollar sartaroshxonasi o'rtasidagi do'konchaga o'xshagan binoni ko'ryapsizmi?.. Ana o'sha «Jem» agentligi bo'ladi. Razil bir qariyaga qarashli ekan, undan biror

og'iz ham gap sug'urib ololmadim... Har doim mana shu paytda ovqatlanaman, tamaddi qilvolishim kerak, deb, do'konini berkitib jo'nab qolmoqchi edi. Biroz kuting, deb qo'ymadim. Jahli chiqib ketdi. Ordersiz haqqinglar yo'q, deydi nuqul...

Megre qora rangga bo'yalgan peshtaxta bilan ikkiga ajratilgan nimqorong'i binoga kirdi. Devorda ham qora taxtadan yasalgan katak-katak tokchalar bo'lib, ularda xatlar yotardi.

— Qani, ayting-chi... — deb to'ng'illadi chol.

— Yo'q, kechirasiz, — deya uning gapini bo'ldi Megre, — oldin men sizdan ba'zi narsalarni so'ramoqchiman. Eshitishimcha, agentligingizdan ism-familiyalarning faqat bosh harflari qo'yilgan xatlarni so'rab olish mumkin ekan, lekin pochta bo'limlarida bu narsa man etilgan. Aftidan mijozlaringiz ko'pga o'xshaydi.

— Nima qipti? Men patent to'layman, — deb javob berdi qariya qisqagina qilib.

U shishasi qalin ko'zoynak taqib olganidan ko'zlari-ning shilpig'i unchalik sezilmasdi. Egnidagi kamzuli dog'-dug', ko'ylagi yoqasining yag'iri chiqib ketgandi. O'zidan ham, butun binodan ham qo'lansa hid anqirdi.

— Bosh harflarning yonida mijozlarning to'la ism-familiyalari ko'rsatilgan ro'yxatingiz bormi?

Chol zaharxanda qildi:

— Agar mijozlarim familiyalarini ochiq aytishadigan bo'lsa, bu yerga ikkinchi qadam bosisharmikin? Balki ulardan hujjatlarini ko'rsatishni ham talab qilishim kerakdir?

Har turli nopok ishlarni amalga oshirish uchun aloqa markazi bo'lib xizmat etuvchi ushbu mahkamaga tuppatusuk ayollarning yashirincha kelib-ketishlarini tasavvur qilish kishida yomon hissiyot uyg'otardi.

— Kecha J.M.D. nomiga yo'llangan xatni oldingizmi?

— Ehtimol. Xizmatchingizga ham shunday dedim. Bu kishi hatto xat bor-yo'qligini tekshirib ko'rmoqchi ham bo'ldi.

— Demak, olib ketishgan? Qay paytdaligini aytib berolmaysizmi?

— Bilmadim. Hatto bilganimda ham aytmagan bo'lardim. Haqqim yo'q...

— Mening talabim bilan do'koningizni bugunmi-ertami yopib qo'yishlari mumkinligini bilasizmi?

— Menga bunaqa gapni ko'p aytishgan, ammo siz do'kon deb atayotgan mana shu bino xuddi shu yerda qirq ikki yildan beri turibdi. Ne-ne alamzada erlar kelishmadi bu yerga, qanaqa to'polonlar ko'tarishmadi, hatto urmoqchi ham bo'lishdi meni...

Lyuka cholni bejiz «razil» demagan ekan.

— Endi, ijozatingiz bilan pardalarni berkitib, ovqatlanishga boraman.

Qayerda ovqatlanishi mumkin bu eshakqurt? Shunday bir maxluqning oilasi, xotini, bola-chaqasi bo'lishi mumkinmi? Yo'q, u so'qqabosh bo'lishi kerak, shu atrofdagi birorta qashshoq restoranda ovqatlanar, o'zining muqim o'tiradigan joyi, alyumin idishda sochiq-chasi bordir.

— Mana bu odamni hech ko'rganmisiz?

Megre cholning qaysarligiga zarracha ham e'tibor bermay, hamyonidan Prosper Donjning suratini chiqazdi, shunda qariyadagi sinchkovlik jaholatdan ustun keldi. U engashib, suratni ko'zlariga yaqin olib borib qaradi. Qiyofasida o'zgarish sezilmadi. Chol yelkasini qisdi.

— Eslayolmayapman, — dedi u xuddi afsuslangan-day.

Sharlotta bilan Jiji ko'chada, agentlikning ensizgina lavhasi oldida kutib turishardi. Megre Sharlottani chaqirdi.

— Bu ayolni taniysizmi?

Sharlotta bino ichiga shunday bir hayrat va sarosima bilan ko'z tashladiki, agar rostdan mug'ambirlik qilayotgan bo'lsa, uni nihoyatda iste'dodli artistga qiyoslash mumkin edi.

— Qayoqqa kep qoldik? — dedi u nihoyat.

Sharlottani vahima bosayotgan edi... Uni nima uchun bu yerga opkelishdi? U o'z ixtiyori bilan ichkari-ga kirgan Jijiga madad so'raganday termildi.

— Yana ko'p odam olib kelasizmi?

— Demak, bu ayollarni tanimaysiz? Unisini ham,

bunisini ham? J.M.D. ga atalgan xatni olib ketish uchun erkak kishimi, ayol kishimi — kim kelganini va qachon kelganini eslayolasizmi?

Chol javob bermay, bir qulochcha yog‘ochni oldi-da, eshikni naryog‘idan berkitish uchun tashqariga qarab yura boshladi. Chekinishga to‘g‘ri keldi. Lyuka, Megre va ikki ayol yana yo‘lkaga chiqib qolishdi. Ulkan kash-tanlarning kurtaklari bo‘rtib, ochilay-ochilay deb turardi.

— Xo‘p, sizlar boraveringlar!..

Megre ularning orqasidan qarab turdi. O‘n qadamcha yurgach, Jiji Sharlottaga bir nimalar deb bidirladi-yu, dugonasining qo‘lidan ushlab, oldinga sudray boshladi. Baqaloq Sharlotta unga arang yetib yurardi.

— Yangilik bormi, xo‘jayin?

Megre nima ham deya olardi? U Lyukaga xomush qaradi. Go‘yo bahor uni sevintirish o‘rniga, g‘ashini keltirayotganday edi.

— Bilmadim... Menga qara... Hozir borib ovqatlan. Soat o‘n ikkidan keyin kabinetningda bo‘l. Fransiya va Bryusseldagi banklarni ogohlantirib qo‘y, agar birortasi ikki yuz sakson ming frankka chek uzatsa...

Ular «Majestik»ning yonginasida turishardi. Megre Ponte ko‘chasiga burildi, mehmonxonaning xizmatchilar kirib-chiqadigan yo‘lagi yaqinida joylashgan qahvaxonaga kirdi-da, konservadan qilingan qovurdoq buyurib, yolg‘iz o‘zi bir burchakka borib o‘tirdi. Yonidagi stolda ikki odam shoshilib ovqatlanar, aftidan, poygaga oshiqishayotgan bo‘lsa kerak, nuqul otlar haqida gaplashishardi.

Megre tamaddi qilib olganidan keyin nima ish bilan mashg‘ul bo‘ldi? Uni izidan kuzatib borgan kishi bu savolga osonlikcha javob berolmagan bo‘lardi. Ovqatini yeb bo‘lgach, qahva ichdi, tamaki sotib olib, xaltachasi-ga soldi, so‘ng qahvaxonadan chiqdi-da, parishon bir qiyofada atrofga alanglagancha yo‘lkada anchagina turdi.

Albatta, uning aniq bir rejasi yo‘q edi. Bo‘shashibgina mehmonxonaning xizmatchilar kirib-chiqadigan yo‘lagi tomon yurdi va xodimlarning ishga kelgan vaqti-ni qayd etib turadigan soat oldida, dahlizda to‘xtadi. Shu

tobda u poyezd kelishini vokzalda ko'pdan buyon kutayotgan va zerikkanidan kurs chiqarib beradigan avtomatga ketma-ket tanga tashlab, o'zini ovutayotgan sayyohni eslatardi.

Megrening yonidan odamlar o'tib turishar, aksariyati oshpaz yordamchilari bo'lib, ular sochiqlarini yelkalariga tashlaganicha, ozginadan vino otib olish uchun qo'shni qahvaxonaga yugurishardi.

Uzundan uzoq yo'lak nihoyatda dim, yuzga issiq hovur, dimoqqa oshxonaning hidi urilardi.

Yechinish xonasida hech kim yo'q edi. Megre qo'lini yuvdi, aslo zarurati bo'lmasa ham, azbaroyi vaqtini o'tkazish uchun, o'n daqiqacha tirnoqlarini tozaladi. So'ng issiqdan harsillab, paltosini yechdi va 89-shkafga ilib qo'ydi.

Jan Ramyuel o'zining shisha hujrasida savlat to'kib o'tirardi.

Ro'parasidagi qahvaxonada idish-tovoq yuvuvchi uch ayol bilan Prosperning o'rnida ishlayotgan oq kamzulli yangi xodim ivirsib yurishardi.

— Kim u? — deb so'radi Megre Ramyueldan.

— Vaqtincha ishlayapti. Ismi Sharl... Munosib bufetchi topilguncha deb yollashgan. Demak, yana qadam ranjida qipsiz-da?.. UZR.

Qo'l qo'lga tegmaydigan payt edi. Serhasham nomerlarda yashaydiganlar kech ovqatlanishar, shuning uchun ham Ramyuelning oldida pattalar uyulib ketgan, dast-yorlar turnaqator bo'lib turishar, telefonlar baravar jiringlar, liftlar to'xtovsiz chiqib-tushar edi.

Megre boshidan telpagini yechmay, qo'llarini cho'ntaklariga solganicha, dahlizda aylana boshladi, oshxonaga kirib, qayla tayyorlayotgan birorta oshpazning orqasida to'xtar va bu ishga nihoyatda qiziqadigan odamday biroz tomosha qilib turardi, so'ng yana idish-tovoq yuvayotganlarning oldiga qaytar yoki «yugurdaklar oshxonasi»ning shisha devoriga tikilganicha, o'ygatoldi.

Tergovning birinchi kunida bo'lganiday, u maxfiy zina tomon yo'l oldi, ammo bu gal shoshmasdan, hamon avzoyi buzuq, tajang bir kayfiyatda eng yuqori

qavatgacha ko'tarildi. Qaytib tushayotganida orqasidan halloslab direktor yetib keldi.

— Shu yerdaligingizni menga hozirgina aytishdi, janob komissar. Balki hali ovqatlanmagandirsiz? Ruxsat etsangiz...

— Rahmat, qornim to'q.

— Biror yangilik bormi, janob komissar? Prosper Donjni qamab qo'yishganidan nihoyatda larzadaman... Rostdan ham hech narsa yemaysizmi? Loaqal bir ryumka konyak iching...

Direktor Megre bilan tor joyda — ensizgina zina ustida gaplashayotganida xijolat bo'layotgan edi. Megrening yuzidan esa hech narsani bilib bo'lmasdi — ba'zan u shunaqa tund va loqayd qiyofaga kirib qolardi.

— Bu ish haqida matbuot nog'ora chalmaydi deb o'ylagan edim... Bilasiz-ku, mehmonxonaning sha'niga yaxshimas. Prosper Donj masalasiga kelsak...

Obbo! Bu badqovoq izquvarning ko'ngliga qanday qilib yo'l topsa bo'larkin!

Megre indamay pastga tusha boshladi va yana yerto'lada paydo bo'ldi.

— Ha, ha... Donj masalasiga kelsak, bir necha kun oldin men uni ajoyib xizmatchi deb hisoblardim, boshqalarga o'rnak qilib ko'rsatishga ham tayyor edim. O'zingiz bilasiz, bunaqa katta muassasada har xil odamlar uchraydi...

Megre goh u shisha devorga, goh bunisiga nazar tashlar, o'zining tili bilan aytganda: goh u akvariumni, goh boshqasini ko'zdan kechirardi. Shu tariqa u yechinish xonasiga kelib qoldi va ikki odam nobud bo'lgan mashhur 89-shkaf ro'parasida to'xtadi.

— Bechora Kolbef masalasiga kelsak... Uzr, me'dangizga tegdim, shekilli. Ammo bir narsaga hayronman: kuppakunduz kuni, shuncha odam ishlayotgan oshxonadan besh-o'n qadam narida bironi bo'g'ib o'ldirish uchun kishi devday baquvvat bo'lishi kerak, marhum hatto baqirolmagan, qarshilik ko'rsatishga ham majoli yetmagan. Hozirgidaqa payt bo'lganda boshqa gap edi — hamma o'zi bilan ovora, yugur-yugur, bino ichi shovqin. Ammo kechki soat to'rt yarim yoki beshlarda...



— Nazarimda, ovqatlanib o'tirgan edingiz, shekilli? — dedi Megre xotirjam ohangda.

— Buning aslo ahamiyati yo'q!.. Biz turli vaqtlarda tamaddi qilishga o'rganib qolganmiz...

— Iltimos, borib ovqatingizni yeng. Men boray... Ketishim kerak. Meni kechiring.

Shunday deb, Megre dahliz bo'ylab yurib ketdi, goh u eshikni-goh bu eshikni ochib-yopar, trubkasini o't oldirar, ammo u hadeb o'chib qolaverardi.

Aylanib-aylanib u yana qahvaxona oldidan chiqib qolaverardi, u yerda ishlayotgan odamlarning hamma xatti-harakatlari unga yod bo'lib ketgandi, qahvaxona ro'parasida to'xtab turardi-da, ichida allaqanday mavhum so'zlarni takrorlardi:

— Ha, yaxshi... Donj hov anovi yerda... Har kuni ertalab soat oltida o'z o'rnini egallaydi... Yaxshi... Uyida Sharlotta kelib isitib bergan qahvani ichadi... Yaxshi... Bu yerga kelgach, menimcha, birinchilar qatori o'ziga ham qahva quyadi... Yaxshi...

Nimalar deb aljirayapti o'zi?

— Odati bo'yicha tungi eshikbonga qahva eltib beradi... Yaxshi... Xuddi o'sha kuni, soat oltidan o'n minut o'tgan bo'lishiga qaramay, Donj qahva olib kelmagani uchun ham Jyusten Kolbef yerto'laga tushgan... Yaxshi... Qisqasi, bu yoki u sababga ko'ra... Hm!

Shoshma-shoshma: endi birinchi nonushtaga qahvani kumush idishga emas, suzg'ichli guldor sopol idishchalarga quyishyapti-ku.

— ... ertalab birinchi nonushtani tepaga iloji boricha tezroq chiqarishadi... Yaxshi... Keyin Donj tamaddi qiladi... Unga nonushtani barkashda opkelishadi...

— Uzr, janob komissar, sal o'ngga yoki chapga suriling... Idishlarni sanashga xalaqit beryapsiz.

Bu so'zlarni Ramyuel aytdi, buni qarangi, u shisha hujrasida o'tirib hamma narsani kuzatishi kerak ekan, hatto qahvaxonada nechta qahva ichilganini ham sanarkan.

— Bezovta qilganim uchun meni kechiring, janob komissar.

— Hechqisi yo'q, hechqisi yo'q.

Soat uch bo'ldi. Ishning shashti sal pasaydi. Oshpazlardan biri qayta kiyinib, ketish taraddudiga tushdi.

— Meni so'rab qolishsa, Ramyuel, soat beshda bo'laman... Soliqni to'lab kelishim kerak.

Qahva ichiladigan jigarrang sopol idishchalarning deyarli hammasi nomerlardan yerto'laga qaytib tushdi. Prosper Donjning o'rnida ishlayotgan Sharl ko'chaga tutash dahlizga chiqdi va komissarning yonidan o'tib ketaturib, unga boshdan oyoq sinchkovlik bilan tikildi. Aftidan, idish-tovoq yuvuvchi ayollar Megrening kimligini unga aytishgan bo'lsa kerak.

Bir necha daqiqadan so'ng u qo'lida gazeta bilan qaytib keldi. Soat uchdan oshgan edi. Ayollar qo'llarini tirsaklarigacha issiq suvga botirib, idish-tovoq yuvish bilan mashg'ul edilar. Sharl o'z stoli yoniga borib o'tirdida, sigareta tutatdi, so'ng ko'zoynagini taqib, gazeta o'qishga tutindi.

Buning hech qanday ajablanarli joyi yo'q edi, ammo shunga qaramay, Megre unga bir muddat taajjublanib qarab turdi.

— Nafas rostlaydigan paytmi deyman? — dedi u patlarni ajratayotgan Ramyuelga jilmayib.

— Ha, soat to'rt yarimgacha sal tinchiymiz, dansing ochilganidan keyin yana yugur-yugur boshlanadi...

Oradan yana bir necha daqiqa o'tdi, Megre hamon ketishni o'ylamasdi. Birdan qahvaxonadagi telefon jiringlab qoldi. Sharl o'rnidan turib, trubkaga allanimalar deb gapirdi, keyin gazetani oxirigacha ko'rolmagani uchun afsuslanganday, boshini sarak-sarak qilib, yerto'laning allaqaysi burchiga qarab jo'nadi.

— Qayoqqa ketdi?

— Soat nechchi bo'ldi? Uch yarimmi? Demak, qahva bilan choyni olib ketish uchun omborga chaqirishgan.

— Har kuni shu ahvolmi?

— Har kuni...

Megre shoshmasdan qahvaxonaga kirdi, oddiy taxtadan yasalgan, bo'yalmagan stolning g'aladonini ochdi. G'aladonda siyohdon, ruchka va toza qog'ozlar turardi.

Bundan tashqari, qalam qoldiqlari bilan pul jo'natiladigan ikki-uchta blanka ham bor edi. Ramyuel komissarni zimdan kuzatib o'tirardi.

Megre g'aladonni endi yopgan ham ediki, bir quchoq paket ko'tarib Sharl kirib keldi. U Megrening stolga engashib turganini ko'rib, uni gazeta o'qiyapti, deb o'yladi.

— Bemalol, olavering. O'qiydigan narsasi ham yo'q. Men faqat telefon bilan ishga joylashishga aloqador e'lonlarni o'qiyman.

Gazetani boshiga uradimi Megre!

Demak, har kuni Prosper Donj mana shu stol yonida o'tirgan... Uch baqaloq ayol terlab-pishib idish-tovoq yuvish bilan mashg'ul bo'lgan... Prosper...

Megre boyagi loqayd va mudroq holatdan asta-sekin xalos bo'la boshladi. Go'yo shoshilinch ishi borligi birdan esiga tushib qolganday sergak tortdi. Hech kim bilan xayrlashmay, shitob bilan yechinish xonasiga kirdida, paltosini olib ko'chaga otildi va chiqiboq, o'zini tak-siga urdi.

— Prokuraturaga. Moliya bo'limiga, — dedi u haydovchiga.

Soat chorakkam to'rt. Bo'limda birorta odam o'tirgandir, ehtimol. Agar hammasi silliqlik ketsa, hali kechga qadar...

Megre yuzini chetga o'girdi, chunki ro'parasidan Zebio deb nom olgan Edgar Fagone chiqib qolgan edi, u yayov «Majestik»ka bormoqda edi.

## X b o b

### «GUMBAZ» RESTORANIDAGI TUSHLIK

Operatsiya atayin vahimali bir tarzda amalga oshirildi. Shunday bo'ldiki, o'zining nimqorong'i do'konida butun umrini o'tkazib, endi oxirat xayoliga cho'mib o'tirgan mo'ysafid baqqol ham ko'zlarini ochib, oyoqlarini sudragancha eshik yoniga keldi.

Vaqt kech soat oltilar edi. Sen-Per ko'chasidagi

ko'rimsiz do'konlarning rastalari nihoyatda xira yoritilgan, ammo hali atrofga qorong'ilik tushib ham ulgurmagani edi.

Politsiya mahkamasining qora mashinasi sohil tomondan shunday chinqirib otilib chiqdiki, qadimiy kitob va noyob buyumlar bilan savdo qiluvchi jamiki do'kondorlarning o'takalari naq yorilayozdi.

Mashina tormozlarini chiyillatib, yo'lka chetida to'xtadi, undan turqi-tarovati go'yo qotillik yuz bergan joyga chaqirilgan politsiya izquvarlariga o'xshagan uch odam tushdi.

Magazin eshigi tomon faqat Megregina yo'l oldi, ayni shu paytda basharasini oynaga tirab, rangi quv oqarib ketgan sarkor qarab turardi. Inspektorlardan biri magazinning orqa eshigi bor-yo'qligini tekshirib ko'rish maqsadida tor ko'chaga burildi, shopmo'ylovli, badqovoq ikkinchi inspektor esa yo'lkada qoldi — Megre jo'rttaga shu odamni tanlagani edi.

Magazin devorlariga sharq gilamlari osib tashlangan, do'kon ichi jimjit edi, sarkor hayajonini arang yashirib:

— Sizga Atum janoblari kerakmi?.. — dedi bidirlab. — Hozir qarab ko'raman, shu yerdamikin...

Ammo komissar uni chetga surib qo'ydi. Magazin to'riga osilgan ikki gilam oralig'idan qizg'ish nur tushib turar, ichkaridan gangur-gungur ovozlari eshitilardi. Megre to'rt tomoniga gilam qoqilgan chog'roqqina xonaga kirib bordi. Har xil rangdagi charm bolishli divan va sadaf naqshli kichkinagina stolcha — xonadagi bor-yo'q jihoz shundan iborat edi. Stolda turgan ikki idishdagi qaynoq turk qahvasidan bug' ko'tarilardi.

Xona o'rtasida qandaydir bir kimsa ketishga chog'lanib turar, aftidan, u ham sarkordan battar qo'rqib ketgan edi. Ikkinchi odam esa divanda yalpayib o'tirganicha, zarhal mundshtukda sigareta tortar va ro'parasida tik turgan mehmonga xorijiy tilda bir nimalarni uqtirardi.

— Atum janoblari siz bo'lasiz, shundaymi? Men komissar Megreman, Jinoyat qidiruv politsiyasidan...

Mehmon apil-tapil chiqib ketdi. Orqasidan eshikning qarsillab yopilgani eshitildi. Megre esa divanning bir

chetiga ohista o'tirib, qahva quyilgan mo'jazgina idishchalarni ko'zdan kechira boshladi.

— Meni tanimadingiz-a, janob Atum?.. Bir mahallar siz bilan yarim kunni birga o'tkazganmiz... To'g'ri, bunga sakkiz yil bo'ldi. Ajabtovur sayohat qilgandek: «Vogeza, Elzas!.. Agar yanglishmasam, biz siz bilan chegara ustuni yonida xayrlashgandik...

Xo'ppa semiz Atumning yuzlari sip-silliq, ko'zlari nihoyatda tiyrak edi. Did bilan kiyingan, xushbo'y atir hidi anqib turibdi, barmoqlarida qimmatbaho uzuklar. U divanning bir burchida chordana qurib o'tirar, bino-barin, tagi marmar chiroq yoritib turgan bu hujra Parij magazinlaridan ko'ra ko'proq sharq bozorlaridagi do'konga o'xshab ketardi.

— O'shanda nima ish qilib qo'yan edingiz? Arzimagan gap edi nazarimda... Biroq, hujjatlaringizda ishkallik bor edi, shuning uchun ham fransuz hukumati sizga faqat chegaragacha sayohat qilishga ruxsat berdi. Siz, tabiiyki, o'sha kuni kechqurunoq Fransiyaga qaytdingiz, hammasi risoladagiday bo'ldi, fahmimcha, baquvvat homiylar topilib qoldi o'shanda...

Atumning bir tuki ham o'zgarmadi, u hamon Megrening qarshisida to'yan qo'zidek miq etmay o'tirardi.

— Shundan keyin siz bank egasi bo'lib oldingiz — axir Fransiyada o'z fuqarolarining pullarini «tuya» qiladigan odamlar farishtaday begunoh yoki ilgari sudlanmagan bo'lishlari shart emas. Lekin ko'p o'tmay, boshingizga yana tashvish tushdi, janob Atum...

— Bir narsani so'rasam maylimi, janob komissar?

— Nima maqsadda keldingiz, demoqchisiz-da, shundaymi? Rostini aytsam, buni hali o'zim ham bilmayman. Meni mashina kutyapti, eshik oldida yigitlarim turishibdi. Bu yerdan birgalashib chiqib ketishimiz ehtimoli ham yo'q emas.

Janob Atum yangi sigareta tutatganda ham qo'li qaltiramadi, Megrega ham «chekasizmi» deganday ishora qilgan edi, u rad etdi.

— Ammo-lekin sizni shu yerda qoldirib, o'zim bemalol chiqib ketishim ham mumkin...

— Buning uchun nima qilishim kerak?

— Bu narsa bittagina savolimga beradigan javobingizga bog'liq. Birovlarning sirini sotmasligingizni yaxshi bilaman, binobarin, sezgan bo'lsangiz kerak, mana shu fazilatingizdan sizni bu gal chekintirish chorasini oldindan ko'rib qo'yganman... Gap bunday. Avvalgi bankingizda bir hisobchi ishlardi. Siz unga qattiq ishonardingiz, u sizning o'ng qo'lingiz edi, desa ham bo'ladi, — e'tibor bering: «sherigingiz edi», — deytganim yo'q. Ismi Jan Ramyuel. Xo'sh, shunday bebaho yordamchi bilan nima sababdan xayrlashdingiz, aniqroq qilib aytganda, uni nima uchun ishdan bo'shatdingiz? Men shuni bilmoqchi edim.

Oraga uzoq sukunat cho'kdi. Atum, aftidan, o'ylanib qolgan edi.

— Yanglishasiz, janob komissar. Men Ramyuelni ishdan haydaganim yo'q, sog'lig'i yomonlashgani sababli o'z ixtiyori bilan bo'shab ketdi. Aniq yodimda bor...

Megre o'rnidan turdi.

— Unday bo'lsa, birinchi rejani amalga oshirishga to'g'ri keladi. Qani, o'ringizdan turib, men bilan yuring-chi, janob Atum!

— Qayoqqa olib bormoqchisiz meni?

— Chegaraga... Yana bir marta...

Atum miyig'ida kulib qo'ydi.

— Lekin bu gal boshqa chegaraga olib boramiz. Bilasizmi, judayam Italiya tomonga qarab yurgim kelyapti... Aytishlaricha, firibgarlik qilganingiz va qalbaki cheklar yozib berganingiz uchun olgan besh yillik qamoq muddatini o'tashni unutib, Italiyadan juftakni rostlab qolgan ekansiz. Binobarin...

— O'tiring, janob komissar.

— Bir zum o'tmay, yana o'rnimdan turishga to'g'ri kelmasmikin?

— Ramyuelni nima qilmoqchisiz?

— Chamamda, uni o'ziga munosib joyga jo'natamiz. Siz nima deb o'ylaysiz? — Megre birdan gap ohangini o'zgartirdi. — Yetar, Atum, siz bilan adi-badi aytishib o'tirishga vaqtim yo'q. Tushunaman, Ramyuel dan osonlikcha qutulolmaysiz.

— Rostini aysam, u og'zidan gullab qo'ysa, boshim g'avg'oga qolishi muqarrar. Bank muomalasi — murakkab narsa. Ramyuel esa hamma ishga tumshug'ini tiqaverardi. Hayron bo'p qoldim, Italiyaga qaytganim ma'qulmikin?.. Lekin buning uchun bir masalada menga kafolat berishingiz kerak. Chunonchi, Ramyuel biror narsa deb valdirasa, uning gaplariga e'tibor bermaysiz, chunki o'tgan ishga salavot. Hozir halol savdogarman.

— Ha, mayli, iloji boricha!..

— Endi ochig'ini aytishim mumkin: Ramyuel bilan qattiq g'ijillashib xayrlashganmiz. U mening bankimda o'z foydasi uchun ishlayotgani, ko'pdan-ko'p qalbaki ishlar qilganini sezib qoldim.

— O'sha hujjatlarni saqlab qo'ygan bo'lsangiz kerak? Atum biroz javdirab qarab turdi, so'ng asta shivirladi:

— Lekin unda ham ba'zi bir hujjatlar bor, shuning uchun...

— Bir-birimizga ipsiz bog'langanmiz, deng... Gap bunday Atum, Ramyuelni fosh etuvchi dalillarni darhol menga berishingiz kerak.

Atum hamon ikkilanmoqda edi. Nima qilsaykin? Italiyaning turmasi ma'qulmi yo fransuzlarnikimi? Nihoyat u o'rnidan turdi. Divan tepasiga qoqilgan gilam chetini ko'tarib, devor orasiga o'rnatilgan temir shkafni ochdi.

— Mana, Ramyuel yasagan qalbaki veksellar, bular-dagi mening imzom ham, boshqa ikki mijozimning imzosi ham qalbaki... Bordi-yu, uning qo'lidagi qizil yondaftarchaga ko'zingiz tushsa, o'sha palakatni menga qaytarib olib bersangiz, ko'p minnatdor bo'lardim. Nimagaki, unga o'zimning ba'zi bir... haligidaqa...

Magazin ichidan o'tayotganlarida, Megrening orqasida kelayotgan Atum cho'g'day yonib turgan eron gilamiga ishora qilib:

— Rafiqangizga ma'qul bo'larmikin manovi matoh, — deya asta g'o'ldirab qo'ydi.

Megre «Gumbaz» restoraniga kirib borganida soat sakkiz yarim edi. U keng zalning odamlar ovqatlanib o'tirgan tomoniga qarab yurdi. Odatdagiday telpagi gar-

daniga surilgan, qo'llari cho'ntagida, o'zini go'yo bo'sh joy qidirayotgan kishiday tutardi.

Birdan u oldida bir krujka pivo bilan taqsimchasida har turli gazaklar turgan jikkakkina odamni ko'rib qoldi.

— E-e, Lyuka, senmisan!.. Yoningdagi joy bo'shmi?

U miriqib bir ovqatlanish uchun kirgan kishiday, mamnuniyat bilan stulga o'tirdi, keyin paltosini garde-robchiga topshirish maqsadida yana o'rnidan turdi. Narigi stolda o'tirgan allaqanday bir shallaqi ayolga qovurilgan kattakon qisqichbaqa keltirib berishgan edi, u butun zalni boshiga ko'tarib, baqira boshladi:

— Garson!.. Menga boshqa qayla opkeling. Buningizdan sovun hidi kelyapti...

Megre o'girilib qaradi-yu, ayolning yonida o'tirgan kishiga ko'zi tushib, go'yo astoydil ajablanganday xitob qildi:

— Iye, iye!.. Janob Ramyuel! Uchrashgan joyimizni qarang-a!.. Iltifot ko'rsatib, tanishtirsangiz...

— Rafiqam... Komissar Megre, Jinoyat qidiruv polit-siyasidan...

— Tanishganimdan xursandman, janob komissar.

— Bifshteks, qovurilgan kartoshka va ikki krujka pivo keltiring, garson!

Megre shunday deb, Ramyuelning taqsimchasidagi yog'siz va pishloqsiz makaronga ko'z qirini tashladi.

— Bilasizmi, shu tobda ko'nglimga bir gap keldi, — dedi u tamomila samimiy ohangda. — Menimcha, janob Ramyuel, hech qachon sizning omadingiz kelmagan... Sizni ko'rishim bilan shu fikr o'tdi xayolimdan... Dunyoda shunday odamlar bo'ladiki, umrbod ishlari yurishmaydi, ularga omad chap bergani bergan, bu ham yetmaganday, boshlari kasaldan chiqmaydi yoki umu-man mayib, majruh bo'lishadi...

— Badfe'lligini oqlash uchun bu ham o'zini yuz hunarga soladi, — deya gapga aralashdi Mari Delijar, keltirilgan yangi qaylani hidlay turib.

— Siz aqli, ma'lumotli, mehnatkash odamsiz, — davom etdi Megre. — Hozirgidan o'n baravar badavlat-roq yashashingiz mumkin edi... Shunaqa darajaga yaqin-



lashgan paytlaringiz ham ko'p bo'lgan... Masalan, Qohirada... undan keyin Ekvadorda... Ammo qizig'i shundaki, qanchalik tez ko'tarilgan bo'lsangiz, har gal yana shunchalik tez pastlab ketavergansiz, hatto ilgari-gidan ham battarroq ahvolga tushib qolgansiz... Chunonchi, bankda, tuppa-tuzuk lavozimda ishlab tur-gan edingiz, aksiga olib, xo'jayiningiz — Atum degan qandaydir bir tovlamachi bankir bilan chiqisholmay, yana ishdan bo'shab ketishga majbur bo'ldingiz...

Tevarak-atrofdagi ovqatlanib o'tirgan kishilar, tabiiyki bu suhbatning nima bilan tugashini xayollariga ham keltirishmasdi. Megre hazil-mutoyiba qilayotganday ochiq chehra bilan gapirar va ishtaha bilan bifshteksni tushirardi. Lyuka stol ustiga engashib olgan, Ramyuel esa nuqul taqsimchasidagi makaronni titkilardi.

— Darvoqe, Manparnas xiyobonida uchrashamiz deb aslo o'ylamagan edim, men sizni hozir Bryusselga keta-yotgan tezyurar poyezd vagonida o'tirgansiz deb xayol qilgandim...

Ramyuel miq etmadi, faqat tusi birdan o'zgarib, qo'lidagi sanchqi dastasini qattiq qisdi. Ammo hamro-hining fig'oni chiqib ketdi:

— Nima, nima? Menga bir og'iz indamay, Bryusselga bormoqchimidning hali?.. Bu qanaqasi, Jan?.. Yana birorta ayol aralashgandir-da, a?

Megre unga tasalli bergan bo'ldi:

— Ishontirib aytaman, xonim, bu masalaga hech qanaqa ayolning aloqasi yo'q, xotirjam bo'ling. Faqat eringiz... ya'ni, demoqchimanki, do'stingiz...

— Yo'q, aynan erim. Sizga nima deb valdiraganini bilmayman-u, lekin biz qonuniy er-xotinmiz. Mana, isboti...

U jazava bilan sumkachasini titkilay boshladi va undan sarg'ayib, uvadasi chiqib ketgan o'n buklog'lik qog'ozni oldi.

— Mana, ko'rib qo'ying, nikoh guvohnomamiz...

Guvohnoma ispan tilida yozilgan bo'lib, unga Ekvador respublikasining muhri bosilgan edi.

— Qani, gapir-chi, Bryusselga nima uchun bormoq-chi eding, Jan?

— Mening mutlaqo bunaqa mo'ljalim yo'q edi...

— Qo'ysangiz-chi, janob Ramyuel! Oilaviy janjal chiqarish uchun kelgan emasman bu yerga, uzr... Lekin bankdagi hamma pullaringizni olib, Bryussel bankiga ikki yuz-u sakson ming frank miqdorida chek yozdirib olganingizni bilganimdan keyin...

Megre shu gapni gapirdi-yu, tabassumini yashirish uchun shosha-pisha og'ziga qovurilgan kartoshka soldi. Shu payt stol ostidan kimdir asta oyog'ini bosdi: Ramyuel «jim bo'ling» deya yolvorayotgan edi.

Ammo endi kech edi. Mari Delijar, agar guvohnomaga ishoniladigan bo'lsa, Mari Ramyuel oldida turgan qisqichbaqani ham, atrofida o'nlab odamlar ovqatlanib o'tirganini ham unutib, birdan shang'illay ketdi:

— Nima dedingiz — ikki yuz-u sakson ming frank?.. Bankda ikki yuz-u sakson ming frank puli bo'laturib, meni cho'riday olib yurgan ekan-da?!

Megre qisqichbaqaga va narxi yigirma besh frank turadigan vino shishasiga ko'z tashlab qo'ydi.

— Gapir, Jan!.. To'g'rimi shu gap?

—Janob komissar nimaga ishora qilayotganini mutlaqo tushunmayapman...

— Bankda joriy jamg'armangiz borligi rostmi?

— Hech qanaqa jamg'armam yo'q, agar ikki yuz-u sakson ming frank pulim bo'lganda...

— Bunga siz nima deysiz, janob komissar?

— Ming afsus, xonim, kayfiyatingizni buzib qo'ydim. Men hammasidan xabardorsiz, deb o'ylagan edim. Axir, eringiz sizdan hech narsani yashirmaydi-ku?..

— Ha, ha, hammasiga endi tushundim!

— Nimani tushundingiz?

— Keyingi paytdagi xatti-harakatlarining sababini tushundim... Ko'p yaltoqlanadigan bo'p qolgan edi. Nuqul tilyog'lamalik qilardi! Lekin nosamimiyligini sezib turardim. Xullas, yana yangi nayrang ko'rsatish payida yurgan ekan!

Atrofdagilar o'girilib qarab, jilmayib turishardi, chunki ayol butun zalni boshiga ko'tarib baqirayotgandi.

— Mari!.. — dedi Ramyuel uni hovridan tushirmoqchi bo'lib.

— Demak, menga nuqul tanga sanab berib, o‘zing u yoqda imi-jimida pul to‘plab yurgan ekansan-da, qochib qolish uchun... Ammo-lekin qochishga ulgurganingda dumingni tutqizmasding! Men bo‘lsam ehtimol ijara haqi ham to‘lanmagan kvartirada yolg‘iz qolaverardim-da, a?.. Yo‘q, azizim, bunaqasi ketmaydi! Ilgari ham ikki marotaba tashlab ketmoqchi bo‘luvding, lekin uddasidan chiqolmagansan, esingdami? Bu ishga birorta megajin aralashmaganiga ishonchingiz komilmi, janob komissar?

— Kechirasiz, janob komissar, shu suhbatni boshqa joyda davom ettirsak qandoq bo‘larkin-a?

— E, yo‘q-yo‘q! — dedi Megre og‘ir tin olib. — Shoshmay turing. Ofitsiant!.. Nima bor aravachangiz-da?..

U stol oralab yurgan va turli-tuman taomlar terib qo‘yilgan kumush aravachadagi usti yopiq idishga ishora qildi.

— Qo‘y biqini.

— Juda soz! Menga bir bo‘lak bering... Siz ham oling qo‘y biqinidan, Lyuka... Qovurilgan kartoshka ham opkeling, ofitsiant.

— Opketing qisqibaqangizni. Hidlangan ekan, — dedi Ramyuelning hamrohi. — Menga ham biqin go‘sh tidan bering... Demak, bu yaramas pul yig‘ib yurgan ekan-u, men bexabar ekanman-da!..

Sho‘rlik ayol g‘azabdan shu qadar gezarib ketgan ediki, pardozi boshqatdan qilishga to‘g‘ri keldi. U dasturxon panasida yapaloq qutichani ochib, momiq paxta bilan yuziga pushtirang upa sura boshladi.

Ayni paytda stol ostida g‘alati «jang» borardi: Ramyuel «bas qil» deganday Mari Delijarning tizzasiga turtar, ayol esa bu ishorani pisand qilmay, poshnasi bilan nuqul erining oyog‘ini ezg‘ilardi.

— Shoshmay tur hali, yaramas! Ko‘rsatib qo‘yaman senga...

— O‘zingni bos, hozir hammasi oydinlashadi... Hayronman, qayoqdan oldiykin komissar bu gaplarni...

— Ha-ya, rost gapiryapsizmi, komissar? Yangli-shayotganingiz yo‘qmi? Sizlarning odatlaringizni bilamiz. Politsiyaning qo‘lidan hech ish kelmay, boshi

berk ko'chaga kirib qolsa, darrov yolg'on-yashiq gaplarni o'ylab topasizlar. Ehtimol, bu gaplaringiz ham uydirmadir?

Megre soatiga qaradi: vaqt to'qqiz yarim edi. U Lyukaga imo qilgandi, inspektorni birdan yo'tal tutib qoldi. Keyin Megre, go'yo maxfiy bir xabarni aytmog'chi bo'lganday, Ramyuel bilan uning hamrohi tomon engashdi:

— Qimirlamang, Ramyuel!.. Shovqin ham ko'tarmang, buning sizga foydasi yo'q... O'ng tomoningizda o'tirgan kishi — bizning odamimiz. Brigadir Lyuka sizni soat o'n ikkidan beri kuzatib o'tiribdi. Shu yerdaligingizni ham u menga telefon orqali xabar qilgan edi.

— Buni qanday tushunish kerak? — deb g'o'ldiradi Mari Delijar.

— Buni shunday tushunish kerakki, xonim, kelasolib ishtahanglarni bo'g'ishni xohlamadim, to'yib ovqatlanib olinglar, dedim. Eringizni qamoqqa olishim kerak. Bu ishni imi-jimida qilamiz, shunda hammamizga ham yaxshi bo'ladi... Qani, bo'la qolinglar... Hozir qadr don do'stlarday birgalashib chiqamiz. Taksi tutib Orfevr sohiliga boramiz. Tunda kabinetlarimiz naqadar sokin bo'lishini tasavvur ham qilolmaysizlar... Garson, gorchitsa opkeling! Agar bo'lsa, sirkalangan bodring ham...

Peshonasi tirishib, afti battar tundlashgan Mari Delijar ochko'zlik bilan ovqatni tushirar, eriga zimdan o'qrayib qarab-qarab qo'yardi. Megre uchinchi marta pivo buyurdi va Ramyuel tomon engashib, yana asta shivirladi:

— Bilasizmi, shu bugun soat to'rtlarga yaqin qachonlardir katta serjant bo'lganingiz yodimga tushdi.

— Har doim, leytenant edim, derding-ku?! — Mari Delijar erini yana chaqib oldi.

— Katta serjant bo'lish ham yomon emas, xonim! Rotadagi butun yozuv-chizuvlarni katta serjant qiladi-da... Shu tobda o'zimning ham harbiy xizmatda yurgan yillarim esimga tushib ketdi, albatta, bunga ko'p bo'lgan...

Megre qoyilmaqom qovurilgan, usti kasur-kusur, ichi esa qaymoqday lazzatli kartoshkani rohatlanib chaynardi.

— Rotamiz komandiri kazarmaga kamdan kam kelardi, binobarin, soldatlarga beriladigan hordiq qog‘ozlariga ham, boshqa hujjatlarga ham odatda katta serjant qo‘l qo‘yardi — rota komandiri nomidan, albat-ta!.. Imzoni u shu qadar o‘xshatardiki, qaysi hujjat-ga o‘zi qo‘l qo‘ygan-u, qaysinisiga katta serjant qo‘l qo‘yganligini kapitan o‘la qolsa ajratolmasdi... Xo‘sh, bunga siz nima deysiz, Ramyuel?

— Bo‘lishi mumkin... Lekin siz meni hozir qamoqqa ololmaysiz, chunki qo‘lingizda order yo‘q, shuning uchun...

— Tashvish tortmang, prokuraturaning moliya bo‘limidan order olganman... Ajablanyapsizmi?.. Hojati yo‘q, shunaqasi ham bo‘lib turadi, tez-tez bo‘lib turadi. Bir ish tergov qilinayotganda, kutilmaganda, bir necha yil oldin sodir bo‘lgan va hammaning xayolidan ko‘ta-rilgan boshqa bir jinoyat ochilib qoladi... Cho‘ntagimda Atum degan bir odam bergan veksellar turibdi... Nega ovqat yemayapsiz?.. Biror shirinlik buyuraylikmi, xonim?.. Garson, hisob-kitob qiling... Har kim o‘zi uchun to‘laydi, to‘g‘rimi? Mendan qancha? Men bif-shteks, keyin manovi taomni... aravachada olib yurish-gan ekan... qo‘y biqini shekilli, a? Uch kishilik qovuril-gan kartoshka, uch krujka pivo buyurganman. Gugurting bormi, Lyuka?

## *XI b o b*

### ***JINOYAT QIDIRUV POLITSIYASIDA O‘TGAN G‘ALATI OQSHOM***

Odatdagiday qorong‘i yo‘lak, yakkam-dukkam o‘rnatilgan chiroqlardan keng zinapoyaga xira nur tushib turibdi, uzundan uzoq yo‘lakning ikkala tomonidan esa behisob eshiklar.

Harsillab qolgan Mari Delijarga Megre muloyimlik bilan:

— Mana, yetib keldik, xonim... Sal nafasingizni rost-lab oling, — dedi.

Dahlizda bittagina chiroq yonib turardi; ikki odam — Osvald Dj. Klark bilan uning solisitori nima haqdadir suhbatlashib, u yoqdan-bu yoqqa borib kelardi.

Dahlizning oxirida kutish zali bo'lib, uning yon devori, politsiyachilar ichkarida o'tirgan odamlarning xatti-harakatini kuzatib turishlari uchun, oynavand qilib qurilgan edi. Zalda ustiga yashil movut yopilgan stol, zangori duxoba qoplangan yumshoq kursilar, kamin tokchasida — xuddi Megrening kabinetidagidaqa va xuddi o'shandoq ko'p yillardan buyon to'xtab qolgan soat turardi. Devorga xizmat burchini o'tab turgan paytda halok bo'lgan politsiyachilarning qora ramkaga solingan suratlari ilib qo'yilgandi.

Qorong'i burchakdagi yumshoq kursilarda ikki ayol — Sharlotta bilan Jiji o'tirishardi.

Dahlizdagi o'rindiqa esa, ikki jandarmchi o'rtasida Prosper Donj — hamon galstuksiz, oyog'ida ipsiz botinka — o'z qismatini kutardi.

— Bu yoqqa, bu yoqqa Ramyuel!.. Kiravering, bu mening kabinetim... Siz esa, xonim, kutish zalida o'tira turasiz... Bu kishini kuzatib qo'ying, Lyuka.

Megre o'z eshigini ochdi. Uch ayolning zalda yuz beradigan nogahoniy to'qnashuvini ko'z oldiga keltirib, beixtiyor miyig'ida kulib qo'ydi... Bir-birlarini yeb qo'yguday o'qrayishsa kerag-ov.

— Kiravering, Ramyuel!.. Paltoni yechib qo'yganingiz ma'qul, chunki suhbatimiz ancha cho'ziladi.

Stolda zangori qandilli chiroq yonib turardi. Megre paltosi bilan telpagini yechdi, patnischadan trubkasini olib, inspektorlar o'tiradigan xonaning eshigini ochdi.

Jinoyat qidiruv politsiyasining tunda ko'pincha bo'm-bo'sh bo'ladigan xonalari bu oqshom, xuddi birov atayin qilganday, ola-quroq olomon bilan liq to'la edi. Inspektorlar xonasidagi stollardan birining ustida o'tirgan Torans yumshoq fetr shlyapasini chakkasiga qo'ndirgancha, sigareta tutatar, ro'parasidagi kursida soch-soqoli o'sib ketgan allaqanday bir chol botinkasining uchiga tikilib o'tirardi.

Janvye esa bo'sh vaqtdan foydalanib, yozgan raporti-

ni qayta ko'chirar, lekin negadir iste'fodagi ofitserga o'xshab ketadigan qariyadan ko'z qirini uzmas edi.

— Kimsiz? Eshikbonmisiz? — deb so'radi Megre. — Bir minutga mening oldimga kiring.

Komissar haligi kishini oldin o'tkazib yubordi, u furajkasini g'ijimlagancha kabinetga kirdi-yu, chiroq yorug'idan nariroqda turgan Ramyuelni avvaliga payqamadi.

— Siz Reomyur ko'chasidagi 117-uyning eshikbonisiz, shundaymi?.. Kunlardan bir kun Prosper Donj degan odam o'sha uydan mahkama sifatida bir xonani ijaraga olgan, shu kundan boshlab siz Donj nomiga kelgan xat-xabarlarini unga jo'natib turgansiz... Qani, bir qarang-chi, taniyapsizmi Donjni?

Eshikbon Megre ishora qilgan tomonga o'girildi, burchakda o'tirgan Ramyuelni ko'rib, bosh chayqadi:

— Hm, hm... — deb g'udrandi. — Rostini aytsam, tanimayapman. Ko'p edi-da unaqalar... Xona ijaraga olinganiga uch yildan oshdi, axir... To'g'rimi?.. Ehtimol, men yanglishayotgandirman, lekin Donjning soqoli bor edi nazarimda. Tag'in kim biladi, soqollisi tamom boshqa odam bo'lishi ham mumkin...

— Rahmat... Endi uyingizga ketavering. Anovi eshikdan chiqing.

Bunisidan ish chiqmadi. Megre yana inspektorlar xonasini ochdi:

— Janob Jem... Familiyangiz nima edi? Ha, mayli, qani bu yoqqa kiring-chi... Ayting-chi, manovi odamni...

Bu gal javob uzoq kutilmadi. Ramyuelni ko'rishi bilan qariya seskanib ketdi.

— Xo'sh?

— Nima gap o'zi?

— Taniyapsizmi?

Qariya sarosimaga tushib qoldi:

— Hali men sudga borib, guvohlik berishim ham kerakdir, a? Ikki-uch kunlab guvohlar zaliga ipsiz bog'lab qo'yishsa, agentligimda kim o'tiradi?.. So'zga chiqqanimda har xil bema'ni savollar berishlari turgan gap, oqlovchilar azbaroyi meni qoralash uchun og'izlariga

kelganini qaytarishmaydi... Yo‘q, janob komissar, kechirib qo‘yasiz!

Keyin, qo‘qqisdan so‘rab qoldi:

— Nima gunoh qilibdi?

— Gunohi ko‘p... Eng yomoni, ikki odamni — bir erkak bilan bir ayolni bo‘g‘ib o‘ldirgan. Ayol — amerikalik badavlat juvon.

— Mukofot tayin qilinganmi?

— Ha, kattagina mukofot bor.

— Unday bo‘lsa, yozing... «Men, quyida imzo chekuvchi Jan-Batist-Isaak Meyer, kommersant...» Ha, aytmoqchi, mukofot ko‘pchilik o‘rtasida taqsimlanadimi?.. Bilaman, qanaqa bo‘lishini. Politsiya va‘dani quyuuq qiladi-yu, keyin...

— Xo‘p, bunday deb yozaman: «Menga Jan Ramyuel deb tanishtirilgan odam mening xususiy pochta agentligimda J.M.D. harflari bilan qayd etilgan mijozning aynan o‘zidir...» To‘g‘rimi shu gap, janob Meyer?

— Qayeriga qo‘l qo‘yay?

— Shoshmang! Davomi bor: «Mazkur shaxs xatni olib ketish uchun oxirgi marta falon sanada oldimga kirgan edi...» Endi qo‘l qo‘yishingiz mumkin... Siz ayyor tulkisiz, janob Meyer, bu ish tufayli nomingiz el og‘ziga tushishini, «agent»ligingizdan ilgari bexabar bo‘lgan kishilar bundan keyin mahkamangizga yopirilib kelishlarini juda yaxshi bilasiz... Torans. Janob Meyer, sizga ruxsat...

Eshikni yopgach, komissar badfe‘l cholning ma‘lumotini mamnuniyat bilan qayta o‘qib chiqdi. Qo‘qqisdan bironing g‘amgin ovozi eshitib, seskanib ketdi. Ovoz xonaning nimqorong‘i burchagidan kelardi — kabinetda faqat stol chirog‘i yonib turardi.

— Norozilik bildiraman, janob komissar...

Shundagina Megre nimadir qilishni unutganini eslab qoldi. Eng avval deraza pardasini tushirdi. Keyin bilaklariga razm solib chiqdi. Bir lahzada u tamomila boshqa odamga aylandi. Megreni bunday vajohatda kamdan kam odam ko‘rgan, ko‘rganlar ham u bilan qayta uchrashishni havas qilishmas edilar.



— Qani, beri kel-chi, azizim Ramyuel... Bu yoqqa kel, deyapman! Yaqinroq... Qo'rqma...

— Nima deysiz?

— Agar bilsang... Bor haqiqatni aniqlaganimdan keyin tiyiqsiz bir xohish sira menga tinchlik bermayapti.

Megre shunday dedi-yu, qulochkashlab Ramyuelning basharasiga tushirdi. U tirsagi bilan yuzini to'sishga ham ulgurolmadi.

— Ablah!.. Bilaman, bu ishim qonunga xilof, lekin bir xumordan chiqdim. Ertaga tergovchi seni muloyimlik bilan so'roq qiladi, boshqalar ham atrofingda girdikapalak bo'lishadi, chunki hademay dovrug'ing chiqadi, sen shov-shuv ko'taradigan sud ishining qahramoniga aylanasan. Janob sudyalalar esa mashhur kishilarga hamisha ehtirom bilan qarashadi. Tushundingmi? Anavi yerda, devor javonining ichida jo'mrak bor, borib yuvinvol, aftingga qaragan odam jirkanadi...

Qon burnidan buloq bo'lib oqayotgan Ramyuel apiltapil yuvindi.

— Qani, menga qara-chi... Ha, durust... Binoyidek!.. Torans!.. Lyuka!.. Janvyel!.. Bu yoqqa kelinglar, yigitlar! Anavi begunoh olomoni ham taklif qilinglar.

Ahvolni ko'rib, hatto uning xodimlari ham hangmang bo'lib qolishdi: Megre hech qachon, hatto eng og'ir tergovdan keyin ham bunaqa holatga tushmagan. U yana trubkasini tutatdi. Kabinetga birinchi bo'lib ikki jandarmchi kuzatuvida Prosper Donj kirdi, u kishan solingan qo'llarini qovushtirib turardi.

— Kalit yoningdami? — deb so'radi Megre jandarmchilarning biridan. U ko'z ochib yumguncha Prosperning qo'lidagi kishanni yechib olib, Ramyuelning bilaklariga soldi. Donj unga angraygancha qarab turardi.

Megre Donjning galstugi, botinkasida bog'ichlar yo'qligini ko'rib, Ramyuelning botinkasidagi iplar bilan bo'ynidagi kapalaknusxa qora shoyi galstukni yechib olishni buyurdi.

— Kiringlar, xonimlar... Kiravering, mister Klark... Ha, darvoqe, siz tushunmaysiz-a... Hechqisi yo'q, mister Devidson tilmochlik qiladi... Hammaga stul yetarli-mi? Juda soz... Ha, ha, Sharlotta, Prosperning yoniga

o'tiraverishingiz mumkin... Faqat bir iltimos, hozir obidiyda qilmang!.. Jamoat jammi?.. Eshikni yop, Torans!

— Nima gunoh qilibdi? — deb so'radi Ramyuel xonim xirillagan ovoz bilan.

— Iltimos, xonim, o'tiring. Ro'paramda birov tik tursa, gaplasholmayman. Keragi yo'q, Lyuka, qandilni yoqma. O'zi yaxshi... Ramyuel nima gunoh qilibdi, deb so'rayapsizmi? Umr bo'yi qilib kelgan nayrangini yana qilgan; qalloblik bilan shug'ullangan... Modomiki, u sizga uylangan va shuncha yildan buyon sizday zahar bir ayol bilan yashab kelayotgan ekan (gapim og'ir botmasin), buning faqat bitta sababi bor: u sizga ipsiz bog'lanib qolgan, chunki siz uning Guayakildagi barcha kirdikorlaridan xabardorsiz. Biz u yoqqa telegramma jo'natdik, Londonga, kompaniya idorasiga ham qo'ng'iroq qildik. Qanaqa javob olishimizni ham oldindan sezib turibman.

Mari Delijar eriga o'shqira ketdi:

— Nega indamaysan, Jan? Ikki yuz-u sakson ming frankni olib, Bryusselga juftakni rostlamoqchimidning, a?!

U o'rnidan sapchib turib, Ramyuelga tashlandi:

— Ablah! O'g'ri! Yaramas!..

— O'zingizni bosing, xonim... Indamagani qaytanga yaxshi bo'lgan, aks holda faqat qalloblikda emas, balki ikkala qotillikda sheriklikda ayblab, sizni ham qamoqqa olgan bo'lardim.

Shu daqiqadan boshlab voqea ajabtovur tus olib ketdi: Megredan ko'z uzmay o'tirgan mister Klark dambadam solisitor tomon engashar va inglizchalab bir nimalar derdi. Har gal shunday qilganida, Megre unga ko'z qirini tashlar, amerikalik o'z tilida: «Nima deyapti?» deb so'rayotganiga yuz foiz ishonib turardi.

Megre so'zida davom etdi:

— Sizning masalangizga kelsak, sho'rli Sharlotta, bir sirni oshkor qilishimga to'g'ri keladi. Ehtimol Prosper uyda tunagan o'sha oxirgi kuni hammasiga iqror bo'lgandir. Qaydam. Ammo lekin, o'tmishni unutgan, degan xayol bilan siz unga Mimidan xat kelganini va u

o'g'il ko'rganini gapirib berganingizda Donj hali mutlaqo unutmagan edi o'tmishini... Bu haqda u churq etmadi, biroq oradan ko'p o'tmay, soat uchlarda, Ramyuelning so'zi bilan aytganda «nafasni rostlash» paytida qahvaxonada o'tirilib, sobiq mahbusasiga uzundan uzoq xat yozdi... Yodingizdami, Donj? Tafsilotini eslay olasizmi?

Ammo Donj shu tobda idrokini yo'qotgan, nimalar bo'layotganini tushunolmay atrofidagilarga javdirab qarab turardi.

— Qanaqa tafsilot, janob komissar?

— Mimiga nechta xat jo'natgansiz?

— Uchta...

— Xat yozayotgan paytingizda telefongami yoki ertangi kun uchun qahva bilan choy olib keting, deb omborxonaga chaqirishganmi?

— Ehtimol... Bo'lishi mumkin.

— Siz ketgansiz, ammo xat Ramyuelning — omadsiz Ramyuelning, umr bo'yi qalloblik qilib boylik yuqmagan Ramyuelning shisha hujrasi ro'parasida turgan stolda qolavergan... Xatni pochtaga kimdan berib yuboradingiz?

— Yugurdak boladan... Zinapoya oldidagi maydonchada pochta yashigi bor, o'shanga tashlab kelardi.

— Demak, loaqal birorta xatingizni olib qolish Ramyuel uchun unchalik qiyin ish emas edi... Shundan keyin Mimi... Kechirasiz, mister Klark... biz uchun u haliyam Mimi... Boshqacha qilib aytsak, missis Klark, Detroytda o'z jazmanidan mazmuni asosan o'g'li bilan bog'liq xatlar olib turganida, birdan unga o'sha dastxat bilan yozilgan va Prosper Donj imzosi qo'yilgan do'q-po'pisa to'la maktublar kela boshlaydi... Endi undan pul talab qilishardi. Yangi Prosper Donj sukut saqlamog'i evaziga mukofot tama qilishga o'tgandi.

— Janob komissar! — deb xitob qildi Prosper.

— Siz jim o'tiring. Xudo haqqi, buyog'ini eshiting. Qanday ustomonlik!.. Bu narsa Ramyuelning omadsizligini yana bir karra isbot qiladi... Avvalo, Mimini adresingiz o'zgarganligiga ishontirish kerak edi. Bu ishni

qilish qiyin emasdi, chunki siz o'z xatlaringizda yangi joydagi turmushingiz haqida uzundan uzoq yozib o'tirmasdingiz. Ramyuel shundan foydalanib, Prosper Donj nomidan idora uchun bitta xonani ijaraga oladi...

— Axir...

— Idoraga xona olish uchun esa hech qanday hujjat talab qilinmaydi, kelgan xat-xabarlar ham ijarachiga shundoq berilaveradi. Baxtga qarshi, Mimi yuborib turgan cheklar Prosper Donj nomiga yozilgan edi, chekka pul to'lash uchun esa bank kerakli hujjatlarni talab qiladi... Qaytaraman, Ramyuel o'z ishiga ustasi farang bo'lgan... Ammo buni fosh etish uchun qahvaxonangizda kunduzi yarim soat-qirq besh minutlar osoyishtalik hukm surishini va siz ana shu bo'sh vaqtdan foydalanib, hisobchining shisha hujrasi ro'parasida, uning o'z oldida o'tirilib, maktub yozish bilan mashg'ul bo'lishingizni aniqlashim lozim edi... Kutilmaganda siz bankka xat yozib, jamg'arma varaqangizni yopishlarini va qolgan pulni Sen-Kluga jo'natishlarini iltimos qilasiz... Ammo Lion kredit bankiga bu xat emas, balki sizning dast-xatingizga o'xshatib Ramyuel tomonidan yozilgan va adres o'zgarganligi ma'lum qilingan boshqa xat boradi... Ana o'sha kundan boshlab Donj nomiga kelgan hamma xat-xabarlar yangi adresga, ya'ni Reomyur ko'chasidagi 117-uyga jo'natilishi kerak edi... Endi faqat bankka olingan chekni yuborish va pulni Donjning jamg'arma varaqasiga o'tkazib qo'yishni so'rash qolgan edi, xolos... Siz Sen-Kluda pochta orqali olgan sakkiz yuz frank masalasiga kelsak Donj uni bank nomidan Ramyuelning o'zi jo'natgan... Ko'rdingizmi ustomonligini. Pixini yorgan odam bu! Shu darajada ayyorki, Reomyur ko'chasidagi o'zi bergan yangi adresga ham ishonmay, har ehtimolga qarshi xususiy pochta bo'limiga ham a'zo bo'lib oladi va butun xat-xabarlarini o'sha yerdan olib turadi. Qani endi izini topib ko'ring-chi buni!.. Birdan kutilmagan voqea yuz beradi: Mimi Fransiyaga keladi. Tag'in aynan «Majestik» mehmonxonasiga joylashadi... Prosper Donj — haqiqiy Prosper Donj har lahzada Mimiga duch kelib qolishi va hech qachon unga bema'ni xatlar yozmaganini aytib qo'yishi mumkin...

Sharlotta chidayolmay ho'ngrab yubordi. U nima uchun yig'layotganini ham bilmas, xuddi g'amgin roman o'qiyotgan yoki g'ussaga to'la kino ko'rayotgan odamday, ko'z yoshini tiyolmasdi. Jiji uning qulog'iga pichirladi:

— Bas qil! Bo'ldi deyaqman!..

Klark esa solisitor tomon engashib, g'o'ldirardi:

— Nima deyapti?

— Endi missis Klark o'limiga kelsak, — deb davom etdi Megre, — buyog'i ro'y bergan vaziyat bilan bog'liq... Ramyuel mehmonxonaga kelganlar ro'yxati bilan tanishib turgan, binobarin, Mimining o'sha yerdaligini bilgan, Donj esa bundan bexabar bo'lgan... U Mimining kelganini tasodifan, «yugurdaklar oshxonasi»da ovqatlanib o'tirganida eshitib qoladi. Unga xat yozib, ertalab soat oltida uchrashishni taklif etadi... Albatta, o'g'lini qoldirib ketishini talab qilmoqchi, yalinib-yolvormoqchi edi... Ammo ishonchim komilki, ular uchrashgan taqdirlarida ham, Mimi uni yana laqillatgan bo'lardi. Uning to'pponcha sotib olganini Donj xayoliga ham keltirmagandi... Ramyuel esa tipirchilab qolgan edi. U mehmonxonada yerto'lasidan chiqmaslikka harakat qilardi... Donj yugurdak bola orqali berib yuborgan xatdan u bexabar qolgan edi. Hamma gap mana shunda... Keyin, velosipedning shinasini yoriladi. Donj o'n besh minutga kechikadi. Ramyuel esa Mimining yerto'lada yurganini ko'rib, uchrashuv belgilanganini payqaydi-yu, jon-poni chiqib ketadi. Mimini bo'g'ib o'ldiradi. Jasadini shkafga tiqib qo'yadi... Ko'p o'tmay, ko'ngli xotirjam bo'ladi, chunki butun dalillar Donjga qarshi, unga — Ramyuelga esa hech qanday shubha tushishi mumkin emas. O'zini xatardan yana ham forig' etish niyatida Sharlottaning dastxatiga o'xshatib imzosiz mak-tub yozadi... Qahvaxonada, Prosporning g'aladonida Sharlotta yozgan xatlar birtalay edi-da. Ramyuel, yana qaytaraman, uchiga chiqqan firibgar. Baloyi azim! Jyusten Kolbef uni ko'rganini eshitganidan keyin... Kolbef kelib, sud oldida fosh etishni vijdon oldidagi burchim deb bilaman, deganidan keyin, Ramyuel

ikkinchi qotillikka qo‘l uradi. Bunisi uning uchun unchalik qiyin ish emas edi. Bundan tashqari, bu qotillik ham Donjga to‘nkalishiga u astoydil ishonardi. Bor gap shu!.. Torans, sochiqni ho‘llab, ablah Ramyuelga uzatvor, burnidan yana qon oqyapti. Boya tiyg‘anib ketib, basharasini stol qirrasiga urib olgan edi... Bir nima demoqchimisiz, Ramyuel?

U miq etmadi. Faqat amerikalik hamon: «Nima deyapti?» deb bidirlardi.

— Sizning masalangizga kelsak, xonim... Darvoqe, sizni nima deb atashim kerak — Mari Delijarmi yoki Ramyuel xonimmi?

— Mari Delijar deya qoling.

— O‘zim ham shunday fikrda edim. Siz to‘g‘ri payqagansiz, eringiz rostdan ham juftakni rostlamoqchi bo‘lib yurgan. Faqat bankda ko‘proq pul yig‘ilishini kutgan. Vaqti kelib, jigarini davolatish uchun bir o‘zi chet elga jo‘navorardi — sizdan ham, sizning xarxashalaringizdan ham qutulardi...

— Nima deyapsiz, janob komissar!

— Ko‘nglingizga olmang, xonim! Ko‘nglingizga olmang!

Birdan Megre qichqirib qoldi:

— Jandarmchilar, aristonni olib chiqib ketinglar... O‘ylaymanki, ertaga tergovchi, janob Bonno orderga imzo chekadi, ana o‘shanda...

Jiji sapchib o‘rnidan turib ketdi va indamay bir burchakka borib turdi. O‘lguday ozg‘in, novcha bu ayol shu qadar hayajonda ediki, shu tobda unga faqat qoradori yetmayotgandi — u entikib nafas olar, bamisoli yarador qushday, a‘zoyi badani dir-dir titrar edi.

— Kechirasiz, janob komissar, — dedi Klarkning yonida o‘tirgan solisitor. — Amerikalik mijozim iloji boricha tezroq mening kabinetimda janob Donj ikkovlaringiz bilan uchrashish istagini bildiryapti... Bolaning taqdiri haqida gaplashib olmoqchi...

— Eshitdingmi, Prosper? — deb, tantanali bir ohangda so‘z qotdi Jiji burchakdan turib.

— Ertaga ertalab, agar ma‘qul bo‘lsa... Ertaga ertalab bo‘shmisiz, janob Donj?...

Ammo Donj javob qaytaradigan ahvolda emasdi. U yig'lardi. Sharlottaning durkun siynasiga boshini qo'yganча yum-yum yig'lar, andak xijolatda qolgan xotini uni yosh boladay yupatardi:

— Qo'y, bas qil, Prosper!.. O'g'lingni birgalashib tarbiya qilamiz. Fransuz tilini o'rgatamiz...

Megre nimagadir stolining g'aladonini titkilay boshladi — yaqinda, tintuv paytida tortib olingan qog'oz xaltachalar esiga tushib qolgan edi. Nihoyat, ularni topdi, bittasini qo'liga oldi-yu, bir muddat ikkilanib turdi. So'ng, Jiji es-hushidan tamom ayrilayotganini ko'rib, uning yoniga bordi va xaltachani qo'liga tutqazdi.

— Bo'пти, xonimlar va janoblar, soat tungi bir bo'ldi. Ijzatlaringiz bilan...

«Nima deyapti?» — fransuz politsiyasi bilan birinchi marta to'qnash kelgan mister Klark hamon o'sha savolini ni qaytarardi.

Ertasiga ertalab ikki yuz-u sakson ming frankka yozilgan chek to'lash uchun Bryussel bankiga topshirilgani haqida xabar qildi. Uni bukmeker bo'lib ishlovchi Jamine degan odam topshirgan.

Jamine chekni aviapochta orqali olgan va Ramyuelning ko'rsatmasini bajargan. U qachonlardir Ramyuelning qo'lida kapral sifatida harbiy xizmatni o'tagan edi.

Darvoqe, hech qanday dalil va ma'lumotlar Ramyuelga aybini rad etish uchun monelik qilmadi.

Pirovardida uning omadi keldi: salomatligi yomonlashgani tufayli (yakunlovchi sud majlisi borayotgan paytda u uch marta hushidan ketdi) o'lim jazosi umrbod surgun bilan almashtirildi.

# MEGRE VA VINOFRUSH





## I b o b

— Demak, sen uni tunash niyatida o'ldirgansan?

— O'ldirish xayolimda ham yo'q edi. O'yinchoq to'pponcha bilan o'ldirib bo'larkanmi?

— Puli borligini bilarmiding?

— Albatta!.. Yoshi saksondan oshib ketgan, umr bo'yi ishlagan, yig'ib-terib qo'ygani bo'lishi kerak-ku, axir.

— Necha marta pul so'ragansan?

— Sanamaganman. Meni ko'rishi bilan nima maqsadda kelganimni bilardi. O'z buvim bo'la turib nuqul besh franklik tangani oldinga uloqtirardi. Siz tushunarmidingiz! Ishsiz yurgan odamga besh frank nima bo'ladi?

Megrening qovog'i uyuldi. U astoydil ranjigan edi. Hazil gapmi — o'g'irlik niyatida yovuzlarcha qotillik qilingan. Bunaqa hodisalar deyarli har hafta sodir bo'lib turadi. Hali yigirmaga ham kirmagan o'spirin baloyi nafs tufayli so'qqabosh kampirni o'ldirgan, Geo Stirne degan bu bolaning boshqalardan farqi shuki, u o'z buvisini asfaldasofilinga jo'natgan.

O'zini yoshiga yarashmagan darajada og'ir-vazmin tutadi, savollarga esa burro-burro javob beradi. Ko'zlari ukkinikiga o'xshagan, lo'ppi yuz, jag'i oldinga turtib chiqqan, qalin lablari shunaqangi qizilki, bo'yab qo'yilganmi deysiz.

— Besh frank-a! Xo'rozqand olib yermidim!

— Eri tirikmi?

— O'lgan. Qirq yil burun. Sen-Pol maydonida baqqollik do'koni bor edi. Buvim ikki yildan beri yurolmay qolib, do'konni ham yig'ishtirdi.

— Otang qayerda?

— Bisetrada. Jinnixonada yotibdi.

— Onang-chi?

— Ko'rmaganimga ancha bo'ldi. Har kuni mast.

— Aka-singillaring bormi?

— Opam bor. Hozir qayerdaligini bilmayman: o'n besh yoshida uydan qochib ketgan.

Bu gaplarni u nihoyatda xotirjam gapirardi.

— Buving pulni uyida saqlashini qayoqdan bilding?

— Bunaqalar bank u yoqda tursin, omonat kassaga ham ishonishmaydi.

Kech soat to'qqiz. Jinoyat kecha ayni shu paytda, Sitsiliya Qirol ko'chasidagi eski bir binoda sodir bo'lgan. Jozefina Menar to'rtinchi qavatdagi ikki xonali kvartirada istiqomat qilardi. Beshinchi qavatda turadigan va Teoni yaxshi taniydigan qo'shni ayol bolani buvisinikidan chiqayotgan paytida zinada ko'rgan va u bilan salomlashgan.

Oradan yarim soat o'tgach, Jozefina Menarning ro'parasida turadigan boshqa bir qo'shni ayol — Pallok xonim odatdagiday bir zumga kampirnikiga kirib chiqmoqchi bo'ladi.

Eshikni taqillatsa hech kim javob bermaydi. Eshik qulflanmagan edi, u ichkariga kiradi. Boshi, yuzlari qonga belangan Jozefina polda g'ujanak bo'lib yotardi.

Ertalab soat oltida Teo Stirne qamoqqa olindi. U Shimoliy vokzalning kutish zalidagi o'rindiqda uxlab yotardi.

— Harholda nima uchun o'ldirding?

— O'ldirmoqchi emas edim. O'zi menga tashlandi, esankirab qoldim...

— O'yinchoq to'pponchani o'qtalغانmiding?

— Ha. Lekin buvim kiprik ham qoqmadi. Yolg'ondakam to'pponchaligini bir qarashdayoq sezib qoldi chamamda. «Yo'qol, yaramas! Hali sen meni qo'rqitmoqchimisan?» deya birdan o'shqira ketdi. Keyin stol ustida turgan qaychini olib, menga tashlandi, o'zi nuqul: «Yo'qol! Yo'qol, deyapman! Keyin pushaymon bo'lasan!» — deb baqirardi. Chuvakdakkina narsa, shunaqa quturib ketdiki! Qaychi bilan ko'zimni o'yib olmasin deb, o'zimni himoya qilishga biror narsa qidira boshladim. Ko'zim pechkaning ustida turgan temir kosovga tushdi. Keyin...

— Necha marta urding?

— Sanab o'tiribmanmi? Lekin u haliyam oyoqda turar, mendan ko'zini uzmas edi.

— Yuzi qonaganmidi?

— Ha. Qiynalib o'tirmasin deb, ustma-ust uraverdim. Nega bunchalikka bordim — o'zim ham hayronman...

Megrega birdan prokurorning suddagi ovozi eshitilganday bo'ldi: «...Keyin Stirne o'zining ojiz o'ljasiga vahshiylarcha tashlandi!»

— O'ldirmoqchi emas edim. O'lay agar, bunaqa niyatim yo'q edi. Ishoning, aldayotganim yo'q.

— Ammo shundan keyinoq uyni titkilab chiqishga jur'at etgansan?

— Darrov emas! Oldin eshikka qarab yugurdim, keyin cho'ntagimda atigi bir yarim frank pul borligi esimga tushib qoldi. Axir, buvimning oldiga shuning uchun kelganman-ku! Xo'jayin uydan haydab yuborgan edi. Uch oydan beri ijara haqini to'lamagandim.

— Yana qaytib kirdingmi?

— Ha. Lekin hammayoqni titkilaganim yo'q, buni menga ag'darmang. Uch-to'rtta yashikni ochib ko'rdim, xolos. Yag'iri chiqib ketgan bir hamyonni topib, cho'ntagimga soldim. Keyin karton quti qo'limga tushib qoldi. Ichida ikkita uzuk bilan kameya bor ekan, uni ham oldim.

Ikkala uzuk bilan kameya, Jozefina Menarning eski hamyoni Megrening ro'parasida, stol ustida turardi.

— Pul o'ralgan tugunni topolmadingmi?

— Qidirganim ham yo'q. Tezroq chiqib ketishni o'ylardim. Qayoqqa o'girilmay, buvim tikilib qarab turganday tuyulardi. Zinada Menu xonimga duch keldim. Keyin qahvaxonaga kirib, bir ryumka konyak ichdim, uch bo'lak sandvich yedim.

— Qorning ochmidi?

— Och ham gapmi! Qisqasi, haligini yeb, qahvani ichib, ko'chada salanglab yurdim. Nima o'zgardi? Hech narsa. Axir, buvimning hamyonida atigi sakkiz frank-u yigirma su pul bor ekan.

«Nima o'zgardi?..» Bu so'zlarni u go'yo boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdek bir ohangda gapirdi.

Megre bolaning yuzidan ko'z uzmay, o'yga toldi.

— Nima uchun Shimoliy vokzalni tanlading?

— Tanlaganim yo‘q. Qanaqa qilib borib qolganimni o‘zim ham bilmayman. Ko‘chada yuraverib, sovqotib ketdim.

Ochiq turgan kalendar varag‘iga o‘n beshinchi dekabr yozilgan edi. Shimoldan izg‘irin yelar, tashqarida mayin qor yog‘ardi.

— Belgiyaga qochmoqchimiding?

— Qaysi pulga?

— Nima qilmoqchi eding bo‘lmasa?

— Birinchi navbatda, to‘yib uxlamoqchi edim.

— Qamoqqa olishlarini bilarding-ku?

— Buni o‘ylamasdim.

— Nimani o‘ylarding?

— Hech narsani.

Kampirning oynavand shkafidan politsiya qog‘ozga o‘rog‘liq bir dasta pul topgan edi. Sanab ko‘rishsa, yigirma ikki ming frank ekan.

— Shu pulni sen topganingda nima qilgan bo‘larding?

— Qaydam.

Kabinetga Lapuent kirdi.

— Hozirgina Furke qo‘ng‘iroq qildi. Siz bilan ulashimni so‘ragan edi, bandlar, dedim.

Furke o‘n yettinchi okrugda, og‘ir jinoyatlar kamdan kam sodir bo‘ladigan, o‘ziga to‘q oilalar istiqomat qiladigan rayonda ishlardi.

— Fortyuni ko‘chasidan, Monso parkidan ikki yuz metr naridan murda topilgan. Hujjatlariga qaraganda, marhum vino bilan ulgurji savdo qiladigan yirik shaxs.

— Yana biror narsa aniqlanganmi?

— U o‘z mashinasiga o‘tirmoqchi bo‘lib turganida, ketma-ket to‘rtta o‘q uzishgan. Guvohlar yo‘q. Kamqatnov ko‘cha o‘zi.

Megre Stirnega bir qaradi-yu, yelkasini qisdi.

— Lyuka shu yerdami? — deb so‘radi u, keyin o‘zi eshikni ochib, stol yonida o‘tirgan inspektorga murojaat qildi. — Bir minutga kirgin.

Stirne goh u inspektorga, goh bu inspektorga angra-

yib qarar, go‘yo bu yerdagi gap-so‘zlarning unga mutlaqo aloqasi yo‘qday edi.

— Qoidadagiday so‘roq qilib, javoblarni protokolga yozib qo‘y. Qo‘l qo‘ydirib, o‘zini vaqtinchalik qamoqqa jo‘nat. Lapuent, sen men bilan yur.

Megre og‘ir qora paltosini kiyib, bo‘yniga xotini to‘qib bergan ko‘k sharfni o‘radi, trubkasiga hafsala bilan tamaki to‘ldirgach, qotilga so‘nggi marta bir nazar tashladi-da, xonadan chiqdi.

Hali unchalik kech emas edi, ammo izg‘irin yuzni chimchilar, qavat-qavat kiyimdan o‘tib, badanga sanchilar, ko‘chada odam siyrak edi.

Megre bilan Lapuent Jinoyat qidiruv politsiyasining kichkina qora mashinasiga o‘tirishdi.

Fortyuni ko‘chasida bir nechta politsiyachi yo‘lkada cho‘zilib yotgan murdani qurshab olib, tomoshatalab yo‘lovchilarni hay-haylab turishardi. Okrug politsiyasining komissari vrachni boshlab keldi. Furke ham shu yerda edi.

— Oskar Shabyuni tanirmidingiz? — deb so‘radi u Megredan. — Taniqli shaxs, «Monaxlar vinosi» firmasining xo‘jayini. Shunaqa yozuvli yuk mashinalari, barjalar, temiryo‘l sisternalariga ko‘zingiz tushgan bo‘lishi kerak.

Yo‘lkada yotgan odam gavgdali, lekin ozg‘in edi. U regbi bilan shug‘ullanadigan sportchilarni eslatardi. Murdaning ustiga engashib turgan vrach qaddini rostlab, shimiga ilashgan qorni qoqib tashladi.

— Yaralanganidan keyin bir necha minut o‘tgach, jon bergan. Yorib ko‘rilgandan so‘ng aniq bo‘ladi.

Megre marhumning ifodasiz, moviy ko‘zlariga va kattakon yuziga uzoq tikilib turdi. Uning jag‘i osilib tusha boshlagan edi.

Ko‘p o‘tmay, ilmiy-texnik bo‘lim xodimlari tushgan yuk mashinasi yetib keldi. Ular kino va teleoperatorlar kabi o‘z apparatlarini pastga tushira boshladilar.

— Prokuraturaga xabar qildinglarmi?

— Ha, hozir prokuror yordamchisi bilan sud tergovchisi kelishi kerak.

Furke bulardan sal narida sovqotmaslik uchun uzun qo‘llarini ikki yoniga urib, yer depsinib turardi.

— Mashinasi qani? — deb so‘radi Megre.

Yo‘l chekkasida turli rangdagi dabdabali mashinalar tizilishib turardi. Furke qizil «Yaguar»ni ko‘rsatdi.

— Nima topdinglar?

— Qora ko‘zoynak, Mishlenning yo‘l ko‘rsatkichi, Provansning ikkita yo‘l xaritasi, bir quti yo‘taldorisi. U mana shu uydan chiqqan ko‘rinadi. — Furke yo‘lkasida murda yotgan uyga ishora qildi. Bu — derazalarining chetiga naqshinkor tosh terilgan, to‘qqiz yuzinchi yillar uslubida qurilgan bino edi. Megrening nazarida, eman yog‘ochidan yasalgan vazmin eshik ortida birovning sharpasi eshitilganday bo‘ldi. Va u birdan bu binoni esladi.

— Yur, Lapuent.

Eshikni anchadan keyin ochishdi. Qorong‘i yo‘lakda yonlamasiga turgan ayolning qiyofasi arang ko‘zga chalinardi.

— Nima kerak sizlarga?

— Salom, Blansh. — Megre ayolni tanigan edi.

— Nima kerak sizlarga?

— Komissar Megre bo‘laman. Eslayolmayapsizmi? To‘g‘ri, oxirgi marta bundan o‘n yillarcha oldin uchrashgan edik.

Taklifni ham kutmasdan u ichkariga kirdi.

— Kiraver, Lapuent. Blansh xonim bilan bu kishining go‘shalarini bilishga hali yoshlik qilasan.

U xuddi o‘z uyiga yoki ishxonasiga kelganday, chiroq tugmachasini buradi-da, eshikning ikkala tavaqasini lang ochib yubordi. Rango-rang gilamlar to‘shalgan, qalin ipak pardalar osilib, chiroyli yostiqlar qo‘yilgan keng xona ko‘zga tashlandi. Simchiroqlar ustidagi shohi qandillardan mayin nur yog‘ilib turardi.

Blansh xonim oltmishdan oshib ketgan bo‘lsa ham, unga atigi ellik yoshlar berish mumkin edi. Past bo‘yli, miqtigina bu ayol bir qarashda tuppa-tuzuk, bama‘ni juvonga o‘xshardi. Bir necha o‘ram marvarid shodasi qora shohi ko‘ylak ustida yarqirab ko‘zga tashlanardi.

— Hali ham birovlarning sirini saqlashga ustasi farangmisiz?

Megre unga ilk bor bundan o‘ttiz yillar muqaddam duch kelgan edi. Yoshgina, xushmuomala, ikki yuzida kuldirgichi bor bu juvon o‘sha paytlarda Madlen xi-yobonida tirikchilik qilardi. Keyinroq uning omadi keldi — Notr-Dam ko‘chasidagi ovloq bir go‘shaning bekasiga yordamchi bo‘lib oldi. Bu yerda hamisha suluv qizlar bilan tanishish mumkin edi.

Endi esa Blansh xonimning o‘zi ana shunday maskanga sohibalik qilar, shohona bezatilgan xonalarda begona erkak-juvonlar juft-juft bo‘lib xufiyona uchrashib turishar, eng yaxshi viski va shampän vinolari ham-mavaqt muhayyo edi.

— Nima gap bo‘ldi? — deb so‘radi Megre zo‘r berib o‘zini xotirjam tutishga urinayotgan Blansh xonimdan.

— Mening uyimda hech gap bo‘lgani yo‘q. Ko‘chada nima bo‘lganini bilmayman. Qarasam — odamlar yugurib qolishdi.

— O‘q ovozinı eshitgandirsiz, axir?

— E-e, o‘q ovozimidi? Men motorning paqillashi deb o‘ylabman.

— O‘shanda qayerda edingiz?

— Ozgina tamaddi qilvolay deb oshxonaga kiruvdim. Aslida ovqatga unchalik hushim yo‘q.

— Uyda birov bormi?

— Hech kim yo‘q. Nimaydi?

— Oskar Shabyu kim bilan kelgan edi?

— Shabyu? Kim o‘zi u?

— Agar Orfevr sohiliga borishni xohlamasangiz, o‘zingizni go‘llikka solmasligingizni maslahat berardim.

— Mijozlarimning faqat ismini bilaman. Hammasi tuzuk odamlar.

— Shunaqami? Shuning uchun ham kimligini ko‘rmasdan turib, eshikni ochmaysiz?

— Uyimning sha‘niga shu paytgacha dog‘ tushgan emas. Duch kelganni kirgizavermayman-da. Axloq polit-siyasidan ham dakki eshitmaganman.

— Shabyu chiqib ketayotganini ko‘rganmidingiz?

— Qayoqdan oldingiz bu gapni?

— Lapuent, sohilga olib bor bu xonimni. O'sha yerda tezroq tilga kiradi.

— Shoshmang, shoshmang, uyni kimga tashlab ketaman. Bo'пти, bilgan narsamni gapirib beraman. Siz Shabyu deb atagan odam rostdan ham mening mijozim. Yarim soat oldin chiqib ketuvdi.

— Ko'p kelib turarmidi?

— Ahyon-ahyonda.

— Oyda bir martami? Haftada bir martami?

— Haftada bir marta.

— Har doim o'sha ayol bilanmi?

— Yo'q, unchalikmas. — U biroz ikkilanib turgach, davom etdi. — Meni bu ishga aralastirmang... Bugungi ayol bilan bir yilda o'ttiz martacha kelgan bo'lsa keragov.

— Oldin qo'ng'iroq qilib, ogohlantirib qo'yarmidi?

— Hamma shunaqa qiladi.

— Bugun soat nechchida kelishgan edi?

— Kechqurun yettida.

— Birgami yoki alohida-alohidami?

— Birga. Qizil mashinani darrov tanidim.

— Vino buyurishdimi?

— Har vaqtdagiday shampan so'rashdi, chelakda muzlatib qo'ygan edim.

— Qani o'sha ayol?

— Hm... ketdi.

— Shabyu o'ldirilganidan keyinmi?

Blansh xonim dovdirab qoldi.

— Yo'q, albatta.

— Oldin ketgan edi, demoqchimisiz?

— Ha, ha.

— Yolg'on gapiryapsiz, Blansh.

Uzoq yillar davomida Megre bunaqa xonadonlar bilan ko'p marta shug'ullangan edi. Binobarin, bu joylarning tartib-qoidasini u yaxshi bilardi — ayolga o'zini tartibga keltirinishi uchun vaqt berish maqsadida erkak hamisha oldinroq ketadi.

— Ular birga bo'lgan xonani ko'rsating. Lapuent, ko'z-quloq bo'lib tur, hech kim chiqib ketmasin. Xo'sh, qaysi xonada uchrashishgan edi?



— Ikkinchi qavatda, pushtirang xonada.

Yuqoriga olib chiqadigan zina yonidagi devorga jigar-rang, silliq taxta qoqilgan, zina tutqichi kungurador, oyoq ostiga to'shalgan yumshoq, havorang gilam ustidan har bir zinapoyada ko'ndalangiga oppoq mis tayoqcha tortilgan edi.

— Kelganlaringizni ko'rib...

— Eshik «ko'z»idan mo'ralab turgandingiz-da?

— Albatta. Nima qipti? Shundoqqina uyim yonida nima voqea bo'lganini bilmasligim kerakmi? Sizni tani-dim-u, osonlikcha qutulmasligimga ko'zim yetdi.

— Demak, familiyasini bilasiz?

— Bilaman.

— O'ynashining familiyasini-chi?

— Yo'q. Faqat ismini bilaman — Anna-Mari. Lekin men uni chigirtka deb chaqirardim.

— Nima uchun?

— Chunki o'zi qanaqadir beo'xshovroq.

— Qayerda hozir?

— Ketdi, dedim-ku.

— Yolg'on gapiryapsiz.

Blansh xonim eshikni ochdi. Megre xonaga ko'z yugurtirarkan, devorga yopishtirilgan gulli qog'oz ostida ovoz o'tkazmaydigan qoplama bo'lsa kerak, degan o'y o'tdi ko'nglidan. Xizmatkor ayol karavotdagi to'shak jildlarini almashtirmoqda. Stol ustidan yarmi ichilgan shampän shishasi bilan ikkita bokal turardi. Ulardan birining chetida lab bo'yog'idan qip-qizil iz qolgan edi.

— Mana, o'zingiz ko'rib turibsiz...

— Bu yerda ham, vannaxonada ham yo'q demoqchi-siz-da. Yana nechta xona bor?

— Sakkizta.

— Hozir band xonalar ham bormi?

— Yo'q. Odatda mijozlar kechqurun, ba'zilar yarim kechaga yaqin kelishadi. Bugun kechqurun soat to'qqiz-da bittasi kelishi kerak edi. Aftidan, eshigim oldida odam to'planib turganini ko'rib...

— Boshqa xonalarni ko'rsating!

Ikkinchi qavatda to'rtta xona bor edi. Ularning ham-

masi Ikkinchi imperiya uslubida jihozlangandi: og'ir-vazmin mebellar, tusi o'chgan parda.

— Hech kim yo'qligiga endi ishondingizmi?

— Tepaga boshlang.

— Uchinchi qavatda nima qiladi u?

— Bir ko'rib qo'yaylik-chi.

Yuqori qavatdagi ikkita xona ham bo'sh edi, uchinchi xonada esa qizil duxoba qoplangan pastak yumshoq kursida bir qiz o'tirardi. Qattiq bezovtalanayotgani shundoq sezilib turardi. Bular kirishi bilan sapchib o'rnidan turdi. Baland bo'yli, ozg'in, siynasi bilinar-bilinmas, xipcha bel.

— Kim bu? — deb so'radi Megre.

— Bu xonim boya men aytgan mijozini kutyapti.

— Siz uni taniysizmi?

— Yo'q.

Qiz hayron bo'lib yelkasini qisdi. Yoshi taxminan yigirmalarda, u o'zini nihoyatda beparvo tutishga urinardi.

— Ertami-kechmi, baribir kimligimni bilib oladi. Axir siz politsiyada ishlaysiz-ku, to'g'rimi?

— Komissar Megre bo'laman.

— Hazillashyapsizmi? — Qiz unga boshdan oyoq razm solib chiqdi. — Bu ish bilan o'zingiz shug'ullanasizmi?

— Ko'rib turibsiz-ku.

— U o'ldimi?

— Ha.

— Nega faqat yaralandi, deb aldadingiz? — dedi u Blansh xonimga ta'na bilan qarab.

— Qayoqdan bilaman? Oldiga borganim yo'q.

— Ismingiz nima, xonim?

— Anna-Mari Buten, Shabyuning shaxsiy kotibasiman.

— Bu yerga tez-tez kelib turarmidingiz?

— Deyarli har hafta, har doim chorshanba kuni. Shu kunlari ishdan barvaqtroq ketardim. Meni ingliz tili kursiga qatnaydi, deb o'ylashardi.

— Pastga tushing, — dedi g'ijinib Megre.

Xonaning havosi og'ir, chiroqlarning xira yog'dusida

odamning yuzi allaqanday g'ayritabiiy ko'rinardi. Shu boisdan Megrening yuragi siqilib ketgan edi.

Ular mehmonxonaga tushishdi. Ko'chadan goh yaqinlashayotgan, goh uzoqlashib borayotgan yo'lovchilarning qadam tovushlari eshitilib turardi. Parij ko'chalariida izg'irin yelar, ammo uy ichi xuddi gulxonadagiday issiq va dim edi. Har yer-har yerga ko'm-ko'k, anvoyi o'simliklar ekilgan xitoyi guldonlar qo'yilgan edi.

— Qotillik haqida nimalarni bilasiz?

— Bu kishi aytgan gaplardan boshqa hech narsani bilmayman. — Anna-Mari Blansh xonimga o'girildi. — Ko'chada kimdir o'q uzib, Shabyuni yarador qilgan. Ro'paradagi uydan xizmatkor ayol yugurib chiqib, politsiyani chaqirgan. Politsiya ham tezgina yetib kela qolgan — (Politsiya uchastkasi shu atrofda, Vilye ko'chasi-da edi). — U darrov jon beriptimi?

— Ha.

Megre qizning rangi oqarib ketganini sezdi. Ammo u yig'lamadi. Uning shu tobdagi holati gangib qolgan odamning ahvolini eslatardi. Qiz nihoyatda loqayd bir ohangda qo'shib qo'ydi:

— O'sha zahotiyoy ketmoqchi edim, lekin xonim ruxsat bermadilar.

— Nima uchun bunday qildingiz, Blansh?

— Chunki u sizdan oldin kelgan komissarga ro'baro' bo'lishi mumkin edi. Shuning uchun chiqqani qo'ymadim, janjal bo'lishini xohlamadim. Xudo ko'rsatmasin, agar ertaga bu voqeani gazetalar yozib chiqsa, uyim kuyadi.

— Nimani ko'rganingizni aniqroq so'zlab bering, Blansh. O'q uzgan odam qayerda turgan edi?

— Eshik ro'parasida, mashinalar orasida.

— Basharasini aniq ko'rdingizmi?

— Yo'q, ko'cha chirog'i olisroqda. Qorasini ko'rdim, xolos.

— Baland bo'yli odammidi?

— Yo'q, o'rta bo'yli. Yelkador, qora kiyimda. Uch martami, to'rt martami, o'q uzdi, sanamadim. Janob Shabyu qornini changallagancha biroz chayqalib turdiyu, keyin yuztuban yiqildi.

Megre zimdan qizni kuzatib turardi. Biroz ma'yus ko'rinsa ham, lekin qayg'urayotgani mutlaqo sezilmasdi.

— Uni sevarmidingiz?

— Nimani nazarda tutyapsiz?

— Ko'pdan beri unga o'ynashmidingiz?

Bu gapdan u go'yo taajjublanganday bo'ldi.

— Munosabatimiz siz o'ylaganchalik emas edi. Kerak bo'lib qolganimda o'zi bunga ishora qilardi. Lekin hech qachon muhabbatdan og'iz ochgan emas... Men ham uni sevardim, deyolmayman.

— Uyda soat nechchida bo'lishingiz kerak?

— Soat to'qqiz yarim bilan o'n orasida.

— Qayerda yashaysiz?

— Konstanten-Peker maydoni yonida, Kolenkur ko'chasida.

— Shabyuning idorasi qayerda?

— Sharanton sohilida, Bersi omborxonalarining orqasida.

— Ertaga ertalab o'sha yerda bo'lasizmi?

— Ha.

— Menga hali kerak bo'lasiz. Bu kishini metrogacha kuzatib qo'y, Lapuent, tag'in reportyorlar ilashib yurmasin — voqeadan xabar topgan bo'lishlari ham mumkin.

Megre, shu alfozda cheksammi-chekmasammi, deganday trubkasini kaftida biroz aylantirib turdi. Keyin baribir tamaki to'ldirib, tutatdi.

Blansh xonim qo'llarini yostiqnamo qorni ustida chalkashtirgancha komissarga beparvo tikilib turardi. Go'yo yuz bergan voqeaning unga mutlaqo aloqasi yo'qday edi.

— O'q uzgan odamni tanimasligingizga astoydil ishonasizmi?

— Qasam ichishim mumkin.

— Mijozingiz erlik ayollar bilan ham kelib turarmidi?

— Bo'pturardi shunaqasiyam.

— Tez-tezmi?

— Ba'zan qariyb har kuni, ba'zan o'n kun-o'n besh kunda bir.

— Bugun uni telefonda hech kim so'ramadimi?

— Yo‘q.

Megre ko‘chaga chiqdi. Okrug komissari bilan vrach ketib bo‘lgan, izg‘irin boyagidan ham avjga chiqqan edi. Sud meditsinasi institutining sanitarlari jasadni zambilga solib, usti yopiq mashinaga yuklashdi. Jinoyat qidiruv ekspertlari ham o‘z yuk mashinalariga o‘tirishdi.

— Hech narsa topdinglarmi?

— To‘rtta bo‘sh piston topildi. Kalibri olti-yu o‘ttiz besh.

Kichkina kalibr. Ayollar yoki havaskorlar to‘pponchasi. Bunday to‘pponchadan odatda yaqin masofadan turib otiladi.

— Gazetachilar kelishdimi?

— Ikkitasi keldi, lekin tez jo‘nab qolishdi. Mahalliy nashrlarga material berishga shoshilishdi.

Inspektor Furke shu yerda edi. U sovuqdan yer tepinib turardi.

— Shabyu shu uydan chiqibdimi?

— Ha, — deb g‘udrandi Megre.

— Matbuotga biron gap aytasizmi?

— Iloji boricha matbuotdan uzoqroq yurishga harakat qilaman. Shaxsiy hujjatlari bilan hamyoni sizdami?

Furke cho‘ntagidan marhumning qog‘ozlarini chiqazib, Megrega uzatdi.

— Adresi bormi?

— Vogez maydoni. Xotinini ogohlantirib qo‘ymoqchimisiz?

— Albatta. Ertalabki gazetalardan o‘qib bilsa, yaxshi bo‘lmaydi.

Vilye ko‘chasining muyulishidan metroning «Malzerb» bekatiga tushiladigan joy ko‘rinib turardi, o‘sha tomondan bularning yoniga Lapuent shoshib yetib keldi.

— Qo‘ng‘iroq qilganing uchun rahmat, Furke. Kechirasizlar, sovuqda sizlarni kuttirib qo‘ydim. Yomon zabtiga olyapti-da o‘ziyam.

Megre tor, lekin issiqqina mashinaga suqildi. Qaytib kelgan Lapuent rulga o‘tirib, savol nazari bilan boshliqqa qaradi.

— Vogez maydoniga.

Yo‘l bo‘yi churq etmay borishdi. Monso parkining

zarhal qubbali panjaralari oppoq qirov bilan qoplangandi. Yelisey maydonidan o'tgach, sohil tomon burilishdi va ko'p o'tmay, Shabyuning uyiga yetib kelishdi.

Eshik oldida turganlarga Megre qisqagina so'z qotdi:

— Shabyu xonim huzuriga.

Ulardan boshqa gap so'rashmadi. Megre inspektor bilan ikkinchi qavatga ko'tarilib, «Oskar Shabyu» degan so'zlar yozilgan mis lavha qoqilgan zalvorli eshik oldida to'xtadi. Soat endigina o'n yarim bo'lgan edi. Komissar qo'ng'iroqni bosdi. Birozdan so'ng eshik ochilib, oldiga peshband tutgan yoshgina oqsoch ayol chiqdi va bularga savol nazari bilan tikildi. U xushbichim, bug'doyrang juvon bo'lib, qop-qora shohi ko'ylagi qaddi-qomatiga yopishib turardi.

— Shabyu xonim uydamlar?

— Kim keldi, deyin?

— Jinoyat qidiruv politsiyasidan, komissar Megre.

— Bir minutga.

Ichkaridan radioning, televizorning ovozi eshilib turardi. Ora-sira gap-so'zlar ham quloqqa chalinib qolardi. Aftidan, spektakl ko'rsatishayotganga o'xshaydi. Birdan ovozlari tindi, sal o'tmay, zumrad tusli uzun tungi ko'ylak kiygan qirq yoshlardagi ayol chiqib keldi. Yuzida taajjub va tashvish ifodasi. U nihoyatda go'zal bo'lib, xatti-harakatlari o'ziga judayam yarashib turardi.

— Marhamat, janoblar.

Ayol bularni kenggina mehmonxonaga boshlab kirdi. Chamasi endigina o'chirilgan televizor oldida kreslo turardi.

— Marhamat, o'tiring. Erimga biror gap bo'lmadimi ishqilib?

— Afsuski, yomon xabar olib keldik.

— Jarohatlandimi?

— Koshkiydi shunday bo'lsa.

— Aytmoqchisizki...

Megre tasdiqlab, bosh silkidi.

— Sho'rlik Oskar. — Ayol yig'lamadi, faqat boshini egdi. — Mashinada bir o'zimidmi?

— Avtomobil falokati ustida gap ketayotgani yo'q. Uni kimdir otib o'ldirgan.

— Ayol kishimi?

— Yo‘q, erkak.

— Sho‘rlik Oskar! — deya takrorladi Shabyu xonim. — Qayerda yuz berdi bu voqea? — Keyin, Megrening ikkilanib turganini ko‘rib, qo‘shib qo‘ydi. — Qo‘rqmang, ochig‘ini aytavering: hammasidan xabardorman. Biz ko‘pdan buyon bir-birimizni sevmadik. Hatto oilaviy yaqinlik ham qolmagan edi. Men uchun u oddiy hamxona edi, xolos. Boshqalardan zo‘r berib yashirib yuradigan qusurini yolg‘iz men bilardim — u o‘ziga ishonmasdi. Ammo el orasida sir boy bermasdi, hamma-ga o‘shqirardi, stolni mushtlab gaplashishni yaxshi ko‘rardi.

— Fortyuni ko‘chasidagi uyni bilasizmi?

— Bilaman. U o‘ynashlarining hammasini o‘sha yoqqa olib borardi. Blansh xonimni ham taniyman: bir kuni erim o‘zimga ham ko‘rsatgan o‘sha uyni. Aytdimku sizga, biz faqat do‘st edik deb. Bu gal kim bilan borgan ekan?

— Shaxsiy kotibasi bilan.

— Chigirtka bilanmi? Uni shunday deb atardi. Boshqalar ham shunday chaqirishardi.

Shabyu xonimning xotirjam gapirishidan angrayib qolgan Lapuent unga hayrat bilan tikilib turardi.

— Uni o‘sha uyda otishibdimi?

— Yo‘q, trotuarda, mashinaga o‘tirayotgan paytida.

— Jinoyatchi ushlandimi?

— Qochgan, metroga yashiringan. Kechirasiz, xonim, modomiki eringizning ishqiy sarguzashtlaridan xabardor ekansiz, nazaringizda kimlar unga tish qayrab yurgan bo‘lishi mumkin?

— Hammasi ham, — deya beparvo jilmaydi Shabyu xonim. — Har bitta aldangan er, har bitta tashlab ketilgan o‘ynash. Dunyoda rashk qiladiganlar hali ham bor.

— Po‘pisa qilib yozilgan xat-pat olmaganmidi?

— Yo‘q, menimcha. U ba‘zi bir tanishlarimizning xotinlari bilan don olishib yurardi, ammo ularning orasida rashk qilib xotining o‘ynashini o‘ldiradigan birorta erkak yo‘q. Oskar masalasida yanglishmanglar. U ayol-

larning es-hushini o'g'irlab qo'yadigan zot emas edi. Tashqi ko'rinishi badshakl bo'lishiga qaramay, uni maxluq deyish ham qiyin. Gapimga hayron bo'lmanglar, u juda ojiz odam edi, shuning uchun ham hamisha o'zini ko'rsatib qo'yish xohishi bilan yashardi. Har qanday ayolni o'ziga og'dira olish layoqati esa unga tasalli beradigan birdan-bir dastak edi. Shu bilan u o'zini to'kis odamday his qilib yurardi.

— Siz hammavaqt ham eringizga yon bosarmidingiz?

— Dastlab u qilmishlarini mendan yashirib yurdi. Keyinroq dugonalarimdan goh unisi, goh bunisi bilan aloqa qilib yurganini sezib qoldim. Hatto bir o'ynashi bilan ushlab ham oldim. Uzoq, ochiqchasiga gaplashdik, lekin pirovardida do'st bo'lib qoldik. Endi tushungandir-siz? Bari bir uning o'limi men uchun katta yo'qotish. Biz bir-birimizga suyanib qolgan edik, bir-birimizni yaxshi ko'rardik.

— U ham sizni rashk qilmasmidi?

— Oskar menga to'la erk berib qo'ygan edi, lekin erkaklik g'ururini ushlab, hayotimning ikir-chikirlariga aralashmaslikka harakat qilardi. Jasaki qayerda hozir?

— Sud meditsinasi institutida. Marhumni rasman tanish uchun ertaga ertalab o'sha joyga kirib o'tishingizni iltimos qilaman?

— Qayeriga o'q tekkan?

— Ko'kragi bilan qorniga.

— Qiynalib jon beribdimi?

— Til tortmay o'lgan.

— Chigirtka ham o'sha yerda ekanmi?

— Yo'q. Janob Shabyu uydan oldinroq chiqib ketgan.

— Demak, qotillik paytida yolg'iz o'zi bo'lgan?

— Ha. Yana bir iltimos: eringiz bilan aloqada bo'lgan deb gumon qilgan dugonalarigizning ro'yxatini ertagacha tayyorlab bersangiz?

— Uni erkak kishi otganiga ishonasizmi?

— Blansh xonim shunday deyapti.

— Oskar chiqib ketgandan keyin eshikni berkitib olmagan ekanmi?

— Eshik «ko'zi»dan mo'ralab turgan ekan. Rahmat sizga, Shabyu xonim. Noxush xabar keltirganimdan



afsuslanaman. Uzur, yana bitta savol: Parijda marhumning qarindosh-urug'lari bormi?

— Ha, otasi bor, Dezire ismli qariya. Yetmish uchga chiqqan. Turnel sohilidagi qahvaxonasida haliyam g'imirlagani-g'imirlagan. «Jajji Sansereda» deb ataladi qahvaxonaning nomi. Dezire ko'pdan buyon so'qqabosh, ellik yoshlardagi bir ofitsiantka xotin bilan yashaydi.

Mashinada ketayotganlarida Megre Lapuentdan so'radi:

— Xo'sh, bunga nima deysan?

— G'alati ayol ekan. Gaplariga ishondingizmi?

— Batamom.

— Ko'pam qayg'urayotganga o'xshamaydi.

— Qattiq kuyadi hali. Bugun kechasiyoq, karavotda yolg'iz o'zi yotganida, o'rni bilinadi. Ehtimol, oqsoch ayol ham obidiyda qilsa kerak: chunki u ham xo'jayini bilan don olishib yurgan bo'lsa ajabmas.

— Ko'p shahvatparast odammi deyman?

— Shunaqaga o'xshaydi. Ba'zi bir kimsalar ishqiy sarguzashtlarga o'ch bo'lishadi, o'zlarining rosmama odam ekanliklariga ishonch hosil qilish uchun nuqul ayollarga aylanishadi. Xotini to'g'ri payqabdi... Endi qariya Dezirening oldiga boramiz. Qahvaxonasini berkitib, jo'nab qolmagan bo'lsin ishqilib.

Ular «Jajji Sansereda» qahvaxonasiga yetib kelishganda, ko'k peshband taqib olgan oqsoch bir mo'ysafid jez pardalarni tushirayotgan edi. Qiya ochiq eshikdan stollar ustiga to'ntarib qo'yilgan stollar, polga sepilgan qipiq, peshtaxtada uyulib yotgan idish-tovoqlar ko'rinib turardi.

— Berkildi, janoblar.

— Siz bilan gaplashmoqchi edik.

— Men bilan? O'zlaringiz kimsizlar?

— Biz Jinoyat qidiruv politsiyasidanmiz.

— Ana xolos! Politsiyaning menda nima ishi bo'lishi mumkin? — Qariyaning qovog'i uyildi. — Ha, mayli, kira qolinglar.

Ular qahvaxonaga kirishdi. Dezire eshikni berkitdi. Burchakdagi pechning tafti hali so'nmagan edi.

— Gap sizning ustingizda emas, o'g'lingiz ustida.  
Dezire bularga ishonqiramaganday bir qarab qo'ydi:  
— Xo'sh, o'g'lim nima gunoh qipti?  
— Hech narsa. O'g'lingiz falokatga uchradi.  
— Ming marta aytganman unga: mashinani sekinroq hayda deb. Jarohati og'irmi?

— Jarohatlanmagan, halok bo'lgan.

Chol peshtaxta orqasiga o'tib ketdi. Uzumdan tayyorlangan aroqdan stakanga quyib, uni bir ko'tarishda bo'shatdi.

— Ichasizlarmi? — deb so'radi u.

Megre «ha» deganday bosh irg'adi. Lapuent rad etdi: u uzum arog'ini yomon ko'rardi.

— Nima bo'ldi unga?

— To'pponchadan otib o'ldirishibdi.

— Kim?

— Shuni aniqlamoqchiman.

Keksa Shabyuning ajin bosgan yuzi o'zgarmadi, faqat nigohi battar jiddiylashdi.

— Kelin biladimi?

— Ha.

— Nima deyapti?

— Shabyu xonim ham bir narsa deyishga ojiz.

— Qariyb oltmish yildan buyon mana shu peshtaxta orqasida turib, kun ko'raman... Yuringlar bu yoqqa. — Qariya ularni oshxonaga boshlab kirib, chiroqni yoqdi. — Ko'rib qo'yinglar.

Devorda chambarak ushlagan yetti-sakkiz yoshlardagi bolaning surati osig'liq turardi. Boshqa bir suratda yana o'sha bolaning o'zi cho'qintirilgan kuni kiygan kiyimida.

— Bu o'sha. Mana shu boloxonada tug'ilgan. Shu kvartaldagi boshlang'ich maktabga qatnagan, keyin litseyga borgan. Kirish imtihonlaridan ikki marta yiqilgach, vinofurushlik bilan shug'ullanadigan mahkamaga gumashta bo'lib ishga kirdi. Uyma-uy yurib, qancha poyabzalni to'zitdi. So'ng makonlik bir vinofurush Parijdagi idorasiga yordamchi qilib oldi. Oskar qiynalib o'sdi, turmushning achchiq-chuchugini ko'p tottdi. Uylanganidan keyin ham xotinini arang boqib yurdi.

— Sevarmidi xotinini?

— Bo‘lmasam-chi! Kelin Oskarning xo‘jayinida mashinistka edi. Avvaliga ular Sent-Antuan ko‘chasidagi kichkina bir uyda turishdi. Farzandlari yo‘q edi. Oskar xususiy korxonaga ochmoqchi bo‘lganida, uni bu yo‘ldan qaytarmoqchi bo‘ldim: chuv tushib qolishidan qo‘rqardim. Ammo men xato qilgan ekanman. Oskarning ishi yurishib ketdi. Qayoqqa qo‘l uzatsa omadi kelaverdi. Senada suzib yurgan, yonboshiga «Monaxlar vinosi» deb yozib qo‘yilgan barjalarga ko‘zingiz tushgan bo‘lsa kerak? Darvoqe, yuqoriga parvoz qilish uchun faqat omadning o‘zi yetarli emas, buning uchun odam uddaburro bo‘lishi, boshqalarni chetga surib tashlashi kerak. O‘g‘lim orttirgan boylik ko‘pdan ko‘p mayda savdogarlarni xonavayron qildi, bir qarashda bunda uning aybi yo‘qday, lekin aynan shu tufayli u o‘ziga talaygina dushman orttirib oldi. Gadoning dushmani gado bo‘ladi, deganlari shu-da!

— Unga xonavayron bo‘lgan raqobatchilaridan birortasi suiqasd qilgan bo‘lishi mumkin, demoqchimisiz?

— Albatta.

Dezire o‘g‘lining o‘ynashlarini ham, ularning erlarini ham tilga olmadi. Qiziq, bundan uning xabari bormikin?

— Unga tish qayrab yurganlardan birortasining ismini aytib berolmaysizmi?

— Aniq bir narsa deyishim qiyin. Bersidagi omborxonalarda ishlaydiganlar mendan ko‘ra ko‘proq narsani bilishadi. — Chol yelkasini qisdi. — U yerdagilar o‘g‘limdan azroildan qo‘rqqanday qo‘rqishadi.

— Tez-tez kelib turarmidi oldingizga?

— Deyarli kelmasdi, desa ham bo‘ladi. Ishi yurishib, boylik to‘plashga sho‘ng‘ib ketganidan keyin, bir-birimizdan uzoqlashib qoldik.

— Siz uning odamlarga shafqatsizligidan norozimidingiz?

— Endi buning nima ahamiyati bor? — U xiyol titrab turgan ko‘rsatkich barmog‘i bilan yonog‘idagi bir tomchi yoshni sidirib tashladi. — O‘g‘limni qachon ko‘rishim mumkin?

— Ertaga ertalab sud meditsinasi institutida.

— Pastdagi, narigi sohildagimi?

Chol yana qadahlarni to'ldirdi. U bir nuqtaga tikilib olgan edi. Megre qadahini bir ko'tarishda bo'shatdi-yu, Deziye bilan xayrlashib, tashqarida turgan mashinaga o'tirdi.

— Oldin meni oborib tashla, keyin o'zing ketaverasan, — dedi u Lapuentga.

Zinapoyani bitta-bitta bosib, o'zi yashaydigan qavatga chiqqanida vaqt yarim kechaga borib qolgan, xotini eshikni qiya ochib, uni kutib turardi.

— Shamollab qoldingmi? — deb so'radi u tashvishlanib.

— Ko'chaga deyarli chiqqanim yo'q — mashinada sayr qilib yurdim.

— Ovozimg bo'g'ilgan-ku...

— Yo'talayotganim yo'q, burnim ham oqmayapti.

— Ertalab ko'ramiz. Hozir issiqqina suyuq osh pishirib beraman, ikki dona aspirin ham ichvor... Qalay, anovi bolang aybiga iqror bo'ldimi?

Megre xonim Stirne o'z buvisini o'ldirib qo'yganidan xabardor edi.

— Darrov bo'yniga oldi.

— Pul deb shunaqa qilibdimi?

— Ishsiz ekan. Uch oy ijara haqini to'lamabdi. Uydan haydab chiqarishibdi.

— Qahri qattiq bola ekan-da?

— Qayoqda. Norasida bir go'dak. Nima qilib qo'yganiga ham, o'zini nima kutayotganiga ham aqli yetmayapti. Savollarga maktab bolasiday sharillatib javob qaytaraveradi.

— Esi pastmi deyman?

— Xayriyatki, buni men emas, sud hal qiladi.

— Uni kim himoya qiladi?

— Odatdagiday, sud olamida hech kim tanimaydigan yosh advokatlardan birortasi. Chunki bolaning cho'ntagida uch frankdan bo'lak hech vaqosi yo'q... Lekin men u bola vajidan emas, boshqa bir baobro' odam oraga tushib, kechikib qoldim. Uni Parijdagi eng mashhur ishratxonadan chiqib ketayotgan paytida otib o'ldirishgan...

— Voy, suv qaynab ketdi, men ovqatga unnay.

Megre yechinib, pijamasini kiydi, biroz ikkilanib turdi-yu, so'ng baribir trubkasini to'ldirdi. Tamakining tanish va xushbo'y hidi gup etib dimog'iga urildi, ayni paytda, a'zoyi badani qaqshab og'riyotganini sezdi.

## *II b o b*

Ertalab xotini qaynoqqina qahva opkirib, yelkasiga qo'lini tekkizganida, Megre xuddi bolalik paytidagiday erkalanishni xohlab qoldi, betobligidan zorlanib issiq to'shakda yana biroz yotishga ruxsat so'radi.

Boshi lo'qillab og'rir, chakkalari zirqirar, peshonasi jiqqa ho'l edi. Deraza oynalaridan, bamisoli ular oq tusga bo'yalganday, sutrang nur tushib turardi.

Megre qahvadan bir ho'plab, o'rnidan turdi. Ko'chaga qarash uchun deraza yoniga bordi. Ertalabki quyuyq tuman orasida yakkam-dukkam yo'lovchi ko'zga tashlanardi. Ular qo'llarini cho'ntaklariga solganча metro tomonga qarab ketishardi.

Megre mudroq bir ahvolda qahvani ichib bo'lgach, dushga tushdi. Keyin soqolini oldi. Miyasini nuqul Shabyu haqidagi o'ylar kemirardi.

Unga ta'rif berganlarning qaysi biri haqiqatga yaqinroq? Blansh uchun u shunchaki bir mijoz, hech qachon shampan buyurishni kanda qilmaydigan tanti mijozlardan biri. Shabyu boyligini ko'z-ko'z qilish maqsadida pulni ayamagan, duch kelgan odamga: «Men oddiygina savdo gumashtasi edim, uydан uyga ko'chib yurardim. Otam bo'lsa haliyam Turnel sohilidagi qahvaxonasida o'tiribdi. U chalasavod bir kimsa», deya og'iz ko'pirtirib yurgan.

Chigirtka uchun Shabyu aslida kim bo'lgan? Marhum unga bog'lanib qolganligini Megre sezib turardi.

Anna-Mari esa Fortyuni ko'chasidagi xilvat ishratxonada Shabyu boshqa ayollar bilan ham ko'ngilxushlik qilishini bilar, ammo rashk qilishni xayoliga ham keltir-masdi.

Shabyu xonim esa undan ham beparvo edi. Megre

Vogez maydonidagi uyda o'zini hayratga solgan ba'zi bir narsalarni esladi. Chunonchi, mehmonxona devoriga osib qo'yilgan, bor bo'y-basti bilan moybo'yoqda ishlangan portret. Shabyu undan xuddi raqibiga zarba urishga chog'lanayotgan kimsaday, mushtlarini qisib, vajohat bilan qarab turardi.

— Xo'sh, ahvoling qalay?

— Yana ozroq qahva ichsam, otday bo'lib ketaman.

— Harholda aspirin ham ichvol, keyin tashqariga kamroq chiqqin. Hozir telefonda taksi chaqirib beraman.

Megre Orfevr sohiliga borayotib, yo'l-yo'lakay yana vinofurush haqida o'ylab ketdi. Shabyuning qanday odam bo'lganligi to'la-to'kis oydinlashgach, qotilni topish qiyin emasligini Megre sezib turardi.

Tuman hamon tarqamagandi, binobarin, komissar chiroqni yoqdi. Stolida turgan konvertlarni ochib o'qidi, uch-to'rta buyruqqa qo'l qo'ydi, roppa-rosa soat to'qqizda boshliqning kabinetiga kirib bordi. Megre unga Teo Stirne haqida qisqacha axborot berdi.

— Aqli joyida emas deb hisoblaysizmi?

— Ishonchim komilki, advokat xuddi mana shunga yopishib oladi yoki bo'lmasa, bolaning qiyinchilik bilan o'sganini ro'kach qiladi. Ammo bola nihoyatda shafqatsizlik qilgan — temir kosov bilan o'n besh marta tushirgan, buning ustiga, o'z buvisini o'ldirgan. Prokuror ham indamay turadi deysizmi — qattiq jazo berilishini talab qiladi. Stirne o'zini nima kutayotganini bilmayapti, hamma savollarga ikkilanmay javob qaytaribdi. Yomon ish qilib qo'yganini xayoliga ham keltirayotgani yo'q.

— Shunaqa deng. Xo'sh, Fortyuni ko'chasidagi jinoyatchi? Tonggi gazetalarda qisqa xabar bosilibdi.

— Bu haqda hali ko'p yozishadi. Shabyu — taniqli va badavlat odam. Metroda har qadamda «Monaxlar vinosi» firmasining reklamalarini ko'rish mumkin.

— Jinoyat rashk tufayli sodir bo'lganmi?

— Hozircha bir narsa deyish qiyin. Marhumning dushmani ko'p nazarimda. Turli yo'nalishda ish olib borishga to'g'ri keladi.

— Ishratxonadan chiqqanligi rostmi?

— Shuni ham yozishibdimi?

— Yo‘q, o‘zimcha taxmin qilyapman, Fortyuni ko‘chasini bilaman.

Megre kabinetiga qaytib, yana Shabyu xonim haqida o‘ylab ketdi. Yuz bergan voqea ayol uchun hoynahoy og‘ir zarba bo‘lishiga qaramay, u ham faryod ko‘tarmadi. Eridan necha yosh kichkina bo‘lishi mumkin? Besh yoki olti yosh. Har bir xatti-harakati va gap-so‘zlaridan sezilib turadigan xotirjamlik va o‘ziga ishonchning sababi nimada?

Shabyu u bilan qo‘li qisqa paytida tanishgan, ayolning o‘zi ham o‘sha paytda oddiy mashinistka bo‘lgan. Ammo vinofurushga jir bitib, Parijning eng oldi mashinachilariga kiyim tiktirib kiyadigan bo‘lganidan keyin ham ko‘zga tashlanmaydigan, xashaki odamligicha qolavergan. U go‘yo o‘zining ko‘z ochib-yumguncha erishgan martabasiga hali ko‘nikolmagan, binobarin, nuqul boyligini pesh qilish bilan ovora bo‘lgan.

Tabiiyki, kvartirani ham, mehmonxonada osig‘liq turgan beo‘xshov portretni demasa, xotini jihozlagan. Qadimiy jihozlar bilan zamonaviy buyumlar shu darajada uyg‘unlashib ketganki, kvartiraga kirgan har qanday odam o‘zini nihoyatda erkin va xushhol sezadi.

Hozir u nima qilayotganikin? Hoynahoy, sud meditsinasi institutiga borishga chog‘lanayotgandir? Lekin u yerda, ilgari o‘likxona bo‘lgan o‘sha sovuq binoda ham Shabyu xonim pinagini buzmasligi aniq...

— Shu yerdamisan, Lapuent?

— Ha, xo‘jayin.

— Ketdik. Sharanton sohiliga boramiz. — Megre og‘ir paltosini kiydi, bo‘yniga sharfini o‘rab, boshiga shlyapasini qo‘ndirdi-da, yo‘l-yo‘lakay trubkasini tutadi. Ular hovlida turgan mashinalardan biriga o‘tirishdi.

— Qayoqqa? — deb so‘radi Lapuent.

— Sharanton sohiliga.

Ular Bersi sohilidan, ortida son-sanoqsiz omborxonalar tizilgan temir panjara yoqalab ketishdi. Har bir omborxonaga egasining nomi yozilgandi. Uchta eng katta omborxonada Shabyuga tegishli edi. Daryo tomonda bandargoh yaqinida barjalardan tushirilayotgan boch-

kalar qalashib ketgandi. Hammayoqda «Monaxlar vinosi». Hammayoqda Oskar Shabyu.

Ko'chaning oxirida toshdan yasalgan ko'hna bir bino qad ko'targandi. Bochkalar qalashib yotgan keng hovlida usti berk mashinalarga vino solingan yashiklarni ortishardi. Bu ishga, aftidan, oldiga ko'k peshband tutgan, salqi mo'ylovli hov anovi kishi sarkorlik qilsa kerak.

— Mashinani hovliga kiritib qo'yay, keyin sizga hamroh bo'laman.

Hovlini achitqi hidi tutib ketgandi. Bu hid hatto peshtoqiga: «Qo'ng'iroqsiz kiravering» degan ta'kidnoma osilgan keng yo'lakda ham sezilardi. Chap tomondagi eshiklardan biri ochiq edi. Nimqorong'i xonada, apparat oldida sochi kalta qirqilgan bir qiz o'tirardi.

— Sizlarga kim kerak?

— Menga janob Shabyuning shaxsiy kotibasi kerak.

Telefonchi qiz andak taraddudlanib qoldi.

— Shaxsan o'zi bilan gaplashmoqchimisiz?

— Ha.

— Uni taniysizmi?

— Taniyman.

— Yuz bergan voqeadan xabaringiz bormi?

— Ha. Komissar Megre so'rayapti, deb ayting.

Qiz Megrega yana bir bor sinchiklab tikildi, so'ng yosh Lapuentga qaradi. Yigit unda iliq taassurot qoldirgandi.

— Alo, Anna-Marimi? Seni allaqanday komissar so'rayapti, yonida yosh yigit ham bor, ismini bilmayman. Seni ko'rishmoqchi. Xo'p. Hozir boshlab boraman.

Ular chang zinapoyadan yuqoriga ko'tarila boshlashdi. Devorlarning tusi o'chib, ta'mir talab bo'lib qolgandi. Yonlaridan bir dasta qog'oz ko'targan bir yigit o'tib ketdi. Anna-Mari tepada, eshik oldida bularni kutib turardi. Qiz ularni Shabyuning kabinetiga, o'z ish joyiga boshlab kirdi. Kabinet keng-mo'l, ammo odmigina jihozlangan edi.

Aftidan bu yerdagi buyumlar ellik yillar oldin qo'yilgan, xona ichi hovli va butun bino kabi fayzsiz, hammayoqdan gupillab vino hidi anqirdi.





ration en 1930 : 2500 en  
sistent, celui-ci ne peut  
cultures et les per  
renforce notre  
pris de par

— O‘shaning oldidan keldingizmi?

— Kimning oldidan?

— Xotinining.

— Ha. Siz uni taniysizmi?

— Xo‘jayin shamollab qolganida Vozelzar maydoniga chaqirtirishgandi. Chiroyli ayol, to‘g‘rimi? Ham juda aqlli. Xo‘jayin undan maslahat olib turardi.

— Almissoqdan qolgan jihozlarni ko‘raman deb o‘ylamagandim bu yerda.

— Opera ko‘chasidagi narigi idorada hammasi zamonaviy. Peshtoqida kattakon neon chirog‘idan reklamasini bor. Ko‘zni qamashtiradi. Xonalar serhasham. O‘n besh ming savdo shoxobchasi bilan aloqa qilinadi, ularning soni yil sayin ortib boryapti. Hisob-kitobni elektron hisoblash mashinalari qiladi.

— Bu yerda-chi?

— Bu yer eski bino, tartiblar ham eskicha. Olisidan kelgan mijozlarga yoqadi. Xo‘jayin Opera ko‘chasidagi idoraga har kuni borardi, lekin bu yerda ishlashni xush ko‘rardi.

— Sizni ham u yoqqa olib borarmidi?

— Kamdan kam. U yerda boshqa kotibasi bor.

— Ishga yana kimlar rahbarlik qiladi?

— Janob Shabyuning o‘rnini hech kim to‘la-to‘kis bosolmasdi. U bironvga ishonmasdi. Vinoni saqlash musye Lepetrning zimmasida. Ishlab chiqarish bilan ham o‘sha odam shug‘ullanadi. Keyin hisobchi musye Riol degan kishi bor, lekin u yaqinda, bir necha oy burun ishga qabul qilingan. To‘rtta mashinistka ham ishlaydi, ro‘paradagi xonada.

— Bor-yo‘g‘i shumi?

— Telefonchi qizni ko‘rdingiz. Keyin — o‘zim. Sizga qanday tushuntirsamikin? Biz bamisoli shtabimiz, asosiy ish Opera ko‘chasida bajariladi.

— Xo‘jayiningiz u yerda qancha vaqt bo‘lardi?

— Bir-ikki soat.

Eski zamondan qolgan silindrnusxa mahkama qog‘ozlarga to‘lib ketgan edi.

— Boshqa mashinistkalar ham sizga o‘xshagan yoshmi?

— Ko‘rmoqchimisiz?

— Keyinroq.

— Eng kattasi, mademuazel Berta — o‘ttiz ikki yoshda. Hammadan uzoq ishlayotgani ham o‘sha. Eng kichigi yigirma birda.

— Nima uchun Shabyu aynan sizni kotibalikka olgan?

— Unga yangi kotiba kerak bo‘lib qolgan. Ilgari hech qayerda ishlamagan bo‘lishi kerak ekan. Xo‘jayin e‘lon bergan edi, men o‘sha e‘lon bo‘yicha kelganman. Bir yildan oshdi. Hali o‘n sakkizga ham to‘lmagan edim. Yoqib goldim shekilli, birinchi kuniyoq o‘ynashim bor-yo‘qligi bilan qiziqdi.

— O‘ynashingiz bormidi?

— Yo‘q. Kursni endi tugatgan paytim edi.

— Tez orada sizga xushomad qila boshladimi?

— U xushomad qilib o‘tirmasdi. Hujjatlar bilan tanishtirish uchun ertasi kuni huzuriga chaqirdi-yu... o‘ziniki qilib oldi. Kim bilan ishlayotganimni bilishim kerak-ku, dedi-qo‘ydi.

— Keyin-chi?

— Bir haftadan keyin Fortyuni ko‘chasiga olib bordi.

— Qizlardan birortasi rashk qilmadimi?

— Hammasi uning qo‘lidan o‘tib bo‘lgan.

— Shu yerdami?

— Shu yerdami, boshqa joydami — nima farqi bor? U bu ishni shunday ustalik bilan qilardiki, e‘tiroz bildirish kishining xayoliga ham kelmasdi. Faqat bitta qiz... U mendan keyinroq ishga kirgan edi, o‘sha qiz uchinchi kuniyoq eshikni qarsillatib yopib, ketib qoldi.

— Chorshanba sizning kuningiz ekanligini idoradagilardan birortasi bilarmidi?

— Menimcha, hammasi bilardi. Biz xo‘jayin bilan birga chiqib, uning mashinasiga o‘tirardik. U buni birovdan yashirmasdi. Qaytanga ko‘z-ko‘z qilardi.

— Sizdan oldin kim kotiba bo‘lgan?

— Shazo xonim. Hozir koridorning narigi burchagidagi xonada o‘tiradi. Yigirma olti yoshda. Erdan chiqqan.

— Yaxshi juvonmi?

- Qaddi-qomati ketvorgan. Chigirtka degan nom hozir o'sha juvonga to'g'ri kelmaydi.
- Sizdan xafa bo'lmadimi?
- Avvaliga masxara qilganday kulimsirab yurdi. Tez orada xo'jayinning joniga tegadi, deb o'ylagan bo'lsa kerak.
- Haliyam aloqalari uzilmaganmidi?
- Ehtimol. Janob Shabyu ba'zan uni ishdan keyin olib qolardi. Buning ma'nisiga hamma tushunardi.
- Norozi bo'lib yurganini sezmaganismiz?
- Menga sezdirmasdi. Aytdim-ku, Shazo xonim faqat masxara qilardi. Mendan umuman hech kim shubha qilmaydi. Hatto onam ham meni hanuz qizaloq deb o'ylaydi.
- Harholda, Shazo xonim qalbida sizdan yoki janob Shabyudan o'ch olish istagi tug'ilgan bo'lishi mumkinmi?
- Bunaqaga o'xshamaydi. O'zi erkaklar bilan don olishib yuradi. Ba'zan tungi ishratlardan keyin ertalab ishga bazo'r keladi.
- Tushunarli. Xo'sh, uchinchisi-chi?
- Alinami? U hali mendan ham yosh. Qoracha. Jinni-tantiq qiz. Qiyshanglagani qiyshanglagan. Bugun ertalab birdan jazavasi tutib qoldi. Balki atayin qilgandir. Keyin oh-vohlab, ho'ngrab yig'lashga tushdi.
- Sizdan oldin ishga kirganmi?
- Ha, oldin univermagda ishlagan. Menga o'xshab, Shabyuning e'lonini o'qib qolgan. Bizdagi hamma qizlar e'lon bo'yicha ishga yollangan.
- Shulardan birortasi Shabyuni qattiq sevib qolgan, keyin rashk orqasida qotillikka qo'l urgan bo'lishi ham mumkin-ku? Blanshning gapiga qaraganda, Shabyuga erkak kishi o'q uzgan. Ehtimol, qotil shim kiyib olgan ayodir? Qorong'i bo'lgan-ku, axir?
- Yo'q, ishonmayman, — dedi qat'iy qilib Anna-Mari.
- Xotini-chi?
- Shabyu xonim rashkni bilmaydi. Ko'ngli tusagani-day hayot kechiradi. Eri uning uchun shunchaki dilkash hamroh bo'lgan, xolos.

— Dilkash, deysizmi?

Anna-Mari o‘ylanib qoldi.

— Uni taniydiganlarning nazarida — shunday. Ammo el orasida Shabyu dimog‘dor va takabbur edi. Gerdayishni yaxshi ko‘rardi. Ayollarni gah desam qo‘limga qo‘ndiraman, deb hisoblardi. Ammo uni yaqindan bilganingizdan so‘ng, juda sodda, hatto nochor odam ekanligini payqamay qolmasdingiz. To‘shakda yotganimizda ko‘pincha mendan so‘rab qolardi: «Men haqimda qanday fikrdasan?» «Qanday fikrda bo‘lishim kerak?» «Meni sevasanmi? Rostini ayt, sevmaysan, a?» «Sevgini qanday tushunishingizga bog‘liq. Agar «sevgi» deganda to‘shakni tushunsangiz, shikoyat qiladigan joyim yo‘q». «Bir kuni jonimga tegsang-u, seni tashlab ketsam, nima qilgan bo‘larding?» «Qaydam. Chidasam kerak harholda». «Boshqa qizlar men haqimda nima deyishadi?» «Hech narsa. Ularni mendan ko‘ra o‘zingiz yaxshi bilasiz».

— Endi erkaklar haqida gapirib bering? — deb iltimos qildi Megre.

— O‘zimizda ishlaydigan erkaklar haqidami? — Lepetrni aytdim, nihoyatda kamgap odam. Oltmishga yaqinlashib qolgan. Tajribali mutaxassis. Hovliqmasdan, xotirjam ishlaydi. Aytishlaricha, bir mahallar badavlat odam bo‘lgan-u, keyin singan. Uddaburrolik yetishmagan bo‘lsa kerak-da.

— Oilasi bormi?

— Ha. Ikkita o‘g‘li ham uylangan. Sharanton sohili-ning etagida, kichkinagina uyda yashaydi. Idoraga velosipedda qatnaydi.

Deraza ortida qizg‘ish tuman suzar, oftob bo‘zarib ko‘rinar edi. Senadan hovur ko‘tarilardi. Lapuent tizzasida turgan bloknotga suhbatni jimgina qayd etib borardi.

— Lepetrning ishi orqaga ketgan paytlarda «Monaxlar vinosi» firmasi bormidi?

— Menimcha, bor edi.

— Xo‘jayin bilan munosabatlari qanday edi?

— Yomon emas.

— Bahslashishmasmidi?

— Mening oldimda sira bunday bo‘lmagan. Men esam kabinetdan kamdan kam chiqardim.

— Lepetrni indamas odam dedingizmi?

— Ham indamas, ham g‘amgin. Kulganini birov ko‘rganmas. Salqi mo‘ylovi uni battar tund qilib ko‘rsatadi.

— Idorada yana kimlar ishlaydi?

— Hisobchi Riol, kassir ham o‘zi. Kabineti pastda. Kichik kassani boshqaradi. Bizda shunday kassa bor. Ikir-chikirigacha tushuntirishga ko‘p vaqt kerak. Asosiy hisob-kitob ishlari, firmalar bilan bo‘ladigan yozishmalar Opera ko‘chasida bajariladi. Bu yerda ta‘minot bilan shug‘ullanishadi, doimiy ta‘minotchilarimiz bo‘lgan Janub uzumchilari bilan aloqa qilib turish ham bizning zimmamizda.

— Riol deganingiz birortangizni sevib qolmaganmi?

— Qaydam. Hozircha sezganimiz yo‘q. Hali o‘zingiz ko‘rasiz. Yoshi qirqlarda. Ashaddiy bo‘ydoq. Undan nuqul mog‘or hidi keladi. Serhadik, tortinchoq, xullas, g‘alati qiliqlari ko‘p. Lotin mahallasida, oilaviy pansionda yashaydi.

— Shumi bor-yo‘q erkak?

— Idorada bori — shu. Omborxonalar bilan ekspeditsiyada yana bir necha erkak ishlaydi. Ular bilan ko‘ztanishmiz, lekin hech qanaqa aloqam yo‘q. G‘alati odamlar yig‘ilgan ekan, deb o‘ylayotgan bo‘lsangiz kerag-a? Xo‘jayinni bilganlar buni tabiiy hol deb hisoblagan bo‘lardi.

— O‘rni bilinayotgandir, a?

— Rostini aytsam, bilinyapti.

— Sizga sovg‘a-povg‘a qilib turarmidi?

— Hech qachon pul bergan emas. Ba‘zan magazin rastasida osig‘liq turgan sharfgami, ro‘molgami ko‘zi tushib qolsa, olib berardi.

— Ishni endi kim boshqaradi?

— Bilmadim. Opera ko‘chasidagi idorada xo‘jayinning moliya bo‘yicha yordamchisi janob Lusek bor. Yillik balans va soliq deklaratsiyasiga o‘sha odam javob beradi. Ammo vinoga aqli yetmaydi.

— Lepetr-chi?

— Aytdim-ku sizga, u lalaygan odam.

— Balki, Shabyu xonim ishni o'z qo'liga olar?

— U erining asosiy merosxo'ri. Lekin rahbarlikka rozi bo'ladimi-yo'qmi, — bilmadim. Agar ko'nsa, eplab ketadi. U aytganini qildiradigan ayol.

Megre Anna-Marining gaplarini tinglarkan, uning zukkoligiga hayron qolardi. Bironta savol ham uni dovdiratib qo'ymadi. Qizning ochiqko'ngilligi komissar-ga ma'qul bo'ldi. Anna-Mari gapirganda butun a'zoyi badanini — qo'llari-yu oyoqlaridan tortib, ingichka gavdasigacha qimirlatib turar, buni ko'rib, Megre kulgidan o'zini arang tiyardi.

— Kecha kechqurun de la Turnel sohiliga bordim.

— Qariyaning oldigami?

— Ularning aloqasi qanday edi?

— Sezishimcha, yaxshimasdi.

— Nima uchun?

— Ko'pdan buyon oralari buzuq edi. Keksa Shabyu o'g'lini toshbag'ir derdi, yordamini rad etardi: ehtimol oriyati kelar, yoshi bir joyga borib qolgan bo'lsa ham hanuz do'konini berkitgani yo'q.

— Xo'jayin otasi haqida siz bilan gplasharmidi?

— Kamdan kam.

— Yana nimalar deya olasiz?

— Boshqa hech narsa.

— Shabyudan bo'lak ham jazmaningiz bormidi?

— Yo'q. Menga uning o'zi yetardi.

— Shu yerda ishlayverasizmi?

— Agar qoldirishsa.

— Lepetrning kabineti qayerda?

— Pastda. Derazalari orqa hovliga qaragan.

— Endi hamkasblaringiz oldiga birrov kirib chiqsam.

Mashinistkalar o'tiradigan xonada ham chiroqlar yonib turardi. Ikkita giz mashinka bosar, uchinchisi — yoshi kattarog'i esa, xat va gazeta-jurnallarni ajratardi.

— Uzr, biroz vaqtlaringizni olaman. Men komissar Megre bo'laman, tergov bilan mashg'ulman. Har biringiz bilan alohida-alohida suhbatlashishga to'g'ri kelsa kerak. Hozircha bir narsani aniqlab olmoqchiman: qaysi biringizda biror shubha bor?

Qizlar o‘zaro ko‘z urishtirib olishdi. O‘ttiz yoshlardagi baqaloq Berta sal qizardi.

— Masalan, sizda? — deb murojaat qildi unga Megre.

— Hech kimdan gumonim yo‘q. Hamma qatori hangu mang bo‘lib qoldim.

— Qotillik haqida gazetalardan o‘qib bildingizmi?

— Yo‘q, ishxonaga kelib eshitdim.

— Marhumning g‘animlaridan birortasining ismini aytib berolmaysizmi?

Qizlar yana bir-birlariga qarab qo‘yishdi.

— Iltimos, tortinmanglar. Xo‘jayiningizning fe‘lini bilaman, ayniqsa, uning ayollarga o‘chligi haqida eshitganman. Ehtimol, bu ishga birortangizning eringiz yoki jazmaningiz, yo bo‘lmasa, raqibingiz aralashgandir?

Qizlardan sado chiqmadi.

— Yaxshilab o‘ylab ko‘ringlar, iltimos. Kichkina dalil ham tergovga yordam berishi mumkin.

Megre bilan Lapuent hisobchining oldiga tushishdi. U Anna-Mari ta‘riflagan kishining aynan o‘zi edi.

— Bu yerda ko‘pdan buyon ishlayapsizmi, janob Riol?

— Besh oydan buyon. Bunga qadar Katta xiyo-bondagi attorlik mollari do‘konida xizmat qilardim.

— Xo‘jayiningizning ishqiy sarguzashtlari haqida nima deya olasiz?

Hisobchi qizarib ketdi. Gapirish uchun og‘iz ochdi-yu, ammo qo‘qqisdan berilgan ko‘ndalang savolga nima deb javob berishni bilmay qoldi.

— Shabyu dilini og‘ritishi mumkin bo‘lgan mijozlardan birortasining ismini aytib berolmaysizmi?

— Nega dilini og‘ritarkan?

— Aytishlaricha, u xodimlariga ham, taqdiri o‘ziga bog‘liq bo‘lgan kishilarga ham qo‘pol muomala qilarkan? Shundaymi?

— Albatta uni xushmuomala odam edi, deyolmayman. — Riol shunday dedi-yu, ammo o‘z fikrini oshkor qilib qo‘yganidan afsuslandi.

— Shabyu xonimni ham ko‘rib turarmidingiz?

— Ba‘zan ta‘minotchilarning hujjatlarini olib kelib



turardi, lekin ko'pincha pochta orqali jo'natardi. Juda sodda, muloyim ayol.

— Tashakkur, janob Riol.

Endi kamgap Lepetr qolgan edi. Uning kabineti firma xo'jayinining kabinetidan ham xarob edi. Ishlab chiqarish mutasaddisi har xil vinolarning namunalari terib qo'yilgan qora stol ortida o'tirardi. U bularga yer ostidan qarab qo'ydi.

— Nima maqsadda kelganimizni payqagan bo'lsangiz kerak, janob Lepetr?

Lepetr bosh irg'adi. Mo'ylovi battar osilib ketdi. U o'tkir tamaki solingan trubka chekib o'tirar, xonani badbo'y hid tutib ketgan edi.

— Aftidan, — deb davom etdi Megre, — kimdadir Shabyuni o'ldirish uchun jiddiy sabab bo'lgan. Ko'pdan buyon ishlarmidingiz u bilan?

— O'n uch yil bo'ldi.

— Undan xursandmidingiz?

— Shikoyat qiladigan joyim yo'q.

— Xo'jayin sizga batamom ishonarmidi?

— U faqat o'ziga ishonardi.

— Shunga qaramay, sizni eng yaqin yordamchilaridan deb bilardi. To'g'rimi?

Lepetr indamadi. Yuzidan hech narsani bilib bo'lmasdi. Kichkina telpagini boshining qoq uchiga qo'ndirib olgandi. «Tepakalini yashiryapti», degan o'y o'tdi Megrening ko'nglidan.

— Boshqa gapingiz yo'qmi?

— Yo'q.

— Balki, birortasi og'zakimi, xat orqalimi po'pisa qilgani haqida xo'jayiningiz sizga gapirgandir?

— Yo'q.

Megre suhbatni davom ettirishdan foyda yo'qligini tushunib, Lapuentga «ketdik» degan ishorani qildi.

— Rahmat, janob Lepetr.

— Arzimaydi.

Lepetr bularning ortidan eshikni yopdi.

Mashinada ketayotganlarida Megrening yana mazasi qochdi. Uni qattiq yo'tal tutdi, yo'tali anchagacha bosilmadi. Yuzi bo'g'riqib, ko'zlaridan yosh quyildi.

— Kechirasan, og‘ayni, ertalabdan buyon etim uvishib turgan edi. Opera ko‘chasiga hayda. E-e, uying nomerini so‘ramabmiz-ku!

Ammo tepasida «Monaxlar vinosi» degan kattakon yozuv yarqirab turgan hashamatli binoni ular osongina topishdi. Binoga boshqa talaygina yirik tashkilotlar, jumladan, bitta chet el banki bilan yuridik konsultatsiya mahkamasi ham joylashgandi.

Ular uchinchi qavatdagi keng, shifti baland, devorlariga rangli sopol yopishtirilgan qabulxonaga kirishdi. Xrom qoplangan stolchalar yonida mijozlar o‘tirishar, xuddi shunday antiqa kreslolarning talayginasi bo‘sh edi. Devorda aynan metro bo‘sag‘alariga o‘rnatiladigan chiroqyozuvlardan uchtasi yonib turardi. Ularning har birida vino quyilgan stakan ko‘tarib, jilmayib turgan nafs o‘pqn rohib surati aks etgan edi.

Birinchi chiroqyozuvdagi vino qizil, ikkinchisidagi oq, uchinchisidagi esa pushti rangda edi.

Qabulxonani shisha devor o‘ttizga yaqin erkag-u ayol ishlab o‘tirgan keng-mo‘l xonadan ajratib turardi. Ichkariroqda, ikkinchi to‘siq ortida ham xodimlar ko‘zga tashlanardi. Hammayoq yop-yorug‘, qayoqqa qaramang — eng so‘nggi modada ishlangan zamonaviy jihozlar.

Megre, navbatchi qizga murojaat qilish niyatida tuynukcha oldiga borgan paytida, birdan burni qichishib, ketma-ket aksa urishga tushdi. Navbatchi qiz sabr qilib turdi.

— Kechirasiz, janob Lusekni ko‘rsam bo‘ladimi?

— Marhamat, blankni to‘ldiring, — navbatchi qiz shunday deb, bir varaq qog‘oz uzatdi. Unda: «Familiyasi, ismi», sal quyiroqda esa: «Tashrifdan maqsad» degan yozuv bor edi. Megre unga ikki og‘izgina so‘z yozdi: «Komissar Megre».

Qiz ro‘paradagi eshikka kirib ketdi-yu, anchagacha g‘oyib bo‘ldi. Nihoyat chiqib, bularni boyagidan ham shinamroq, ammo o‘shanday go‘zal jihozlangan ikkinchi qabulxonaga taklif etdi.

— Janob Lusek hoziroq qabul qiladilar. Telefonda gaplashyaptilar.

Darhaqiqat, uzoq kutilmadi. Boshqa bir qiz ularni keng, serhasham kabinetga boshlab kirdi.

Past bo'lyi odam stol ortidan turib, qo'lini cho'zdi.

— Komissar Megre bo'lasizmi?

— Shunday.

— Stefan Lusek. Marhamat, o'tiringlar.

Uzun, g'adir-budir burni mayda ko'kimtir tomirchalar bilan qoplangan, quloqlari va burun parraklaridan yung chiqib turgan bosh barmoqday yo'g'on qoshlari tutashib ketgan bu odam kishida yoqimsiz taassurot qoldirardi. Kostumi ko'pdan beri dazmol ko'rmagan, galstuk siqib turgan yoqasi sun'iy matodan edi.

— Musye Shabyuning o'limi vajidan keldingizmi?

— Topdingiz.

— Politsiyadan biror odam kelib qolar, deb turgan edim o'zim ham. Tonggi gazetalarni varaqlashga ulgurmayman: ish kunim juda erta boshlanadi. Bo'lgan voqeani kecha Shabyu xonim telefonda aytdi.

— Bu idora borligidan bexabar bo'lganim uchun to'ppa-to'g'ri Sharanton sohiliga borgan edim. Bilishimcha, Oskar Shabyu ko'pincha o'sha yoqda ishlar ekan. Shundaymi?

— Ha, lekin bu yerga ham har kuni kelar edi. Hamma narsaga shaxsan o'zi ko'z-quloq bo'lib turishga odatlangandi.

Lusekning nigohi so'nik, ovozi ehtirossiz edi.

— Shubha tushishi mumkin bo'lgan birorta odamni bilasizmi?

— Yo'q.

— Aytishlaricha, Shabyu juda badavlat kishi ekan, shunday bo'lgandan keyin shafqatsiz bo'lishi ham tabiiy...

— Bundan ham bexabarman.

— Ayollarga o'chligi ham sir emas...

— Oskar Shabyuning shaxsiy hayotiga qiziqmaganman.

— Ish stoli qaysi?

— Anavi. Ro'paradagi.

— Kotibasi bilan birga kelarmidi?

— Yo'q. Bu yerdagi xodimlar yetarli.

Lusek ichidagini sirtiga chiqazmas, yuzidan biror ma'noni uqib bo'lmas edi.

— Firmaga ko'pdan buyon xizmat qilasizmi?

— Bu mahkama ochilmasdan ancha burun boshlaganman.

— Oldin nima ish qilardingiz?

— Hozirgi ishim. Kasbim — moliyachilik.

— Soliq deklaratsiyalarini to'ldirish bilan shug'ullanasizmi?

— Boshqa ishlar qatori.

— Shabyuning o'rnini siz egallaysizmi?

Megre yana aksirishga tushdi, uzoq aksirganidan peshonasidan hatto ter chiqib ketdi. Suhbatdoshidan yana kechirim so'radi.

— Uzi.

— Shoshmang. Savolingizga javob berish unchalik oson emas. Firma aksionerlar jamiyatiga emas, balki janob Shabyuga tegishli. Binobarin, u Shabyu xonimga meros bo'lib qoladi. Marhumning vasiyatiga zid bo'lmasa, albatta.

— Xonim bilan munosabatingiz yaxshimi?

— Biz bir-birimizni deyarli tanimaymiz.

— Axir siz Oskar Shabyuning o'ng qo'li bo'lgansiz-ku?

— Men mijozlarni mahsulot bilan ta'minlashga mutasaddiman. O'n besh mingdan ortiq savdo shoxobchasi butun mamlakatga sochilib ketgan. Qirq xizmatchi shu yerda ishlaydi, yigirmaga yaqin inspektor mamlakat bo'ylab aylanib yuradi. Bundan tashqari, Parij va uning tevarak-atrofidagi shoxobchalar ishini boshqarib turadigan alohida bo'lim bor. Bir qavat yuqorida joylashgan. Eksport va reklama bo'limlari ham tepada.

— Xizmatchilar orasida ayollar ko'pmi?

— Labbay?

— Xizmatchilaringiz orasida ayollar bilan qizlar ko'pmi, deyman?

— B-bilmadim...

— Xizmatchilar yollash bilan kim shug'ullanadi?

— Men.

— Oskar Shabyu bu ishga aralashmasmidi?

— Deyarli aralashmasdi.  
— Ayollardan birortasiga xushomad qilarmidi?  
— Sezmaganman.  
— Agar to'g'ri tushungan bo'lsam, hamma turdagi ta'minot bilan siz shug'ullanasiz, shundaymi?

Lusek javob berish o'rniga yerga qaradi.

— Siz lavozimingizda qolishingiz, boz ustiga, Sharanton sohilidagi mahkama rahbarligini ham o'z qo'lingizga olishingiz ehtimoldan uzoq emasdir, a?

Lusek yana miq etmadi.

— Xo'jayindan norozi bo'lib yurgan xizmatchilar ham bordir, axir?

— Eshitmaganman.

— Qotil qilmishiga yarasha jazolanishini istaysizmi?

— Albatta.

— Yordamingiz tegmayapti-ku bo'lmasa?

— Ming afsus.

— Shabyu xonim haqida fikringiz qanday?

— Boya so'radingiz buni. Yaxshi tanish emasmiz, dedim-ku. Shabyu xonim bu yerga kamdan kam kelardi, men esam Vogeplar maydoniga deyarli bormasdim. Dabdabali bazm-u ziyofatlarga borib turadigan kishilar toifasiga kirmayman.

— Shabyu o'shanaqa o'tirishlarni xush ko'rarmidi?

— Buni mendan ko'ra xotini yaxshi biladi.

— Vasiyat qoldirgan-qoldirmaganidan xabaringiz bormi?

— Yo'q.

Megre bu suhbatdan biron ma'ni chiqmasligiga ishonadi. Lusek ichidagini sirtiga chiqaradigan odamga o'xshamasdi.

Komissar boshi g'uvillayotganini sezib, o'rnidan turdi.

— Firma xizmatchilarining ro'yxatini tuzib, Orfevr sohiliga jo'nating, adreslari va yoshlari ham ko'rsatilgan bo'lsin.

Lusek unsiz bosh silkib, qo'ng'iroq tugmachasini bosdi. Haligi qiz bularni tashqariga kuzatib qo'ydi. Mashinaga o'tirishdan oldin Megre qahvaxonaga kirib, jinday rom ichdi. Lapuent meva sharbati bilan cheklandi.

— Endi qayoqqa?

— Vaqt tushga yaqinlashib qoldi. Shabyu xonimnikiga borsakmikin? Yo‘q, hozir mavridi emas. Ishga qaytamiz. «Dofin» pivoxonasida tamaddi qilvolamiz.

Megre telefon budkasidan uyiga, Rishar-Lenuar xiyoboniga qo‘ng‘iroq qildi.

— Tushlikka nima pishirding? Yo‘q, borolmayman. Ulushimni kechqurunga opqo‘y. Ha, mazam yo‘q. Aksirib yuribman. Xo‘p, hozircha.

Komissarning avzoyi buzuq edi.

— Gaplashgan odamlarimizning hammasiyam Shabyudan norozi, ko‘rgani ko‘zi yo‘q xo‘jayinini, — dedi u, — lekin bittasining toqati toq bo‘lib, unga o‘q uzgan. Jinoyatga aloqasi yo‘qlar esa o‘sha odamni topishda yordam berish o‘rniga, qaytanga bizni chalkashtiryapti. Faqat Anna-Marigina, boyagi Chigirtka, savollarimga samimiy va to‘g‘ri javob qaytardi. U haqda fikring qalay?

— Gapingiz rost. Fe‘li g‘alati bo‘lsa ham, es-hushi joyida, hayotga aql-idrok bilan qaraydigan qiz ekan.

Megrening kabinetidagi yozuv stoli ustida sud-meditcina ekspertizasining xulosasi yotardi. Bitta o‘q. Shabyuning qorniga, ikkitasi ko‘kragiga, to‘rtinchisi yelkasidan pastroqqa tekkan edi.

Megre Lyukani chaqirdi.

— Birortasi qo‘ng‘iroq qildimi?

— Yo‘q, xo‘jayin.

— Prokurorga axborotnoma jo‘natdingmi?

— Ertalab ishga keliboq jo‘natganman.

— Kamerada yotgan yigitcha o‘zini qanday tutyapti?

— Vazmin. Beparvo desa ham bo‘ladi. Qamoqda o‘tirganidan zarracha tashvish chekayotgani yo‘q. Xullas, o‘ziga ham yaxshi, boshqalarga ham.

Megre bilan Lapuent «Dofin» pivoxonasiga qarab yo‘l olishdi. Rido kiygan ikkita advokat bilan Megrening brigadasiga aloqasi bo‘lmagan bir necha inspektor ular bilan salomlashib, ovqat yeyiladigan zalga o‘tib ketishdi.

— Nima bilan siylaysiz bugun? — deb so‘radi Megre pivoxona egasidan.

— Mol go‘sh tidan tayyorlangan qaylali qovurdoq. Sizga ma‘qul bo‘ladi.

— «Monaxlar vinosi» qanaqa o'zi?

— Ilgari quyib sotiladigan vinolardan yaxshi ham emas, yomon ham emas. Janubda tayyorlanadigan vinolarning Jazoir vinosi bilan aralashmasi. Hozir odamlar shishaga quyilgan, yangicha va chiroyli nomlar bilan ataladigan vinolarni xush ko'rishadi.

— O'shanaqasidan bormi?

— UZR, yo'q. Burgund vinosidan icha qoling. Oq qayla bilan yaxshi ketadi.

Megre shoshib ro'molchasini burniga bosdi.

— Issiq xonaga kirdim deguncha burnimdan shirillab suv oqadi.

— Yota qolsangiz-chi! Tezroq tuzalaringiz, — dedi Lapuent.

— O'tib ketadi. Baribir uxlayolmayman. Shabyu xayolimdan nari ketmayapti. Bizga tashvish orttirish uchun o'zini atayin o'qqa tutib berganmi deyman-da!

— Xotini haqida nima deysiz?

— Hozircha bir narsa deyishim qiyin. Boshiga kulfat tushgan bo'lishiga qaramay, kecha seriltifot edi. Haddan tashqari. Nazarimda u erining nojo'ya ishlariga ochiqdan ochiq yo'l berib qo'ygan bo'lmasa ham, harholda, uning ishqiy sarguzashtlarini kechirib kelgan. Hozir unikiga boramiz. Ehtimol, fikrimiz o'zgarib qolar. Risoladagiday odamlarga ko'pam ishonmayman.

Qovurdoq rostdan ham lazzatli ekan, qaylasi tillarang, xushbo'y. Ular bittadan nok yeb, qahva ichishdi, soat ikkidan sal o'tganda pivoxonadan chiqib, VogeZ maydonidagi uyga qarab ketishdi. Eshikni o'sha kungi xizmatkor ayol ochib, biroz kutib turinglar, hozir so'rab ko'raman, dedi. Sal o'tmay qaytib chiqdi-da, ularni oldingiday mehmonxonaga emas, bekaning pardozxonasiga boshlab kirdi. Shu zahoti Janna Shabyu ham kirib keldi. U odmigina, lekin xushbichim qora ko'ylak kiyib olgan edi.

— O'tiringlar, janoblar. Hozirgina o'sha yoqdan keldim. Tomog'imdan ovqat o'tmayapti.

— Jasadni qachon olib kelishadi?

— Soat beshda. Undan oldin dafn byurosining xodimi kelishi kerak. Vidolashuv uchun tobutni qayerga

qo'yishni maslahatlashmoqchimiz. Shu yer ma'qulga o'xshaydi. Mehmonxona juda katta.

Derazasi poldan qariyb shiftgacha yetadigan pardoz-xona boshqa xonalar kabi yorug' va shinam edi, ammo Shabyu xonim o'z pardozxonasini boshqacha havas bilan bezagan edi.

— Mebel bilan gulli qog'ozlarni o'zingiz tanlaganmiz?

— Ha. Ustachilikka qiziqaman. Hatto bir mahallar shu kasbni o'rganmoqchi ham bo'lganman. Otam — kitobfurush. Do'koni nafis san'atlar Akademiyasi yaqinida, Jakob ko'chasida. O'sha kvartalda osori atiqalar behisob.

— Qanday qilib mashinistka bo'lib qoldingiz?

— Tezroq o'z kunimni o'zim ko'radigan bo'lishga intildim. Kechki kurslarga qatnab o'qishni orzu qilgan edim. Keyin Oskar bilan tanishdim-u...

— Tez topishib ketdinglarmi?

— O'sha tundayoq. U shunaqa edi. Ajablanmang.

— So'ng janob Shabyu o'ziga turmushga chiqishni taklif etdi?

— Men taklif etarmidim bo'lmasa! Jihozlangan xonalarda spirt chiroqda ovqat pishirish joniga tegib ketgan ekan. U paytlarda topish-tutishi haminqadar edi.

— Shuning uchun siz ishni davom ettirgansiz?

— Ikki oygina ishladim, xolos. Keyin u menga ishlashni man etdi. Shunaqa rashkchi ediki, hozir eslasam kulгим qistaydi.

— Sizga sodiq ham bo'lgan?

— Bunga shubham yo'q edi.

Megre uni kuzatarkan, o'zini noqulay sezardi. Ayol negadir ko'nglidagini ochiq aytmayapti. Shabyu xonimning bejirim yuzida biror ifoda sezilmas, go'yo kosmetolog-jarroh uning yuz terisini tarang tortib qo'yganga o'xshardi. Katta-katta moviy ko'zlari chehrasiga bokiralik baxsh etib turardi. U deyarli kiprik qoqmasdi.

— Siz so'ragan ro'yxatni tayyorlab qo'ydim, — dedi u va Lyudovik XV davriga xos stolcha ustida yotgan qog'ozni olib, Megrega uzatdi. Ayolning dastxati chiroyli, dona-dona edi. — Bu yerda faqat xotinlari erim



bilan yaqin aloqada gumon qilingan kishilarning nomlari ko'rsatilgan.

— Demak, hammasiga ishonchingiz komil emas?

— Albatta. Lekin Oskar o'tirishlarda bularning ba'zi birlari bilan shunaqangi og'iz-burun o'pishganki, ularning erim bilan don olishib yurganiga zarracha shubham yo'q.

Megre pichirlab ro'yxatni o'qiy boshladi.

— Anri Lejandr...

— Sanoatchi... Parij bilan Ruan o'rtasida qatnagani qatnagan. Mari Frans uning ikkinchi xotini. O'zidan o'n besh yosh kichik.

— Rashkchimi?

— Shunaqa bo'lsa kerak. Xotini eridan ko'ra ayyor-roq. Mezon-Lafiteda dala hovlilari bor, dam olish kunlari mehmonlarni o'sha yerda qabul qilishadi.

— Siz ham bo'lganmisiz ularnikida?

— Bir martagina, chunki qabul kunlarimiz ko'pincha bir vaqtga to'g'ri kelar edi. Yakshanba kunlari biz Syullisyyur-Luardagi hovlimizga mehmon chaqirardik, yozni bo'lsa Kannda o'tkazardik. Palm-Bich yaqinidagi yangi binoning ustki ikki qavatini sotib olganmiz. Tomini gulzor qilganmiz.

— Per Merlo... — deb davom etdi Megre.

— Dallol. Xotini Lyusil, burni uzun, malla ayol. Qirqdan oshib ketgan bo'lsa ham, o'zini nuqul qizaloq-day ko'rsatmoqchi bo'ladi. Kim biladi, Oskar shunisiga uchganmi...

— Eri bilarmidi?

— Qayoqda! U uchiga chiqqan qartaboz, mehmonga chaqirganimizda o'ziga o'xshaganlar bilan bir xonaga qamolvolib, qartadan bosh ko'tarmaydi.

— Oskar Shabyu ham qarta o'ynarmidi?

— U kishiga boshqa o'yinlar yoqardi! — dedi jilmayib Shabyu xonim.

— Jan-Lyuk Kokasson...

— San'atga doir kitoblar nashr qiladi. Rassomlarga tanasini chizdiradigan yoshgina bir qizga uylangan. Tili yomon bo'lsa ham, istarasi issiq.

— Metr Pupar? Jinoiy ishlar bo'yicha advokat emasmi?

— Pupar — gazetalarda nomi chiqib turadigan mashhur advokatlardan. Xotini amerikalik chamasi, juda badavlat ayol.

— Nahotki, u ham hech narsani sezmagan bo'lsa?

— Metr Pupar doim rayonlarda yuradi. Sen-Lui orolida ajoyib uylari bor.

— Ksave Torel? Ministrmi?

— Xuddi shundoq. Zo'r odam!

— Sizning do'stingiz bo'lsa kerak-a?

— Topdingiz. Men uni yaxshi ko'raman. Xotini Rita bo'lsa duch kelgan erkakning bo'yniga osiladigan juvon. Buni hamma biladi.

— Eri bundan xabardormi?

— Murosa qiladi-da. Gapning ochig'i, Ksave ham anoyilardan emas.

Yangi-yangi familiyalar. Yangi-yangi nomlar. Vrach. Arxitektor. Jerar Oben — bankir. Buatel — Fransisko 1 ko'chasida yashaydigan qo'li gul mashinachi.

— Ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Tanishlarimiz ko'p. Lekin men, boya aytganimday, shubha qilganlarimni yozdim, xolos.

Shabyu xonim birdan:

— Otasiga uchrashdingizlarmi? — deb so'rab qoldi.

— Ha.

— Xunuk xabarni eshitib, qay ahvolga tushdi?

— Ko'pam aziyat chekmadi. Munosabatlari yaxshi emasga o'xshaydi.

— Oskarning puli ko'paygandan keyin oralari buzildi. Erim otasiga, do'konni yig'ishtirib, o'z nomiga Sanseredan — tug'ilib-o'sgan joyidan hashamatli bir uyni sotib olishni taklif qildi. Deziire buni, mendan qutulish uchun shunday qilyapti, deb o'yladi. Shundan keyin gaplari sira qovushmadi.

— Sizning otangiz hozir nima ish qiladi?

— Haliyam kitob do'konida. Onam pastga ham tushmaydi: yuragi chatoq, arang yuradi.

Eshikni tiqillatib, oqsoch ayol kirdi.

— Dafn byurosidan kelishibdi.

— Hozir chiqaman. — Shabyu xonim Megrega o'g'irilib, davom etdi. — Meni kechirasiz. Shu kunlarda juda

band bo'laman... Agar biror yangilik chiqib qolsa yoki biror ma'lumot kerak bo'lsa, tortinmay qo'ng'iroq qilavering.

U odat bo'lib qolgan yasama tabassum hadya etdida, eshikka qarab yo'naldi.

Dahlizga chiqqanlarida dafn byurosining xodimiga duch kelishdi. U Megreni tanib, ta'zim bajo keltirdi.

Kunduzi tarqab ketgan tuman yana quyuqlashgan edi. Megre mashinaga o'tirganida, qattiq aksirdi-yu bir nimalar deb g'udrandi.

### *III b o b*

Megre xizmat yuzasidan har gal yirik burjua vakillariga duch kelganda o'zini o'ng'aysiz sezar, yuragi siqilar edi. Janna Shabyu ro'yxatga kiritganlarning hammasi aynan ana shu tor doiraga mansub kishilar bo'lib, ularning turmush tarzi ham, fe'l-atvori ham, qayg'u-yu quvonchlari ham bir xil edi. Ular har doim teatrlarda, restoranlarda, tungi qahvaxonalarda uchrashadilar. Yakshanba kunlari dala hovlilarida, yozda — Kannda yoki Sen-Tropezda hordiq chiqaradilar.

Turqi-tarovatidan xashaki odamligi ko'rinib turgan vinofurush ushbu kibor jamoa orasiga surbetlik bilan suqilib kirib oldi va bu jamoaning teng huquqli a'zosi ekanligiga o'zini inontirmoq uchun oliymaqom ayollar bilan iloji boricha ko'proq aloqa bog'lash payiga tushdi.

— Endi qayoqqa, xo'jayin?

— Fortyuni ko'chasiga.

Megre mashinada bukchayib o'tirganicha, ko'cha va xiyobonlarga parishon nazar tashlardi. Chiroqlar yoqilgan, derazalardan shu'la tushib turardi. Har qadamda archa shoxlaridan o'rilgan va turli rangdagi chiroqlar osib qo'yilgan chambaraklar diqqatni tortar, magazin rastalariga o'rnatilgan yangi yil archalari ko'zni qamashtirardi.

Havo sovuq va tuman bo'lishiga qaramay, ko'chalar bayram taraddudida yurgan odamlarga liq to'la edi. Ular magazindan magazinga o'tishar, peshtaxtalarning oldida uymalanishardi. Megre, xotinigga nima sovg'a olsa-

mikin, deb xo'p o'yladi-yu, ammo bir qarorga kelolmadi. Nuqul aksirar, tezroq issiq to'shakka kirib, o'ralib yotishni istar edi.

— Shabyu xonim ro'yxatiga tushgan janoblar chorshanba kuni kechqurun qayerda bo'lganliklarini aniqlashga urinib ko'r, og'ayni.

— Bittama-bitta so'roq qilaymi?

— Faqat boshqa iloji qolmagan taqdirdagina. Darvoqe, haydovchi va xizmatkorlari bilan ham gaplashib ko'r.

Bu topshiriqdan Lapuentning boshi ko'kka yetdi deb bo'lmasdi.

— Qotil ana shu janoblardan birortasi bo'lishi mumkin, deb o'ylaysizmi?

— Har qaysinisi bo'lishi mumkin. Oskar Shabyu ko'p odamni, ayniqsa, erkaklarning ko'ziga yomon ko'rinib qolgan... Mashinada kutib tur, men tez chiqaman.

U eshik qo'ng'irog'ini bosdi. Qadam tovushlari eshitilmasdan, darrov eshik «ko'zi»ning qopqog'i qiya ochildi. Blansh xonim komissarni istamaygina ichkariga kiritdi.

— Yana nima kerak sizga? Hali-zamon mijozim kelib qolishi mumkin. Shu tobda politsiyaning tashrifi qanchalik o'rinsizligini tushunyapsizmi?

— Manovi ro'yxatni bir o'qib ko'ring.

Keng mehmonxonani atigi bir juft chiroq arang yoritib turardi. Blansh royal ustida turgan ko'zoynagini paypaslab topib, ro'yxatga tez ko'z yugurtirib chiqdi.

— Xo'sh, nima demoqchisiz?

— Ro'yxatdagi odamlar ichida sizning mijozlaringiz ham bormi?

— Aytuvdim-ku sizga, mijozlarimning faqat ismini bilaman. Familiyalarini menga aytishmaydi.

— Sizni besh qo'limday bilaman, Blansh, siz mijozlaringizning butun sir-asroridan xabardorsiz.

— Bizga xuddi vrachlar bilan advokatlarga ishonganday ishonishadi. Nima uchun kasbimiz sirlarini saqlash huquqidan bizni mahrum qilyapsiz?

Megre uning gapini pinak buzmay eshitdi-yu, yana haligiday xotirjam ohangda so'z qotdi:

— Savolimga javob bering!

Blansh qaysarlik qilish befoydaligini angladi.

— Bitta-ikkitasi bor...

— Kimlar, masalan?

— Jerar Obe, bankir. Eski protestant oilasidan chiqqan. Moliyaning kazolaridan. Shuning uchun nomiga dog' tushishidan qo'rqib juda ehtiyot bo'lib yuradi.

— Siznikiga tez-tez kelib turadimi?

— Oyida uch marta.

— Ayol bilan birga keladimi?

— Yo'q, ayol oldinroq keladi.

— Hamma vaqt bitta ayolmi?

— Ha.

— Oskar Shabyu bilan sira to'qnash kelmaganmi?

— Shunday voqea bo'lmasligiga harakat qilardim.

— Lekin Oben Oskar Shabyuning o'zini yoki ko'chada turgan mashinasini tasodifan ko'rib qolishi mumkin-ku! Bankirning xotini ham kelib turarmidi?

— Ha, janob Shabyu bilan.

— Yana kimlar kelardi?

— Mari-Frans Lejandr, fabrikantning xotini.

— Necha marta kelgan?

— Besh marta.

— U ham Shabyu bilanmi?

— Ha. Erini tanimayman. Ehtimol bu yerga boshqa nom bilan kelib-ketib yurgandir. Ba'zilar shunday qiladi. Masalan, janob Torel, ministr. Oldinroq qo'ng'iroq qilib, yoshroq manekenchi yoki rassomlarga badanining suratini chizdiradigan qizlardan topib qo'yishni tayinlaydi. Biz uchun u shunchaki janob Lui, ammo ministr-larning suratlari gazetalarda tez-tez bosilib turadi-ku, janob Torelni tanimay bo'larkanmi!

— Chorshanba kunlari Shabyudan tashqari yana kimlar kelardi?

— Boshqalarning aniq belgilangan kuni yo'q.

— Torelning xotini ham Oskar Shabyuning o'ynashimidi?

— Ritami? U goh Shabyu bilan, gohida boshqalar bilan kelardi. O'zi kelishgan, qora soch ayol. Erkaklarsiz biror kun ham turolmaydi. Gap shahvatparastligida ham

emas, shunchaki erkaklarning xushomadini yoqtiradigan ayol.

— Tashakkur, Blansh.

— Mendan soʻraydigan gapingiz tugagandir, deb oʻylayman.

— Bir narsa deyishim qiyin.

— Agar yana keladigan boʻlsangiz, oldinroq qoʻngʻiroq qilib qoʻying, iltimos. Mijozlarimning sizga roʻpara boʻlmasligi uchun biror chora topib qoʻyaman. Reportyorlarga meni sotmaganingiz uchun rahmat.

Blansh xonim bilan suhbatdan Megre biron-bir zarur maʼlumot ololmadi. Tergovga foydasi tegadigan joʻyali gap boʻlmadi. Eng muhimi — kalavaning uchi topilmayotgan edi. Yana ilgariqday hamma yoʻnalishda ish olib borishga toʻgʻri keladi...

— Endi qayoqqa?

— Uyga.

Megrening isitmasi chiqa boshlagan edi. Koʻzlari achishib, chap kuragining osti sanchib ogʻrirdi.

— Xayr, ogʻayni. Roʻyxat yoningdami? Endi Orfevr sohiliga borib, roʻyxatdan fotonusxa koʻchirtir. Asl nusxasini egasiga qaytarib berish kerak.

Megre xonim erining barvaqt qaytganidan taajjublandi.

— Ha, tobing qochdimi?

Megrening yuzi jiqqa ter edi.

— Grippga oʻxshaydi. Juda bemavrid boʻldi-da!

— Yana chalkash ishmi?

Tergovni eri olib borayotganini bu gal ham u odatdagiday faqat radio va gazetalar orqali bilgandi.

— Shoshmay tur. Qoʻngʻiroq qilvolay.

U Fortyuni koʻchasidagi ishratxonaning nomerini terdi. Blansh xonim komissarning ovozini dabdurustdan tanimagani uchun avvaliga suzilib javob qaytardi.

— Yana men, Megreman. Bir narsani soʻrash esimdand chiqibdi. Oʻsha chorshanba kuni Shabyu kelishidan oldin sizga qoʻngʻiroq qilganmidi?

— Nega qoʻngʻiroq qiladi? U birorta chorshanbani kanda qilmasdi.

— Kim bilardi buni?

— Mening uyimda — hech kim.

— Xizmatkordan boshqa, shundaymi?

— U ispan, fransuzchani yaxshi bilmaydi, familiyalarni esa umuman eslab qololmaydi.

— Lekin kimdir Shabyu siznikidan qaysi kunlari va soat nechchida chiqib ketishini aniq bilgan. Qattiq sovuq bo'lishiga qaramay, aynan chorshanba kuni soat kechki to'qqizlarga yaqin uni uyingiz oldida kutib turishgan.

— Kechirasiz, janob komissar, trubkani qo'yishga majburman: eshikni birov jiringlatyapti.

Megre yechinib, pijamasini kiydi-da, charm kresloga cho'kdi.

— Ko'ylaging jiqqa ho'l bo'lib ketibdi. Isitmangni o'lchagin-chi?

Megre xonim vannaxonadan termometrni keltirib berdi, komissar besh minut uni og'ziga solib turdi.

— Nechchi?

— O'ttiz sakkiz-u to'rt.

— Darrov yotishing kerak. Hozir Pardonga qo'ng'iroq qilaman.

— Arzimagan narsaga bezovta qilaveradimi!

Megre vrachlarga yo'liqishni, ayniqsa, Pardonga murojaat qilishni xush ko'rmasdi, chunki eski do'sti hatto ovqatini ham bahuzur yeyolmasligini u yaxshi bilardi.

— O'rin solib beraman.

— Shoshma. Dimlangan karamdan olib qo'ymoqchi eding-ku?

— Hozir yemaysan-ku!

— Nega endi?

— Kechasiga og'irlik qiladi, buning ustiga, sog'emassan.

— Hechqisi yo'q, isitaver. Ozgina cho'chqa go'shtidan ham qo'shvor.

U nuqul o'z taxmini haqida o'ylardi. Kimdir Shabyuning Fortyuni ko'chasida chorshanba kuni kechqurun bo'lishini bilgan. Vinofurushni kunbo'yi kuzatib yurgan bo'lishlari dargumon. Parijning olag'ovurida bunday qilish osonmas. Qolaversa, yayov odam mashinada yuradigan Shabyuning iziga tusholmaydi.

Boringki, Shabyu bilan Chigirtka Blanshnikiga kechqurun soat yettida kelishgan, deydik. Lekin qotil qariyb ikki soat izg'irinda ularning chiqishini poylab turishi va birovning nazariga tushmasdan qolishi mumkin emas.

U mashinada kelmagan. Aks holda, o'q uzganidan keyin «Malzerb» metrosiga qarab yugurmagan bo'lardi.

Megrening miyasida har xil fikrlar betartib charx urardi. U harchand urinmasin, xayolini bir yerga jamlab ololmay qiynalardi.

— Nima ichasan?

— Pivo-da, albatta. Nordon karam bilan faqat pivo ketadi.

U ishtahasiga ortiqcha ishonvorgan ekan. Tomog'idan ovqat o'tmay, tovoqni chetga surib qo'ydi. Olti yarimda uxlashga ham o'rganmagan edi, lekin yotishga majbur bo'ldi. Xotini ikkita aspirin olib kelib berdi.

— Yana qanaqa dori ichsang bo'larkin-a? Oxirgi marta, uch yil burun, Pardon bir dori yozib beruvdi, yaxshi foyda qilgan edi o'shanda.

— Esimda yo'q.

— Rostdan qo'ng'iroq qilishimni xohlamayapsanmi unga?

— Keragi yo'q. Pardani yopib, chiroqni o'chir.

O'n minutilardan so'ng Megre jiqqa terga botdi, o'y-xayollari ham tarqala boshladi. Ko'p o'tmay, uyquga ketdi.

Tun juda cho'zilib ketdi. Behalovat bo'lib, bir necha marta uyg'ondi. Keyin yana ko'zi ilindi. Xotining ovozini eshitmadi — yo unga shunday tuyuldimi? Bir mahal tepasiga kelib qolganini ko'rdi. Xotini toza pijama ushlab turardi.

— Suv bo'lib ketibsan. Kiyimingni almashtirish kerak. Birpasga kresloga o'tib tur, o'rningni yangilab beraman.

Megre xotining aytganini qildi. Ko'zlari qum sep-ganday achishardi. U yana o'ringa cho'zildi-yu, tush ko'ra boshladi. Tushida Blansh xonimning mehmon-xonasiga o'xshagan, lekin undan bir necha marotaba



katta cherkovda yurganmish. Yo‘lakdan juft-juft bo‘lib birin-ketin erkag-u ayollar kirib kelayotganmish. Kimdir royal chalayotganmish-u, lekin ohang organnikiga o‘xsharmish. Megre bu yerga muhim bir topshiriqni bajarish uchun kelganini anglab turarmish-u, biroq qanday topshiriqligini eslay olasmish. Oskar Shabyu unga mazxaraomuz qarab-qarab qo‘yarmish, oldidan odatlar o‘tayotganda ayollarning nomini aytib salomlasharmish.

Megre ko‘zini ochdi-yu, tong otganini ko‘rib, yengil tortdi. Xona g‘ira-shira yorishgan, oshxonadan qaynoq qahvaning hidi kelardi.

— Uyg‘ondingmi?

Megre endi terlamayotgandi. O‘zini horg‘in sezsa ham, kechagi lohaslik yo‘q edi.

— Qahvani opkemaysanmi?

Komissarning nazarida, ko‘pdan buyon bu qadar laz-zatli qahva ichmagandi. U shoshmasdan idishni bo‘shatdi.

— Trubka bilan tamakini opke, iltimos. Havo qalay bugun?

— Sal tuman bo‘pturipti, lekin kechagidaqa emas. Hademay oftob chiqib ketsa kerak.

Bolaligida, ahyon-ahyonda bo‘lsa ham, aynan darsni tuzuk o‘zlashtirolmagan paytida o‘zini yomon his qilardi. Hozir ham shunday bo‘lmadimikin? Yo‘q, kecha rostdan ham isitmasi bor edi.

Megre xonim eriga trubkadan oldin termometrni uzatdi. Komissar uni indamay og‘ziga soldi.

— Isitmam yo‘q: o‘ttiz olti-yu besh.

— Terlaganing yaxshi bo‘ldi.

Megre trubka tutatib, yana bir chashka qahvani bo‘shatdi.

— Balki biror kun uyda bo‘larsan?

Komissar hadeganda javob bermadi. U ikkilanayotgandi. Boshning og‘rig‘i tarqalganidan keyin iliqqina to‘shakda cho‘zilib yotish naqadar rohat!

Lapuent uning topshirig‘iga ko‘ra Shabyu xonimning ro‘yxatiga tushgan odamlarni tekshiryapti, lekin tergov oldinga siljigani yo‘q, bunga uning o‘zi, ya‘ni Megre aybdor. Bekorga xunob bo‘layotgani yo‘q. Jumboq shun-

doq yonginasida-ku, axir. Kallani tuzukroq ishlatsa, hamma narsa oydinlashishi mumkin.

— Gazetalarda nima gap?

— Sening jinoyatchining iziga tushganing haqida yozishyapti.

— Men ularga buning aksini aytganman.

Megre soat o'nga qadar to'yib qahva ichdi. Xona ko'kimtir tamaki hidiga to'ldi.

— Nima qilmoqchisan?

— Turaman.

— Ishga borasanmi?

— Ha.

Megre xonim qarshilik ko'rsatish foydasizligini bilgani uchun indamay qo'ya qoldi.

— Qo'ng'iroq qilib birortasini chaqiraymi? Kelib olib ketishsinmi?

— Yaxshi fikr! Lekin Lapuent hozir joyida yo'q. So'ra-chi, Janve bo'shmikin? Yo'q, xayolimdan ko'tarilibdi: u ham topshiriq bilan yuribdi. Hoynahoy Lyuka bo'shdir-ov.

O'rnidan turgan edi, o'zini yotgan paytidagidan ko'ra ham yomon his qildi. Boshi aylanmoqda edi. Ustara tutgan qo'li xiyol titrab, yuzini andak kesib ham oldi.

— Tushlikka kelasanmi? Butunlay yotib qolsang nima bo'ladi?

Megre xonim haq edi, lekin komissar aytganidan qaytmadi. Xotini uning bo'yniga qalin sharf o'rab, zinagacha kuzatib qo'ydi. Yo'lak oldida uni mashina kutib turardi.

— Salom, Lyuka. Boshliqlar so'ramadimi meni?

— Kecha betobroq edi, deb aytib qo'yanman.

— Nima yangiliklar?

— Lapuent kechqurun ro'yxatni ko'tarvolib, shaharni izg'idi, ertalab yana chiqib ketdi. Qayoqqa olib boray?

— Sharanton sohiliga.

Megre tanish zinapoyadan ikkinchi qavatga ko'tarildi. Bu yerga birinchi marta kelgan Lyuka uning izidan yurdi. Komissar Shabyu kabinetining eshigini avval taqillatdi, so'ng ochdi. Anna-Mari o'sha burchakda, mashinkada bir narsani yozib o'tirardi.

— Yana keldim. Bu kishi eng eski xodimlarimdan, Lyuka.

— Charchagan ko‘rinasiz.

— Ehtimol... Sizga yana bir nechta muhim savollarim bor. — Megre Shabyuning joyiga borib o‘tirdi. — Ayting-chi, Oskar Shabyuning chorshanba kunlari siz bilan Fortyuni ko‘chasiga borishini kim bilardi?

— Bu yerdagilardanmi yoki umumanmi?

— Shu yerda ishlaydiganlardan.

— Hamma bilardi. Oskar o‘zini ko‘z-ko‘z qilishni yaxshi ko‘rardi. Har gal o‘ynash orttirganida kattayu kichik darrov bundan xabardor bo‘lardi.

— Sizlar birga chiqib ketarmidinglar?

— Ha, birgalashib uning mashinasiga o‘tirardik, mashina ham ko‘zga tashlanadigan, hashamatli mashina edi.

— Har chorshanba shunday bo‘larmidi?

— Ba‘zi kunlarni istisno qilmaganda.

— Lusek buni bilarmidi?

— Bir narsa deyishim qiyin. U bu yerga kam kelardi. Lekin xo‘jayin har kuni bir-ikki soat vaqtini Opera ko‘chasida o‘tkazardi.

— Kundalik ish tartibini aniqroq aytib berolmaysizmi?

— Aniq ish tartibi yo‘q edi. Lekin uyidan ertalab soat to‘qqizda «Yaguar» mashinasining ruliga o‘zi o‘tirib, chiqib ketardi. «Mercedes» bilan shoferni xotining ixtiyoriga qoldirardi. Xo‘jayin avval vinolar tatib ko‘rilib, shishalarga quyiladigan sexga borardi. Sex Bersi sohilida.

— U yerdagi ishni kim boshqaradi?

— Janob Lepetr. U bu yerda ham, u yerda ham mutasaddi. Lekin omborxonalarda yordamchisi bor. O‘zi setlik bo‘lsa kerak.

— Bu yerga ham kelib turadimi?

— Ahyon-ahyonda.

— Shabyu bilan munosabatingizni biladimi?

— Bilsa kerak.

— Sizga sira xushomad qilmaganmi?

— Nazarimda, u mening bor-yo‘qligimni ham sezmasdi.

— Davom eting.

— Ertalab soat o'nda xo'jayin bu yerga kelardi. Keliboq, xat-xabarlarini ko'zdan kechirardi. Men unga ish yuzasidan kimlar bilan uchrashuv tayin qilinganini eslatardim. Keyin u ta'minotchilarni qabul qilardi.

— Yolg'iz qolganinglarda o'zini qanday tutardi?

— Har xil. Ba'zan borligimni ham sezmasdi. Ba'zan esa eshik qulflanmaganini ham o'ylab o'tirmay, «Bu yoqqa kel», deb yoniga chaqirib qolardi.

— Shunaqa paytlarda birov kirib qolmaganmi?

— Shunaqasi ham bo'lgan. Ikki marta — mashinistkalar, bir marta — Lepetr. Qizlar parvo qilishgani yo'q; chunki ular ham shu narsani boshdan kechirishgan.

— Soat nechchida chiqib ketardi?

— Uyda ovqatlanadigan bo'lsa tushda, restoranga kiradigan bo'lsa — o'n ikki yarimda. Lekin ko'proq restoranga borardi.

— Siz qayerda ovqatlanasiz?

— Bu yerdan sal narida, sohilda kichkina restoran bor. Ovqati yomon emas.

— Shabyuga qaytamiz. Shundan keyin u nima qilardi?

Soddadil Lyuka suhbatga taajjublanib quloq solar, Anna-Marini boshdan oyoq kuzatib, bu ishga uning qanday aloqasi borligini anglashga tirishardi.

— Keyin soat to'rtga qadar Opera ko'chasida ishlardi. Lusek bilan kabinetlari bitta.

— U yerda ham Shabyu haligidaqa ishlar bilan shug'ullanarmidi?

— Qaydam-ov. U yerdagi muhit butunlay boshqacha. Ehtimol, Lusekdan uyalsa kerak. Undan hatto qo'rqardi ham. Yo'q, qo'rqardi, desam sal lof bo'lar-u, harholda, boshqalarga qilganiday muomala qilmas edi, hech qachon ovozi ko'tarib gapirgan emas unga.

— Bu yoqqa qachon qaytib kelardi?

— To'rt yarimlarga yaqin. So'ng musye Lepetrga biroz vaqt ajratardi, ba'zan barjalardan yuk tushirilishini kuzatardi. Keyin mashinistkani chaqirib, aytib turib xat yozdirardi.

— Nima uchun sizga yozdirmasdi?

— Men asosan shaxsiy maktublarni yozardim.

— Qachon ishni tugatardi?

— Soat otilarda, men bilan yoki qizlardan birortasi bilan ushlanib qolmagan taqdirda.

— Butun oqshomni u bilan birga o'tkazgan paytlaringiz bo'lganmi?

— Faqat, chorshanba kunlari, shunda ham faqat soat o'nga qadar.

— Siz Blanshnikidan hammavaqt undan keyin chiqib ketarmidingiz?

— Yo'q, ba'zan birga chiqardik. Shabyu meni Kolenkur ko'chasiga olib kelib, uyimdan yuz metrlar beriroqda mashinadan tushirardi. Lekin o'sha chorshanba kuni qayoqqadir shoshib turuvdi, shuning uchun meni kutmaslikni iltimos qildim.

— Fortyuni ko'chasida uchrashib turishinglarni yana kim bilishini aniqlamasak bo'lmaydi. Iltimos, yaxshilab eslab ko'ring.

Komissar dastro'moli bilan burnini artib, boshiga shlyapasini qo'ndirdi. Megre xonim to'g'ri aytgan ekan: o'tob charaqlab, Sena sathida jilva qilib turardi.

— Ketdik, Lyuka. Rahmat, mademuazel.

Ular Jinoyat qidiruv politsiyasi binosining darvozasi tomon burilgan paytlarida, Megrening nigohi sohil panjarasi yonida turgan odamning ko'zlari bilan to'qnashdi. Bu hol bir lahza ichida yuz berdi. Komissar o'z xayollari bilan band edi, notanish kishi esa oyoqlarini sudragan-cha Dofin maydoni tomonga qarab ketdi. Megre darhol hushyor tortib:

— Payqadingmi? — deb so'radi Lyukadan.

— Kimni?

— Eski yomg'irpo'sh kiygan odamni. U bizning dera-zamizga tikilib turgan ekan, yaqinlashganimizda menga sinchkovlik bilan razm soldi. Imonim komilki, u meni tanidi.

— Birorta daydidir-da?

— Unaqaga o'xshamaydi. Ko'rinishi binoyidek, soqollari qirilgan. Kuzgi plash ham unga og'irlik qilmayapti chamasi.

Kabinetga kirganidan keyin ham komissar o'sha

odam haqida o'ylab, beixtiyor deraza yoniga bordi. Notanish kishi g'oyib bo'lgan edi.

Nima uchun bu odam Megrening diqqatini bunchalik tortib qoldi? Ehtimol, hayajon balqib turgan ko'zlari unga ta'sir qilgandir? Bu nigoh uning o'ziga, ya'ni Megrega qaratilgan chorlov emasmikin?

Komissar hayron bo'lib, yelkasini qisdi, go'yo mubham xayollardan qutulmoqchi bo'lganday, stoli yoniga o'tirib, trubkasini to'ldirdi. Birdan peshonasi yana ter bilan qoplanganini sezdi. Yana ro'molchani ishga solishga to'g'ri keldi.

Xotiniga, tushlikka kelaman, deb va'da beruvdi, lekin nima ovqat qilishini so'ramagan ekan. U tanovul qilajak taomini oldindan bilib qo'yishni va shunday huzurlanib yurishni xush ko'rardi.

Telefon jiringlab qoldi.

— Janob komissar, bir odam sizni so'rayapti. Otini ham, nima masalada gaplashmoqchi ekanligini ham aytmayapti. Ulayveraymi?

— Ha. Allo?

— Komissar Megremisiz? — Trubkadan bo'g'iqroq ovoz eshitildi.

— Ha.

— Sizga faqat bir narsani aytib qo'ymoqchiman: vinofurush tashvish chekishga arziydigan inson emas edi. U borib turgan palid odam edi.

— Siz uni yaxshi tanirmidingiz?

Lekin notanish kimsa trubkani qo'yib qo'ydi. Megre ham trubkani qo'ydi-yu, apparatga o'ychan tikilib qoldi. Oskar Shabyu o'limidan beri o'zi zo'r berib qidirayotgan narsa, ya'ni tayanch nuqta ehtimol shudir?

Bu qo'ng'iroq masalaga biror ravshanlik kiritgani yo'q, albatta. Lekin bu kimsa o'zi qotil bo'lmagan taqdirda ham jinoyatga bevosita aloqador kishi bo'lmog'i ehtimoldan uzoq emas. Yashirinib yurish joniga tekkan odamlar toifasidan emasmikin? Bundaylar vaqti kelib o'zlari xat yozishadi yoki qo'ng'iroq qilishadi. Ularning hammasini ham esini yegan kishilar deb bo'lmaydi.

Komissar bunday nusxalarga ko'p duch kelgan, ular jinoyat qilishadi-yu, keyin azob chekib yurishadi, to

o'zlarini odil sud hukmiga topshirmaganlaricha ko'ngillari joyiga tushmaydi.

Megrening boshi og'rib turgan bo'lsa ham kelgan xat-xabarlarni o'qib chiqdi, raportlarga imzo chekdi, xizmatga doir yana ancha-muncha qog'ozlarni ko'zdan kechirdi. Bu mashg'ulot qariyb operativ ishga ketguday vaqtni oldi.

Tushga yaqin Megre ko'chaga chiqdi. Dyu Pale xiyobonida biroz ikkilanib turdi-yu, so'ng qahvaxonaga qarab burildi. Og'zi quruqshab ketgan edi. Peshtaxta oldida, tomoqni nima bilan ho'llasamikin, deb ancha o'ylanib turdi. Uch-to'rt kun oldin rom ma'qul bo'lgani-ni eslab, bufetchiga rom shishasini imlab ko'rsatdi. Bir ryumkasi kamroq tuyulib, yana quyishni so'radi.

Uyiga taksida keldi, bitta-bitta bosib, zinapoyadan yuqoriga ko'tarildi. Megre xonim eshikni ochdi-yu, shosha-pisha eridan hol so'radi:

— Qalay, haliyam mazang yo'qmi?

— Ancha tuzukman. Lekin ikki marta qattiq ter bosdi.

Megre yechinib, xonaga kirdi.

— Xo'sh, nima bilan siylamoqchisan?

— Buzoq jigaridan qovurganman.

Ayni muddao — u xush ko'radigan taom. Megre kresloda o'tirib, gazetalarni xomush varaqlarkan, nuqul notanish kimsaning boya telefonda aytgan gaplari xususida o'ylardi.

Kim bo'ldiykin u? Jinoyat qidiruv politsiyasi darvozasining yonida turgan odam qo'ng'iroq qilmadimikan? Yana qo'ng'iroq qilar hoynahoy. To'ppa-to'g'ri uyga qo'ng'iroq qilishi ham mumkin: komissar-ning adresi bilan telefon nomerini gazetarlar e'lon qilib turishadi. Taksi haydovchilarining qariyb hammasi buni yoddan biladi.

— Namuncha xayol surib qolding? — deb so'radi stol tuzayotgan Megre xonim.

— Boya politsiya yonida ko'zim tushgan bir odam haqida o'ylayapman. Menga juda g'alati qarash qildi. Xuddi bir narsa demoqchi bo'lganday tuyuldi nazarimda.

— Ko‘z qarashidan sezdingmi buni?

— Albatta. Saldan keyin qo‘ng‘iroq qilib, Shabyu — palid odam, u tashvish chekishga arzimaydi, degan kimsa o‘sha emasmikin? Xuddi shundoq dedi-yu, og‘iz ochishga ulgurmasimdan trubkani qo‘yib qo‘ydi.

— Yana qo‘ng‘iroq qiladi deb o‘ylayapsanmi?

— Qilishi mumkin. Ularning odati shunaqa. O‘t bilan o‘ynashishni yaxshi ko‘rishadi. Darvoqe, u gazetalarda bosilgan xabardan boshqa narsani bilmaydigan bironta tentak bo‘lishi ham mumkin. Tag‘in kim biladi.

— Televizorni yoqaymi?

Deyarli gaplashmay ovqatlanishdi. Megre o‘z xayollari bilan band edi.

— To‘ygan bo‘lsang, olib qo‘yaman, ertaga gazak qilasan.

Ma‘qul gap, jigar bo‘lsa ertaga ham yeyaveradi. Megre ikki stakangina bordo ichdi-yu, kayf qildi, ko‘zlarini yumishi bilan pinakka ketdi. Xayolida havoda suzib yurganday edi, bu holat o‘ziga shu qadar orombaxsh tuyuldiki, ko‘zlarini ochgisi kelmasdi.

Tushida oqsoqlanib borayotgan odamni ko‘rdi. Ajabo, o‘ng oyog‘i oqsaydimi yoki chapimi? Tush ekan-da, shu ham alohida ahamiyat kasb etgandi, ammo komissar buning sababini sira tushunolmasdi.

Megre xonim ohista stolni yig‘ishtirardi. Har gal yonidan o‘tganida komissarning yuziga yengil epkin urilardi. Bora-bora hammayoqqa sukunat cho‘kdi, Megre asta xurрак ota boshladi.

Birdan u cho‘chib uyg‘ondi-yu, hamon kresloda o‘tirganini ko‘rib, hayron bo‘ldi. Holbuki soat endigina uchdan besh minut o‘tgan edi. Megre nigohi bilan xotinini qidirdi, oshxonadan kelayotgan g‘alati tovushni eshitib, uning dazmol bosayotganini angladi. Sal o‘tmay Megre xonim chiqdi.

— Kalla pishdimi?

— Maza qildim. O‘zimga qolsa kunbo‘yi uxlagan bo‘lardim.

— Haroratingni o‘lchamaysanmi?

— Agar sen qistasang, nima ham derdim.

— Ishga borishing shartmi?



— Ha. Yayov borgim yo‘q.

— Taksi chaqirib beraman. Oldin manovini ichvol.

Megre indamay tabletkani yutdi, og‘zidagi taxir mazani ketkizish uchun bir ryumka olxo‘ri sharbatidan ichdi, — uni Megre xonimning singlisi Elzasdan yuborgan edi.

Osmon tiniq, oftob charaqlab turgan bo‘lsa ham havo sovuq edi.

— Pechkani yoqaymi, xo‘jayin? Shamollagan ko‘rinasiz. Mening uyimdagilarning ham hammasi kasal — xotinim ham, bolalarim ham birin-ketin yotib qolishdi. Erta-indin o‘zimga navbat kelsa kerak.

— Qo‘ying, yoqmang. Busiz ham terga botib o‘tiribman.

— Iye, siz ham-a? Ertalabdan buyon meni ham ikki-uch marta ter bosdi.

Shuncha yildan beri o‘zi chiqib-tushib yurgan zinapoya Megrega hozir yana ham tikroq bo‘lib qolgan-day tuyuldi; binobarin, kabinetiga kirib olganidan keyin, ancha yengil tin oldi.

— Nima yangilik, Lyuka?

— Yangilik yo‘q, xo‘jayin.

— Hech kim qo‘ng‘iroq qilmadimi?

— Yo‘q. Lapuent qaytib keldi, sizni kutyapti.

— Chaqir.

Megre stol ustida yotgan trubkalardan eng yengilini tanlab, shoshmasdan tamaki to‘ldirdi.

— Xo‘sh, birodar, material to‘pladingmi?

— Deyarli hammaga, xo‘jayin. Omadim keldi.

— O‘tir, ro‘yxatni ko‘rsat-chi.

— Mana ro‘yxat, lekin yozuvimni o‘qiy olmaysiz, yaxshisi o‘zim o‘qib beraqolay, keyin yozma raport topshiraman. Ksave Toreldan, ministrdan boshlayman. Bu masalada hech kimni so‘roq qilishga to‘g‘ri kelmadi. Payshanba kungi tonggi gazetalarni varaqlab, chorshanba kuni Qarshilik ko‘rsatish harakatiga bag‘ishlangan yangi film premyerasida hukumat nomidan Ksave Torel qatnashganini bilib oldim.

— Xotini bilanmi?

— Xotini va o‘n sakkiz yashar o‘g‘li bilan.



— Davom et.

— Garchi gazetalarda yozishmagan bo'lsa ham o'sha kinoko'rsatuvda oliymaqom kimsalardan yana ba'zi bir-lari qatnashgan bo'lishi mumkin, degan taxminga bor-dim. Xuddi shunday bo'lib chiqdi. Doktor Riu ham o'sha yerda ekan. U ham Vogeplar maydonida, Shabyular xonadonidan ikki uy narida turadi.

— Uning kinoga borganini qayerdan bilding?

— Eshikboni aytdi... Bu kerakli narsani bilib olish-ning eski, lekin hozircha eng maqbul usullaridan, albat-ta. Darvoqe, aynan shu doktor Riu — Shabyu xonim-ning shaxsiy vrachi.

— Shabyu xonim tez-tez kasal bo'lib turadimi?

— Harqalay, doktorni tez-tez chaqirib turadi. Men doktorni ham, xotini ham ko'rdim. Doktor — semiz bir janob. Timqora sochlari hafsala bilan tepakalining ustiga taralgan. Xotini barvasta, malla ayol. Oskar Shabyuni mahliyo etishiga ishonmayman.

— Xo'p, ikkalasini qo'ya turamiz. Keyingisi.

— Anri Lejandr, sanoatchi, o'sha kuni Ruaneda ekan. U yerda shinamgina kvartirasi bor, haftasiga ikki martadan borib turadi. Meni gumashta deb o'ylab, shoferi gapirib berdi.

— Xotini-chi?

— Bir haftadan beri kasal, shamollagan...

— Barja dalloli Per Maryu to'g'risida ko'p narsa bilolmadim: u uyida ovqatlanmagan. Ko'pincha shun-day qilarkan. Aytishlaricha, ovqatni tanlab yerkan. Katta restoranlarni aylanib chiqishga hali ulgurganim yo'q.

— San'at asarlari noshiri Kokasson-chi, u qayerda ekan?

— U ham kinoteatrda bo'lgan.

— Advokat Pupar-chi?

— Gabriel ko'chasiga, Qo'shma Shtatlar elchisi uyushtirgan ziyofatga borgan.

— Xotini bilanmi?

— Ha. Endi Japi xonim, Estella Japi xonim to'g'risi-da. U beva yoki eridan ajragan. Osmon xiyobonida yashaydi. Uzoq vaqt Shabyuning o'ynashi bo'lgan,

so'nggi oylarda ular uchrashmay qo'yishgan. Xizmatkorini gapga solib ko'rdim, uning aytishicha, Shabyu Japi xonimni xafa qilganmish. Chorshanba kuni u uyida tamaddi qilgan, so'ng televizor ko'rgan.

Telefon jiringlab, bularning suhbatini bo'ldi. Trubkani Megre ko'tardi.

— Shaxsan sizni so'rashyapti, janob komissar. Ertalab qo'ng'iroq qilgan kishining ovozigga o'xshaydi.

— Ulang.

— Trubkadan ancha vaqt birovning entikib nafas olayotgani eshitildi. Nihoyat:

— O'zingizmisiz? — dedi kimdir titroq ovoz bilan.

— Ha.

— Yana bir eslatib qo'ymoqchiman, Shabyu ablah odam edi. O'ylab ish qiling.

— Bir minutga...

Ammo notanish odam yana trubkani qo'yib qo'ydi.

— Bu odam yo qotil, yoki qaltis hazil qilyapti. Shosha-pisha gapiradi-yu, trubkani qo'yib qo'yadi. So'rab-surishtirishga ham imkon bermaydi... Qanday qilib uchrashsamikin? Miriqib bir suhbatlashganimda tilidan tutilarmidi?

— Nima dedi u?

— O'sha gap-da: Shabyu ablah odam edi, deydi.

Darvoqe, Shabyu to'g'risida faqat ugina shunday fikrda emas edi. Ko'pchilik, jumladan, Shabyu xonimning kunda-shunda mehmonlari ham Oskarni yomon ko'rishardi. U o'z raqiblari, xizmatchilari va o'ynashlarida o'ziga nisbatan nafrat uyg'otish uchun qo'lidan kelgan hamma ishni qilgan edi.

Shabyu ataylab ularning jig'iga tekkanday tuyulardi. Ammo o'tgan chorshanbaga qadar, aftidan hech kim uning mushugini pisht demagan. Nahotki manmanlik qilgan paytlarida ham hech kim uning yuziga tarsaki tortib yubormagan? Nahotki, birorta odam rashk qilib uni do'pposlamagan bo'lsa?

Yo'q, u hammavaqt o'zini surbetlarcha tutgan, o'z kuchiga ishongan va shu tariqa qismatini o'qqa ro'baro' qilgan.

Kunlardan bir kun, Blansh xonimning gapiga qara-

ganda, bir odamning toqati toq bo'lgan va Fortyni ko'chasidagi ishratxona eshigi yonida Shabyuni poylab turgan. Vinofurushni o'ldirish uchun bu odamning, aftidan, jiddiy vajlari bo'lgan, negaki u o'z erkini, ehtimol hayotini o'rtaga qo'yib shu ishga qo'l urgan.

Xo'sh, qotil kim? Shabyuning tanishlaridanmi yoki begona odammi? Lapuent to'plagan ma'lumotlardan biron xulosa chiqarish qiyin. Hozir oilaga xiyonat qilgani uchun o'ldirish rasm emas, ayniqsa, ma'lum tabaqa orasida.

Jinoyatchi Sharanton sohilidagi mahkama yoki uning Opera ko'chasidagi filiali xodimlaridanmasmikini? Yoki komissarga ikki marta qo'ng'iroq qilgan odamning o'zi bo'lsa-chi? Ehtimol, aybiga iqror bo'lib, davrdini yangillashtirmoqchidir?

— Yana kimlar?

— Filipp Borderel, teatr tanqidchisi. O'ynashi bilan Mishoder teatridagi so'nggi repetitsiyaga borgan. Oxirgisi — arxitektor Truar. Chorshanba kuni mashhur bir quruvchi bilan Lippnikida ovqatlangan.

Bu ro'yxatga kirmay qolgan, lekin vinofurushga tish qayrab yurgan yana qancha odam borikin? O'nlab erkag-u ayollarni yuzma-yuz suhbatlashish uchun chaqirishga to'g'ri kelishi ham mumkin.

— Dafn qachonga tayin etilgan? — deb so'radi Lapuent.

— Bilmadim. Shabyu xonimning oldidan chiqib ketayotganida u dafn byurosining xodimini kutayotgan edi. Jasadni kecha kechqurun olib kelishmoqchi ekan. Borib kelmaymizmi?

Bir necha minutdan so'ng ular Vozelzar maydoniga qarab jo'nashdi. Ikkinchi qavatning eshigi lang ochiq edi, ostonadayoq dimoqlariga sham bilan xrizantemaning qorishiq hidi urildi.

Oskar Shabyuni tobutga yotqizib qo'yishgan, yuzi ochiq edi. Tobut yoniga qora kiyingan keksa bir ayol tiz cho'kkan, sal nariroqda, sham shu'lasi yuzini g'ira-shira yoritib turgan marhumning oyoq tomonida yoshgina yigit bilan qiz tik turishardi.

Keksa ayol kim bo'ldi? Shabyu xonimning

onasimikin? Manovi ikki yosh bu yerga sira yarashmay turibdi. Darhaqiqat, ular tezgina cho‘qinishdi-da, oldinma-ketin chiqib ketishdi.

Megre, taomilga ko‘ra, shamshod shoxchasini muqaddas suv solingan idishga tashladi-da, marhumni xoch bilan cho‘qintirgan bo‘ldi, Lapuent ham jiddiy, lekin biroz kulgili qiyofada uning harakatlarini takrorladi.

Oskar Shabyuning dag‘al yuzi hatto o‘lganida ham kishida g‘alati taassurot qoldirardi — unda beqiyos kuchiroda va allaqanday joziba mujassam edi.

Yo‘lakda Shabyu xonimga duch kelib qolishdi.

— Menda ishinglar bormidi?

— Yo‘q, marhum bilan vidolashgani keluvdik.

— Xuddi tirik yotganga o‘xshaydi, gapim to‘g‘rimi? Murdani yorishganidan keyin rosa qiynaldik. Oskar sira o‘zgarmagan, faqat ko‘zlari yumuq, xolos.

Ayol beixtiyor ular bilan eshikkacha bordi, ostonaga yetganlarida, Megre:

— Kechirasiz, xonim, sizga yana bitta savol bermoqchiman... — deb qoldi.

Shabyu xonim unga taajjublanib qaradi:

— Marhamat.

— Oskar Shabyuning qotili rostdan ham topilishini xohlaysizmi?

— Nega endi qotil tarallabedod qilib yurishini xohlarkanman?

— Gap shundaki, agar qotil qo‘lga tushsa, katta protsess boshlanadi, gazetalar, radio, televideniye shov-shuv ko‘taradi. Firmaning ko‘pdan ko‘p xizmatchilari so‘roq qilinadi. Sudga son-sanoqsiz guvohlar chaqiriladi. Ularning orasida, shubhasiz, eringizning tanish ayollari ham bo‘ladi, ular haqiqatni yashirib o‘tirishmaydi.

— Nimani nazarda tutayotganingizni tushunmayapman, — dedi Janna Shabyu o‘yga tolib. U vaziyatni taroziga solayotganday biroz jim qoldi, so‘ng qo‘shib qo‘ydi. — Gapingiz to‘g‘ri. Katta janjal bo‘ladi.

— Savolingiz javob bermadingiz-ku.

— Rostini aytsam, menga baribir. O‘ch olish niyatim yo‘q. Axir, uni bekorga o‘ldirishmagandir, shu ishga jur‘at etgan odamning jiddiy vajlari, ehtimol, bunga

ma'naviy haqqi bo'lgandir. Qotilni uzoq yilga, balki umrbod qamoqqa hukm qilishsa, jamiyatga bundan nima foyda?

— Birortasidan shubhangiz bo'lsa ham, baribir aytmas ekansiz, deb tushunsam bo'ladimi shu gapingizni?

— Shu paytgacha bu haqda o'ylab ko'rganim yo'q, chunki hech kimdan shubha qilmaganman. Lekin shubha tug'ilganda — buni aytish mening burchim, to'g'rimi? Shunday qilgan ham bo'lardim, ammo ochig'i, bu xohishimga qarshi ish bo'lardi.

— Firmani endi kim boshqaradi? Lusekmi?

— U odamdan qo'rqaman. U menga kaltakesakni eslatadi, tikilib qaraganda, etim junjikib ketadi.

— Ammo Oskar Shabyu unga batamom ishongan.

— Lusek erimga qop-qop pul ishlab bergan. U uchiga chiqqan firibgar, hamma qonun-qoidalarni biladi, ulardan ustalik bilan foydalanadi. Avvaliga faqat hujjatlar bilan shug'ullanardi, asta-sekin Oskarning o'ng qo'li bo'lib oldi.

— «Monaxlar vinosi» firmasini tashkil etish g'oyasi kimdan chiqqan?

— Oskardan. O'sha paytda barcha ish Sharanton sohilida bajarilardi. Lusek Opera ko'chasida filial ochish, chet joylardagi shoxobchalarni bir necha barobar ko'paytirishni taklif etdi.

— Eringiz uni sofdil odam deb hisoblarmidi?

— U Lusekka suyanib qolgan edi. O'z manfaatlarini esa to'la himoya qila olardi.

— Harholda, Lusek o'z lavozimida qoladimi-yo'qmi?

— Vaqtincha ishlab turadi, lekin hozir egallab turgan lavozimida ishlaydi.

— Firmaga kim boshliq bo'ladi?

— Men, — dedi Shabyu xonim sira ikkilanmay. — O'zimni hammavaqt ishbilarmon ayol deb hisoblaganman, erim ham mendan maslahat so'rab turgan.

— Kabinetingiz Opera ko'chasida bo'ladimi?

— Ha. Lekin Lusek bilan bir xonada o'tirmayman. U yerda joy ko'p.

— Omborxonalar, yerto'la, yuk tushiriladigan maydonlarga o'zingiz borib turasizmi?

— Albatta.  
— Xizmatchilar o'zgartiriladimi?  
— Nima keragi bor? U yerdagi qizlar erim bilan don olishib yurgani uchunmi? U holda juda qarilarini demasa, barcha dugonalarimdan yuz o'girishimga to'g'ri keladi.

Past bo'yli, tiqmachoqday yoshgina bir juvon otilib kirib, uy bekasining bo'yniga tashlandi.

— Voy, sho'rlik dugonam!

— Meni kechiring, janob komissar.

— Albatta... Albatta... Rahmat sizga, xonim.

Zinapoyadan pastga tushayotganlarida, Megre:

— G'alati ayol! — deb g'udrandi ro'molchasi bilan yuzini artib.

Yana ikki zina bosib, bir zum to'xtadi-da:

— Yo men qattiq yanglishyapman, yoki bu mash-mashaning oxiri ko'rinmaydi, — deb qo'shib qo'ydi.

Nima bo'lganda ham Janna Shabyuning to'g'riso'zligi kishida hurmat uyg'otardi.

#### *IV b o b*

Soat beshlarga yaqin kabinet eshigini birov ohista tiqillatdi. Eng kekxa qorovullardan bo'lmish Jozef javobni ham kutmay eshikni ochdi-da, komissarga kartochkani uzatdi:

«Ism-familiyasi: Jan-Lyuk Kokasson.

Kelishining sababi: Shabyu masalasi».

— O'zi qani? — deb so'radi Megre.

— Akvariumga o'tqizib qo'ydim.

Uch tomoni oynavand kutish zali shunday deb atalardi.

— Yana biroz o'tirsin, keyin boshlab kiring.

Megre deraza yonida bir muddat xayol surib turgach, devorga o'rnatilgan shkafdan konyak olib, ryumkani to'ldirdi.

U hamon o'zini lohas sezar, badani zil-zambil, oyoqlarida mador yo'q edi.

Komissar trubka tutatayotgan paytda eshik yana ochilib, Jozefning boshi ko'rindi:



— Janob Kokasson.

Jinoyat qidiruv politsiyasidagi vaziyat bu odamga zarracha ham ta'sir ko'rsatmaganday edi. U stol yoniga kelib, qo'lini uzatdi:

— Komissar Megre bilan ko'rishish sharafiga muyassar bo'lib turibmanmi?

— O'tiring! — dedi Megre va yozuv stolini aylanib o'tib, o'zi ham kresloga cho'kdi. — Adashmasam, san'atga doir kitoblar nashr etish bilan shug'ullanasiz, shundaymi?

— To'ppa-to'g'ri. Sent-Andre dez Ar ko'chasidagi kitob do'konimni bilasizmi?

Megre javob berish o'rniga suhbatdoshiga boshdan oyoq razm solib chiqdi. U baland bo'yli, qotma, qalin sochi orqasiga silliq qilib taralgan chiroyli bir kishi edi. Kulrang kostumi bilan paltosi oq oralagan sochlariga uyg'un, lablarida mag'rurona tabassum o'ynab turibdi.

Bu odam bilan zotdor it, masalan, O'rta Osiyo iskovichi o'rtasida allaqanday o'xshashlik bor edi.

— Bezovta qilganim uchun uzr, buning ustiga, men beradigan ma'lumot sizni unchalik qiziqtirmaydi ham. Men Oskar Shabyuning do'sti edim...

— Bilaman. Chorshanba kuni Qarshilik ko'rsatish harakatiga bag'ishlangan film premyerasida ishtirok etganingizdan ham xabarim bor. Ammo seans kechikib, soat to'qqiz yarimda boshlandi. Fortyuni ko'chasidan Yelisey maydoniga kirib o'tish uchun sizda yetarli vaqt bor edi.

— Mendan shubha qilyapsizmi?

— Masalaga aniqlik kiritilguncha Oskar Shabyu bilan aloqada bo'lgan har bir shaxs biz uchun u yoki bu darajada shubhali. Blansh xonimni taniysizmi?

Kokasson bir lahza taraddudlanib qoldi, so'ng:

— Ha. Unikida bo'lganman, — dedi.

— Kim bilan?

— Janna Shabyu bilan. U erining o'sha ishratxonaning doimiy mijozi ekanligini bilardi, o'zi ham bir ko'rib qo'yimoqchi bo'ldi.

— Demak, siz Shabyu xonimning o'ynashisiz?

— Shunaqa edim, lekin men bitta bo'lmasam kerak.

— Aloqani qachon uzgansiz?  
— Taxminan yarim yildan beri uchrashmaymiz.  
— Siz unikida, Vogeziar maydonida bo‘lganmisiz?  
— Ha, eri ish bilan ketgan paytlarida, deyarli har hafta shunday bo‘lardi.

— Shuni aytish uchun mening oldimga keldingizmi?  
— Yo‘q. Savolingizga javob berdim, xolos. Xatlarni topdingizmi-yo‘qmi, shuni bilish niyatida keluvdim.

Megre unga yer ostidan bir qarab qo‘ydi.

— Qanaqa xat?

— Shaxsan Oskar Shabyu nomiga yo‘llangan xatlar. Ish bilan bog‘liq yozishmalarni aytayotganim yo‘q. Bu maktublarni u Vogeziar maydonida, ehtimol, Sharanton sohilida avaylab asrab yurgan bo‘lishi kerak.

— Shu xatlarni qo‘lga kiritmoqchimisiz?

— Bilasizmi, Meg... Xotinimni aytyapman... Shu desangiz, u uzundan uzoq xatlar yozishni yaxshi ko‘radi, miyasiga nima kelsa shuni yozaveradi...

— Demak, xotiningizning xatlarini qaytarib olmoqchisiz?

— Xotinim uzoq vaqt Oskar bilan aloqada bo‘lgan. Bir gal tutib ham olganman. Nazarimda Oskar qattiq darg‘azab bo‘lgan edi.

— U xotiningizni sevib qolganmidi?

— Xudo saqlasin! Oskar umrida bironi yaxshi ko‘rganmas! Shunchaki ro‘yxatidagi navbatdagi ayollardan biri edi.

— Rashkchimisiz?

— Borib-borib taqdirda tan berganman.

— Xotiningizni boshqa sarguzashtlari ham bormi?

— Yo‘q deyolmayman.

— Agar to‘g‘ri tushungan bo‘lsam, xotiningiz Shabyuning o‘ynashi, siz Shabyu xonimning o‘ynashi bo‘lgansiz, shundaymi? — Megrening ovoqidagi istehzoni noshir ilg‘amadi. — Siz ham Vogeziar maydoniga maktublar jo‘natib turganmisiz?

— Uch-to‘rtta.

— Shabyu xonimgami?

— Yo‘q. Oskarga.

— Xotiningiz bilan aloqa qilib yurganidan norozilik bildirganmisiz?

— Yo‘q. — Kokasson masalaning eng nozik joyiga yaqinlashgan edi, binobarin, takallufni bir chetga surib qo‘ya qoldi. — San‘atga oid kitoblar nashr etadigan odamning ahvolini bilmasangiz kerak. Mijozlar juda kam, kitobning tannarxi nihoyatda baland. Har bir nashr uch-to‘rt yil vaqtni oladi, katta xarajatlarni talab qiladi. Shuning uchun san‘atga ixlosmand badavlat kishilarning homiyligisiz bir ish qilish qiyin!

— Shabyu shunday homiylardanmidi? — deb so‘radi Megre.

— Oskar juda badavlat edi. Pulni supurib olardi. Yordam bersa kerak, deb o‘ylagandim.

— Shu ma‘noda xat yozganmisiz?

— Ha.

— Xotiningizning o‘ynashi bo‘lib yurgan paytlardami?

— Buning bir-biriga aloqasi yo‘q.

— Yoki ularni qo‘lga tushirganingizdan keyin yoza boshladingizmi?

— Aniq esimda yo‘q, harholda keyin bo‘lsa kerak.

Megre kresloga suyangancha trubkasiga tamaki to‘ldira boshladi.

— Siz o‘sha paytda Janna Shabyuning o‘ynashi bo‘lgansiz, shundaymi?

— Meni to‘g‘ri tushunmasangiz kerak, deb o‘ylagandim o‘zim ham. Bizning munosabatlarimizga eski burjua axloqidan kelib chiqib baho beryapsiz, bu axloqqa hozir bizning davrimizda amal qilinmaydi. Biz uchun jinsiy aloqalarning hech qanday ahamiyati yo‘q.

— Sizni yaxshi tushunib turibman. Boshqacha qilib aytganda, siz Oskar Shabyu badavlat bo‘lgani uchungina unga murojaat qilgansiz?

— Ha, barakalla.

— Shunday iltimos bilan o‘zingizga tanish bo‘lmagan har qanday sanoatchi yoki bank egasiga murojaat qilishingiz mumkin edi-ku?

— To‘g‘ri, ilojsiz qolganimda shunday qilgan bo‘lardim.

— Ahvolingiz shu qadar tangmidi?

— Osiyo san'atining ayrim turlariga bag'ishlangan yirik bir kitob nashr etishni mo'ljallagan edim.

— O'sha maktublaringizda siz hozir afsuslanadigan jumlalar bormi?

Kokasson dovdirab qolgan edi, lekin zo'r berib sir boy bermaslikka tirishardi.

— Ba'zi gaplarim noto'g'ri talqin qilinishi mumkin, deb o'ylayman.

— Albatta. Masalan, sizning davrangizga daxldor bo'lmagan, dunyoqarashi tor, yengiltak odamlar har nima deb o'ylashi mumkin-da! Gapim to'g'rimi?

— Qisman.

— Qayta-qayta iltimos qilganmisiz?

— Uch-to'rt marta xat yozganman, dedim-ku.

— Har gal shu masaladami? Xatlarni qisqa vaqt orasida yozganmisiz?

— Kitobni tezroq nashrga topshirmoqchi edim. Sharq san'atining eng yaxshi bilimdonlaridan biri matnni menga topshirib ham qo'ygan edi.

— Shabyu pul berdimi?

Kokasson bosh chayqadi:

— Yo'q.

— Xafa bo'lgandirsiz?

— Ha. Men buni kutmagan edim. Aftidan, uni yaxshi bilmas ekanman.

— U bag'ritosh odam edi, shunday emasmi?

— Bag'ritosh va dimog'dor odam edi.

— Xatlaringizga javob qaytardimi?

— Qayoqda! Hatto bir kuni kechqurun unikida o't-tizga yaqin odam mehmondorchilikka to'plangan paytda sekin oldiga borib, iltimosimni eslatdim.

— Xo'sh, nima deb javob berdi?

— Surbetlik qildi: mehmonlarga o'girildi-da, hamma eshitadigan qilib, jerkib berdi: «Shuni bilib qo'ying, tupurdim Meginizga, xotinim bilan oshiq-ma'shuqligingizga ham tupurdim. Mendan hadeb pul tama qilavermang!»

Kokassonning oqish yuzi qizarib, uzun-uzun, nozik barmoqlari titray boshladi.

— Ko'rib turibsiz, hamma gapni ochiq aytyapman.

Lekin indamasligim, voqealarning bundan keyingi maromini kuzatib turishim ham mumkin edi.

— Ya'ni, xatlarning topilishini-da, shundaymi?

— Ular kimning qo'liga tushishi hali ma'lum emas.

— O'sha mehmondorchilikdan keyin Shabyu bilan uchrashdingizmi?

— Ha, ikki marta. Bizni Meg bilan Vogeplar maydoniga hamon taklif etib turishardi.

— Boraveradingizmi? — dedi Megre yolg'ondakam zavq bilan. — Unchalik kekchi emas ekansiz.

— Ilojim qancha? Shabyu hayvondan battar edi, lekin ayni paytda kuchli shaxs ham edi. Bizning davramizda u yolg'iz menigina tahqirlamasdi. U o'zining ustunligini namoyish qilishni yaxshi ko'rardi, buning ustiga, uni hurmat qilishlariga ham muvaffaq bo'lardi.

— Demak, xatlarni qaytarib berishimga umid bog'layapsizmi?

— Menga qolsa, ularni yirtib tashlagan ma'qul.

— Sizning xatlaringizni ham, xotiningizning xatlarini hammi?

— Megning maktublari judayam oshkora, hatto shahvoniy hislarga to'laday tuyulishi mumkin. Mening xatlarimni bo'lsa, boya aytganimday, noto'g'ri talqin qilishlaridan qo'rqaman.

— Sizga yordam berishga urinib ko'raman.

— Xatlarni topganmisiz?

Megre javob qaytarmadi, suhbatimiz tamom, deganday o'rnidan turib, eshik oldiga bordi.

— Darvoqe, sizda olti-yu o'ttiz besh kalibrli to'pponcha bormi?

— To'pponchani magazinda saqlayman. Ko'p yillardan buyon qaysi g'aladonga qo'ygan bo'lsam, o'sha yerda yotibdi. Kalibri qanaqaligini ham bilmayman. Men qurolni yomon ko'raman.

— Tashakkur. Yana bitta savol. Do'stingiz Shabyu har chorshanba kuni Fortyuni ko'chasiga borishini bilarmidingiz?

— Bilardim. Janna bilan shundan foydalanib qolardik.

— Bo'пти. Buguncha yetarli. Kerak bo'lib qolsangiz, o'zim chaqirtiraman.

Kokasson boshini ozod ko'tarib, kabinetdan chiqib ketdi. Komissar yozuv stoli yoniga qaytib, trubkani ko'tardi va telefonistkadan Vogeplar maydonidagi uyni ulashni so'radi.

— Shabyu xonimmi? Komissar Megre bezovta qilyapti. Hozirgina kabinetimda bo'lib o'tgan suhbat munosabati bilan sizga bir necha savol tug'ilib qoldi.

— Marhamat, faqat qisqaroq bo'lsa: juda bandman. Dafn ertaga tayin qilindi, shov-shuvsiz o'tadi, ko'p odam chaqirmaymiz.

— Cherkov udumi bajariladimi?

— Faqat janoza o'qilib, gunohlarini kechirish marosimi bo'ladi... Erimning eng yaqin do'stlari bilan uch-to'rtta xizmatchilariga xabar qildim, xolos.

— Lusekka ham aytgandirsiz?

— Aytmay ilojim yo'q.

— Lepetrga-chi?

— Unga ham aytdim. Erimning shaxsiy kotibasi, Oskarning o'zi Chigirtka deb laqab qo'ygan ozg'in qizni ham chaqirdim. Ivri qabristoniga uchta mashinada boramiz.

— Eringizning shaxsiy yozishmalari qayerda saqlanishini bilasizmi?

Shabyu xonim hadeganda javob qaytarmadi.

— Bilasizmi, bu haqda o'ylab ko'rmagan ekanman, hozir esimga tushib turibdi. Oskarning nomiga uyga juda kam xat kelardi. Unga atalgan xatlarni asosan Sharanton sohiliga jo'natishardi. Siz qandaydir muayyan xatlarni nazarda tutyapsizmi?

— Masalan, do'stlaridan, ayollardan kelgan xatlar.

— Agar asrab yurgan bo'lsa, shaxsiy seyfida turgan bo'lishi kerak.

— Qayerda o'sha seyf?

— Mehmonxona devorida, portreti orqasida.

— Kaliti bormi sizda?

— Kecha sizning odamlaringiz chorshanba kuni erimning egnida bo'lgan kiyimlarni keltirib berishdi. Cho'ntagidan bir dasta kalit chiqdi. Shularning orasida seyfnig kaliti ham bor edi, keyin xayolimdan ko'tarilibdi.

— Rahmat, vaqtingizni olmayman, dafn marosimi oʻtgandan keyin gaplashamiz...

— Ertaga tushdan keyin qoʻngʻiroq qilishingiz mumkin.

— Iltimos, birorta qogʻozni ham tashlab yubormang. Birdan sinchkovligi tutib, shu bugunoq seyfni ochgisi va oʻsha nopok maktublarni oʻqigisi kelib qolsa-ya?

Keyin Megre Chigirtkaga qoʻngʻiroq qildi:

— Xoʻsh, ishlar qalay? Joyidami?

— Nega joyida boʻlmasligi kerak ekan?

— Sizni dafnga taklif etishganini hozirgina eshitdim.

— Rost, telefonda boʻlsa ham taklif etishdi. Toʻgʻrisi, buni kutmagan edim. Shabyu xonim meni yomon koʻrsa kerak, deb oʻylardim.

— Ayting-chi, Sharanton sohilida seyf bormi?

— Bor. Birinchi qavatda. Buxgalteriyada.

— Kaliti kimda?

— Buxgalterda-da, albatta. Ehtimol, xoʻjayinda ham boʻlgandir.

— Shabyu oʻsha seyfda shaxsiy qogʻozlarini, aytaylik, xatlarni saqlamasmidi, xabaringiz yoʻqmi?

— Saqlamagan boʻlsa kerak. Xususiy xatlarni oʻqib boʻliboq yirtib tashlardi yoki choʻntagiga solib qoʻyardi.

— Agar malol kelmasa, buxgalterdan bir surishtirib, menga javobini aytsangiz. Telefonda kutib turaman.

Megre fursatdan foydalanib, oʻchib qolgan trubkasini tutatdi. Sharanton sohilidagi mahkamadan qadam tovushlari, eshikning ochilib-yopilgani, oradan biroz vaqt oʻtgach, yana ana shu tovushlar eshitildi.

— Eshityapsizmi?

— Ha.

— Gapim toʻgʻri ekan. Seyfda faqat ishga aloqador hujjatlar bilan ozgina pul bor ekan, xolos. Buxgalter xoʻjayinda kalit bor-yoʻqligini ham bilmas ekan. Ikkinchi kalit janob Lepetrda boʻlishi mumkin.

— Rahmat.

— Dafnga siz ham borasizmi?

— Bormasam kerak. Meni hech kim taklif qilgani ham yoʻq.

— Cherkovga kirishga hammaning haqi bor.

Megre trubkani qo'ydi. Boshi hamon zirqirar, ammo kayfiyati ertalabgiday tund emasdi. O'rnidan turib inspektorlar xonasiga chiqdi. Lapuent mashinkada raportini ko'chirayotgandi. U mashinka tugmachalarini ikkala qo'li bilan shundoq chiqillatardiki, ish sur'ati uncha-muncha mashinistka qizlarnikidan past emasdi.

— Hozirgina bir odam kelib ketdi, — dedi Megre, — san'atga doir kitoblar noshiri.

— Nima kerak ekan unga?

— Xatlarini qaytarib olmoqchi. Oskar Shabyuning shaxsiy yozishmalarini nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Ularning orasida jinoyatni ochishda qo'l keladigan xatlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, Kokassonning pul so'rab yozgan xatlariga o'xshagan.

— Vinofurush xotini bilan yurgani uchun pul so'rap-timi?

— Kokasson ularni ayb ustida qo'lga tushirgan. To'g'ri, o'zi ham Janna Shabyu bilan don olishib yurgan. Bu bitta voqea, xolos. Xatlarni qo'lga kiritsak, boshqalari ham qalqib chiqishi mumkin.

— Qayerda ekan o'sha xatlar?

— Shabyuning mehmonxonasidagi seyfda bo'lishi kerak.

— Xotini o'qiganmikin?

— Bu seyf esimdan ham chiqib ketgan ekan, deydi. Kalitni tasodifan ko'rib qolganmish. Chorshanba kuni Oskar Shabyu kiyib chiqqan kamzul cho'ntagidan topganmish.

— Xatlar haqida unga gapirdingizmi?

— Ha. Ishonchim komilki, bugun kechqurunoq hammasini o'qib chiqadi. Dafn ertaga tayinlangan. Oldin Sen-Pol cherkovida janoza o'qiladi, keyin eng yaqin kishilari uchta mashinada Ivri qabristoniga borishadi.

— Siz ham borasizmi?

— Yo'q. Nima qilaman? Qotil dafn chog'ida o'zini oshkor qilib qo'yadigan anoyilardan emas.

— Nazarimda bugun sal tuzuksiz, xo'jayin?

— Shoshma. Ertaga nima bo'lishini xudo biladi.

Soat besh yarim edi.



— Soat olti bo‘lishini kutish shart emas. Hozir ko‘proq uyda bo‘lganim ma’qul.

— Xayr, xo‘jayin!

— Xayr, yigitlar.

Megre og‘zida trubka, biroz bukchayib, oyog‘ini sudragancha, inspektorlar xonasidan chiqdi.

\* \* \*

O‘sha kecha Megre miriqib uxladi, aftidan, tush ham ko‘rmadi: ertalab hech narsani eslolmasdi. Tunda shamol o‘zgarib, havo iligan, ammo tasirlatib yomg‘ir quyardi.

— Haroratingni o‘lchaysanmi?

— Yo‘q, yaxshiman.

Komissar rostdan ham o‘zini yaxshi his qilmoqda edi. Ikki chashka qahva ichdi, xotini yana taksi chaqirib berdi.

— Soyabonni olish esingdan chiqmasin.

Komissar kabinetiga kirdi-yu, stol ustida uyilib yotgan xatlarga ko‘z tashladi. Bu unga odat bo‘lib qolgan edi. Konvertni qo‘lga oliboq, do‘stining yoki xabar yuborishi lozim bo‘lgan kishisining dastxatini darrov tanirdi.

Konvertlardan birida adres bosma harflar bilan yozilgan, chap burchidagi «shaxsan o‘ziga» degan so‘zlar tagiga uch marta chizib qo‘yilgandi.

Jinoyat qidiruv politsiyasi  
bo‘limining boshlig‘i janob  
komissar Megrega.  
Orfevr sohili, 38.

Megre shu xatdan boshladi. Xat tepasi qirqib olingan ikki varaq qog‘ozga yozilgandi. Qog‘ozlar biron-bir mayxona yoki qahvaxonaga tegishli bo‘lsa kerak. Harflar dona-dona, chiroyli, so‘zlar oralig‘i bir xilda. Xatni hamma narsaning ikir-chikirlarigacha e‘tibor beradigan o‘ta rasmiyatchi odam yozganligi sezilib turardi.

*«Maktubim idorangiz qog‘ozlariga aralashib, yo‘qolib ketmasligini va uni shaxsan o‘zingiz o‘qib chiqishingizni juda-juda istardim.*

Sizga ikki marta qo'ng'iroq qilib, trubkani tezgina qo'yib qo'ygan odam men bo'laman. Nomerni bilib qolishlaridan qo'rqdim. Avtomatdan qo'ng'iroq qilinganda qo'lga tushirish osonmasligini bilardimku-ya, lekin harqalay, ehtiyot bo'lgan yaxshi-da!

Gazetalar shu paytgacha Oskar Shabyuning haqiqiy basharasini ochib tashlamaganidan taajjubdaman. Nahotki, uni yaxshi bilgan odamlar orasida haq gapni aytadigan biror kimsa topilmasa?

Buning o'rniga uni, o'z qo'li bilan mamlakatdagi eng yirik vinofurushlik korxonalaridan birini tashkil etgan aqlli, dovyurak va so'zini o'tkazadigan odam, deb ta'riflashyapti.

Adolat qayerda qoldi? Axir u ablah odam edi-ku! Buni sizga aytganman, yana qaytaraman! U o'z manfaati yo'lida, hech ikkilanmay, har qanday odamni bosib-yanchib o'tardi. Ba'zan o'ylab qolaman: sal telbaroq emas-midiykin u?

Esi joyida odam o'zini bunaqa tutishiga ishonging kelmaydi. Ayniqsa ayollar masalasida u shafqat nimaligini bilmasdi. Xotin-qizlar bilan faqat ularni tahqirlash va o'zining ustunligini namoyish etish uchungina aloqa bog'lardi. Qayerda bo'lmasin, ishqiy sarguzashtlarini gapirib, maqtanardi, bu bilan ayollarni badnom qilayotgani haqida o'ylamasdi ham.

O'sha ayollarning erlari-chi? Nahotki, hech narsadan bexabar bo'lishsa? Aslo. Shabyu ularga ham tazyiq o'tkazardi, churq etishlariga yo'l qo'ymasdi.

O'zini hammadan qudratli qilib ko'rsatish uchun boshqalarni kamsitish unga odat bo'lib qolgan edi. Gapimga tushunyapsizmi?

Xayolimda u haliyam tirikday, ammo xayriyatki, qilmishiga yarasha jazosini oldi. Allaqachon shunday bo'lishi kerak edi. Uning o'limiga birov achinmaydi, hatto eng yaqinlari, ko'pdan buyon bordi-keldini yig'ishtirib qo'ygan otasi ham zarracha g'am chekmaydi.

Gazetalar negadir bu haqda yozmaydi, agar vaqti kelib, Shabyuni otgan va uning beboshliklariga chek qo'ygan odamni qamoqqa olsangiz, hamma unga qarshi oyoqqa turadi.

*Men siz bilan aloqa bog'lamoqchi bo'ldim. Sizni bir odam hamrohligida, ehtimol inspektorlaringizdan biridir, Vogezlar maydonidagi uyga kirganingizni ko'rdim. Keyin Sharanton sohilidagi mahkamaga jo'nab ketganingizni kuzatib turdim. Shuni bilib qo'yingki, u yerdagi vaziyat sizga ta'riflaganlaridan ko'ra boshqacharoq. Umuman, bu odamning qadami tekkan joy bulg'anmay qolmagan.*

*Sizga qotil kerakmi? Albatta, bu sizning vazifangiz, ta'na qilishga haqqim yo'q. Ammo yer yuzida adolat degan narsa qolgan bo'lsa, qotilni topib, minnatdorchilik bildirish uchungina uni qidirish kerak.*

*Takror aytaman, Shabyu razil, o'taketgan axloqsiz odam edi.*

*Xatga imzo chekishni lozim ko'rmaganim uchun meni ma'zur tutasiz, janob komissar».*

Ammo xatning ostida aji-buji bo'lsa ham imzo bor edi.

Megre xatni jumlama-jumla qaytadan o'qib chiqdi. Politsiyadagi uzoq yillik xizmati davomida u yuzlab imzosiz xatlar olgan va ularning qaysi biri e'tiborga molik ekanligini bexato aniqlaydigan bo'lib qolgan edi.

Ushbu maktub muallifi ehtirosiga berilib ketgan va ancha-muncha mubolag'a qilgan bo'lsa ham Shabyuga jiddiy ayblar qo'ymoqda edi, eng muhimi, vinofurushning tashqi qiyofasi uning aynan o'ziga juda mos kelardi.

Xo'sh, xatning muallifi kim? Qotilmi? Yoki Oskar Shabyudan jabr ko'rganlardanmi? Balki bu xotini Oskar tomonidan yo'ldan urilgan, so'ng odatdagiday tashlab ketilgan odamdir? Ehtimol, uning ishdagi qattiqqo'lligidan sabr kosasi to'lgan biror kimsadir?

Megre beixtiyor Jinoyat qidiruv politsiyasi darvozasi yonida o'zini kutib turgan, keyin birdan Dofini maydoni tomon burilib, oqsoqlanib jo'nab qolgan notanish kishini esladi. Uning ko'rinishini bashang deb bo'lmasdi. Aftidan, tunbo'yi kiyimida uxlagan. Ammo u daydiga ham o'xshamasdi, Parijda biron-bir muayyan ijtimoiy tabaqaga qo'shib bo'lmaydigan minglab odamlar yashaydi. Ularning bir qismi muqarrar tubanlikka ketadi, ayrimlari o'z joniga qasd qiladi, qolganlari esa boshpa-

nasiz daydilarga aylanib, Parij sohillarida kun kechiradi.

Lekin shundaylari ham borki, ular hayotga tish-tirnoqlari bilan yopishadilar va ba'zan, agar birov yordam qo'lini cho'zsa, yuzaga chiqib qoladilar.

Megreda bu odamga yordam berish istagi yo'q emasdi. Xat muallifi, Shabyuga nisbatan so'ngsiz nafratini demasa, tuppa-tuzuk odam bo'lishi ham mumkin. Aftidan, bu nafrat hayotining birdan bir mazmuniga aylanib qolgan ko'rinadi.

Vinofurushni shu odam o'ldirmaganmikin? Bo'lishi mumkin. Megre g'ira-shira qorong'ilikda to'pponchani muzdek dastasini qisganicha Shabyuning chiqishini poylab turgan notanish kishini ko'z oldiga keltirdi.

Mana, u bir marta, ikki, uch, to'rt marta o'q uzdi va oqsoqlanganicha metro tomonga qarab jo'nadi. Keyin, ehtimol, Katta xiyobonda yoki shaharning gavjum maydonlarida talay vaqt aylanib yurgandir, so'ng isinib olish va hozirgina erishilgan g'alabani yolg'iz o'zi nishonlash niyatida birorta mayxonaga kirgandir.

Shabyuni o'ldirish uning uchun tasodifiy hol emas edi: u bunga uzoq vaqt tayyorlangan, ko'p ikkilangan, nihoyat, o'zini shu ishga majbur qilish uchun undan ko'rgan sitamlarini qayta-qayta xayolidan o'tkazgan.

Mana, dushman yo'q qilindi. Ammo jinoyatchi uchun hayot birdan o'z mazmunini yo'qotmadimikin? O'ldirilganlar haqida, yaxshi odam edi, zo'r odam edi, deyishadi. Lekin kim o'ldirgani, nima sababdan o'ldirgani haqida birov miq etmaydi.

Shundan so'ng u Megrega qo'ng'iroq qiladi. Keyin, o'zini qidirib topishlari va qamoqqa olishlari uchun imkon yaratib berayotgani to'g'risida o'ylab ham o'tirmay, xat yozadi.

Qo'ng'iroq chalinib, operativ majlis boshlanishini ma'lum qildi, Megre boshliq kabinetiga qarab yo'l oldi.

— Fortyuni ko'chasidagi qotillik bo'yicha yangilik bormi?

— Hozircha yo'q. Lekin shunga umid bor.

— Janjal ko'tariladi, deb o'ylayapsizmi?

Megre qovog'ini soldi. Axir u boshliqqa Shabyuning

shaxsiyati haqida hali hech narsa degani yo‘q-ku. Gazetalar ham jim turishibdi. Janjal degan gapni qayoqdan oldi?

Balki politsiya boshlig‘i Shabyuni oldindan bilar? Yoki vinofurushni biladiganlar davrasida bo‘lib turarmikin? U holda Shabyuga tish qayrab yurganlar ozmunchamasligidan xabardor bo‘lishi kerak-ku.

— Hozircha ish joyidan jilmayapti, — deb dudmal javob berdi komissar.

— Harqalay, gazetachilar bilan gaplashmaganingiz yaxshi bo‘lgan.

Keyin u qolgan xatlarni ko‘zdan kechirdi, mashinistkani chaqirib, besh-oltita xatga aytib turib javob yozdirdi. U hamon o‘zini bedarmon sezar, lekin hadeb ro‘molchasini burniga tutishga ehtiyoj qolmagandi.

Tushga yaqin Lapuent qaytib keldi.

— Mendan xursand bo‘lasiz deb o‘ylayman, xo‘jayin. O‘zimni tasodifan borib qolgan chet bir kishi qilib ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ldim nazarimda. Yo tavba, dafn marosimi ham shunaqa bo‘ladimi! Yigirmataga yaqin odam qatnashdi, xizmatchilaridan faqat Lusek boribdi.

— Tanish odamlarga ko‘zing tushmadimi?

— Cherkovdan chiqayotganimda ro‘paradagi yo‘lkadan birov menga razm solib turganday tuyuldi. Yaqinroq bormoqchi bo‘luvdim, to mashinalarning orasidan o‘tgunimcha haligi odam g‘oyib bo‘lib qolipti.

— Ma, o‘qi! — Megre inspektorga xatni uzatdi, uni o‘qib turib, Lapuent bir necha bor jilmayib qo‘ydi.

— O‘sha odam deb o‘ylayapsizmi?

— Bir narsaga e‘tibor ber: xat muallifi meni Vogeclar maydonida, Sharanton sohilida, politsiya darvozasi yonida poylab turgan. Bugun ertalab dafn marosimiga borishimni ham kutgan bo‘lishi kerak.

— U meni siz bilan ko‘rgan edi, tanib qoldi.

— Tushdan keyin yigitlarimizdan birortasi Vogeclar maydoniga borib, meni tanimaydigan kishiday bo‘lib tursin. Shabyu xonimnikiga kirishim mumkin. Uy atrofiga biror kimsa o‘ralashib yurmaganmikin — shuni kuza-tish kerak. Bu nusxa ko‘z ochib-yumguncha g‘oyib bo‘lish qobiliyatiga ega ekanligiga ishonch hosil qildik.

— Shu ishni o‘z zimmamga olayinmi?

— Yaxshi bo‘lardi. Eng muhimi, sen uni taniysan.

Megre nonushta qilgani uyiga ketdi. Miriqib ovqatlanib, chorak soatcha kresloda mizg‘idi. Idoraga qaytgach, Vogezlar maydoniga qo‘ng‘iroq qilib, uy bekasini so‘radi. Uni uzoq kutishga to‘g‘ri keldi.

— Dafndan keyinoq bezovta qilayotganim uchun uzr. Xatlarni ko‘zdan kechirishga oshiqyapman, ular kalavaning uchini topib berishi mumkin.

— Hozir kelolasizmi?

— Albatta.

— Soat beshda bir joyga borishim kerak, qoldirishning sira iloji yo‘q. Shuning uchun...

— Hoziroq yetib boraman.

Lapuent uydan sal nariroqda poyloqchilik qilib turardi. Megre o‘zini mashinada olib kelgan Gorransni yana iziga qaytardi. Katta eshikka tutilgan kumush shokilali qora parda olib tashlangan, xonaning ko‘rinishi ham o‘zgargan edi — undan yana istiqomat qilishga hozirlik ko‘rishayotgan bo‘lsa kerak. Faqat xrizantemaning hidi yaqinda bu yerda murda yotganini eslatib turardi.

Janna Shabyu hamon o‘sha qora ko‘ylakda, unga faqat rangli toshlardan yasalgan to‘g‘nog‘ich taqib olgan, shundan qiyofasi anchagina odmi ko‘rinardi. U o‘zini erkin va daxlsiz tutardi.

— Agar e‘tiroz bildirmasangiz, mening pardozxonamga o‘ta qolaylik. Mehmonxona ikki kishi uchun kattalik qiladi.

— Seyfni ochdingizmi?

— Ha, ochdim.

— Shifrnı qayerdan topdingiz? Siz uni bilmasdingizku?

— Albatta, bilmasdim. Erim biror joyga yozib qo‘ygan bo‘lishi kerak, degan o‘y keldi xayolimga. Hamyonini titkilay boshladim, shoferlik guvohnomasining ichidan allaqanday raqamlar yozilgan bir parcha qog‘oz chiqdi, o‘sha raqamlarni turli tartibda terib ko‘raverdim.

Lyudovik XV davridan qolgan stolcha ustida omonatgina bog‘lab qo‘yilgan kattakon paket yotardi.

— Hammasini o‘qishga ulgurolmadim, — dedi Janna Shabyu, — bunga ko‘p vaqt kerak. Shuncha narsani asrab yurganiga hayronman. Hatto biz hali turmush qurmasimizdan oldin o‘zim yozib yurgan ishqiy maktublar ham bor ekan.

— Keling, eng eskilaridan boshlay qolaylik, — dedi komissar, — ana o‘sha xatlar bizga yordam berishi mumkin.

— O‘tiring, marhamat.

Shabyu xonim ko‘zoynagini taqqanida, qiyofasi tamom o‘zgarib ketganini ko‘rib, Megre hayron qoldi. Komissar nima uchun ayol ishni o‘z qo‘liga olishga intilayotganini endigina tushundi. U nihoyatda sovuqqon va irodali ayol edi. Bundaylar o‘z oldiga qo‘ygan maqsadidan osonlikcha voz kechmaydi.

— Xatlar ko‘p... Manovini ko‘ring-a!.. «Rita» deb imzo chekilgan. Qaysi Ritaligini bilsam, o‘lay agar.

«Ertaga soat uchda bo‘shayman. O‘sha joyda uchrashamizmi? O‘paman. Rita».

— Uncha tantiq ayolga o‘xshamaydi. Ko‘ryapsizmi, oddiy qog‘oz, buning ustiga atir sepilgan.

— Muddati ko‘rsatilmaganmi?

— Yo‘q. Bu qog‘oz keyingi oylarda kelgan xatlar ichidan chiqdi.

— Jan-Lyuk Kokassonning xatiga ko‘zingiz tushmadimi?

— Xabaringiz bormi? Oldingizga bordimi?

— Yozgan xatlarining taqdiridan tashvishda.

Hamon yomg‘ir quyay, baland-baland derazalarning oynalaridan tomchilar ilonizi bo‘lib pastga dumalardi. Xona ichi tinch va osoyishta edi. Uy bekasi bilan komissar bir odam hayotining o‘ziga xos yakuni bo‘lmish yuzlab xatlar uyib tashlangan stol yonida o‘tirishardi.

— Mana, Kokassonning xati. O‘qiysizmi?

— Ha.

— Trubkangizni chekavering. Menga xalaqit bermaydi.

*«Azizim Oskar!»*

*Eski do‘stligimiz bilan hamisha faxrlanaman, shunga qaramay, bu xatni yozishga ko‘p ikkilandim, keyin yana*

mana shu do'stligimizni esladim-u qo'limga qalam oldim. Sen ishbilarmon odamsan, men bo'lsam raqam degan narsadan uzoqman, binobarin, pul haqida gapirishga uyalaman.

San'atga oid kitoblar chop etuvchi noshirning kasbi o'ziga xos. Biz har doim iloji boricha ko'proq naf keltiradigan qo'lyozmalar qidiramiz. Bunday omad kamdan kam duch keladi, nihoyat endi taqdir kulib boqqan paytda, o'sha qo'lyozmani nashr qilishga qo'ling qisqaligi ma'lum bo'lib qoladi.

Men ham shu ahvolga tushdim. Ayni ishim yurishmayotgan, bir yildan buyon hech narsa nashr etolmay, gangib yurgan paytimda Osiyo san'atining ayrim turlariga bag'ishlangan ajoyib qo'lyozmaga ega bo'lib qoldim. Buning yirik asar ekanligiga shubham yo'q. Bosilib chiqsa, katta shovshuvga sabab bo'ladi. Kitobni nashr etish huquqini AQSH va boshqa mamlakatlarga sotishimga ham aqlim yetib turibdi, shunda xarajatlar bir necha barobar qoplanib ketadi.

Ammo kitobni nashr etish uchun menga zudlik bilan ikki yuz ming frank pul kerak. O'zimda bir santim ham yo'q. Megning jamg'armasi esa o'n mingdan oshmaydi.

Shu pulni berib turolmaysanmi, do'stim? Bilaman, sen uchun bu bir quti gugurt berganday gap. Bunaqa iltimos bilan birinchi marotaba murojaat qilishim, shuning uchun ham o'zimni juda noqulay sezyapman.

Megga maslahat solsam, bizga katta ixlosing borligini va iltimosimni yerda qoldirmasligingni aytdi.

Qayerda — uyingdami yoki mahkamalaringdan birortasidami — uchrashishimiz mumkinligini telefon yoki xat orqali ma'lum qil. Har qanday qog'ozga imzo chekishga tayyorman».

— Qanday pastkashlik, a, to'g'rimi? — Shabyu xonim sigareta tutatdi. — Megga ishora qilganini sezdingizmi? Mana bunisi qisqaroq.

Ikkinchi xat qo'lda, mayda harflar bilan asabiy bir ahvolda yozilgan edi.

«Aziz do'stim!

Shu paytdagacha xatimga javob olmaganimdan taaj-



*jubdaman. Uni yozish men uchun oson bo'lmagandi. Senga ishonganimdan shunday qilgan edim.*

*Bu orada ahvolim battar og'irlashdi. Shu kunlarda kattagina soliqni to'lashimga to'g'ri kelib turibdi, bunga esa qurbim yetmaydi, shu boisdan, ehtimol, yashirinishga majbur bo'larman. Megning xabari bor. U ham nihoyatda tashvishda, senga yana xat yozishga meni Meg majbur qildi.*

*Haqiqiy do'stlik quruq so'zdan iborat emasligini isbot qilasan, deb o'ylayman.*

*Umidim sendan.*

*Senga hamisha sodiq Jan-Lyuk».*

— Bu so'zlarda ozgina tahdid borligi sezilmayaptimi sizga?

— Hech shubhasiz, — deb g'udrandi Megre. — Ochiqdan ochiq sezilib turibdi.

— Endi Megning xatini o'qing:

*«Seviklim!*

*O'tgan dushanba uchrashgan bo'lsak ham, seni ming yildan beri ko'rmagandekman. Quchog'ingda qanday rohat qilaman, ko'kragingga bossang, simobday erib ketaman!*

*O'tgan kuni uchrashish umidida bir parcha xat jo'natgan edim. O'sha joyga borsam, sen yo'q ekansan, Blansh xonim qo'ng'iroq qilmaganingni aytdi.*

*Juda xavotirdaman. Bilaman, ishing ko'p, nihoyatda bandsan, qolaversa, senga intiq ayol yolg'iz men emasman. Rashk qilayotganim yo'q, faqat meni butunlay tashlab ketmasang bo'ldi. Nafasingni sezib tursam, baquvvat tanang baxsh etadigan rohatdan bahramand bo'lsam — shuning o'zi yetarli.*

*Iltilimos, tezroq javob ber. Uzun xat yozishing shartmas. Uchrashuv kuni va soatini tayin qilsang bas.*

*Jan-Lyuk keyingi paytlarda og'ir ahvolga tushib qoldi. U bir kitob nashr etishni mo'ljallab yuribdi, aytishicha, shu narsa uning taqdirini hal qilarmish. Senday odamning oldida u naqadar g'arib va nochor bo'lib ko'rinadi!*

*Sonsiz-sanoqsiz o'paman. Meg».*

Bunaqa xatlar ko'p, hammasi bir-biriga o'xshagan. Ba'zilar ochiqdan ochiq behayolik bilan yozilgan.

— So'nggi maktub qachon kelgan?

— Dam olishga ketmasimizdan oldinroq.

— Qayerda dam olgan edinglar?

— Odatdagiday, Kannada. Oskar baribir ikki-uch marta Parijga borib keldi. Biz bilan parijlik do'stlarimizdan ayrimlari birga bo'lishdi. Lekin Kokassonlar oilasi yo'q edi. Eshitishimcha, ularning Bretanida, rassomlarga yoqib qolgan allaqanday bir qishloqda dala hovlilari bor emish.

— Eringizdan pul so'rab yozilgan boshqa xatlar ham bormi?

— Hammasini o'qiganim yo'q. Masalan, Estella Janining ikki enlikkina xati bor, u juda uddaburro ayol, Oskar bir mahallar u bilan aloqada bo'lgan.

*«Azizim!*

*Sizga schyotni jo'natyapman, to'lashga o'zimning qur-bim yetmaydi. Sizni ko'rishga intizor*

*Estella».*

— Hisobni ham qo'shib jo'natganmi?

— Topolmadim, nimaning hisobi, qancha frankligini ham bilmayman. Ehtimol, qimmatbaho buyumlardir? Mo'ynadan tikilgan paltodir? Kim biladi. Ertalab cherkovga kelgan edi, lekin qabristonga borgani yo'q.

— Bu xatlarni menga bermaysiz-da, a? Yakshanba kuni uyda hammasini o'qib chiqqan bo'lardim.

— Ra'yingizni qaytarish men uchun noqulay, lekin bu hujjatlarni ozgina muddatga bo'lsa ham berolmayman. Xohlagan paytingizda, ertaga desangiz ham mayli, keling. Shu yerda bemalol o'qiyverasiz. Bu yerda arxitektor Rober Gruarning ham maktubi bor. U erimni hashamatli turarjoy binosi qurishga ko'ndirmoqchi bo'lgan.

— Unga shunga o'xshagan takliflar bilan ilgari ham murojaat qilishganmi?

— Bilishimcha, yo'q.

— Gruarning xotini bilan eringizning aloqasi bormidi?

— Albatta! Oskar qaysi ayol bilan aloqada bo'lmagan deysiz! Lekin, nazarimda, eri buni bilmagan. Mana bunisi eng g'aroyib xatlardan. Olti varaq, ichi to'la shahvoniy gaplar. Vanda degan ayol, men uni tanimayman, so'nggi uchrashuvda tunni qanday o'tkazganliklarini butun tafsilotlari bilan tasvirlabgina qolmay, navbatdagi uchrashuvda bo'ladigan tungi ishrat haqida o'ta behayolik bilan yozadi. Rus yoki polyak ayoli bo'lsa keragov. Oskar undan osonlikcha qutulmagan nazarimda... Manovi Mari-Fransdan, Anri Lejandrning xotinidan kelgan xat...

Shabyu xonim Megrega ko'k siyohda yozilgan havorang qog'ozni uzatdi:

*«Mening nopok xazinam!*

*Sendan nafratlanishim kerak edi, agar bir hafta ichida kechirim so'ramasang, shunday bo'ladi ham. Sen haqingda ko'p narsalarni bilib oldim, kimdanligini aytmayman: bu odam — changalingga tushganlardan bittasi. To'g'ri, sen hammani eslab qolishing shart emas.*

*Qisqasi, bir necha kun muqaddam, qandaydir ziyofatga borganingda, birov men haqimda gap ochibdi. Shunda sen ko'pchilik orasida, kamida besh kishi bo'lishi kerak, hamma eshitadigan qilib: «Shunisi chatoqki, u ayolning siynasi shalvirab ketgan», debsan.*

*Surbetligingni ilgaritdan bilardim. Endi bunga dalil-isbotim ham bor. Ammo shunga qaramay, seni ko'rmasdan turolmayman.*

*Bu yog'i o'zingga havola».*

— Agar siz bu odamlarni taniganingizda yoki aytaylik, ko'ksiga brilliantlar qadab olgan o'sha tannoz Lejandr xonimning erining pinjiga suqulib mehmonxonaga qanday kirib kelishini ko'rganingizda edi, bularning munofiqligini yana ham to'laroq tasavvur qilgan bo'lardingiz. Endi xayrlashamiz, hozir Jerar kelishi kerak. Jerar Onenni, bankirni nazarda tutyapman. U bilan maslahatlashadigan gapimiz bor. Unga batamom ishonaman... Ertaga tushdan keyin kelsangiz...

— Qiyindir-ov.

— Tushunaman. Yakshanbani oila davrasida o‘tkazmoqchisiz.

Yakshanba kuni Megre, odatdagiday, xotini bilan uyiga eng yaqin kinoteatrlardan birining kunduzgi seansiga borishini va ular qo‘ltiqlashib yana izlariga qaytishlarini Shabyu xonim bilmasdi.

Megre maydonga chiqqanida, Lapuentni ko‘rib qoldi.

— Rost aytgan ekansiz, xo‘jayin. Yana tutqich bermadi. Qochib qoldi. Uy atrofini gir aylanib, rosa qidirdim, lekin uyga yaqinlashishga jur‘at etmadim. Keyin Vogeplar maydonidagi xiyobonga o‘tdim. Yomg‘ir yog‘ib turgani uchun odam siyrak edi. Skameykada bir kishi o‘tirgan ekan. Menimcha, o‘sha bo‘lishi kerak: boshida ezilgan jigarrang shlyapa, egnida qora kostum.

Skameyka tomonga qarab yura boshlagan edim, o‘n qadam ham bosmasimdan shartta o‘rnidan turdi-yu Birag ko‘chasiga urib ketdi.

Orqasidan yugurdim. Bitta soyabonning ostida valaqlashib o‘tirgan ikki kampir og‘zini ochganicha qoldi. Sent-Antuan ko‘chasiga yetganimda izini yo‘qotdim. Ishonchim komilki, u sizga ergashib yuribdi, qotilni qidirapsizmi-yo‘qmi, shuni bilmog‘chi.

— Aftidan, u menga qaraganda ko‘proq narsani biladi. Qaniydi bir ko‘nglini ochsa! Mashinadamisan?

— Yo‘q. Avtobusda keldim.

— Bo‘lmasa yana avtobusda ketamiz.

Megre qo‘llarini cho‘ntagiga solgancha bekat tomonga qarab yura boshladi.

## V b o b

Megrening kechagi orzusi ushalmadi — xotini bilan kinoga borolmadi. Tasirlatib yomg‘ir quyur, Rishar-Lenuar xiyobonida deyarli tirik jon ko‘rinmasdi. Yakshanba ibodatiga shoshayotgan yakkam-dukkan yo‘lovchilargina boshlarini soyabon ostiga tiqib, baland uylarning devorlariga biqingancha chopib o‘tib qolishardi.

Bugun Megre har kungi odatini buzdi — soat

o'ngacha yuvinmay, pijamasining ustidan xalat kiyib, uy ichida aylanib yurdi. Qo'li hech narsaga bormasdi.

Yana eti uvushayotgandi. Harorati baland bo'lmasa ham o'zini lohas sezardi. Megre xonim har soniya ko'nglini ko'tarar, shunda Megre, achinmay qo'ya qol, deganday, yolg'ondan to'ng'illab qo'yardi.

— Nonushtaga nima tayyorlading?

— Qovurdoq.

Xuddi bolalik paytidagiday — yakshanba qovurdog'i! U vaqtlarda Megre qattiq qovurilgan go'shtni yaxshi ko'rardi. Umuman, bugun ko'p narsa unga bolaligini yodiga soldi.

Er-xotin sharros quyayotgan yomg'irga tikilganча uzoq o'tirishdi. Tushga yaqin Megre:

— Bir stakan olxo'ri ichimligidan tatib ko'rsamchi? — deb qoldi xotinidan ijozat so'raganday.

Megre xonim e'tiroz bildirmadi, komissar bufetni ochdi. Olxo'ri ichimligi bilan malina arag'idan birini tanlash kerak edi. Har ikkovini ham Elzasdan qayinsinglisi yuborgandi. Malina arag'i juda xushbo'y edi: bir ho'plasang og'zingdan yarim soat hidi ketmasdi.

— Ozgina quyib beraymi?

— Yo'q, bilasan-ku: keyin uyqu bosaveradi.

Uy ichida allaqanday yoqimli hid suzib yurar, komissar yig'ilib qolgan haftalik gazetalarni shoshmasdan varaqlab o'tirardi.

— Yo alhazar! Ayrim kimsalarda zarracha ham insof-u diyonat qolmagan-a...

Xotini erining nimaga ishora qilayotganini so'ramadi: Megre Shabyu masalasiga shu darajada berilib ketgan ediki, hatto o'zi xohlamagan taqdirda ham nuqul ana shu jumboq haqida o'ylardi, ba'zan esa noxosdan og'zidan haligidaqa gaplar ham chiqib ketardi.

— Yuzlab odamlar bir odamdan qutulish payida yurgan bo'lsa-ya...

Olomon ichiga bir zumda singib ketadigan anovi oqsoq kim bo'ldiykin? Megre boradigan joyga undan oldinroq borib turishiga nima deysan?

Tushlik ovqatdan keyin komissar kresloda o'tirganча pinakka ketdi. Ko'zini ochganida Megre xonim

nimadir tikib o'tirardi: bu ayol hech qachon bekor turolmasdi.

- Mo'ljaldagidan ko'proq uxlab qolibman-ku.
- Senga faqat foydasi bor.
- Gripp ham o'tib keta qolmadi...

U televizorni yoqdi. Kovboylar haqidagi film namoyish etilayotgan edi, Megre qiziqib tomosha qila boshladi. Film ishtirokchilari orasida, tabiiyki, Shabyuga o'xshagan salbiy qahramon ham bor edi. Xuddi vinofurushday, u ham o'zining hammadan zo'rligini isbotlashga intilar va atrofidagilarni uzluksiz tahqirlardi.

Film tugaganda Megre kecha Vogeplar maydoniga borganini eslab:

- G'alati ayol! — deb to'ng'illab qo'ydi.
- Firma ishlarini endi kim boshqaradi?
- Xonimning o'zi.
- Qo'lidan kelarmikin?
- Boshda qiynaladi. Lekin tez o'zlashtirib olishiga ishonchim komil. Bir yil o'tmasdan Lusekning pattasini qo'lga tutqazishi hech gapmas.

Dengiz tubini tadqiq etishga bag'ishlangan maqolani o'qiyotib, miyasiga yarq etib bir fikr keldi. Buxgalter haqida Chigirtka nima degan edi-ya? Hali g'o'r, ishga kelganiga bir necha oy bo'ldi, xolos, demaganmidi? Xo'sh, undan oldingisi-chi? O'zi ishdan ketganmi yoki bo'shatilganmi?

Komissar o'z savoliga tezdin javob topish payiga tushdi: miyasiga urilgan fikr unga tinchlik bermay qo'ygan edi. Telefonlar kitobini varaqlab, qizning nomerini topdi.

Uzoq qo'ng'iroq qildi, ammo hech kim javob bermadi. Chigirtka onasi bilan yo kinoga, yo qarindoshlarinikiga ketgan bo'lsa kerak. Soat yetti yarimlarda yana qo'ng'iroq qildi, bu gal ham trubkani hech kim ko'tarmadi.

- Shu qiz biror narsani biladi, deb o'ylayapsanmi?
- Bu narsaning muhimligiga uning aqli yetmagan, shuning uchun ham indamay qo'ya qolgan. Lekin men yanglishayotgan bo'lishim ham mumkin. Bunaqa taxminiy rejalar bizda ko'p bo'ladi.

Harqalay, yakshanba yomon o'tmadi! Er-xotin yaxna go'sht bilan pishloqdan tamaddi qilib, soat o'ndayoq uyquga yotishdi.

Ertalab Megre Orfevr sohiliga jo'nashdan oldin Lapuentga qo'ng'iroq qilib, mashinada olib ketishni iltimos qildi.

— Yaxshi dam oldingizmi, xo'jayin?

— Kecha kunbo'yi kreslodan turganim yo'q, oyoqlarim uvushib ketdi. Sharanton sohiliga hayda, azizim!

Hamma xizmatchilar o'z o'rnida, lekin hech qanday yugur-yugur sezilmasdi. Qaytanga hamma bekor o'tirganday tuyulardi. Faqat hovlining ichkarisida yomg'ir tufayli boshlariga qop tashlab olgan kishilar bochkalarni dumalatib yurishardi.

— Men bo'shagunimcha buxgalterning oldiga kirib, u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tir, — dedi Megre Lapuentga, o'zi esa zinapoyadan yuqoriga ko'tarilib, tanish eshikni tiqillatdi. Ichkarida Anna-Mari o'tirardi. Qiz komissarni o'tgan galgiday shirin, lekin andak istehzoli tabassum bilan qarshi oldi.

— Dafnga bormadingizmi? — deb so'radi Megre.

— Yo'q. Xizmatchilarga ruxsat berishmadi.

— Kim?

— Janob Lusek. U hammamizni xat orqali ogohlantirib qo'ydi.

— Darvoqe, kecha esimga tushib qoldi: siz bilan suhbatlashganimda, ba'zi narsalarni nazardan qochirgan ekanman, xonim. Siz buxgalter haqida gapirganingizda, u bu yerda yaqindan beri ishlayapti, degan edingiz, to'g'rimi?

— To'ppa-to'g'ri. Birinchi iyulda ishga kirgan. Qiziq, nima uchun buni aynan mana shu bugun so'rayapsiz?

— Xo'sh, nima uchun?

— Chunki, men ham aynan kecha, kinoda o'tirib, shu haqda o'ylagan edim. Kelishingiz bilan o'sha buxgalter to'g'risida gaplashishni ko'nglimga tugib qo'yuvdim. Sobiq buxgalter, Jilber Pigu, idoramizdan iyun oyida, agar yanglishmasam, iyunning oxirlarida bo'shab ketgan. Shuning uchun ham uni aralashtirmay qo'ya qolgan edim.

Megre Oskar Shabyuning aylanma stulida, qiz esa oyoqlarini chalkashtirgancha komissarning ro'parasida o'tirardi. Kalta yubka uzun sonlarining faqat yarminigina berkitib turardi.

— O'z xohishi bilan ketganmi ishdan?

— Yo'q.

— Qanaqa odam o'zi?

— Ko'zga tashlanmaydigan, odmigina. Darvoqe, buxgalteriyamizni ko'rganmisiz? Birinchi qavatda, dera-zalari hovliga qaragan. Buxgalteriya deyishga ham til bormaydi. Asosiy buxgalteriya Opera ko'chasida. Bu yerda buxgalterning qo'lidan faqat mayda-chuyda qog'ozlargina o'tadi.

— Pigu uylanganmi?

— Ha. Uylangan. Bir kuni qo'ng'iroq qilib, ishga chiqolmasligini aytganida bilganman. Xotinini shoshilinch operatsiya qilishlari kerak ekan. Ko'richagini olib tashlagan, nazarimda. Kamgap odam edi, xuddi atrofida gilardan qo'rqadiganday, nuqul o'zini chetga olib yurardi.

— Xodim sifatida durustmidi?

— Bu vazifada ishlash uchun hech qanaqa tashabbusning keragi yo'q. Belgilangan tartib bo'yicha ishlanaveradi.

— Sizgami yoki mashinistkalardan birortasigami, xushomad qilishga urinmaganmi?

— Nimalar deyapsiz! Bunga yurak qayoqda unda! Bundan o'n besh yillar muqaddam, mahkamamiz endigina tashkil bo'lgan paytlarda ishga kelgan edi. Jabr bo'ldi sho'rlikka.

— Nima uchun?

— Xo'jayin bilan oxirgi uchrashuvi shundoq ko'z o'ngimda turibdi. Bunaqa suhbatda ikkinchi qatnashmaslik uchun hamma narsadan voz kechgan bo'lardim. Umrim bino bo'lib bunaqa sharmandalikni ko'rmaganman. Bir kuni xo'jayin ertalab soat o'nda Opera ko'chasidan keldi-yu, qo'llarini ishqalab: «Piguga qo'ng'iroq qiling, mening oldimga chiqsin!» — deb buyurdi.

Bo'lajak suhbatni xayolidan o'tqazib, hozirdanoq lazatlanayotganini sezdim-u ko'nglim g'ash bo'ldi.



«O'tiring, janob Pigu. Sal chaproqqa, yorug'roq joyga o'tiring. Suhbatdoshimning basharasini ko'rib turmasam, gaplashgandek bo'lmayman. Xo'sh, ishlar qalay?»

«Rahmat, yomon emas...» «Xotiningizning sog'ligi yaxshimi?» «Ha». «Agar yanglishmasam, haliyam Sent-Onore ko'chasida, ich kiyimlar do'konida ishlaydi, a?»

Anna-Mari hikoyasini bo'lib, izoh berdi:

— Xotirasi kuchli edi, ayniqsa, odamlarni va mayda ikir-chikirlarni yaxshi eslab qolardi. U Pigu xonimni hech qachon ko'rgan emas, shunga qaramay, uning Sent-Onore ko'chasidagi ich kiyimlar do'konida sotuvchi bo'lib ishlashini yodidan chiqarmagan.

«Xotinim ishlamayapti». «E, attang».

Buxgalter xo'jayinning maqsadiga tushunolmay, mo'ltirab qarab turardi. Shabyu esa o'sha ohangda davom etdi:

«Xullas, janob Pigu, ishdan bo'shadingiz! Ha, bugun oxirgi kun ishlashingiz. Sizga tavsiyanoma berish niyatim yo'q, binobarin, uzoq vaqt ishsiz qolib ketishingiz ham mumkin».

U buxgalterni xuddi mushuk sichqonni o'ynaganday bir ahvolga solib qo'ygan edi, qarab turib, yuragim ezilib ketdi.

Stulning bir chetida omonatgina o'tirgan Pigu nima deyishini bilmas, ko'zlari g'ussaga to'lgan, nazarimda, halizamon yig'lavoradiganday edi.

«Mana shunaqa, janob Pigu, firibgarlikni eplagan odam qiladi».

Buxgalter stuldan xiyol qo'zg'aldi-yu, xo'jayinga e'tiroz bildirmoqchi bo'lib, qo'lini ko'tardi, so'zga og'iz juftladi. «Mang, manovi qog'ozni olib qo'ying! Menda ikkinchi nusxasi bor. Bu yerda keyingi uch yil ichida mendan qancha pul o'marganingiz yozilgan». «O'n besh yildan beri qo'lingizda ishlab...» «Shunisiga hayronmand! O'n besh yildan beri qo'limda ishlab, nega endi faqat uch yilgina harom ishga qo'l urdingiz ekan?»

Piguning qonsiz yuzlaridan yosh dumalay boshladi. O'rnidan turmoqchi bo'lgan edi, Shabyu to'xtatdi.

«O'tiring! Tepamda tik turgan odamni yomon ko'raman. Qisqasi, ro'yxatdan ko'rinib turibdiki, uch yil

ichida kassamdan uch ming sakkiz yuz qirq besh frank o'g'irlagansiz. Oz-ozdan. Avvaliga ellik frankdan. Keyin yuz frankka o'tgansiz. Nihoyat, nafsingiz hakkalak otib, besh yuz frank olgansiz». «Rojdestvo bayrami edi o'shanda». «Xo'sh, nima qipti?» «Mukofot puli, deb aytmoqchi bo'lganman». «Tushunmayapman». «Xotinim ko'pdan buyon ishlamaydi. Sog'lig'ining mazasi yo'q». «Azbaroyi xotinim tufayli o'g'irladim, demoqchimisiz?». «Ont ichaman! Hadeb ta'na qilaverardi, oriyating yo'q odamsan, xo'jayining seni laqillatib yuribdi, ish haqing ko'proq bo'lishi kerak, deb ko'zimni ochirmasdi», «Rostdan-a?» «Ish haqingni oshirishlarini talab qil, derdi nuqul». «Siz esa bunga jur'at etolmasdingiz, shundaymi?» «Baribir hech narsa o'zgarmasdi». «To'g'ri. Sizga o'xshagan lapashang, maxsus ma'lumoti yo'q xodimlar tiqilib yotibdi».

Pigu xo'jayinning yozuv stoliga tikilganча, karaxt bo'lib o'tirardi.

«Bir kuni Lilianga, haqimni talab qildim, maoshimni ellik frankka oshirishdi, deb aytdim». «Xo'jayining ziqnalik qipti, — deb gapimni cho'rt kesdi u. — Ha, mayli, boshlanishi yomon emas».

Anna-Mari yana hikoyasini bo'ldi:

— Vaziyat battar keskinlashib borardi. Pigu dovdira-gan sari Oskar avjga chiqardi.

— «Bir yil burun, — deb uning gapini ilib ketdi Shabyu, — maoshingizni yuz frankka oshirgansiz, Rojdestvo bayrami arafasida xotiningizga, xo'jayindan besh yuz frank mukofot puli oldim, degansiz. Shu bilan o'zingizni tengi yo'q xizmatchi qilib ko'rsatgansizda, a?» «Meni kechiring...» «Kechikdingiz, janob Pigu. Men uchun siz yo'q odamsiz. Ehtimol, vaqti kelib, janob Lusek ham cho'ntagimga qo'l solishga urinib ko'rar. Boshqalarga ishonmaganimday, unga ham ishonmayman. Balki hoziroq o'g'irlikni boshlab yuborgandir. Ammo u bu ishni birovga bildirmay qiladi. Shunga aqli yetadi. Bunaqalar xotiniga o'zini zo'r er qilib ko'rsatish uchun oz-ozdan olib, pachakilashib o'tirmaydi. Ulgurji olib qo'ya qoladi, men ham tan beraman shunaqalarga. Siz bo'lsangiz, Pigu, nochor maxluqsiz. Ilgari qanday

bo'lsangiz, shundayligingizcha qolasiz. Siz palid va notavon odamsiz. Qani, yaqinroq keling-chi!»

Shabyu o'rnidan turdi, Pigu esa bir necha qadam oldinga tashladi. Buni ko'rib: «Yo'q!» deb qichqirib yuborishimga sal qoldi. Lekin xo'jayin o'zg'irlik qildi: Piguning yuziga tarsaki tortib yubordi.

«Bu meni ahmoq deb o'ylaganingiz uchun. Sizni politsiyaga topshirvorishim ham mumkin edi, lekin bu yog'i meni qiziqtirmaydi. Hozir mana shu xonaning ostonasidan oxirgi marta hatlab chiqasiz-u lash-lushlaringizni yig'ishtirib, tuyog'ingizni shiqillatasiz. Qaytib qorangizni ko'rmay! Siz tuban odamsiz, Pigu, eng yomoni, qip-qizil ahmoqsiz!»

Qiz jim bo'lib qoldi.

— Shundan keyin ketdimi?

— Ketmay nima qiladi? Stol g'aladonida avtoruchkasini unutib qoldirgan ekan, shuni olgani ham kelmadi.

— Shundan keyin u haqda hech gap eshitganingiz yo'qmi?

— Dastlabki oylarda daragi chiqmadi.

— Xotini qo'ng'iroq qilmadimi?

— Sentabrдами, oktabrning boshlaridami, o'zi kelib qoldi.

— Shabyu uni qabul qildimi?

— Avval meni oldimda o'tirdi. Xo'jayin yo'q edi. Eri bizda ishlayotganmi-yo'qmi, shuni bilgani kelgan ekan.

«Iyun oyidan beri ishlamayotganini aytmadimi? — deb so'radim men». «Yo'q. Har kuni ertalab chiqib ketardi. Kechqurun har doim ishdan qaytadigan paytida qaytib kelardi, oyning oxirida maoshini opkelib, qo'limga tutqizardi. Ishim juda ko'p, yozda otpuskaga chiqolmayman, degan edi. «Hissasini qishda chiqazamiz. Qishki sport bilan shug'ullanishni ko'pdan buyon orzu qilib yuribman». «Shu gaplardan keyin ham hushyor tortmadingizmi?» «Bilasizmi, erim bilan uncha ishim yo'q...»

U men kutganimdan ko'ra go'zalroq, o'rta bo'yli, qaddi-qomati kelishgan ayol edi. Kiyimi odmi bo'lsa ham, o'ziga yarashib turardi.

«Erim haqida sizdan biror gap eshitarmikinman, deb

keluvdim. Ikki oydan buyon qorasini ko'rsatmaydi». «Nega oldinroq kelmadingiz?» «Qayoqqa borardi, bir kuni qaytib keladi-da, deb o'ylagandim. Qarasam... pulim tugab qolayozdi...»

Shundoq deb turganida, Shabyu kirib keldi, unga boshdan oyoq oshkora razm solib chiqdi-yu, beandishalik bilan menga murojaat qildi:

«Kim bu?» «Pigu xonim». «Nima kerak ekan unga?» «Erini haliyam bizda ishlaydi, deb o'ylab yurarkan. Uyga kelmayotganmish». «Jin ursin!» «Ishdan bo'shaganidan keyin ham ancha vaqtgacha maoshiga baravar pulni xotiniga berib yurgan ekan».

Shabyu Pigu xonimga o'girildi:

«Nahotki, hech narsani sezmagan bo'lsangiz? Pulni qayoqdan olganini bilmayman, harqalay osonlikcha topmagan bo'lsa kerak. Eringizning o'g'ri ekanidan xabaringiz bormi? Maoshim oshdi, deb sizni laqillatib yurganini ham bilmasangiz. kerak? Uyga kelmayotgan bo'lsa, demak g'arq bo'libdi». «U nima deganingiz?» «Suv yuzasida ma'lum muddat cho'kmasdan turish mumkin, lekin shunday payt keladiki, o'p'qon baribir domiga tortib ketadi». — Keyin menga yuzlandi. — «Bizni xoli qoldirsangiz, Anna-Mari».

Hozir nima ish bo'lishini yaxshi bilardim. Nafratim qo'zidi. Sof havodan nafas olish uchun hovliga chiqdim, yarim soatlardan so'ng Pigu xonimning qay ahvolda chiqib ketganini ko'rdim. U yuzini chetga burdi, ammo labbo'yog'i chaplanib ketganiga baribir ko'zim tushdi.

Megre indamay trubkasini to'ldirdi, shoshmasdan tutatdi, shundan keyingina gap boshladi:

— Ishga aloqasi yo'q bir savol berishga ijozat etsangiz, qizalog'im. — Anna-Mari unga hadiksirab qaradi. — Xo'jayiningizning qanday odam ekanligini bila turib, nega u bilan aloqani uzmadigingiz?

Avvaliga qiz bu so'zlarga unchalik e'tibor bermadi:

— Umi, boshqasimi... baribir kerak-ku... — So'ng jiddiy ohangda davom etdi. — U men bilan boshqacha gaplashardi. Ikkiyuzlamachilik ham, kalondimog'lik ham qilmasdi. Aksincha, zaif tomonlarini ham menga oshkor etaverardi. «Chunki sen tadbirkor emassan, — derdi u, —

yaqinligimizdan foydalanib qolishga urinmaysan...» U o'limdan judayam qo'rqardi. Ehtimol, shunday bo'lishini ko'ngli sezib yurgandir. «Xudo ko'rsatmasin, alamzalardan birortasining fe'li aynib qolsa-ya! «Nima qilasiz o'zingizga hadeb dushman orttiraverib?» «O'zimga nisbatan mehr uyg'otolmaganimdan keyin, mayli, hech bo'lmasa mendan nafratlanishsin». — Qiz hikoyasini shu yerda to'xtatdi: — Bor gap shu. Pigu haqida boshqa hech narsa eshitganim yo'q, unga nima bo'lganini ham bilmayman. Avvaliga bu voqeani sizga gapirib berish xayolimga ham kelmagan edi. O'tib ketgan gaplar-ku. Ammo kecha kinoda o'tirib, o'sha shapaloq birdan esimga tushib qoldi.

Megre Chigirtka bilan gaplashib bo'lib, pastga tushdi. Lapuent buxgalteriyada beo'xshov qora kostum kiyib olgan yoshgina bir yigit bilan suhbatlashib o'tirardi.

— Tanishib qo'ying, xo'jayin. Bu kishi janob Jak Riol.

— Bu kishi bilan uchrashganmiz.

Riol komissarni ko'rib, o'rnidan turib ketdi. Uning xonasi binodagi eng ko'rimsiz xona bo'lib, negadir yanchilgan bug'doyning hidi kelardi. Tokchalarga, qishloq mahkamalaridagiday, ko'k papkalar terib qo'yilgan. Burchakda almisoqdan qolgan kattakon seyf. Qachonlardir sotib olingan stol-stullarda siyoh dog'lari, ba'zilari xuddi maktab partalariday tilib tashlangan.

Riol og'irligini u oyog'idan bu oyog'iga solardi. Megrega ro'parasida bir mahallar vinofurush korxonasiga endigina ishga kirgan yosh Jilber Pigu turganday tuyuldi.

— Bo'ldingmi, Lapuent?

— Sizni kutayotgan edim, xo'jayin.

Ular yigit bilan xayrlashib, kichkina qora mashinaga o'tirishdi. Lapuent xo'rsinib qo'ydi:

— Sizni kutaverib qon bo'lib ketdim. O'lguday lanj, ming'ir-ming'ir yigit ekan buxgalter! Diplomi yo'q, kechki kursda o'qirkan, ikki yildan keyin diplom olish umidida. Neverda tug'ilgan ekan, bir qiz bilan nikohdan o'tgan, o'zining hamshahri. Maoshi sal oshgandan keyin turmush qurishmoqchi. Hozirgi oyligi oilani tebratishga yetmasmish.

— Qiz haliyam Neverda yasharkanmi?

— Ha. Ota-onasi bilan. Attorlik do‘konida ishlarkan. Yigit oyda bir marta qizning oldiga borib turarkan.

Lapuent beixtiyor mashinani Orfevr sohili tomon hayday boshladi.

— Oldin Fruadvo ko‘chasiga olib bor, ellik yetti «a», — deb buyurdi Megre.

Ular Sen-Mishel xiyoboniga yetganda o‘ngga, Monparnas qabristoniga qarab burilishdi.

— Riolding buxgalterni tanirkanmi?

— Yo‘q. U e‘lon bo‘yicha ishga kirgan. Uni Shabyuning o‘zi qabul qilgan ekan.

— Tushunarli. Vinofurush uning irodasiz odamligini darrov payqagan.

— Gapingizga tushunmadim.

— Shabyu atrofiga bo‘sh, itoatgo‘y kishilarni to‘plab olgan. Faqat Lusek bundan mustasno. Qolaversa u butun dunyodan — o‘z xodimlaridan ham, uyiga kelib turadigan do‘stlaridan ham nafratlangan. Yetib keldik, shekilli... Sen chiqmay qo‘ya qol. Pigu xonimni ko‘rishim kerak. Ikkalamizni ko‘rsa, qo‘rqib ketishi mumkin. Anovi mayxonada meni kutib tur.

Megre eshikbon ayol xonasiga bosh suqdi:

— Beshinchi qavat, chapdagi eshik.

— Hozir uyidamikin?

— Menimcha, ko‘chaga chiqqani yo‘q. Uyida bo‘lishi kerak.

Lift yo‘q ekan. Megre zinapoyadan beshinchi qavatga ko‘tarila boshladi. Har qavatda to‘xtab, nafasini rostlab olardi. Ikkinchi qavatda radio ovozi eshitilib turardi, uchinchi qavat yo‘lagida esa to‘rt-besh yoshlardagi bir bola o‘yinchoq mashinasi bilan ovora.

Megre qo‘ng‘iroqni topolmay, eshikni taqillatdi. Javob bo‘lmadi. Yana taqillatdi. Ko‘nglidan, tag‘in ovora bo‘lib qaytib chiqib yurmasam go‘rga edi-ya, degan o‘y o‘tdi. Qulog‘ini eshikka tutib, biror sado eshitmadi. Uchinchi marta shunday zarda bilan taqillatdiki, eshik naq ko‘chib tushay dedi. Faqat shundan keyingina qadam tovushlari, to‘g‘rirog‘i, shippakning shippillagani eshitildi.

— Kim u?

— Oching. Menga Pigu xonim kerak.

— Hozir!

Nihoyat, eshik qiya ochildi. Xalatini ko'ksiga bosgan yoshgina bir juvon hayron bo'lib notanish odamga tikildi.

— Nima sotasiz?

— Hech narsa sotmayman. Siz bilan gaplashmoqchi edim. Men Jinoyat qidiruv politsiyasidan komissar Megre bo'laman.

— Kiring! Mazam yo'qroq, sal ko'zim ilinibdi.

Mehmonxonaga kirishgach, ayol yotoqxonaga eshigini yopdi, ammo Megre yig'ishtirilmagan o'rinni ko'rishga ulgurib qoldi.

— O'tiring, — dedi u stolga ishora qilib.

Qabristonga qaragan derazalardan bo'ychan daraxtlar ko'rinib turardi. Xonadagi jihozlar aftidan, Barbes xiyobonidagi univermagdan olingan bo'lsa kerak. Bari qishloqbop narsalar. Dumaloq stolcha ustida proigrivatel, unga taqab qo'yilgan divanda plastinkalar sochilib yotibdi. Lilian musiqani yotib eshitishni xush ko'radi chamasi. Kuldon to'la sigareta qoldiqlari.

— Erim masalasida keldingizmi?

— Ham ha, ham yo'q. U haqda biror gap eshitdingizmi?

— Yo'q, daragi chiqmayapti. Ishxonasiga borsam, bo'shab ketganiga yarim yil bo'lgan ekan.

— G'oyib bo'lganiga qancha vaqt bo'ldi?

— Ikki oy. Sentabrning oxiri edi, o'sha kuni maoshini opkelishi kerak edi.

U kresloning tirsakqo'ygichida o'tirar, har gal xalating etagi surilib ketganida pushti rang ichko'ylagi ko'rinib qolardi. Ammo u bundan xijolat bo'lmasdi. Uyida hatto begonalarning oldida ham shunday yurishga o'rganib qolgan bo'lsa kerak.

— Turmushga chiqqaningizga ancha bo'lganmi?

— Sakkiz yil bo'ldi. Jilber tasodifan men ishlaydigan do'konga kirib qoldi. Uzoq galstuk tanladi. Yoqib qoldim shekillida. Kechqurun ishdan chiqsam, orqamdan ergashib kelaverdi. Bir haftacha shunday bo'ldi. Lekin gap ochishga sira jur'at etolmasdi.

— U o‘shanda ham shu kvartirada yasharmidi?

— Yo‘q. Lotin mahallasida ijaraga turardi. Uch haftalardan so‘ng dilini yordi. Men-ku o‘lib turganim yo‘q edi. Osmondagi oyni olib berishga qurbi yetmasa ham, harqalay, yomon yigitga o‘xshamasdi.

— Siz uni sevarmidingiz?

Ayol qo‘li bilan tamaki tutunini haydab, Megrega qaradi.

— Shunaqasi ham bo‘ladimi? Men bunga unchalik ishonmayman.

— Ayting-chi, Pigu xonim, eringiz sal oqsoqlanib yurarmidi?

— Ha, mashina urib ketgan edi. Tez yurganda chap oyog‘ini sal tashlab yuradi.

— Ancha bo‘ldimi bunga?

— Biz tanishmasimizdan oldin.

— Turmushga chiqqaningizdan keyin ham ishlayverdingizmi?

— Uch yil ishladim. Lekin juda qiynalib ketdim. Ertalab nonushta tayyorlayman, uyni yig‘ishtiraman. Soat o‘n ikkida restoranda ko‘rishardik, kechqurun bozorga yuguraman, ovqat pishiraman, ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullanaman. Xullas, jonim azobda edi.

Megre har xil plastinkalar va suratli jurnallar sochilib yotgan ensizgina divanga, sigareta qoldig‘iga to‘la kundonga ko‘z tashladi. Ayolning yaxshi ko‘radigan joyi shu yer bo‘lsa kerak. Ehtimol, eshikni rosa taqillatgan paytida ham shu yerda yotgandir.

O‘ynashlari bormikin? Bunga Megrening ishonchi komil edi. Loqaqal zerikkanidan ham o‘ynashsiz turolmaydi.

Ayolning yuzidan allanarsadan norozilik ifodasi arimasdi. Ehtimol, hamisha shundaydir.

— G‘oyib bo‘lmasidan oldin eringizda biror o‘zgarish sezmbarmidingiz?

— Yo‘q. Biror joyda ishlaganmi-yo‘qmi, bilmayman. Lekin har kuni uydan bir vaqtda ketib, bir vaqtda qaytardi.

— Oyning oxirida ilgari qancha bo‘lsa, shuncha maosh ham keltirib turgan?



— Ha. Unga sirageta va mayda xarajatlar uchun qirq frankdan berib turardim.

— Uyga kelmay qo‘yganida xavotirlangandirsiz?

— Unchalik tashvishga tushganim yo‘q. Meni muvozanatdan chiqarish oson emas. Bir kuni ishxonasiga qo‘ng‘iroq qildim. Trubkani bir erkak oldi. Erimni chaqirib berishni so‘radim. «Bu yerda yo‘q, — deb javob berdi u. — Qachon kelishini ham bilmayman. O‘zim ham anchadan beri uni ko‘rganim yo‘q». Shunday dedi-yu trubkani qo‘yib qo‘ydi. Ana shundan keyin sal xavotir oldim. Erim haqida xabar bormikin, biror baxtsiz hodisa ro‘y bermadimikin, degan o‘y bilan politsiyaga bordim... — Ko‘rinib turibdiki, Pigu xonim erini ko‘pam qidirmagan. — Qayerdaligini bilmaysizmi?

— Yo‘q. Shuni aniqlash uchun keldim-da. Sizningcha qayerga yashirinishi mumkin?

— Faqat otasinikida emas. Qariya Aleziya ko‘chasida qariyb yarim asrdan buyon yashaydi. Jilber ham o‘sha yerda tug‘ilgan. Onasi qazo qilgan, otasi pensiyada. U Lion kredit bankida kassir bo‘lib ishlagan.

— Ota-bolaning munosabatlari yaxshimi?

— Unchalik emas. Nazarimda chol meni yoqtirmaydi, Jilber hammavaqt mening yonimni olardi, albatta. Shu boisdan keyingi paytlarda oralariga sal sovuqchilik tushgan edi.

— Eringiz yo‘qolib qolganini otasiga aytganmisiz?

— Nima hojati bor? Shundoq ham ular bir yilda bir marta, birinchi yanvarda ko‘rishishardi. Yangi yilda cholni ko‘rgani ikkovimiz borardik, u bizni vino va biskvit bilan siylardi. Turmushi ham hamma so‘qqa-boshlarnikidan farq qilmaydi.

— Eringiz ishdan bo‘shaganidan keyin ham uch oygacha sizga maosh keltirib berganini qanday tushunish mumkin?

— Ehtimol, biror joyda ishlagandir.

— Jamg‘armangiz bormidi?

— Nimalar deyapsiz? Qarzga botib ketganmiz! Xolodilnikning haqi haligacha to‘lanmagan, yaqinda idish-tovoq yuvadigan mashinadan voz kechishga majbur bo‘ldim.

— Eringizning qimmatbaho buyumlari yo'qmi?

— Qayoqda! Hatto o'zi sovg'a qilgan nikoh uzugi ham qalbaki chiqib qoldi. Darvoqe, Jilberga nega bunchalik qiziqib qolganingiz sababini aytmayapsiz-ku?

— Iyunning oxirida xo'jayini Piguni ishdan haydab yuborgan. Uch yildan buyon u vinofurushning kassasidagi puldan o'g'irlab yurgan ekan.

— Nahotki o'ynashi bo'lsa?

— Unaqa bo'lmasa kerak. Oz-ozdan o'g'irlagan. Avvaliga oyiga ellik frankdan.

— Demak, oyligim oshdi, degani shu ekan-da?

— To'ppa-to'g'ri. Siz uni, maoshingni oshirishni Shabyudan talab qil, deb hol-joniga qo'ymagansiz. U bunday qilishga jur'at etolmagan, baribir foydasi bo'lmasa ham shundan keyin qalbaki imzolar qo'ya boshlagan. Ellik frankdan yuzga o'tgan. So'nggi Rojdestvo bayramida esa...

— Besh yuz frank mukofot? — Ayol yelkasini qisdi. — Jinni bo'lganmi! Xo'sh, shu bilan nimaga erishdi? Siz nima deysiz, boshqa ish topganmikin?

— Ishonmayman.

— Nima uchun?

— Uni ikki-uch marta ko'cha-ko'yda, hali idora va magazinlar ochiq bo'lgan turli paytlarda ko'rdim.

— Biror nojo'ya ish qilib qo'yganmi? Bekorga qidirmayotgandirsiz, axir?

— Gap shundaki, o'tgan chorshanba Fortyuni ko'chasidagi ishratxona yonida Oskar Shabyu o'ldirilgan. Eringizning quroli bormi?

— Kichkina qora to'pponchasi bor. Harbiyda xizmat qilib yurgan kezlarida bir do'sti sovg'a qilgan ekan.

— To'pponcha hozir uydami?

Ayol o'rnidan turib, shipillagancha yotoqxonaga kirib ketdi. G'aladonlarning ochilib-yopilgani eshitildi.

— Topolmadim. Nahotki Jilber yoniga solib ketgan bo'lsa? Hech qachon undan foydalanmagan edi, o'qi borligiga ham ishonmayman. Harqalay, o'qini ko'rmanman.

Pigu xonim yana sigareta tutatib, kresloga o'tirdi.

— Xo‘jayinini Jilber o‘ldirgan, deb gumon qilyapsizmi?

— Shabyu uni qattiq ranjitgan, yuziga tarsaki ham tushirgan.

— Bo‘lishi mumkin. Men ham u bilan uchrashganman, shuning uchun ajablanmayman. Hayvondan battar o‘sha Shabyungiz!

— Sizga aytganmidi shu voqeani?

— Yo‘q. Faqat, eringdan qutulganimdan xursandman, degan edi. Go‘yo menga ham yaxshi bo‘lgan emish.

— Pul berganmidi sizga?

— Nima uchun so‘rayapsiz?

— Shunday qilmasligi mumkin emas. Oralaringda nima ishlar bo‘lganini tasavvur qilib turibman.

— Rostdan ham tasavvuringiz kuchli ekan.

— Shunchaki, uning ayollarga qanday muomala qilishini bilaman.

— Hammaga birday muomala qiladi, demoqchimisiz?

— Topdingiz. Yana uchrashishni taklif qilmadimi?

— Yo‘q. Faqat telefonimni yozib oldi.

— Lekin qo‘ng‘iroq qilmagan?

— Yo‘q.

— Pul haqidagi savolimga javob bermadingiz?

— Ming frank berdi.

— Hozir nimaning hisobiga kun kechiryapsiz?

— Amallab turibman. Ishga taklif etib yozilgan e‘lonlarni o‘qib boryapman, o‘zim xatlar jo‘natyapman, lekin hali natija yo‘q.

Megre o‘rnidan turdi. Oyoqlari uvishib, peshonasi ter bilan qoplangan edi.

— Rahmat sizga.

— Eringizni bir necha marta ko‘rdim, dedingiz. Tez orada uni topishingiz ham mumkin ekan-da, janob komissar?

— Agar yana ko‘zimga tushsa-yu, o‘zini olomon ichiga urib qolmasa, albatta, shunday bo‘ladi.

— Rang-ro‘yi qanaqa?

— Juda charchagan... Parijda do‘stlari bormi?

— Aniq bilmayman. Biz faqat bir musiqachi bilan yashaydigan Nadina ismli dugonamnikiga borib turardik. Ba'zan bir-ikki shisha vino ko'tarib, ular biznikiga ke-lishardi. Musiqachi elektr gitara chalib berardi.

«Hoynahoy, — deb ko'nglidan o'tkazdi Megre, — bu ayol, boshqa erkaklar bilan bo'lganiday, musiqachi bilan ham yotgan bo'lishi kerak».

— Xayr, xonim!

— Xayr, janob komissar! Meni ham xabardor qilib turing, iltimos. Harholda erim-ku. Agar bironi o'ldirgan bo'lsa, bilib qo'yganim ma'qul. Ajralishim uchun shuning o'zi kifoya qilsa kerak, a?

— Menimcha ham shunday.

Megre Jilberning otasi adresini yozib olib, pastga tushdi va kichkina mayxonada gazeta o'qib o'tirgan Lapuentni izlab topdi.

— Xo'sh, xo'jayin?

— Jirkanch bir fohisha! Bir ish bo'yicha shu qadar behisob marazlarga kamdan kam duch kelganman. Ofitsiant, bir rymka rom keltiring!

— Jinoyatchining izini topishimizga yordam beradigan biror gap aytdimi?

— Qayoqda! Hech qachon eri bilan ishi bo'lmagan. Imkoniyat tug'ilishi bilan ishdan bo'shab olgan, aftidan kunbo'yi og'ziga sigareta qistirgancha, divanda cho'zilib yotadi, plastinka eshitadi, suratli jurnallarni tomosha qiladi. Kinoaktrisalarining ishqiy sarguzashtlaridan ham yaxshi xabardor bo'lsa kerak. Eri yo'qolib qolganda, salgina tashvishga tushgan, mendan uning qotillikda gumon qilinayotganini eshitib, erimdan ajralishim uchun shuning o'zi asos bo'ladimi, deb so'radi.

— Endi qayoqqa?

— Aleziya ko'chasiga olib borasan. Otasi bilan gaplashib ko'rmoqchiman.

— Ayolning otasimi?

— Yo'q, Jilberning otasi. Lion kredit bankining sobiq kassiri. Hozir pensiyada. O'g'li uylanganidan keyin oralari buzilgan.

Megrening baxtiga Aleziya ko'chasidagi uyning lifti bor ekan. Qo'ng'iroqni bosishi bilan eshik qiya ochildi:

— Sizga kim kerak?

— Pigu janoblari siz bo'lasizmi? Kirsam maylimi?

— Ensiklopediyani taklif etmoqchimisiz? O'tgan haftaga to'rt marta taklif qilishuvdi.

— Jinoyat qidiruv politsiyasining komissari Megre bo'laman.

Kvartiradan moybo'yoq hidi anqirdi. Zig'irdek chang yo'q. Hamma narsa joy-joyida.

— Marhamat, o'tiring! — Pigu deraza pardasini ochdi. — Yomon xabar bilan kelmadingizmi ishqilib?

— Bilishimcha, o'g'lingiz sog'-salomat. Oxirgi marta uni qachon ko'rgan edingiz?

— Aytishim mumkin. Birinchi yanvarda. — Qariya hazin jilmaydi. — Uylanaman degan qizidan aynitmoqchi bo'libmanda men tentak. Bir ko'rishdayoq unga mos emasligini biluvdim-da. Jilberning jahli chiqib ketdi, meni xudbin chol, yana allanimalar deb haqorat qildi. Ilgari har hafta kelib turardi, uylanganidan keyin oyog'ini tortdi, faqat Yangi yilda keladigan bo'lib qoldi.

— Undan haliyam xafamisiz?

— Yo'q. U hamma narsaga xotining ko'zi bilan qaraydi.

— O'g'lingiz sizdan pul so'rab turarmidi?

— Siz uni bilmaysiz. U juda oriyatli.

— Keyingi oylarda ham so'ramadimi?

— Bir gap bo'ldimi unga?

— Iyunda ishdan haydalgan. Ammo shundan keyin ham uch oyga qadar har kuni ertalab uydan chiqib ketgan, oyning oxirida esa ilgari qancha maosh olgan bo'lsa shuncha pulni xotiniga keltirib berib turgan.

— Balki boshqa ish topgandir?

— Yoshi qirq beshga borgan, buning ustiga, qo'lida hunari yo'q odamning ish topishi oson, deb o'ylaysizmi?

— Ehtimol, siz haqdirsiz. Lekin bir yo'lini qilib...

— Ha. Bir yo'lini qilib pul topgan. Keyin, sentabrning oxirlarida Jilber Pigu g'oyib bo'lgan.

— Xotini qaytib ko'rmaptimi?

— Yo'q. Bir necha kun oldin uning sobiq xo'jayini Oskar Shabyu ko'chada o'ldirilgan. Noma'lum kimsa unga to'rt marta o'q uzgan.

— Sizningcha...

— Aniq bir narsa deyishim qiyin, janob Pigu. Hozir tergov ketyapti. O'zingizdan biror gap eshitarmikinman, degan umidda kelgan edim.

— Ko'rib turibsizki, bu xususda sizdan kamroq narsa bilaman. Xotini meni xabardor qilib qo'yishni ham lozim topmabdi. Sizningcha, o'g'limning biror aybi bor-u, shuning uchun yashirinib yurganmi?

— Ehtimol. Keyingi kunlarda uni bir necha marta ko'rdim. Menga ikki marta qo'ng'iroq qilgan va bosma harflarda yozilgan imzosiz xat jo'natgan ham o'g'lingiz ekaniga shubham yo'q.

— O'ziga aytmadingizmi?

— Nima deyman? Agar Oskar Shabyuni o'sha o'ldirgan bo'lsa, o't bilan o'ynashyapti o'g'lingiz. Jilber o'zini hibsga olishlarini istayotgandek xatti-harakatlar qilyapti. Hozir boshpanasiz qolgan, puli yo'q. Ertami-kechmi, qo'lga tushishini biladi, lekin qotilik qilganidan vijdoni qiynalmayapti. Aksincha, g'ururlanib yuripti, chunki Shabyu o'taketgan ablah odam edi.

— Hech narsaga tushunmayapman.

— Ishning borishidan sizni xabardor qilib turaman, janob Pigu. Biror gap eshitsangiz siz ham menga darhol qo'ng'iroq qiling.

— Aytdim-ku: mening oldimga kelishi dargumon.

— Uzr, vaqtingizni oldim.

— Qariyadan biror gap chiqdimi? — deb so'radi Lapuent komissardan.

— Xotinidan ko'ra ham kam narsa biladi. O'g'lining yo'qolib qolganini mendan eshitdi. O'zi yoqimtoy, jikkak-kina chol, juda ozoda, kvartirasi ham chinniday, saran-jom-sarishta. Televizori yo'q, nazarimda, radiosi ham. Endi Orfevr sohiliga hayda. Bu ishga chek qo'yish kerak.

Oradan bir soatlar o'tgach, Megre brigadasi xodimlaridan besh kishi komissar kabinetiga to'planishdi.

— O‘tiringlar, yigitlar! Tortinmasdan, bema-lol chekaveringlar! — Megre trubkasini tutatib, inspek-torlarga birma-bir o‘ychan nazar solib chiqdi. — Qisqa-si, bu ishdan, batafsil bo‘lmasa ham, umuman xabar-dorsizlar. Oskar Shabyuning o‘limini tekshirishga kirishgan kunimdan beri kimdir meni qattiq kuza-tib yuribdi. Ahmoq odamga o‘xshamaydi. Harholda qayoqqa borishimni oldindan bexato biladi. Bun-dan tashqari, bir zumda olomonga qo‘shilib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi, shu paytgacha qo‘lga tushirolganim yo‘q.

Xonaga qorong‘ilik cho‘ka boshladi, ammo hech kim chiroqni yoqmadi, kengash ana shunday vaziyatda davom etdi. Kabinet juda dim edi. Ikkita stulni qo‘shni xonadan olib chiqishga to‘g‘ri keldi.

— U kishining aybdorligini tasdiqlovchi dalillar menda yo‘q. Hozircha hammasi taxmin. Lekin u nuqul o‘ziga e‘tiborni tortishga harakat qilyapti. Bugun uning kimligini, bir qarashda g‘alati tuyuladigan ba‘zi tafsilot-larni aniqlashga muvaffaq bo‘ldim. O‘zi birov nazarga ilmaydigan oddiy xizmatchi, Oskar Shabyuning qo‘lida buxgalter bo‘lib ishlagan. Sakkiz yil burun bir sotuvchi qizga uylangan. Sal o‘tmay xotini ishini tashlagan va topishingning mazasi yo‘q, deb eriga har kuni xarxa-sha qilavergan. Lurti, ism-familiyasi bilan adresini yozib oling: Lilian Pigu, Fruadvo ko‘chasi, ellik yetti «a». Monparnas qabristonining ro‘parasida. Kun-bo‘yi divanda yarim yalang‘och holda sigareta tutatib yotadi. Plastinka eshitadi, suratli jurnallarni tomosha qiladi.

O‘sha buxgalterni qanday qilib bo‘lmasin qo‘lga tushirish kerak. Sizlarni shuning uchun to‘pladim. Pigu qurollangan bo‘lishi mumkin, lekin otishga urinmasa ham kerak, deb o‘ylayman. Siz, Janvye, yoningizga olti kishini olasiz; ular navbatma-navbat Jinoyat qidiruv politsiyasining yonida poyloqchilik qilishsin. Bu odam menga Orfevr sohilidan ikki marta qo‘ng‘iroq qildi, uzundan uzun xat yozdi, bir kuni ro‘paradagi yo‘lkadan

meni kuzatib turganini ko'rdim. Afsuski, yaqiniga odam yo'latmaydi, bir zumda g'oyib bo'ladi-qoladi.

Xonada ko'kimtir tutun suza boshladi.

Megre yashil qandilli stol lampasini yoqdi, lekin shiftdagi chiroqqa tegmadi, agar u ham yoqilsa, kabinetda o'tirganlarning soyasi devorga tushib, tashqariga oshkor bo'lib qolishi mumkin edi.

— Endi tashqi belgilarini yozib olinglar. Bo'yi o'rtacha, yuz yetmish santimetrga bormaydi. Kulcha yuz. Egnida qoramtir kostum, eski plash. Sigareta chekadi. Yurganda sal oqsaydi: bir necha yil burun mashina urib ketgan, shundan beri chap tomonga sal tashlab yuradi.

— Sochi qorami? — deb so'radi Lurti.

— Ha qo'ng'ir, ko'zlari ham shunaqa. Lablari go'shtdor. Aynan daydiga o'xshamasa ham, harholda, shunga yaqinlashib qolgan. Chap berishga nihoyatda ustaligini e'tiborga olib, postda ikkitadan odam tursin. Tushunarlimi, Janvye?

— Tushunarli, komissar.

Megre miriqib trubkasini tutatib o'tirgan xo'ppa-semiz Purtiga murojaat qildi:

— Janvyega aytgan gaplarim sizga ham taalluqli. Sizlar, Janvye bilan Gorrans, postda turishingiz shart emas, lekin odamlaringizga ko'z-quloq bo'lib, ularni vaqtida almashtirib turishingiz lozim.

— Xo'p bo'ladi, xo'jayin.

— Sizga ham, Gorrans, olti kishilik brigada topshiriladi. Jiddiy ish bu. Yana qo'ldan chiqib ketishini xohlamayman. Sizing sektorningiz — Vogezlar maydoni, Shabyuning uyi atrofi. Shabyu xonim — qirq yoshlardagi juda go'zal, xushbichim ayol, kiyimlarini eng yaxshi chevarlarga tiktirib kiyadi. «Mercedes» mashinasi va shaxsiy shoferi bor. Agar shofer tepasi ochiladigan qizil «Yaguar» mashinasida o'tirgan bo'lsa, demak, u erining mashinasi.

Inspektorlar, xuddi sinfda o'tirgan maktab bolalari-day, bir-birlariga qarab qo'yishdi.

— Endi Lyukaning vazifasiga o'tamiz. Sen, Lyuka, Sharanton sohiliga ko'z-quloq bo'lasan. Bugun shanba. Tushdan keyin mahkamada ham, omborxonada ham



hech kim bo'lmaydi. Ertaga ham. Bino qo'riqlanadimi, yo'qmi, bilmayman.

— Tushundim, xo'jayin.

— Paydo bo'lishi ehtimol tutilgan barcha joylar nazorat ostiga olinishi kerak. Piguga judayam yaqin bor-manglar. U qidiruv ishlari qanday ketayotgani, hozir qanday ahvodaligi, bundan keyin nima bo'lishini bilishga urinib yotibdi. Hatto o'zini hibsga olishimizni xohlayotganday tuyuladi menga.

— Men nima qilishim kerak? — deb so'radi Lapuent.

— Sen shu yerda qolasan. Zarurat tug'ilishi bilan meni olib kelish uchun. Hamma ma'lumotlar shu yerga to'planadi, telefon orqali meni xabardor qilib turasan.

Inspektorlar kengash tugadi, degan xayolda o'rinlaridan qo'zg'alishgan edi, Megre ularni to'xtatdi.

— Shu paytgacha bir narsa jumboqligicha qolyapti, Pigu iyunning oxirida ishdan bo'shagan. Agar xotinidan yashirib yurgan bo'lmasa, tuzukroq jamg'armasi borligi ham dargumon. Kamomadni qisman bo'lsa ham qoplash uchun xo'jayini iyun oyining maoshini ushlab qolgan. Ammo o'ttizinchi iyun kuni Pigu, odatdagiday, xotiniga pul keltirib bergan.

Sentabrga qadar har kuni ertalab uydan chiqib ketib, kechqurun bir vaqtda qaytavergan. Xotini erining Sharanton sohilida ishlamayotganini xayoliga ham keltirmagan. Nazarimda, u rosa ish qidirgan, lekin topolmagan.

Sentabrda Pigu g'oyib bo'lib qolgan. Ana shu daqiqadan boshlab ma'nan tubanlashib, yashash uchun kurashni ham to'xtatib qo'ygan. Uni ko'rgan odam ko'cha-ko'yda yotib yurganiga darrov ishonch hosil qiladi. Ammo ochdan o'lmaslik uchun har qanday odamga ham kuniga uch-to'rt frank pul kerak-ku. Parijda hamma bechorahol kimsalar borib turadigan bir joy bor. Bu katta bozor. Bir necha oydan keyin uni Renjisga ko'chirishmoqchi, bilmadim, haligidaqa kishilarning holi nima kecharkin.

Telefon jiringladi.

— Allo! Komissar Megremi? Har doim shaxsan o'zingiz bilan gaplashishni talab qiladigan odam yana qo'ng'iroq qilyapti.

— Ulang! — Komissar yordamchilariga tushuntirdi: — O'sha. Eshitaman!

— Xotanim bilan gaplashdingiz. Shunday qilishingizni bilardim. Uning oldida uzoq o'tirdingiz, inspektorningiz mayxonada sizni kutib turdi. Lilian mendan xafa emasmi?

— Aslo.

— Qayg'urmayaptimi?

— Unaqaga o'xshamaydi.

— Qanday kun kechiryaptiykin?

— Yaqinda Shabyuning oldiga borgan ekan, ming frank beriпти.

Trubkada istehzoli kulgi eshitildi.

— Otam nima dedi?

Megre lol bo'lib qoldi. Na mashinasi, na taksiga puli bo'laturib, u Megrening har bir qadamidan ogoh edi. Oqsoqlanishiga qaramay, Parij ko'chalarida izg'ib yurar, ayni paytda, o'zini sezdirmas, agar uni tanib qolgunday bo'lishsa, xuddi sehgarday, bir lahzada g'oyib bo'lardi.

— Tayinli bir gap aytgani yo'q. Lekin xotiningizni yoqtirmasligi sezilib turibdi.

— Undan nafratlanadi, deyavering. Shu boisdan urishib qolganmiz. Men yo otamni, yo Lilianni deyishim kerak edi.

Piguning shu masalada yanglishgani aniq edi.

— Nega oldimga, Orfevr sohiliga kela qolmaysiz? Bemalol, yuzma-yuz o'tirib gaplashgan bo'lardik. Agar Shabyuni siz o'ldirmagan bo'lsangiz yana xotirjam izingizga qaytib ketaverasiz. Bordi-yu, buning aksi bo'lsa, yaxshi bir advokat jazoni yengillashtirishi, hatto sizni oqlab yuborishi ham mumkin. Allo! Allo!

Jilber Pigu trubkani ilib qo'ydi.

— Eshitdinglarmi? U xotini va otasi bilan gaplashganimni ham biladi.

Piguning bu qiliqlari allaqanday o'yinga o'xshar, hozircha o'yinda buxgalterning qo'li baland kelmoqda edi.

— Xo'sh, qayerda to'xtagan edik? — deb davom etdi Megre. — Ha, markaziy bozorda. Omadi ketgan

odamlarni xuddi ana o'sha yerdan izlash kerak. Shu bugundan boshlab har kuni tunda yigitlarimiz bozor va uning atrofini elakdan o'tkazishsin. O'sha rayonni yaxshi biladigan okrug politsiyasiga yordam so'rab, murojaat qilishlari ham mumkin.

Nahotki shuncha tadbirlardan biror natija chiqmasa? Lekin Pigu osonlikcha tutqich beradiganlardan emas. Ehtimol, hozir ham u ro'paradagi yo'lkadan Megrening kabineti derazalariga tikilib turgandir?

— Gap shu, yigitlar. — Inspektorlar o'rinlaridan turib, eshikka qarab yura boshlaganlarida, Megre yana luqma tashladi. — Tag'in bir maslahat. Hech kim qurol olmasin. Har qanday holda ham unga o'q uzilmasin.

— O'zi birinchi bo'lib o'q uzsa-chi? — deb to'ng'illadi baqaloq Lurti.

— Aytdim-ku: «Har qanday holda ham», — deb. — Innaykeyin, u o'q uzmaydi. Menga uning o'ligi kerak emas.

Soat besh yarim bo'lgan edi. Megre qo'lidan kelgan hamma ishni qildi. Endi bu yog'ini kutish kerak. U nihoyatda charchagan, gripp tinka-madorini quritgandi.

— Sen bir minutga qol, Lapuent. Xo'sh, mening bu rejamga nima deysan?

— Ro'yobga chiqishi ham mumkin, — dedi Lapuent sal ishonqiramay. — Rostini aytsam, yoki biz uni tasodifan qo'lga tushiramiz, yoki o'zi taslim bo'lishni xohlamaguncha tutqich bermay yuraveradi.

— Men ham shunday deb o'ylayman. Lekin mening vazifam chora ko'rish. Endi meni uyga olib borib qo'y. Yechinib, pechkaning oldida o'tirgim kelyapti. O'ralib yotsam, undan ham yaxshi bo'ladi.

Megre mashinaga o'tirgach, atrofga nazar tashladi, ammo qidirgan kishisi ko'rinmadi.

— «Dofin» pivoxonasi oldida birpas to'xta. — Komissarning og'zi quruqshab ketgan, binobarin, uyga kirishdan avval bir krujka muzday pivo ichgisi kelib qolgan edi. — Sen nima ichasan?

— Men ham pivo ichaman. Kabinetingiz juda issiq ekan.

Megre ikki krujka pivoni yutoqib simirdi, lablarini

artgach, trubkasini tutatdi, shundan so'ng ular yana yo'lga tushishdi. Rojdestvo bayrami munosabati bilan Shatle saroyi nurga chulg'angan, ko'chaga rangorang chiroqlar marjonday osib tashlangan edi. Qaysidir magazindan musiqa ovozi eshitalardi.

Uyiga yetganda Megre, Piguni ko'rib qolarmikanman, degan umidda atrofga alangladi, ammo hech kimga nigohi tushmadi.

— Yaxshi yotib tur, ukam.

— Sog' bo'ling, xo'jayin.

Komissar asta yuqoriga ko'tarila boshladi, terlab-pishib o'z qavatiga yetganda, yo'lakda kutib turgan xotiniga ko'zi tushdi. Megre xonim erining ahvolini ko'rib, mazasi yo'qligini va kayfiyati yomonligini payqadi.

— Tezroq kira qol, shamollab qolmagin tag'in.

Aksincha, Megre issiqlab, terga botib ketgan edi. Og'ir paltosini, sharfi va galstugini yechib, o'zini kresloga tashlagandan keyingina sal yengil tortdi.

— Tomog'im og'riyapti, — deb zorlandi u xuddi yosh boladay.

Xotini uning kasalidan vahimaga tushmadi. Chunki har yili komissar bir-ikki marta gripp bo'lardi. O'zi esa buni unutib yuborar va har gal, ish qobiliyatimni yo'qotayapman, deb injiqlik qilaverardi. — Menga hech kim qo'ng'iroq qilmadimi?

— Birov qo'ng'iroq qilishi kerakmidi?

— Ha desam ham bo'ladi, yo'q desam ham. Anovi odam hozirgina Orfevr sohiliga qo'ng'iroq qildi, adresimizni ham bilsa kerak. Nazarimda, asablari juda charchagan, men bilan ko'rishishni xohlayapti-yu, jur'at etolmayapti shekilli.

Komissarning yodiga eski ishlar tushdi. Chunonchi, bir qotil bir oy davomida unga har kuni uzundan uzoq xatlar yozgan edi. U har gal xatni yangi pivoxonadan jo'natardi. Uni qo'lga tushirish uchun Parijning barcha pivoxona va qahvaxonalariiga pistirma qo'yish kerak edi, tabiiyki, bunga politsiyada odam yetishmasdi.

Bir kuni ertalab Megre Orfevr sohiliga kelib, akvarium deb atalmish qabulxonada o'zini kutib o'tirgan qirq yoshlardagi kishini ko'rdi.

Bu o'sha tinimsiz xat yozib yurgan odam edi.

— Nima ovqat qilding?

— Baliq qovurdim. Senga og'irlik qilmasmikin?

— Qornim og'riyaptimi meni?

— Pardoni chaqirsammikin?

— Hojati yo'q. Bezovta qilma. Og'ir kasallari yetib ortadi.

— Ovqatingni o'ringa olib kelib beraymi?

— Ko'rpa terga bo'kib ketadi.

Megre faqat pijama, xalat va shippagini kiyishga rozi bo'ldi. Gazeta o'qishga jazm qilgan edi, sira fikrini bir joyga to'playolmadi. Xayoli nuqul Piguga, xotining ta'nalari tufayli qing'ir ishga qo'l urgan sho'rlik buxgalterga og'ib ketaverardi.

Qayerdaykin u hozir? Ozgina bo'lsa ham puli bormikin? Qayerdan topdiykin o'sha pulni?

Keyin komissar hammani oyoq uchida ko'rsatadigan, kalondimog', shu tufayli o'ziga hisobsiz dushman orttirgan Shabyu haqida o'ylab ketdi. U surbetlarcha ayshishrat qildi, ammo bu bilan zarracha ham tegmanozik bo'lib qolgani yo'q. Oskar ko'p yillar muqaddam bir yashik vinoga buyurtma olish ilinjida eshikma-eshik yurgan paytlarida qandoq bo'lsa, hamon o'shandayligicha qolgan edi.

Megre o'ziga mute bo'lgan odamlarga zahrini sohadigan bunaqa kimsalarning ko'pini ko'rgan.

— Ovqat tayyor!

Ishtahasi bo'lmasa ham, Megre ozgina totindi. Yutinganda tomog'i og'riyotgandi. Ertaga ovozi chiqmay qolsa-ya?

Yigitlari Orfevr sohilida o'zi tayinlagan postlarni egallashgan bo'lsa kerak. Kengash paytida: «Uyimning oldiga, Rishar-Lenuar xiyoboniga ham ikkita odam qo'yilsin», desa bo'larkan.

Ammo bunday deyishga uyaldi. Qo'rquyapti, deb o'ylashlari mumkin edi. Megre o'rnidan turib, deraza yoniga bordi. Yomg'ir tingan, ammo sharq tomondan kuchli shamol esardi, odatda shundan keyin qattiq sovuq tushadi. Ikki oshiq-ma'shuq qo'ltiqlashib borishar, har o'n qadamda to'xtab, o'pishib qo'yishardi.

Yelkasiga yomg'irpo'sh tashlagan politsiyachilar velosiped minvolib, shoshmasdan o'z uchastkalarida aylanib yurishardi. Xiyobonning narigi tomonidagi uylarning chiroqlari yoqilgan, ichkarida yurgan odamlarning, hatto stol atrofida o'tirgan butun oila a'zolarining shakl-shamoyili parda ortidan shundoqqina ko'rinib turardi.

— Televizor ko'rasanmi?

— Yo'q.

Shu tobda Megrega hech narsa kerak emas edi, bino-barin, bir nima deb ming'irlab qo'ya qoldi, har gal betob bo'lganda, kayfiyati yo'qligida yoki tergov cho'zilib ketgan paytlarda shunday qilardi.

U har kungidan oldinroq yotishga ko'nmay, yana gazeta varaqlay boshladi. Yarim soatlardan so'ng tag'in deraza yoniga borib, nigohi bilan o'zi ko'rishga mushtoq bo'lgan kishisini izladi.

Yo'lkada hech zog' yo'q edi. Faqat bitta taksi xiyobondan pastga qarab g'izillab o'tib ketdi.

— Yana keladi, deb o'ylayapsanmi?

— Bilib bo'ladimi...

— Ko'rinishingdan xuddi bir nimani kutayotgan odamga o'xshaysan.

— Men har doim nimanidir kutaman. Masalan, hozir Lapuentning qo'ng'irog'ini kutyapman.

— Navbatchimi u?

— Ertalabgacha. Hamma ma'lumotlar o'sha yerda to'planadi.

— Toqati toq bo'lgan demoqchimisan, o'sha tutqich-bermas odamning?

— Aksincha, u haliyam parvoyifalak. Aftidan, qanday ahvolga tushib qolganini xayoliga ham keltirmayapti. Uni umr bo'yi tahqirlashgan. Uzoq yillar u birovga bo'ynini egib yurgan, kutilmaganda qarasaki, boshqacha odam bo'lib qolipti. Butun politsiya oyoqqa turgan, uni tutmoqchi bo'lyapti-yu sira uddasidan chiqolmayapti. Uning nazarida bu hazilakam gap emas. U hozir o'zini juda yirik shaxs deb biladi.

— Ishi sudda ko'rilyotgan paytda bundan ham bat-tar bo'ladi.

— Shuning uchun ham taslim bo‘lsammikin yoki bekinmachoq o‘ynashni davom ettirsammikin deb ikkilanib yuribdi-da.

Megre yana gazetani qo‘liga oldi. Hozir unga trubkasi ham taskin berolmayotgandi, shunga qaramay, to‘xtovsiz tutun burqsitardi. Qasdma-qasdiga shunday qilayotgandi. U ham taslim bo‘lishni xohlamasdi, ko‘zlari achishib, chakkalari zirqirayotgan bo‘lsa ham grippga yon berishni istamasdi.

Soat besh yarimda Megre yana deraza yoniga bordi. Ro‘paradagi yo‘lkada o‘sha odam turardi. U, boshini ko‘targancha, komissar qarab turgan derazadan ko‘z uzmasdi.

Stol yonida o‘tirgan Megre xonim bir narsani so‘ramoqchi bo‘lib og‘iz juftladi. Shunda nigohi erining toshqotgan gavdasiga tushdi. Komissar shu tobda go‘yo nafas ham olmayotgan, bamisoli jonsiz haykalga o‘xshab qolgan edi. Uning bu turishida allaqanday bir sehr, g‘alati bir ulug‘vorlik bor edi.

Megre notanish kishini cho‘chitib yuborishdan qo‘rqqanday qimir etmas, ayni paytda, u ham yo‘lkada komissarga tikilgancha turardi. Muslin parda ortidan faqat uning qorasigina ko‘rinardi.

Qaysidir bir yili komissar Men-Syur-Luarda, kresloga yastanib dam olayotgan paytida, birdan, bog‘ichkarisidagi chinordan yerga sakrab tushgan olmaxonga ko‘zi tushib qoldi.

O‘takasi yorilgan jonivor tushgan yerida toshqotdi, dukurlab urayotgan yuragi momiq teri ostidan Megrega bamisoli kaftdagiday ko‘rinib turardi. Bir lahzadan so‘ng olmaxon salgina oldinga jildi-yu, yana to‘xtadi.

Megre nafas olishga ham qo‘rqar, kichkinagina sarg‘ish jonivor esa, go‘yo sehrlanganday, insonga jovdirab qarab turardi, a‘zoyi badani esa torday tarang — jinday xavf sezishi bilan sapchib qochishga tayyor.

Ro‘paradagi yo‘lkada turgan odamni ko‘zdan kechirarkan, Megrening xayolidan ana shu manzara o‘tdi. Jilber Pigu ham shu paytgacha ta‘qib qilingan bo‘lsa, hozir go‘yo sehrlab qo‘yilgan edi. Ammo u ham, xuddi olmaxonday, xatar sezgani hamon ura qochishga tayyor.

Kiyinib, pastga tushishdan foyda yo‘q. Baribir u dumini tutqizmaydi. Eng yaqin politsiya postlaridan birortasiga qo‘ng‘iroq qilgan bilan ham natija chiqishi dargumon.

Bu jikkak buxgalter xiyobonni kesib o‘tib, ichkariga kirishni mo‘ljallamayaptimikin? Ehtimol. Axir, uning do‘sti u yoqda tursin, loaqal ko‘nglini ochadigan odami ham yo‘q-da.

U o‘ylagan rejasini amalga oshirdi: Oskar Shabyuni o‘ldirdi. Keyin qochdi. Kimdan, nimadan? Shunchaki qo‘rquvdan. Hozir nima qilmoqchi? Politsiya bilan bekinmashoq o‘ynashni davom ettirmoqchimi?

Bu holat, chamasi, o‘n minutga cho‘zildi. Keyin Jilber bir necha qadam oldinga bosdi, ammo komissarga yana bir qaradi-yu, apil-tapil Shmen-Ver ko‘chasi tomon jo‘nab qoldi.

Komissarning vazmin gavdasi, birdan bo‘shashdi. U go‘yo o‘zini tutib olmoqchi bo‘lganday, deraza yonida yana andak turdi, keyin trubkasini olish uchun bufet tomonga qarab yurdi.

— O‘shami?

— Ha.

— Oldingga kirmoqchi, deb o‘ylaysanmi?

— Albatta. Judayam xohlayapti-yu, lekin jur‘at etolmayapti. Bunaqa odamlar nihoyatda sershubha bo‘lishadi. Kingadir ko‘nglini ochish va o‘ziga nisbatan hamdardlik tuyg‘usini uyg‘otish istagi bilan yonyapti-yu, lekin shunday bo‘lishi mumkinligiga ishonmayapti.

— Hozir qayoqqa ketdiykin?

— Boshi oqqan tomonga-da. Dardi ichida, yolg‘iz, ehtimol, ming‘irlab o‘zi bilan o‘zi gaplashib ketayotgandir.

Megre kresloga endi o‘tirgan ham ediki, birdan telefon jiringlab qoldi. Komissar trubkani ko‘tardi:

— Eshitaman!

— Sizmisiz, xo‘jayin?

— Ha, bolakay. — U Lapuentning ovozi darrov tanidi.

— Birinchi okrug odamlarining yordami, ayniqsa, o‘sha mahallani o‘z uyiday biladigan inspektor Lebef-



ning sa'y-harakati bilan ba'zi narsalarni aniqlashga muvaffaq bo'lindi. Pigu har doim Grand-Tryuanderi ko'chasidan bir xonani, agar xarobani xona deyish mumkin bo'lsa, ijaraga olib yurgan, lekin ikki hafta burun u yerdan ko'chib ketgan.

Megre tunlari Mo'jizalar Hovlisini<sup>1</sup> eslatuvchi bu ko'chani yaxshi bilardi. Bu yerda faqat jamiyatning past tabaqalari istiqomat qilardi. Ular sassiq oshxonaga to'planib olishib, uzzukun qizil vino yoki yovg'on sho'rvani ermak qilib o'tirishardi. Ba'zilari stulda yoki devorga suyangancha ertalabga qadar o'sha yerda qolib ketardi. Ushbu olomon orasida badmast va irkit ayollar erkaklardan oz emas edi.

Bular butkul tubanlashgan kimsalar bo'lib, ularning ahvoli ko'priklar ostida yashovchi isqirtlarnikidan ham ayanchliroq edi. Yoshi o'tgan, beso'naqay ayollar o'ydin-chuqur ko'chalarda tentirab yurishar, mehmonxonalar eshigi yonida mijoz poylashardi.

— Pigu «Oqqush» mehmonxonasidan bir xonani ijaraga olgan. Poxol to'shak solingan temir karavot uchun kuniga uch frankdan haq to'lagan. Xonada vodoprovod yo'q, hojatxona tashqarida.

— Bilaman.

— Kechalari meva va sabzavot ortgan mashinalardan yuk tushirib yurgan. Kulbasiga tongga yaqin qaytib, tushga qadar g'ujanak bo'lib yotgan.

— Mehmonxonadan qachon chiqib ketgan ekan?

— Piguni ikki haftadan beri ko'rganim yo'q, dedi mehmonxona egasi. Uning xonasini o'sha kuniyoq boshqa odam egallagan.

— Qidiruv davom etyaptimi?

— Ha. Brigadada o'n besh kishi bor, vazifa o'zaro taqsimlangan. Birinchi okrug inspektorlari, nega qurshov qilmayapsizlar, deb ajablanishyapti.

— Keragi yo'q. Shov-shuvsiz harakat qilish lozimligini aytganmisan ularga?

---

<sup>1</sup> Mo'jizalar Hovlisi — Parijning o'rta asrlarda tubanlikka tushgan aholi yashagan mahallalari.

- Ha, xo‘jayin.
  - Boshqa yigitlardan biror xabar yo‘qmi?
  - Hozircha yo‘q.
  - Bir necha minut oldin Pigu shu yerda, Rishar-Lenuar xiyobonida edi.
  - O‘zingiz ko‘rdingizmi?
  - Ha. Derazadan ko‘rdim. U ro‘paramda, xiyobonning naryog‘ida turgan edi.
  - Ushlashga urinib ko‘rmadingizmi?
  - Yo‘q.
  - Ketib qoldimi?
  - Ha. Lekin yana qaytib kelsa kerak. Ethimol, bu gal ham jur‘at etolmas, tag‘in juftakni rostlab qolar.
  - Menga biror topshiriq bormi?
  - Yo‘q. Yaxshi yotib tur, bolakay.
- Megre qattiq charchaganini sezdi, yana kresloga o‘tirishdan oldin o‘ziga bir rymka olxo‘ri sharbatidan quydi.
- Buni ichsang issig‘ing ko‘tarilib ketmaydimi?
  - Odamlar grippdan qutulish uchun aroq ichishadi. To‘g‘ri, bu usul doktor pardonga yoqmaydi.
  - Ko‘pdan buyon ularni tushlikka ham chaqirmayapmiz. Ko‘rishmaganimga bir oydan oshdi.
  - Manovi ishimni bir yoqlik qilvolay. Lapuent yangi xabarni aytdi. Pigu keyingi oylarda Parijning ovloq go‘shalaridan biridagi, «Oqqush» deb atalmish xarob bir mehmonxonada yashagan.
  - Hozir ko‘chib ketibdimi u yerdan?
  - Ha, ikki hafta oldin.
- Megre bemahal uxlashni xohlamadi, yotadigan payti esa soat o‘nda boshlanardi. Devor soatiga qaradi-yu yana gazeta hijjalashga tushdi. Ammo ming o‘qigani bilan miyasiga hech narsa kirmasdi.
- Joningga rahm qilsang-chi.
  - O‘n minutdan keyin yotaman.
  - Haroratingni o‘lcha.
  - Agar sen shuni xohlasang, jonim bilan.
- Megre xonim o‘lchagichni olib keldi, komissar uni besh minut og‘ziga tiqib o‘tirdi.
- O‘ttiz sakkiz! Agar ertalabgacha issig‘ing tush-

masa, xohlaysanmi-yo'qmi, Pardonga qo'ng'iroq qilaman.

— Ertaga yakshanba.

— Hechqisi yo'q. Pardon keladi.

Megre xonim tungi libosini kiyayotgan edi, bino-  
barin, ular boshqa-boshqa xonada turib gaplashishardi.

— Tomog'ing og'rigani menga yoqmayapti. Hozir dori surib qo'yaman.

— O'sha doringni o'ylasam, qusgim keladi.

— Vahima qilma, sezmay ham qolasan. O'tgan gal ham shunaqa degan eding, hech narsa bo'lgani yo'q-ku.

Bu yelimga o'xshagan ko'kimtir suyuqlik bo'lib, cho'tkacha bilan tomoqqa surilardi. Dori allaqachon urfdan chiqib ketgan, ammo Megre xonim yigirma yildan buyon undan muttasil foydalanib kelardi.

— Og'zingni kattaroq och.

Pardani berkitayotib Megre derazadan yana ko'chaga mo'raladi.

Ro'paradagi yo'lkada hech kim yo'q edi. Shamol tobora kuchayib borar, xiyobon o'rtasidan chang ko'tarilar edi.

U qattiq uyquga ketgan edi, shu bois hadeganda ko'zlarini ocholmadi. Kimdir yelkasiga turtaverganidan komissar sal nariroq surilib yotdi. Ammo haligi qo'l endi uni tepaga torta boshladi. Megre qo'lni surib tashlab, narigi yonboshiga ag'darildi.

— Megre...

U xotinining ovozini arang tanidi.

— U shu yerda, yo'lakda turibdi. Qo'ng'iroqni bosishga qo'rqib, eshikni ikki-uch marta sekin taqillatdi. Eshityapsanmi?

— Nima? — Komissar shabchiroqni yoqish uchun qo'lini cho'zdi-yu, atrofga taajjub bilan alangladi. Nimani tush ko'rayotgan edi? Esida yo'q, ammo xuddi narigi dunyodan kelib qolganday edi nazarida. — Nima deding?

— U shu yerda. Eshikni taqillatdi.

Komissar o'rnidan turib, kresloda yotgan xalatini kiydi.

— Soat nechchi?

— Ikki yarim.

Megre yotishdan oldin o'chirib qo'ygan trubkasini olib, yana tutatdi.

— Nahotki o'sha bo'lsa?..

U yo'l-yo'lakay chiroq tugmachasini bosib, dahlizga chiqdi-da, bir necha daqiqa o'ylanib turdi, so'ng eshikni ochdi.

Yo'lak qop-qorong'i edi, eshik ochilishi bilan chiroq shu'lasi lop etib ostona ortida turgan odamga tushdi. U bir nima demoqchi bo'ldi. Chamasi, uzundan uzoq bir izhori dil tayyorlab qo'yganga o'xshardi, biroq ro'parasida xalat kiyib olgan Megreni sochlari to'zigan bir ahvolda ko'rib, dovdirab qoldi, gapirgan gapi shu bo'ldi.

— Sizni bezovta qildim shekilli, a?

— Kiring, Pigu!

Unda hali qochib qolish imkoniyati bor edi. U komissardan ko'ra yoshroq, chaqqonroq. Zinadan pastga qarab otilsa — tamom-vassalom, qo'ldan chiqadi. Megre, ho' o'shanda olmaxonga duch kelgan paytidagi-day nafasini ichiga yutgancha, toshday qotib turardi.

Ikkilanish atigi bir necha lahzagina cho'zildi, ammo bu muddat komissarga juda uzoq tuyuldi. Notanish kishi oldinga qarab yurdi. Megre avvaliga eshikni ichkaridan qulflab, kalitini cho'ntagiga solib qo'ymoqchi ham bo'ldi-yu, ammo darrov bu fikridan qaytdi.

— Sovqotgan ko'rinasiz?

— Tashqari izg'irin, shamol esyapti.

— O'tiring! Sal isinib olganingizdan keyin plashingizni yechasiz, — dedi Megre va ichkarida kiyinayotgan xotiniga ovoz berdi. — Iltimos, bizga grog<sup>1</sup> tayyorla!

So'ng ko'ngli sal xotirjam bo'lib, stulga, mehmoni-ning ro'parasiga o'tirdi. Mana, nihoyat, uni yaqindan ko'rib turibdi! Uncha-muncha odam komissarda bunalchalik qiziqish uyg'otmagandi.

Hammadan ham Piguning yosh ko'rinishi kishini hayratga solardi. Uning lo'ppi yuzlari xuddi norasida bolalarnikiga o'xshardi.

— Yoshingiz nechchida?

---

<sup>1</sup> Grog — aroq, vino yoki konyak qo'shib tayyorlanadigan issiq ichimlik. (Tarj.)

— Qirq beshda.

— Ko‘rinishingizdan qirq beshga kirganga o‘xshamaysiz.

— Grogni men uchun buyurdingizmi?

— Siz va o‘zim uchun. Tobim yo‘qroq. Grippman, balki anginadir. Grog foyda qiladi.

— Ichkilikka unchalik xushim yo‘q. Ba‘zan ovqat oldidan bir stakan vino ichaman. Hammayog‘im iflos, kechiring. Ko‘pdan buyon kiyimlarimni tozalaganim yo‘q. Badanimga issiq suv tekkaniga ham ancha bo‘ldi, bir hafta burun Sen-Marten ko‘chasidagi hammomda cho‘milgan edim.

Ular bir-birlarini diqqat bilan kuzatishar, suhbatni davom ettirish uchun so‘z topishga qiynalishardi.

— Halizamon kepqolasiz deb kutib o‘tirgan edim.

— Meni ko‘rganmidingiz?

— Ha. Ikkilanayotganingizni ham sezib turgan edim. Bir qadam oldinga tashladingiz-u, keyin Shmen-Ver ko‘chasi tomon jo‘nab qoldingiz.

— Men ham sizni deraza ortida ko‘rdim. O‘zim soyada turganim uchun meni ko‘rib turganingiz va hatto tanib qolganingiz xayolimga ham kelmagan edi.

Sharpani eshitib, Pigu xuddi olmaxonday seskanib ketdi. Megre xonim grog keltirgan edi, ammo mehmonga hatto ko‘z qirini tashlashga ham istihola qildi.

— Shakarni ko‘proq solaveraymi?

— Mayli.

— Limon ham bor, — Megre xonim avval mehmonning, so‘ng erining oldiga stakan qo‘ydi. — Yana biror narsa kerak bo‘lsa, aytarsizlar.

— Xo‘p. Balki yana grog kerak bo‘lib qolar.

Piguning tarbiya ko‘rgan odamligi o‘zini tutishidan sezilib turardi. Stakanni qo‘liga oldi-yu, komissarning birinchi bo‘lib ho‘plashini kutib turdi.

— Juda qaynoq, lekin foydali, nima dedingiz?

— Harholda grog sizni biroz isitadi. Endi plashingizni yechsangiz ham bo‘laveradi.

Pigu yechindi. Kostyumi o‘ziga yarashib turar, ammo hammayog‘i dog‘-dug‘ edi.

Bu yog‘iga nima haqda gaplashishni ham bilishmas-

di. Ikkalasi ham muddaoga ko'chish kerakligini sezib turar, ammo turli sabablarga ko'ra, bir-birining og'zini poylardi. Sukut anchaga cho'zildi. Yana bir martadan grog ho'plashdi. Megre o'rnidan turib, trubkasiga ikkinchi bor tamaki to'ldirdi.

— Chekasizmi?

— Sigaretim tugagan.

Komissar bufetdan bir quti sigareta olib, mehmonga uzatdi. Pigu xijolat bo'lib, Megre gugurt chaqib tutganida ham, undan ko'zlarini uzolmadi.

Ular yana o'tirishdi, shundan keyingina Pigu gap boshladi:

— Avvalambor sizni uyingizda, buning ustiga bema-halda bezovta qilganim uchun kechirig. Orfevr sohiliga borishga jur'at etolmadim, Parij ko'chalarida yakka-yolg'iz sang'ib yurish esa jonimga tegib ketdi.

Megrening yuzidagi ifoda o'zgarmadi. Bir qo'lida stakan ushlab, bamaylixotir trubka tutatib o'tirgan komissar shu tobda hamma gapni ishonib aytsa bo'ladi-gan dardkash birodarga ko'proq o'xshab ketardi.

## VII b o b

— Men haqimda qanday fikrdasiz? — Piguning birinchi aytgan jiddiy gapi shu bo'ldi. Nochor buxgalter uchun bu savolning nihoyatda muhimligi sezilib turardi. Ehtimol, u umr bo'yi odamlarning nigohidan shu savoliga javob izlagandir.

Xo'sh, nima deyish mumkin?

— Sizni hali yaxshi bilmayman, Pigu, — dedi Megre jilmayib.

— Hamma jinoyatchilar bilan ham shunaqa muloyim gaplashasizmi?

— Hammasi bilan emas. Ba'zan juda badjahl bo'laman.

— Kimlarga nisbatan, masalan?

— Oskar Shabyuga o'xshagan kimsalarga nisbatan.

Xuddi o'ziga hammaslak topganday, Piguning ko'zlari chaqnab ketdi.

— Rostdan ham uning ozgina pulini o'g'irlaganman.

Ko'p emas. Har oy u choy puliga sarflaydiganidan kamroq. Lekin haqiqiy o'g'ri Shabyuning o'zi edi. U mening qadr-qimmatimni, insoniy g'ururimni o'g'irladi. U meni shu darajada tahqirladiki, bosh ko'tarib yurishga ham nomus qiladigan bo'lib qoldim.

— Kassadan pul olish qayoqdan xayolingizga kela qoldi?

— To'g'risini gapiraveraymi?

— Aks holda bu yerga kelishning keragi yo'q edi.

— Xotanimni ko'rdingizmi? U haqda nima deya olasiz?

— Birrovgina ko'rdim, ammo menda shunday taassurot qoldiki, u ishlamaslik uchun erga tekkan, turmushga chiqqanidan keyin ham yana uch yilgacha ishlab yurganiga hayron qoldim.

— Ikki yarim yil.

— U uyda cho'zilib yotishni xush ko'radigan ayollardan.

— Sezdingizmi shuni?

— Ko'rinib turibdi.

— Kechqurunlari ishdan kelib, uy yumushlari bilan band bo'lardim. Agar uning gapiga kirganimda, har oqshomni restoranda o'tkazishimiz kerak edi, azbaroyi jonni koyitmaslik uchun. Menimcha, unda ayb yo'q. O'zi nimjon. Opalari ham o'ziga o'xshagan.

— Parijda yashashadimi?

— Bittasi Jazoirda, neftchi injenerga turmushga chiqqan. Ikkinchisi Marselda yashaydi, uchta bolasi bor.

— Nega sizlarning farzandlaringiz yo'q?

— Lilian xohlamadi.

— Tushunarli.

— Yana bitta singlisi bilan ukasi ham bor... — Pigu bosh chayqab, davom etdi. — Bu gaplarning sizga nima keragi bor? Aybini kamaytirishga urinyapti deb o'ylashingiz mumkin. — Pigu grogdan bir ho'plab, sigareta tutatdi. — Sizni uyqudan qoldirib, gap sotib o'tirishimni qarang...

— Hechqisi yo'q! Demak, xotiningiz ham sizni kamситgan.

— Qayoqdan bilasiz?

— Har doim maoshingiz kamligini yuzingizga solgan, shundaymi?

— Ha, to'g'ri. Peshonam sho'r bo'lmasa senga tegamanmi kelib-kelib, derdi nuqul. «Umrin ikki xonali kvartirada, xizmatkorsiz o'tib ketadi shekilli!» deb xo'rsinardi.

Pigu bu gaplarni xuddi o'z-o'ziga gapirayotganday, Megrega emas, bir chetga qarab so'zlardi.

— Sizga xiyonat ham qilganmi?

— Ha. Turmushga chiqqanidan keyinoq, lekin men buni ikki-uch yildan so'ng bildim. Bir kuni kunduzi ishdan tish doktoriga boradigan bo'lib qoldim, Madlen xiyobonida uni bir kishi bilan qo'ltiqdashib ketayotganini ko'rdim. Ular ro'paradagi mehmonxonaga kirib ketishdi.

— O'ziga aytdingizmi ko'rganingizni?

— Ha. Aytdim-u, baloga qoldim. Yosh umrimni xazon qilding, senga tegib nima ko'rdim, deb javray ketdi. Kechqurun ishdan qaytgach, biroz oyog'imni uzatib yotsam deyman. U bo'lsa kinoga boramiz deb tiqilinch qiladi. Yoki boshqa biror narsani o'ylab topadi. Erkak sifatida ham ko'nglini ololmaganimni aytmay qo'ya qolay. — Pigu shunday dedi-yu qip-qizarib ketdi. Aftidan bunday e'tirof uning uchun o'limdan ham og'ir edi. — Bir gal, bundan uch yil burun, tug'ilgan kunida kassadan tuzukroq tamaddi qilishga yetadigan miqdorda pul olib, uni Katta xiyobondagi restoranga olib bordim. «Yaqinda maoshim oshsa kerak», — dedim Lilianga. — «Allaqachon oshishi kerak edi. Shu qadar kam haq to'lashga uyalmaydimi xo'jayining? Uni ko'rib qolsam, nima deyishimni o'zim bilaman».

— Kassadan hammavaqt oz-ozdan olarmidingiz?

— Ha. Avvaliga xotiningga, maoshimga ellik frank qo'shildi, dedim. Xotinim, shu ham pul bo'ldi-yu, deb masxara qildi, shundan keyin yuz frankka chiqardim.

— Qo'lga tushib qolishdan qo'rqmadingizmi?

— O'rganib qoluvdim-da. Mening hisob-kitobimni hech kim tekshirmasdi, men oladigan pullar muomaladagi pulning oldida hech gap emas edi.

— Lekin kassadan besh yuz frank ham olgansiz-ku?



— To'g'ri. Yangi yil arafasida. Xotininga, mukofot oldim, dedim. Borib-borib o'zim to'qigan yolg'onga o'zim ishonadigan bo'lib qoldim. Shu bilan ko'nglim ko'tarilganday bo'lardi. Men hech qachon martabanni oshirish yo'lida katta rejalar tuzmaganman. To'g'ri, otam Lion kredit bankida ishlashimni orzu qilardi, lekin men o'zim tengi bo'lmagan odamlar bilan ishlashga qo'rqardim. Sharanton sohilida esa o'zimni hammavaqt erkin his qilganman! Men bilan hech kimning ishi yo'q edi.

— O'g'irlik qilayotganingizni Shabyu qayoqdan bila qoldi?

— Shabyu emas, janob Lusek sezib qoldi, u ahyon-ahyon hisob-kitoblarimni tekshirib turardi. Oxirgi safar nimadandir shubhalanib qoldi. Ammo o'zini hech narsani sezmagalikka olib, indamay chiqib ketdi-yu, shu zahotiyiq xo'jayinning qulog'iga yetkazdi.

— Iyunning oxirida bo'lgan edi bu, a?

— Ha, iyunning oxirida. To'g'rirog'i, yigirma sakkinchinchi iyunda. O'sha kunni hech qachon unutmayman. Xo'jayin meni kabinetiga chaqirtirdi. Shaxsiy kotibasi ham o'sha yerda ekan. Hayron bo'ldim. Kamomad ochilib qolgani kimning xayoliga kelibdi deysiz.

— Kirganingizdan keyin o'tirishni buyurdimi?

— Ha. Qayoqdan bilasiz?

— Chigirtka, Anna-Marini aytyapman, hammasini gapirib berdi. U sizdan ham battarroq xijolat bo'lipti.

— Ayol kishining oldida tahqirlagani judayam alam qildi. Bundan ko'ra politsiyaning qo'liga tushganim ma'qul edi. U o'zining xatti-harakati-yu gap-so'zlaridan lazzatlanayotganga o'xshardi. Endi gapi tugadi, deb turganimda Shabyu boshqatdan boshlardi. Nimani ko'proq yuzimga soldi, deng? Kassadan oz-ozdan pul olganimni. U katta o'g'rilarni hurmat qilarmish, menga o'xshagan xashaki yulg'ichlardan nafratlanarmish.

Kichkina buxgalter entikib so'zlar, ba'zan to'xtab, nafasini rostlab olardi. Yuzlari bo'g'riqib ketgandi. U yana grogdan ho'pladi, Megre ham shunday qildi.

— Yaqinroq kel, deb buyurganida, nima bo'lishini bilganim ham yo'q. U qo'qqisdan yuzimga tarsaki tortib

yubordi, ancha paytgacha chakkamdan barmoqlarining izi ketmadi. Shu paytgacha hech kimdan tarsaki yemagan edim. Hatto bolaligimda ham birov menga qo'lini tekkizmagan. Judayam gangib qoldim, Shabyu bo'lsa: «Endi yo'qol bu yerdan!» deb baqirdi. O'shanda aytdimi yoki sal oldinroqmi — aniq esimda yo'q, xullas, tavsiyanoma yozib bermayman, endi tuzukroq ishga joylashib bo'psan, deb pisanda ham qilib qo'ydi.

— Uning ham izzat-nafsiga tekkan-da, — dedi Megre loqayd bir ohangda.

Jilber Pigu taajjublanib, Megrega keskin burilib qaradi.

— Uni kalaka qilganlar jazosiz qolmasligini o'zingizga ham aytgan ekan-ku.

— To'g'ri. Lekin meni oyoqosti qilishiga asosiy sabab shu ekanligini tushunmaganman. Siz shunday deb o'ylaysizmi?

— Albatta, qitiqpatiga tekkan-da. U zo'r odam bo'lgan, harholda o'zini shunday deb hisoblagan. Hayotda nimaniki orzu qilgan bo'lsa hammasiga erishgan. Martabasini vino sotuvchi yugurdaklikdan boshlagan, buyurtma to'plash niyatida eshikma-eshik yugurishga to'g'ri kelgan. U sizni mutlaqo unutib yuborgan. Siz birinchi qavatdagi o'z xonangizda o'tiravergansiz, Shabyu u yoqqa deyarli kirmagan ham, sizga u go'yo muruvvat ko'rsatgan.

— Undan buni kutish qiyin.

— Unda ham o'zini butun odamday his qilish ehtiyoji tug'ilgan, shuning uchun birorta ham ayolni qo'ldan chiqazmaslikka harakat qilgan.

— Unga ham rahm qilish kerak, demoqchimisiz? — Jilber Piguning kayfiyati buzildi.

— Ikkovlaringiz ham ozmi-ko'pmi rahm-shafqatga arziysizlar. Meni masalaning mohiyati qiziqtiradi. Kimning qay darajada javobgar ekanligini aniqlash mening ishim emas. Xullas, siz Sharanton sohilidan ketdingiz. To'ppa-to'g'ri qayoqqa yo'l oldingiz?

— Ertalab soat o'n bir bo'lsa ham, kun qattiq qizdirayotgan edi. Chinor soyasida biroz o'tirdim. Keyin Austerlis ko'prigi yonidagi mayxonaga kirib, ikki-uch ryumka konyak ichdim.

— Nonushtani xotiningiz bilan birga qildingizmi?

— Yo‘q. U ko‘pdan buyon oldinga kirmay qo‘ygan edi. Anchagacha ko‘chada sang‘ib yurdim, ichdim, bir mahal qarasam, kinoda o‘tiribman. U yer ko‘chadan ko‘ra salqinroq edi. Yodingizdami, iyun juda issiq keldi bu yil?

Pigu bo‘lgan voqeani butun ikir-chikirigacha so‘zlab berishga harakat qilardi. Ayniqsa, shunday imkoniyat tug‘ilgan va ro‘parasida ajoyib suhbatdosh o‘tirgan paytda ko‘nglini batamom bo‘shatib olish niyatida edi.

— Kechqurun uyga qaytganingizda xotiningiz ko‘p ichganingizni sezmadimi?

— Ko‘tarildim, Opera ko‘chasidagi mahkamaga ishga o‘tdim, shu munosabat bilan hamkasblarim meni mehmon qilishdi, dedim xotininga.

Megre shu jo‘n bahonadan kulmadi, qaytanga yuzi battar jiddiylashdi.

— Ikki kundan keyinoq qandoq qilib xotiningizga pul tutqazdingiz? Axir, Shabyu iyun oyi uchun sizga haq to‘lamagan bo‘lishi kerak-ku?

— Jamg‘arib qo‘ygan pulim yo‘q edi. Har oy sigareta va metro uchun xotinimdan qirq frankdan olardim. Bir chorasini topish kerak edi. Kechasi bilan o‘ylayverib, boshim qotib ketdi. Axiyri, shu qarorga keldim. Ertalab uydan chiqib keta turib, xotininga, ishdan kech qaytaman, yangi kabinetimni tartibga keltirishim kerak, dedim. Gap shundaki, Shabyuning mahkamasidan quvilgan paytimda seyfnning kalitini qaytarib berishni unutgan ekanman. Seyfda ancha-muncha, odatdagidan ko‘proq pul bo‘lishi kerak: ertasi maosh beriladigan kun edi.

Shabyuning qo‘lida ishlab yurgan kezlarim kechqurunlari mahkamaga qaytib kelishga to‘g‘ri kelardi. Ish ko‘payib ketgan paytlarda, albatta. Eshikning kaliti ham yonimda yurardi.

Avvaliga kalit yodimda yo‘q, binoning orqasiga o‘tdim, uncha-muncha odam payqamaydigan bu eshik yomon qulflanardi, pichoqning uchi bilan ham osongina ochilaverardi.

— Tunda qorovul turmaydimi?

— Yo‘q. Qorong‘i tushgandan keyin sekin hovliga

kirdim. Orqa eshik, o'ylaganimday, darrovgina ochila qoldi. O'z xonamga o'tib, seyfdan sanamay bir dasta pul oldim.

— Qancha olganingizni keyin bilgandirsiz?

— Uch oylik maoshimdan ko'proq. Uyga kelib, pulni shkafga yashirib qo'ydim. Lilianga esa bir oylik maoshim miqdorida pul berdim. Ishdan haydalganimni aytishga jur'at etolmadim.

— Xotiningiz buni sezib qolishidan nega bunchalik tashvish tortdingiz?

— U ma'lum darajada shu ishlarga guvoh edi. Qancha yil yashagan bo'lsak, har doim menga shubha bilan qarardi. Men bo'lsam loaqal bironta odam menga ham ishonishini orzu qilardim! Endi uzzukun ko'cha kezib, yangi ish qidira boshladim. Osongina topaman, deb o'ylagandim. E'lonlarni o'qib, darhol o'sha joyga yetib borardim. Meni savolga tutishardi. Eng oldin yoshimni surishtirishardi. Qirq beshga chiqqanimni aytganimdan so'ng: «Bizga yoshi o'ttizdan oshmagan odam kerak», deb qo'ya qolishardi. O'shanga qadar o'zimni kuchga to'lgan yosh yigitday his qilardim. Juda ruhim tushib ketdi. Ikki haftadan so'ng buxgalterlik o'rnini qidirmay ham qo'ya qoldim, menga yugurdaklik yoki birorta do'konda sotuvchilikni berishsa rozi edim... Har gal, nari borganda, ism-familiyam bilan adresimni yozib olishardi-yu: «Yozma ravishda ma'lum qilamiz», deb jo'natvorishardi. Ishga olmoqchi bo'lgan paytlarida esa, shunday joylar ham chiqqan edi, albatta, ilgari qayerda ishlaganimni surishtirishardi. Shabyuning pisandasini eslab, rostini aytishga qo'rqardim. «Har joyda oz-ozdan ishlaganman. Uzoq vaqt chet elda bo'lganman». Shunday desam, qayerdaligini so'rashardi: Belgiyadami yoki Shveysariyadami? Axir men fransuz tilidan boshqa tilni bilmayman-ku. «Tavsiyanomangiz bormi?» «Bor. Opkelaman». Tabiiyki, qaytib qoramni ko'rsatmasdim. Iyunning oxiri — og'ir payt. Ko'p mahkamalar berkilib, egalari dam olishga ketishadi. Yana bir marta xotinimga maoshimni keltirib berdim... To'g'rirog'i, shkafga yashirgan pulimdan olib berdim... «Keyingi paytlarda o'zgarib qolding, — dedi Lilian. — Yangi joyingda Sharanton

sohilidagidan ko'ra ham ko'proq charchayotganga o'xshaysan...» «Yangi ishga hali ko'nikkanim yo'q-da, hisoblash mashinasini o'rganishim kerak. Opera ko'chasi hamma savdo shoxobchalari nazorat qilinib turiladi, ularning soni o'n besh mingdan ortiq. Shu ishning mas'uliyati mening zimmamda...» «Qachon otpuskaga chiqasan?». «Bu yil iloji yo'q: ish ko'p. Ehtimol yangi yildan chiqarman. Biror marta qishda ham dam olsam chakki bo'lmasdi. Bu yil o'zing ketaverasan. Uch haftami, bir oymi, qarindoshlaringnikida yayrab kela qol».

Shundan keyin u bir oyga jo'nab ketdi. Ikki hafta Ek-san-Provansda, ota-onasinikida turdi, otasi o'sha yerda arxitektor bo'lib ishlaydi, yana ikki hafta Bandolda bo'ldi, har yili yozda opasi, uchta bolasi bor, dedim-ku, o'sha opasi bir villani ijaraga oladi. Parijda yolg'iz o'zim qoldim. Reomyur ko'chasi dagi e'lonlarni o'qib, ish qidirib yuraverdim. Lekin natija chiqmadi. Shundan keyingina Shabyuning haq ekanligiga ishonдим — ish topishim dargumon. Vozelzar maydonida, Shabyuning uyi atrofida o'ralashadigan bo'ldim, shunchaki, bemaqsad, bir ko'rinib qo'yish uchun. Lekin u dam olishga jo'nab ketgan ekan. Ehtimol Kanga ketgandir. U yerda kvartirasi bor.

— Uni yomon ko'rarmidingiz?

— Butun vujudim bilan. Men huvillagan Parijda ish qidirib yurgan paytimda uning qayerdadir, dengiz bo'yida, oftobda toblanib yotishi o'taketgan adolatsizlikday tuyulardi. Bu vaqtga kelib, o'ning oxirida xotinimga tutqazishim lozim bo'lgan maoshdan salgina mo'lroq pulim qolgan edi. Xo'sh, keyin-chi? Keyin nima qilaman? Rostini aytaveraymi? Keyin xotinim meni tashlab ketishiga ishonchim komil edi. Lilian boshiga og'ir kun tushganda erining yonida turadigan ayollardan emas.

— Unga nisbatan haliyam biron-bir mehringiz bormidi?

— Bor edi, shekilli. Bilmayman.

— Hozir-chi?

— Hozir u menga butunlay begona. Bir paytlar uning fikri bilan hisoblashib yurganimga hatto taajjublana-man.

— Oxirgi marta qachon ko'rgandingiz uni?

— U dam olishdan qaytganidan keyin yana yigirma kun birga yashadik. Oyning oxirigacha unga berishim lozim bo'lgan pul tugashiga ko'zim yetib turardi.

Bir kuni ertalab qaytib kelmaslikni dilimga tugib, uydan chiqib ketdim. Yonimda qolgan bir necha yuz frankdan boshqa hech narsa olmadim.

— To'ppa-to'g'ri Grand-Tryuanderi ko'chasiga qarab ketdingizmi?

— Buni ham bilasizmi? Yo'q. Avval Bastiliya maydoni yaqinidagi arzon, lekin durustgina mehmonxonadan bir xonani ijaraga oldim. U yerda xotinimga duch kelmasligimni bilardim.

— Shundan keyin Oskar Shabyuning iziga tushdingiz?

— Endi men uning kunning qaysi paytida qayerda bo'lishini bilardim, shuning uchun goh Opera ko'chasida, goh Vogezlar maydonida, goh Sharanton sohilida aylanib yurardim. Har chorshanba kechqurun kotibasi bilan Fortyuni ko'chasidagi ishratxonaga kelishidan ham xabarim bor edi.

— Nimani mo'ljallagan edingiz?

— Hech narsani mo'ljallagan emasman. U meni hayotimda juda katta rol o'ynagan kishi sifatidagina qi-ziqtirardi. Shabyu meni tahqirladi, insoniy g'ururimni poymol qildi, yana odamga o'xshab yashash imkoniyatidan meni mahrum etdi.

— Qurolingiz bormidi?

Pigu cho'ntagidan kichkina qora to'pponchani chiqazdi-da, o'rnidan turib, uni Megrening ro'parasidagi dumaloq stolchaga qo'ydi.

— O'zimni o'ldirmoqchi bo'lsam, asqotadi, deb yonimga solvolgan edim.

— Shunaqa niyatingiz ham bormidi?

— Ko'p ahd qildim, ayniqsa kechqurunlari. Lekin har safar ham jur'at etolmasdim. O'zim o'q ovozidan qo'rqaman, og'riqqa chidayolmayman. Shabyuning gapi to'g'ri, chamasi, men qo'rqoqman.

— Bir minutga gapingizni bo'laman, qo'ng'iroq qilishim kerak, — dedi Megre. — Sababini hozir bilasiz. —

U Orfevr sohiliga sim qoqdi. — Xonim, iltimos, inspektor Lapuentni ulavoring!

Pigu nimadir demoqchi bo'ldi-yu, indamay qo'ya qoldi.

Oshxonada Megre xonim yana grog tayyorlamoqda edi.

## VIII b o b

— Lapuent, senmisan?

— Haliyam uxlamadingizmi, xo'jayin? Ovozingiz jaranglab chiqyapti. Hozircha yangilik yo'q.

— Bilaman.

— Qayoqdan bilasiz? Uydasiz-ku.

— Ha, uydaman.

— Hozir soat uch.

— Odamlarni qaytaraver. Qidiruv tugadi.

— Topildimi?

— U shu yerda, menikida, gaplashib o'tiribmiz.

— O'zi keldimi?

— Rishar-Lenuar xiyobonida orqasidan yugurib yurmayman-ku.

— Qalay ekan?

— Chakkimas.

— Men kerakmanmi?

— Hozircha, yo'q. Lekin joyingda o'tira tur. Patrullarga ruxsat ber, Janvye, Lyuka, Torrans va Lurtilarni xabardor qilib qo'y. Yana qo'ng'iroq qilaman.

Megre trubkani qo'yib, xotini qadahlarni to'ldirguncha kutib turdi.

— Bir gapni aytishni unutibman, Pigu, garchi biz Orfevr sohilida emas, mening uyimda o'tirgan bo'lsak ham, men lavozimdagi shaxs hisoblanaman, binobarin, siz yana nimalarni ma'lum qilishni lozim topsangiz, hammasidan foydalanish huquqini o'zimdagi saqlab qolaman.

— Albatta.

— Birorta tuzukroq advokatni taniysizmi?

— Tuzugini ham, notuzugini ham tanimayman.

— Lekin ertagayoq advokat sizga kerak bo'ladi, sud

tergovchisi so‘roqqa chaqiradi. Sizga bir nechta familiyani aytaman.

— Rahmat sizga.

Megre Lapuentga qo‘ng‘iroq qilganidan keyin suhbat bir qadar parokanda bo‘lib qolgan edi. O‘rtadagi mujmal vaziyatni aritish niyatida komissar qadahni qo‘liga oldi.

— Sizning sog‘lig‘ingiz uchun!

— Siz uchun! — Pigu siniq jilmaydi. — Yaqin orada yana grog ichishga muyassar bo‘lolmayman. Menga og‘ir jazo berishsa kerak, a?

— Nega bunday qarorga keldingiz?

— Birinchidan, Shabyu juda badavlat va nufuzli kishi edi. Ikkinchidan, o‘zimni oqlash uchun biron-bir tayinli gap aytolmayman.

— Shabyuni o‘ldirish birinchi bor qachon xayolingizga keldi?

— O‘zim ham bilmayman. Hammasi Bastiliya maydonidagi mehmonxonadan Grand-Tryuanderi ko‘chasi-dagi xarobaga ko‘chganimdan keyin boshlandi. U yer juda ayanchli edi. Har gal markaziy bozorda sabzavotlarni tushirib qaytganimdan keyin yum-yum yig‘lab, uyquga ketardim. Shovqin-suron, badbo‘y hid jon-jonimdan o‘tib ketardi. O‘zimni allaqanday bema‘ni olamga abadiy uloqtirib tashlanganday his qilardim. Kunduz kunlari shaharda tentirab yurib, Vogeplar maydoniga borib qolardim, ba‘zan Sharanton sohilida yoki Opera ko‘chasida izg‘irdim. Ikki-uch marta Lilianni poylab, Monparnas qabrisonida yashirinib yotdim. Shabyuni ko‘rib qolganimda esa o‘z-o‘zimga: «O‘ldiraman!» deb qo‘yardim. Albatta, bu so‘z beixtiyor og‘zimdan chiqib ketardi. Aslida uni o‘ldirish niyatim yo‘q edi. Shunchaki uning qanday yashayotganini olisdan kuzatardim, xolos. Dabdabali mashinasi, hammavaqt kekkayib turadigan basharasi, qoyilmaqom tikilgan kostumi, hafsala bilan dazmol urilgan shimi — hamma-hammasi g‘ashimni keltirardi. Ayni paytda o‘zim ayovsiz tubanlashib borardim. Uydan olgan bittagina kostumim allaqachon shalvirab, isqirt bo‘lib ketgandi. Plashimning ham plash-



lik siyoqi qolmagandi, eskifurushdan jo'ngina palto sotib olish uchun esa pulim yo'q edi.

Bir kuni Sharanton sohilida, mahkamadan nariroqda turgan edim, Lilianning o'sha yoqqa kirib ketayotganini ko'rib qoldim. Demak, oldin u Opera ko'chasiga borgan. O'sha yoqqa ishga o'tkazishdi, deganman-ku unga. Lilian ichkarida ancha qolib ketdi. Bir mahal hovliga Anna-Mari chiqdi. Shabyuning kabinetida nima ishlar bo'layotganini tushundim. Men rashkchi emasman. Ammo, bu hodisa yuzimga yana bir tarsaki bo'lib tushdi: Shabyu o'zini butun olam, dunyodagi jamiki narsalar faqat meniki, deganday ish tutardi. O'shanda og'zimdan yana shu so'z chiqib ketdi: «Uni o'ldiraman!..» Keyin Lilianning ko'ziga ko'rinmaslik uchun nariroqqa ketdim.

— Fortyuni ko'chasiga birinchi marta qachon borgan edingiz?

— Noyabrning oxirida. Metroga tushish uchun ham pulim qolmagan edi. — Pigu boshini sarak-sarak qildi. — Bilasizmi, cho'ntagingda sariq chaqa ham bo'lmasa, buning ustiga, endi hech qachon odamga o'xshab yashash nasib etmasligini sezib tursang, bundan og'ir narsa yo'q. Bozorda ko'pincha qariyalarga duch kelasan. Ammo u yerdagi yoshlarning nigohi ham keksalarnikiday g'ussaga to'la. Meniki ham shunaqami?

— Unchalik emas.

— Qiziq! Axir men ham o'shalarga o'xshab qolganman-ku... Tarsakini eslasam, qonim qaynab ketaverardi. Shabyu bunday qilmasligi kerak edi. Gapirgan gaplarini, mayli, qanchalik beandisha bo'lmasin, butun haqoratlarini ham, ehtimol, unutib yuborgan bo'lardim. Ammo tarsakisi! Yosh boladay qildi-ya, noinsof!

— O'sha chorshanba kuni Fortyuni ko'chasiga yo'l olganingizda aniq bir maqsadingiz bormidi?

— Modomiki, oldingizga o'z ixtiyorim bilan kelgan ekanman, mug'ombirlik qilishimdan nima foyda bor? Qotilga aylanib qolishimni bilmaganman. O'lay agar. Menga ishoning. Sizni aldash niyatim yo'q.

— O'sha paytda nima haqda o'ylaganingizni eslashga bir urinib ko'ring.

— Faqat bir narsa haqida — bundan keyin bu ahvolda yashab bo'lmisligi haqida o'ylaganman. Uzil-kesil jahannam tubiga qulab bo'ldim. Bugunmi-ertami qurshovga tushaman yoki kasal bo'laman, meni kasalxonaga olib ketishadi — u yog'i esa ma'lum. Nimadir bo'lishi kerak edi.

— Aynan nima?

— Agar Anna-Mari bilan chiqsa, men ham yuziga tarsaki tushiraman — shu bilan tamom-vassalom, ora ochiq... Shu niyatda eshikka yaqinlashdim...

Pigu boshini xam qildi.

— Yo'q, u mendan ko'ra baquvvatroq... Soat to'qqizgacha kutdim, nihoyat, yo'lakda chiroq yondi. Shabyu bir o'zi chiqdi. To'pponcha cho'ntagimda edi. Shartta chiqazdimu mo'ljallasdan ketma-ket o'q uzdim — bittami, ikkitami, uchtami, qanchaligi esimda yo'q.

— To'rt marta.

— Avvaliga joyimdan jilmasdan politsiya kelishini kutmoqchi bo'ldim. Keyin kaltaklashadi deb qo'rqdim, Vile ko'chasidagi metro stansiyasi tomon yugurdim. Hech kim meni quvmadi. Bozorga borganda, o'zimga kelib, darhol sabzavot tushirishga yollandim. O'zim tanho qolishim mumkin emas edi... Bor gap shu, janob komissar...

— Menga qo'ng'iroq qilishga sizni nima majbur qildi?

— Bilmayman. Shu voqeadan keyin o'zimni nihoyatda yolg'iz his eta boshladim. Mening ahvolimni hech kim tushunmaydi, deb o'ylardim. Siz haqingizda gazetalarda ko'p o'qiganman, shu bois, o'limimdan oldin sizni bir ko'rish istagi tug'ildi. Peshonamga o'q uzishni mo'ljallab qo'ygan edim. Keyin: «Bir urinib ko'rmaysanmi?» degan fikr urildi miyamga. Lekin baribir yuragim dov bermay yurdi, qo'rqdim, sizdan emas, politsiyachilaringizdan.

— Mening odamlarim qo'llariga erk berishmaydi.

— Lekin hamma shunday deydi.

— Elning og'ziga elak tutib bo'lmaydi. Cheking. Hozir ham qo'rqyapsizmi?

— Endi — yo‘q. Baribir sizga bir emas, ikki marta qo‘ng‘iroq qildim. Haligi ishdan keyinoq dyu Pale xiyobonidagi qahvaxonadan xat yozib yubordim. Nazarimda siz yonginamda, ayni paytda, mendan juda olisda edingiz. Siz ham Shabyuga o‘xshab mashinada yurasiz, binobarin, qayoqqa ketayotganingizni oldindan sezib turishimga to‘g‘ri keldi. Shu tariqa sizni Sharanton sohilidagi mahkama yonida uchratdim. Anna-Mari men haqimda sizga gapirgan bo‘lishi kerak. Birinchi kuniyoq gapirmasligi mumkin emas. To‘g‘ri, Shabyu meni oyoqosti qilgan kun uning uchun endi uzoq o‘tmish bo‘lib qoldi, axir bu voqea iyunda bo‘lgan edi-ku. Sizni Vozelzar maydonida ham, Orfevr sohilida ham ko‘rdim. Yashirinib yurish befoydaligini, baribir qo‘lga tushirib, qamab qo‘yishlarini bilardim. Uzoqqa cho‘zmasdingiz-ku, to‘g‘rimi?

— Agar yana bir kecha bozorda bo‘lganingizda qo‘lga tushardingiz. Politsiya «Oqqush» mehmonxonasida yashashingizni ham bilardi. Yoki biror tungi mayxonadan sizni topishardi. Ichkilikka o‘rganmadingizmi?

— Yo‘q.

— Bunday ahvolga tushgan odamlarning aksariyati ichkilikka berilib ketadi.

— Jinoyat qidiruv politsiyasiga kirishga ko‘p ahd qildim. Lekin har gal kimning qo‘liga tusharkinman, sizning yoningizga umuman yaqinlashtirishmasa ham kerak, deb paysalga solaverdim. Nihoyat, mana, Rishar-Lenuar xiyoboniga keldim.

— Sizni ko‘rdim.

— Men ham ko‘rdim. Keliboq, tepaga ko‘tarilmoqchi edim-u yuragim dov bermadi, sababi derazadan juda vahimali ko‘rindingiz, sekin jo‘nab qoldim. Bir necha soat shu atrofda aylanib yurdim. Derazangiz tagidan besh martacha o‘tdim, lekin chiroq o‘chgan edi.

— Tushunarli. Ijizat berasizmi?

Megre yana Orfevr sohilidagi kommutator nomerini terdi.

— Iltimos, Lapuentni ulang. Allo! Hamma qaytdimi? Yoningda kim bor?

— Lyuka navbatchilik qilyapti. Hozirgina Janvye keldi.

— Ikkovlarning kelinglar. Yopiq mashinada.

— Olib ketishadimi? — deb so‘radi Pigu Megre trubkani qo‘ygach.

— Boshqa iloji yo‘q.

— Nachora. Baribir tish sug‘urtirishday yoqimsiz narsa.

U odam o‘ldirdi. O‘z ixtiyori bilan politsiya komissarining uyiga keldi. Ammo bunday qilishga uni eng avvalo qo‘rquv hissi undagan edi. Kaltaklar va shafqatsizlikdan qo‘rqqan edi u. Hozir qilgan jinoyati haqida o‘ylamayotgan ham bo‘lishi kerak. Megre buvisining boshiga temir kosov bilan o‘n besh marta tushirib, so‘ng: «Men bu ishni qasddan qilganim yo‘q», deb o‘zini astoydil ishontirishga uringan Stirne ismli bolani esladi. O‘shani esladi-yu, go‘yo qalbining eng tubida ne hislar kechayotganini bilmoqchi bo‘lganday, Piguga qattiq tikiilib qaradi. Buxgalter sarosimalanib qoldi.

— Yana biror narsani so‘ramoqchimidingiz?

— Yo‘q, yo‘q.

Fortyuni ko‘chasida qilgan ishidan afsuslanyaptimi-yo‘qmi — buni so‘rashdan nima foyda? Sudda so‘rashadi, albatta. Agar to‘g‘risini aytsa, sud hay‘ati ham dovdirab qoladi, zalda g‘ala-g‘ovur ko‘tariladi.

Ular anchagacha indamay o‘tirishdi, Megre qadahidagi grogni ichib tamomladi. Pastdan mashinaning shovqini eshitildi. Mashina yo‘lak oldida to‘xtadi. Eshiklar qarsillab yopildi. Megre so‘nggi trubkani tez-tez tortib tugatdi — judayam chekkisi kelib turgani uchun emas, hayajonini bosish uchun shunday qildi. Keyin zinapoyada qadam tovushlarini eshitib, eshikni ochish uchun o‘rnidan turdi. Xonaga kirgan Janvye bilan Lapuent shiftdagi chiroq atrofida suzib yurgan ko‘kimtir tutunga hayron bo‘lib tikilib qolishdi.

— Tanishinglar, yigitlar! Jilber Pigu. Bu kishi bilan uzoq gaplashdik. Ertaga rasmiy ravishda so‘roq qilamiz.

Bir qadar o'zini bosib olgan Pigu Megrening yordamchilariga razm soldi. Ular odamlarni kaltaklaydigan kimsalarga sirayam o'xshamasdi.

— Bu kishini sohilga olib boringlar, to'yib bir uxlasin. Men keyinroq boraman.

Lapuent Megrega bir ishora qilgan edi, u darrov tushunmadi, chunki qattiq toliqqanidan oyoqda zo'rg'a turardi. Inspektor: «Kishan solaymi?» deganday Piguning qo'liga imo qildi.

Megre buxgalterga yuzlandi:

— Sizga ishonishadi, — dedi u sekin, — lekin qoidasi shunaqa. Yetib borganlaringizdan keyin yechib olishadi.

Zinapoyada Pigu o'girilib qaradi. Ko'zlari jiqqa yosh edi. Go'yo o'zida qaytadan jur'at paydo qilmoqchi bo'lganday yana bir bor komissarga tikildi. Uning g'ussaga to'la nigohida adoqsiz o'kinch va ta'na ifodasi mujassam edi.

# MEGRE VA DAYDI



## I b o b

Orfevr sohilidan Mari ko'prigi tomon keta turib, Megre negadir birdan to'xtadi-yu, yana bamaylixotir yo'lida davom etdi, buni yonida borayotgan hamrohi Lapuent sezmedi ham. Komissar shu lahzada o'zini she-rigidan navqiron va bardam his qilmoqda edi.

Ehtimol bunga musaffo, totli va dilni qitiqlovchi ajib bahor havosi sabab bo'lgandir. Bir vaqtlar Jinoyat qidiruv politsiyasining ko'cha tartibini saqlash bo'limiga endigina inspektor etib tayinlangan yosh Megre xuddi mana shunday oftob charaqlab turgan tong pallasida Parij ko'chalarida uzoq sayr qilgan edi.

Garchi qish allaqachon tugab, mart oxirlab qolgan bo'lsa ham bahor faqat bugun — yigirma beshinchi martda chinakamiga o'zini ko'rsata boshladi. Havo ochiq, osmon shishaday tiniq. Ammo kechasi momaqaldiroq gumburlab, rosa jala quydi. Bugun birinchi marta Megre paltosini kabinetda qoldirgan, yengil shabada tugmalari yechiq kamzulining etaklaridan tortqilar, komissar bundan rohatlanardi.

Megre qo'llarini orqasiga qilganicha o'ng-u so'liga nigoh tashlab borarkan, ko'pdan o'ziga yod bo'lib ketgan narsalarni ham e'tiboridan soqit qilmasdi.

Bunday qisqa sayr uchun Jinoyat qidiruv politsiyasi-ning hovlisida turgan qora mashinalardan birini olish shart emas edi, binobarin, ular yayov yo'lga chiqishdi. Bibi Maryam ibodatxonasi eshigi oldida izg'ib yurgan bir to'p kaptar bulardan hurkib, duv osmonga ko'tarildi. Sal narida, maydon chetida Kyolndan kelgan turistlarning kattakon sariq avtobusi turardi.

Temir ko'prikchadan Sen-Lui oroliga o'tishdi, shun-da Megre derazalardan birida oppoq to'r yoqali qora ko'ylak kiygan xodima qizni ko'rdi. U qiz xiyobonlarda qo'yiladigan spektakllarning qahramonini eslatardi. Sal

nariroqda oq peshbog' tutgan qassob yordamchisi go'sht sotardi. Bir yo'lakdan pochtalyon chiqib keldi.

Tongda yuz ochgan kurtaklar daraxt shoxlarini so'lim kokilga aylantirib yuborgandi.

— Senada suv haliyam baland, — dedi shu paytgacha churq etmay kelayotgan Lapuent.

Darhaqiqat, daryoda suv ko'p edi. Qariyb bir oy tinimsiz yomg'ir quydi. Har kuni kechqurun televizorda suv ostida qolgan shahar va qishloqlarni ko'rsatishardi. Senaning loyqa to'lqinlari har turli buyumlar, eski yashiklar va singan daraxt shoxlarini lapanglatib oqizib borardi.

Megre bilan Lapuent Burbonlar sohili yoqalab Mari ko'prigiga yetib kelishdi va ko'prikdan o'ta turib, pastda qoziqqa bog'log'liq turgan kulrang barjaga diqqat bilan razm solishdi. Barjaning old qismiga chizilgan uchburchak shaklidagi oq-qizil belgiga qaraganda u suvda yuk tashuvchi kompaniyaga tegishli edi. Barja «Puatu» deb atalardi. Uning yukxonalarini qumdan bo'shatayotgan ko'tarma kranning taraqa-turuqi shahar g'ala-g'ovuriga omuxta bo'lib ketayotgandi.

Ko'prikdan yuqoriroqda, «Puatu»dan ellik metrlar chamasi nariroqda yana bir barja turardi. U nihoyatda ozoda va ko'rkam edi. Barja quyrug'ida Belgiya bayrog'i hilpirar, oppoq rubka yonida, kanop belanchakda bir bola uxlab yotardi. Baland bo'yli malla soch erkak, xuddi birovni kutayotganday, nuqul sohil tomonga tikilardi.

Barja chetiga oltin harflar bilan «Zvaarte Zvaan»<sup>1</sup> deb yozilgandi. Flamandcha bu nomning ma'nisiga na Megre, na Lapuent tushundi.

Soat o'nga yaqinlashib qolgan edi. Politsiyachilar Selesten sohiliga chiqishdi; ular endi bandargohga tushmoqchi bo'lib turishgan edi, bir mashina kelib to'xtab, undan uchta erkak tushdi.

— Niyat xolisligini qaranglar-a! Hammamiz bir vaqtda jam bo'ldik...

Bular ham Adolat saroyidan, ammo binoning boshqa

---

<sup>1</sup> Z v a a r t e Z v a a n (flamandcha) — «Qora quv».



qismidan — martabasi balandroq kishilar, ya'ni sud mahkamasi amaldorlari ishlaydigan qismidan kelishgandi. Biri prokuror yordamchisi Parran, ikkinchisi sudya Dansiger, uchinchi sud kotibi bo'lib, garchi ilgari ming marotaba ko'rgan bo'lsa ham Megre bu qariyaning familiyasini eslay olmadi.

O'z yumushi bilan shoshib ketayotgan yo'lovchilar ham, yo'lkada o'ynab yurgan bolalar ham — hech kim jinoyat sodir bo'lgan joyga shu tobda prokuratura xodimlari kelib turganini bilmasdi, albatta. Mundoq farahbaxsh bahor kuni qayoqda-yu, jinoyat degan mudhish narsa qayoqda! Prokuror yordamchisi cho'ntagidan tilla tamakidonini chiqazib, beixtiyor Megrega uzatdi, ammo uning og'zida trubkasi bor edi.

— E, kechirasiz, ko'rmabman...

U baland bo'yli, ozg'in, bashang kiyingan malla kishi edi. «Oliftagarchilik prokuratura xodimlariga tekkan kasal», — degan o'y o'tdi yana komissarning ko'nglidan. Ammo xo'ppa semiz, pakana sudya Dandsiger juda odmi kiyingan edi.

— Xo'sh ketdikmi, janoblar?

Ular tosh zinapoyadan suv bo'yiga, barjaga yaqin yerga tushishdi.

— Shumi?

Megre ham hamrohlaridan ko'p narsa bilmasdi. U tunda ro'y bergan barcha hodisalarning qisqa bayonini ertalab politsiya axborotidan o'qib bildi, yarim soat burun esa telefon jiringlab, undan prokuratura xodimlari bilan birga jinoyat sodir bo'lgan joyga borishni iltimos qilishdi.

U «yo'q» demadi. Qaytanga yaxshi: ochiq havo, eski tanishlar. Beshovlon barja tomon yurishdi. Barja bilan sohil o'rtasiga taxta tashlab qo'yilgan edi.

Boyagi novcha malla kishi bularning istiqboliga qarab yurdi.

— Qo'lingizni bering, — dedi u oldinda borayotgan prokuror yordamchisiga. — Ehtiyot shart-da. To'g'rimi?

U flamandcha lahjada gapirardi. Dag'al yuzi, ko'k ko'zlari, baquvvat bilaklari, xatti-harakati — bularning

bari uzoq masofani bosib o'tib, matbuot uchun intervyu berayotgan sportchi-velosipedchini eslatdi.

Qum tushirayotgan kranning shovqini bu yerda, sohilning o'zida yanayam qattiqroq eshitilardi.

— Ismingiz Jozef van Gutmi? — deb so'radi Megre bir parcha qog'ozga tez ko'z yugurtirib.

— Ha, musye. Jef van Gut.

— Kemaning egasi siz bo'lasizmi?

Rubka tomondan kelayotgan lazzatli taomning hidi dimoqqa urildi. Pastda, zina yonida yosh bir juvon uymalanardi.

Megre belanchakka ishora qildi.

— O'g'lingizmi?

— Yo'q, o'g'il emas, musye, qizaloq. Ismi Yolanda. Singlimning ismi ham Yolanda, u qizimning cho'qintirgan onasi...

Gapga prokuror yordamchisi aralashdi, kotib yozishga tayyorlandi.

— Qandoq bo'lganini so'zlab bering.

— Bajonidil. Uni suvdan olib chiqdim, anovi barjadagi odam yordam berdi.

Jef «Puatu»ni ko'rsatdi, barjaning quyrug'ida bir odam shturvalga engashgancha bular tomon tikilib turar, aftidan, guvohlik berish navbatini kutar edi.

Ketma-ket sirena ovozi eshitildi, ularning yonidan shatakchi bir kema to'rtta barjani sudragancha oqimga qarshi asta suzib o'ta boshladi. Har bir barja «Zvaarte Zvaan»ga yaqinlashganda Jef van Gut salomatlashganday o'ng qo'lini ko'tarib qo'yardi.

— Cho'kayotgan odamni tanirmidingiz?

— Umrimda ko'rmaganman.

— Bu sohilda anchadan beri turibsizmi?

— Kecha kechqurun keluvdim. Jemondan Ruanga shifer olib ketyapman. Qorong'i tushguncha Parijdan o'tib, Syuren shlyuzi yonida tunamoqchi edim... Qarasam, dvigatel qiliq chiqaryapti. Biz, daryochilar, Parijda tunashni unchalik yoqtirmaymiz.

Megre ancha narida, ko'prik ostida yurgan ikki-uchta daydilarni ko'rdi. Ularning orasida semiz bir ayol ham

bor edi. Komissar uni ilgari ham qayerdadir ko'rganday edi.

— Nima bo'ldi? U o'zini suvga tashladimi?

— Ishongim kelmaydi, musye! Unaqa bo'lsa yonidagi ikki odamning ko'zi qayoqda edi?

— Soat necha edi? O'sha paytda qayerda turuvdingiz? Kechqurun yuz bergan hamma voqeani batafsil gapirib bering. Bu yerda qorong'i tushmasdan oldin to'xtaganmidingiz?

— Xuddi shunday.

— Ko'prik ostida yurgan daydiga ko'zingiz tushgan, to'g'rimi?

— Ko'z tushishi nimasi? Unaqalar doim shunaqa joylarda yurishadi.

— Keyin nima qildingiz?

— Ovqatlandik. Xubert, Anneke, men — uchovimiz.

— Xubert kim?

— Ukam. Men bilan ishlaydi. Anneke — xotinim, ismi Anna, bizda Anneke deyishadi.

— Keyin-chi?

— Ukam kiyinib, tansaga ketdi. O'ynaydigan paytida, nima dedingiz?

— Yoshi nechada?

— Yigirma ikkida.

— Hozir shu yerdami?

— Do'konga ketuvdi, hali-zamon keqqoladi.

— Kechki ovqatdan keyin nima ish bilan mashg'ul bo'ldingiz?

— Dvigatelni titkiladim-da. Qarasam, moy oqayotgan ekan. Ertalab jo'nab ketmoqchi edim, bo'lmadi. Bu ahvolda yurib bo'ladimi!

Flamandiyalik adliya xodimlari bilan birinchi bor muomala qilayotgani sababli ularga hadiksirab tikilardi.

— Soat nechada ishni tugatdingiz?

— Kecha ulgurolmadim, ertalab nihoyasiga yetkazdim.

— Cho'kayotgan odam baqirganida qayerda edingiz?

Jef yaltirab turgan kema sahniga tikilganicha boshini qashladi.

— Avval papiros chekish va Annekedan xabar olish uchun bu yoqqa chiqdim.

— Soat nechada?

— O‘nlar edi chamasi, aniq esimda yo‘q.

— Anneke uyg‘oq ekanmi?

— Yo‘q, musye. Uxlab yotgan ekan. Bola ham. Qizim ba‘zan kechasi bilan yig‘lab chiqadi. Tishi chiqyapti-da.

— Keyin dvigatelni tuzatgani tushdingiz?

— Shundoq bo‘ldi.

— Rubka qorong‘i edimi?

— Ha, musye, xotinin uxlayotgan edi-da.

— Tepada ham chiroq o‘chganmidi?

— Albatta.

— Xo‘sh, keyin-chi?

— Oradan ancha-muncha vaqt o‘tdi, bir mahal qu-log‘imga mashina motorining ovozi chalindi, keyin u tormoz berganday bo‘ldi...

— Chiqib qaramadingizmi?

— Yo‘q, musye. Nima keragi bor?

— Xo‘sh, keyin nima bo‘ldi?

— Sal o‘tmay «shalop» etgan tovush eshitildi.

— Xuddi birov suvga yiqilganday-a?

— Ha, musye.

— Keyin-chi?

— Asta zinaga tirmashib, darchadan mo‘raladim.

— Shunda nimani ko‘rdingiz?

— Mashinaga qarab chopib borayotgan ikki odamni.

— Mashina turgan ekanmi?

— Ha, musye. Chiroyli mashina, «Pejo — 403».

— Shunaqa yorug‘midi mashinaning qanaqaligini bilib bo‘ladigan?

— Ayni o‘sha yerda simchiroq bor-da. Bo‘yi pastrog‘i yelkador, oqish yomg‘irpo‘sh kiygan.

— Unisi-chi?

— Unisini yaxshi ko‘rolmadim, birinchi bo‘lib mashinaga o‘tirdi-yu motorni yurgizdi.

— Raqamini eslab qololmadingizmi?

— Qanaqa raqam?

— Mashinaning raqamini-da?

— Ikkita to‘qqiz, oxiri yetmish besh, yodimda qol-gani shu.

— Baqiriqni qachon eshitdingiz?

— Haligilar jo‘nab ketganidan keyin.

— Demak, suvga tashlangan odam baqirgunga qadar oradan ma‘lum vaqt o‘tgan, aks holda oldinroq eshitgan bo‘lardingiz, shundaymi?

— Ha, musye, ehtimol. Kechasi kunduzgiga qara-ganda shovqin kamroq-da.

— Soat necha edi o‘shanda?

— Yarim kechadan o‘tgan edi.

— Ko‘prik ustida hech kim yo‘qmidi?

— Tepaga qaraganim yo‘q.

Shu payt sohilda odam to‘plana boshladi: barja sohibini o‘rtaga olib, nima haqdadir gaplashayotgan adliya xodimlarini o‘tkinchi odamlar qiziqib kuzatishar-di. Megrening nazarida daydilar ham barjaga yaqinlash-ganday bo‘lishdi. Kran hamon g‘iychillab ishlar, birin-ketin kelib turgan mashinalarga «Puatu» o‘z yukxonala-ridagi qumni to‘kardi.

— Qattiq baqirdimi?

— Ha, musye.

— Nima deb baqirdi? Yordamga chaqirdimi?

— Bir nimalar deb baqirdi-da, keyin jim bo‘lib qoldi.

— Siz nima qildingiz?

— Qayiqqa sakrab, arqonni bo‘shatdim...

— Cho‘kayotgan odamni darrov ko‘rdingizmi?

— Yo‘q, musye. «Puatu»ning xo‘jayini ham baqiriqni eshitgan shekilli, kema sahnida zir yugurib, changak bilan allanimani tutishga urina boshladi.

— Gapiravering.

Flamandiyalik yigit yuz bergan voqeani jon-jahdi bilan tushuntirishga urinar, aftidan, bu unga oson bo‘lmayotgan edi shekilli, peshonasi reza-reza ter bilan qoplangandi.

— Cho‘kayotgan odam doim nazaringizda bo‘ldimi?

— Yo‘q. U goh ko‘rinar, goh ko‘zdan g‘oyib bo‘lardi.

— Suv domiga tortgan paytlarda-da, shundaymi?

— Ha, musye, oqim uni surib ketayotgandi.

— Qayig‘ingizni ham, albatta.

— Ha, musye... Qo'shnim qayiqqa sakradi.

— «Puatu»ning egasi-da?

Jozefga suhbatdoshining savollari ezmalikday tuyuldimi, bir uf tortib qo'ydi. Uning uchun bu jo'n bir hodisa edi chamasi, bunaqa voqealarga u ko'p duch kelgan.

— Ikkovlaring uni suvdan tortib oldinglar-a?

— Shundoq bo'ldi.

— Ahvoli qanaqa edi?

— Ko'zlari ochiq edi... Qayiqqa chiqarib olganimizdan keyin qusa boshladi.

— Hech narsa demadimi?

— Yo'q, musye.

— Qo'rqib ketgandir-da?

— Yo'q, musye.

— O'zini qanaqa tutdi?

— Qanaqa tutardi? Cho'zilib yotipti, og'zidan nuqul suv chiqadi...

— Ko'zlari hamma vaqt ochiq turdimi?

— Ha, musye, o'lib qoldimi, degan xayolga ham bordim.

— Yordamga chaqirdingizmi?

— Yo'q, musye. Men chaqirganim yo'q...

— Sherigingiz chaqirdimi?

— Yo'q. Ko'prik ustidan birov qichqirib qoldi.

— Demak, Mari ko'prigi ustida kimdir kuzatib turgan ekan-da?

— Ha, musye. Birov cho'kdimi, deb so'radi. Men «ha» deb javob qaytardim. Hozir politsiyaga xabar qilaman, dedi haligi odam.

— Xabar qildimi?

— Albatta. Sal o'tmay velosipedda ikkita politsiyachi yetib keldi.

— Yomg'ir yog'a boshlaganmidi?

— Jabrdiydani barja sahniga tortib chiqarayotgan paytimizda momaqaldiroq gumburlay boshladi.

— Sizning barjangiz sahnigami?

— Ha.

— Xotiningiz uyg'ondimi?

— Rubkada chiroq yoniq edi. Anneke paltosini yelkasiga tashlab, bizni kuzatib turgan ekan.

Qonga qachon ko'zingiz tushdi?

— Uni shturval yoniga yotqizgan paytimizda. Boshidagi yoriqdan qon silqiyotgan edi.

— Yoriqdan?

— Ha, teshikdan-da... Bilmadim sizlar nima deysizlar...

— Politsiyachilar tez kelishdimi?

— O'sha zahotiyuq.

— Sizlarga ovoz bergan yo'lovchi-chi?

— Uni qaytib ko'rmadim.

— Kimligini bilmaysizmi?

— Yo'q, musye.

Tunda sodir bo'lgan va Jef van Gut tutilib-tutilib, xuddi flamandchadan tarjima qilayotganday qiynalib hikoya qilib bergan bu dahshatli voqeani oftob charaqlab turgan bir paytda tasavvur qilishning o'zi ham og'ir edi.

— Demak, daydini oldin boshiga bir narsa bilan urib, keyin suvga uloqtirishgan, shundaymi?

— Doktor shunaqa dedi. Politsiyachilardan biri qaytib ketib, darrov doktorni boshlab keldi-da. Keyin «tez yordam» yetib keldi. Yaradorni olib ketishganidan so'ng barja sahnini rosa yuvdim — ancha-muncha qon halqob bo'lib qolgan edi.

— Sizningcha, nima voqea yuz bergan?

— Bilmadim, musye...

— Siz politsiyachilarga...

— Ko'nglimdagini aytdim. Yo noto'g'ri qilibmanmi?

— Nima dedingiz ularga?

— Bu sho'rlik ko'prik ostida yotgan bo'lishi kerak, dedim.

— Uni ilgari ko'rmagansiz-ku?

— Eslolmayapman... Ko'priklarning ostida har doim odamlar tunashadi-ku...

— Ha, yaxshi... Davom eting. Demak, mashina kelib to'xtadi...

— Ha, ha, qizil mashina. Bunisi aniq.

— Barjangizga yaqin joyda to'xtadimi?

Jef bosh silkib, sohilga ishora qildi.

— Motori o‘chirilmaganmidi?

Bu gal u rad ma’nosida bosh chayqadi.

— Demak, oyoq tovushlarini eshitdingiz?

— Ha, musye.

— Ikki kishining oyoq tovushimidi?

— Ikkitasiga ko‘zim tushdi, bu payt ular mashinaga qaytishayotgan edi.

— Ko‘prik oldiga kelishganini ko‘rmadingizmi?

— Pastda motor titkilayotgan edim.

— Xullas, o‘sha ikkalovi — biri oqish yomg‘irpo‘sh kiygan — uxlab yotgan daydini boshiga urib, keyin Senaga tashlashgan, desak bo‘ladi. Shundaymi?

— Men tepaga yugurib chiqqanimda, u suvda edi.

— Tibbiyot xulosasida, jabrlanuvchining boshi suvga yiqilgan paytida yorilmagan... hatto toshga tekkan taqdirda ham bunday bo‘lishi mumkin emas, deyilgan.

Van Gut adliya xodimlariga, bu yog‘ining menga aloqasi yo‘q, deganday qaradi.

— Xotiningizni so‘roq qilsak maylimi?

— Bermalol. Lekin u gapingizga tushunmaydi, chunki Anneke faqat flamandchani biladi.

Prokuror yordamchisi, boshqa savolingiz yo‘qmi, deganday Megrega qaradi. Komissar bosh chayqadi. Mabodo biror savol tug‘ilgan taqdirda ham u buni prokuratura xodimlari ketgandan keyin bergan bo‘lardi.

— Biz yo‘lga chiqaversak bo‘ladimi? — deb so‘radi barja egasi.

— Faqat ko‘rsatmalariningizni imzolab, borayotgan manzilingizni aytsangiz bas.

— Ruanga ketyapman.

— Bundan keyin ham qayerdaligingizni bizga ma’lum qilib turishingizga to‘g‘ri keladi. Kotibim qo‘l qo‘yishingiz lozim bo‘lgan qog‘ozlarni olib keladi.

— Qachon?

— Tushdan keyin.

Bu javob Jef van Gutga unchalik yoqmadi.

— Darvoqe, ukangiz barjaga qay paytda qaytib keldi?

— «Tez yordam» mashinasi jo‘nab ketishi bilanoq.

— Tashakkur.

Jef van Gut yana janob Parren va uning hamrohla-



riga ensiz taxtadan sohilga o'tishda yordamlashadi. Adliya xodimlari ko'prik tomon yo'l olishdi. Barja yaqinida turgan daydilar o'zlarini chetga olishdi.

— Bu voqea to'g'risida fikringiz qanday, Megre?

— Boshim qotib qoldi. G'alati hodisa. Boshpanasiz bir daydiga hujum qilish kimga kerak bo'lib qoldiykin? Bunaqasi kam uchraydi.

Mari ko'prigi ostida, tosh ustunning yonginasida itning katalagiday xarob bir kulba so'ppayib turardi. Shunga qaramay u qanchadan-qancha bechora-yu notavonlarga vaqtinchalik bo'lsa ham boshpanalik vazifasini o'tardi.

Janob Parrenning angrayib qolganini ko'rib, Megre miyig'ida bir kulib qo'ydi-yu, so'ng tushuntirdi:

— Bunaqa kulbalar Parijdagi hamma ko'priklarning ostida bor. Shunaqalardan biri Jinoyat qidiruv politsiyasi binosining ro'parasida ham qaqqayib turibdi.

— Politsiya biror chora ko'rmayaptimi?

— Foydasi yo'q, birini yo'qotsang, ikkinchisi paydo bo'laveradi.

Bu antiqa hujra, odatda, eski yashiklar va brezent laxtaklaridan «qurilardi». Hajmi shundoqki, bir odam bazo'r sig'adi. Shunda ham g'ujanak bo'lib yotishi kerak. Yerga to'shalgan yirtiq adyol, poxol va eski gazetalardan mog'or hidi keladi.

Janob Parren jabrdiydaning narsalariga qo'l tekkizishdan irgandi, binobarin, bor lash-lushlarni Megrening o'zi ko'zdan kechirishiga to'g'ri keldi.

Tagi teshilib, og'ziga panjara o'rnatilgan dekcha o'choq vazifasini o'tardi. Ichida bir hovuch kul, allaqaysi go'rdan terib kelingan uch-to'rt dona pista ko'mir. Komissar poxol to'shakni titkilagan edi, ichidan ikki burda qotgan non bilan it ham hidlamaydigan kolbasa qoldig'i chiqdi. Burchakda esa qandaydir kitoblar sochilib yotardi:

— Verlenning «Donishmandlik» asari, Bossyuening «Tobut uzra aytilgan nutqlar»i...

Megre yerda yotgan bir jurnalni qo'liga oldi. Jurnal, aftidan, uzoq vaqt yomg'irda qolgan va axlat yashigidan

topib olingan. Bu «Tibbiyot axborotlari»ning eski bir soni edi.

Nihoyat, yana bir kitobning bir bo‘lagi — «Muqaddas Yelena orolidan bitiklar»ning ikkinchi qismi.

Sudya Dansiger prokuratura xodimidan ham besh-battar garangsib qolgan edi.

— Bu odamning kitob tanlashi g‘alati ekan, biri bog‘dan, biri tog‘dan-a, — deb g‘o‘ldirab qo‘ydi sudya.

— Ehtimol, tasodifan shunday bo‘lib qolgandir, — deya o‘z fikrini bildirdi Megre.

Yirtiq adyol ostidan kiyimnuxsa narsalar ham topildi: hamma yog‘iga bo‘yoq chaplangan kulrang sviter, aftidan, bironta rassomniki bo‘lsa kerak; sarg‘ish tikdan tikilgan shim; tagcharmi yeyilib ketgan kigiz shippak; besh juft poyma-poy paypoq. Va, nihoyat, uchi singan qaychi.

— Tirikmikin u? — deb so‘radi bit-mit ilashib qolishidan qo‘rqib, hamon ancha narida turgan prokuror yordamchisi.

— Bir soat oldin kasalxonaga qo‘ng‘iroq qilganimda tirik edi.

— Omon qolishiga umid bor ekanmi?

— Harakat qilishyapti... Bechoraning bosh suyagi singan, bundan tashqari, do‘xtirlar, zotiljam bo‘lib qolmasaydi, deb xavotirlanishyapti.

Megre singan bolalar aravachasini beixtiyor orqaloldinga g‘ildirata boshladi, aftidan, daydi axlat yashiklarini titkilashga mana shu aravachasi bilan borsa kerak. So‘ng birdan bularni kuzatib turgan juldurvoqilarga o‘girilib, hammalariga boshdan oyoq razm solib chiqdi. Ularning ba‘zilari darrov yuzini chetga burdi. Boshqalari esa loqayd baqrayib turaverishdi.

— Hoy, beri kel! — deb chaqirdi Megre bir ayolni barmog‘i bilan imlab.

Agar bu voqea o‘ttiz yil burun, Megre ko‘cha tartibini saqlash bo‘limida ishlab yurgan paytlarida sodir bo‘lganida, u bularga nomma-nom murojaat qilgan bo‘lardi, zero u paytlarda Parijdagi daydilarining ko‘pchiligini shaxsan tanirdi.

Darvoqe, o‘shandan beri daydilar ko‘pam o‘zgargani yo‘q. Faqat sal kamaydi, xolos.

— Qayerda tunaysan?

Ayol komissarning ko'nglini iydirmoqchi bo'lganday g'alati kulimsirab qo'ydi.

— Hov anovi yerda, — dedi u Lui-Filipp ko'prigiga ishora qilib.

— Kechasi suvdan tortib olingan odamni tanirmiding?

Ayolning yuzlari salqigan, og'zidan vino hidi anqib turardi. U bosh silkidi.

— Uni tabib deyishardi.

— Nima uchun?

— Kallali odam edi-da. Ilgari rostdan ham do'xtir bo'lgan ekan.

— Ko'pdan buyon ko'prik ostida yasharmidi?

— Ancha yil bo'ldi.

— Aniqrog'i?

— Qaydam... Yillar hisobidan adashib ketganman...

Ayol shunday deb, xaxolab kuldi va yuziga tushib turgan oppoq sochlarini qo'li bilan orqaga qaytardi. Indamay turganida unga oltmish yoshlar berish mumkin, ammo og'iz ochdi deguncha tishsiz jag'i likillab, yanayam qariroq ko'rinardi. Illo, ko'zlarida yoshlik chog'idan qolgan tabassum o'ynab turar va goh-goh go'yo guvohlikka chaqirganday, yonidagi sheriklariga qarab qo'yib:

— Yo gapim noto'g'rimi? — deb so'rardi ulardan.

Daydilar komissar va uning atrofidagi bashang kiyingan janoblar oldida o'zlarini noqulay sezib, tortinaqimtina bosh irg'ashardi.

— Hamma vaqt shu ko'prik ostida tunarmidi?

— Yo'q, hamma vaqt emas. Uni Yangi ko'prik ostida ham, Beren sohilida ham ko'rganman...

— Markaziy bozorda-chi? — deb so'radi Megre. Chunki aksariyat daydilar aynan o'sha yerda tunashini komissar yaxshi bilardi.

— Yo'q, — deb javob berdi ayol.

— Axlal yashiklari yonida ham uchratganmisan?

— Kamdan kam. Ko'pincha u reklama ishlariga yollanardi.

— U haqda yana nimalarni bilasan?

— Boshqa hech narsani...

— Sen bilan sira gaplashganmi?

— Bo‘lmasam-chi! Ba‘zan sochini ham olib qo‘yadim. Odam bir-biriga yordam berishi kerak-ku!

— Ko‘p icharmidi?

Megre o‘rinsiz savol berganini darrov tushundi: daydilarning hammasi ham ichadi-da.

— Hamma qatori.

— Ko‘pmi?

— Uni hech qachon mast holda ko‘rmaganman. Lekin men haqimda bunday deb bo‘lmaydi. — U xaxolab kuldi. — Men sizni taniyman, eslab qolganman — yaxshi odamsiz. Bir marta kabinetingizda so‘roq qilgan-siz meni... Ancha bo‘ldi bunga... Bundan yigirma yilcha oldin... U paytda Sen-Deni darvozasi yonida ishlardim...

— Kechasi hech qanday shovqin eshitmadingmi?

Ayol qo‘li bilan Lui-Filipp ko‘prigiga ishora qildi, shu yo‘sin Mari ko‘prigi bilan Lui-Filipp ko‘prigi orasidagi masofani ta‘kidlamoqchi bo‘ldi.

— Juda olis...

— Hech narsa ko‘rmading hammi?

— Mashina chirog‘ini ko‘rdim, xolos... Yaqiniga ham bordim — to‘g‘ri, yonginasiga emas, — opketib qolishlaridan qo‘rqdim, qaragam — «Tez yordam» mashinasi ekan...

— Xo‘sh, sizlar-chi, ko‘rdinglarmi biror narsani? — Megre boshqa daydilarga murojaat qildi.

Ular boshlarini sarak-sarak qilishdi.

— «Puatu»dagi odam bilan gaplashsak tuzuk bo‘lar-di, — deb qoldi prokuror yordamchisi. U tezroq bu mojarodan qutulish payida edi.

Flamandiyalikka mutlaqo o‘xshamaydigan bu odam anchadan buyon ularni kutayotgan edi. Garchi bu barja unga tegishli bo‘lmasa ham, «Puatu»da o‘zi bilan birga xotini va bolalari ham bor edi. Barja faqat Yuqori Senaning qum konlaridan Parijga qatnar ekan. Bu odamning ism-sharifi Jyusten Gule ekan. O‘chib qolgan sigaretani labiga qistirib olgan past bo‘yli, ko‘zlari quv Jyusten Gule nari borsa qirq beshlar atrofida edi.

Hamon qum tushirayotgan kranning shovqini quloq-

ni parmalar, buning ustiga, kishini baqirib gaplashishga majbur etardi.

— Odamlarga ham hayronman — dedi Gule to‘n-g‘illab.

— Nega unaqa deyapsiz?

— Rizqini terib yeb yurgan bir nochor daydini boshiga urib, suvga tashlavorishipti-ya!

— O‘zingiz ko‘rdingizmi?

— Yo‘q. Ko‘rganim yo‘q.

— Qayerda edingiz o‘sha paytda?

— Uxlab yotuvdim.

— Nega uyg‘onib ketdingiz?

— Baqirgan ovozni eshitib, uyg‘onib ketdim.

— Mashina shovqinini eshitmadingizmi?

— Balki eshitgandirman. Tepada, sohilda mashinalarning keti uzilmaydi, shuning uchun bunga e‘tibor berganim yo‘q.

— Keyin barja sahniga chiqdingiz?

— Ha-da... Cholvorda yugurdim, kiyinib ham o‘tirmadim.

— Xotiningiz-chi?

— «Qayoqqa ketyapsan?» — deb so‘radi uyqu aralash.

— Sahniga chiqqaningizdan keyin nimani ko‘rdingiz?

— Hech nimani... Odatdagiday Senada suv hayqirib oqib yotardi. Haligi odamning qayerdaligini aniqlab olish uchun «He-ey!» deb qichqirdim.

— Jef van Gut qayerda edi bu paytda?

— Flamandiyalikmi? O‘zining barjasida, uning sahnida turgan edi. Qayig‘ini suvga tushirayotgan ekan... Yonimdan o‘tayotganida men ham sakrab qayiqqa tushvoldim... Keyin anovi odamni ko‘rib qoldik, u bir ko‘rinib, bir sho‘ng‘ib oqib kelayotgan edi... Flamandiyalik uni changak bilan tutishga urindi...

— Temir changakmidi?

— Albatta.

— Balki o‘sha changak tegib boshi yorilgandir?

— Yo‘-o‘q!.. Zo‘rg‘a ishtonidan ilvoldik. Men engashib, oyog‘idan tortdim.

— Hushidan ketgan ekanmi?

— Ko‘zlari ochiq edi.

— Hech narsa demadimi?

— Og‘zidan to‘xtovsiz suv keldi... Yotqizib qo‘yganimizdan keyin qonni ko‘rdik.

— Menimcha, shu yerda to‘xtasak ham bo‘lar, — deb to‘ng‘illadi janob Parren. Bu fojiaga u mutlaqo beparvo qarayotgan edi.

— Bo‘pti... Bu yog‘ini o‘zim davom ettiraman, — dedi Megre.

— Kasalxonaga borasizmi?

— Ha, bormoqchiman... Do‘xtirlar, bir necha soatdan keyin tilga kirib qolsa kerak, deyishyapti.

— Meni xabardor qilib turing.

— Albatta.

Ular Mari ko‘prigi ostidan qaytib o‘tayotganlarida, Megre Lapuentni to‘xtatdi:

— Rayon komissarligiga qo‘ng‘iroq qil, odam yuborishsin.

— Sizni qayerdan topaman, xo‘jayin?

— Shu yerda bo‘laman.

Megre prokuratura xodimlari bilan sovuqqina xayrlashdi.

## II b o b

— Sudda ishlaydimi bular? — deb so‘radi baqaloq ayol, haligi odamlar sal uzoqlashgach.

— Prokuraturada, — dedi Megre.

— Baribir emasmi? — Ayol shunday dedi-yu, gapni darrov boshqa yoqqa burdi: — Namuncha, teshik to‘rvani arzanda qilishmasa! Yo rostdan ham do‘xtirmikin u?

Megre buni bilmasdi. Aftidan, bilishga ham shoshilmayotgandi. Shu tobda u, go‘yo bu voqealarni qachonlardir boshidan kechirganday, mubham bir kayfiyatda edi. Lapuent sohilga ko‘tarilib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Pakana sudya bilan kotib hamrohligida kelgan prokuror yordamchisi qiyalikdan munkaygancha yuqoriga o‘rlab borar, botinkasiga loy tegishidan qo‘rqib, avaylab qadam bosardi.

«Zvaarte-zvaan» barjasi kun nurida yarqirar, kema-ning ichi ham tashqarisi singari yog‘ tushsa yalaguday ozoda bo‘lsa kerak, degan taassurot tug‘ilardi kishida. Qomatdor flamandiyalik chambarak oldida turgan cha Megreni zimdan kuzatar, xuddi qizlardek yosh va dilbar malla sochli xotini esa belanchak ustiga engashgan cha bolasining tagliklarini almashtirardi.

Selesten sohilida u yoqdan bu yoqqa to‘xtovsiz o‘tib turgan mashinalarning shovqiniga va «Puatu» barjasidan qum tushirayotgan kranning g‘iychillashiga qaramay, qushlarning nag‘masi bilan daryoning shovullagani ham baralla quloqqa chalinardi.

Uch nafar daydi hamon xavotirlanib bir chetda turishardi, faqat baqaloq ayolgina komissarning ortidan ko‘prik ostiga qarab yurdi. Uning egnidagi qizg‘ish kamzuli eskirib, shu qadar isqirt bo‘lib ketgandiki, qaragan kishining ko‘ngli aynardi.

— Isming nima?

— Lea. Lekin meni ko‘pincha «baqaloq Lea» deb atashadi.

Bu gapi o‘ziga nash’a qilib, yana xaxolab kuldi.

— Bu kecha qayerda tunading?

— Aytdim-ku sizga.

— Yoningda kim bor edi?

— Faqat Dede, hov anovi orqasini o‘girib turgan pakanasi.

— Do‘stingmi u?

— Hammasi do‘stim.

— Har doim shu ko‘prik ostida tunaysanmi?

— Ba‘zan joyni o‘zgartirib turaman. Nimani qidir-yapsiz?

Megre rostdan ham nimanidir izlardi. Yana tabibning lash-lushlari ustiga engashdi. Prokuror yordamchisi bilan uning hamrohlari ketgandan so‘ng u o‘zini ancha erkin his qilmoqda edi. Endi shoshmasa ham bo‘ladi. Lattalar orasidan kichkina temir o‘choq, tova, qoshiq bilan sanchqi chiqdi. Shishasi darz ketgan jez gardishli ko‘zoynakni taqib ko‘rgan edi, ko‘zlari jimirlashib ketdi.

— Tabib buni o‘qiganda taqardi, — deya izoh berdi baqaloq Lea.

— Qiziq, — dedi Megre ayolning ko‘zlariga tikilgan-cha, — nega anavi...

Ammo ayol uning gapini oxirigacha eshitmadi. Kulbadan bir necha qadam nari borib, kattakon tosh orqasidan chala ichilgan vino shishasini oldi.

— Sen ichuvdingmi?

— Ha, tugatib qo‘ya qolay. Baribir tabib qaytguncha achib qoladi.

— Qachon oluvding vinoni?

— Kechasi, «tez yordam» uni olib ketgandan keyin.

— Boshqa hech narsasiga tekkaning yo‘qmi?

Lea jahl bilan yonboshiga tufladi.

— O‘lay agar!

Megre ishondi. Daydilar bir-birlarining narsalariga tegmasliklarini u o‘z tajribasidan bilardi. Ular umuman kamdan kam o‘g‘irlik qilishadi, faqat tezgina qo‘lga tushishlaridan qo‘rqib emas, balki dunyodagi hamma narsaga befarq bo‘lib qolganliklari uchun ham bu ishga qo‘llari bormaydi.

Ro‘parada, Sen-Lui orolida, shinam xonadonlarning derazalari lang ochiq, ularning biridan o‘zini ko‘zguna solib, sochini tarayotgan tannoz bir juvon ko‘rinib turibdi.

— Vinoni kimdan sotib olardi u?

— Ave-Mariya ko‘chasidagi mayxonadan chiqib ketayotganini bir necha marta ko‘rganman... Bu yerdan uzoq emas, Jarden ko‘chasining muyulishida...

— Boshqalar bilan munosabati qanday edi?

Ayol aniqroq javob berib, komissarni mamnun etish niyatida biroz o‘ylanib turdi.

— Ochig‘i, bilmayman... Boshqalardan ko‘pam farq qilmasdi...

— O‘z hayoti haqida gapirib berarmidi?

— Bizda bu haqda hech kim gapirmaydi. Mabodo kayfi juda oshib qolganda chakagi ochilmasa...

— Tabibning ham kayfi oshgan paytlari bo‘larmidi?

— Qattiq mast bo‘lganini sira ko‘rmaganman.

Megre gaplasha turib, bir to‘p eski gazetalar osti-



dan — ular, aftidan, to'shak vazifasini o'tasa kerak, — har xil rangga bo'yalgan, bir oyog'i singan yog'och toy-choqni sug'urib oldi. Ammo bu uni ham, baqaloq ayolni ham mutlaqo qiziqtirmadi.

Shu payt bir odam qiyalikdan yo'rg'alab tushib, flamandiyalikning barjasi tomon yura boshladi. Ikkala qo'lida liq to'la to'rxalta, to'rxaltadan ikkita kattakon baton bilan ikki bog' ko'k piyoz chiqib turibdi.

Flamandiyalikning ukasi shu bo'lsa kerak, chunki o'ziga juda ham o'xshaydi, faqat undan sal yoshroq va kelishganroq. Egnida ko'k shim, oq yo'lli sviter. U barja sahniga chiqib, akasi bilan bir-ikki og'iz gaplashgach, komissar tomon qaradi.

— Hech narsaga tegma. O'zing hali menga kerak bo'lib qolishing mumkin. Agar biror narsadan xabar topsang... oldinga bor, — dedi komissar baqaloq Leaga.

— Nahotki sizning ishxonangizga borsam? — U yana xaxolab kuldi. — Tugatib qo'ya qolsam-chi? — dedi so'ng shishaga ishora qilib.

Megre bosh irg'adi-da, politsiyachi hamrohligida qaytib kelayotgan Lapuent tomon yurdi. Komissar politsiyachiga, ekspert kelguncha tabibning lash-lushlariga qarab turishni buyurib, Lapuent bilan birga «Zvaarte Zvaan» barjasiga yo'l oldi.

— Ismingiz Xubert van Gut, shundaymi?

Yigit bosh irg'adi. U akasiga qaraganda kamgaproq va siporoq ko'rindi.

— Kecha kechqurun tansaga borganmidingiz?

— Buning nimasi yomon?

Uning talaffuzi akasinikidan ko'ra tuzukroq edi. Megre bilan Lapuent sohilda turishgani sababli Xubert bilan bo'ynini cho'zib gaplashardi.

— Qayerga boruvdingiz?

— Bastiliya maydoniga tutash torko'cha bor. Qahvaxonalari ko'p. Men «Leon»da edim.

— Ilgari ham kirib turarmidingiz?

— Ko'p borganman.

— Demak, tungi voqeadan bexabarsiz?

— Hozir akam gapirib berdi.

Barja sahnidagi mis mo'ridan tutun chiqib turardi.

Ayol bolasi bilan allaqachon pastga, tagxonaga tushib ketgan, u yerdan kelayotgan lazziyatli taomning hidi komissar bilan inspektorning dimog'iga urilib, ishtahalarini qitiqlardi.

— Qachon jo'nashimiz mumkin? — deb so'radi yigit.

— Tushdan keyin, sudya akangizga so'roq protokollariga imzo chekdirib olganidan so'ng.

Nihoyatda sarishta Xubert van Gutning badani ham akasinikiday, qizg'ish tusda, bejirim olingan sochlari malla rang edi.

Birozdan so'ng Megre bilan Lapuent Selesten sohili-ni kesib o'tib, Ave-Mariya ko'chasining muyulishidagi «Kichik Turin» qahvaxonasi oldidan chiqishdi. Ostonada kamzul kiygan mayxona sohibi turardi. Ichkarida hech zog' yo'q edi.

— Kirsak bo'ladimi?

Qahvaxonasiga shunday martabali xo'randalar tashrif buyurganidan taajjublangan xo'jayin o'zini chetga oldi. Qahvaxona kaftdekkina edi: uchtagina stol qo'yilgan. Devorlar yashil rangga bo'yalgan. Shiftda dudlangan son go'shti, Bolonyada tayyorlangan kolbasalar, sirtidan vino to'la meshlarga o'xshab ketadigan ajabtovur pishloqlar osilib turibdi.

— Nima xohlaydilar?

— Vino.

— Kyantimi?

To'qima chetanlarga solingan shishalar tokchalarda qatorlashib turgan bo'lsa ham, xo'jayin ularga tegmadi, peshtaxta ostidan boshqa shishani olib, ko'zini mehmonlardan uzmagancha stakanlarni to'ldirdi.

— Tabib laqabli daydini taniysizmi?

— Nima bo'ldi unga? Tirikmi ishqilib?

Endi flamandcha emas, italyanacha talaffuz eshitildi. Qahvaxona egasi Jef van Gut bilan uning ukasiga o'xshagan beg'am va sovuqqon emas, o'ta qiziqqon odam edi.

— Yuz bergan voqeadan xabardormisiz? — deb so'radi Megre.

— Kechasi unga bir balo bo'lganini eshitdim.

— Kim aytdi sizga?

- Ertalab bir daydi gapirib berdi.
- Nima dedi?
- Mari ko‘prigi yonida to‘s-to‘polon bo‘lganini, keyin tabibni «tez yordam» olib ketganini aytdi.
- Bor-yo‘g‘i shumi?
- Uni suvdan tortib olishibdi shekilli.
- Tabib sizdan vino xarid qilib turarmidi?
- Tez-tez.
- Ko‘p icharmidi?
- Kuniga salkam ikki litrcha... Yoniga pul tushganda, albatta...
- Pulni qayerdan olardi?
- Hamma daydilarday... Markaziy bozorda yoki boshqa biror yerda hammollik qilardi. Ko‘pincha ko‘cha-ko‘yda reklama taxtasini ko‘tarib yurardi. Tabibga hamma vaqt qarz berib turardim.
- Nima uchun?
- Chunki u boshqalarga o‘xshagan xashaki daydi emas edi... U xotinimni o‘limdan saqlab qolgan.
- Qahvaxona bekasi Leaga o‘xshagan semiz bo‘lsa ham, juda serharakat edi. U oshxonada o‘z yumushi bilan kuymalanardi.
- Men haqimda gapiryapsanmi?
- Ha, tabibni gapirib beryapman.
- Ayol qo‘llarini peshbandiga artganicha zalga chiqib keldi.
- Uni o‘ldirmoqchi bo‘lishibdi, shu rostmi? Politsiyadanmisizlar. Tuzalib ketarmikin?
- Hozir bir narsa deyish qiyin, — komissar dudmal javob qildi. — Nimadan saqlab qolgan edi sizni?
- E-e, ikki yil oldin ko‘rganingizda, meni tanimasdingiz... Hamma yog‘imga chilla yara toshib ketgandi. Yuzim qassobning peshtaxtasidagi qip-qizil go‘shtdan farq qilmasdi... Shifoxonada qilmagan davolari qolmadi, bir-biridan badbo‘y malhamlar yozib berishdi... Foydasi bo‘lmadi... Hatto ovqat yeyishni ham taqiqlab qo‘yishdi, o‘zi-ku ishtaham yo‘q... Allaqanday ukollar qilishdi...
- Eri uning gapini tasdiqlaganday ora-sira bosh iring‘ab qo‘yardi.
- Bir kuni tabib hov anavi burchakka, eshik yoniga

kelib o'tirganida dilimni yordim. U menga uzoq tikilib turdi-da: «Sizni o'zim davolayman», — dedi. Bu gapni juda xotirjam, xuddi bir stakan vino buyurganday, soddagina qilib aytdi. Men: «Sizni do'xtir deyishadi, shu rostmi?» deb so'radim. Tabib siniq jilmaydi, so'ng: «Meni odamlarni davolash huquqidan hech kim mahrum etmagan», — deb javob berdi.

— Keyin sizga dori yozib berdimi?

— Yo'q. Ozgina pul so'radi — ikki yuz frank shekilli, o'zi dorixonaga borib, o'sha pulga kukun dori olib keldi. «Mana shu dorining bir o'ramini iliq suvda eritib, har gal ovqat oldidan ichasiz. Ertalab va kechqurun badaningizni namakob bilan yuvasiz», — dedi. Xoh ishonning, xoh ishonmang; oradan ikki oy o'tgach, badanim hozirgiday sip-silliq bo'ldi-qoldi.

— Tabib sizdan boshqa odamni ham davolaganmi?

— Bundan xabarim yo'q. U juda kamgap edi.

— Bu yerga har kuni kelarmidi?

— Deyarli har kuni... Kelib, ikki litr vinosini olib ketardi.

— Bir o'zi kelarmidi? Uni notanish odamlar davrasida ko'rganmisiz?

— Yo'q...

— Familiyasini, oldin qayerda yashaganini aytganmidi?

— Qizi borligini bilaman. Bizning ham qizimiz bor, hozir maktabda... Bir kuni u tabibga qiziqsinib qarab turganida, u: «Qo'rqma... Mening ham senga o'xshagan jajjigina qizim bor», — deganini eshitganman.

Lapuent hayron edi: namuncha komissar qandaydir bir daydining o'tmishiga bu qadar qiziqmasa? Gazetalarning sarguzasht bo'limida bunaqa hodisa uchun atigi bir necha satr bag'ishlanadi.

Ammo Lapuent hali yosh edi. Bilmasdiki, Megre o'zining butun xizmati davomida daydi odamning joniga qasd qilinganini birinchi marta ko'rib turgan edi.

— Qancha beraman?

— Balki sho'rlik tabibning sog'lig'i uchun yana bir stakan icharsiz?

Ular yana bir stakandan kyati ichishdi — bu gal xo‘jayin saxiylik qildi.

Mari ko‘prigi ortda qoldi. Megre bilan Lapuent ko‘p o‘tmay kasalxonaning kulrang binosiga kirib borishdi. Bu yerda ro‘yxatchi ayol bilan anchagina adi-badi aytishish-ga to‘g‘ri keldi.

— Familiyasini bilasizmi?

— Laqabini bilaman. Tabib deb atashadi uni. Bu yerga kechasi olib kelishgan.

— Kechasi boshqa odam navbatchilik qilgan. Qaysi bo‘limda yotibdi?

— Bilmayman... Telefonda bir talaba bilan gaplash-gan edim. Operatsiya qilish-qilmasliklarini aytgani yo‘q.

— Talabaning familiyasi nima?

Ro‘yxatchi ayol daftarini bir necha bor varaqlab, qayoqqadir qo‘ng‘iroq qildi.

— O‘zingiz kim bo‘lasiz?

— Komissar Megre.

Bu nom ro‘yxatchi ayolda hech qanday qiziqish uyg‘otmadi va u loqaydlik bilan go‘shakka takrorladi:

— Komissar Megre.

So‘ng ayol go‘yo juda katta xizmat qilib qo‘yganday, minnat bilan dedi:

— «S» zinasidan to‘rtinchi qavatga chiqib, katta hamshirani topasizlar. — Shu gapni aytgunicha ham o‘n daqiqa o‘tib ketdi.

Megre bilan Lapuent yo‘l-yo‘lakay hamshiralar, yosh-yosh do‘xtirlar, xalat kiygan bemorlarga duch ke-lishdi, palatalarning ochiq eshiklaridan qator-qator qo‘yilgan karavotlar ko‘zga tashlanardi.

To‘rtinchi qavatda yana kutishga to‘g‘ri keldi, katta hamshira jig‘ibiyron bo‘lib ikki erkakka nimanidir tushuntirar, ular ham xo‘p deya qolishmasdi.

— Iloji yo‘q, — dedi hamshira nihoyat, — ma‘-muriyatga murojaat qilinglar, tartib-qoidani men joriy etgan emasman.

Erkaklar bir nima deb g‘o‘ldirab nari ketishdi. Katta hamshira Megrega o‘girildi:

— Daydini so‘rab keldingizmi?

— Komissar Megre, — o‘zini tanishtirdi u.

Hamshira, kim ekan bu, deb rosa eslashga urindi; unga ham komissarning nomi begona edi. Bu yer butunlay boshqa olam — raqam yozilgan kabinetlar, bir-biridan to‘siq bilan ajratilgan bo‘linmalar, keng palatalarga qator qilib qo‘yilgan karavotlar, har bir karavotning oyoq tomonida allaqanday belgilar bitilgan taxtachalar...

— Ahvoli qalay?

— Yanglishmasam, hozir uni professor Manyen ko‘rayapti.

— Operatsiya qilishmadimi?

— Kim aytdi operatsiya qilishadi deb?

— Esimda yo‘q... O‘ylovdimki...

Bu yerda, kasalxonada Megre o‘zini noqulay his etdi, hatto andak hadiksirab turdi.

— Qanaqa familiya bilan qayd etilgan?

— Guvohnomasidagi familiya yozilgan-da.

— Sizdami o‘sha guvohnoma?

— Ko‘rsatishim mumkin.

Hamshira yo‘lak oxiridagi oyna devorli kichkina kabinetga kirib, usti sho‘rlab ketgan bir guvohnomani ko‘tarib chiqdi. Guvohnoma hali jiqqa ho‘l edi.

Familiyasi — Keller.

Ismi — Fransua Mari Floranten.

Kasbi — lattafurush.

Tug‘ilgan joyi — Myuluz, Quyi Reyn.

Hujjatga qaraganda, Kellerning yoshi oltmish uchdan oshgan, Parijning Mober maydonidagi uylardan birida yashagan. Megre bu uylarni bilardi: ko‘proq daydilar yashashadi.

— Hushiga keldimi?

Hamshira guvohnomani qaytarib olmoqchi edi, ammo komissar uni indamay cho‘ntagiga solib qo‘ydi.

— Mumkin emas. Qoidaga to‘g‘ri kelmaydi, — deb bidirladi hamshira.

— Keller alohida palatada yotibdimi?

— Nega endi?

— Qani, boshlang-chi.

Hamshira avvaliga tixirlik qilmoqchi bo‘ldi-yu, lekin keyin ko‘ndi.

— Baribir, professordan ruxsat olishingiz kerak.

Hamshira Megre bilan Lapuentdan oldinroq borib, bir eshikni ochdi. Palataga ikki qator qilib karavotlar qo'yilgandi. Bemorlarning ko'pchiligi ko'zlarini ochgan-cha qimir etmay yotishardi. Xalat kiygan ikki-uch kishi xonaning to'rida shivirlab nima haqqadidir gaplashardi.

Palatalarning o'rtasidagi karavotlardan birining yonida oq xalat va qalpoq kiygan o'n chog'li yigit-qiz sochi kalta qirqilgan norg'ul bir odamni qurshab olgan. U ham oq xalatda bo'lib, aftidan yoshlar bilan mashg'ulot o'tkazayotgandi.

— Professorga xalaqit bermanglar. Ko'rayapsizlar-ku, hozir u kishi band, — dedi hamshira.

Lekin o'zi borib, professorning qulog'iga bir nima deb shivirladi. Professor Megrega bir qaradi-yu, yana talabalariga yuzlandi.

— Professor bir necha minutdan keyin bo'shaydilar, — dedi hamshira Megrening oldiga qaytib kelib. — Kabinetda kutib turishni so'radilar.

Shunday deb, u Megre bilan Lapuentni bor-yo'g'i ikkitagina stul qo'yilgan kichkina bir kabinetga boshlab keldi. Yozuv stoli ustidagi kumush ramkada bir-biriga engashib turgan uch bola bilan bir ayolning surati bor edi.

Megre biroz ikkilanib turdi-yu so'ng trubkasini sigareta qoldiqlariga to'la kuldonga qoqib, boshqatdan tamaki bilan to'ldirdi.

— Kutdirib qo'yganim uchun uzr, janob komissar. Hamshiradan kelganingizni eshitib, sal taajjubga tushdim. Nimagaki...

Nahotki u ham: «Bir daydiga shunchalikmi?» — desa?! Yo'g'-e, unaqa demas.

— ...Nimagaki, bunaqa hodisalar bo'lib turadiku, shunaqamasmi? — deb tugatdi so'zini professor.

— Hali o'zim ham hech narsa bilmayman, shu masalaga aniqlik kiritarsiz, degan umiddaman.

— Gap shundaki, uning bosh suyagi teshilgan, xayriyat, atrofi darz ketmabdi. Assistentim ertalab telefonda sizga aytgan bo'lishi kerak.

— Unda hali rentgen natijalari ma'lum emas edi.

— Hozir ma'lum... Bemor tuzalib ketishi mumkin. Miyasi lat yemagan.

— Boshi yiqilganida yoki sohildagi toshga urilib yorilgan bo'lishi mumkinmi?

— Aslo. Boshiga qattiq narsa bilan urilgan... aytaylik, bolg'a yoki gayka buraydigan asbobga o'xshagan og'ir buyum bilan...

— Shunga hushidan ketganmi?

— Albatta... Hozir ham hushiga kelgani yo'q. Bir necha kun shu ahvolda yotishi yoki birdan o'ziga keqqolishi ham mumkin...

Megrening ko'z o'ngidan Senaning tik qirg'og'i, tabibning kulbasi, undan bir necha metr narida hayqirib oqayotgan bo'tana suv o'tdi, negadir shu tobda flamandiyalikning so'zlarini esladi.

— Yana shu masalaga qaytganim uchun uzr. Boshiga birov og'ir narsa bilan urgan, dedingiz. Bir marta urganmi?

— Nima ahamiyati bor?

— Tergov uchun ahamiyati bor.

— Avvaliga bir necha marta zarba urilgan, deb o'yladim.

— Nima sababdan?

— Chunki qulog'i shilingan, yuzi ko'kargan. Bemorning soqolini qirishgandan so'ng, uni yana obdan ko'zdan kechirdim.

— Xo'sh, qanday xulosaga keldingiz?

— Kechirasiz, qayerda yuz bergan bu voqea?

— Mari ko'prigi ostida.

— Mushtlashishganmi?

— Unaqaga o'xshamaydi. Aytishlaricha, jabrlanuvchiga tunda, uxlab yotgan paytida hujum qilishgan. Shunaqa bo'lishi ham mumkinmi?

— Albatta.

— U o'sha zahoti hushidan ketgan, deb o'ylaysizmi?

— Bunga ishonchim komil. Sizning gaplaringizdan so'ng, nima uchun qulog'i bilan yuzi lat yeganini tushunib turibman. Uni suvdan tortib olishgan, to'g'rimi? Shundan keyin sohildagi toshloq yerda sudrashgan,



ko'tarishmagan. Ana o'shanda yuzi bilan qulog'i shilingan. Sohilda qum bormi?

— O'sha yerga yaqin joyda barjadan qum tushirishayпти.

— Ha, barakalla. Yarasidan qum chiqdi.

— Demak, tabib...

— Nima dedingiz? — professor hayron bo'ldi.

— Sohildagilar uni shunday deb atashadi. Ehtimol, ilgari do'xtir bo'lgandir.

Buning ustiga, o'zining o'ttiz yillik ish faoliyati mobaynida komissar Sena ko'prigi ostidan topgan birinchi do'xtir shu. To'g'ri, qachonlardir Megre qishloq maktabining kimyo o'qituvchisiga, oradan ancha yil o'tgach, o'tmishda mashhur sirk artisti bo'lgan bir ayolga ham shunaqa joyda duch kelgan.

— Tibbiyot nuqtayi nazaridan, behush holda suvga uloqtirilgan odam darrov o'ziga kelib, baqirishi mumkinmi? — deb so'radi Megre.

Professor boshini qashladi.

— Hm... Siz mendan ko'p narsani talab qilayapsiz. Albatta shunaqa bo'ladi, deyolmayman... Ammo bunaqa bo'lishi mumkin emas, deb ham hech kim aytolmaydi. Balki sovuq suv ta'sir qilib...

— O'ziga kelgandir, demoqchisiz-da?

— Lekin hamma vaqt bunaqa bo'lavermaydi. Kishi behush holda ham gapirishi, alahsirashi mumkin.

— Uni ko'rayotgan paytingizda churq etmadimi?

— Bir-ikki marta ingradi, xolos.

— Suvdan tortib olishganda ko'zlari ochiq ekan.

— Bu hech narsani bildirmaydi. Nazarimda, siz uni ko'rmoqchisiz, shundaymi? Yuring.

Professor Manyen politsiya xodimlarini palataga boshladi. Katta hamshira bularning orqasidan ijirg'anib qaradi.

Ular palata o'rtasidan yurib borib, karavotlardan birining tepasida to'xtashdi. Bemorlar kutilmagan bu mehmonlarni qiziqib kuzatishardi.

— Ko'radigan joyi ham yo'q, — deb qo'ydi professor.

Darhaqiqat, daydining boshi va yuzlari doka bilan tang'ib tashlangan, faqat ko'zlari, burni va og'zigina ochiq edi.

— Omon qolish imkoniyati qancha?

— Yuzdan yetmish, hatto sakson desa ham bo'ladi, chunki yuragi baquvvat.

— Minnatdorman, professor.

— Hushiga kelishi bilan sizga qo'ng'iroq qilishadi. Katta hamshiraga telefoningiz raqamini qoldirib keting.

Ular oltob charaqlab turgan ko'chaga chiqqach, yengil nafas olishdi. Ko'cha gavjum, Bibi Maryam ibodatxonasi oldida turgan sariq-qizg'ish avtobusdan say-yohlar tushmoqda edi.

Megre qo'llarini orqasiga qilganча indamay borar, Lapuent ham komissarning o'z xayoli bilan bandligini sezib, miq etmasdi.

Ular Jinoyat qidiruv politsiyasi mahkamasiga kelib, to'ppa-to'g'ri komissarning kabinetiga kirishdi.

Megre derazani ochishdan oldin Senada oqim sari suzib borayotgan barjalarga bir zum tikilib turdi.

— Tabibning narsalarini ko'zdan kechirish uchun tepadan birortasini yuborish kerak.

Tepada sud-tibbiyot ekspertizasi, turli mutaxassislar, texniklar, fotograflar joylashgandi.

— Yaxshisi, narsalarini bitta mashinada shu yerga opkela qolaylik.

Megre tabibning narsalarini boshqa daydilar o'g'irlab ketishidan emas, ko'cha bolalari xomtalash qilishidan xavotirlanayotgandi.

— Ko'prik va yo'llar boshqarmasiga borishingga to'g'ri keladi... Menimcha, Parijda qizil «Pejo — 403» unchalik ko'p bo'lmasa kerak... Ikkita to'qqizli hamma nomerlarni yozib ol... Yigitlarni yordamga jalb qil: mashinalarning egalarini tekshirishsin.

— Xo'p bo'ladi.

Megre yolg'iz qolgach, trubkasini tozalab, tamaki to'ldirdi va stoli ustida uyulib yotgan qog'ozlarga xomush tikildi.

Shundoq charog'on kunda «Dofin» qahvaxonasida

ovqatlangisi kelmadi, biroz o'ylanib turdi-da, uyiga jo'nadi.

Megre xonim qizil gulli ko'ylak kiyib olgan edi, shundanmi, komissar baqaloq Leaning qizg'ish kamzuli-ni esladi. Oshxonaga oftob nuri tushib turardi.

Megre xayoli parishon bir ahvolda qovurilgan buzoq jigarini tanovul qila boshladi.

— Nimani o'ylayapsan? — deb so'rab qoldi birdan xotini.

— Daydini.

— Qanaqa daydi?

— Qachonlardir do'xtir bo'lgan daydini.

— Nima gunoh qipti?

— Bilishimcha, hech qanday gunohi yo'q. Shunga qaramay, ko'prik ostida uxlab yotgan paytida boshiga urib, daryoga tashlavorishibdi.

— O'lganmi?

— Yo'q, qutqarib qolishgan.

— Nega bunday qilishadi?

— Men ham shuni o'ylayapman... Darvoqe, u ku-yoving bilan hamyurt ekan.

Megre xonimning singlisi yo'l injeneriga turmushga chiqqan bo'lib, Myuluzda yashardi. Megre xonim ularnikiga tez-tez borib turardi.

— Ismi nima?

— Keller, Fransua Keller.

— Qiziq, tanish familiyaga o'xshaydi...

— U yoqda bunaqa familiya ko'p uchraydi.

— Singlimga qo'ng'iroq qilib ko'rsammikan?

Komissar yelkasini qisdi. Keyin o'ylanib qoldi: darvoqe, qo'ng'iroq qilsa yomon bo'lmasdi. To'g'ri, bundan biror ish chiqishi dargumon, lekin bahonada xotini singlisi bilan gaplashib oladi-ku.

Megre xonim eriga qahva keltirib qo'ygach, telefon-ga Myuluzni ulashlarini so'radi. To u yoqdan javob bo'lguncha, tabibning ismini ichida bir necha marta takrorladi: Keller... Fransua Keller...

Nihoyat telefon jiringladi.

— Allo, allo! Ha, ha, Myuluzni so'ragan edim. Senmisan, Florans? Nima? Ha, menman. Yo'q, hech

narsa bo'lgani yo'q, tinchlik... Parijdan, uydan... Mana, yonimda o'tiribdi, qahva ichyapti... Yaxshi, ishlab yuribdi... Hammasi joyida... Mana, bahorga chiqvoldik... Bolalaring qalay? Gripp deysanmi?.. Men ham o'tgan hafta ozgina yotvoldim. Menga qara, bir masalada qo'ng'iroq qilayotuvdim senga. Mabodo Keller degan odamni eslolmaysanmi? Fransua Keller! Nima? Hozir so'rayman... — U eriga o'girildi: — Yoshi nechada?

— Oltmish uchda.

— Oltmish uchda... Ha... Tanimaysanmi? Nima deysan?.. Uzmay turing xonim, gaplashyapmiz... Allo! Ha, do'xtir. Kimdan eshitganimni yarim soatdan buyon eslolmayapman. Eringdan eshityapsanmi?.. Shoshmasang-chi! Gaplaringni erimga takrorlab turaman. Mervil degan qizga uylangan. Otasi nima ish qiladi? Sud maslahatchisi? Demak, Keller sud maslahatchisining qiziga uylangan? Xo'sh-xo'sh... O'lgan deysanmi? Qachon? Ancha bo'lgan. So'zlaringni takrorlayotganimdan ajablanma, bo'lmasa yodimda qolmaydi. Nufuzli oila. Buvasi mer bo'lgan. Yomon eshitalayapti... Allo! Keller o'sha qizga uylangan. Yolg'iz qiz... Savaj ko'chasi? Ular Savaj ko'chasida turishgan. Dovdir? Nega? Aniq bilasanmi? Ha, ha, tushundim. Ko'chasiday yovvoyi, degin?'

Megre xonim eriga, qo'limdan kelganicha harakat qilyapman, deganday bir qarab qo'ydi.

— Ha, ha. Baribir ahamiyati bo'lmasa ham. Ba'zan kerak bo'p qolishi mumkin. Bularning ishiga tushunish qiyin. Ha... Qachon? Demak, yigirma yillar bo'пти-da. Xolasidan meros qolgan. Keller uni tashlab ketgan. Darrov emas. Bir yilcha yashagan. Bolalari bormidi? Qiz? Kinga? Ruslega? Dori-darmon? Parijda yashaydi?

Megre xonim eriga takrorladi:

— Qizi bor ekan, dori-darmon ishlab chiqaradigan fabrika egasi Rusle degan odamning o'g'liga turmushga chiqqan. Parijda turisharkan.

Yana trubkaga quloq berdi:

— Tushunaman... Menga qara, batafsilroq bilgin,

---

<sup>1</sup> S a v a j — fransuzcha «yovvoyi» degani.

surishtirgin. Ha, rahmat! Bolalaringni o'pib qo'y. Istagan paytingda qo'ng'iroq qilaver, har doim uydaman.

Megre xonim trubkani qo'yib, eriga yuzlandi:

— Tanish familiya dedim-a! Eshitdingmi? Sud maslahatchisining qiziga uylangan Fransua Keller o'sha bo'lsa kerak. Maslahatchi to'ydan sal ilgariroq vafot etgan.

— Xotini-chi? — deb so'radi komissar.

Megre xonim eriga g'alati qaradi: tegajog'liq qilayap-timi?

— Bilmadim. Florans u haqda gapirmadi. Yigirma yil burun Keller xonimga xolalaridan biri meros qoldirgan ekan. Hozir u badavlat ayolmish. Do'xtir devonaroq odam ekan. Gaplarimni eshitding-ku. Singlimning aytishicha, g'irt dovdur ekan u. Ular oldingi uylaridan ibodatxona yaqinidagi boshqa uyga ko'chib o'tishgan. Do'xtir yana bir yilcha xotini bilan yashagan-u, keyin to'satdan g'oyib bo'lgan. Florans hozir tanish-bilishlariga qo'ng'iroq qiladi — keksaroqlariga, albatta, so'rab-surishtiradi. Keyin menga aytadi. Do'xtirning taqdiriga qiziqyapsan-ku, to'g'rimi?

— Albatta, — dedi Megre va tokchadan navbatdagi trubkani olish uchun o'rnidan turdi.

— Myuluzga o'zing bormaysanmi?

— Hozircha bir narsa deyish qiyin.

— Borsang, meni ham ola ket.

Ular bir-birlariga jilmayib qo'yishdi. Deraza lang ochiq edi. Oftob charaqlab turipti. Bunday paytda odam beixtiyor dam olish haqida, ta'til to'g'risida o'y surib ketadi.

— Bo'пти... Singlimning hamma gaplarini yozib qo'yaman. Keyin, mayli, ustimizdan kulsang kulib yurarsan...

### III b o b

Lapuent «Pejo — 403» markali qizil mashinalarni izlab, Parij ko'chalarida izg'ib yurgan bo'lishi kerak. Janvye ham joyida yo'q, uni tug'ruqxonaga chaqirishib-

di, hoynahoy, to'rtinchi farzandi dunyoga kelishini kutib, yo'lakda tipirchilab turgandir.

— Zarur ishing yo'qmi, Lyuka?

— Ish qochib ketmaydi, xo'jayin!

— Bo'lmasa, bir zumga mening oldimga kir.

Megre uni tabibning narsalarini olib kelish uchun kasalxonaga jo'natmoqchi edi. Ertalab shu haqda o'ylamagan ekan.

— Seni xonama-xona yugurtirib, sarson qilishadi. Shuning uchun har xil muhrlar bosilgan xat olvol, nafi tegadi.

— Kim qo'l qo'yadi?

— O'zing qo'yaver. Ularga muhr hisob. Darvoqe, o'zimga ham anovi Fransua Keller deganning barmoq izlari kerak edi... Kasalxona direktoriga qo'ng'iroq qila qolsammikan?

Qayerdandir bir chumchuq uchib kelib, deraza tokchasiga qo'ndi va xona ichida u yoqdan bu yoqqa yurib turgan ikki kishini kuzata boshladi, aftidan, unga bu xona o'ziga xos odamzot uyasiday tuyuldi.

Megre kasalxona direktoriga nihoyatda xushmuomalalik bilan, oldingizga brigadir Lyuka kiradi, deb aytdi. Ish xamirdan qil sug'urganek bitdi.

— Hech qanday hujjat kerak emas! — dedi u go'shakni qo'yarkan. — Seni direktorning huzuriga boshlab kirishadi, u yog'ini direktorning o'zi to'g'rilaydi.

Megre yolg'iz qolgach, telefon raqamlari yozilgan kitobni varaqlay boshladi:

«Rusla... Rusle... Amede... Rtyur, Alin...»

Ruslelar ko'p edi, ammo u yo'g'on harflar bilan terilgan familiyani tanladi: «Rene Ruslening dori-darmon laboratoriyasi».

Laboratoriya O'n to'rtinchi okrugda, Orlean qopqasi yaqinida joylashgandi. So'ng Ruslening uy adresi yozilgan: Syushe xiyoboni, O'n oltinchi okrug.

Soat ikki yarim. Birdan shamol turib, ko'chada chang-to'zon ko'tarildi, bu momaqaldiroqdan nishona edi, ammo bunday bo'lmadi, hayal o'tmay yana bahor oftobi charaqladi.

— Allo! — go'shakdan ayol kishining mayin va yoqimli ovozi eshitildi.

— Kechirasiz, men Rusle xonim bilan gaplashmoqchi edim.

— Kim bo'lasiz?

— Komissar Megreman, Jinoyat qidiruv politsiyasidan.

Ayol jim bo'lib qoldi, keyin:

— Nima masalada? — deb so'radi.

— Shaxsiy masala.

— Rusle xonim men bo'laman.

— Myuluzda tug'ilgansiz, qizlik familiyangiz Keller, shundaymi?

— Ha.

— Siz bilan iloji boricha tezroq ko'rishishim kerak. Uyingizga borsam bo'ladimi?

— Biror noxush gap aytmoqchimisiz?

— Yo'q. Sizdan ba'zi bir narsalarni so'rab olmoqchiman.

— Qachon kelmoqchisiz?

— Hoziroq yo'lga chiqishim mumkin...

— Xalaqit berma, Janna! — dedi ayol kimgadir, ehtimol, bolasiga bo'lsa kerak.

Rusle xonimning taajjubga tushgani, ayni paytda, hayajonlanayotgani shundoq sezilib turardi.

— Kutaman, janob komissar. Kvartiramiz to'rtinchi qavatda.

Megre tong payti sohil bo'ylab sayr qilishni xush ko'rardi. Sohil manzarasi har gal shirin xotiralarni qo'zg'ardi. Ayniqsa, Megre xonim bilan Sena yoqalab Parijni necha marotalab kezib chiqqan chog'larini eslaganida yuragi entikib ketardi. Mana hozir ham inspektor Torans politsiyaning kichkina mashinasida uni o'sha yoqqa — ko'rkam binolar joylashgan osuda va xushmanzara ko'chaga olib ketayapti.

— Men ham kiraymi, xo'jayin?

— Keragi yo'q.

Devoriga oq marmar terilgan dahlizga ikki tavaqali oynavand temir eshikdan kirilardi. Keng lift tez va beshovqin ko'tarildi. Megre eshik qo'ng'irog'ini bosar-

bosmas ostonada oq kamzul kiygan xizmatkor paydo bo'lib, komissarning qo'lidan shlyapasini oldi.

— Marhamat, ichkariga!

Yo'lakda qip-qizil koptok, gilam ustida qo'g'irchoq yotardi. Megre qiya ochiq eshikdan oq ko'ylakli bir qizchani narigi xonaga olib kirib ketayotgan enagani ko'rdi. So'ng boshqa eshik ochildi — pardoixonaning eshigi bo'lsa kerak.

— Kiravering, janob komissar!

Megre, Rusle xonim o'ttiz besh yoshlarda bo'lsa kerak, deb o'ylagandi. Ammo u juda yosh ko'rinardi. Bug'doy rang, yengil yozlik kiyimda, istarasi issiq. Nigohi ham ovoziday mayin va yoqimli. Xizmatkor chiqib ketishi bilan u mehmonga murojaat qildi:

— O'tiring, marhamat! Qo'ng'iroq qilganingizdan beri, nima gap deb o'ylayman...

Megre to'g'ridan to'g'ri maqsadga o'ta qolmay, negadir:

— Bolalaringiz nechta? — deb so'radi.

— To'rtta: kattasi o'n birda, qolganlari to'qqiz, yetti va uch yoshda.

Aftidan, u uyida politsiyachini birinchi bor ko'rayotgan bo'lsa kerak, komissarga hadik bilan tikilib turardi.

— Avvaliga erimga bir gap bo'ldimi, deb o'yladim.

— Eringiz Parijdami?

— Yo'q, u Bryusselda, yig'inga ketgan. O'sha zahotiyiq qo'ng'iroq qildim.

— Otangizni eslaysizmi, Rusle xonim?

Ayol endi sal o'ziga keldi. Xonaga tuvakgullar qo'yilgan, derazadan Bulon o'rmonidagi daraxtlar ko'zga tashlanardi.

— Ha, eslayman, lekin...

U duduqlanib qoldi.

— Oxirgi marta qachon ko'rgansiz?

— Ancha bo'ldi... O'shanda o'n uch yoshda edim...

— Myuluzda yashagan paytingizda-da?

— Ha, Parijga turmushga chiqqanimdan keyin kelganmiz.

— Turmush o'rtog'ingiz bilan Myuluzda tanishganmisiz?



— Yo‘q, La-Baleda... Oyim bilan har yili borib turardik u yoqqa.

Birdan bolalarning qiy-chuvi eshitilib qoldi. Yo‘lakda qaysi biridir gurs etib yiqildi.

— Uzr, men hozir...

Ayol eshikni yopib chiqib ketdi, bolalariga bir nimalarni shipshidi.

— Kechiring, iltimos... Bugun bolalar maktabga bormagan... O‘ynatib kelaman, deb va‘da beruvdim.

— Otangizni ko‘rsangiz, taniysizmi?

— Tanisam kerak.

Megre cho‘ntagidan tabibning shaxsiy guvohnomasi-ni chiqardi. Guvohnoma berilgan muddatga qaraganda, surat bundan besh yil muqaddam olingan. Bu yirik magazinar, vokzallar va politsiya mahkamalarida turadigan foto-avtomat bilan olingan oddiygina surat edi.

Fransua Keller suratga eski kiyimda, hatto soqolini ham oldirmay tushgan. Soqoli shu darajada o‘sib ketganki, aftidan, o‘zi ahyon-ahyonda qaychi bilan kuzab tursa kerak. Tepakal. Nigohi parishon.

— Shumi?

Rusle xonim titroq qo‘l bilan guvohnomani ushlab, tuzukroq ilg‘ash uchun rasmga engashdi. Uzoqni yaxshi ko‘rolmasa kerak.

— Otam mening xotiramda bunaqa qiyofada qolmagan, lekin surat otamnikiligiga shubham yo‘q.

U suratga yanayam yaqinroq engashdi.

— Zarrabin bo‘lganda, ehtimol... Shoshmang, hozir obchiqaman.

Rusle xonim guvohnomani stolga qo‘ydi-da, bir zumda narigi xonadan zarrabin ko‘tarib chiqdi.

— Otamning chap qovog‘ida kichkina, lekin chuqur chandig‘i bor edi. Ha, xuddi o‘zi... Bir qarashda payqash qiyin bunaqa rasmda, lekin mana ko‘rinib turibdi... Yaxshilab qarang-a!..

Megre ham zarrabinni qo‘liga oldi.

— Esimda qolganining sababi, bu chandiqni mening dastimdan orttirgan edi... Yakshanba kunlarining birida dam olgani shahar tashqarisiga chiqdik. O‘shanda sakkiz yoshlarda edim... Jazirama yoz payti. Bug‘doyzor che-

tida lolaqizg'aldoqlar ochilib yotardi. Rosayam terгим keldi. Ammo bug'doyzor tikonli sim bilan o'ralgan edi. Otam meni u tomonga o'tkazish uchun simni ko'tarib turmoqchi bo'ldi. Pastdagi simni oyog'i bilan bosib, sal oldinga engashdi... Tavba, ko'p narsalarni unutilman-u, shu voqea esimdan chiqmapti-ya! Birdan otamning oyog'i toyib ketib, tarang tortilib turgan sim zarb bilan yuziga urildi. Ko'zi lat yedimikan, deb oyimning kapalagi uchib ketdi. Otamning yuzi qonga belandi. Yarani yuvib bog'lash uchun eng yaqin fermaga qarab yugurgandik. Shu-shu otamning qovog'ida chandiq izi qolgandi.

Rusle xonim ushbu hodisani hikoya qilarkan, Megrega xavotirlanib tikilar, go'yo komissar asl mud-daoga o'tishi uchun ataylab vaqtni cho'zmoqchiga o'xshardi.

— Unga biror gap bo'ptimi?

— Tunda boshini yorishgan, lekin do'xtirlar tuzalib ketadi, deyishyapti.

— Parijda bo'ldimi bu voqea?

— Ha, Sena bo'yida... Keyin uni suvga uloqtirishgan.

Komissar bu gap ayolga qanday ta'sir etishini bilmoq niyatida undan ko'z uzmasdi, ammo Rusle xonim nigo-hini olib qochmadi.

— Otangiz qanday yashaganidan xabaringiz bormi?

— Sal-pal...

— Ya'ni?

— Bizni tashlab ketganidan keyin...

— U paytda o'n uch yoshda ekansiz. Eslaysizmi qay tarzda ketganini?

— Yo'q. Ertalab tursam, uyda ko'rinmadi. Hayron bo'ldim. Oyimdan so'rasam, uzoq sayohatga jo'nab ketdi, dedi.

— Qayerda ekanligini qachon bildingiz?

— Bir necha oydan so'ng otamning Afrikada o'rmonda negrlarni davolab yurganini oyimga xabar qilishdi...

— Rostdan ham shunday bo'lganmi?

— Menimcha, rost bu gap... Keyinchalik otamni ko'rganlar ham tasdiqlashdi buni. Gabonda, Librevildan

yuz chaqirimcha narida joylashgan kichkina shifoxonada yashagan ekan.

— Gabonda uzoq vaqt turganmi?

— Harholda bir necha yil yashagan bo'lishi kerak. Darvoqe, Myuluzda otamni birovlar salkam avliyo de-yishar, boshqalar esa...

Megre gapning davomini kutdi. Ayol biroz ikkilanib turgach, qo'shib qo'ydi:

— Boshqalar uni xayolparast, savdoyi deb atashardi.

— Oyingiz-chi?

— Menimcha, oyim taqdirga tan bergan...

— Necha yoshda hozir?

— Ellik to'rtida... Yo'q, ellik beshda... Otam unga xat qoldirganini keyinchalik bildim, lekin oyim uni menga sira ko'rsatmagan edi. Aftidan, otam u xatda endi uyga qaytmasligini, ajralish bilan bog'liq hamma tashvishlarni o'z zimmasiga olishga tayyor ekanligini yozgan bo'lsa kerak.

— Ular keyin ajralishdimi?

— Yo'q. Oyim dinga qattiq berilgan ayol.

— Eringiz shu voqealardan xabardormi?

— Albatta. Undan hech narsani yashirmaganmiz.

— Otangiz Parijga qaytganini eshituvdingizmi?

Rusle xonimning qovoqlari pirpiradi. Megre, hozir bu ayol yolg'on gapirishi mumkin deb ko'ngildan o'tkazdi.

— Ha, desam ham bo'ladi, yo'q, desam ham... O'zim uni ko'rmaganman... Oyim ham, men ham otamning Parijga qaytishiga ishonmasdik. Darvoqe, myuluzlik bir kishi oyimga Sen-Mishel xiyobonida reklama taxtasini ko'tarib yurgan, otamga judayam o'xshaydigan bir odamni ko'rganini so'zlab beribdi... U oyimning eski tanishlaridan... Ismini aytib chaqirgan ekan haligi kishi bir seskanibdi-yu, indamay ketaveribdi...

— Politsiyaga xabar qilish esinglarga kelmadimi?

— Nima keragi bor? Otamning o'zi tanlagan-ku shu yo'lni... Biz bilan yashay olmasligiga ko'zi yetgan.

— Uning taqdiri sizni tashvishlantirmadimi?

— Erim bilan bu haqda ko'p gaplashganmiz.

— Oyingiz bilan-chi?

— Oyimdan ham ko'p so'raganman... Turmushga chiqmasimdan oldin, keyin ham...

— Oyingiz nima deydi bu ishlarga?

— Bir-ikki og'iz gap bilan tushuntirish qiyin buni. Ichi achiydi, albatta... Meni ham ichim achiydi. Nahotki otam bizsiz o'zini baxtli sezayotgan bo'lsa, deb ba'zan o'y surib qolaman...

Keyin ayol ovozini pasaytirib, xijolatomuz davom etdi:

— Bizning turmush tarzimizni hazm qilolmaydigan odamlar ham bo'ladi. Undan tashqari, oyim...

Rusle xonim hayajonlanardi. Kreslodan turib, deraza yoniga bordi, biroz ko'chaga tikilib turgach, yana joyiga kelib o'tirdi.

— Oyimga ayb qo'yolmayman. Uning o'z dunyoqarashi bor... hammanikiga o'xshagan. Ehtimol, «shaddod» degan ta'rif oyimga unchalik to'g'ri kelmas, lekin u aytganini qildiradigan ayol.

— Otangiz ketib qolganidan keyin oyingiz bilan munosabatlaring buzilmadimi?

— Unaqa deyolmayman... Lekin turmushga chiqayotganimdan juda xursand bo'ldim, chunki...

— Chunki uning g'amxo'rligidan xalos bo'lgansiz?

— Bu tomoni ham bor, — dedi u kulimsirab. — Albatta, buning ajablanadigan joyi yo'q: ko'p qizlarning ahvoli shu. Oyim mehmonga borishni, mehmon kutishni, mashhur odamlar bilan uchrashib turishni yaxshi ko'radi... Myuluzdaligimizda uyimizga doim taniqli kishilar yig'ilishardi.

— Otangiz borligida ham-a?

— Ha, keyingi ikki yil mobaynida.

— Nima uchun keyingi ikki yil mobaynida?

— Chunki bu payt oyimga xolamdan katta meros qolgan... Avvallari odmigina turmush kechirardik, shaharning ovloq go'shasida, torgina hovlida yashardik. Otam asosan ishchilarni davolardi... Meros tegdi-yu, hayotimiz tamoman o'zgarib ketdi... Biz yangi joyga ko'chdik... Oyim ibodatxona yaqinidan bir hashamatli uy sotib oldi... Bu imorat peshtoqidagi tamg'a unga ayniqsa xush yoqqan edi...

— Otangizning qarindosh-urug'larini taniysizmi?

— Yo'q. Frontda halok bo'lgan ukasini uch-to'rt marta ko'rganman. Agar yanglishmasam, u qayerdadir Suriyada nobud bo'lgan... harholda Fransiyada emas.

— Ota-onasini-chi?

Yana bolalarning shovqini eshitildi, ammo endi Rusle xonim bunga e'tibor bermadi.

— Otamning onasi u o'n besh yoshligidayoq vafot etgan ekan... Otasi duradgorlik ishlari bo'yicha pudratchi bo'lgan, deb eshitganman. Oyimning aytishicha, uning qo'lida o'nga yaqin odam ishlagan. Bir kuni, otam hali dorilfununda o'qib yurgan paytida, bobom ustaxonada o'zini osib qo'ygan, keyin ma'lum bo'lishicha, ishi orqaga ketgan ekan.

— Baribir otangiz o'qishni tugatishga muvaffaq bo'lgan, shundaymi?

— Ha, otam ham o'qib, ham dorixonada ishlagan.

— Tabiati qanaqa edi uni?

— Xushfe'l odam edi. Javobim sizni qanoatlantirmasligini tushunaman, lekin mening xotiramda u aynan shunday kishi sifatida qolgan. Xushfe'l va andak ma'yus.

— Oyingiz bilan o'rtalarida janjal bo'lib turarmidi?

— Otamning baqirib-chaqirganini sira eshitmaganman... To'g'ri, agar uyda ishi bo'lmasa, odatda, ko'p vaqtini bemorlarning oldida o'tkazardi. Esimda, oyim o'ziga bee'tiborligi, har doim bitta g'ijim kostyumda yurgani, uch kunlab soqolini olmagani uchun nuqul otamga dashnom berardi. Men ham, o'pganimda soqoli botadi, deb olovga yog' sepib turardim.

— Hamkasblari bilan munosabati qandayligini bilmasangiz kerak?

— Oyimning gap-so'zlaridangina bilaman, lekin qanchalik to'g'ri-noto'g'riligi haqida bir narsa deyolmayman. Oyim yolg'on gapirmaydi-yu, ammo xayolidagi narsani xuddi bo'lgan voqeaday qilib so'zlashni yaxshi ko'radi... Modomiki otamga turmushga chiqibdimi, demak, dunyoda otamdan baxtli odam yo'q...

— «Otang — shaharning eng zo'r do'xtiri, — derdi u menga. — Hech shubhasiz, Fransiyadagi eng yaxshi do'xtirlardan biri. Ammo...» — Rusle xonim yana ku-

limsiradi. — Bu yog‘ini tushunib turgandirsiz... Otam sharoitga qarab ish tutishni bilmasdi. Boshqalarga o‘xshashni xohlamasdi... Buvang ishi orqaga ketgani uchun emas, ruhiy kasallikdan o‘zini osgan, derdi oyim menga... Sababi, buvamning qizlaridan biri ruhiy bemorlar shifoxonasida yotib chiqqan ekan...

— Keyin nima bo‘lgan unga, ammingizga?

— Xabarim yo‘q... Oyim ham bilmasa kerak. Harholda, Myuluzdan ketib qolgan.

— Oyingiz haliyam o‘sha yerdami?

— Oyim allaqachon Parijga ko‘chib kelgan.

— Adresini aytolmaysizmi?

— Orlean sohili, yigirma to‘qqizinchi uy.

Megre seskanib ketdi, ammo ayol buni sezmedi.

— Sen-Lui orolida... Orol Parijning so‘lim joylaridan biriga aylanganidan beri...

— Otangizga qayerda hujum qilishganini bilasizmi?

— Yo‘q, albatta.

— Mari ko‘prigi ostida... Oyingiz turadigan uydan uch yuz metr narida.

Rusle xonim qoshlarini chimirdi.

— Ko‘prik Senaning boshqa tomonida-ku, shundaymi? Oyimning derazasi Turnalar sohiliga qaragan.

— Oyingizning kuchugi bormi?

— Nima uchun so‘rayapsiz?

Bundan bir necha oy muqaddam, uylari ta‘mir qilinayotgani sababli, Megre xotini bilan Vogez maydonida yashagandi. Ular kechqurunlari ko‘pincha Sen-Lui orolida sayr qilishardi. Bunday paytda Sena sohilida kuchugini sayr qildirib yurganlar ham ko‘p bo‘lardi.

— Oyim faqat qush boqadi. Kuchuk bilan mushukka toqati yo‘q. — Ayol birdan suhbat mavzusini boshqa yoqqa burib yubordi: — Otamni qayerga yotqizishgan?

— Mari ko‘prigi yonidagi kasalxonaga.

— Demak, siz mendan...

— Hozir emas... Ehtimol, o‘sha odamning otangiz ekanligini uzil-kesil aniqlab olish uchun kasalxonaga borishingizni keyinroq iltimos qilishimga ham to‘g‘ri kelar, keyinroq. Hozir uning boshi va yuzlari doka bilan tang‘ib tashlangan.

- Ahvoli og‘irmi?
- Behush yotibdi.
- Nima sababdan bu qadar berahmlik qilishdiykin?
- Men ham shuni bilmoqchiman-da.
- Balki mushtlashgandir birortasi bilan?
- Yo‘q. Uni uxlab yotgan paytida urishgan.
- Ko‘prik tagida-ya?

Komissar o‘rnidan turdi.

- Hozir oyingizning oldiga borasizmi?
- Bormasam bo‘lmaydi. Qo‘ng‘iroq qilib, voqeadan xabardor qilib qo‘ysam maylimi?

Megre hadeganda javob bermadi. U bu hodisa Keller xonimga qanday ta‘sir qilishini kuzatmoqchi edi. Ammo ayolning ra‘yini qaytargisi kelmadi.

— Rahmat, janob komissar. Endi bu haqda gazetalarda ham yozishadimi?

— Yozib bo‘lishgandir allaqachon, lekin otangizning familiyasi ko‘rsatilmaganligi aniq, chunki o‘zim ham buni hozir yaqinda bildim.

— Oyim otamning familiyasi aytilmasligini talab qilishi turgan gap.

— Qo‘ldan kelgancha harakat qilaman.

Rusle xonim mehmonini yo‘lakka kuzatib chiqqanida qizchasi yugurib kelib etagiga yopishdi.

— Hozir o‘ynagani boramiz, qizalog‘im. Bor, Nanaga ayt, kiyintirib qo‘ysin.

Torrans Rusle xonimning uyi oldida u yoqdan-bu yoqqa borib kelardi. Jinoyat qidiruv politsiyasining kichkina qora mashinasi yarqiragan, dabdabali xususiy avtomobillar oldida judayam g‘arib ko‘rinaradi.

— Orfevr sohiliga haydaymi?

— Yo‘q. Sen-Lui oroliga. Orlean sohiliga.

Kattakon darvozali uy eski bo‘lsa ham yaxshi saqlangan edi. Mis tutqichlar, panjaralar, zinapoya va devorlar yarqirardi. Qora ko‘ylak ustidan oq peshbog‘ tutgan eshikbon ayol ham aslzodalarga o‘xshardi.

— Sizni taklif qilishganmi?

— Hm... Yo‘q, lekin Keller xonim meni kutyapti...

— Iltimos, birpas sabr qiling.

Eshikbon o'tiradigan xonadan odatdagiday piyozdog' hidi emas, parketga suriladigan sariq mum isi anqirdi.

Ayol telefon go'shagini ko'tardi.

— Kim keldi deb aytay?

— Komissar Megre.

— Allo!.. Berta?.. Xonimga ayt, qandaydir komissar Megre qabul qilishlarini so'rayapti... Ha, shu yerda... Chiqaversinmi?.. Rahmat... Chiqavering, uchinchi qavat, o'ngdagi eshik.

Megre zinapoyadan tepaga ko'tarilarkan, birdan Selesten sohilini esladi: flamandiyaliklar haliyam o'sha yerdamikan yoki protokolga qo'l qo'yib, Guanga jo'nab qolishdimikan? U qo'ng'iroq tugmasini bosmasidan eshik ochilib, yoshgina, chiroyli oqsoch qiz, go'yo tirik politsiyachini umrida endi ko'rayotganday, komissarga boshdan oyoq razm solib chiqdi.

— Marhamat, kiravering... Shlyapangizni bering...

Kvartiraning shifti nihoyatda baland bo'lib, xonalarga serhasham jihozlar qo'yilgan, zarhal buyumlar terib tashlangandi. Ostonadanoq to'tiqushlarning ovozi eshitildi. Mehmonxonaning qiya ochiq eshigidan kattakon qafas ko'rinib turardi. Ichida o'n juftga yaqin qush chug'ur-lashib yotibdi.

Megre o'n minutlar kutgach, diqqati oshib trubka tutatdi. Ammo mehmonxonaga Keller xonim kirib kelishi bilan uni shosha-pisha og'zidan oldi. Ro'parasida kichkina, noziknihol va hali juda yosh bir ayol turardi. Qizidan u, bor-yo'g'i, o'n yoshlargina katta ko'rinaradi, xolos. Ko'zlari ko'm-ko'k, yuzi bejirim. Oq gulli qop-qora ko'ylagi o'ziga juda yarashgan.

— Jaklin qo'ng'iroq qiluvdi, — dedi u va Megrega suyanchig'i qattiq noqulay kresloni ko'rsatdi.

O'zi esa duxoba qoplangan yumshoq kursiga o'tirdi. U qaddini g'oz tutardi — ibodatxonada o'rgatishgan bo'lsa kerak.

— Erimni topganmishsizmi?

— Biz uni qidirmaganmiz, — dedi Megre.

— To'g'ri... Lekin u nima uchun sizlarga kerak bo'lib qoldi — hayronman... Har kimning ixtiyori o'zida: qandog' xohlasa shundoq yashaydi... Tuzalib ketadiganmi



ishqilib yo qizimga tasalli berish uchun shunday dedingizmi?

— Professor Manyenning aytishicha, omon qolishiga sakson foiz umid bor.

— Manyen?.. Uni yaxshi taniyman... Uyimga ko'p kelgan...

— Eringiz Parijdaligini bilarmidingiz?

— Ha desam ham bo'ladi, yo'q desam ham. Gabonga ketganiga yigirma yil bo'ldi. Shu orada undan atigi ikkitagina xat oldim, ikkalasini ham Afrikaga borgan dastlabki oylarda yozgan...

Keller xonim o'zini motamsaro qilib ko'rsatishga urinmas, har qanday vaziyatda ham dovdirab qolmaydigan ayollar singari, Megrening ko'ziga tik qarab gapirardi.

— Hozir gap erim ustida borayotganiga ishonchingiz komilmi?

— Qizingiz tanidi uni.

Megre Keller xonimga erining surati yopishtirilgan guvohnomani uzatdi.

Ayol ko'zoynagini olib, suratga uzoq tikildi. Ammo yuzida hayajon ifodasi mutlaqo sezilmadi.

— Jaklin haq. O'zgarib ketibdi, lekin Fransua ekanligiga men ham qasam ichishim mumkin. — U boshini ko'tardi. — Rostdan ham shu atrofda yasharkanmi?

— Mari ko'prigi ostida.

— U ko'prikdan ko'p o'tganman... Yaqin bir tinishim Senaning naryog'ida yashaydi. Lambua xonim... Ehtimol eshitgandirsiz, eri...

Lambua xonimning eri qanday lavozimdaligi Megreni aslo qiziqtirmasdi.

— Eringiz Myuluzdan ketganidan keyin uni qaytib ko'rmadingizmi?

— Yo'q.

— O'zi xat-pat yozmadimi? Yoki qo'ng'iroq qilgandir?

— Boya aytganim ikkita xatdan boshqa xabar bo'lmadi... Harholda, bevosita o'zidah...

— Bilvosita-chi?

— Bir kuni mehmondorchilikda Gabonning sobiq

gubernatori janob Perinyon bilan uchrashib qoldim. Gapdan gap chiqib, do'xtir Keller degan odamga qarindosh emasmi, deb so'rab qoldi:

— Nima dedingiz?

— Rostini aytdim. U juda xijolat bo'ldi. Fransua haqida ba'zi ma'lumotlarni bazo'r ichidan sug'urib oldim. Janob Perinyon, Keller u yerdan qidirgan narsasini topolmadi, deb aytdi.

— Nima qidirgan ekan?

— Bilasizmi, Fransua xayolparast odam... Bu dunyoning issiq-sovug'i-yu ikir-chikirlariga bardoshi yo'q... Myuluzdagi ko'ngilsizlikdan so'ng...

Megre taajjublandi.

— Qizim gapirib bermadimi? Darvoqe, unda yosh edi, otasini kam ko'rardi... O'ziga ma'qul mijoz tanlash o'rniga... Ha-ya, choy ichasizmi? Ichmaysizmi? Unda menga ruxsat berasiz, har kuni shu paytda choy ichishga odatlanganman, — u qo'ng'iroq chaldi: — Berta, choy obkeling.

— Bir o'zingizgami?

— Ha. Sizga nima taklif qilsamikan?.. Viskimi? Ixtiyoringiz. Ha, nima deyotuvdim? Ha... Agar yanglishmasam, bir roman bor, nomi «Kambag'allar do'xtiri»mi, «Qishloq do'xtiri»mi, shunga o'xshaganroq... Erim ham o'shanaqa kambag'allar do'xtiri edi. Agar xolamdan meros tegmaganda, hademay kunimiz yovg'on sho'rvaga qolardi... O'ylamang, unga e'tirozim yo'q... O'zi shunaqa odam u... Otasi ham... ha-ya, buning ahamiyati yo'q... Har to'kisda bir ayb, deyishadi-ku.

Telefon jiringladi.

— Maylimi?.. Allo! Ha, menman... Alisamisan? Ha, azizim, sal kechroq boraman... Yo'q, yo'q, qaytanga yaxshi... Lorani ko'rdingmi? Borarkanmi?.. Kechirasan, hozir ko'p gaplasholmayman — mehmonim bor... Keyin aytib beraman. Xayr! — Keller xonim yana joyiga o'tirdi. — Ichki ishlar ministrining xotini. Taniysizmi?

Megre bosh chayqab, trubkasini beixtiyor cho'ntagiga soldi. Keller xonimning to'tilari ham suhbat uzilib qolayotgani yetmaganday battar g'ashiga tegayotgandi. Mana endi oqsoch qiz kirib, dasturxon tuzay boshladi.

— Fransua kasalxona do‘xtiri bo‘lmoqchi edi, ikki yil mobaynida zo‘r berib konkursga tayyorlandi... Ammo nihoyatda adolatsizlik qilishdi. Myuluzga borsangiz, buni hamma tasdiqlashi mumkin: nomzodlar ichida eng munosibi Fransua edi. Kasalxonaga ishga olishganda uzukka ko‘z qo‘yganday bo‘lardi... Ammo, odatdagiday, nufuzli bir odamning yaqinini tanlashdi. Baribir bu hamma narsaga qo‘l siltash uchun sabab bo‘lolmaydiku...

— Demak, hafsalasi pir bo‘lib...

— Qaydam, balki shundaydir... Uni juda kam ko‘rardim... Uyda bo‘lgan paytlarida ham kabinetiga qamalvolardi. Ilgaritdan odamovi edi, haligi voqeadan keyin beshbattar bo‘ldi. Uni yomonlash niyatim yo‘q... Ajralish xayolinga ham kelmagandi, o‘zi xatida shuni taklif qildi.

— Icharmidi?

— Qizim aytdimi?

— Yo‘q.

— Ha, ichardi... Garchi kabinetida hamma vaqt ichimlik tursa ham, uni sira mast holda ko‘rmaganman. Lekin boshqalar uning o‘ziga o‘xshagan odamlar qadam bosmaydigan xarob mayxonalardan chiqib kelayotganini ko‘rishar ekan.

— Gabon haqida gap boshlagandingiz.

— Nazarimda, erim ikkinchi do‘xtir Shveysar<sup>1</sup> bo‘lishni orzu qilgan. Tushunyapsizmi? O‘rmonda yashaydigan negrlarni davolash, u yerda shifoxona ochishni mo‘ljallagan, oq tanlilardan, ayniqsa, o‘ziga yaqin kishilardan nariroq yurishga harakat qilgan.

— Shunga muvaffaq bo‘lganmi?

— Gubernatorning gapiga qaraganda, aksincha, o‘ziga dushman orttirgan. Ma‘muriyat ham, yirik mahalliy kompaniyalar ham undan yuz o‘girgan. Shundan keyin u ichkilikka battar ruju qo‘ygan. Tag‘in badxohlik qilyapti, deb o‘ylamang, aslo unday emas... Gabonda u bir negr ayoli bilan xarob kulbada yashagan, undan bolalari ham bo‘lsa kerak...

<sup>1</sup> Shveysar Alber (1875—1965) — yirik fransuz olimi, shifokori va jamoat arbobi. Gabonda jarrohlik shifoxonasi tashkil etgan.

Megre nigohini oftob nuri tushib turgan to'tiqushlar qafasiga burdi.

— Xullas, unga mamlakatdan chiqib ketishni shama qilishgan.

— Ya'ni, Gabondan surgun qilingan, demoqchisiz-da?

— Shunaqa desa ham bo'ladi. Lekin tafsilotini aniq bilmayman, gubernator ham gapni chalg'itdi... Harholda, Fransua ketishga majbur bo'lgan.

— Tanishlaringizdan biri uni Sen-Mishel xiyobonida ko'rgan ekan. Qachon bo'lgan edi bu?

— Qizim shuniyam aytdimi? Lekin o'sha odam Fransua ekanligiga ko'pam ishonmayman. Odam odamga o'xshaydi-ku. Mahalliy restoranning reklamasi-ni ko'tarib yurgan o'sha odam ham erimga o'xshasa ne ajab... Lekin tanishim ismini aytib chaqirgan ekan, u bir uchib tushibdi...

— Gaplashibdimi tanishingiz o'sha odam bilan?

— Fransua unga umrida birinchi bor ko'rayotganday tikilibdi. Men bilgan narsalar mana shular.

— Hozirgina qizingizga ham aytdim, sizni kasalxonaga olib borishga hali erta, chunki jabrlanuvchining bosh-yuzi doka bilan o'rab tashlangan. Lekin sal sog'ayganidan keyin...

— Og'ir bo'lasmikin?

— Kim uchun?

— Uning uchun-da, albatta!

— Shunga qaramay, uning shaxsiyatini uzil-kesil hal etishimiz kerak.

— Erim ekanligiga shubham qolmadi... Ayniqsa, chandiqni eshitganimdan keyin... Yodimda, avgust oyi edi, yakshanba kuni...

— Xabarim bor...

— Unda meni bezovta qilmasangiz ham bo'ladi...

Megre o'rnidan turdi — to'tiqushlarning ovozi shu qadar joniga tekkan ediki, tezroq ko'chaga chiqib ketgisi kelib, bazo'r chidab o'tirgandi.

— O'ylaymanki, gazetalarda...

— Tashvishlanmang, gazetalarda qisqagina xabar bosiladi, xolos.

— Bu mendan ko‘ra ham kuyovim uchun muhim. Harholda, ishdagi odam... Bu gaplardan u xabardor, hammasini taroziga solib, taqdirga tan bergan... Rostdan ham hech narsa ichmaysizmi?

— Tashakkur.

Ko‘chaga chiqqach, Megre Toransdan shosha-pisha:

— Qayerda tinchroq mayxona bor? O‘lguday ichgim kelyapti! — deb so‘radi.

— Oh, qaniydi shu tobda ko‘pirib turgan muzday pivo bo‘lsa!

Ular osuda, nimqorong‘i mayxonani tezgina topishdi-yu, ammo aksiga olib, pivosi iliq va nihoyatda bemaza ekan.

#### *IV b o b*

— Ro‘yxat stolim ustida, — dedi Lyuka. U bu safar ham topshiriqni risoladagiday qilib bajargandi.

Mashinkada yozilgan ro‘yxat bitta emas, bir nechta edi. Eng ustida turli-tuman buyumlar ro‘yxati. Sud-tibbiyot ekspertizasi xodimi ularni «eski-tuskilar» degan sarlavha ostiga tizibdi. Aslida, tabibning qachondan beri Mari ko‘prigi ostida asragan mana shu lash-lushlaridan bo‘lak hech vaqosi yo‘q! Fanerdan yasalgan yashiklar, bolalar aravachasi, yirtiq adyol, eski gazetalar, manqal, dekcha. Bossyuzning «Qabr uzra aytilgan nutq»i bilan boshqa buyumlar tepaga, Adolat saroyi laboratoriyasining bir burchagiga uyib qo‘yilibdi.

Navbatdagi ro‘yxatda Kellerning kasalxonadan keltirilgan kiyimlari qayd etilgan. Alohida varaqqa esa uning hamyonidan chiqqan narsalar yozilgan.

Megre so‘nggi ro‘yxatni o‘qib ham o‘tirmadi, uni bir chetga surib, Fransuaning bor bisoti jamlangan jigarrang paketni ochdi. Yuziga botayotgan quyoshning qizg‘ish nurlari tushib turgan Megreni kuzatish maroqli edi: shu tobda u qorboboning yangi yil qopchig‘idan antiqa sovg‘a qidirayotgan yosh bolaga o‘xshardi.

Eng oldin komissar paketdan nihoyatda eskirib ketgan stetoskop chiqarib, stol ustiga qo‘ydi.

— Kamzulining o‘ng cho‘ntagida ekan, — deb izoh

berdi inspektor. Kasalxonadagilardan iltimos qiluvdim, tekshirib berishdi — buzuq ekan.

Qiziq, buzuq narsani Fransua Keller nima uchun yonida olib yurgan ekan? Tuzatmoqchi bo'lganmi? Yoki kasbidan yodgorlik, o'ziga xos so'nggi bir timsol sifatida saqlaganmi?

Keyin Megre uch tig'li qalamtarosh bilan shisha tiqinini ochadigan muguz sopli parma-bigizni oldi. Bularni ham tabib axlat yashigidan topgan bo'lsa ajabmas.

So'ng mushtugi sim bilan omonatgina tutashtirib qo'yilgan trubka chiqdi.

— Chap cho'ntagidan oldim, — dedi Lyuka. — Hali jiqqa ho'l.

Megre trubkani beixtiyor hidlab ko'rdi.

— Tamakisi yo'q ekanmi?

— Xaltaning tubidan uch-to'rtta chekib tashlangan sigareta topdim. Lekin suv tegib, bo'tqa bo'lib ketibdi.

Komissarning ko'z o'ngida yerdan sigareta qoldig'ini olib, trubkasiga kuyindi tamakini ezg'ilab solayotgan nochor odamning qiyofasi paydo bo'ldi. Tabibning trubka chekishi ko'nglining allaqayerida iliq tuyg'ular uyg'otdi, ammo Megre buni sezdirmadi. Qizi ham, xotini ham bu haqda lom-mim deyshmagandi.

Katta-kichik mixlar, murvatlar. Nima uchun kerak ekan bular? Aftidan, tabib axlat yashiklarini titkilayotganida qo'lga nima ilinsa — kerak bo'ladimi, yo'qmi — hammasini cho'ntagiga solavergan. Balki u bularni qandaydir tumor o'rnida ko'rgandir. Cho'ntagidan yana shunaqa narsalar topildiki, ularning ko'prik ostida tunab yuradigan odamga asqatishiga aslo aql bovar qilmaydi.

Aytaylik, mana bu uchta soqqa — ichiga sariq, qizil va yashil tolalar solingan shisha soqqalar. Bunday soqqani bolalar besh yoki oltita oddiy soqqaga almashtirib olishadi-da, so'ng uning oftobda ajabtovur tovlanishiga mahliyo bo'lib, sevinib yurishadi.

Uch-to'rtta sariq chaqa bilan bir-biriga yopishib qolgan ikkita ellik franklik solingan charm hamyonni demasa, xaltadagi bor-yo'q «boylik» yuqorida sanab o'tilgan narsalardan iborat.

Megre soqqalardan birini olib, kaftida aylantira boshladi.

— Barmoq izlarini oldingmi?

— Ha, oldim. Bemorlar angrayib qolishdi... Keyin arxivga kirib, boshqa barmoq izlari bilan solishtirib chiqdim.

— Xo'sh?

— Hech gap yo'q. Keller biz bilan ham, sud bilan ham ilgari sira to'qnash kelmagan.

— Hushiga keldimi?

— Yo'q. Karavotining yonida turganimda ko'zlarini xiyol ochdi, lekin biror narsani ko'rganiga ishonmayman. Xirillab nafas oladi. Ora-sira ingrab qo'yadi...

Komissar uyiga ketishdan oldin zarur qog'ozlarga imzo chekdi. Sirdan jiddiy va horg'in ko'rinsa ham tashqarida oftob charaqlab turgani uchunmi, kayfiyati chakki emas edi. Chiqib keta turib, negadir, — bilibmibilmay, shisha soqqalardan bittasini cho'ntagiga soldi.

Bugun seshanba, demak, xotini makaron qovurib qo'yan. Boshqa kunlari taom o'zgarib turadi, ammo payshanbada — sho'rva, seshanbada — qiymali yoki qo'ziqorin solingan makaron bo'lishi tayin.

Megre xonimning ham kayfi chog' edi, uning ko'zlarida quv ifodani ko'rgan komissar xotininining yangi gap topib qo'yanini payqadi. Ammo o'zi Jaklin Rusle bilan Keller xonimnikiga kirib kelganini aytishga shoshilmadi.

— Qornim o'lguday och!

Megre xonim, eri shu tobning o'zida uni savolga ko'mib tashlashini kutgan edi, bunday bo'lmadi, faqat ochiq deraza oldida turgan stol yoniga borib o'tirganidan keyingina gap boshladi. Havo iliq, osmon shafaqdan qizarib turardi.

— Singling qo'ng'iroq qilmadimi?

— Florans balo. Kunbo'yi hamma tanishlariga qo'ng'iroq qilib chiqibdi.

Stol ustida nimalardir yozilgan bir varaq qog'oz yotardi.

— Nima deganini gapirib beraymi?

Ko'cha shovqini quloqqa chalinib turardi, qo'shnilar televizor yoqqani ham eshitildi.

— So'nggi axborotni ko'rmaysanmi?

— Yo'q, sening gaplaringni eshitmoqchiman.

Megre xotiniining hikoyasini tinglarkan, bir necha bor qo'lini cho'ntagiga solib, soqqani aylantirib ko'rdi.

— Nega kulyapsan?

— O'zim shunday... Gapiraver.

— Eng oldin Keller xonimga xolasi qoldirgan boylik qayerdan kelganini aniqladim. Buning tarixi uzun. Bir boshdan gapiraveraymi?

Komissar huzur qilib makaron chaynarkan, bosh iring'ab qo'ydi.

— Xolasi ilgari hamshiralik qilgan, qirq yoshida ham turmushga chiqmay, qari qiz bo'lib o'tirgan.

— Myuluzda yashaganmi?

— Yo'q, Strasburgda. U Keller xonimning onasiga singil bo'lgan.

— Ha, ha.

— Xullas, kasalxonada ishlagan. U yerda har bitta professorning o'z xususiy bemorlari uchun bir nechtadan palata ajratilgan ekan. Bir payt, urush boshlanmasdan sal oldin, Keller xonimning xolasi bir bemorga qaragan; keyinchalik bu bemorni Elzasda tez-tez tilga oladigan bo'lishibdi. U temir-tersak bilan savdo qiluvchi Lemke degan odam bo'lib, juda badavlat bo'lishiga qaramay, nojo'ya ishlar bilan ham ko'p shug'ullangan, hatto sudxo'rlik qilishdan ham iymanmagan, deyishadi.

— O'sha odam Keller xonimning xolasiga uylangan, shundaymi?

— Sen qayoqdan bilasan?

Megre gapning beliga tepganidan afsuslandi.

— Ko'zing aytib turibdi-yu.

— Ha, unga uylangan. Bu yog'ini eshit... Urush paytida Lemke qimmatbaho metallarni pullab yurgan. Tabiiyki, nemislar bilan ham aloqada bo'lgan, shu tufayli ancha-muncha boylik orttirgan... Cho'zmayapmanmi? Joningga tegmadimi?

— Yo'q, yo'q. Urushdan keyin-chi?

— Qarshilik harakati qatnashchilari Lemkeni tutib,



boyligini musodara qilish, o'zini esa qatl etish maqsadida uni rosa qidirishadi. Ammo topisholmaydi. Lemke xotini bilan qayoqqadir g'oyib bo'lgan edi, keyinchalik ma'lum bo'lishicha, ular Ispaniyaga, u yerdan Argentinaga ketishgan ekan. Myuluzlik bir gazlama fabrikasining egasi uni tasodifan ko'chada uchratib qoladi... Yana makaron yeysanmi?

— Jonim bilan, faqat yaxshi qovurilganidan.

— Lemke kasbi bilan shug'ullanishni davom ettirganmi yoki ular shunchaki ko'ngilxushlik uchun sayohat qilib yurishganmi — bu yog'i qorong'i. Xullas, bir kuni ular Braziliyaga uchishadi. Tog' ustida samolyot halokatga uchraydi. Ekipaj a'zolari ham, yo'lovchilar ham nobud bo'lishadi. Lemke bilan xotini ham halokat qurboniga aylanishadi-yu, ularning boyligi, kutilmaganda, Keller xonimning ixtiyoriga o'tadi. Boshqa holatda meros erining oilasiga qolishi kerak edi... Nima uchun Lemkening qarindoshlariga hech narsa tegmay, butun boylik xotini-ning jiyaniga o'tib ketishi sababini bilasanmi?

Megre rostini aytmay, yelkasini qisib qo'ya qoldi. Aslida hammasiga tushunib turgan edi.

— Qonun bo'yicha, — deb davom etdi Megre xonim, — er-xotin baxtsiz hodisa tufayli halok bo'lsa-yu ularning qaysi biri oldinroq o'lganini aniqlashning iloji bo'lmasa, xotin eridan ko'ra bir necha daqiqa bo'lsa ham, keyinroq jon bergan, deb hisoblanarkan. Do'xtirlar ham ayollarning joni qattiq, deyishadi-ku... Qisqasi, avvaliga xolasi erining merosxo'riga aylanadi, so'ng butun boylik jiyanning qo'liga o'tadi... Uf! — Megre xonim topib qo'ygan xabaridan mamnun edi. — Shunday qilib, strasburglik bir hamshiraning temir-tersak savdogariga turmushga chiqishi va Janubiy Amerika tog'larida qandaydir bir samolyotning halokatga uchrashi do'xtir Kellerni sarson-sargardon qilib qo'ygan... Mabodo xotini to'satdan bo'yib ketmaganida va ular o'sha Savaj ko'chasida yashab yuraverganlarida... Tushunayapsanmi nima demoqchiligimni? Do'xtir Keller ham Myuluzdan ketmagan bo'lardi, shunday emasmi?

— Ehtimol.

— Keller xonim to‘g‘risida ham ba‘zi narsalarni bilib oldim. Lekin g‘iybat bo‘lishi ham mumkin, singlim ham bu gaplarning to‘g‘riligiga kafolat berolmayman, dedi.

— Qani eshitaylik-chi.

— Keller xonim — kichkina, serg‘ayrat, tinib-tinchi-mas ayol. Dabdabani, nufuzli odamlar bilan bordi-keldi qilishni xush ko‘radi. Eri ketib qolganidan keyin o‘zini aysh-ishratga uradi, haftasiga ketma-ket shohona ziyofatlar uyushtiradi. Shu tariqa xotini o‘lib, so‘qqabosh bo‘lib qolgan Bade departamentining boshlig‘iga maslahatchi bo‘lib oladi. Ba‘zilar uning o‘ynashi desa, boshqalar Keller xonimning undan bo‘lak o‘ynashlari ham bor, derkan. Singlim bir generalning nomini aytuvdi, yodimdan ko‘tarilibdi...

— Keller xonimni ko‘rdim, — dedi komissar.

Megre xonimning g‘ashi kelgan bo‘lsa ham, sir boy bermadi.

— Xo‘sh, qanaqa ayol ekan?

— Sen tasvirlaganday. Kichkina, harakatchan, asabiy. Aslidagidan yosh ko‘rinadi, to‘tiqush jinnisi.

— Qayoqdan bilasan?

— Kvartirasiga to‘tiqushlarni terib tashlabdi.

— Parijda turarkanmi?

— Sen-Lui orolida, erining boshpanasi bo‘lgan Mari ko‘prigidan uch yuz metrcha narida. Darvoqe, tabib ham trubka chekarkan.

Megre ovqatlana turib beixtiyor cho‘ntagidan soqqani chiqarib, dasturxon ustida dumalata boshladi.

— Nima bu?

— Shisha soqqa. Tabibning yonidan uchta soqqa chiqdi.

Megre xonim eriga hayron bo‘lib qaradi.

— Unga xayrixoh ko‘rinasan.

— Yo‘q, shunchaki uni tushuna boshlayapman.

— Kellerday odamning nima sababdan daydi bo‘lib qolganini tushundim, demoqchimisan?

— Sal-pal. U Afrikada yashagan, katta shahar va katta yo‘llardan juda olisda joylashgan tabibxonada bit-tagina oq tanli ishlagan, u ham uning o‘zi bo‘lgan. U yerda ham omadi yurishmagan.

— Nima uchun?

Buni hamma vaqt sarishta va orasta yashab kelayotgan Megre xonimga tushuntirish oson emasdi.

— Men ham shu haqda o'ylayapman-da, — dedi Megre hazilomuz. — Tabib nima gunoh qildiykin?

Xotining qovog'i uyuldi.

— Nima demoqchisan bu bilan? Axir uni boshiga urib, suvga tashlab yuborishibdi-ku, to'g'rimi?

— U — jabrlanuvchi, bu to'g'ri.

— Nega unda...

— Kriminalistlar, xususan, Amerika kriminalistlari shunday nazariyani ilgari suradilarki, bu nazariya bir qarashda mantiqsizday tuyulsa ham, aslida unaqaga o'xshamaydi.

— Qanaqa nazariya ekan u?

— O'nta jinoyatdan kamida sakkiztasida qurbon bo'lgan shaxs qotilni qo'l ko'tarishga majbur etadi, deyishadi ular.

— Tushunmadim.

Megre soqqadan ko'z uzmasdi.

— Mana, xoin bilan rashkchi erni ko'z oldingga keltir... Ular janjallashib qolishadi... Er xotiniga dakki beradi, xotini esa bezrayib turaveradi.

— Bo'lishi mumkin...

— Aytaylik, erning qo'lida pichoq, u xotiniga: «Yana nojo'ya ish qilsang, o'ldiraman!» — deydi.

— Bunaqasi ham bo'ladi...

— Xotini: «Ovora bo'lasan, qo'lingdan kelmaydi!» — deb javob qaytarsa-chi?

— Ha, endi...

— Barakalla. Ko'pgina oilaviy janjallar mana shu tariqa fojia bilan tugaydi. Mana, hozirgina Lemke haqida gapirib berding. U ikkita yo'l bilan boyigan: birinchidan, sudxo'rlikni avj oldirib, mijozlarining dilini og'ritgan, ikkinchidan esa, nemislar bilan oldi-berdi qilgan. Xo'sh, shundoq ekan, uni birov o'ldirib ketibdi, deyishsa kim ajablanardi?

— Lekin do'xtir...

— ... Bir qarashda, birovning mushugini pisht demagan, ko'priklarning ostida yashagan, arzon vinoni

ichvolib, ko'cha-ko'yda reklama taxtasini ko'tarib yurgan.

— Hamma gap shunda-da!

— Ammo tunda kimdir ko'prik ostiga tushgan-da, tabibning uxlab yotganidan foydalanib, boshiga og'ir narsa bilan urgan, keyin sudrab borib Senaga tashlab yuborgan, uni daryochilar bir amallab qutqarib qolishgan. O'sha «kimdir» bekorga bunday qilmagan-ku, axir. Tabib, o'zi xohlabmi-xohlamaymi, uni shu ishni qilishga majbur etgan.

— Hali hushiga kelgani yo'qmi?

— Hozircha yo'q.

— Tilga kirganidan keyin undan haqiqatni bilib olishga umid bog'layapsanmi?

Megre yelkasini qisdi-yu, indamay trubkasiga tamaki sola boshladi. Birozdan so'ng ular chiroqni o'chirib, ochiq turgan deraza yoniga kelib o'tirishdi. Kecha sokin va iliq edi. Hadeganda gap gapga qovushmadi.

Ertasiga ertalab Megre ishga kelganida havo kechagiday ochiq, kun kechagiday charog'on edi. Endigina barg chiqarayotgan daraxtlardan ko'z uzib bo'lmasdi.

Megre yozuv stoli yoniga o'tirishga ulgurmasidan Lapuent kirib keldi. Uning kayfi chog' edi.

— Sizni ikkita yigitcha kutyapti, xo'jayin.

U negadir tipirchilab turar, ko'rinishi xuddi kecha Megre xonimda bo'lganiday, juda serviqor edi.

— Qani ular?

— Qabulxonada.

— Kimlar ekan?

— Qizil «Pejo — 403»ning egasi bilan dushanba kuni kechqurun unga hamroh bo'lgan do'sti. Darvoqe, bu ishda xizmatim yo'q darajada. Buni qarangki, Parijda qizil «Pejo — 403» unchalik ko'p emas ekan, shulardan uchtasining nomerida ikkitadan to'qqiz raqami bor, xolos. Bittasi bir haftadan beri remondda, ikkinchisini egasi Kannga minib ketibdi.

— Ularni so'roq qildingmi?

— Bir-ikkita savol berdim, xolos. O'zingiz gaplasha qoling. Chaqiraymi?

Lapuent komissarga go‘yo antiqa bir sovg‘a tayyorlab qo‘yganday o‘zini g‘alati tutardi.

— Mayli.

Megre cho‘ntagidagi soqqani o‘ynaganicha eshikka ko‘z tikdi.

— Musye Jan Giyo, — deb tanishtirdi inspektor kelganlardan birini xonaga boshlab kirib.

Bu bashang kiyingan, o‘rta bo‘yli qirq yoshlardagi kishi edi.

— Musye Arduen, chizmakash, — Lapuent ikkinchi odamni ham tanishtirdi.

Chizmakash baland bo‘yli, ozg‘in, Giyoga qaraganda yoshroq edi. Megre uning duduq ekanligini darrov payqadi.

— O‘tiringlar, janoblar. Menga aytishlaricha, biringiz qizil rangli «Pejo» mashinasining egasisiz, shundaymi?

Jan Giyo shosha-pisha qo‘lini ko‘tardi.

— Mashina meniki, — dedi u, — qishda sotvolgan edim.

— Qayerda turasiz, musye Giyo?

— Tyuren ko‘chasida, Tampl xiyobonining yonginasida.

— Kasbingiz?

— Sug‘urta vakiliman.

U sal dovdirab qolgan edi. Hazil gapmi! Jinoyat qidiruv politsiyasida o‘tiribdi-ya. Buning ustiga, uni kim-san — komissarning shaxsan o‘zi so‘roq qilyapti. Shunga qaramay, Giyoni o‘takasi yorilgan deb ham bo‘lmasdi, aksincha, keyin og‘aynilariga gapirib berish niyatida tevarak-atrofga alanglab, kabinet ichini nigohi bilan «taftish» qilardi.

— Siz-chi, musye Arduen?

— M-m-m-en ham o‘sha uyda t-t-t-uraman.

— Bir qavat yuqorida, — dedi Giyo sherigiga yordamlashib.

— Uylanganmisiz?

— B-b-b-o‘ydoqman.

— Men oilaliman, ikkita farzandim bor, bir o‘g‘il, bir qiz, — deb bidirladi Giyo navbat kutib o‘tirmay.

Lapuent eshik oldida tik turgancha nuqul sirli jilma-

yardi. Shlyapasini tizzasiga qo‘ygancha stulda mixlanib o‘tirgan bu ikki odam go‘yo o‘zaro musobaqalashayotganday edi.

— Og‘aynimisizlar?

Ular baravariga javob qaytarishdi:

— Yaqin do‘stmiz...

— Fransua Kellerni tanirmidinglar?

Ular bu nomni birinchi marta eshitayotganday ajablanib bir-birlariga qarashdi. So‘ng chizmakash:

— K-k-k-im? — deb so‘radi.

— U uzoq vaqt Myuluzda do‘xtirlik qilgan.

— U yerda hech qachon bo‘lgan emasman! — deb xitob qildi Giyo. — Meni, taniyman, deyaptimi?

— Dushanba kuni kechqurun nima ish bilan mashg‘ul edinglar?

— Inspektoringizga ham aytdim, bunaqa qilish man etilganidan bexabarman.

— Dushanba kuni nima qilganligingizni batafsil gapirib bering.

— Mijozlarimga uchrab bo‘lib, — menga ajratilgan joy Parijning g‘arb tomonida, — kechqurun soat sakkizlarga yaqin uyga qaytsam, xotinim bir chetga chaqirib, — bolalar eshitmasin, degan-da... Nestor boyaqish...

— Nestoringiz kim?

— Itimiz, kattakon dog. Bu yil o‘n ikki yoshga to‘luvdi. Bolalarimni shunaqayam yaxshi ko‘rardiki, ming qilsa ham, ko‘z oldida katta bo‘lishgan-da. Shu desangiz, bolalar chaqaloqligida, ularning karavoti yoniga yotvolib, hatto meni ham yaqin yo‘latmasdi...

— Xo‘sh, nima dedi xotiningiz?

Janob Giyo pinagini buzmay, davom etdi:

— Bilmadim, dog boqqanmisiz-yo‘qmi, lekin nima uchundir ular boshqa zotdagi itlarga qaraganda kam umr ko‘rishadi. Keyingi paytlarda insondagi hamma dard doglarga ham o‘tgan, degan gap-so‘zlar tez-tez quloqqa chalinyapti. Bundan bir necha hafta oldin Nestor birdan shol bo‘lib qoldi, hayvonlar do‘xtiriga olib borib, o‘sha yerda tinchitib qo‘ya qolaylik, desam, xotinim ko‘nmadi. Dushanba kuni uyga qaytsam, it o‘lim talvasasida yotganini aytishdi. Xotinim, bolalar ko‘rmasin, deb do‘stim

Arduenni chaqirib tushibdi, ikkovlashib shoʻrlik itni unikiga olib chiqishibdi.

Megre Lapuentga qaradi, u koʻz qisib qoʻydi.

— Yugurib tepaga chiqdim, — deb davom etdi janob Giyo. — Boyaqish Nestorning ahvoli ogʻir edi. Doʻxtirga qoʻngʻiroq qilsam, teatrga ketgan, kech qaytadi, deyishdi. Ikki soatdan ortiq jon talashayotgan itning tepasidan jilmadik. Polga oʻtirvolib, jonivorning boshini tizzamga qoʻydim...

Arduen janob Giyoning hikoyasini tinglarkan, orachora bosh silkib qoʻyar, baʼzan luqma tashlamoqchi ham boʻlardi.

— U... U...

— Soat oʻn yarimda Nestorning joni uzildi, — dedi uh tortib sugʻurta vakili. — Voqeani xotinimga aytish uchun uyga tushdim. Xotinim Nestor bilan vidolashib qaytguncha, uxlab yotgan bolalarimga qarab turdim. Apil-tapil bir narsa yeganim esimda, axir oʻsha kuni ish koʻpayib ketib, tushlik qilishga ham ulgurmagan edimda. Sal oʻzimga kelvolish maqsadida ikki qadah konyak ichganim ham rost. Xotinim qaytgach, shishani koʻtarib yana Arduenning oldiga chiqdim — u ham mendan battar xunob boʻlgan edi. Shundan keyin itning jasadini nima qilish haqida bosh qotira boshladik. Qayerdadir itlar qabristoni bor, deb eshitgan edim. Lekin qabr joyi qimmat boʻlsa kerak, undan tashqari, dafn marosimiga butun kunni bagʻishlay olmasdim. Xotinimning ham ishi boshidan oshib yotgan edi.

— Qisqaroq qiling, — deb uning gapini boʻldi Megre.

— Xullas... — Giyo gapidan adashib, duduqlanib qoldi.

— B-b-iz... b-b-iz... — deya yana suhbatga aralashmoqchi boʻldi Arduen.

— Xullas, Nestorning jasadini koʻcha-koʻyda qoldirishni xohlamasdik... Dogni bir koʻz oldingizga keltiring. Arduenning oshxonasida choʻzilib yotibdi jonivor... Jasaki battar haybatli boʻlib ketdi. Qisqasi...

Janob Giyo sal boʻlmasa uzilib qolayozgan suhbatning yana yurishib ketganidan mamnun edi.

— Qisqasi, itni Senaga uloqtirishga ahd qildik.

Kartoshkadan bo'shagan qopga bir amallab joyladik-da, ikkovlashib zinapoyadan pastga olib tushib, mashinaning yukdoniga tiqdik.

— Soat nechchida?

— O'n birdan o'n minut o'tgan edi.

— O'n birdan roppa-rosa o'n minut o'tganini qayoqdan bilasiz?

— Eshikbon hali uyg'oq edi. Bizni ko'rib, nima gap, deb so'radi. Men tushuntirdim. Eshikbonning xonasi ochiq ekan, beixtiyor soatga qaradim: o'n birdan o'n minut o'tgan edi.

— Eshikbonga, itni Senaga tashlamoqchimiz, dedinglarmi? Keyin to'ppa-to'g'ri Selesten sohilidagi ko'priikka qarab jo'nagansizlar-da?

— Eng yaqin yo'l shu...

— Bunga bir necha minut kifoya... Yo'lda hech qayerda to'xtamagan bo'lsanglar kerak?

— Senaga keta turibmi? Yo'q... Eng yaqin yo'lni tanlab, besh minutda yetib bordik... Avvaliga qiyalikdan daryo bo'yiga mashinada tushishga ikkilandim. Qarasam, hech zog' yo'q, shartta tavakkal qildim...

— Soat o'n bir yarimlarda, a?

— Nega endi?! Hozir tushuntiraman. Arduen bilan qopni tebratib turib, suvga otdik.

— O'shanda ham hech kimni ko'rmadinglarmi?

— Yo'q...

— O'sha atrofda barja turgan edi-ku?

— To'ppa-to'g'ri. Ichkarisida chiroq ham yoniq edi.

— Kema sahnida odam ko'rinmadimi?

— Yo'q...

— Demak, Mari ko'prigigacha bormagansizlar?

— U yoqqa borishning hojati yo'q edi. Nestorni mashina turgan joydan ikki qadam narida suvga uloqtirdik-qo'ydik.

Arduen hamon ma'qullab bosh silkirdi. Ba'zan bir nima demoqchi bo'lib og'iz ochardi-yu, yana duduqlanib qolib, indamay qo'ya qolardi.

— Keyin-chi?

— Keyin jo'navordik. Sal yurgach...

— Selesten sohiliga chiqqansizlar.



— Ha. Ta’bim nihoyatda xira edi, shishada bir qultum ham konyak qolmaganini esladim... Og‘ir kun bo‘ldi-da o‘ziyam... Axir Nestor oilamiz a’zosiday bo‘lib qolgan edi.... Tyuren ko‘chasiga yetganda Lyusenga bir stakandan vino ichishni taklif qildim. U ham yo‘q demadi. Fran-Burjua ko‘chasining muyulishidagi qahvaxona oldida to‘xtadik, shundoqqina Vogeplar maydonining yonida.

— Yana konyak ichdinglarmi?

— Ha... Qahvaxona devorida soat osig‘liq turgan ekan, qaragam yigirmatakam o‘n ikki. Qahvaxona egasi soat besh minut oldindaligini aytdi.

Giyo birdan bosh chayqab, yana oldingi gapini qaytardi:

— O‘lay agar, man etilganidan xabarim yo‘q. Mening ham ahvolimni tushuning. Azbaroyi bolalarni deb shunday qildim: ular bu mudhish manzarani ko‘rishlarini xohlamadim. Haliyam Nestor o‘lganini bilishmaydi, biz ularga, it qochib ketibdi, lekin baribir topamiz, deganmiz...

Megre, o‘zi ham bilmagan holda, cho‘ntagidan shisha soqqani chiqazib, barmoqlari orasida o‘ynay boshladi.

— Gapingizga ishonsa bo‘ladimi?

— Aldab nima qilaman? Agar jarima to‘lash kerak bo‘lsa...

— Soat nechchida uyga qaytdinglar?

Ular bir-birlariga qarashdi. Arduen endi og‘iz juftlagan edi, yana janob Giyo gapni ilib ketdi:

— Kech qaytdik, soat birlarda.

— Tyuren ko‘chasidagi qahvaxona soat birgacha ish-larkanmi?

Megre u mavzeni yaxshi bilardi. Darhaqiqat, u yerdagi barcha ishratxonalar yarim tungacha ishlardi.

— Yo‘q, qahvaxonani yopib qo‘yishdi, biz Respublika maydonida yana bir qadahdan otdik.

— Kayfinglar oshganmidi?

— Bilasiz-ku... Ozigina ichgandan keyin u yog‘i ulanib ketaveradi.

— Yana sohil bo‘ylab qaytdinglarmi?

Giyoy, gapimni tasdiqla, deganday sherigiga qaradi.

— Yo‘q, nima qilamiz u yoqda?

Megre Lapuentga yuzlandi:

— Bu janoblarni narigi xonaga olib kirib, bergan ma‘lumotlarini yozib ol. Minnatdorman, musye. Hozir aytgan gaplaringizning hammasi tekshirib ko‘rilajagini tushuntirib o‘tirish shart bo‘lmasa kerak.

— O‘lay agar yolg‘on bo‘lsa...

— M-m-en ham.

Bu suhbat maynavozchilikka o‘xshardi. Megre kabinetda yolg‘iz qoldi. Ochiq deraza oldida tik turgan cha Sena daryosiga, unda suzib borayotgan kemalarga, Sen-Mishel ko‘prigi ustidagi turfa xil yo‘lovchilarga o‘ychan nigoh tashladi. So‘ng yozuv stoli yoniga o‘tirib, kasalxonaga qo‘ng‘iroq qildi.

— Meni jarrohlik bo‘limining katta hamshirasi bilan ulang.

Megrening shaxsan professorning o‘zi bilan gaplashganini ko‘rgan va undan tegishli ko‘rsatmalar olgan katta hamshira endi juda takalluf bilan muomala qildi.

— O‘zim sizga qo‘ng‘iroq qilmoqchi bo‘lib turgandim, janob komissar. Professor Manyen hozirgina bemorni ko‘zdan kechirdilar. Ahvoli tuzuk, dedilar. Odamni ishongisi ham kelmaydi...

— Bemor hushiga keldimi?

— Batamom emas, lekin gohi-gohida ko‘zlarini ochib, atrofidagilarga ma‘noli nigoh tashlayapti. O‘ziga nima bo‘lganini angalayaptimi-yo‘qmi, hozircha bir narsa deyish qiyin...

— Yuziga haliyam doka o‘ralganmi?

— Yo‘q.

— Bugun yaxshi bo‘lib qolarmikan?

— Halizamon o‘ziga keladi. Tilga kirishi bilan qo‘ng‘iroq qilaymi?

— Ovora bo‘lmang... O‘zim kiraman.

— Hozir kelasizmi?

— Ha, hozir.

Megre boshi doka bilan tang‘ib tashlangan jabrdiyda tabib bilan tezroq tanishishga oshiqardi. U inspektorlar

xonasiga kirdi. Lapuent sug'urta xodimi bilan uning duduq og'aynisi bergan ma'lumotlarni mashinkada ko'chirmoqda edi.

— Men kasalxonaga ketyapman. Qachon qaytishimni bilmayman.

Komissar trubkasini og'ziga qistirib, qo'llarini orqasiga qilgancha, xuddi mehmondorchilikka ketayotgan odamday, Adolat Saroyidan ikki qadamgina narida joylashgan kasalxona tomon yo'l oldi. Miyasida ming xil o'y charx urardi.

Yo'lakda u baqaloq Lega duch keldi. Egnida o'sha pushti rang kamzul. U bemorlarni ro'yxatga oladigan ayoldan xafa bo'lib, orqasiga burilgan paytda komissarga ko'zi tushdi-yu, bidirlab sayrab ketdi:

— Buni qarang, janob komissar, kiritishmayapti, ahvoli qandayligini ham aytishmaydi! Zo'rlab chiqazvorishmoqchi! Sizni xabaringiz bormi undan?

— Hozirgina qo'ng'iroq qilib, ancha tuzuk deyishdi.

— Tuzalib ketarmikin?

— Ajabmas.

— Rosa qiynalayotgandir?

— Nega endi. Ukol qilib turishadi-ku.

— Kecha jo'n kiyingan allaqanday kishilar kelib, narsalarini olib ketishdi. Sizni odamlaringizmasmi?

Megre bosh irg'adi, so'ng jilmayib qo'shib qo'ydi:

— Tashvishlanmang, qaytarib berishadi.

— Shu ishni kim qilganini haliyam bilmaysizmi?

— Siz-chi?

— Menmi?.. O'n besh yildan buyon sohilda yashayman, daydi bir odamga hujum qilinganini endi ko'rib turibman... Axir biz birovga zarari tegmaydigan beozor kishilarmiz-ku. Buni boshqalardan ko'ra siz yaxshiroq bilasiz.

Topgan ta'rifi o'ziga ma'qul tushdi shekilli, yana takrorladi:

— Beozor odamlarmiz... Biz hatto bir-birimiz bilan ham janjallashmaymiz. Har kim bilgan ishini qiladi. Shundoq erkinlik qadrlanmasa, ko'prik ostida yashab kun ko'rishning nima keragi bor?

Megre ayolning yuz-ko'zlari birdan qizara boshlaganini sezib qoldi.

— Bugun ichdingizmi?

— Ko'p emas.

— Sheriklaringiz nima deyishyapti?

— Hech narsa deyishayotgani yo'q... Har xil voqealarni ko'raverib, diydami qotib ketgan.

Lea Megrening tepaga chiqishga chog'lanayotganini ko'rib:

— Kutib tursam maylimi sizni? — deb so'radi.

— Hali-veri tushmasam kerak.

— Hechqisi yo'q. Qayerda sang'ib yurish baribir masmi menga?

Leaga endi ancha jon kirib qolgan edi.

— Sigaretingiz yo'qmi?

Megre trubkaga ishora qildi.

— Unda bir chimdim tamaki bera qoling... Chekadigan narsa topilmaganda tamaki chaynayman.

Megre zambilda yotgan bemor va ikki hamshira bilan birga liftda tepaga ko'tarildi. To'rtinchi qavatda palatadan chiqib kelayotgan katta hamshiraga duch keldi.

— Keller qayerda yotganini bilasiz-ku... Hozir yetib boraman: meni jarrohxonaga chaqirishyapti.

Bemorlar oldingiday Megrega yana ajablanib tikilib qolishdi. Uni tanishdi, shekilli. Komissar shlyapasini qo'lida ushlagan Kella yotgan karavot tomon yurdi. Tabibning yuzi ochiq, faqat u yer-bu yeriga plastir yopishtirilgan edi.

Kecha soqolini olib qo'yishgani uchun, tabib suratiga ko'pam o'xshamasdi. Yuzi zahil, yanoqlari bo'rtgan, lablari yupqa va qonsiz. Megre bemorning ko'zlariga boqdi-yu beixtiyor seskanib ketdi.

Tabib unga soppa-sog' odamning nigohi bilan tikilib yotardi.

Megre shu daqiqada nimadir deyish lozimligini sezdi-yu, ammo churq etolmadi. Karavot yonida turgan stulga sekingina o'tirdi.

— Tuzukmisiz? — dedi u nihoyat past tovushda.

Megre bu soʻz boʻshliqqa singib ketmaganiga, tabii uni toʻla-toʻkis anglaganiga ishongan edi. Ammo tabii miq etmadi.

— Eshityapsizmi, doʻxtir Keller?

Uzoq va besamar «suhbat» ana shunday boshlandi.

## V b o b

Megre oʻz ishi toʻgʻrisida xotini bilan kamdan kam gaplashardi. Mulohazalarini hatto eng yaqin yordamchilariga ham aytmas — toʻgʻridan toʻgʻri koʻrsatma berib qoʻya qolardi. Uning ish uslubi shunaqa edi: hamma narsaning tubiga oʻzi yetishga harakat qilar, odamlar turmushi va xatti-harakatini ikir-chikirigacha erinmasdan oʻrganishga intilardi.

Biror hodisa roʻy bergan joyga borib kelganlaridan soʻng yoxud u yoki bu maʼlumotga aniqlik kiritilayotgan paytda, sud tergovchisi undan koʻpincha: «Bu haqda sizning fikringiz qanday, Megre?» — deb soʻrab qolardi.

Javob esa hamisha bir xil boʻlardi: «Hech qanaqa fikrim yoʻq, janob tergovchi».

Bir gal kimdir shunday luqma ham tashlagandi: «Bu kishi fikr qilmaydi, magʻzini chaqishga harakat qiladi».

Maʼlum darajada bu gapda jon bor edi, zero komissar muhokamada aytilgan har bir soʻzga juda katta ahamiyat berar, shuning uchun sukut saqlashni afzal koʻrardi.

Ammo bu gal unday boʻlmadi, harholda Megre xonimga nisbatan unday boʻlmadi — ehtimol bunga xotining Myuluzda yashaydigan singlisi orqali unga katta yordam bergani sabab boʻlgandir.

Megre taom stoli yoniga oʻtirarkan:

— Bugun Keller bilan tanishdim, — dedi xotiniga.

Megre xonim hangu mang boʻlib qoldi. Yoʻq, erining Keller haqida oʻzi ogʻiz ochgani uchun emas, balki bu haqda quvnoq ohangda gapirgani uni lol qilib qoʻygan edi. Balki «quvnoq» degan soʻz koʻpam toʻgʻrimasdir, ishqilib, nima boʻlganda ham, komissarning oʻzini tutishi, xatti-harakatlari kayfiyati judayam chogʻ ekanligidan dalolat berib turardi.

Gazetalar bu gal uning g'ashiga tegmayapti, prokuror yordamchisi bilan sudya ham bezovta qilayotgani yo'q... To'g'ri-da! Daydi bir odam bilan kimning necha pullik ishi bor: xo'p, boshiga urib, Senaga tashlavorishibdi, lekin u omon qopti, endi professor Manyen uning joni bu qadar qattiqligiga hayron bo'lib yuribdi... Xo'sh, nima bo'пти?

Xullas, qurboni ham, qotili ham yo'q g'alati jinoyat sodir bo'lgani aniq. Agar baqaloq Lea bilan yana bir-ikkita daydini demasa, tabib haqida hech kim qayg'urayotgani yo'q.

Shunga qaramay, Megre, go'yo butun Fransiyani oyoqqa turg'azgan dahshatli bir voqea yuz berganday, bu ishga ozmuncha vaqt sarflamadi.

— Hushiga keptimi? — deb so'radi Megre xonim sinchkovlik qilayotganini iloji boricha yashirishga urinib.

— Ha desa ham bo'ladi, yo'q desa ham. Bir og'iz ham gapirmadi... Kiprik qoqmay tikilib yotaverdi... Lekin ishonchim komilki, so'zlarimga tushundi... Katta hamshira esa boshqacha fikrda: dorilar ta'sirida bemorning ongi xiralashib qolganmish, u hozir xuddi nokautdan yiqilib, bazo'r hushiga kelgan bokschiga o'xsharmish...

Megre derazaga tikilib, qushlar xonishiga quloq tutganicha ovqatlana boshladi.

— O'ziga hujum qilgan odamning kimligini bilarmikin?

Megre og'ir tin oldi. Yuziga istehzoli tabassum yoyildi, go'yo u o'z ustidan kulayotganday edi.

— Aniq bir narsa deyolmayman... Taassurotimni aytib berish judayam qiyin...

...Bunaqa jumboq, ayni paytda uni bu qadar o'ziga rom etgan ish hayotida kamdan kam uchragan edi.

Darvoqe, uchrashuv joyi nihoyatda noqulay edi — palatada o'nga yaqin bemor cho'zilib yotar, boshqalari karavotlarida o'tirishar yoki deraza oldida tik turishardi. Ayrimlarining ahvoli juda og'ir edi. Tinimsiz qo'ng'iroq chalinib turar, hamshira zir yugurib, goh u, goh bu bemorning tepasiga borardi.

Deyarli barcha bemorlar Kellerning yonida o'tirgan

komissardan ko‘z uzmay, uning so‘zlariga quloq tutishardi.

Katta hamshira zum o‘tmay eshikdan mo‘ralab:

— Iltimos, tezroq tura qoling, — deya iltijo qilardi. — Bemorni toliqtirmang.

Komissar tabibning ustiga engashgancha deyarli shivirlab gapirardi:

— So‘zlarimni eshityapsizmi, musye Keller? Dushanba kuni kechqurun Mari ko‘prigi ostida yotganingizda nima voqea bo‘lganini eslayolasizmi?

Jabrdiydaning yuzidagi ifoda deyarli o‘zgarmadi, ammo Megreni uning ko‘zlari qiziqtirardi. Aksiga olib, ko‘zlarida ham biror ma‘no yo‘q edi. O‘sha-o‘sha mahzun ko‘zlar, boshidan ko‘p savdolar o‘tgan odamning so‘lg‘in nigohi.

— Sizga hujum qilishgan paytda uxlab yotuvdingizmi?

Tabib miq etmay, tikilib yotaverdi. Go‘yo Megre Kellerni emas, aksincha, Keller uni o‘rganayotganday edi.

Komissar noqulay ahvoldan chiqish uchun o‘zini tanishtirishga majbur bo‘ldi:

— Mening ismim Megre. Jinoyat qidiruv politsiyasining brigada boshlig‘iman, sizga nima bo‘lganini aniqlamoqchiman. Xotiningiz, qizingiz bilan uchrashdim, sizni daryodan tortib olgan kishilar bilan gaplashdim...

Tabib «xotiningiz», «qizingiz» degan so‘zlarni eshitganda ham pinagini buzmedi, ammo ko‘zlarida allaqanday istehzo uchquni yilt etganini komissar darrov ilg‘adi.

— Gapirolmaysizmi?

Bemor hatto bosh irg‘ab yoki kiprik qoqib javob qaytarishga ham urinib ko‘rmadi.

— So‘zlarimni tushunmayapsizmi?

Bo‘lmasam-chi! Megre yanglishmayotganiga ishonardi. Keller faqat so‘zlarning ma‘nosigagina emas, hatto ohangiga ham tushunayotgandi.

— Balki boshqalarning oldida savolga tutayotganimdan xijolat bo‘layotgandirsiz? — Komissar daydini o‘ziga

moyil qilish uchun ketidan qo'shib qo'ydi: — Sizni alohida palataga yotqizishim mumkin edi-yu, afsuski, buning iloji yo'q. Xarajatini o'z hisobimizdan to'lay olmaymiz.

Qizig'i shundaki, agar tabib jabrlanuvchi emas, qotil yoki shubha ostidagi shaxs bo'lganida, ish osonroq ko'chardi. Jabrlanuvchilar uchun smetada sariq chaqa ham ko'zda tutilmagan.

— Xotiningizni bu yerga chaqirishga majburman: sizning haqiqatan ham Fransua Keller ekanligingizni rasman tasdiqlashi kerak... Chaqirsam maylimi?

Bemorning lablari sal qimirlaganday bo'ldi, ammo sado chiqmadi. Yuzida esa — na e'tiroz, na rozilik ifodasi.

— O'zingizni qanday sezyapsiz? Bugun, hoziroq chaqirsam bo'ladimi?

Bemor indamadi, Megre fursatdan foydalanib, biroz nafasini rostlab olishga ahd qildi. Har xil dorilar hidi o'rnashib qolgan palata nihoyatda dim edi.

— Qo'ng'iroq qilvolsam maylimi? — deb so'radi u katta hamshiradan.

— Hali ko'p qiynaysizmi uni?

— Xotiniga ko'rsatsam bo'ldi... Ko'p vaqt ketmaydi bunga.

Kellerning xotini uyda ekan, hozir yetib boraman, deb va'da berdi. Megre u kelishi bilan kiritib yuborishlarini iltimos qilib, yo'lakda u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Ko'p o'tmay, professor Manyen paydo bo'ldi.

— Siz ham, tabib uzil-kesil o'ziga kelgan, deb hisoblaysizmi?

— Bo'lishi mumkin... Hozir ko'rib chiqdim, menimcha, hamma narsaga aqli yetyapti... Ammo do'xtir sifatida hali aniq javob berishim qiyin. Ba'zilar bizni yangilishishga haqi yo'q, deb hisoblashadi. Aslida-chi? Aslida biz ham, ko'zi ojiz odamday, tussmollab olg'a yuramiz... Bugun asab do'xtiridan bemorni ko'rib qo'yishni iltimos qildim...

— Alohida palataga yotqizishning iloji yo'qmi? Shunchalik qiyinmi?

— «Qiyin» ham gapmi! Mutlaqo iloji yo'q. Kasalxona



tiqilib ketgan. Ba'zi bo'limlarda bemorlar yo'lakda yotishibdi. Agar xususiy shifoxonaga o'tkazilsa, unda boshqa gap...

— Xotini gaplashib ko'rsa-chi?

— Bemor rozi bo'larmikin?

Bunga ishonish qiyin edi... Balki Keller uyini tashlab ketib, ko'priklar ostida yashashni afzal ko'rgan ekan, endi boshiga musibat tushgandan keyin, xotiniga qaram bo'lishni zinhor istamaydi...

Keller xonim liftidan chiqib, atrofga alangladi. Megre shoshib uning yoniga bordi.

— Xo'sh, qalay?

Keller xonimning qiyofasida zarracha tashvish yo hayajon alomati sezilmasdi. Tezroq uyiga, Sen-Lui oroliga, to'tiqushlarining oldiga borish uchun tipirchilab turardi.

— U juda xotirjam.

— O'ziga keldimi.

— Shunaqaga o'xshaydi, lekin hali dalil-isbot yo'q...

— Gaplashishim kerakmi u bilan?

Megre ayolni oldinga o'tkazdi. U yarqirab turgan parketni avaylab bosib, karavotlar oralab borarkan, bemorlar angrayib qarab turishardi. Keller xonim esa olazarak bo'lib erini izlardi, mana, nihoyat, beshinchi karavot tomon shaxdam yurib borib, ikki qadam berida to'xtadi. Aftidan, u hamon o'zini qanday tutishni bilmasdi.

Keller xotiniga boyagiday befarq nigoh bilan qaradi. Xonim bashang kiyingan — egnida asl yung matodan tikilgan novvotrang kostyum, boshida antiqa shlyapa. Undan kelib turgan atirning nozik hidi palata hidiga omuxta bo'layotgandi.

— Taniyapsizmi?

— Ha, xuddi o'zi... Judayam o'zgarib ketibdi bo'yaqish...

Yana oraga og'ir sukunat cho'kdi. Nihoyat ayol yurak yutib, karavotga yaqinroq bordi. Qo'ldopni ham yechmay, sumkasining qulfini asabiy o'ynagancha so'zlay ketdi:

— Bu menman, Fransua... Ertami-kechmi, seni shu

ahvolda ko'rishimni bilardim... Tuzalib ketadi, de-  
yishyapti, lekin... Senga yordam bermoqchiman...

Xotiniga befarq tikilib yotgan tabibning ko'nglidan  
shu tobda nimalar kechayotganikin? Mana, o'n yetti  
yilmi, o'n sakkiz yildan beri u boshqa olamda yashayap-  
ti. Hozir esa bir mahallar o'zi qochib qutulgan o'tmishi  
bilan, xuddi allaqanday bo'shliqdan sho'ng'ib chiqqan-  
day, tag'in yuzma-yuz bo'lib turibdi.

Bemorning chehrasida zarracha ham hayajon alomati  
yo'q edi. U qachonlardir o'ziga mahram bo'lgan ayolga  
xotirjam qarab yotardi, keyin u komissarning shu  
yerdaligiga ishonch hosil qilish uchun boshini xiyol  
burdi.

...Hikoya shu yerga yetganda Megre luqma tashlab  
qo'ydi:

— O'lay agar, bu yuzlashtirishga tezroq chek qo'yish-  
ni iltimos qilmoqchi bo'ldi u mendan.

— Xuddi uni ming yildan beri biladiganday gapi-  
rasan-a...

Nega bilmas ekan? To'g'ri, Megre Fransua Keller  
bilan ilgari sira uchrashmagan, lekin uzoq yillik mehnati  
davomida qanchadan qancha odam unga ko'nglini  
ochmadi! Albatta, xuddi shunga o'xshagan voqealarga  
dush kelgani yo'q, ammo inson kulfati hamon o'sha-  
o'sha-ku.

— Keller xonim bemorning oldidan tezroq ketishni  
xohlardi, — deb davom etdi Megre. — Palatadan  
chiqayotib, sumkasidan pul olmoqchi bo'ldi-yu, xayri-  
yat, bunday qilmadi... Yo'lakda mendan: «Hech  
narsadan kamchiligi yo'q, deb o'ylaysizmi?» — deb  
so'radi. Men, hamma narsasi yetarli, dedim, lekin u  
tinchimadi: «Kasalxona mudiriga ozgina pul tashlab ket-  
sammikin?.. Fransua alohida palatada o'zini tuzukroq  
his qilarmidi...» «Hozir bo'sh palata yo'q». U ketay  
demasdi. «Mendan yana nima kerak?» «Hozir hech  
narsa kerak emas. Inspektorni uyingizga jo'nataman,  
bemor haqiqatan ham eringiz ekanligini tasdiqlovchi  
qog'ozga qo'l qo'yib berasiz...» «Qog'ozning nima  
keragi bor, erimligini tan olyapman-ku?» Shunday  
dedi-yu jo'nab qoldi.

Er-xotin tamaddi qilib bo'lgach, qahva ichishga o'tirishdi. Megre trubkasini tutatdi.

— Sen yana palataga qaytib kirdingmi?

— Ha. Ammo-lekin katta hamshiraning judayam ensasi qotdi...

— Tabib yana indamadimi?

— Churq etmadi... Faqat men gapirdim — shivirlab gapirdim, chunki qo'shni karavotdagi bemorning yonida do'xtir-talaba bor edi.

— Nimalar deding unga?

Megre xonim uchun bu suhbat, eri o'z ishi to'g'risida kamdan kam gapirgani uchun ham nihoyatda maroqli edi. Odatda komissar uyiga qo'ng'iroq qilib, tushlikka yoki kechki ovqatga kelolmasligini, ba'zan hatto, kabinetida yoxud boshqa biror joyda tunab qolishini aytar, sababini esa xotini gazetalardan bilib olardi.

— Nima deganim aniq esimda yo'q... — dedi Megre kulimsirab. — Uning ishonchini qozonishga harakat qildim... Pastda Lea kutib turganini, narsalari ishonchli joyda ekanini, kasalxonadan chiqqanidan keyin hammasini bekam-ko'st olishini aytdim. Nazarimda, mamnun bo'ldi. Yana, agar xohlamasangiz, xotiningiz bilan boshqa uchrashmaysiz, u alohida palata uchun haq to'lab ketmoqchi bo'ldi-yu, lekin hozir bo'sh palata yo'q, dedim... Chetdan qaraganda, xuddi duo o'qiyotgan odamga o'xshab ketgan bo'lsam ham ajabmas. «Sizni xususiy kasalxonaga yotqizish mumkin edi-yu, lekin siz uchun shu yer ma'qul bo'lsa kerak, deb o'yladim», — dedim yana.

— Baribir indamadimi?

— Balki senga g'alati tuyular, lekin ishonchim komilki, u mening xatti-harakatlarimni ma'qulladi. Biz birbirimizni tushunib turardik... Yana suiqasd haqida gap ochdim. Shu ish uxlab yotgan paytingizda bo'ldimi, deb so'radim. Xuddi bekinmashoq o'ynayotgan bolalarga o'xshardik. U hech narsani aytmaslikka ahd qilganiga endi shubham qolmagandi. Shuncha yil ko'prik ostida yashashga chidagan odam sir saqlashni ham biladi.

— Sir saqlashning nima keragi bor unga?

— Bilmayman.

— Balki kimnidir himoya qilayotgandir?

— Ehtimol.

— Kimni?

Megre yelkasini qisdi.

— Bilganimda avliyo bo'lardim... Professor Manyen: «Mo'jiza yaratish qo'limdan kelmaydi», — degan edi.

— Qisqasi, hech narsa bilolmadingmi?

— Ha.

Ammo Megre andak mug'ambirlik qilayotgandi. Negadir unda, Keller to'g'risida ko'p narsani bilaman, degan ishonch paydo bo'lgandi. Garchi ular bir-birlari bilan deyarli tanish bo'lmasalar-da, oralarida allaqanday anglab bo'lmas aloqa bog'langanday edi.

— Bir mahal...

Megre shunday dedi-yu xotini, laqma deb atashidan cho'chib, to'xtab qoldi, keyin o'ylab turib, chekinmaslikka ahd qildi: baski gapni boshladimi, oxiriga yetkazish kerak!

— Bir mahal beixtiyor, hech narsani o'ylamasdan qo'limni cho'ntagimga solgan edim, barmog'imga soqqa ilindi... Shartta chiqazdim-u tabibning kaftiga qo'ydim... O'zim desang, nima bo'larkin, deb yuragimni hovuchlab turibman... Nima bo'ldi, degin? Tabib soqqani tanidi! Hamshira nima desa deyaversin-u, lekin tabibning chehrasi yorishib, ko'zlari chaqnab ketdi. O'lay agar, shundoq bo'ldi!

— Baribir og'iz ochmadimi?

— Bu endi boshqa gap... Undan naf chiqmasligi ravshan... Gapirmaslikka qat'iy ahd qilganligini sezib turibman. Ishni o'zim oxiriga yetkazishimga to'g'ri keladi...

Nahotki tabibning soqqani tanigani Megreni shu qadar hayajonga solgan bo'lsa? Boshqa birorta ishga u bu darajada rag'bat bilan kirishganini xotini eslay olmasdi.

— Pastda Lea meni tamaki chaynagancha kutib turgan ekan. Xaltachamdagi qolgan tamakini ham hovuchiga to'kdim.

— U biror narsani biladi, deb o'ylaysanmi?

— Bilganida — aytardi. Bunaqa odamlarda hamjihat-

lik tuyg'usi bizga o'xshagan rasmana kishilarnikidan ko'ra kuchliroq bo'ladi... Ishonchim komilki, ular ham bir-birlaridan surishtirib, o'zlaricha tergov olib borishyapti. Lea menga qiziq bir gapni aytdi. Bu ma'lumot masalaga ancha oydinlik kiritishi mumkin: Keller oldin Mari ko'prigi ostida yashamas ekan, u yerga «ko'chib» kelganiga atigi ikki yil bo'libdi.

— Qayerda yasharkan ilgari?

— Rape sohilida, oqimdan teparoqdagi Bersi ko'prigi ostida.

— Joylarini tez-tez o'zgartirib turishadimi unaqalar?

— Yo'q. Ularga ham osonmas bunday qilish. Xuddi bizga uyni almashtirish og'ir bo'lganday, ular ham o'z boshpanalarini qadrlashadi.

Megre kayfichog'lik uchun olxo'ri arog'idan bir qultum quyib ichdi, so'ng shlyapasini olib, xotinini o'pdi.

— Men ketdim.

— Tushlikka kelasanmi?

Buni o'zi ham bilmasdi. Hatto ishni endi qay yo'sin davom ettirishga ham aqli yetmayotgandi.

Torans ertalabdan sug'urta xodimi bilan uning duduq og'aynisi bergan ko'rsatmalarni tekshirish bilan ovora. Hoynahoy, Tyurin ko'chasidagi eshikbon bilan Fran-Burjua ko'chasining muyulishida do'kon ochgan vinofurushni ham so'roq qilib bo'lgandir.

Kuchuk voqeasi to'g'rimi yoki uydirmami, hademay oydinlashadi. Darvoqe, o'sha ikki og'ayni aytgan gaplar tasdiqlangan taqdirda ham, bu narsa ularning tabibga hujum qilishi haqiqatdan yiroq, degan ma'noni bildirmaydi.

Lekin nima maqsadda hujum qilishgan? Bu savolga komissar hozir javob berolmasdi.

Xo'sh, aytaylik, Keller xonimga erini daryoga cho'ktirishdan nima naf? Bu ishni u kimga topshirgan bo'lishi mumkin?

Bir paytlar xuddi shunday sirli tarzda bir nochor odam o'ldirilgan edi. O'shanda Megre sud tergovchisiga: «Qashshoqlarni o'ldirishmaydi», — degan edi.

Daydilarni ham o'ldirishmaydi. Lekin kimdir Fransua Kellerdan qutulmoqchi bo'пти-ku?..

Megre avtobusning orqa maydonchasida tik turgan-cha ikki oshiq-ma'shuqning so'zlariga quloq solib borardi. Birdan o'zining o'sha gapi yodiga tushdi: «Qashshoqlarni o'ldirishmaydi...» Ha, ha, qashshoqlarni o'ldirishmaydi...

U kabinetiga kirib oq Keller xonimga qo'ng'iroq qildi. Xonim uyda yo'q ekan. Xodima uning dugonasi bilan restoranda ovqatlanayotganini aytdi. Lekin qaysi restorandaligini bilmas ekan. Shundan so'ng Megre Jaklin Ruslega sim qoqdi.

— Oyim bilan ko'rishibsiz-da... Kecha, kelib ketganingizdan keyin qo'ng'iroq qildi. Bugun ham gaplashuvdik bir soatcha oldin. Demak, otamligi rost ekan-da?

— Bunga hech qanday shubha yo'q.

— Unga nima uchun hujum qilishganini hali aniqlaganingiz yo'qmi? Balki birov bilan mushtlashgandir?

— Otangiz shunaqa urishqoqmi?

— Yo'g'-e, u judayam muloyim odam! Harholda, birga yashagan paytimizda shunaqa edi. Yuziga tarsaki tushirgan odamga ham qo'l ko'tarishiga ishonmayman.

— Ayting-chi, onangizning hamma ishlaridan xabar-dormisiz?

— Qanaqa ishlaridan?

— Onangiz turmushga chiqqan paytida mol-davlati bo'lmagan, ehtimol, qachonlardir boyib ketishini ham xayoliga keltirmagan... Otangiz ham shunday... Meni bir narsa qiziqtiradi: ular nikohlarini biror hujjat bilan rasmiylashtirishganmi? Agar bunday hujjat bo'lmasa oiladagi mol-mulk o'rtada hisoblanadi, binobarin, otangiz boylukning yarmini da'vo qilish huquqiga ega bo'ladi.

— Yo'q-yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas, — dedi hech ikkilanmay Rusle xonim.

— Ishonchingiz komilmi?

— Onam tasdiqlashi mumkin. Turmushga chiqayotgan paytimda notariusda shu masala qo'zg'algan edi. Otam bilan mol-mulkka alohida-alohida egalik qilishga kelishishgan ekan.

— O'sha notariusning ismini aytolmaysizmi?

— Musye Prijan, Bassano ko'chasida turadi.

- Tashakkur.
- Kasalxonaga borishimni maslahat bermaysizmi?
- O‘zingiz-chi? Borgingiz kelyaptimi?
- Meni ko‘rib, mamnun bo‘lishiga ishonmayman.

Onam bilan gaplashmapti-ku... Hatto tanimaganga olibdi...

- Unday bo‘lsa, bormaganingiz ma’qul...

Megre, men qo‘l qovushtirib o‘tirganim yo‘q, deb o‘zini o‘zi ishontirmoqchi bo‘lardi, shu bois u darhol janob Prijanga qo‘ng‘iroq qildi. Ammo ish oson ko‘chmadi. Notarius savolga javob berishdan bosh tortdi, mijozlarning sirini oshkor qilishga haqqim yo‘q, deb oyoq tirab turib oldi. Megre uzoq tushuntirdi, hatto tergovchi imzo chekkan qog‘oz bor, deb uni qo‘rqitmoqchi ham bo‘ldi. Lekin bo‘lmadi.

— Menga bitta narsani aytsangiz bas, — dedi u shunda. — Myuluzlik musye Keller bilan xonimning nikoh qog‘ozida mol-mulkka alohida-alohida egalik qilish shartlari qayd etilganmi va o‘sha hujjat qo‘lingizdami?

Uzoq jimlikdan so‘ng «ha» degan javob bo‘ldi-yu, trubkadan qisqa gudok eshitila boshladi.

Demak, Fransua Keller haqiqatan ham qashshoq bir odam, temir-tersak sotuvchi to‘plagan va pirovardida xotiniga nasib etgan boylikka uning daxli yo‘q.

Telefonchi ayol komissarning:

— Menga Syurendagi suv darvozasini ulab bering, — degan iltimosini eshitib, taajjublandi.

— Suv darvozasini, deysizmi?

— Ha, suv darvozasini. Nima, u yerda telefon yo‘qmi?

— Bor, hozir ulayman.

Go‘shakdan suv darvozasi nazoratchisining ovozi eshitildi. Komissar o‘zini tanitdi.

— Darvozangizdan o‘tgan kemalarni qayd etib qo‘yasiz, shundaymi? Kecha tunda sizning darvozangizdan o‘tishi lozim bo‘lgan o‘ziyurar barja hozir taxminan qayerga yetganikin, shuni bilmoqchi edim? Barjaning nomi «Zvaarte Zvaan»...

— Esimda, esimda! Ikki erkak, malla soch ayol bilan

bir go'dak. Ular bu yerga eng oxirida yetib kelib, tunda oqim bo'ylab quyi tomonga suzib ketishdi.

— Hozir qayerdaligini aytolmaysizmi?

— Bir lahza sabr qiling... Barjaning dvigateli kuchli, bu yerda oqim ham ancha tez...

Nazoratchi allaqanday shahar va qishloqlarning nomini g'o'ldirab, bir nimalarni hisob-kitob qilguncha Megre jim kutib turdi.

— Agar yanglishmasam, ular hozir yuz chaqirim yerga suzib, Jyuzega yaqinlashib qolishdi. Harholda, Puassidan o'tib ketishgan. Hammasi barjaning Bujival va Karyer darvozalari oldida qancha muddat turib qolgani-ga bog'liq...

Komissar trubkani qo'yib, inspektorlar xonasiga o'tdi.

— Oralaringizda kim Senani yaxshi biladi?

— Qaysi qismini: yuqorisinimi yoki quyi tomonini-mi?

— Quyi tomonini... Puassi atroflari va undan ham narisini...

— Men! — dedi inspektorlardan biri. — Har yili ta'tilda o'z qayig'imda Gavrgacha suzib boraman. Puassi atrofini ayniqsa yaxshi bilaman, chunki qayiqni o'sha yerda qoldiraman.

Megre ko'rinishidan nimjon, shaharda tug'ilib o'sgan inspektor Nevening sport bilan shug'ullanishini xayoliga ham keltirmagandi.

— Juda soz. Hovlidan mashinani olib chiqing. Men bilan birga borasiz.

Ammo biroz to'xtashga to'g'ri keldi. Torans kirib, o'z tekshiruvlari natijasini ma'lum qildi:

— It haqiqatan ham dushanba kuni kechqurun o'lgan, — dedi u. — Giyo xonim yig'lab-yig'lab gapirib berdi. Ikki erkak itning jasadini Senaga tashlab yuborish uchun mashinaning yukxonasiga solib olib ketishgan... Ularni Tyuren ko'chasidagi qahvaxonada ham ko'rishgan. Yopilishidan sal oldinroq kirishgan ekan.

— Soat nechchida?

— O'n ikkilarga yaqin. Mijozlardan bir nechtasi qarta o'ynab o'tirgani uchun qahvaxona sohibi o'yin tugashini



kutib ketolmay turgan ekan. Giyo xonim erining kech qaytganini, ancha-muncha kayfi borligini aytdi. Uxlab yotgani uchun uning qachon qaytganini aytmadi... «Lekin erimning bunaqa odati yo‘q edi, kuyganidan ichgan bo‘lishi kerak», — dedi u.

Nihoyat komissar bilan Neve mashinaga o‘tirib, egri-bugri ko‘chalardan Aner qopqasi tomon yelib ketishdi.

— Sena yoqalab mashinada yurib bo‘lmaydi, — dedi Neve. — Barja Puassidan o‘tganiga ishonchingiz komilmi?

— Nazoratchi shunday dedi.

Endi yo‘lda usti ochiq mashinalar ko‘rina boshladi. Ba‘zi haydovchilar suluv hamrohlarining yelkasidan quchgancha mashinani bir qo‘lda boshqarib borishardi. Odamlar chorbog‘larida gul o‘tqazishyapti. Ko‘k ko‘ylakli bir ayol tovuqlariga don sochmoqda.

Megre, go‘yo hech narsa bilan ishi yo‘qday, mudrab o‘tirardi. Har gal Sena ko‘zga chalinganda, Neve o‘sha joyning nomini aytardi.

Daryoda kemalar u yoqdan bu yoqqa ohista suzib o‘tib turibdi. Ana, bir kemaning sahnida bir ayol kir yuvyapti. Boshqa bir ayol esa rulni boshqarmoqda, oyog‘i ostida uch-to‘rt yoshli bola o‘tiribdi.

Bir talay barja qatorlashib turgan Melanda Neve mashinani to‘xtatdi.

— Nomi nima edi, xo‘jayin?

— «Zvaarta Zvaan», «Qora quv» degani.

Neve mashinadan tushib, daryo bo‘yiga bordi. Uning allakimlar bilan gaplashganini Megre uzoqdan kuzatib turdi.

— Barja yarim soat burun o‘tib ketibdi, — dedi Neve yana rulga o‘tirarkan. — Unaqa barjalar soatiga o‘n chaqirim yo‘l bosadi, demak, hozir Jyuzedan salgina o‘tgan, xolos.

Darhaqiqat, birozdan so‘ng Jyuze yaqinidagi Montale oroli bo‘ylab suzib borayotgan Belgiya barjasi ko‘rindi.

Ular barjadan bir necha yuz metr oldinga o‘tib to‘xtashdi. Megre mashinadan tushib, sohilga bordi-da, jon-jahdi bilan qo‘l silkiy boshladi.



Barja rulida og'ziga sigareta qistirgan Xubert turardi. Komissarni tanidi-yu shu zahoti kema sahnidagi tuynukka engashib bir nimalar dedi, so'ng tezlikni pasaytirdi. Hayal o'tmay barja sahnida Jef van Gut paydo bo'ldi. Tuynukdan avval uning boshi, keyin yelkasi va beo'xshov gavdasi chiqdi.

— Siz bilan gaplashishim kerak! — deb qichqirdi komissar qo'lini og'ziga karnay qilib.

Jef «eshitmayapman» degan ishora qilgan edi, Megre ham, «to'xtang», degan ma'noda qo'li bilan imo-ishora qildi.

Qishloqlarga xos odatiy manzara. Olis-olisda uylarning qizil va kulrang tomlari, oppoq devorlar, benzokolonka, mehmonxonaning zarhal harflar bilan yozilgan nomi ko'zga tashlanadi.

Xubert van Gut barjani sekinlatdi. Jefning xotini ham tuynukdan boshini chiqazib, bir nimalar dedi, chamasi, eridan nima gapligini so'radi chog'i.

Aka-ukaning xatti-harakatlarini anglab bo'lmasdi. Sirtidan qaraganda ular bir-birlarini tushunmayotganga o'xshardi. Jef qishloq tomonga ishora qilar, balki ukasiga barjani qishloqda to'xtat, demoqda edi. Rul yonida turgan Xubert esa barjani qirg'oqqa tomon surib kelardi.

Boshqa chora qolmaganini ko'rgan Jef arqonni ulotirdi. Ilgari dengizchi bo'lgan inspektor Neve uni chaqqonlik bilan ilib oldi-da, qirg'oqdagi to'ngakka chirmadi. Barja to'xtadi.

— Yana nima kerak?! — deb qichqirdi Jef zarda bilan.

U sohilga taxta ko'prikni tashlashni xayoliga ham keltirmayotgandi.

— Kemani shunaqa joyda to'xtatib bo'larkanmi? Shikast yeyish ham hech gapmas bunaqada!

— Siz bilan gaplashishim kerak! — dedi Megre.

— Parijda hamma gapni gaplashdik-ku. Yana nimani gaplashamiz?

— Unaqada ishxonamga chaqirtirishimga to'g'ri keladi.

— Nima-nima? Yukni tushirmay, Parijga qaytishim kerakmi?

Tabiati yumshoqroq bo'lgan Xubert akasini hovuridan tushirdi, so'ng taxta ko'prikni tashlab qirg'oqqa chopib o'tdi.

— Xafa bo'lmang, musye. Akam to'g'ri aytyapti... Kemani duch kelgan joyda to'xtatib bo'lmaydi...

Megre kemaga chiqishga chiqdi-yu, gapni nimadan boshlashni bilmay qoldi. Buning ustiga, ular hozir Senii-Uazi departamentida turishardi, qonunga ko'ra flaman-diyaliklarni Versal politsiyasi so'roq qilishi mumkin edi.

— Uzoq turamizmi?

— Bilmadim...

— Ertalabgacha bu yerda qolish niyatimiz yo'q. Aks holda kun botguncha Mantaga yetib borolmaymiz.

— Unaqa bo'lsa, jo'nadik!

— Siz ham biz bilan birga borasizmi?

— Albatta.

— Yo tavba! Bunaqasini endi ko'rishim.

— Neve, siz mashinaga o'tiring. Mantada uchrashamiz.

— Bu yog'i qandoq bo'ldi, Xubert?

— Nachora, Jef! Politsiya bilan hazillashib bo'lmaydi.

Kema ostidagi tuynukdan hamon yosh juvonning tillarang sochlari ko'rinib turar, pastdan go'dakning jarangdor ovozi eshitilardi. Xuddi kechagiday, pishayotgan taomning xushbo'y hidi tevarak-atrofga taralardi.

Ko'prik vazifasini bajargan taxtani tortib olishdi. Neve to'nkaga o'ralgan arqonni yechib, suvga uloqtirdida, mashina tomon yo'l oldi.

— Savolingiz bo'lsa, marhamat...

Yana dvigatel guvullab, barja o'rnidan jildi.

Megre kema tumshug'ida tik turgan cha trubkasiga tamaki to'ldirarkan, gapni nimadan boshlash haqida o'ylardi.

## VI b o b

— Kecha menga, mashina qizil rangda edi, degandingiz, shundaymi?

— Ha, musye. Xuddi manovi bayroqqa o'xshagan qizil rangda edi.

Jef kema tumshug'ida hilpirab turgan qora-sariq-qizil rangli Belgiya bayrog'iga ishora qildi.

Xubert rulni boshqarardi: ayol yana pastga, bolasi-ning oldiga tushib ketdi. Jef esa hamon o'zini qanday tutishni bilmay, garangsirab turardi. Bir tomondan, flaman-diyaliklarga xos mehmondo'stlik taomili undan komissarni munosib darajada kutib olishni va hatto bir stakan ichimlik bilan siylashni talab qilsa, ikkinchi tomondan, shiddat bilan suzib ketayotgan kemani qo'qqisdan to'xtatganliklari uni qattiq ijirg'antirardi. Buning ustiga, hozir bo'ladigan savol-javobni u so'roq deb tushunib battar asabiylashayotgandi.

Megre esa bu sirkasi suv ko'tarmaydigan suhbat-doshining yuragiga qanday yo'l topishni bilmay hayron edi. U sodda va to'pori odamlar bilan ko'p marotaba muomala qilgan. Ba'zi tergovchilar bunday kishilarning g'ofilligidan foydalanishga shoshiladilar. Buning oqibati shu bo'ladiki, tergalayotgan odam yo haddan tashqari mahmadona bo'lib ketadi, yoki aksincha, og'ziga talqon solib oladi.

Komissar barjalarda ko'p tergov o'tkazgan. Ayniqsa «otliq» barja, ya'ni kanal bo'ylab ot sudrab yuradigan barja yodida qolgan... Tunda otni egasi bilan barjaga chiqarib olishardi.

U paytlardagi kemalar yog'ochdan yasalgan bo'lib, ulardan taxta oralariga surilgan qatronning xushbo'y hidi anqib turardi. Kema ichi qishloq uylarini eslatardi.

Flamandiyalikning barjasi esa tamom boshqacha: kayutaning ochiq eshigidan zamonaviy shahar kvartirasi manzarasi: dabdabali mebel, qimmatbaho gilam, serjilo idish-tovoqlar yaqqol ko'zga tashlanib turibdi.

— Sohilda shovqin eshitilganda qayerda edingiz? Dvigatelni tuzatayotgan edingiz chamasi?

Jef ko'zlarini olib qochdi. Bu asnoda u qanday yo'l tutish haqida o'ylayotganini Megre darrov payqadi.

— Menga qarang, musye... Kecha ertalab sudya meni so'roq qilganda siz ham shu yerda edingiz... O'zingiz ham ancha-muncha savollar berdingiz... Sudya bilan

birga kelgan anovi kichkina odam hammasini yozib oldi... Kunduzi yana kelib, yozganlariga qo'l qo'ydirib ketdi. To'g'rimi?

— Ha, to'g'ri...

— Bugun siz tag'in o'sha gapni boshlayapsiz. Hayronman... Nazarimda, gaplarimga ishonmaganga o'xshaysiz... Men bir savodsiz odamman, musye... Maktabda ham chala-chulpa o'qiganman. Xubert ham shunaqa... Lekin biz mehnatkash odamlarmiz, Anneke ham bekor o'tirmaydi...

— Shunchaki bir tekshirib ko'rmoqchi edim...

— Nimasini tekshirasiz?! Shu paytgacha, xuddi sizga o'xshab, tinchgina yashayotgan edim... Aybim cho'kayotgan bir sho'rlikni qutqarganimmi? Men buni biror tamagirlik bilan qilganim yo'q, rahmat eshitish yoki pul ishlab qolish uchun o'zimni suvga tashlamadim... Nega meni buncha qiynaysiz, musye?!

— Biz qizil mashinada kelgan o'sha ikki odamni topdik...

Rostdan ham Jefning rangi o'zgarib ketdimi yoki Megrega shunday tuyulyaptimi?

— Juda soz! Ana o'shalardan so'rayvering...

— Ularning aytishicha, siz barja tepasiga yarim kechada emas, soat o'n yarimda chiqqansiz...

— Balki soatlari orqada qolgandir?

— Buni ham tekshirdik... Sohildan ular to'ppa-to'g'ri Tyuren ko'chasidagi qahvaxonaga borishgan. O'shanda soat yigirmatakam o'n ikki bo'lgan.

Jef ukasi bilan ko'z urishtirib oldi.

— Pastga tusha qolaylik, — dedi so'ng u Megrega.

Kenggina kayuta ayni paytda ham oshxona, ham yemakxona vazifasini o'tardi. Sirlangan oq kastyuldan qovurdoqning hidi ufurib turibdi. Bolasini emizib o'tirgan Anneke shosha-pisha yotoqxonaga kirib ketdi — komissarning ko'zi to'qima choyshab yopilgan karavotga tushdi.

— Balki o'tirarsiz?

Jef hamon o'ziga kelolmasdi. Xona o'rtasida biroz garangsib turgach, oynavand bufetdan ichkilik solingan qora sopol ko'zacha bilan ikkita stakan oldi.

Deraza ortidan sohildagi daraxtlar, katta-kichik uylarning qizil tomlari lip-lip o'tib turardi. Jef bir qo'lida ko'zacha, bir qo'lida stakan ushlaganicha yana ancha muddat o'ylanib qoldi, so'ng vinodan bir ho'pladi-da, og'zida biroz ushlab turgach:

— U o'ldimi? — deb so'radi.

— Yo'q. Hushiga keldi.

— Nima dedi?

Javob berishga endi Megre shoshmadi. Derazalarga tutilgan jimjimador pardalarni, gultuvaklar o'tqazilgan mis to'qimalarni, boshiga dengizchilar furajkasi, egniga sviter kiygan basavlat bir qariyaning devorda osig'liq turgan suratini bir-bir ko'zdan kechirib chiqdi.

Kemalarda bunaqa norg'ul va shop mo'ylovli kishilar ko'p uchraydi.

— Otangizmi?

— Yo'q, musye. Annekening otasi.

— Sizning otangiz ham daryochi bo'lganmi?

— Otam Anverda hammollik qilgan. O'zingizdan qolar gap yo'q, hammollik tuppa-tuzuk taqvodor bir odam uchun munosib kasb emas. To'g'rimasmi?

— Shuning uchun siz shu kasbni tanladingizmi?

— O'n uch yoshimdan beri barjalarda xizmat qilaman, shu paytgacha hali hech kim mendan noligani yo'q.

— Kecha kechqurun...

Megre suhbatdoshini ishga aloqasi yo'q savollar bilan iydinirishga urinar, ammo flamandiyalik nuqul bosh chayqardi.

— Yo'q, musye!.. Gapim rost... Ishonmasangiz, men imzo chekkan qog'ozni bir o'qib chiqing.

— Agar bergan ma'lumotlaringiz noto'g'ri bo'lsa-chi?

— Unda nima qilsangiz ham mayli.

— Demak, anovi ikki kishi Mari ko'prigi ostidan chiqib kelgan, shundaymi?

— Hamma gapim yozilgan...

— Lekin ular, barja yonidan o'tganimiz yo'q, deyishyapti.

— Har kim miyasiga kelgan gapni gapiraveradi-da.

— O'sha paytda sohilda hech kim bo'lmagan, shundan foydalanib ular itning jasadini suvga uloqtirishgan.

— U yog‘ini bilmadim...

Anneke qaytib chiqdi, endi qo‘lida bolasi yo‘q edi — uxlatgan bo‘lsa kerak. Eriga flamandchasiga bir nima dedi, u bosh silkigach, ovqat suza boshladi.

Barja sekinladi. Megre avvaliga manzilga yetib keldik shekilli, deb o‘ylagan edi, ammo derazadan qarab, uchta barjani oqimga qarshi sudrab borayotgan shatakchi kemani ko‘rdi. U ko‘prik ostidan o‘tayotgan edi.

Barja sizga qarashlimi?

— Anneke ikkalamizga.

— Ukangiz ham sherikmi?

— Tushunmadim.

— Mol-mulkning ma‘lum qismi unga ham tegishlimi, demoqchiman.

— Yo‘q, musye, barja faqat Anneke ikkalamizga tegishli.

— Demak, ukangiz barjada xizmat qiladi, xolos?

— Ha, musye.

Megre uning hadeb «musye» deyishiga ko‘nika boshlagandi. Jefning xotini fransuzchani yaxshi bilmasligi va suhbat mazmunini judayam bilgisi kelayotgani shundoq ko‘zidan sezilib turardi.

— Ko‘pdan beri ishlaydimi?

— Ikki yil bo‘lib qoldi...

— Ilgari qayerda ishlardi? Boshqa barjadami? Fransiyadami?

— O‘zinga o‘xshagan-da: goh Belgiyada, goh Fransiyada. Ishga qarab...

— Nima sababdan o‘zingizga ishga oldingiz?

— Yordamchi kerak-ku, to‘g‘rimi? Ko‘rib turibsiz, barja kichkina emas...

— Ilgari-chi?

— Nima ilgari?

— Oldin qanday uddalardingiz?

Megre suhbatdoshini yana cho‘chitib yubormaslik uchun nihoyatda beozor savollar berar va shu tufayli maqsad sari juda sekinlik bilan yaqinlashib borardi.

— Gapingizga uncha tushunmadim.

— Boshqa yordamchilaringiz bormidi?

— Albatta...



Shunday deyishdan oldin xotini suhbat mazmunini ilg'amayotganiga ishonch hosil qilish maqsadida unga bir qarab qo'ydi.

— Kimlar bor edi?

Jef vaqtdan yutish va javobni o'ylab olish uchun yana stakanlarga ichimlik quya boshladi.

— O'zim, — dedi nihoyat flamandiyalik.

— Matrosmidingiz?

— Yo'q, mexanik.

— Kemaning egasi kim edi unda?

— Bunaqangi savollarni berishga haqqingiz yo'q... Har kimning o'z shaxsiy hayoti bor. Buning ustiga, musye, men Belgiya fuqarosiman... — U yana asabiy-lasha boshladi. — Yaxshimas! Nima ish qilishim o'zimga bog'liq, flamandiyalik ekan deb, har kim qozonimga tumshug'ini tiqaverishi kerakmi?!

Megre oxirgi iborani darrov ilg'amadi, anglaganidan so'ng esa, kulgidan o'zini arang tiydi.

— Bo'пти, endi tarjimonni olib kelib, xotiningizni so'roq qilaman.

— Annekeni tinch qo'ying...

— Iloj qancha... Sudya imzo chekkan hujjat bilan kelaman. Undan ko'ra uchovingizni Parijga olib borganim ma'qulmikin?

— Barja nima bo'ladi? Bunday qilishga haqqingiz yo'q!

— Bo'lmasa nega savollarimga to'g'ri javob bermayapsiz?

Van Gut komissarga yer ostidan qaradi.

— Chunki bu mening shaxsiy ishimi.

Shu paytgacha u haq edi. Darhaqiqat, bunday tarzda so'roq qilishga Megreda hech qanday asos yo'q. U ichki bir tuyg'uga asir bo'lib qolgandi. Sabab, komissar Jyuzeda barjaga chiqqanida, Jefning o'zini juda g'alati tutishi unda shubha uyg'otgan edi.

U Parijdagi Jefga aslo o'xshamasdi. Komissarni ko'rishi bilan sarosimaga tushib qoldi. Nuqul kalovlanadi, gaplashgisi kelmaydi, endi ko'zlaridagi Selesten sohilida chaqnab turgan sho'x uchqunlar ham so'ngan.

— Parijga olib borishimni xohlayapsiz, shekilli?

— Buning uchun dalil kerak. Qonun degan narsa bor.

— Dalil oddiygina — savollarimga to'g'ri javob berishdan bosh tortishingiz.

Dvigatel hamon bir maromda g'uvillar, pastdan rulni boshqarayotgan Xubertning uzun oyoqlari ko'rinib turardi.

— Chunki siz meni chalg'itishga urinyapsiz.

— Unaqamas... Haqiqatni aniqlamoqchiman, xolos.

— Qanaqa haqiqatni?

Jef kayutada u yoqdan bu yoqqa yurarkan, goh o'zining haqligiga yuz foiz ishonar, goh yana birdan bezovtalanib qolardi.

— Barjani qachon sotib olgansiz?

— Sotib olmaganman.

— Ammo u sizga tegishli-ku!

— Ha, musye, xotinim ikkalamizga tegishli.

— Boshqacha qilib aytganda, Annekega uylanganingizdan so'ng shunday bo'lgan. Barja ilgari ham xotiningizga qarashlimidi?

— Nima qipti?.. Biz qonun-qoidaga rioya qilgan holda, burgomistr va rohib guvohligida nikohdan o'tganmiz.

— Unga qadar «Zvaarte Zvaan»ning egasi qaynotangiz bo'lgan, shundaymi?

— Ha, musye, ismi Villems.

— U kishining boshqa farzandi yo'qmi?

— Yo'q, musye...

— Xotiniga nima bo'lgan?

— Uylanishimizdan bir yil oldin qazo qilgan.

— O'sha paytda siz barjada ishlarmidingiz?

— Ha, musye...

— Ko'pdan buyonmi?

— Villems meni xotini o'lganidan keyinroq ishga yollagan...

— Ilgari boshqa kemada xizmat qilarmidingiz?

— Ha, musye. «Driye Xebruders» degan kemada.

— Nega u yerdan ketdingiz?

— Chunki «Driye Xebruders» eski barja edi, Fransiyaga qatnamasdi, faqat ko'mir tashirdi.

— Demak, ko‘mir tashish sizga yoqmagan?  
— Albatta. Qora ish-da...  
— Mana, bu kemaga ishga yollanganingizga ham uch yil bo‘lib qopti. O‘shanda Anneke necha yoshda edi? Anneke o‘z nomini eshitib, sergak tortdi.

— O‘n sakkizda.

— Sal ilgariroq onasi vafot etgan, shundaymi?

— Ha, musye... Odenardda, boya aytdim-ku...

Jef dvigatelga quloq tutdi, sohilga nazar tashladi, so‘ng ukasining oldiga borib, unga bir nimalar dedi. Xubert dvigatel harakatini pasaytirdi: barja temiryo‘l ko‘prigiga yaqinlashmoqda edi.

Komissar maqsad sari shoshmasdan ilgari, suhbatni bog‘lab turgan ingichkagina ipni uzib yubormaslikka harakat qilardi.

— Demak, barjadagi yumushlarni oldin o‘zlari eplashgan, — dedi Megre. — Onasi o‘lganidan keyin yordamchiga zarurat tug‘ilgan... Shundaymi?

— Ha...

— Siz dvigatelga qarashingiz kerak edimi?

— Dvigatelga ham, boshqa ishlarga ham... Kemada hamma yumushni bajarishga to‘g‘ri keladi...

— Annekeni darrov yaxshi ko‘rib qoldingizmi?

— Bu endi, musye, shaxsiy masala, to‘g‘rimi? Bu faqat ikkalamizga aloqador...

— Qachon turmush qurdinglar?

— Kelasi oy ikki yil to‘ladi.

— Villems qachon o‘lgan? Surat o‘shanikimi?

— Ha, o‘shaniki...

— Qachon o‘lgan?

— Nikohimizdan bir yarim oy ilgari.

Megre, nazarida, tergov juda sekin ilgari layotgan edi. Lekin boshqa iloj yo‘q, chidash kerak. Aks holda suhbatdoshidan gap olish qiyin.

— Nikohinglar Villems vafotidan so‘ng e‘lon qilinganmi?

— Bizda nikoh to‘ydan uch hafta oldin e‘lon qilindi. Fransiyada qandayligini bilmayman...

— Lekin nikoh masalasi ilgariroq hal bo‘lgan, shundaymi?

- Baski, biz turmush qurgan ekanmiz...
- Shu savolni xotiningizga berib ko‘ring-chi.
- Nima keragi bor uni aralastirishni?
- Agar bosh tortsangiz, tarjimon orqali o‘zimiz murojaat qilaman...

— Xo‘p, mayli...

U: «Xo‘p, mayli, chaqiring tarjimonni!» — demoqchi edi. U holda Megre mushkul ahvolda qolgan bo‘lardi. Chunki barja Seni-i-Uazi departamentida suzib borar, bu yerda birovni so‘roq qilishga komissarning haqqi yo‘q edi.

Xayriyat, Gut fikridan qaytib, xotini bilan o‘z tilida gaplasha boshladi. Anneke avval qizardi, so‘ng mehmonga bir qarab qo‘ydi-da, kulimsirab bir nimalar dedi.

— Tarjima qiling.

— Biz bir-birimizni ko‘pdan buyon yaxshi ko‘ramiz, deyapti...

— To‘ydan bir yil oldin boshlangan-da?

— Taxminan shunday...

— Boshqacha qilib aytganda, siz barjaga ishga yollanganingizdan keyin?

— Nima qipti?

Megre uning gapini bo‘ldi:

— Men faqat bir narsani bilmogchiman: Villems bundan xabardor edimi-yo‘qmi?

Jefdan sado chiqmadi.

— Hoynahoy, hamma oshiqlarday, oldiniga buni sir tutgansiz?..

Van Gut bular tomon bir o‘girildi-yu, yana daryoga tikildi.

— Hozir to‘xtaymiz... Ukamga yordamlashishim kerak.

Megre ham tepaga chiqdi. Darhaqiqat, Mant-la-Jeli sohili, ko‘prik va bandargohdagi talay barjalar ko‘zga yaqqol tashlanib turardi.

Motorning shovqini pasaydi. Barja orqaga tisarila boshladi. Boshqa kemedagi daryochilar bularga qarab turishardi. O‘n ikki yoshlardagi bir bola arqonni ilib oldi.

Kema sahnida turgan shlyapali kishi, tabiiyki, hammaning e'tiborini tortgandi.

Barjalarning biridan kimdir Jefga flamandchalab qichqirdi, bu ham shu tilda javob qaytardi. Kema astasekin qirg'oqqa yaqinlashardi.

Sohilda bularni sigareta tishlagancha inspektor Neve kutayotgandi, uning yonida, g'isht uyulgan yerda politsiyaning kichkina qora mashinasi turardi.

— Endi o'z holimizga qo'yarsiz? Ovqatlanishimiz kerak. Ertalab soat beshda turamiz.

— Savolimga javob bermadingiz.

— Qaysi savolingizga?

— Villems qizi bilan aloqangizni bilarmidi, yo'qmi?

— Modomiki uylangan ekanman...

— Villems o'lganidan keyin uylangansiz.

— O'lsa — men aybdormanmi?

— Uzoq betob bo'lib yotganmidi?

Megre bilan Jef barja quyruq'ida turishar, Xubert qovog'ini uygancha bularning suhbatiga quloq solardi.

— Villems hech qachon kasal bo'lgan emas, ammo har kuni kechqurun cho'chqaday ichardi.

Megrening nazarida, gapning nishabi boshqa yoqqa burilib ketganidan Xubert ajablanganday va akasiga g'alati bir qarash qilib qo'yganday bo'ldi.

— Nima, u «delirium tremens<sup>1</sup>» dardiga uchraganmidi?

— U nima deganingiz?

— Ashaddiy ichkilikbozlar aksar payt shu darddan o'lishadi. Isitma xuruj qiladi-da keyin...

— E, hech nima xuruj qilmagandi. Shunchaki, molda ichganidan munkib ketgan...

— Suvgami?

Ukasining suhbatiga quloq solib turishini Jef yoqtirmayotgandek ko'rinardi.

— Albatta-da...

— Fransiyada yuz bermadimi bu voqea?

Jef bosh silkidi.

— Parijdami?

---

<sup>1</sup> Delirium tremens (*lot.*) — alkogolizm oqibatida yuz beruvchi ruhiy kasallik.

- E-e, ayniqsa Parijda ko‘p ichardi-da...
- Nima uchun?
- Bir ayol bilan uchrashib turardi, qayerdaligini bilmayman-u, lekin ikkovlari yarim kechagacha ichkilik-bozlik qilishardi.
- Taniysizmi o‘sha ayolni?
- Ismini bilmayman...
- Qayerda yashashini ham bilmaysiz?
- Yo‘q.
- Ikkovlarini birga ko‘rganmisiz?
- Ko‘rganman, bir gal mehmonxonaga kirib ketishayotganini ham ko‘rganman... Iltimos, Anneke bilmasin...
- Nahotki otasining qanday o‘lganini xotiningiz bilmasa?
- Biladi, lekin ayol haqida eshitmagan.
- O‘sha ayolni ko‘rsangiz taniysizmi?
- Ehtimol... Tag‘in kim biladi...
- Baxtsiz hodisa yuz bergan kuni ham ular birga bo‘lishganmi?
- Xabarim yo‘q...
- Qanaqa qilib yiqilgan suvga?
- Aniq aytolmayman... Tepasida yo‘q edim...
- Qayerda edingiz?
- Uxlab yotuvdim.
- Anneke-chi?
- U ham yotuvdi.
- Soat nechchi edi o‘shanda?
- Tungi ikkidan oshuvdi, — dedi Jef istar-istamas.
- Villems har doim shunaqa kech qaytarmidi?
- Parijda shunday qilardi. Anovi ayol tufayli-da...
- Harholda, o‘limiga nima sabab bo‘lgan?
- Aytdim-ku: suvga qulab tushgan...
- Narvon ko‘prikdan o‘tayotibmi?
- Qaydam...
- Yozmidi o‘shanda?
- Dekabr oyi edi.
- Hech qanday shovqin eshitmadingizmi?
- Kema sirtiga bir nima urilganday bo‘ldi.
- Villems yordam so‘rab qichqirdimi?

— Yo‘q...  
— Darrov qutqarishga yugurgandirsiz?  
— Albatta.  
— Qip-yalang‘och-a?  
— Yo‘q, apil-tapil shimimni kiyvoldim.  
— Anneke ham sezdimi?  
— Keyinroq... Kema sahniga chiqqanimdan so‘ng sezdi.

— Chiqayotganingizdami yoki chiqib bo‘lganingizdan keyinmi?

Jefning ensasi qotib ketdi.

— O‘zidan so‘rang! Esimda turibdimi!  
— Villemsni suvda ko‘rdingizmi?  
— Hech narsani ko‘rganim yo‘q... Bir nimaning shaloplayotganini eshitdim, xolos.  
— Suzishni bilmasmidi?  
— Nega endi, bilardi. Lekin g‘irt mast holda suzishning o‘zi bo‘ladimi?  
— Xuddi dushanba kungiday o‘zingizni suvga otdingizmi?

— Ha, musye.

— Tortvoldingizmi ishqilib?

— O‘n minutcha ovora bo‘ldim. Endi ushlayman deganimda cho‘kib ketaverib xunob qildi.

— Anneke barja tepasida turganmidi?

— Ha, musye.

— Tortvolganingizda joni uzilganmidi?

— Avvaliga sezmadim... Lekin ko‘karib ketgan edi...

— Keyin do‘xtir, politsiya kelgandir?

— Shunday, musye. Yana savollaringiz bormi?

— Qayerda bo‘ldi bu hodisa?

— Parijda... Boya aytdim-ku...

— Parijning qayerida?

— Makondan vino ortib kelib, Parijda tushirayotgan edik, Rape sohilida.

Megre bu javobdan ajablanganini ham, qanoatlanganini ham sezdimadi. Bir lahzada asablari tinchlanib, xushfe‘l odamga aylanib qolganday edi go‘yo.

— Mana, gaplashib ham oldik. Demak, Villems

tunda, Rape sohilida cho'kib ketgan. Bu paytda siz barjada uxlab yotgansiz. Qizi ham. Shundaymi?

Jef indamay kiprik qoqib qo'ydi.

— Taxminan yarim oylardan so'ng Annekega uylandingiz...

— Birga yashab turgandan keyin uylanmay bo'ladi-mi?

— Ukangizni qachon chaqirgansiz?

— O'sha paytdayoq. Uch-to'rt kundan keyin.

— To'ydan keyin-da?

— Yo'q. Baxtsiz hodisadan keyin.

Quyosh gardishi tomlarga qizg'ish tus berib ufqqa yonboshlagan bo'lsa ham hali kun yorug' edi. Ammo bu yorug'lik allaqanday vahimali va mubham ko'rinardi.

Xubert xayolga cho'mgancha rul oldida qimir etmay turardi.

— Aftidan, sizning xabaringiz bo'lmasa kerak? — deya murojaat qildi unga Megre.

— Nimadan?

— Dushanba kuni tunda yuz bergan voqeadan?

— Yo'q, Lapp ko'chasida edim, tansada.

— Villemsning o'limidan-chi?

— Telegramma olgan edim...

— Bo'ldimi? — deb uning gapini bo'ldi Jef van Gut toqatsizlanib. — Endi ovqatlansak maylimi?

Ammo Megre juda xotirjam javob qaytardi:

— Yo'q, yana sabr qilasiz...

Bu javob xuddi bomba portlaganday bo'lib eshitildi. Xubert boshini ko'tarib, akasiga yeb yuborguday tikildi. Jefning ko'zlarida g'azab o'ti chaqnadi.

— Balki tushuntirib berarsiz: nima uchun ovqatlanmasligim kerak? — deb so'radi u Megredan.

— Chunki sizni Parijga olib ketmoqchiman.

— Haqqingiz yo'q.

— Agar kerak bo'lsa, yarim soat ichida tergovchi imzolagan chaqiruv qog'ozi qo'limda bo'ladi.

— Nima uchun, bilsak bo'ladimi?

— So'roqni davom ettirish uchun.

— Bor gapni aytdim.

— Yana shuning uchunki, o'zingiz dushanba kuni



kechasi Senadan tortib olgan daydi bilan sizni yuzlashtirmoqchiman.

Jef yordam so'raganday ukasiga termildi.

— Komissarning bunga haqqi bormi, Xubert.

Ammo Xubertdan sado chiqmadi.

— Shu mashinada olib ketmoqchimisiz? — u sohilga, yonida Neve turgan mashinaga ishora qildi. — Barjaga qachon qaytaman?

— Balki ertaga qaytarsiz...

— Ertaga qaytmasam-chi?

— U holda hech qachon qaytmasligingiz ham mumkin.

— Nima?.. Nima dedingiz?

Jefning mushtlari tugildi, shu tobda u Megrega tashlanishdan ham toymasdi.

— Xotanim-chi? Qizim-chi? Nima qilyapsiz o'zi? Konsulga xabar qilaman!

— Ixtiyoringiz.

— Nima, mayna qilyapsizmi meni?

U hamon komissarning niyati jiddiyligiga ishonmasdi.

— Hech narsadan hech narsa yo'q birovning kemasi-ga bostirib kirib, begunoh bir odamni qamoqqa olib ketishaverarkan-da?

— Sizni hali qamoqqa olganim yo'q.

— Nima deyish kerak buni bo'lmasa?

— Shunchaki, Parijga olib borib, hozircha turib yurolmaydigan bir guvoh bilan yuzlashtirmoqchiman.

— Lekin men uni tanimayman. Yordamga chaqirganini eshitib, suvdan tortib oldim. Agar bunaqa bo'lishini bilganimda...

Anneke kema sahniga chiqib, eridan flamandchasiga bir nimalarni so'radi. Eri uzoq tushuntirdi. Keyin ayol uchala erkakka bir-bir nazar tashladi-da, yana Jefga murojaat qildi. U erini ko'ndirishga urinayotganini Megre ichki bir tuyg'u bilan sezib turardi.

— Kechasi qayerda tunayman?

— Orfevr sohilida.

— Turmadami?

— Yo‘q, jinoyat qidiruv politsiyasida.

— Kiyinolsam maylimi?

Komissar bosh irg‘adi, flamandiyalik xotinini ergashtirib tagxonaga tushib ketdi. Megre Xubert bilan yolg‘iz qoldi. U hamon miq etmas, sohildagi mashinalar va o‘tkinchilarni befarq nigoh bilan kuzatardi.

Komissarning ham gaplashgisi yo‘q edi. U oxiri nima bilan tugashi noma‘lum bo‘lgan so‘roq-suhbatdan nihoyatda charchagandi.

Jimlikni birinchi bo‘lib Xubert buzdi:

— Qo‘polligiga e‘tibor bermang, — dedi u, — sal qiziqqon, lekin o‘zi yomon yigit emas.

— Villems qizi bilan akangiz o‘rtasidagi aloqadan xabardormidi?

— Barjada bir narsani yashirish qiyin.

— Balki bu nikoh qizning otasiga yoqmagandir?

— Qaydam, men unda yo‘q edim...

— Uning kayfda suvga qulab tushganiga ishonasizmi?

— Bunaqa voqealar tez-tez bo‘lib turadi. Ko‘p dar-yochilar shu yo‘sinda hayotdan ko‘z yumganlar.

Tagxonadan flamandcha gap-so‘zlar eshilib turardi. Annekening ovozi yalvorish ohangi bo‘lsa, eri g‘azabini to‘kib solardi. Balki komissar bilan ketishdan yana bosh tortayotgandir?

Nihoyat, xotining qo‘li baland keldi. Jef tepaga qaytib chiqqanida nam sochlari silliq taralgandi, egnida oq ko‘ylak, deyarli yap-yangi ko‘k kostyum, yo‘l-yo‘l bo‘yinbog‘, oyoqlarida qora tufli — xuddi mehmondorchilikka ketayotganday.

Jef Megrega qaramay, ukasiga flamandchasiga bir nimalar dedi, so‘ng qirg‘oqqa tushib, qora mashina oldida to‘xtadi.

Komissar eshikni ochdi. Neve bularga taajjulanib qaradi.

— Qayoqqa yuramiz, xo‘jayin?

— Orfevr sohiliga.

Ular yo‘lga tushishdi. Qosh qorayib qolgandi. Mashina chirog‘i goh daraxtlar, goh qishloq uylarini lip-lip yoritib o‘tardi.

Megre o‘rindi q burchagiga yastangan cha indamay

trubka tortar, Jef van Gut ham miq etmasdi, bu sirli sukunatdan Nevening tamom boshi qotgandi.

— Ish beshmi, xo‘jayin? — dedi u nihoyat sabri chidamay. Ammo savoliga javob ololmagach, qaytib og‘iz ochmadi.

Adolat saroyining darvozasidan kirib borganlarida soat sakkiz edi. Ko‘p derazalarda chiroq o‘chgan, ammo qariya Jozef hali ketmagandi.

Inspektorlar xonasi ham deyarli bo‘m-bo‘sh. Faqat boshlig‘ining qaytishini kutib o‘tirgan Lapuentgina mashinada nimanidir ko‘chirardi.

— Ayt, pivo bilan yegulik biror narsa keltirishsin!

— Nechchi kishiga?

— Ikki kishiga... Darvoqe, yo‘q, uch kishiga. Kerak bo‘lib qolishing mumkin. Bo‘shmisan?

— Ha, xo‘jayin.

Megrening kabinetida daryochi yanayam darozroq va ozg‘inroq ko‘rindi, yuzining tarxi ham endi ko‘zga yaqqolroq tashlandi.

— O‘tiring, musye van Gut.

Jef «musye» so‘zini po‘pisaday tushunib, qovog‘ini soldi.

— Hozir ovqat opkelishadi.

— Konsulni qachon ko‘rishim mumkin?

— Ertaga ertalab.

Megre o‘z stoli yoniga o‘tirib, xotiniga qo‘ng‘iroq qildi:

— Kechki ovqatga borolmayman... Yo‘q... Ish ko‘p...

Boshqa mahal bo‘lganda Megre xonim savolni yog‘dirib tashlagan bo‘lardi, lekin bu gal unday qilmadi. Erini daydining taqdiri tashvishlantirayotganini yaxshi bilgani uchun, bittagina savol bilan kifoyalandi:

— O‘ldimi?

— Yo‘q...

Megre xonim biron kimsaning qo‘lga olingan-olinmagani bilan ham qiziqmadi. Modomiki eri qo‘ng‘iroq qilib, borolmayman, ish ko‘p, dedimi — demak, so‘roq yo boshlangan, yoki boshlanish arafasida.

— Xayrli tun!

Megre Jefga ensasi qotib qaradi:

— O'tiring, dedim-ku...

Xonaning o'rtasida qaqqayib turgan bu naynov muhojir komissarning g'ashiga tegayotgandi.

— O'tirishni xohlamasam-chi? Haqqim bor-ku. Xohlasam — o'tiraman, xohlamasam — yo'q, to'g'rimi?

Megre bir xo'rsindi-yu, «Dofin» qahvaxonasidan keladigan tamaddini kuta boshladi.

## VII b o b

O'ntadan sakkizta holatda muqarrar ayblanuvchining iqrori bilan yakunlanadigan bu tergov tunlari asta-sekin, xuddi teatr sahnasida yuz marotalab o'ynalgan pyesalar singari o'z an'analari, o'z shakl-u shamoyillariga ega bo'la boshladi.

«Dofin» qahvaxonasining yugurdak bolasi pivo bilan buterbrodlar keltirganini ko'rgan navbatchi inspektorlar gap nimadaligini darrov fahmlashdi.

Flamandiyalik kayfiyati rasvo va g'azabi bo'g'ziga qadalib turgan bo'lishiga qaramay, o'zini ovqatga urdi, Megredan ko'z qirini uzmay, krujka to'la pivoni bir ko'tarishda ichib yubordi.

Megrening g'ashiga tegish uchunmi yoki noroziligini bildirmoqchi bo'libmi, u og'zidagi taomni nihoyatda xunuk va beo'xshov chapillatib chaynar, go'shtdan chiqqan mayda suyaklarni, xuddi kema sahnida turganday hech parvosiz polga tupurardi.

Komissar bu manzarani, go'yo hech narsani sezmanday, xotirjam kuzatib o'tirdi, qafasga tushgan yirtqichday xona ichida u yoqdan bu yoqqa borib-kelayotgan daryochiga xalaqit bermadi.

Megre haqqidi? Tergovning eng qiyin joyi — asosiy, hal qiluvchi dalilni ayblanuvchiga qay paytda ro'kach qilish. Ammo bu holatni belgilab beradigan aniq yo'l-yo'riq yo'q. Bu narsa tergovchining ichki sezgisiga bog'liq.

Megrening biron-bir jiddiy dalilga ega bo'lmay turib tergovni boshlab yuborgan paytlari ham bo'lgan. Shunisi qiziqki, har gal osongina yutib chiqqan. Aksincha, ishonchli dalillari va o'nlab guvohlari bo'lishiga qaramay

tuni bo'yi hech narsaga erisholmagan paytlari ham oz emas.

Eng muhimi, har bir ishning kalitini topish kerak. G'aribona tamaddi qilib olgan Megre daryochiga tikilgan gancha ana shular haqida o'ylardi.

— Yana yeysizmi?

— Tezroq barjaga, xotinimning oldiga borishni istayman.

Nihoyat xona ichida aylanish Jefning joniga tegib, komissar o'tirgan stol ro'parasida to'xtadi. Megre endi shoshmaslik, tergovni ehtiyotlik bilan do'q-po'pizasiz suhbatni avvalo ayblanuvchining javoblaridagi maydatchuyda ziddiyatlarga, so'ng esa ochiq ko'rinib turgan mantiqsizliklarga burish va shu tariqa uni yanglishtirib, yolg'on gapirayotganini bo'yniga qo'yish kerak.

Megre Lapuentga ish buyurib, o'zi Jef bilan yolg'iz qoldi.

— Quloq soling, van Gut...

— Necha soatdan beri qulog'im sizda, to'g'rimi?

— Suhbatimiz cho'zilib ketganiga sabab — siz rost gapirmayapsiz.

— Hali meni yolg'onchiga ham chiqararsiz?

— Unaqa niyatim yo'q. Lekin, nazarimda, nimanidir yashiryapsiz mendan...

— Ayting-chi, agar men oilaviy hayotingizga aralashsam siz nima degan bo'lardingiz?

— Tushunaman, bolalik yillaringiz og'ir kechgan... Ehtimol, onangiz tarbiyangiz bilan kam shug'ullangandir?

— Rahmat, endi onamga ham til tekkizdingiz! Ammo u kishi besh yoshimdayoq olamdan o'tgan. Qolaversa, onam nihoyatda bama'ni, imoni but ayol bo'lgan, hozir arvohi tepamda chirqirab turgan bo'lsa ham ajabmas...

Megre sabrsizlik qilmadi, suhbatdoshiga bamaylixotir tikilgan gancha savol-javobni davom ettirdi:

— Otangiz ikkinchi marta uylanganmi?

— Otamning yo'rig'i boshqa... U ko'p ichardi...

— Necha yoshingizdan ishlay boshlagansiz?

— Boya aytdim-ku. O'n uch yoshimdan...

— Xubertdan boshqa aka-ukalarinigz yoki opa-singillaringiz bormi?

— Singlim bor. Nimaydi?

— Hech narsa. Shunchaki tanishyapmiz-da.

— Unaqa bo'lsa, men ham sizga savol berishim kerak.

— Marhamat.

— Modomiki o'z kabinetimda ekanman, nimani xohlasam shuni qilaman, deb o'ylayapsizmi?

Megre suhbat uzoq va og'ir bo'lishini sezdi. Van Gut aqlli yigit emas, bundaylar bilan gaplashish g'irt azob. Ular qaysarlik qilishadi, savollarga javob berishmaydi, bir soat ilgari tasdiqlagan narsalarini hech ikkilanmay rad etishadi, hatto gap-so'zlaridagi qarama-qarshilikni eslatib tursang ham aslo uyalishmaydi.

Agar ayblanuvchi aqlli bo'lsa, uning ko'rsatmalaridagi bo'sh joylarni, o'zini qay yo'sinda himoya qilmoqchi bo'layotganini darrov payqaysan.

— Harholda, siz mehnatkash odamsiz, to'g'rimi?

Jef komissarga xo'mrayib qaradi.

— To'g'ri, hamma vaqt ish bilan band bo'lganman.

— Ba'zi xo'jayinlaringiz, halolligingizdan ortiqcha foydalanishgan. Kunlardan bir kun siz xuddi otangiz singari ichkilikka ruju qo'ygan Lui Villemsga duch kelgansiz.

Jef xonaning o'rtasida qaqqayib turarkan, Megrega go'yo xavf-xatarni sezgan, ammo hujum qaysi tomondan bo'lishini hali angolmayotgan yirtqichday hadik bilan tikildi.

— Agar Anneke bo'lmaganda siz «Zvaarte Zvaan»da ishlamagan, boshqa birorta kemaga yollanib ketgan bo'lardingiz.

— Villems xonim ham olijanob ayol edi.

— Ammo eriday takabbur va qattiqqo'l bo'lmagan.

— Erining takabburligini qayoqdan bilasiz?

— Men yanglishmadimmi?

— U barjaning egasi, haqiqiy xo'jayin edi.

— Ishonchim komilki, Villems xonim tirik bo'lganida sizlarning nikohingizga e'tiroz bildirmasdi!

Flamandiyalik aqlli emas edi, unda hayvoniy tuyg'u kuchli edi, bu gal ham Megre sal shoshildi.

— Ha-a... Endi shuni o'ylab topdingizmi? Bunaqada men ham ming xil voqeani to'qib tashlashim mumkin, nima dedingiz?

— Hech narsani o'ylab topganim yo'q. Hayotingizni shunday tasavvur qilaman. Ehtimol adashayotgandirman...

— Sizni xatoingiz tufayli qamalib ketsam qandog' bo'larkin?

— Oldin gapimni oxirigacha eshitsangiz-chi! Qiynalib o'sgansiz. Bolaligingizdanoq kattalarning mehnatini qilgansiz. Keyin Annekega duch kelgansiz. U sizga, qilgan qora mehnatlari evaziga nuqul haqorat eshitadigan qul deb emas, haqiqiy insondek qaragan. Siz uni sevib qolgansiz. Axir onasi buni ko'rib, quvonmasmidi?..

Nihoyat Jef o'tirdi, to'g'ri kresloga emas, uning tirsaklagichiga o'tirdi, ammo shuning o'zi ham Megrening yutug'i edi.

— Xo'sh, keyin-chi? — dedi Jef. — Bu yog'iga o'zim ham qiziqib qoldim.

— Baxtga qarshi, Villems xonim vafot etadi. Siz uning eri va qizi bilan qolasiz. Uzzukun Anneke bilan birgasiz. Buni otasi ham sezib yuradi...

— Bu sizning taxminingiz!

— Kema egasi cho'ntagida hemirisi yo'q yigitga qizining turmushga chiqishini xohlamaydi. Kechqururlari otvolib, janjal chiqaza boshlaydi.

Endi Megre yana o'ziga hamisha xos bo'lgan ehtiyotkorlik yo'liga tushib olgan, flamandiyalik daryochining ko'zlaridagi ifodani sergaklik bilan kuzatib o'tirardi.

— Birovlarning qo'l ko'tarishiga yo'l qo'yib qo'yadigan odam deb o'ylayapsizmi meni?

— Yo'q, albatta. Sizga emas, qiziga qo'l ko'targan. Ikkovinglarni haligidaqa... pinhona visol paytida ko'rib qolgan...

Megre trubkasini tutatgancha bir muddat jim o'tirdi. Oraga og'ir sukunat cho'kdi.

— Boya siz g'alati bir gapni aytdingiz. Villems

ko'pincha Parijda sohilga tushgan, chunki u yerda ayoli bo'lgan. Boshqa shaharlarda esa yo barjaning o'zida, yoki qirg'oqdagi birorta qahvaxonada mayxo'rlik qilgan. So'zlaringizga qaraganda, u hamma daryochilarday barvaqt turib, barvaqt yotgan. Faqat Parijdagina Anneke bilan yolg'iz qolish imkoniyatiga ega bo'lgansizlar.

Qo'shni xonada qadam tovushlari va gangur-gungur ovozlar eshitildi. Hayal o'tmay Lapuent eshikdan mo'raladi.

— Hammasi joyida, xo'jayin.

— Biroz sabr qil.

So'roq yana davom etdi. Kabinet ichi tutunga to'lib ketgan edi.

— Ehtimol bir gal u sohildan odatdagidan barvaqtroq qaytgan-u qizini sizning quchog'ingizda ko'rgan. Tabiiyki, jon-poni chiqib ketgan. Sizni tashqariga uloqtirgan... Qizining yuziga tarsaki tortgan... Shunday bo'lishi mumkin-ku!

— Bular sizning uydirmalaringiz, — dedi cho'rt kesib Jef.

— Agar men sizning o'rningizda bo'lganimda mana shu uydirmaga yopishib olardim. U holda Villemsning o'limini qariyb baxtsiz hodisa deb baholash mumkin edi...

— Rostdan ham baxtsiz hodisa-da.

— Men «qariyb» dedim. Hatto uning suvga qulashiga ko'maklashgansiz, demoqchi ham emasman. G'irt mast bo'lgan... Oyoqda turolmaydigan. Balki o'sha kecha yomg'ir yog'ayotgandir?

— Ha...

— Ana, ko'rdingizmi! Demak, taxta sirpanchiq bo'lgan. Sizning aybingiz shundaki, darrov yordam berolmagansiz. To'g'ri, agar o'zingiz uni suvga itarib yuborib, og'irroq jinoyatga qo'l urmagan bo'lsangiz. Ammo bu hodisa ikki yil muqaddam yuz bergan va politsiya qog'ozida qotillik deb emas, baxtsiz hodisa sifatida qayd etilgan...

— Nima gap o'zi? Nega menga qotillikni yopishtirmoqchi bo'lyapsiz?

— Unaqa emas. Men shunchaki haqiqatning tagiga



yetmoqchiman. Mana, aytaylik, Villemsni suvga itarib yuborganingizni birortasi ko'rgandir... u odam sohilda turgan va siz uni payqamagan bo'lishingiz mumkin. Xuddi o'sha odam barjadan darhol qayiqqa sakramaganingizni va Villemsning cho'kib ketishini kutib turganingizni politsiyaga xabar qilgan bo'lsa-chi?

— Anneke-chi? Nahotki u ham shu voqeani tomosha qilib turavergan bo'lsa?

— Kechasi soat ikkida u uxlab yotgan bo'lishi kerak... Harholda, o'sha kechasi Beren ko'prigi ostida tunagan haligi odam sizni ko'rgan, lekin politsiyaga xabar qilmagan. Daydilar birovlarining ishiga aralashishni yoqtirishmaydi. Ularning o'z aqidalari, adolat xususida o'z tushunchalari bor... Ana endi siz Annekega bermalol uylanaverishingiz mumkin. Barjada yordamchi kerak bo'lgani uchun Belgiyadan ukangizni chaqirtirgansiz. Nihoyatda baxtiyorsiz, o'z so'zingiz bilan aytganda, o'zingiz kemaga xo'jayinsiz. O'shandan buyon Parijga ko'p kelgansiz-u, ammo, qasam ichib aytaman, Beren ko'prigi yonida biror marta ham to'xtamagansiz...

— Yanglishasiz, musye! Kamida uch marta to'xtaganman...

— Shuning uchunki, o'sha odam hozir u yerda yo'q. Daydilar ham joylarini o'zgartirib turishadi, u hozir Mari ko'prigi ostida tunaydi. Va nihoyat, o'sha dushanba kuni u «Zvaarte Zvaan»ni ham, sizni ham tanib qoladi. Modomiki shunday ekan...

Megre o'zini miyasini yangi bir fikr yarq etib yoritgan kishi qiyofasiga soldi.

— Xo'sh, shunday bo'ldi ham deylik?

— Nahotki, Villemsni suvdan tortib olayotgan paytingizda Rape sohilida turgan o'sha odamni payqamagan bo'lsangiz? Yo'q! Harholda, payqagan bo'lishingiz kerak. U yoningizga kelgan, lekin indamagan. Ammo o'sha dushanba kuni barjangiz atrofida aylana boshlaganda, og'zidan gullab qo'ymaganmikin, deya vahimaga tushgansiz. Ehtimol, u sizga po'pisa ham qilgandir...

Keyingi gapiga komissarning o'zi ham ishonmasdi. Chunki tabib unaqa odamga o'xshamaydi... Ammo shu tobda boshqacha yo'l tutishi mumkin emas edi.

— Qo‘rqib ketgansiz... Keyin birdan: nega endi Villemsga o‘xshab bu ham suvga qulab ketishi mumkin emas, degan o‘y o‘tgan ko‘nglingizdan...

— Va uni suvga uloqtirganman? Shundaymi?

— Balki turtib yuborgandirsiz...

Jef yana o‘rnidan turdi. Endi o‘zini ancha bosib olgan edi.

— Yo‘q, musye, qilmagan ishimni hech qachon bo‘yninga qo‘yolmaysiz. Hammasi sizning taxminlaringiz.

— Ehtimol adashayotgan joylarim ham bordir. Bo‘lmasa, ayting-chi...

— Aytganman.

— Nimani?

— Sudya bilan kelgan pakana odam nima degan bo‘lsam — hammasini yozib olgan.

— O‘shanda siz, yarim kechaga yaqin bir narsa shaloplaganini eshitdim, degan edingiz...

— Aytgan bo‘lsam — demak, shunday bo‘lgan.

— Gapingizga qaraganda, ikki odam — ularning biri ochrang yomg‘irpo‘sh kiygan — xuddi o‘sha paytda Mari ko‘prigi ostidan chiqib, qizil mashina tomon yurishgan.

— To‘g‘ri, mashina ham qizil edi.

— Ular barjangiz yonidan o‘tishgan...

Van Gut miq etmadi. Megre o‘rnidan turib borib, eshikni ochdi.

— Kiringlar, janoblar!

Ma‘lum bo‘lishicha, Lapuent sug‘urta xodimi bilan uning duduq og‘aynisini olib kelishga ketgan ekan. Inspektor ularni Giyo xonim bilan uchovlon chaq-chaqlashib o‘tirgan paytida bosdi. Erkaklar g‘ing demay unga ergashishdi. Giyo o‘sha dushanba kungi ochrang yomg‘irpo‘shda edi.

— Qizil mashinada ketgan odamlar shularmi?

— Odamni kechasi, nimqorong‘i sohilda ko‘rgan boshqa, yop-yorug‘ kabinetda ko‘rgan boshqa...

— Bular siz tasvirlagan odamlarga o‘xshashadi.

Jef indamay yelkasini qisdi.

— Ular haqiqatan ham o‘sha kuni kechasi Selesten

sohilida bo‘lishgan... Ayting-chi, musye Giyo, u yerda nima qilgansizlar?

— Mashinada qirg‘oqqacha tushdik...

— Ko‘prikdan qancha masofa narida?

— Yuz metrdan mo‘lroq.

— Pastda mashinani to‘xtatdinglar, shundaymi?

— Ha, musye.

— Keyin-chi?

— Keyin mashinadan tushib, itning jasadini olish uchun yukxonani ochdik.

— Og‘irmidi?

— Ha, mendan ham og‘ir edi: yetmish ikki kilogramm. Oxirgi marta ikki oy muqaddam qassobning tarozisida o‘zim tortib ko‘rganman.

— Sohilda barja to‘xtab turgan ekanmi?

— Ha.

— Demak, qopni ko‘tarib, Mari ko‘prigi tomon yurgansizlar?

— Nega u yoqqa borishimiz kerak ekan. Qayoqdan oldingiz bu gapni?

— Manovi odam shunday deyapti?

— O‘sha tomonga yurganimizni ko‘ribdimi?

— Yo‘q... Qaytayotganingizda ko‘rgan ekan.

Og‘aynilar ko‘z urishtirib olishdi.

— Ko‘rishi mumkin emas, biz barjaning yonidan o‘tganimiz yo‘q, itni kemandning tumshug‘i ro‘parasida suvga otganmiz. Ishqilib qop rulga ilinib qolmasa go‘rga edi, deb xavotirga ham tushganmiz. To oqib ketmaguncha ko‘z uzmasdan qarab turdik...

— Eshitdingizmi, Jef.

Ammo u pinagini ham buzmadi:

— Valdirayapti. Boya siz ham bir nimalarni to‘qiyotuvdingiz. Birov u deydi, birov — bu. Meni nima aloqam bor?

— Soat necha edi o‘shanda, musye Giyo?

Duduq Arduenning toqati toq bo‘lib ketdi:

— O‘-o‘... o‘-o‘...

— Taxminan o‘n bir yarimlar edi, — dedi janob Giyo. — Yigirmatakam o‘n ikkida biz Tyuren ko‘chasiidagi qahvaxonaga yetib kelgan edik.

— Mashinangizning rangi qizilmi?  
— Ha, qizil. «Pejo — 403».  
— Nomerida ikkita to‘qqiz raqami bor, a?  
— 7949, L-F. Texnik pasportini ko‘rishingiz mumkin...

— Hovliga tushib, mashinani ko‘rib kelasizmi, musye van Gut?

— Tezroq xotininimning oldiga borganim ma‘qul.

— Gaplaringizdagi chalkashlikni qanday tushuntirasiz?

— Tushuntirish sizning vazifangiz.

— Qanday xatoga yo‘l qo‘yganingizni bilasizmi?

— Ha, cho‘kayotgan odamni qutqarib qoldim.

— Lekin buni o‘z xohishingiz bilan qilganingiz yo‘q.

— Nega endi? Yaxshilikka yomonlik deganlari rost ekan-da.

— Siz bir narsani unutyapsiz: daydining baqirganini sizdan boshqa yana bir odam ham eshitgan... Villems-ku miq etolmagan: og‘ziga suv kirib, hash-pash deguncha cho‘kib ketgan bo‘lishi mumkin. Tabibga kelganda ehtiyotkorlik qilgansiz, avval boshiga urib, hushidan ketkizgansiz. Balki o‘ldi deb o‘ylagandirsiz yoki oqim va girdoblarga bas kelolmaydi, degan xayolga borgandirsiz. Mabodo «Puatu»dagi daryochining ovozini eshitmaganingizda, joyingizdan jilmasdan, begunoh bir bandaning oqib ketishini kuzatib turaverardingiz. Hamkasbingiz sizni o‘z barjangizda ko‘rgan. Shuning uchun noiloj xaloskor rolini o‘ynashga majbur bo‘lgansiz.

Jef yana yelkasini qisdi.

— Boya, xatoga yo‘l qo‘ydingiz, deganimda, cho‘kayotgan odamni qutqarish uchun o‘zingizni suvga otganingizni emas, balki meni chalg‘itish niyatida to‘qigan cho‘pchagingizni nazarda tutgan edim, lekin tan berish kerak, juda puxta o‘ylagansiz...

Sug‘urta xodimi bilan uning do‘sti goh komissarga, goh flamandiyalikka javdiray-javdiray, axiyri so‘z inson hayoti ustida borayotganini anglashdi.

— Soat o‘n bir yarimda siz motorni tuzatish bilan mashg‘ul bo‘lmagansiz. O‘sha paytda siz sohil ko‘rinadi-

gan joyda — yo tagxonada, yoki barja ustida bo'lgansiz... Aks holda qizil mashinani payqamasdingiz. Itni suvga uloqtirishganini ko'rgansiz, politsiya so'roqqa tuta boshlaganda esa shu voqeadan ustalik bilan foydalangansiz. Mashinani baribir topisholmaydi degan xayol bilan Mari ko'prigi ostidan chiqib kelgan ikki kishini ko'rdim, deb qo'ya qolgansiz.

— Sizlar gapirganda men jim turdim, to'g'rimi? Ular ham valdirayapti, siz ham valdirayapsiz...

Megre yana eshikni ochdi.

— Musye Gulye, marhamat!

Lapuent kabinetga «Puatu» barjasining daryochisini olib kirdi. Barja hanuzgacha Selesten sohilida qum tushirayotgan edi.

— Daryoda biron baqirayotganini qachon eshitdingiz?

— Yarim kechaga yaqin.

— Aniqroq aytolmaysizmi?

— Yo'q.

— Vaqt o'n bir yarimdan o'tganmidi?

— Ehtimol. Hamma ish bitgandan keyin, ya'ni demoqchimanki, tana suvdan qirg'oqqa olib chiqilgandan keyin politsiyachi keldi. O'shanda soat o'n ikki yarim edi. Nazarimda, u vaqtni yon daftariga yozib ham qo'ydi. Albatta, falokat ro'y bergan paytdan to politsiyachi kelganga qadar yarim soatdan ortiq vaqt o'tgan emas...

— Bunga nima deysiz, van Gut?

— Menmi? Hech narsa... Bu ham o'zicha valaqalayapti.

— Politsiyachi hammi?

— Politsiyachi ham.

Soat to'qqizda, uch guvoh ketganidan so'ng «Dofin» qahvaxonasidan yana buterbrodlar bilan pivo keltirishdi. Megre qo'shni xonaga chiqib:

— Endi sening navbating, — dedi Lapuentga.

— Nimani so'rashim kerak?

— Xohlagan narsangni...

Shunday tartib bor edi. Tun bo'yi ular uch-to'rt marta o'rin almashishar, ayblanuvchining irodasini bu-

kish uchun, sal boshqacharoq yo'l bilan bo'lsa ham aynan bitta savolni takrorlayverishardi.

— Allo! Meni xotinim bilan ulang.

Megre xonim hali yotmagan edi.

— Meni kutma... uxlayver...

— Charchaganga o'xshaysan. So'roq og'ir kechyapti-mi?

Megre xonim erining kayfiyati yomonligini gap-so'zlaridan sezdi.

— Bo'yniga olmayapti, qaysarlik qilyapti. Bunaqasini umrimda ko'rmaganman.

— Tabib-chi?

— Hozir surishtiraman...

Komissar kasalxonaga qo'ng'iroq qilib, jarrohlik bo'limining navbatchisi bilan gaplashdi.

— Uxlayapti. Yo'q, og'riq qoldi... Tushdan keyin professor ko'rib, tuzalib ketadi, dedi.

— Bemor tilga kirdimi?

— Uyqudan oldin suv so'radi.

— Boshqa hech narsa degani yo'qmi?

— Yo'q. Dori ichib, uxlab qoldi.

Megre yo'lakda yana yarim soatcha u yoqdan bu yoqqa yurib, Lapuentning «jang» qilishiga sharoit yaratib berdi. Uning ovozi eshik ortidan aniq eshitilib turardi. Megre qaytib kabinetiga kirganda, van Gut panshaxaday qo'llarini tizzalari ustida chalkashtirgancha yana kreslo-da o'tirardi.

Lapuentning qiyofasidan hech narsaga erisholmagani yaqqol sezilib turar, daryochi esa unga istehzo bilan tikilardi.

— Yana qancha davom etadi bu mashmasha? — dedi u Megre o'z o'rniga o'tirgach. — Konsulni chaqirishga va'da beruvdingiz, to'g'rimi? Hamma nayranglaringizni gapirib beraman unga, Belgiya gazetolari ham yozib chiqishadi hali.

— Quloq soling, van Gut...

— Nechchi soatdan beri quloq solyapman, nuqul bir gapni takrorlaysiz. Manovi ham. — U Lapuentga ishora qildi. — Balki tashqarida meni so'roq qilishni kutib o'tirganlar yana bordir?

— Bo‘lishi mumkin.  
— Ularga ham javobim shu.  
— Gaplaringizda chalkashlik ko‘p.  
— Nima qipti? Meni o‘rnimda siz bo‘lganingizda ham xuddi shu ahvolga tushardingiz!

— Guvohlarning so‘zlarini eshitdingiz-ku.  
— Guvohlar boshqa gapni gapirishyapti, men — boshqa gapni. Bu hali meni yolg‘onchiga chiqarishga dalil bo‘lolmaydi. Butun umrim mehnatda o‘tgan. Van Gutning kimligini xohlagan daryochingizdan so‘rang. Hech kim men haqimda yomon so‘z aytmaydi.

Megre, ehtimol bu gal kalavaning uchini topsam, degan ilinjda so‘roqni yana qaytadan boshladi. Ilgari ham shunday voqea bo‘lgan. Xuddi van Gutga o‘xshagan bir qaysar odam o‘n olti soat cho‘zilgan so‘roqning oxirgi daqiqasida, komissar hamma narsadan endi umidini uzgan bir paytda, birdan aybini bo‘yniga olgan edi.

Bu tun Megrening hayotidagi eng og‘ir tunlardan bo‘ldi. U yana ikki marta boshqa xonaga chiqib turdi, so‘roqni Lapuent davom ettirdi. Pirovardida buterbrod-lar ham, pivo ham tugab, Adolat saroyining bo‘m-bo‘sh xonalarida sharpaga o‘xshab faqat uchovlon qolishdi.

— Haligi ikki odamning barjangiz yonidan o‘tganini ko‘rgan bo‘lishingiz mumkin emas.

— Bir-birimizdan farqimiz shundaki, men o‘sha yerda bo‘lganman, siz esa bo‘lmagansiz.

— Gaplarini eshitdingiz-ku?

— Gapiraverishadi-da.

— Xotirjam bo‘ling, qasddan shunday qilgansiz, demoqchi emasman...

— Nima-nima?

— Siz uni o‘ldirishga oldindan qasd qilgansiz, deya-yotganim yo‘q.

— Kimni? Villemsnimi? Yoki o‘zim qutqarib qolgan odamnimi? Ular endi ikkita bo‘ldi, shundaymi? Ertaga uchta, to‘rtta, beshta... bo‘lishi ham mumkin. Bunaqada hisobiga yetolmay qolamiz-ku.

Soat uchda holdan toygan Megre so‘roqni to‘xtatish-ga qaror qildi. Uning ortiq majoli qolmagandi — ayblanuvchining emas, Megrening majoli qolmagandi.

- Bugunga yetadi, — dedi u o'rnidan turib.
- Ketaverishim mumkinmi?
- Hozircha yo'q...
- Uxlagani turmaga jo'natmoqchimisiz?
- Shu yerda, birorta kabinetda yotasiz.

Lapuent flamandiyalikni olib chiqib ketdi, Megre esa Adolat saroyidan chiqib, bo'm-bo'sh ko'chada anchagina yurdi. Shatle yaqinidagina taksi tutishga muvaffaq bo'ldi.

Oyoq uchida yurib yotoqxonasiga kirdi, Megre xonim boshini burib, uyqu aralash:

— Senmi? — deb so'radi, xuddi boshqa odam ham bo'lishi mumkinday. — Soat necha bo'ldi?

- To'rt.
- Bo'yniga oldimi?
- Yo'q.
- Aybdor o'shamikin?
- Bunga shubham yo'q.
- Qo'yvordingmi?
- Hozircha yo'q.
- Ovqat yeysanmi?

Megrening tomog'idan hech narsa o'tmasdi, shunday bo'lsa ham yotishdan oldin bir stakan vinoni ichib yubordi, ammo baribir ancha mahalgacha u yonboshidan bu yonboshiga ag'darilib, uxlayolmay yotdi.

Ha, bu belgiyalik daryochini u endi bir umr yodidan chiqazmaydi!

## *VIII b o b*

Lapuent tunni Orfevr sohilida o'tkazgani uchun ertalab ularga Torans hamrohlik qiladigan bo'ldi. Ammo Megre jo'nashdan oldin telefonda kasalxonadagilar bilan gaplashdi.

— Bemor kecha to'la hushiga keldi, — dedi professor. — Faqat, iltimos, charchatib qo'ymang. Harholda, miyasi og'ir lat yegan, batamom sog'ayib ketishi uchun yana ikki-uch hafta kerak.

Uchovlari oftob nuriga g'arq bo'lib yotgan sohil



bo'ylab ketishdi. Komissar, Torans va o'rtada — van Gut. Ko'rgan odam ularni bahor tongida sayr qilib yurgan kishilar deb o'ylashi mumkin edi.

Ustara olishni unutgan van Gutning o'sib ketgan soqoli oftob nurida yarqirardi.

Ular Adolat saroyining ro'parasidagi gazakxonaga kirib, bittadan qaynoq qahva ichishdi. Flamandiyalik hash-pash deguncha yettita bulochkani tushirdi.

Van Gut, Mari ko'prigiga — voqea sodir bo'lgan yerga ketyapmiz, deb o'ylagan shekilli, kasalxonaning befayz hovlisiga burilganlarida juda hayron bo'ldi. Ular ichkariga kirishgach, ko'pdan ko'p yo'laklardan o'tishdi.

Ba'zan van Gutning qovog'i solinar, ammo haya-jonini sezdirmaslikka harakat qilardi.

— Mumkinmi? — deb so'radi Megre katta hamshiradan.

U komissarning hamrohlariga g'alati bir qarash qildi-yu yelkasini qisib qo'ya qoldi. Bunaqa ishlarga uning aqli yetmas va tushunishga tirishmasdi ham.

Megre uchun flamandiyalikni Keller bilan yuzlashtirishdan bo'lak chora qolmagandi.

Palataga birinchi bo'lib o'zi kirdi. Xuddi oldingi galdagiday barcha bemorlarning nigohi yana unga qadal-di. Megrening keng yelkari orqasida Jef ko'rinmadi, saf oxirida Torans kelardi.

Tabib bularning yaqinlashishini mutlaqo loqaydlik bilan kuzatdi. Hatto daryochini ko'rib ham bir tuki o'zgarmadi.

Qizig'i shundaki, Jef ham xuddi kechasi o'zini tut-ganday, mutlaqo xotirjam edi. U qo'llarini ko'ksida chalkashtirgancha, o'zi uchun g'ayriodatiy bo'lgan pala-ta ichini beparvolik bilan tomosha qila boshladi.

Megre kutgan hodisa yuz bermadi.

— Yaqinroq keling, Jef!

— Yana nima istaysiz mendan?

— Bu yoqqa keling.

— Mana, keldim.

— Taniyapsizmi bu odamni?

— Daryoga cho'kib ketayozgan o'sha odamdir-da, to'g'rimi? Lekin unda soqoli o'sgan edi.

— Harholda, taniyapsizmi?

— O‘xshabroq turibdi...

— Siz-chi, musye Keller?

Megre nafasini ichiga yutib daydiga tikildi. Tabib ham komissarga garangsiganday andak qarab turdi-yu keyin yuzini bazo‘r flamandiyalik tomonga burdi.

— Taniyapsizmi?

Nima deyish mumkin: Keller bilib turib shunday qilyaptimi yo ikkilanyaptimi? Komissar uning aniq javobdan qochayotganiga ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmay qoldi. Mavhum sukunat anchagacha davom etdi, so‘ng tabib yana Megrega indamay qarab yotaverdi.

— Taniyapsizmi, yo‘qmi?

Daydi yana jim. Komissarning qoni qaynab ketdi. Ehtimol tabibdan gap olib bo‘lmasligiga aqli yetganidan shunday bo‘lgandir. Chunki daydining nigohida allaqanday bir hazilomuz kinoya bor edi.

Nihoyat uning lablari xiyol ochildi.

— Yo‘q.

— Sizni daryodan tortib olganlardan bittasi shu!

— Rahmat, — dedi u shivirlab.

— Boshingizga urib, suvga uloqtirgan ham shu! Bunga ishonchim komil!

Yana sukunat. Bu gaplarni eshitib ham tabibda zarracha o‘zgarish bo‘lmadi, faqat ko‘zlarigina yiltirab turardi.

— Haliyam taniganingiz yo‘qmi?

Nihoyatda g‘alati manzara: suhbat ikki karavot orasida, past tovushda kechar, bemorlar bulardan ko‘z uzmay qarab turishardi.

— Javob bermoqchimasizmi?

Kellerdan sado chiqmadi.

— Axir, nima uchun joningizga qasd qilganini bilasiz-ku!

Bemorning nigohida sinchkovlik ifodasi zohir bo‘ldi. Aftidan, u Megrening shuncha narsani bilib olganiga ajablanayotgandi.

— Bu voqea ikki yil muqaddam, siz hali Bersi ko‘prigi ostida tunab yurgan kezlaringizda sodir bo‘lgan. Bir kuni tunda... Eshityapsizmi?

Tabib bosh irg'adi.

— Bir kuni kechasi, dekabr oyida, siz manovi kishi aralashgan bir jinoyatga beixtiyor guvoh bo'lgansiz.

Keller, aftidan, nima deb javob berish haqida o'ylardi.

— O'shanda bu odam, — davom etdi Megre, — barja egasini daryoga itarib yuborgan. Suvdan uning o'ligini opchiqishgan... Barja esa siz ostida yotib yuradigan ko'prikning yonginasida turgan...

Yana javob bo'lmadi. O'sha-o'sha loqaydlik.

— Shu to'g'rimi? Dushanba kuni kechqurun qotil sizni Selesten sohilida ko'rib, og'zidan gullab qo'yadi, deb qo'rqib ketgan.

Bemor boshini arang burib, Jef van Gutning yuziga tikildi.

Ammo nigohida na g'azab, na nafrat uchquni yiltiradi.

Megre daydidan gap olib bo'lmasligiga batamom ishondi, shu bois, hamshira ulardan ketishni iltimos qilganida, e'tiroz bildirmadi.

Yo'lakka chiqqanlarida daryochi luqma tashladi:

— Xo'sh? Niyatingizga yetdingizmi?

Flamandiyalik haq edi: bu gal u g'olib chiqqandi.

— Men ham bilaman har xil rivoyatlar to'qishni! — dedi u yana tantanavor ohangda.

Megrening joni halqumiga keldi:

— O'chir ovozingni!

Megre Jef bilan Toransni Orfevr sohilida qoldirib, o'zi ikki soat davomida sudya Dansiger bilan suhbatlashdi. Sudya prokuror yordamchisi Parren-ga qo'ng'iroq qilib, huzuriga kirishni iltimos qildi. Shundan so'ng Megre jinoyat qanday sodir bo'lgani to'g'risidagi o'z mulohazalarini ipidan ignasigacha bayon etdi.

Sudya qalam bilan yondaftarga ba'zi ma'lumotlarni yozib bordi, Megre gapini tugatganidan so'ng esa:

— Xullas, sizda unga qarshi birorta dalil yo'q, — dedi.

— Birorta ham, — deya uning so'zini tasdiqladi komissar.

— Faqat falokat yuz bergan vaqt bundan *mustasno*. Ammo har qanday tajribali advokat bu dalilga osongina chap berib ketishi mumkin.

— Bilaman.

— Uni iqror etishdan umidingiz bormi?

— Aslo.

— Daydi bundan keyin ham gapirmaydi, deb o‘ylaysizmi?

— Bunga ishonchim komil.

— Qiziq, nega bunaqa qilyaptiykin?

Buni tushuntirish oson emas. Ayniqsa, ko‘priklar ostida yashaydigan bechoralarga duch kelmagan odamga.

— Darhaqiqat, nima uchun? — suhbatga qo‘shildi prokuror yordamchisi. — O‘lishiga bir bahya qopti-yu, yana qaysarlik qilganiga hayronman...

To‘g‘ri-da, Parijning eng obod va ko‘rkam rayoni — Passida istiqomat qiladigan, oyiga ikki marta uyida ziyofat beradigan, o‘z martabasi-yu maoshi oshishidan boshqa narsani o‘ylamaydigan prokuror yordamchisi hayron bo‘lmay kim hayron bo‘lsin!

Ammo daydi bunday o‘ylamasdi...

Adolat qaror topishi kerak-ku, axir!

Albatta-da! Biroq qahraton qishda ustiga eski gazetalarni yopib ko‘priklar ostida yotishdan cho‘chimaydiganlarning o‘zlari bu haqda kamroq o‘ylashadi.

— Nega bunday qilayotganining sababini bilasizmi, komissar?

Megre «ha» deb javob berishdan o‘zini tiydi, chunki suhbatdoshlarini taajjubga solishni xohlamadi.

— Bilasizmi... uning uchun sudning ham, tergovning ham, so‘roqlarning ham, qo‘ying-chi, hukm va turmaning ham u qadar ahamiyati yo‘q.

Agar komissar jabrlanuvchining kaftiga o‘zi qo‘ygan shisha soqqacha haqida gapirib berganida bular qanday xayollarga borishardi? Yoki xotini hozir ham Sen-Lui orolida yashayotgan, qizi esa yirik fabrikachiga turmushga chiqqan sobiq do‘xtir Keller, xuddi o‘n yoshli bolakaydek, cho‘ntagiga shisha soqqachalar solib yurishini aytganida-chi?

Gap aylanib yana Jefga taqaldi.

Sudya prokuror yordamchisiga bir qarab qo'yib, shunday dedi:

— Bu ahvolda uni qamoqqa olish to'g'risidagi qog'ozga imzo chekolmayman. Gapingizga qaraganda, komissar, van Gutni o'zim so'roq qilgan taqdirimda ham biror natija chiqishi gumon.

Rost, Megrening qo'lidan hech ish kelmadi-yu, sudyaga yo'l bo'lsin!

— Xo'sh, nima qilish kerak bo'lmasa!

Nima qilish kerak? Megre bu yoqqa kelmasidan oldinroq yutqazganini bilardi. Endi faqat bir narsa qoldi: van Gutni qo'yib yuborish va undan uzr so'rash.

— Kechirasiz, Megre, bu ahvolda...

— Tushunaman...

Yana ko'ngilsiz daqiqalarni boshdan kechirishiga to'g'ri keldi. Har gal kaltabin odamlarga ishi tushganida shunday bo'ladi.

— Uzr, janoblar, — dedi u astagina, sudyaning kabinetidan chiqib keta turib.

Oradan sal vaqt o'tmay, komissar bu so'zni o'z kabinetida takrorladi:

— Uzr, musye van Gut! To'g'ri, men faqat rasmiyat uchungina uzr so'rayapman. Lekin bilib qo'ying: men o'z fikrimda qolaman. O'z xo'jayiningiz Lui Villemnsni siz o'ldirgansiz, bunga beixtiyor guvoh bo'lib qolgan daydidan qutulish uchun uning joniga qasd qilgan ham o'zingiz! Bunga zarracha shubham yo'q. Endi barjangizga, xotiningiz bilan qizingizning oldiga ketaverishingiz mumkin. Xayr, musye van Gut!

Megre, hozir flamandiyalik osmondan keladi, deb kutgan edi — bunday bo'lmadi. U komissarga andak hayrotomuz qarab turdi-da, so'ng uzun, beso'naqay qo'lini uzatdi:

— Hamma ham xato qilishi mumkin-ku. To'g'rimi?

Megre uzatilgan qo'lni ko'rmaganlikka oldi va sal o'tmay, chala qolgan boshqa ishlarga sho'ng'ib ketdi.

Keyingi bir necha hafta davomida politsiya ham Bersi sohilida, ham Mari ko'prigi atrofida shu jinoyat yuzasi-

dan qattiq ish olib bordi. Ko'plab odamlar so'roq qilindi. So'rovga ko'ra Belgiya politsiyasi jo'natgan ma'lumotlar ham tergov qog'ozlariga tirkab qo'yildi.

Komissar esa... Uni keyingi uch oy davomida odamlar Selestén sohilida tez-tez ko'radigan bo'lib qolishdi. Og'zida trubka, qo'llarini cho'ntaklariga solgan-cha, xuddi bekorchi odamday, Mari ko'prigi yonidan shoshmasdan o'tib ketardi. Tabib kasalxonadan chiqib, yana ko'prik ostidagi o'z maskaniga qaytdi. Narsalarini qaytarib berishdi.

Ba'zan Megre, xuddi tasodifan ko'rib qolganday, daydi tabibning ro'parasida to'xtardi. Suhbatlari juda qisqa bo'lardi:

- Qalaysiz?
- Tuproqdan tashqari.
- Yarangiz bezovta qilmayaptimi?
- Ba'zan boshim aylanadi...

Ular yuz bergan voqeadan so'z ochmaslikni ma'qul ko'rishdi, ammo Keller komissarning nima maqsadda bu yoqqa kelishini bilardi. Megre ham uning buni tushunishini bilardi. O'ziga xos bekinmashoq o'yini shu tariqa yozgacha davom etdi.

Bir kuni ertalab komissar suvi qochgan non bilan qizil vino ichib o'tirgan daydining oldida to'xtadi.

- Qalaysiz?
- Tuproqdan tashqari.

Ehtimol, Fransua Keller, kutaverib komissarning sabr kosasi to'lib ketdi, deb o'ylagandir? Shundanmi, sohilda to'xtab turgan «Zvaarte Zvaan»ga judayam o'xshaydigan Belgiya barjasiga qarab turib:

- Bularga maza-da, — dedi.

So'ng kema sahnida o'ynab yurgan ikki bolakayga ishora qildi:

- Ayniqsa anovilarga...

Megre uning ko'zlariga qattiq tikildi: hozir yana bir narsa deydi.

- Ammo yashash oson emas, — davom etdi daydi.
- O'lish ham.
- Lekin bu bilan hech kimning ishi yo'q.

Ular bir-birlarini tushunishdi.

— Rahmat sizga, — dedi komissar. Nihoyat u bilmoqchi bo'lgan narsasini bilib olgandi.

— Nega endi? Men sizga hech narsa deganim yo'qku. — So'ng flamandiyalikka o'xshatib: — To'g'rimi? — deb qo'ydi.

Rostdan ham u hech narsa degani yo'q. Sudlashishdan bosh tortdi. Guvohlik berishni xohlama-di.

Shunga qaramay, bir kuni nonushta qilib o'tirganlarida Megre xotinidan so'rab qoldi:

— Ho' anavi barja bilan daydi voqeasi yodingdami?

— Albatta. Biror yangilik bormi?

— Men yanglishmagan ekanman.

— Hibsga oldingmi uni?

Megre bosh chayqadi.

— Yo'q! Flamandiyalik yana biror ishkal chiqazmanguncha hibsga olib bo'lmaydi. Lekin endi bunday bo'lishi qiyin, uni hibsga olib bo'lmaydi.

— Tabib biror nima dedimi?

— Ma'lum ma'noda — aytdi...

Er-xotin bir-birlarini so'zsiz tushunishdi. Megre Keller bilan ko'prik ostidagi oxirgi suhbatini eslab, miyig'ida kulib qo'ydi.

## MUNDARIJA

|   |     |
|---|-----|
| Izquvarning izidan ( <i>So'zboshi</i> ) . . . . . | 5   |
| «Majestik» mehmonxonasidagi qotillik . . . . .    | 13  |
| Megre va vinofurush . . . . .                     | 151 |
| Megre va daydi . . . . .                          | 285 |



# **Bolalar va o‘smirlar adabiyoti**

## **«Jahon sarguzasht adabiyoti»**

JORJ SIMENON

**KOMISSAR MEGRE**

*Romanlar*

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent — 2019

Muharrir *Barnobek Eshpo‘latov*  
Badiiy muharrir *Bahrom Bobojonov*  
Texnik muharrir *Nodir Mirzayev*  
Sahifalovchi *Mastura Atxamova*  
Musahhah *Ma‘mura Ziyamuhamedova*

**Nashr litsenziyasi AI № 208, 28.08.2011-yil**

Bosishga ruxsat etildi 11.12.2018. Bichimi 84x108<sup>1</sup>/<sub>32</sub>. «Virtec Times Uz» garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma tabog‘i 21,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 19,6. Adadi 3000 nusxa. Buyurtma № 372. Bahosi kelishilgan narxda.

**«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
10000, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.**



ISBN 978-9943-26-472-4



9 789943 264724